



Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

**MUASSISLAR:** Beruniy tuman hokimligi

“Tafakkur-tamaddun” OOO

“Beruniy avlodlari” jamoat fondi

**HAMKORLARIMIZ:**

O‘zRFA Qoraqalpog‘iston bo‘limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

**TAHRIR HAY‘ATI:**

**BOSH MUHARRIR:**

Munavvara KURBANBAYEVA

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**

Anvar ALLAMBERGENOV

**BO‘LIM MUHARRIRI:**

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD) (Hindiston)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zabixulla SAIPOV, s.f.n., (PhD)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig‘ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, t. f.d, prof. (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Gavhar DURDIYEVA, arx.f.d., prof.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Konul Bunyadzoda, falsafa fanlari doktoru,

(AMEA) muxbir uzvu (Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Zarifboy DO‘SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n. ( Rossiya Federatsiyasi)

Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)

Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n, dotsent

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n, dots (PhD)

Azamat PRIMOV, fil.f.n, dots (PhD)

Vahob RAHMONOV, f.f.n., dots

Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)

Qozoqboy YO‘LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

G‘ayrat MAMBETKADIROV, s.f.d.

Rana Hamid qizi Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Qosimboy QABULOV, psixol.f.d., (DSc)

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O‘rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

**Adabiy maslahatchi:**

Guliston MATYOQUBOVA

**Rassom:**

Alibek ABDURAHMONOV

**Sahifalovchi-bezovchi:** G‘iyosiddin O‘NAROV

**Manzilimiz:** Qoraqalpog‘iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: [tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com).

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog‘oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog‘i 6,5.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2024-yil 30-oktabrda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko‘chasi, 28-uy. 2024-yil,

10-son (61).

**Ushbu son** “Tamaddun nuri” jurnali tahririyatining

kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №25.

Jurnaldan ko‘chirib bosilganda “Tamaddun nuri” dan olindi deb

izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma‘lumotlarning

to‘g‘riligi uchun mualliflar mas‘uldir. Tahririyatga kelgan

qo‘lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga

qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar

bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va

mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ‘ib qilishga yordam

beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri"

jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola

berish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.



Crossref DOI

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a‘zosi hisoblanadi va

10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy

maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.

BIZNI IJTIMOY TARMOQLARDA QUIYDAGI MANZILLARDA KUZATING:





Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

**Founders:** Beruniy District Municipality

"Tafakkur-tamaddun" OOO

Public Foundation "Descendants of Berunius"

**Our colleagues:** Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division

Karakalpak State University

Urgench State University

**EDITORIAL BOARD:**

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Munavvara KURBANBAEVA

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Anvar ALLAMBERGENOV

**SECTION EDITOR:**

Mukaddas KURBANBAEVA

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.

Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof.(Turkiya)

Roman GOPAL, phil.sc.n. (India)

Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)

Zabikhulla SAIPOV, s.sc.n., (PhD)

Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)

Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, ist. sc.d, prof (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, ist.sc.d, dots.

Gavkhar DURDIYEVA, arch.f.d., prof.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy, (Ozarbayjon)

Azerbaijan National Academy of Sciences

(AMEA) Corresponding Member (Ozarbayjon)

Bakhtiyar KARIMOV, phil.sc.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, phil.sc.d.

Alima BERDIMURODOVA, phil.sc.d.

Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova , f.sc.d., prof.(Ozarbayjon)

Nasibullina Nurida Shaydullovna, can. of phil ( Russiya)

Daniyor YULDASHEV, Phil.sc.d (DSc)

Sayyora SAMANDAROVA, associate professor, can.of phil.

Bekpochsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)

Azamat PRIMOV, can. of phil.sc, dots (PhD)

Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.

Farrux Abbas oglu Rüstamov, p.sc.d, prof. (Ozarbayjon)

Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.

Safo MATJONOV, p.sc.d., prof.

Qakhraman IBADULLAYEV, p.sc.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, of art.sc.c., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, phil.sc..d., (PhD)

Gayrat MAMBETKADIROV, s.sc.d.

Rana Hamid qizi Qadirova, Psychol.sc.d., prof(Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, Psychol.sc.d., (DSc)

Dilafuz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)

Qosimboy KABULOV, Psychol.scd., (DSc)

**COMMUNITY COUNCIL:**

Sirojiddin SAYID

Muhammad Ali

Kengesboy KARIMOV

Iqbal MIRZA

Kurban SHONIAZOV

Orozboy ABDURAHMANOV

Muratboy JUMANOV

**Literary Advisor:**

Gulistan MATYOQUBOVA

**Painter:**

Alibek ABDURAHMANOV

**Page editor:**

Ghiyaziddin O'NAROV

Our address: Republic of Karakalpakstan, Beruni district.

Website: <https://tamaddunnuri.uz>

e-mail: [tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com).

Telegram channel: <https://t.me/tamaddunnuri>

Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.



"Tamaddun nuri " magazine is

indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale.

Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal "Tamaddun nuri".



Crossref DOI

The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number.

Paper size 60x84 1/8. Publisher's scoreboard 6.5. The index is 960. ISSN 2181-8258.

It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.

Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2024, No.10 (61).

This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #25. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.

FOLLOW US ON SOCIAL MEDIA BELOW:





## MUNDARIJA

### 07.00.00 - "TARIX"

<b>Vaxidov Suxrobjon Olimjonovich.</b> Mustaqillik yillarida madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydalanish masalalari.....	9
<b>Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich.</b> Yangi O'zbekistonda temir yo'l transporti sohasidagi islohotlarning Surxondaryo viloyati bo'yicha natijalari.....	12
<b>Tursunov Bexzodbek Vaxodirovich.</b> O'zbekistonda tarjimonlar tayyorlash tarixi va tarjimashunoslikka yangicha yondashuv.....	15
<b>Sуюнов Самаритдин Саматович.</b> Қарши сардобалари тўғрисида янги маълумотлар.....	25
<b>Аскарлов Оллаберган Икром ў.</b> Шимолий Бақтриянинг сўнги бронза ва илк темир даври палеоботаник материаллари қиёсий таҳлили..	30
<b>Abuyev Husan Odilovich.</b> Jadid namoyondalari merosining bugungi kundagi ahamiyati.....	46
<b>Normurodov Mahmud.</b> Al-Hakim At-Termiziyning "Haj va uning sirlari" asari tarixiy manba sifatida.....	49
<b>Matyakubov Xamdani Xamidjanovich.</b> Xorazm vohasi urug'chilik tuzumini o'rganishning nazariy jihatlarini.....	95
<b>Xudayberganov San'at Sanjarovich.</b> Ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik (Xorazm viloyati misolida).....	99
<b>Qandov Bahodir Mirzayevich.</b> Atoqli davlat va jamoat arbobi Turor Risqulovning Turkiston iqtisodiyotining integratsiyalashuvi sohasidagi tashabbuslari.....	103
<b>Radjabov Ozodbek.</b> TRASEKA loyihasi va uning dastlabki faoliyati.....	123
<b>Матякубов Шоназар Собирович.</b> Освещение реалий Хивинского ханства и ханов XIX века в исторических трудах Агахи.....	131
<b>Shadmanova Sanobar, Boysariyeva Soxiba.</b> Vuxoro amirligida tibbiyot va xotin-qizlar sog'ligini saqlash masalalari (XIX a. oxiri – XX a. boshlari)	135
<b>Oxunjonova Shaxodat Yusubjon qizi.</b> 1991-2024-yillarda Markaziy Osiyo bozorlarida ayol va erkak savdogarlar vazifalari xususida.....	152
<b>Нишанбаева Энажон Зарипбаевна.</b> Янги Ўзбекистонда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича ижтимоий шерикликнинг ҳуқуқий асослари.....	159
<b>Айтмуратова Жанылсын Жалгасовна.</b> Профессор Қалли Айимбетов асарларида миллий маданиятимиз зиёлилари хизматининг тадқиқ этилиши.....	164
<b>Jumaniyazova Firuza Jumanazarovna.</b> Ikkinchi jahon urushi arafasida Xorazm ayollarining ijtimoiy - madaniy hayotda tutgan o'rni.....	174
<b>Sadullayev Bahrom Pulatovich, Matqurbanov Fayzulla Rajabovich.</b> Arxeologik tadqiqotlarda ilg'or texnologiyalardan foydalanish hamda 3d modellashtirish.....	177
<b>Najmiddinov Qodirjon Murodjon o'g'li.</b> O'zbekiston SSR da ijtimoiy turmushning aholi salomatligiga ta'siri.....	210
<b>Ro'ziyeva Mashxura Abdimo'minovna.</b> Surxon vohasi lo'lilari ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlari.....	230
<b>Садуллаев Бахрам Пулатович.</b> Хива шаҳар Дешон қалъа ҳудудида ер ости сув тизими қурилмаларига доир мулоҳазалар.....	244
<b>Мухиддин Чориев.</b> Умар Термизий "Ихлос китоби"нинг ислом илм-фан ривожига даги ўрни.....	258
<b>Хожаниязова Гулшана Муратбаевна, Юлматов Ширмурод Ахмедович.</b> Ўзаро ёрдам аъъанаси чет эл олимлари тадқиқотларида.....	261
<b>Xasanov Mardon Maqsudovich.</b> Xorazmning Islom davri tarixiga oid manbalar tavsifi.....	265
<b>Salayev Umrbek.</b> Amudaryo o'ng sohili hududida neolit davri manzilgohlari tarixi xususida.....	283
<b>Komolov Dilshod Pulatovich.</b> O'zbekiston SSRda xalq sudlari tomonidan mehnat resurslarining qatag'on qilinishi.....	307

Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan 2019-yil 30-yanvarda chop etilgan OAK rayosati qarorlari bilan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra 07.00.00 - "Tarix", 09.00.00 - "Falsafa", 10.00.00 - "Filologiya" ixtisosligi bo'yicha; OAK Rayosatining 2023-yil 31-oktyabrdagi 345-son qarori bilan 12.00.00 - "Yuridik fanlar", 13.00.00 - "Pedagogika", 19.00.00 - "Psixologiya" ixtisosliklari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

## 09.00.00 - "FALSAFA"

<b>Xayridinov Abbosxon Anvarovich.</b> O'zbekiston yoshlarida "Ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetda milliy qadriyatlarining strategik o'rni va ahamiyati.....	39
<b>Uralov Dilshodbek.</b> Ibn Sinoning falsafiy qissalarida axloqiylik me'zonlarining badiiy obrazlar orqali ifodalanishi.....	70
<b>Jumayev Aslam Hazratovich.</b> Bahouddin Naqshband g'oyalari mehnat konsepsiyasiva uning falsafiy tahlili.....	83
<b>Boydadayev Abdurrohmon Tolibjon o'g'li.</b> Shri Aurobindo Gxosh va Jaloliddin Rumi falsafasida ong tasavvurlarining komparativistik tahlili.....	86
<b>Qilichev Feruzbek To'ychi o'g'li.</b> Ekologik madaniyat va diniy qadriyatlarining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi.....	107
<b>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich.</b> Barqarorlik transformatsiyasi: inson kapitalini rivojlantirish orqali jamiyat farovonligini ta'minlash masalalari.....	111
<b>Madalimov Timur Abduvaliyevich.</b> Falsafada o'lim haqidagi tasavvurlarning shakllanish evolyutsiyasi.....	115
<b>Toshov Xurshid Ilxomovich.</b> Miflar yordamida ongni manipulyatsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari.....	142
<b>Babajanov Sarvarbek Bekpulatovich.</b> Sharq va g'arb mutafakkirlari qarashlarida jamoatchilik nazorati tushunchasi va uning bugungi kun amaliyotidagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati.....	167
<b>Xolikov Yuldosh To'ychiyevich.</b> Mafkura va mafkuraviy immunitetning jamiyat hayotida tutgan o'rni.....	185
<b>Tursunova Shahnoza Bekchanovna.</b> Mamlakatimizning yangi bosqichida mediyamarkazlar operativligini oshirish.....	215
<b>Ergashev Urolbek Berkinovich.</b> Ahmad Toshko'prizodaning "So'z ilmi" tasnifi.....	220
<b>Temirov Ibrohimjon Qobiljonovich.</b> Abu Iso Termiziy ma'naviy merosining islom ilm-fan rivojidagi o'rni.....	236

## 10.00.00 - "FILOLOGIYA"

<b>Ruzmetov Surojбек Аллаберганович.</b> О некоторых функциях заимствований в речи представителей старшего поколения.....	34
<b>Chorieva Iroda Kurbonboevna.</b> Tibbiy leksika asosida shakllangan ingliz va o'zbek maqollarida metafora va metonimiya.....	67
<b>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi.</b> Ingliz va o'zbek tilida "mehmondo'stlik"ga oid maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari.....	74
<b>Xakimova Xalima Rinatovna.</b> Вopросу о словообразовательных возможностях глосс в текстах исторических романов М.И.Шеввердина,91	
<b>Самандарова Сайёра, Умид Бекмухаммад.</b> Хоразм жадидларининг адабий мероси.....	126
<b>Xaitova Gulhayo Tovasharova.</b> Ingliz va o'zbek tillarida "yaqin-uzoq" orpozitsiyasining leksik-semantik tahlili.....	139
<b>Мангитбаева Зайфун Узакбаевна.</b> Қорақалпоқ тилидаги кўп компонентли қўшма гапларнинг коммуникатив жиҳатлари.....	149
<b>Қутибаева Арайлим Бердибай қизи.</b> Қорақалпоқ қахрамонлик дostonлари тилида фольклор асарларига хос фразеологизмларнинг қўлланиши.....	156
<b>Abdullayeva Mastona Ashir qizi.</b> Go'ro'g'li dostonining o'zbek dostonchiligida o'rganilish tarixi.....	171
<b>Yakubov Faxriddin Jo'raqulovich.</b> Siyosiy diskursda konseptual metafora tahlili.....	193
<b>Ahmedova Halima.</b> Tilshunoslikda leksik va frazeologik birlik tushunchalarining roli.....	196
<b>Xasanova Kamila Bahtiyrovna.</b> Изучения этнографической лексики в узбекском языке.....	199
<b>Amonova Zilola Qodirovna, Voqiyev Azizbek Abdullajon o'g'li.</b> Saif Zafari Buxoriyning «Durrul majolis» asarida shayxlar talqini.....	202
<b>Choriyeva Iroda Kurbonboyevna.</b> Tibbiy leksika asosida shakllangan ingliz va o'zbek maqollarida metafora va metonimiya.....	207
<b>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi.</b> Dunyoning lisoniy manzarasida "smile/tabassum" tushunchalarining verballashuv vositalari (ingliz va o'zbek tillari misolida).....	223
<b>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna.</b> Sabr-toqat va chidamlilik tushunchalarining pragmatik talqini.....	227
<b>Tadjiyeva Mastura Fayzullayevna.</b> Ingliz va o'zbek tillarida "muhabbat" konseptli antropomorf metaforik modellar.....	233
<b>Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna.</b> Samarqand viloyati qarluq shevalarida kelishiklarning qo'llanilishi.....	239
<b>Abdullayeva Munojot Muxtorovna.</b> Chog'ishtirilayotgan tillarda gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarning asimmetrik va simmetrik xususiyatlari.....	251
<b>Шералиева Ширин Абдисаломовна.</b> Проблемы перевода фразеологических единиц в научном дискурсе.....	255
<b>Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li.</b> "To'nyuquq" bitiktoshida siyosiy yetakchi nutqining ifoda xususiyatlari.....	270
<b>Abdullaeva Munojot Muxtorovna.</b> Gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarning lingvokulturologik tasnifi.....	286
<b>Shokirova Maxbubaxon.</b> Milliy sport turlarining shakllanishini ifodalovchi leksik birliklar.....	292
<b>Jo'raxolova Bahora Qurbanboyevna.</b> Maqollar tadqiqining lingvokognitiv aspekti.....	296
<b>Abbasova Gulnare Xaliq qizi.</b> Paradokslar voqif bayatli oder she'riyatining asosiy intellektual-badiiy xususiyatlaridan biri sifatida.....	313
<b>Ergashova Sadoqat.</b> Shoir she'riyatida folklor an'analari.....	318

### 13.00.00 – “PEDAGOGIKA”

<b>Xalmuratova Jumagul Gaybullayevna.</b> Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini integratsiyalash ijtimoiy zaruriyati.....	21
<b>Игамбердиев Обиджон Рубдулла ўғли.</b> Контрольные тестирование футболистов 11-13 лет на многолетних подготовительных этапах (на примере стартовой скорости).....	52
<b>Norboyev Zafar Abdumo’minovich.</b> Filologik yo’nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida yangi avlod darsliklari va ularga qo’yilgan talablar.....	80
<b>Yuldasheva Gavxaroy O’rinboy qizi.</b> Bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik refleksiylash qobiliyatini rivojlantirishda didaktik va metodik yondashuvlar.....	181
<b>Urazboyeva Sabohat Ortiqboyevna.</b> 3 - 4 – sinflarda badiiy matn ustida ishlash metodikasi.....	190
<b>Jumaniyazova Go’zal Baxorovna.</b> Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini interdissiplinar yondashuv bilan tayyorlash (o’qish savodxonligi va tabiiy fanlar talqinida).....	273
<b>Sabirova Charosxon Atamamatovna, Ismoilova Shahzoda Nurali qizi.</b> Chaqimchilikning talabalar ruhiy- ma’naviy tarbiyasiga ta’siri.....	277
<b>Ukibaeva Sanimxan Toymagambetovna.</b> Boshlang’ich sinf o’quvchilarida xxi asr ko’nikmalarini shakllantirishning afzalliklari.....	280
<b>Bekberganova Nazokat Oybek qizi.</b> Boshlang’ich sinf o’quvchilarida kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning bugungi kundagi holati.....	302

### 19.00.00 – “PSIXOLOGIYA”

<b>Djumaniyozova Muxayya Xusinovna.</b> Talabalar o’quv motivatsiyasi va qadriyatlar sohasining o’zaro bog’liqlik jihatlari.....	58
<b>Ilmira Jumaniyazova Kamiljanovna.</b> Perfeksionizmning muvaffaqiyat va shaxsiy rivojlanishga ta’siri.....	63
<b>Muratova Fotima Normaxmat qizi.</b> Talaba shaxsi pozitsiyasi rivojlanishi va namoyon bo’lishi xususiyatlari.....	119

### 23.00.00 - “SIYOSATSHUNOSLIK”

<b>Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna.</b> Temuriylar davri mutafakkirlari konsepsiyalarida “Fuqarolik jamiyati” tushunchasi.....	310
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----



## TABLE OF CONTENTS

### 07.00.00 - "HISTORY"

<b>Vakhidov Sukhrobjon Olimjonovich.</b> Problems of preservation and use of cultural heritage objects during the years of independence.....	9
<b>Xudayberdiev Utkir Tashmuradovich.</b> Results of the railway transport reform in the new Uzbekistan in the Surkhandarya region.....	12
<b>Tursunov Bekhzodbek Bakhodirovich.</b> History of training of translators in Uzbekistan and a new approach to translation.....	15
<b>Suyunov Samaritdin Samatovich.</b> New information about Karshi Sardob.....	25
<b>Askarov Ollabergan Ikrom ugli.</b> Comparative analysis of paleobotanical materials from the late bronze and early iron ages of northern Bactria...30	
<b>Abuev Khusan Odilovich.</b> The importance of the legacy of jadid manifestations in today's era.....	46
<b>Mahmud Normurodov.</b> The work of Al-Hakim At-Termizi "Hajj and its secrets" as a historical source.....	49
<b>Matyakubov Khamdam Khamidjanovich.</b> Theoretical aspects of the study of the fertility system of the Khorazm oasis.....	95
<b>Khudaiberganov Sanat Sanjarovich.</b> International cooperation in the development of education and science (in the case of Khorezm region).....	99
<b>Kandov Bakhadir Mirzaevich.</b> Initiatives of the famous statesman and public figure Turor Riskulov in the sphere of integration of the economy of Turkestan.....	103
<b>Radjabov Ozodbek.</b> TRACEKA project and its activities.....	123
<b>Matyakubov Shonazar Sobirovich.</b> Covering the realities of the Khiva khanate and the khans of the XIX century in the historical works of Agakhi.....	131
<b>Shadmanova Sanobar, Boysarieva Sokhiba.</b> Issues of medicine and women's health in the emirate of bukhara (end of the 19th - beginning of the 20th century).....	135
<b>Shakhodat Okhunjonova Yusubjon kizi.</b> 1991-2024 in Central Asian markets on women and men traders' duties.....	151
<b>Nishanbaeva Enajon Zaripbaevna.</b> Legal basis of social partnership for the protection of human rights in the New Uzbekistan.....	159
<b>Aytmuratova Janylsyn Jalgasovna.</b> Professor Kalli Ayimbetov's works on the study of the contribution of our national intellectuals.....	164
<b>Jumaniyazova Firuza Jumanazarovna.</b> The role of Khorazm women in social and cultural life on the eve of the second world war.....	174
<b>Sadullaev Bakhram Pulatovich, Matqurbanov Fayzulla Rajabovich.</b> The use of advanced technologies and 3d modeling in archaeological r.....	177
<b>Najmiddinov Kadirjon Murodjon o'g'li.</b> The influence of social life on the health of the population in the Uzbekistan SSR.....	210
<b>Ruzieva Mashhura Abdimuminovna.</b> Features of the social life of the gypsies of the Surkhan oasis.....	230
<b>Sadullaev Bakhram Pulatovich.</b> Reflections on underground water supply structures in the Dishan-kala area of Khiva.....	244
<b>Muhiddin Choriev.</b> The place of Umar Termizi's book "Ikhlos" in the development of islamic science.....	258
<b>Khojaniyazova Gulshana Muratbaevna, Yulmatov Shirmurad Axmedovich.</b> Tradition of mutual assistance in research by foreign scientists.....	261
<b>Khasanov Mardon Maksudovich.</b> Description of sources on the history of the Islamic period of Khorazm.....	265
<b>Salaev Umrbek.</b> On the history of neolithic period residences on the amudarya right coast area.....	283
<b>Komolov Dilshod Pulatovich.</b> Repression of labor resources by the people's courts in the Uzbek SSR.....	307

The magazine was re-registered by the Press and Information Agency of the Republic of Uzbekistan on September 28, 2016 with the number 0843.

According to the list approved by the decisions of the Board of Education of the Republic of Uzbekistan published on January 30, 2019, 07.00.00 - "History", 09.00.00 - "Philosophy", 10.00.00 - "Philology" according to; 2023 of the HAC Board According to the decision No. 345 of October 31, 12.00.00. - "Legal Sciences", 13.00.00. - "Pedagogy", 19.00.00. "Psychology".

## 09.00.00 - "PHILOSOPHY"

<b>Hayridinov Abboskhon Anvarovich.</b> The strategic role and importance of national values in building immunity against "Mass culture" among uzbek youth.....	39
<b>Uralov Dilshodbek.</b> Expression of moral criteria in Ibn Sina's philosophical stories through artistic images.....	70
<b>Jumaev Aslam Khazratovich.</b> The concept of labor and its philosophical analysis in bahouddin naqshband's ideas.....	83
<b>Boydadaev Abdurrokhmon Tolibjon ugli.</b> Comparative analysis of the concepts of consciousness in the philosophy of sri Aurobindo Ghosh wa Jalaliddin Rumi.....	86
<b>Kilichev Feruzbek Toychi o'g'li.</b> Sociocultural transformation of ecological culture and religious values.....	107
<b>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich.</b> Sustainability transformation: issues for ensuring societal well-being through human capital developmen.....	111
<b>Madalimov Timur Abduvalievich.</b> Evolution of the formation of ideas about death in philosophy.....	115
<b>Tashov Khurshid Ilkhomovich.</b> Characteristics of mind manipulation through myths.....	142
<b>Babajanov Sarvarbek Bekpulatovich.</b> The concept of public control in the views of eastern and western scientists and its socio-philosophical significance in modern practice.....	167
<b>Holikov Yuldash Tuychievich.</b> The role of ideology and ideological immunity in the life of society.....	185
<b>Tursunova Shahnoza Bekchanovna.</b> Increasing the operability of media centers in the new stage of our country.....	215
<b>Ergashev Urolbek Berkinovich.</b> Ahmad Toshkoprizoda's "Science of words" classification.....	220
<b>Temirov Ibrahimjon Kabiljonovich.</b> The place of the spiritual heritage of abu isa termizi in the development of islamic science.....	236

## 10.00.00 - "PHILOLOGY"

<b>Ruzmetov Surozhbek Allaberganovich.</b> On some functions of borrowings in the speech of representatives of the older generation.....	34
<b>Chorieva Iroda Kurbanboevna.</b> Metaphor and metonymy in english and uzbek proverbs formed on the basis of medical lexicon.....	67
<b>Najmiddinova Mehrgul Najmiddin qizi.</b> Linguoculturalogical features of proverbs on "hospitality" in english and uzbek.....	74
<b>Khakimova Khalima Rinatovna.</b> To the question of word-forming possibilities of gloss in the texts of historical novels by M.I.Sheverdin.....	91
<b>Samandarova Sayyora, Umid Bekmuhammad.</b> Literary heritage of khorezm moderns.....	126
<b>Haitova Gulhayo Tovasharovna.</b> Lexical-semantic analysis of the "near-far" opposition in english and uzbek languages.....	139
<b>Mangitbaeva Zayfun Uzakbaevna.</b> Theoretical foundations of the study of multicomponent complex sentences.....	149
<b>Qutibaeva Araylim Berdibaevna.</b> The use of phraseological units characteristic of folklore works in the language of the karakalpak heroic epic.....	156
<b>Abdullaeva Mastona Ashir kizi.</b> The history of study of Gorogli epic in uzbek epic.....	171
<b>Yakubov Fakhriddin Jurakulovich.</b> Analasys of conceptual metaphor in political discourse.....	193
<b>Ahmedova Halima.</b> The role of lexical and phraseological unit concepts in linguistics.....	196
<b>Khasanova Kamila Bakhtiyorovna.</b> Studying ethnographic vocabulary in the uzbek language.....	199
<b>Amonova Zilola Qodirovna, Boqiev Azizbek Abdullajon ugli.</b> The interpretation of the shaikhs in «Durrul majolis» by Saif Zafari Bukhary.....	202
<b>Chorieva Iroda Kurbanboevna.</b> Metaphor and metonymy in english and uzbek proverbs formed on the basis of medical lexicon.....	207
<b>Juraeva Nilufar Sobirjon qizi.</b> Verbalization tools of the concepts of "smile/tabassum" in the linguistic landscape of the world (on the example of english and uzbek languages).....	223
<b>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna.</b> Pragmatic interpretation of the concepts of patience and endurance.....	227
<b>Tadjieva Mastura Fayzullaevna.</b> Anthropomorphic metaphorical models with the concept of "love" in english and uzbek.....	233
<b>Tillabaeva Zilola Rakhmatillaevna.</b> Use of conjugations in karluk dialects of Samarkand region.....	239
<b>Abdullaeva Munojot Mukhtorovna.</b> Asymmetrical and symmetric characteristics of proverbs expressing gender relations in languages of different systems.....	251
<b>Sheralieva Shirin Abdisalomovna.</b> Translation problems of phraseological units in scientific discourse.....	255
<b>Ruziyev Elbek Ural ugli.</b> Characteristics of expression of the political leader's speech in "Tonyukuk".....	270
<b>Abdullaeva Munojot Mukhtorovna.</b> Linguocultural classification of proverbs expressing gender relations.....	286
<b>Shokirova Mahbubahon.</b> Lexical units representing manifestations of national sports.....	292
<b>Jurakholova Bahora Kurbanbaevna.</b> The linguocognitive aspects of proverb research.....	296
<b>Abbasova Gulnare Xaliq qizi.</b> The basic intellectual of vagif bayatli oder's poetryparadoxes as one of his artistic characteristics.....	313
<b>Ergashova Sadoqat.</b> Folklore traditions in the poet's poetry.....	318

### 13.00.00. - "PEDAGOGY"

<b>Khalmuratova Jumagul Gaybullaevna.</b> Social need for integration of specialists in higher education institutions.....	21
<b>Igamberdiev Obidjon Rubdulla o'g'li.</b> Conducting control tests of 11-13-year-old football players in multi-year training stages (for example, starting speed).....	52
<b>Norboev Zafar A.</b> New generation textbooks in higher education institutions in the philological field and requirements for them.....	80
<b>Yuldasheva Gavkharoy Orinboy qizi.</b> Didactic and methodological approaches to the development of pedagogical reflection ability of future teachers.....	181
<b>Urazboeva Sabohat Artikboyevna.</b> Methodology of working on artistic text in 3-4 grades.....	190
<b>Jumaniyazova Gozal Bakhorovna.</b> Preparing future primary teachers with an interdisciplinary approach (in the interpretation of reading literacy and natural sciences).....	273
<b>Sabirova Charoskhan Atamamatovna, Ismailova Shahzoda Nurali qizi.</b> The influence of characteristics on the spiritual education of students.....	277
<b>Ukibaeva Sanimkhan Toymagambetovna.</b> Advantages of forming 21st century skills in primary class students.....	280
<b>Bekberganova Nazokat Oybek qizi.</b> The current state of the development of communicative speech in primary class students through media technologies	

### 19.00.00. -"PSYCHOLOGY"

<b>Djumaniyazova Mukhiya Khusinovna.</b> Aspects of interdependence of students' academic motivation and values.....	58
<b>Ilmira Jumaniyazova Kamiljanovna.</b> The effect of perfectionism on success and personal development.....	63
<b>Muratova Fatima Normakhmat qizi.</b> Features of the development and manifestation of the position of the student personality.....	119

### 23.00.00 -"POLITICAL SCIENCE"

<b>Kurbanbaeva Munavvara Kozibaevna.</b> The concept of "civil society" in the concepts of thinkers of the Temurian period.....	310
---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----



## MUSTAQILLIK YILLARIDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINI SAQLASH VA ULARDAN FOYDALANISH MASALALARI

Vaxidov Suxrobjon Olimjonovich, Turizmni rivojlantirish  
ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

## PROBLEMS OF PRESERVATION AND USE OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Vakhidov Sukhrobjon Olimjonovich, Research Institute of  
Tourism Development

## ВОПРОСЫ СОХРАНЕНИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБЪЕКТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Вахидов Сухробжон Олимжонович, докторант Научно-  
исследовательского института “Развития туризма”



<https://orcid.org/0009-0004-7362-3740>

e-mail:

[vaxidovsuxrobjon@gmail.com](mailto:vaxidovsuxrobjon@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada mustaqillik yillarida madaniy meros obyektlarini saqlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, moddiy-madaniy yodgorliklarni asrab avaylash va uning tarkibiy qismlari to'liq yoritilgan. Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishning afzalliklari, turizm salohiyati va uning imkoniyatlari haqida ham keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** YUNESKO, moddiy-madaniy yodgorliklar, ziyorat turizmi, diniy turizm, atamalar, qadimiy yodgorliklar, muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh, ichki turizm.

**Abstract:** In the article, the reforms in the preservation of cultural heritage objects, preservation of material and cultural monuments and its components are fully covered in the years of independence. The benefits of developing the tourism industry in our country, the potential of tourism and its opportunities have also been widely covered.

**Key words:** UNESCO, material and cultural monuments, pilgrimage tourism, religious tourism, terms, ancient monuments, holy places, shrine, domestic tourism.

**Аннотация:** В статье полностью освещены реформы в сфере охраны объектов культурного наследия, охраны материальных и культурных памятников и ее составляющих в годы независимости. Также широко освещены преимущества развития туристической отрасли в нашей стране, потенциал туризма и его возможности.

**Ключевые слова:** ЮНЕСКО, материальные и культурные памятники, паломнический туризм, религиозный туризм, термины, памятники древности, святые места, святыни, внутренний туризм.

**KIRISH.** O'zbekistonda 2021-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra moddiy madaniy meros obyektlari soni 8 ming 208 tani tashkil etgan. Ba'zi manbalarda keltirilishicha, “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari

hisoblangan YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga: “Boysun madaniy muhiti”, “Shashmaqom musiqasi”, “Navro'z”, “Katta ashula”, “Askiya”, “Palov madaniyati va an'analari” va shuningdek, insoniyat nomoddiy madaniy merosi

representativ ro'yxatiga Usmon Qur'oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar to'plami hamda Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari jahon xotirasi ro'yxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida e'tirof etilganiga yaqqol misol bo'la oladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Madaniy meros obyektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida davlat organlari va tashkilotlari samarali tashkil etilgan bo'lib, bu borada "Ijro.gov.uz" elektron tizimi qo'l kelmoqda.

Madaniy meros himoya qilish inspeksiyasi tomonidan olib borilgan muvofiqlashtirish ishlari natijasida ijro intizomi holati bo'yicha o'tgan davrda Prezidentimizning 4ta farmoni, 16ta qarori, 1ta farmoyishi va 11ta bayoni doirasida berilgan jami 536ta topshiriqning 114 tasi o'z vaqtida bajarilgan bo'lsa, 422 tasining ijrosi bo'yicha ishlar olib borilmoqda[1].

Buning yaqqol isboti sifatida "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekistonda "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi hamda "Muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh, masjid va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimizning 2020-yil dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori, 2021-yil 24-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori" e'lon qilinib, unga ko'ra ziyorat turizmini rivojlantirishni muvofiqlashtirish respublika kengashi tuzildi[2].

Bu ijro ishlaridan har birining zamirida qadim tariximizga borib taqaladigan, buyuk ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan madaniy meros obyektlari muhofazasi yotibdi. Albatta, madaniy meros sohasidagi qonunlar, Prezident farmonlari va

hukumat qarorlarida belgilangan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish, ijro intizomini yanada mustahkamlash, shaxsiy mas'uliyat va tashabbuskorlikni oshirish ishlari izchil davom ettiriladi.

**MUHOKAMA.** Keyingi yillarda mamlakatimizda madaniy meros sohasida Xitoy bilan hamkorlik keng amalga oshirilmoqda. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan ikki muhim sivilizatsiya sifatida O'zbekiston va Xitoy boy madaniy merosga egadir. O'zbekiston va Xitoy xalqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari qadimgi Ipak yo'li bo'ylab uzoq tarixga borib taqaladi. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda madaniy merosni muhofaza qilish sohasidagi almashinuv va o'zaro hamkorligimiz "Bir makon - bir yo'l" qo'shma bunyodkorlik loyihasi doirasida ham muttasil chuqurlashib bu boradagi qamrov ham kengayib bormoqda [3].

Xiva shahrida jahon madaniy merosi obyektlarini muhofaza qilish va qayta tiklash borasidagi Xitoy bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar allaqachon yuksak samaralar berdi. Ikki mamlakat olimlarining o'rganishlari natijasida Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi ilmiy izlanishlar va madaniy meros obyektlarini tadqiq qilishda katta muvaffaqiyatlarga erishildi.

YUNESKO bilan yaqin hamkorlikda moddiy va nomoddiy meros obyektlarini asrashga doir turli xalqaro anjumanlar tashkil qilinmoqda. Mazkur tadbirlar madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish yo'lidagi dolzarb muammolarni ko'rib chiqish, xalqaro tajribani o'rganish, tarixiy-madaniy meros saqlanishini ta'minlashga doir milliy tizimni takomillashtirish, bu yo'nalishdagi davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini bermoqda.

**NATIJALAR.** Madaniy meros obyektlari restavratsiyasi direksiyasi va uning Buxoro, Shahrisabz, Samarqand, Termiz, Qo'qon, Xiva mintaqaviy markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida xalqaro standartlarga mos ta'lim tizimi yanada takomillashtirildi. Xususan, "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti etib qayta tashkil etildi. Universitet tarkibida Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Marg'ilon, Xiva turizm va madaniy meros texnikumlari hamda Restavratorlarni qayta o'qitish va malakasini oshirish markazi tashkil etildi.

Madaniy meros obyektlarini asrash sohasida Janubiy Koreya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Turkiya, Eron va Rossiya kabi mamlakatlar bilan dastlabki kelishuvlarga erishildi va memorandumlar imzolandi. Madaniy meros agentligi hamda uning hududiy boshqarmalari moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida 3,4 milliard so‘m ajratilib, ushbu tizim rivojiga sarflandi.

Davlat muzeylariga madaniy boyliklarni, jumladan, mustaqillik yillarida yaratilgan, yuksak badiiy qiymatga ega tasviriy va amaliy san‘at asarlarini xarid qilish uchun Madaniy meros agentligiga har yili 4 milliard so‘mdan hamda hududlardagi tegishli davlat muzeylariga 500 million so‘mdan mablag‘ ajratilishi yo‘lga qo‘yildi [4].

Dunyoda islomiy tamoyillarga muvofiq keluvchi turizm xizmatlari turlarining ko‘payishi va aholi daromadlarining ortishi turizm tarmog‘ida islomiy xususiyatlarga asoslangan turizmning ulushi yildan yilga ortishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, “2019-yilda dunyo bo‘ylab 160 mln musulmon sayyohlar tomonidan turizm xarajatlari uchun 155 mlrd dollar sarflangan bo‘lsa, 2023-yilda mazkur xarajatlar uchun 140 mln, musulmon turistlar tomonidan ushbu yilda 137 mlrd dollar mablag‘ sarflanishi prognoz qilinmoqda”[4]. Keyingi o‘n yillikda turizm ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyotining eng katta foyda keltiradigan va samarali tarmoqlaridan biri bo‘lishi, yangi ish o‘rinlari tashkil etishi hamda aholi turmush darajasining ortishiga xizmat qilishi bilan ahamiyat kasb etishi kutilmoqda.

O‘zbekistondagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo‘lgan “Kichik haj” dasturini shakllantirish va hududlarni 2019-2029-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turizmni rivojlantirish qismini ishlab chiqishda quyidagi masalalarni hisobga olish lozim, deb o‘ylaymiz:

- hududlarda madaniy meros obyektlarining mahalliy ro‘yxatlarini shakllantirish va doimiy yangilab borishini ta‘minlash;

- mahalliy hokimiyat va tegishli soha xodimlari bilan hamkorlikda mintaqalarda joylashgan tarixiy obida va yodgorliklarga olib boruvchi infratuzilmani shakllantirish maqsadida ularning elektron xaritalari, pasport va kadastr hujjatlarini tayyorlash;

- hududlarda joylashgan muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni turistik dasturlarga kiritish

choralarini ko‘rish, ushbu qadimiy yodgorliklar tarixi va u yerda saqlanib qolgan an‘anaviy madaniyatni keng targ‘ib etish;

- hududlardagi o‘rganilmagan tarixiy obida va yodgorliklarni turoperator va boshqa tegishli mutaxassislar bilan birgalikda tadqiq etish hamda ma‘lumotlar bazasini yaratish;

- turizm sohasidagi oliy o‘quv yurtlaridagi mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida hududlarda joylashgan tarixiy obida va yodgorliklar bilan yaqindan tanishtirish bo‘yicha amaliy darslarni tashkil qilish;

- turizm sohasining mazmun-mohiyati, uning ahamiyati, rivojlanishi natijalari, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalari bo‘yicha turli seminar-treninglar tashkil qilish va boshqalar.

**XULOSA.** Turizm rivoji, ilm-fan taraqqiyoti, shuningdek tarixiy-madaniy merosni asrash masalalariga tegishli bo‘lgan qonun hujjatlarini hayotga tatbiq etish faqat davlat organining vazifasi bo‘lib qolmoqda. Vaholanki, mamlakat qonunchiligiga doir huquqiy hujjatlar davlat boshqaruvining barcha pog‘onalari, xususan, mahalliy kengashlar va hokimliklar uchun ham bevosita taalluqlidir. Shunga ko‘ra, moddiy madaniy merosni saqlash va ta‘mirlashga oid muammolar hamda sohaga oid qonun hujjatlarining joylarda bajarilishini nazorat qilish hududiy kengash deputatlari tomonidan viloyat, shahar va tuman kengashlarining sessiyalarida o‘rganilishi va muhokamalardan o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Turizm bugungi kunda eng daromadli sohalardan biri sifatida tan olinmoqda. Shu jihatdan ko‘pchilik davlatlar tomonidan turizmni rivojlantirish borasida bir qancha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishda turizm sohasi ham katta imkoniyatlarga ega.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Abidova Z. Xorazm vohasi ziyoratgohlari va qadamjolari. Tarix fani bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiya. – Toshkent, 2018.
2. Abriyev R. O‘zbekistonda toat-ibodat bilan bog‘liq arxitektura yodgorliklari xususida // Imom al-Buxoriy saboqlari. 2015.
3. Dumper, Michael. Cities of the Middle East and North Africa: A Historical Encyclopedia (en). ABC-CLIO, 2007. –P. 203.
4. [https://www.uz.wikipedia.org/wiki/Sunniy\\_i\\_slomdagi\\_eng\\_muqaddas\\_joylar](https://www.uz.wikipedia.org/wiki/Sunniy_i_slomdagi_eng_muqaddas_joylar)

## YANGI O‘ZBEKISTONDA TEMIR YO‘L TRANSPORTI SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING SURXONDARYO VILOYATI BO‘YICHA NATIJALARI

Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

## ИТОГИ РЕФОРМЫ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Худайбердиев Уткир Ташмурадович, Термезский университет экономики и сервиса

## RESULTS OF THE RAILWAY TRANSPORT REFORM IN THE NEW UZBEKISTAN IN THE SURKHANDARYA REGION

Xudayberdiyev Utkir Tashmuradovich, Termiz University of Economics and Service

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda so‘nggi yillarda temiryo‘l sohasida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu islohotlarning natijalari Surxondaryo viloyati misolida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** temiryo‘l transporti, Surxondaryo, Yangi O‘zbekiston, iqtisodiyot, servis, vokzal.

**Abstract:** This article analyzes the reforms implemented in the railway industry of our country in recent years. It also highlights the results of these reforms using the example of the Surkhandarya region.

**Key words:** railway transport, Surkhandarya region, New Uzbekistan, economy, service, railway station.

**Аннотация:** В данной статье анализируются реформы, реализованные в железнодорожной отрасли нашей страны за последние годы. Также освещены результаты данных реформ на примере Сурхандарьинской области.

**Ключевые слова:** железнодорожный транспорт, Сурхандарьинская область, Новый Узбекистан, экономика, сервис, железнодорожная станция.

**KIRISH.** Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy natijalari temir yo‘l transporti rivoji va yanada yuksalishiga bog‘liq bo‘lib, jahon andozalariga mos zamonaviy temir yo‘l servisini joriy etish muhim davlat siyosatiga aylandi. Natijda, 2017-yildan boshlab Surxondaryo viloyati temir yo‘l xizmatida yangi loyihalarni sifatli amalga oshirish hamda tez xizmat qiluvchi sohalarga alohida e‘tibor qaratildi. Surxondaryo viloyatidagi temir yo‘l xizmatini mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatidagi

ahamiyatga to‘xtalgan O‘zbekiston Respublikasini birinchi Prezidenti Islom Karimov Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotiga a‘zo bo‘lgan davlatlar rahbarlarining IV uchrashuvida quyidagicha izohlagan edi: “Men yaqin kelajakda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotining savdo, transport, aloqa singari sohalardagi faoliyatining amaliy natijalarini ko‘ramiz, deb umid qilaman. Yangi taraqqiyot strategiyasi amalga oshirilayotgan hozirgi davrda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti transport tashkilotining bir qismi–biz uchun janubiy dengiz



<https://orcid.org/0009-0009-6588-2183>

e-mail:  
[xudoyberdiyev@mail.ru](mailto:xudoyberdiyev@mail.ru)

portlariga yo‘l ochib beradigan Markaziy Osiyo davlatlari bilan Eron o‘rtasidagi temir yo‘l tizimini birlashtiradigan Tajan–Saraxs–Mashhad– Bandar – Abbos temir yo‘l tarmog‘i qurilishi amalga oshirilgani quvonarli holdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Surxon vohasida temiryo‘l tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarda ushbu sohaning rivojlanish bosqichlari izchil yoritilgan. Jumladan, S.N.Tursunovning ilmiy asarlarida Surxondaryo hududida transport tizimi taraqqiyoti haqida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. S.N.Tursunov va E.O.Qobilovlarning voha tarixiga doir tadqiqotida Rossiya imperiyasining vohadagi mustamlakachilik siyosati, uning mahalliy boshqaruv tizimiga ko‘rsatgan ta’siri kabi masalalarga qaratilgan. H.Kichkilov va Z.Daminovalarning tadqiqotlari ham Termiz shahri tarixiga bag‘ishlangan. Ularda XIX asr oxirlaridan – XX asr boshlariga qadar Rossiya hukumatining Termiz shahrida olib borgan siyosati hamda mustamlakachilik davrida barpo etilgan inshootlar, Rossiya fuqarolariga shahar hududidan ijaraga yer berilishi va Termizga temir yo‘lning kirib kelishi bilan bog‘liq jarayonlar aks etgan[3].

**MUHOKAMA.** Surxondaryo viloyati bilan bevosita bog‘langan 1996-yilda 308 km uzunlikka ega bo‘lgan “Tajan – Saraxs – Meshxed” temir yo‘l tarmog‘i foydalanishga topshirildi. Bu po‘lat izlar qaysidir ma’noda Buyuk ipak yo‘lini takrorlab “Pekin – Istanbul” marshruti bo‘yicha temir yo‘l aloqalarini o‘rnatishga yo‘l ochdi. Tejandan Eron chegarasigacha bo‘lgan temir yo‘lning katta qismini qurish O‘zbekiston tomonidan amalga oshirildi. Bugungi kunda Toshkent – Chorjou – Tajan – Saraxs – Mashhad – Bandar – Abbos yo‘nalishi bo‘yicha foydalanilayotgan 3730 km uzunlikdagi temir yo‘l liniyasi O‘zbekiston uchun Fors ko‘rfaziga chiqishdagi yagona temir yo‘l koridori hisoblanadi. O‘zbekiston umumiy eksportining 60% ushbu koridor orqali jahon bozorlariga olib chiqiladi. Ekspertlarning fikricha, mazkur magistral boshqa Boltiqbo‘yi (Riga, Ventspils, Liyepaya, Tallin), Qora dengiz (Ilichevsk, Odessa), Uzoq Sharq (Naxodka, Vladivostok) portlariga chiqadigan transport koridorlariga nisbatan bir qator qulayliklarga ega bo‘ldi. Xususan, birinchidan, mazkur koridor orqali tashiladigan 1 tonna yuk taxminan 65 AQSH dollari qiymatida baholanadi, boshqa koridorlarda esa ushbu ko‘rsatkich 90-150 dollargachani tashkil etadi, ikkinchidan, “O‘zbekiston – Turkmaniston – Eron”

yo‘nalishi bo‘ylab infratuzilmani rivojlantirish tashuvlar hajmini yanada oshirish imkonini beradi, xususan, Bandar-Abbos portining o‘tkazish qobiliyati yiliga 3 mln tonna yukni tashkil etdi va bu ko‘rsatkichni 2023-yilda 30 mln tonnaga yetkazildi. Bu raqamli ko‘rsatkichni agar dunyoning boshqa portlar bilan solishtirilsa, Naxodka portining yuk o‘tkazish qobiliyati yiliga 1,8 mln tonna, Ventspilsa – 6,5 mln tonna, Vladivostok - 8 mln tonna yukni tashkil etdi[4].

**NATIJALAR.** Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotining transport dasturi Termiz yoki Kushka orqali Pokiston portlariga chiqadigan yangi janubiy yo‘nalishlarni rivojlantirish ishlar o‘z natijasini beradi. Shu munosabat bilan biz Hirot orqali o‘tadigan kommunikatsiyalarni tiklash xususidagi Pokiston Transosiyo avtomobil va temir yo‘llari barpo etildi”. 2003-yil 17-18-iyun kunlari Tehronda Afg‘oniston, Eron va O‘zbekiston o‘rtasida xalqaro Transafg‘on transport yo‘lagini yaratish bo‘yicha uch tomonlama kelishuv imzolandi. Shu asosda “O‘zbekiston temir yo‘llari” Davlat aksionerlik kompaniyasi Afg‘oniston Islom Respublikasi hukumati bilan taxminiy qiymati 129 million AQSH dollari miqdoridagi 95 kilometrlik “Xayraton-Mozori Sharif” temir yo‘lini qurish loyihasi bo‘yicha shartnoma imzoladi. Mazkur temir yo‘l qurilishi 2010-yil 22-yanvarida boshlanib, qisqa muddat ichida, ya’ni 2010-yil 4-noyabr kuni qurib bitkazildi. Faqatgina 2012-yilning 9 oyida Afg‘onistonga 2,9 million tonna yuk o‘tkazilib, shundan 2,2 million tonnasi tranzit, 750 ming tonnasi eksport yuklarini tashkil etdi. Ayni vaqtda eng yirik xalqaro bozorlarni o‘zaro bog‘lab turgan Markaziy Osiyoning muhim geostrategik joylashuvini hisobga olgan holda, mintaqamizning xalqaro transport yo‘laklari tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirish, “Sharq-G‘arb” loyihasi doirasida Xitoydan boshlanadigan, Qirg‘iziston va O‘zbekiston orqali o‘tadigan, keyinchalik yangi barpo etilgan Boku-Tbilisi-Kars temir yo‘l magistrali orqali Janubiy va Sharqiy Yevropaga, “Shimol-Janub” loyihasi doirasida qurib bitkazilgan Hayraton-Mozori Sharif temir yo‘li va loyihalashtirilayotgan Mozori Sharif-Hirot orqali Eron, Pokiston va Hindiston temir yo‘llariga hamda Choxbahor va Gvadar portlariga olib chiqadigan yangi transport yo‘lagini shakllantirish[5].

Bundan tashqari, Termiz-Karachi avtomobil yo‘lini qurish loyihasi ham ishlab chiqilgan. Ammo, turli sabablar, xususan Afg‘onistondagi siyosiy

vaziyatning o'zgarishi mazkur loyihalarning ijobiy hal qilinishiga to'sqinlik qildi. Bugungi kunda temir yo'l tizimida o'z yechimini kutayotgan va uning keyingi bosqichida to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan qator muammolar borligi ma'lum. Jumladan, SSSR qulaganidan keyin dengiz portlariga chiqish masalasi. Bu haqda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so'zlari yorqin misol: Hozirda dengiz portlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatlar, hududlarining transport va tranzit xarajatlari juda yuqori, ular eksport qilinadigan tovarlar qiymatining 70-89 foizini tashkil etdi[1].

Bu holat, birinchidan, iqtisodiy aloqalarni cheklagan holda, tranzit yuklarimiz o'tadigan davlatlarga qaram qiladi; ikkinchidan, sovet ittifoqi respublikalari o'rtasida rasmiy bojxona va savdo to'siqlarining joriy etilishi natijasida tashuvchilar yuklarini yetkazib berish uchun ajratilgan vaqtning 40% gacha behuda ketdi. Bularning barchasi transport sektori raqobatbardoshligining pasayishiga olib keldi. Uchinchidan, O'zbekistonning viloyatlari va hududlarini qamrab oluvchi yagona milliy temir yo'l tizimi mavjud emasligi sababli, Farg'ona vodiysi, Surxondaryo viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasiga olib boruvchi temir yo'llar qo'shni davlatlar Tojikiston va Turkmaniston hududi orqali o'tishga majbur bo'ldi; to'rtinchidan, muammolardan biri "jismoniy eskirish", temir yo'l harakatlanuvchi tarkibi (lokomitiv va vagonlar)ning eskirganligi, zamonaviy talablar darajasida xizmat ko'rsatish imkonini beradigan texnika va texnologiyalarning eskirganligi alohida tarixiy ma'lumot sifatida qayd etildi[2].

Mamlakatimiz tashqi siyosatida Janubiy Osiyo mintaqasi ham hamisha ustuvor yo'nalish bo'lsa-da, ammo yaqin-yaqingacha biz bu mintaqaga nisbatan, asosan, Afg'oniston omili orqali, ya'ni xavfsizlik nuqtayi nazaridan yondashib kelganmiz. Buning natijasida ikki tomonlama munosabatlar yetarli darajada yo'lga qo'yilmadi, mavjud imkoniyatlardan foydalanilmadi[3].

Yangi O'zbekiston sharoitida xalqaro munosabatlar sohasida mintaqadagi davlatlar bilan munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi. Aytish kerakki, Janubiy Osiyo biz uchun yirik bozor, aholi soni 2 milliarddan ziyod. Yalpi ichki mahsuloti 3,4 trillion dollar, mamlakatlarning o'rtacha yillik o'sishi 6-7 foiz. Yonginamizdagi shunday katta makonda ulkan iqtisodiy imkoniyatlar mavjudki, ulardan foydalanish ikki tomonga ham katta manfaat keltirdi. Markaziy Osiyo respublikalari dengiz yo'liga chiqish uchun

bitta davlatni, O'zbekiston esa ikki davlat hududini kesib o'tishi bu iqtisodiy o'sishga jiddiy to'siq bo'ldi. Misol uchun, Markaziy Osiyo davlatlaridan Shanxayga bitta konteyner yetkazish Turkiya va Polsha davlatlariga nisbatan besh barobar qimmat. Dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan davlatlar eksport daromadlarining 18 foizini transport xarajatlariga ishlatdi. Bu ko'rsatkich dengizga chiqish imkoniyatiga ega davlatlarda 9 foizni tashkil etadi. "Jahon banki, Osiyo va Islom taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro institutlar ekspertlari yordamida Markaziy Osiyoning mintaqaviy transport yo'laklarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va shu asosda Markaziy Osiyo transport tizimini barqaror rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy dastur qabul qilish, mintaqa mamlakatlari Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida muhim rol o'ynashini hisobga olib, ushbu tashkilot doirasida transport yuk tashish jarayonlarini integratsiyalashtirgan holda boshqarish tizimi yaratildi, transport-logistika sohasida mavjud muammolar bartarf etildi. Shu ma'noda, O'zbekiston hukumati tomonidan ilgari surilgan va jahon hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlangan Mozori-Sharif-Qobul-Peshovar temir yo'li qurilishi mintaqalarimizning iqtisodiy rivojlanishini tubdan o'zgartirishi o'zining natijalarni berdi[5].

**XULOSA.** Mustaqillik yillarida barcha viloyatlar qatori Surxon vohasi temir yo'l transport tizimining yangi infratuzilmasi barpo etildi. Yangi xorijiy texnologiyalar joriy etildi. Yevropa va AQSHda ishlab chiqarilgan zamonaviy poyezdlar temir yo'l depolarini boyitdi. Poyezdlarga texnik xizmat ko'rsatishda G'arb texnologiyasi o'zlashtirildi. Temir yo'l vokzallari modernizatsiya qilinishi natijasida yo'lovchi va yuk tashish hajmi ortib, voha va mamlakat iqtisodiyotiga munosib hissa qo'shdi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. 12-fond materiallari. Surxondaryo viloyat davlat arxivi.
2. 14-fond materiallari. Surxondaryo viloyat davlat arxivi.
3. Qabulov E.A. Surxon vohasi xo'jaligi (XVIII - XX asr boshlarida) –Toshkent: 2012. – B.17.
4. Qobulov E. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida yengil va oziq-ovqat sanoatining rivojlanish tarixi: tajriba va muammolar (1946-1960 yy). – Toshkent:Tafakkur, 2020.
5. Tursunov S., Qobulov E. va boshq. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004. – B.275.

## O'ZBEKISTONDA TARJIMONLAR TAYYORLASH TARIXI VA TARJIMASHUNOSLIKKA YANGICHA YONDASHUV

*Tursunov Bexzodbek Baxodirovich, Andijon qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti "Gumanitar fanlar" kafedrasida  
dotsenti (PhD)*

## HISTORY OF TRAINING OF TRANSLATORS IN UZBEKISTAN AND A NEW APPROACH TO TRANSLATION

*Tursunov Bekhzodbek Bakhodirovich, associate professor (PhD)  
of the "Humanities" department of the Andijan Institute of  
Agriculture and Agro-Technology*

## ИСТОРИЯ ПОДГОТОВКИ ПЕРЕВОДЧИКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ И НОВЫЙ ПОДХОД К ПЕРЕВОДУ

*Турсунов Бехзодбек Баходирович, доцент кафедры  
«Гуманитарные науки» Андижанского института  
сельского хозяйства и агротехнологий, (PhD)*



<https://orcid.org/0009-0000-3157-0506>

e-mail:  
[behzod.tursunov.88@mail.ru](mailto:behzod.tursunov.88@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda tarjimashunoslik tarixi yoritilgan. Unda mutafakkirlarning islom madaniyatiga qo'shgan ulkan hissasi o'ziga xos tarjima maktabi va turli ikki tilli lug'atlarning yaratilishi uchun asos bo'lib xizmat qilgani hamda mustaqillikka erishgach, tarjimashunoslik faoliyati yangi bosqichga o'tgani ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** tarjima, tarix, jahon, adabiyot, tilshunoslik, kitob, yunon, lotin, arab, fors, lug'at.

**Abstract:** This article covers the history of translation studies in Uzbekistan. It was noted that the great contribution of thinkers to Islamic culture served as the basis for the creation of a unique school of translation and various bilingual dictionaries, and that after independence, the activity of translation studies entered a new stage.

**Key words:** translation, history, world, literature, linguistics, book, Greek, Latin, Arabic, Persian, dictionary.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается история переводоведения в Узбекистане. Было отмечено, что большой вклад мыслителей в исламскую культуру послужил основой для создания уникальной школы перевода и различных двуязычных словарей, а после обретения независимости деятельность переводоведения вышла на новый этап.

**Ключевые слова:** перевод, история, мир, литература, лингвистика, книга, греческий, латинский, арабский, персидский, словарь.

**KIRISH.** Kishi qanchalik ko‘p tilni bilsa, jahondagi millatlar, elatlar hayoti, madaniyati, turmush tarzi bilan yaqindan tanishadi, xuddi shuningdek, dunyoga o‘zbek millatining qadriyatlarini, boy madaniy merosi, madaniyati va bugungi yutuqlarini ham olib chiqa oladi. Xorijiy tillardagi durdona asarlarni, shuningdek, o‘zbek adiblarining ham ko‘plab bebaho asarlarini xorijiy tillarga tarjima qiluvchi malakali mutaxassislarni tayyorlashda hozirga qadar respublikadagi oliy o‘quv yurtlarida tarjima nazariyasi va amaliyoti fanidan foydalanib kelingan bo‘lsa, endilikda uning zamon talablariga mos keladigan yangi avlodini yaratish va nashr ettirish ehtiyoji yuzaga keldi. Mustaqillik intellektual soha kishilariga jahon maydoniga mustaqil subyekt sifatida chiqish, suveren davlat sifatida xorijiy mamlakatlar ilmiy, madaniy va badiiy merosidan manfaatlarimizga munosib keladigan va ma’naviyatimizni boyitadigan asarlarni o‘z tilimizga o‘girish imkonini berdi. Bu, tabiiyki, ham imkoniyat, ham mas’uliyat, izchil ijodiy mehnatdir [1].

Tarjima inson faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo‘lib, turli tilli xalqlarning muloqotini amalga oshirishga yo‘naltirilgan, u tufayli biz jamiyat taraqqiyoti tarixining barcha tafsilotlarini ochiq-oydin tasavvur etamiz. Uzoq tarixga va o‘ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega tarjimonlik faoliyati faqat XX asrga kelib alohida fan, tilshunoslik bilimlarining bir sohasi sifatida shakllantirildi. Bu davrda tarjimashunoslik borasida amalga oshirilgan ilmiy ishlarning, yaratilgan tarjima maktablarining mantiqiy davomi XXI asrda ham o‘z samarasini ko‘rsatmoqda[2]. Shu boisdan ham, mustaqillik yillarida o‘tmishdan qolgan boy yozma merosni saqlash, o‘rganish va uni turli tillardan tarjima qilishga qaratilgan ishlar kuchaytirilib, tarjimashunoslik va tarjima faoliyatiga, shu sohada mutaxassislar tayyorlashga bo‘lgan e’tibor davlat darajasiga ko‘tarilgan. Jahon tajribalari bunday mutaxassislarni tayyorlashda qo‘l keladi, vaqtni tejash va boshqa mamlakatlarda qo‘lga kiritilgan yutuqlarni ilmiy o‘rganish o‘z milliy qadriyatlarimizga ega bo‘lishni jadallashtirish imkonini beradi. Bu ishlarning xalqimiz ijtimoiy hamda ma’naviy hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish

tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ-2995-son qarorida[3] mazkur yo‘nalishlarning kelajakdagi rivojini, shuningdek tarjima ishlari samaradorligini ta’minlashga qaratilgan qator vazifalar belgilab berildi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Mustaqillikka qadar bo‘lgan davr tadqiqotlari mavzusi, asosan, Sharq mamlakatlaridagi milliy ozodlik harakatlari hamda madaniy jarayonlar bilan cheklangan bo‘lsa, mustaqillik yillarida bu mamlakatlardagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar o‘zaro bog‘liqlikda va yangicha talqinda ko‘rsatila boshladi[4]. SH.Karimov, G‘.Salomov, G‘.Rahimov, M.Xolbekov, M.Bakaeva, A.Abduazizov, SH.Dolimovlar yurtimizda tarjimachilik borasida ulkan ishlarni amalga oshirdilar, tarjimonlik nazariyasining o‘ziga xos uslubini yaratdilar. Bu tadqiqotlarning mahsuli sifatida o‘nlab monografiya, ilmiy maqola va risolalar chop etildi[5]. Mustaqillik sharofati bilan jahon adabiyoti namunalarini chop etadigan minbar –“Jahon adabiyoti” jurnaliga ega bo‘lindi. O‘n yildan ziyodroq vaqt mobaynida adabiy nashrning 100 dan ortiq soni adabiyot ixlosmandlari qo‘liga tegdi. Faqat nemis adabiyoti namoyandalaridan 15dan ortiq muallifning nasriy va nazmiy asarlari chop etildi. Shuningdek, taniqli tilshunos va tarjimashunos olimlardan J.Bo‘ronov, E.Aznaurova, Q.Musayevlarning darslik va monografiyalari, N.Komilov, M.Sulaymonov, R.Fayzullaeva, YA.Egamova, I.Mirzayevlarning dissertatsiya va maqolalarida tarjimaning o‘ziga xos xususiyati haqida ba’zi fikrlar davom ettirildi.

**MUHOKAMA.** Shu zamindan yetishib chiqqan yuzlab ulamo va mutafakkirlarning islom madaniyatiga qo‘shgan ulkan hissasi o‘ziga xos tarjima maktabi va turli ikki tilli lug‘atlarning yaratilishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Eng birinchi arabcha-o‘zbekcha lug‘at Mahmud az-Zamaxshariyning “Asos ul-balog‘a” va “Muqaddamat ul-adab” lug‘atlari hisoblanadi[6]. XIII asrda “At-tuhfat ul-zakiyyati fil-lug‘ati turkiya” nomli turkiy tillarning izohli lug‘ati yaratilgan. XV asrda Tole Imoniy Xiraviyning “Badoiy ul-lug‘at” nomli o‘zbekcha-forscha lug‘ati yozilgan. Alisher Navoiyning ikki lug‘ati – “Muhokamat ul-lug‘atayn” va “Sab‘at abhur” juda mashhur. “Abushqa” XVI asrda yaratilgan. Mirza Maxdixon qalamiga mansub “Sangloh” XVIII asrda, Yoqub Chingiyning



“Kelurnoma” lug‘ati XVII asrda yaratilgan. Muhammad Rizo Xoksoning “Muntaxab ut-lug‘at” asari XVIII asrda, Sulaymon Buxoriyning qiyosiy turkiy lug‘ati bo‘lgan “Lug‘ati chig‘atoiy va turki usmoni” asari XIX asrda yozilgan.

Tarjima haqida ilk nazariy fikrlar dastlab qadim Rimda yuzaga kelgan edi. Yunon va lotin tillarini mukammal bilgan Aristotel, Sitseron va Goratsiy tarjima jarayonida so‘z ketidan quvish yaramaydi, ularning ma‘no ifodalarini avval tarozida o‘lchab, keyin tarjima qilish ma‘qul, degan fikrni bildirganlar. Keyinchalik Italiyada Bartolomeo va Manetti, Fransiyada dyu Belle va Malerb, Angliyada Bekon va Drayden, Germaniyada Gyote va Gumboldt, Rossiyada Lomonosov va Sumarokov tarjima xususida o‘z nazariy tushunchalarini bildirib o‘tganlar. Tarjima nazariyasi xususida aytilgan fikrlar ham shu yo‘sinda umumiy ma‘noga ega bo‘lgan. Tarjima nazariyasiga bag‘ishlangan ilk tadqiqotlar ta‘kidlab o‘tilganidek, XX asrning yigirmanchi yillarida yuzaga kela boshladi[7].

Bu davrda tarjima nazariyasi borasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, Rossiya, Yevropa, O‘zbekiston va boshqa davlatlarda yaratilgan ilmiy maktablar, olib borilgan tarjima ishlari diqqatga sazovor. Jumladan, ingliz tarjimashunoslari T.Sevori, J.Ketford tadqiqotlari e‘tiborga loyiq. Masalan, zamonaviy tarjimashunoslikning shakllanishiga hissa qo‘shgan ingliz tarjimashunosi J.Ketfordning “Tarjimashunoslikning til nazariyasi” tadqiqoti muhim o‘rin tutadi.

XX asr o‘rtalarida II jahon urushi sababli bo‘lib o‘tgan global o‘zgarishlar, fan va texnikaning rivojlanishi, xalqaro aloqalarning jadallashuvi ko‘pgina sotsiologiyistik omillar tarjima faoliyatining fan sifatida rivojlanishiga turtki bo‘ldi. O‘zbek tarjima maktabining eng taraqqiy etgan davri o‘tgan XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Aynan mana shu davrda o‘zbek tarjima maktabi va o‘zbek tarjimashunosligining bosh tamoyillari, uslubi, bosh yo‘nalishlari fan sifatida shakllantirildi. Bir qator tarjimashunoslar hamda tarjimonlar adabiyot sahnasiga kirib keldi. Bu davrda rus tilidan yoki rus tili vositasida qilingan tarjimalarning o‘zbek madaniyati taraqqiyotidagi mavqeyi juda kuchli bo‘lgan. Chunki bu davrda rus tili o‘zbek adabiyoti madaniyatini jahon adabiyoti bilan ulab turgan ko‘priq rolini o‘ynagan[8]. Bu davrda ingliz

adabiyotining eng mashhur asarlari tarjima qilindi. Bu harakatlar ortida kitobxonni taraqqiyparvar adabiyot namunalari bilan tanishtirish istagi yotadi. Ammo bu harakat tabiiy rivojlanmadi, balki ma‘lum rejalar asosida olib borildi va o‘z tarixiy rivojiga ko‘ra murakkab jarayon bo‘ldi. Unda tarjimalarning keng olib borilishi bilan bir qatorda, tarjimonlarning qatag‘on qilinishi, asar tanlashida ular uchun erkinlikning yo‘qligi, faqat “yuqoridan”, ya‘ni partiyaviy organlar tomonidan tasdiqlangan asarlarning maxsus tarjimalari amalga oshirilishi kabi o‘ziga xosliklar mavjud edi. Sobiq ittifoq sharoitida qaysi tildan tarjima qilish hamma vaqt ham ijodkorlar ixtiyorida bo‘lmasdi. Ko‘p hollarda sho‘ro mafkurasiga mos keladigan, o‘z adabiyotida alohida hodisaga aylanmagan asarlar falon adabiyotning namunasi sifatida tarjimaga tavsiya etilardi.

1953-yili Xalqaro tarjimonlar uyushmasi – FIT (Federation Internationale des Traducteurs) ning tashkil qilinishi tarjimon va tarjimashunoslar faoliyatining yanada ravnaq topishida muhim rol o‘ynadi. 1955-yildan uyushma organi “Babel” (“Bobil”) jurnali nashr etila boshlandi. Bu yillarda turli mamlakat olimlarining tarjima nazariyasi muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlari birin-ketin bosilib chiqdi. Ular orasida fransuz Jorj Munenning “Go‘zal, ammo bevafo”, ingliz Teodor Savorining “Tarjima san‘ati” kitoblari o‘sha davrda muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, kanadalik tilshunoslar J.Vine va J.Darbelnening 1958 yilda nashr qilingan “Fransuz va ingliz tillarining qiyosiy stilistikasi. Tarjima tadorigida” monografiyasida tarjima nazariyasi qiyosiy tilshunoslik yo‘sinida talqin qilinib, mualliflar uni sof tilshunoslik izmidagi fandir, degan tezisni ilgari surdilar. Ular o‘z fikrlarini taniqli tilshunos olim Charl Balli ta‘limotiga yaqinlashtirib, “Tarjima ham ikki tilga mansub sistemadir, u asliyat va tarjima tilining o‘zaro yaqinlashuvi jarayonida yuzaga keladi. Bu jarayonda asliyat tili o‘z holatini o‘zgartirmaydi, tarjima tili esa mavjud sharoitga qarab o‘zgaradi”, degan fikrni ilgari surdilar.

Shuningdek, bu davrda ingliz shoirlari Robert Berns va Bayron asarlari, Shekspir sonetlari, Charlz Dikkens, Jonatan Svift, Teodor Drayzer, Jon Steynbek, Ernest Xeminguyey va boshqa adiblar asarlari o‘zbekchalashtirildi[9].

O'tgan asrning 60-yillarida N.Vladimirova, J.Sharipov, G'.Salomov, Yu.Po'latov, Q.Musaev, G.G'afurova, S.Salomova singari tarjimashunos olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlar O'zbekistonda ham tarjima nazariyasi borasida keng ko'lamda izlanishlar olib borilganidan dalolatdir. O'zbek tarjima maktabining taraqqiyoti O'zbekiston tarixida milliy uyg'onish va o'zlikni anglash, ma'rifatparvarlik sa'y-harakatlari bilan doimo bog'liq bo'lgan. Chunki tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'siri jarayonini tezlashtiradi. Ular orasida tarjima maktablari asoschilaridan professor G'.Salomovning tarjimaga doir bir qator risolalari hamda 1964-yilda "Fan" nashriyoti tomonidan "Til va tarjimon" nomli monografiyasi chop etildi. Bu ishlarda badiiy tarjima nazariyasi, kasbiy adabiyotshunoslik va tarjima, til, adabiyot va tarjima, tarjimon mahorati va tarjima san'ati, milliy kolorit va tarjima aniqligi, davr ruhi, uslub va tarjima borasida izchil nazariy fikrlar bayon etilgan, bir necha tilda yaratilgan adabiyotlar, tarjimalarni qiyoslab o'rganish asosida dolzarb ilmiy muammolar yechilgan. Tarjima asarlari tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'lishi bilan birga tarjima tillarning rivojlanish sur'atini jadallashtiruvchi, lug'at boyligini oshiruvchi va takomillashtiruvchi vosita ham hisoblanadi. Shu boisdan ham, tarjima orqali o'zbek ma'rifatparvarlari har doim o'zbek kitobxonini dunyoning eng buyuk yutuqlari va jahon adabiyoti xazinasidan o'rin olgan o'lmas asarlari bilan tanishtirib borishgan. Bu davrda ingliz tilidan qilingan tarjimalarning kelib chiqishiga xalqni turli ilg'or va ma'rifatparvar g'oyalar bilan tanishtirish, dunyo adabiyotining eng mashhur asarlarini targ'ib qilish istagi ostidagi sa'yi harakatlarni ko'rish mumkin. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning filologiya va jurnalistika fakulteti huzurida tashkil etilgan Tarjima nazariyasi kafedrasini prof. G'.Salomov rahbarligida bu ishga bosh-qosh bo'ldi. Ayniqsa, olimning 1973-yilda nashr qilingan "Tarjima tarixi", "Tarjima nazariyasiga kirish", "Umumiy tarjima nazariyasi asoslari" o'quv dasturlari respublika oliy o'quv yurtlarida tarjima nazariyasi kursini o'qitishda asosiy dasturulamal bo'lib xizmat qildi.

**NATIJA.** XX asrning 80-yillariga kelganda, oradan o'tgan yarim asrluk davrdan so'ng ingliz tilidan bevosita o'zbek tiliga tarjima qilish 30-yillardagi an'anasi yana qaytadan tiklana boshlaydi.

Bu davrga kelib tarjima nazariyasining tilshunoslik yo'nalishi tamoyillari yanada takomillashti. 80-yillar davomida Kristofer Marlning "Sohibqiron Temur" fojeasi o'zbek tiliga tarjima qilindi. Aynan shu davrda ingliz va Amerika adabiyotining 30 ga yaqin yozuvchi va shoirlari asarlari o'zbek tiliga o'girildi. Mazkur tarjimalarning asosiy xususiyati shundaki, ular bevosita ingliz tilidan emas, balki rus tili vositasida tarjima qilingan. So'nggi yarim asr mobaynida bunday tarjima qilish an'anaga aylanib qolgan edi. Bu yillarda O'zbekistonda professor G'.Salomov (ToshDU) va professor J.Sharipov (O'zFA) rahbarligida shakllangan tarjimashunoslik maktabi olimlari tarjima nazariyasining umumfilologik muammolarini tadqiq qilish bilan mashg'ul bo'ldilar. G'.Salomov o'zining tarjima nazariyasi borasidagi izlanishlari natijasi o'laroq, 1982-yilda "Adabiy an'analar va badiiy tarjima muammolari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Tadqiqotda olim asosan tarjimada adekvatlikka erishish printsiplarini birinchilardan bo'lib, tahlil qilarkan, bu borada Shekspir asarlari tarjimasi misolida "tarjima-ta'sir-tarjima" tamoyilini keng ma'noda asoslab berdi[10]. Uning fikriga ko'ra, tarjima atamasi forscha "tarzabon" so'zining o'zgargan shaklidir. "Tarzabon" fors tilida "chiroyli so'zlovchi, notiq, tili burro kishi" degan ma'nolarni anglatadi. Asli arabcha bo'lgan ushbu so'z "tarjumon" shaklida bo'lib, undan "tarjimon", "tarjima" so'zlari hosil bo'lgan.

Bolgariyalik Anna Lilovanning asl nusxa matnining janr va shakl xususiyatlari tarjima mezonini belgilovchi asosiy omil hamdir, degan fikri to hozirga qadar o'z qimmatini saqlab kelmoqda. Bu davrda O'zbekistonda ham tarjima nazariyasi va adabiy aloqalar yo'nalishida bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Ammo, o'zbek tarjimashunoslari G'arb olimlarining tarjima nazariyasi xususidagi bahs-munozaralarida ishtirok etolmadilar. Ta'bir joiz bo'lsa, bu davrga kelib o'zbek tarjimashunoslik ilmi bir qadar orqada qola boshladi. Taniqli tarjimashunos olim N.Qambarov buning ayrim sabablari haqida fikr bildirib, tarjima tahriri asoslari ishlab chiqilmaganligi va bunga mutlaqo e'tibor berilmayotgani, tarjima tahriri bo'yicha bironta ham qo'llanma yozilmaganligiga diqqatni qaratadi. Haqiqatan, hozirgi kunda chiqayotgan tarjima asarlarni o'qiganda o'ta g'aliz,

pala-partish tarjima qilingan tushunarsiz jummalarga duch kelish mumkin. Bu tarjimonlarning lingivistikani puxta o'rganmasdan tarjimaga kirishib ketayotgani natijasidir.

**XULOSA.** Tarjima jarayonida eng katta muammo madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ajratishdir. Muayyan madaniyatga mansub aholi biror narsaga o'z dunyoqarashidan kelib chiqib qaraydi.

Aynan mustaqillik yillarida o'zbek tarjima maktabida sifat o'zgarishlari amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillarga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida 2018-yil 18-maydagi 376-son qarorining qabul qilinishi, ayni muddao bo'ldi va kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Tarjima sohasida faol ijodkor Sh.Munavvarov fransuz tili va adabiyoti ilmini mukammal egallagan tarjimon sifatida dastavval Fransua Moriakning "Ilonlar changalida", Monteskening "Fors nomalari" (hamkorlikda) romanlarini, Le Klezioning "Monde va boshqa hikoyalar"ini o'zbek tiliga bevosita o'g'irgan bo'lsa, keyingi yillarda taniqli adib E.A'zamning "Shovqin" romani va bir qator hikoyalarini o'zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilib, Yevropaga tanitdi. Shuningdek, ist'edodli tarjimon O.Ostonov ham so'nggi yillarda o'zbek adabiyoti namunalaridan G'afur G'ulomning "Shum bola", O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarlarini, Abdulla Qahhor hikoyalarini nemis tiliga tarjima qildi. Bu tarjimalar ham nemis o'quvchilari tomonidan iliq kutib olindi. Jahon adabiyotidan o'zbek tiliga, o'zbek adabiyotidan xorijiy tillarga tarjima qilish borasida boy tajriba to'plangan bo'lib, navbatdagi muhim vazifa – o'zbek adabiyotining sara asarlarini chet tillarga, jahon adabiyoti namunalarini o'zbek tiliga tarjima qiladigan malakali tarjimonlarni tayyorlash, tarjima asarlarini targ'ib qilishdan iborat[11].

Dunyo adabiyotini bevosita tarjima qilish an'analari kuchaytirildi. Hozirgi kundagi o'zbek tarjima milliy maktabi an'anasining xususiyatlari shundaki, rus tili orqali dunyo adabiyoti namunalari va badiiy asarlarini tarjima qilish barobarida, avvalo,

barcha xorijiy tillardan, jumladan, ingliz tilidan bevosita o'zbek tiliga tarjima qilish an'anasining boshlanganligi, shuningdek, badiiy adabiyot bilan birgalikda dunyo miqyosida ko'zga ko'ringan hamda jahonda kitobxonlar tomonidan e'tiborga loyiq bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, falsafiy, ilmiy-texnik va tabiiy fanlar bo'yicha maxsus adabiyotlar, shu jumladan, kino materiallarini o'zbek tiliga tarjima qilish faoliyati rivojlanib borayotganligidir[12].

Mustaqillik davridagi sharq tillaridan bevosita tarjima qilish amaliyoti yil sayin kengayib bormoqda. Bevosita tarjima, asosan, Sharqshunoslik institutida o'qigan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib kelindi. 2020-yildan Sharqshunoslik universitetiga aylantirilgan mazkur dargoh zimmasiga kelgusida Sharq mamlakatlarining tillari, tarixi, madaniyati, tarjimashunoslik, Sharq tillari bo'yicha sinxron tarjimonlarni yetishtirish, shuningdek, turizm va gid hamrohligi sohalarida zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, mehnat bozori uchun raqobatbardosh bo'lgan kadrlarni tayyorlashdan iborat vazifalarni amalga oshirish topshiriqlari berildi[13].

Tarjima jarayonida so'zni to'g'ri tanlash, ma'no va mazmunni to'liq berish, tarjima muammolari va qiyinchiliklarini oson yengish imkoniyatini, natijada tarjima sifatining yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimov SH. Tarjima–jahonni tanish va tanitish vositasi //Filologiya masalalari, 2011, 3-son. – B.54.
2. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2016, –B.6-7.
3. Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 21-son, 389-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.2018 y., 06/18/5399/1018-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti nashrlari (1991-2018). Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi S.Karimova.–Toshkent: Fan, 2018. – 326 b.
5. Abulg'oziy. Shajarai Turk./ Nashrga tayyorlovchilar: Q.Munirov, Q.Mahmudov; mas'ul muharrir va so'z boshi muallifi: B.Ahmedov.–

Toshkent: CHO'lon, 1992. – 192 b.; Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). I kitob./ So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlar muallifi: U.Uvatov; mas'ul muharrir: A.O'rinboyev.–Toshkent: Mehnat, 1992. – 328 b.; Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma./ Terma tarjima O.Bo'riyevniki.–Toshkent: Sharq yulduzi, 1992. – 160 b.; Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri./ Tuzuvchi M.Mahmudov; mas'ul muharrir: M.Xayrullaev.–Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.; Narshaxiy. Buxoro tarixi./ Tarjimon A.Rasulov; muharrir: A.O'rinboyev.–Toshkent: Sharq bayozi, 1993. – 126 b.; Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi./ Fors tilidan B.Ahmedov, N.Norqulov va M.Hasaniylar tarjimasi; B.Ahmedovning kirish so'zi, izohlari va tahriri ostida.–Toshkent:Cho'lon, 1994.–352 b.; Temur tuzuklari./ Forschadan Alixonto'ra Sog'uniiy va H.Karomatov tarjimasi; so'zboshi va izohlar, umumiy tahrir B.Ahmedovniki; ingliz tiliga M.Devi tarjimasi; fransuz tiliga L.Langle tarjimasi.–Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. – 344 b.; Gulbadanbegim Bobur Mirzo qizi. Humoyunnoma. Zahiriddin Muhammad Boburning o'g'li – Humoyun podshohning ahvoli /Fors tilidan S.Azimjonov tarjimasi; mas'ul muharrir: A.Qayumov.–Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 104 b.; Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. / Fors tilidan S.Mirzaev tarjimasi; ilmiy muharrir, nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi B.Ahmedov.–Toshkent: Sharq, 1999. – 414 b.; Abdulrazzoq Samarqandiy. Matlai Sa'dayn va majmai bahrayn. 1405-1429 yillar voqealari. /Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi

A.O'rinboyev.–Toshkent: O'zbekiston, 2008. I jild.– 631 b.; II jild 831b.; Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari, I jild. /Uchinchi nashrni tayyorlovchilar: M.Hasaniy, S.Karimova.–Toshkent: Muharrir, 2013.– 688 b.; Al-Hakim at-Termiziy. Inson odobi. /Arab tilidan ilmiy izohli tarjima va ko'rsatkichlar muallifi: K.Rahimov. –Toshkent: Navro'z, 2015.– 160 b.

6. Umarov E. “Badoiy al-lug‘at”i “Sanglox” как лексикографические памятники и источники староузбекского языка (XV-XVIII вв.) Автореф.дисс. ... докт.фил.наук. – Ташкент, 1989. – С.46.

7. Xolbekov M. Tarjima nazariyasi fan sifatida. SAVIYA.UZ.[file:///C:/Users/fpb/Downloads/18:36/18.01.2019 24681.kun.uz /Lifestyle](file:///C:/Users/fpb/Downloads/18:36/18.01.2019%2024681.kun.uz/Lifestyle)

8. Rahimova Sh. O'zbek tarjimashunoslik maktabining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari//Filologiya masalalari, 2017, 1-son. – B. 99.

9. Bakaeva M. Angliya, AQSH adabiyotidan o'zbek tiliga she'riy tarjima va qiyosiy she'rshunoslik muammolari. Toshkent: IYAL, 2004. – B.33.

10. A.Abduazizov, M.Xolbekov. Atoqli tarjima nazariyotchisi// O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2012,14 dekabr.

11. <http://samxorfil.uz/maqola/tarjima-adabiyotining-targibi-va-malakali-tarjimonlarni-tayyorlashning-dolzarb-masalalari>

12. Dolimov Sh. Tarjima san'ati va muammolari. – Toshkent, 2009. – B.76.

13 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4680-son qarori/<https://lex.uz/docs/4791086>



**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA  
MUTAXASSISLIK FANLARINI  
INTEGRATSIYALASH IJTIMOIV ZARURIYATI**  
*TTYESI professori, f.f.d. G.K.Masharipova taqrizi asosida*



<https://orcid.org/0009-0001-7856-5760>

**Xalmuratova Jumagul Gaybullayevna, Toshkent to'qimachilik  
va yengil sanoat instituti dotsenti**

e-mail:  
**jumagulxolmurotova@gmail.com**

**SOCIAL NEED FOR INTEGRATION OF  
SPECIALISTS IN HIGHER EDUCATION  
INSTITUTIONS**

**Khalmuratova Jumagul Gaybullayevna, Docent of the  
Tashkent Textile and Light Industry Institute**

**СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ В  
ИНТЕГРАЦИИ СПЕЦИАЛИСТОВ В ВУЗЫ**

**Халмуратова Джумагуль Гайбуллаевна, доцент  
Ташкентского института текстильной и легкой  
промышленности**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ta'lim oliy muassasalarida mutaxassislik fanlarini integratsiyalash masalasiga bag'ishlanadi. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir. Integratsiya – differentsiatsiyaning aksi bo'lib, unga teskari bo'lgan jarayondir.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, konseptual, fenomen, differentsiatsiya, metodologik asoslari, tamoyil, texnologiya, tuzilma, kasbiy faoliyat.

**Abstract:** This article is devoted to the issue of integration of specialized subjects in higher education institutions. Integration is not a mechanical unification of sciences, it is a synthesis, the emergence of something new, a discovery. It is the convergence of individual systems, their connection and the creation of a single new one. Integration is the opposite of differentiation.

**Key words:** integration, conceptual, phenomenon, differentiation, methodological foundations, principle, technology, structure, professional activity.

**Аннотация:** Данная статья посвящена вопросу интеграции профильных предметов в высших учебных заведениях. Интеграция – это не механическое объединение наук, это синтез, возникновение чего-то нового, открытие. Это сближение отдельных систем, их соединение и создание единого нового. Интеграция является противоположностью дифференциации.

**Ключевые слова:** интеграция, концептуальное, явление, дифференциация, методологические основы, принцип, технология, структура, профессиональная деятельность.

**KIRISH.** “Integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz ham integratsiyaga tafakkur o'stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda ta'lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qildik.

Hozirgi kunda integratsiya fenomeni ta'limda innovatsiyalarning yetakchi pozitsiyasi sifatida izohlanadi. Integratsiya - (lot. Integration - tiklash, to'ldirish, integer-butun) degan ma'noni bildiradi, fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni, differentsiatsiya bilan birga kechadi[1], demak u

tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo'lib hisoblanadi. Uni quyidagi yo'nalishlarda tatbiq etish maqsadga muvofiq: a) o'quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish; b) ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o'quv kunini integratsiyalash[2]. Amaldagi ta'lim jarayonini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, u yoki bu o'quv fani mazmunida talabning ijtimoiy tajribasiga kirmay qolgan bilim va tushunchalar mavjud. Buning asosiy sababi o'quv fanining mazmuni o'ta murakkab yoki haddan tashqari sodda ekanligidadir. Agar o'quv materialini o'ta murakkab bo'lsa, talaba uni to'liq o'zlashtirishga qiynaladi. Agar, asosiy sababi, o'quv fanining mazmuni o'ta murakkab yoki haddan tashqari sodda va takror holda ifodalangan bo'lsa, bunday o'quv materialini o'zlashtirishga ehtiyoj sezmaydi, undan bezadi[3].

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Bugungi kunga kelib jahondagi mamlakatlarning 70 foizi ta'lim tizimida integrativ xarakterdagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanib kelmoqda. Har bir mamlakat ayni shu davlatning ta'lim tizimiga qo'yilgan buyurtmaning tabiatidan kelib chiqqan holda mavzulararo aloqadorlikni ta'minlashning turli darjalarini ishlab chiqqan va joriy qilib kelmoqda. Chunonchi, Buyuk Britaniya ta'lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan bo'lsa, Koreya va Shveysariyada mavzulararo aloqadorlikni ta'minlagan fanlar yoki alohida o'quv predmetlari, Avstraliyada mavzulararo aloqadorligi ta'minlangan fanlar, Yaponiya, Shimoliy Irlandiya, Uels, Hong Kong va Germaniyada ham alohida fanlar, Vengriyada madaniyat yo'nalishidagi o'quv predmetlari, inson va tabiat, integrativ fanlar, Niderlandiyada alohida o'quv predmetlari, Irlandiyada fan va texnika kabi bloklarda barcha o'quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o'qitiladi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning konseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi[4].

Inson va jamiyat, ta'lim sohasi o'zida bir qator o'quv predmetlariga oid tushunchalarni mujassamlashtirgan. Ta'lim jarayonini integrativ dasturlar va darsliklar asosida tashkil etish orqali o'quv-biluv jarayoni natijasida samaradorlikka erishish nazarda

tutilar ekan, bunda fanlararo aloqadorlikni ta'minlashning turli tamoyillaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan:

1. Mavzularni ketma-ketlik asosida taqdim etish; bunda o'quv materiallarini bayon qilishda konsentriзм prinsipiga amal qilinadi, ya'ni oldingi o'quv materialini keyingisini to'ldiradi. Lekin hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Bunday mavzulararo aloqadorlikni ta'minlash natijasida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda ijodiy faoliyatlari muntazam rivojlanib boyib boradi.

2. O'quv dasturlarida o'zaro uyg'unlashgan nuqtalarni vujudga keltirish. Bunda ham takror tarzda beriladigan tautologiya asosidagi o'quv materiallarining oldini olish uchun dasturlarda fanlararo uyg'unlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Buning afzalligi shundaki, talabning vaqti va kuchi tejaladi, darsliklarning hajmi ixchamlashadi[5].

3. Turdosh o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalarni bir tizimga solish, ya'ni modullashtirish.

4. Bir necha o'quv predmeti yoki o'quv fanlariga oid mavzularni uyg'unlashtirish, ya'ni integrallashtirish.

5. Mohiyatan yaqin bo'lgan o'quv materiallari bilan uyg'unlashtirilish, ya'ni mavzulararo integrallashtirish[5].

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan fanlararo aloqadorlikni ta'minlash darajasi ayni bir o'quv fani mazmunida chuqur, har tomonlama aloqadan boshlanib, o'quv fanlararo bog'lanish, uyg'unlashish darajasini ta'minlaydi.

Mutaxassis fanlararo aloqadorlikni ta'minlashga erishishi uchun:

- ta'lim mazmunida o'quv fanlarining mavzulararo aloqadorligini ta'minlashning ilmiy, pedagogik asoslarini ishlab chiqish;

- ta'lim jarayonini liberallashtirish talablaridan kelib chiqqan holda o'quv rejani takomillashtirish;

- integral mazmundagi o'quv dasturlari va darsliklarning yangi avlodini yaratish;

- ta'lim mazmunida mavzulararo aloqadorlikni ta'minlashni ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda kasb-hunar ta'limi tizimi jamiyatning mutaxassislarga bo'lgan yangi va doimiy o'zgaruvchan ehtiyojlarini yetkazib berishi kerak degan savol tobora ko'proq muomalada

ishlatilyapti. Ammo talabalar hali ham zamonaviy iqtisodiyotda talab bo'lmaydigan mutaxassislikni olish xavfi ostida va buning natijasida yosh kadrlar birlamchi mehnat bozoriga kirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Yosh mutaxassislar uchun zamonaviy mehnat bozori quyidagi qarama-qarshiliklar bilan tavsiflanadi:

- bitiruvchilarning kasbiy yo'nalishlari va korxonalarining mehnatga bo'lgan ehtiyojlari o'rtasida;

- kasbiy tayyorgarlikning mavjud tizimi va kelajakdagi kasbiy faoliyatning real mazmuni o'rtasida;

- universitet bitiruvchilarining yuqori nazariy tayyorgarligi va olingan bilimlardan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarning pastligi.

Yosh mutaxassislarining mehnat dunyosiga ijtimoiy integratsiyalashuv jarayonining tobora murakkablashishi O'zbekistondagi kasbiy ta'limning butun tizimiga xosdir va bu muammoni hal qilish, bizning fikrimizcha, ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozori o'rtasida samarali munosabatlarni ta'minlaydigan mexanizmlarni yaratish mumkin.

Shunday qilib, yosh avlodning ijtimoiy takror ishlab chiqarishning muhim manbalaridan biri sifatidagi rolini hisobga olgan holda, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini mehnat faoliyati sohasiga integratsiyalash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda kasb-hunar ta'limi tizimining ishlashini nazariy tahlil qilish asosida shuni ta'kidlash mumkinki, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi ta'limning bir qator ijtimoiy funksiyalarining o'zgarishi va yangilarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ta'limning kasbiy funksiyasining pasayishi ta'lim tizimining jamiyat ehtiyojlaridan orqada qolishiga va buning natijasida mehnat bozorida bitiruvchilarga talabning yetishmasligiga olib keldi. Mutaxassislar ishlab chiqarish bo'yicha davlat buyurtmalarini bajarish iste'molchiga e'tibor qaratilishi bilan almashtirildi: oliy o'quv yurtlarida yoshlar o'rtasida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha qabul ochildi, kadrlar tayyorlash jarayoni keng tus oldi. Nodavlat universitetlar paydo bo'ldi; bularning barchasi qobiliyatidan qat'i nazar, deyarli har qanday mutaxassislik bo'yicha o'qish imkonini berdi. Biroq bu jarayonning salbiy tomoni ham bor: mutaxassislar, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari

bozori mehnat bozori talablariga javob bermaydi. So'nggi yillarda umumiy ishchi kuchining umumiy takror ishlab chiqarishida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ulushi qariyb ikki barobar ko'paydi, bu esa oliy o'quv yurtlari bitiruvchilariga talabning yetishmasligining sezilarli darajada oshishiga olib keldi, oliy ma'lumotli mutaxassislarining nufuzini pasaytirdi. Yosh avlodning mehnat dunyosiga ijtimoiy integratsiyalashuvi jarayoni yoshlarning kasb va mehnat bozori haqidagi g'oyalari haqiqatga mos kelmasligi bilan murakkablashadi. Bitiruvchilarning mehnat bozorida xulq-atvor strategiyalari shaxsning an'anaviy yoki zamonaviy qiymatme'yoriy tizimga yo'naltirilganligiga, iqtisodiy xatti-harakatlarning yangi qoidalariga moslashish darajasiga, shuningdek, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni baholashga bog'liq. Texnik universitetlarning bitiruvchilari o'rtacha moslashuvchan va ijobiy instrumental strategiyalarni namoyish etadilar.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining o'quv mashg'ulotlari integrativ yondashuv asosida tashkil etilsa hamda integrativ amaliy mashq va topshiriqlardan foydalanilsa o'qitish samaradorligi oshadi. Natijada kasbiy faoliyatni o'zlashtirish yaxlitligi yuzaga kelib, kasbiy tayyorgarlik kompetensiyasi shakllanib, rivojlanib boradi. Texnik universitetlar bitiruvchilarining mehnat dunyosiga integratsiyalashuvi shundan dalolat beradiki, sanoat ishlab chiqarishini, iqtisodiyotni va biznesni rivojlantiradigan va O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan ularga bog'liq bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarni ko'paytirish va shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Данилюк, А. Я. Теория интеграции образования / А.Я.Данилюк. – Ростов-н/Д: Изд. РостГПУ, 2000. – 440 с.
2. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании. –М.: Исслед.центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. -38с.
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, tarbiyachi va

murabbiylar uchun o'quv qo'llanma). -T.: Nihol, 2013. -278.

4. Chicherina Y., Nurkeldiyeva D. Bondareva Ye. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013.

5. Чапаев, Н.К. Интеграция образования и производства: методология, теория, опыт: монография / Н.К.Чапаев, М.Л.Вайнштейн. – Челябинск: ЧИРПО; Екатеринбург: ИРРО, 2007. – 408 с.



TAMADDUN NURI



## ҚАРШИ САРДОБАЛАРИ ТЎҒРИСИДА ЯНГИ МАЪЛУМОТЛАР

Суёнов Самаритдин Саматович, Самарқанд археология  
институтини катта илмий ходими

## NEW INFORMATION ABOUT KARSHI SARDOB

Suyunov Samaritdin Samatovich, Samarkand Archaeological  
Institute, Senior Researcher

## НОВЫЕ ДАННЫЕ О КАРШИНСКИХ САРДОБА

Суёнов Самаритдин Саматович, старший научный  
сотрудник Самаркандского археологического института



<https://orcid.org/0009-0001-3695-088X>

e-mail:  
suyunosamar.1963@gmail.  
com

**Аннотация:** Мақолада, Жанубий Суғднинг ғарбий қисми Қарши воҳасида жойлашган ноёб техник сув иншооти ҳисобланган сардобаларнинг бунёд этилиши тарихи билан боғлиқ янги маълумотлар келтирилган. Сардобалар савдо-қарвон йўлларида, ичимлик суви танқис бўлган жойларда, чўл худудларида, аждодларимизнинг илми, тафаккури, меъморчиликдаги улкан ютуқлари, иқлим шароити, табиий географияси, тупроғи ва инсондан кўпроқ билим талаб қиладиган мураккаб муҳандислик иншооти ҳисобланган. Шундай иншоотлардан 12 таси Қарши воҳасининг чўл худудида, Буюк ипак йўли тармоқлари атрофида, ичимлик суви танқис бўлган ерларда жойлашганлиги аниқланди.

**Калит сўзлар:** Қарши, Сардоба, Ҳовуз, Гумбаз, Қарвонсарой, Мўла, Жинбулок, Мирзаработ, Хўжанд, Касба, Ёғочли, Эгизак, Чорча, Кўш, Бўзачи.

**Abstract:** The article presents new information related to the history of the construction of cisterns, which are considered a unique technical water structure located in the Karshi oasis in the western part of Southern Sogd. Cisterns were considered a complex engineering structure on trade and caravan routes, in places with a shortage of drinking water, in desert areas and the great achievements of our ancestors in science, thinking, architecture, climatic conditions, natural geography, soil and human activity. knowledge. It has been established that 12 such structures are located in the desert area of the Karshi oasis, around the branches of the Great Silk Road, on lands where there is a shortage of drinking water.

**Key words:** Karshi, Sardoba, Khouz, Gumbaz, Caravanserai, Mola, Jinbulok, Mirzarabot, Khojend, Kasbah, Ojochly, Eyzak, Chorcha, Kosh, Bozachi.

**Аннотация:** В статье представлены новые сведения, связанные с историей строительства цистерн-сардоба, которые считаются уникальным техническим водным сооружением, расположенным в Каршинском оазисе западной части Южного Согда. Цистерны-сардоба считались сложным инженерным сооружением на торгово-караванных путях, в местах с недостатком питьевой воды, в пустынных районах и великими достижениями наших предков в науке, мышлении, архитектуре, климатических условиях, естественной географии, почве и человеческой деятельности. Установлено, что 12 таких сооружений расположены в пустынной местности Каршинского оазиса, вокруг ответвлений Великого шелкового пути, в регионах, где наблюдается дефицит питьевой воды.

**Ключевые слова:** Карши, Сардоба, Хауз, купол, Караван-сарай, Мола, Джинбулок, Мирзаработ, Ходженд, Касба, Ёғочлы, Эгизак, Чорча, Кош, Бозачи.

**КИРИШ.** Қарши воҳасида асрлар давомида яхши сақланган, ноёб техник сув иншооти ҳисобланган сардобаларнинг қурилиш тарихини ўрганиш ва таҳлил қилиш кейинги бир аср давомида жуда кўп мулоҳаза ва тортишувларга сабаб бўлиб келади. Бундан ташқари археология соҳасида олиб борилаётган ўрганишлар натижасида Буюк Ипак йўлининг янги тармоқлари пайдо бўлиши ва уларнинг ривожланишида, шу йўл ёқасида бунёд қилинган шаҳарлар, қалъа-қўрғонлар ва карвонсаройларнинг фаолияти сардобалар билан чамбарчас боғлиқ бўлганлиги тўғрисидаги фикрларни беради.

Аслида Ўрта Осиё худудида қайд этилган сардобаларнинг ўрганилиши билан боғлиқ бўлган изланишлар якуний бир тизим асосида олиб борилган эмас. Ваҳоланки Ўрта Осиё худудида сақланиб қолган сардобаларнинг ўрни аниқланган ва тахминий харитаси қилинган. Бу сардоба иншоотларнинг фаолияти тўғрисида умумий тушунча беради холос. Масалан Қарши воҳасида қайд этилган ноёб техник сув иншооти ҳисобланган сардобаларнинг қурилиш тарихини ўрганиш асосида кўплаб илмий маълумотларга эга бўлиш мумкин.

**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД.** Масалан Ўрта Осиё худудида сақланиб қолган сардобаларнинг қурилиш тарихи ва улардаги ҳовузларни сув билан доимий тўлдириш ишлари мавҳум бўлиб келмоқда. Ажабланарли томони шундаки, олимларнинг йирик тадқиқот ишларида ҳам бу мавзуга алоҳида эътибор қаратилган эмас ёки бу мавзуга доир иш қилинмаган, қилинган тадқиқотлар ҳам биз кутган натижани бера олмайди. Аслида илмий тўплам ва адабиётларда, масалан қадимшунос олим Массон М.Е тадқиқотларида Ўрта Осиё худуди бўйича сардобалар тарихи тўғрисида маълумотлар берилган. Лекин сардобаларнинг қурилиш тарихи тўғрисида умумий маълумотлар келтирилган[1.9-10].

Масалан Маев Н.А. ўрта асрларда бунёд қилинган карвонсаройлар ёнида қад кўтарган сардобалар Амир Темур даврида ҳам кўплаб қурилган ва қайта тикланганлиги тўғрисида маълумотлар берган. Аслида чўл худудларида, савдо йўллари атрофида баъзан карвонсаройлар ўрнида, олдиндан белгиланган жойларда

сардобаларни қуриш XI-XII асрларда бунёд қилинганлиги айtilган[2.39].

Ҳофиз Таниш Бухорийнинг “Абдуллонома” асарида Шайбонийлар сулоласига мансуб ўзбек хони Абдуллахон II Туркистондан, Марв ва Балхгача бўлган катта сарҳадларни эгаллаган, сўнгра бўлақларга бўлиниб кетган Мовароуннахрни қайта бирлаштиришга муваффақ бўлган ва Мовароуннахрнинг халқаро савдодаги аввалги шухратини тиклаш учун ҳам кўп саъй-ҳаракатлар қилган. Кўхна карвон йўллари ёқасида бунёд қилинган сардобалар, шундай саъй-ҳаракатларнинг амалий натижаси деб кўрсатилган. Юқоридагилардан кўриниб турибдики, тадқиқотчилар ўз фикри ва позициясида турибди[3.391].

**МЕТОД.** Тадқиқот мавзусини ёритиш давомида илмий тадқиқотнинг услублари, жумладан янги олинган маълумотларнинг қиёсий таҳлили, шунингдек тарихимизни ёритишда даврий кетма-кетлик, холислик ва реал аниқ маълумотлардан фойдаланилди.

**МУНОКАМА.** Масалан, Массон М.Е. Ўзбекистон худудидан ўтган Буюк Ипак йўли ёқасида қурилган сардобаларни чўл мавзесидаги барча талабларга жавоб берадиган ҳар томонлама қулай ва ер тузилишига мос равишда бунёд қилинганлигини айтади. Ҳаттоки сардобалар ўртасидаги масофалар деярли бир хил бўлганлигини, оралиқ масофа тахминан 25-30 км чамаси бўлганлигини қайд этади. Бундан ташқари, сардоба иншоотини қуриш учун белгиланган жойда ер текисланган ва иншоотни қуриш учун асос тайёрланганлигини таъкидлайди. Тадқиқотларда даставвал ерга қозик қоқилиб, иншоотнинг тархи чизилган. Шу йўсинда ҳовузнинг диаметри белгиланган, сўнгра деворларнинг ички ва ташқи фасадлари йўналиши белгиланган. Ҳовузларнинг диаметри тахминан 5 м дан, 7 м гача бўлган, шундан сўнг девор кўтарилиб тепа қисми гумбаз қилиб ёпилган. Деворнинг тепасига ҳовуздаги сув ифлосланмаслиги ва ичида ҳаво алмашиб туриши учун махсус туйнуклар қўйилган. Бу эса ҳовуздаги сувнинг бир хилда тоза ва салқин сақланишига хизмат қилган. Ҳаттоки ҳовуздаги сувни тоза сақлаш учун унга кичик маринка балиқлар солинганлигини қайд этган. Лекин кўп

йиллар давомида сардоба иншоотлари устида изланишлар олиб борган Решеткин М.М. ховуздаги сувга маринка балиқлар солинганлиги тўғрисида бирор марта маълумот қайд этмаган[4.6].

Собоцинский Л.А. Ўрта Осиё ҳудудида туб аҳоли ўртасида сардобаларни “сардоба”, “гумбаз”, “мўла” номлари билан атаб келинганлигини айтади. Қўшни ўлкалар, Эрон ва Хуросонда ханузга қадар фойдаланиб келинаётган бундай техник иншоотлар “обамбар” деб номланишини кўрсатиб ўтади. Бундан ташқари гидрогеолог Л.А.Собоцинский сардобаларнинг умумий таърифига тавсиф берган маълумотларида ҳам ушбу номларни қайд қилган [5.25].

Рус шарқшуноси, археолог Лерх П.И. сардоба иншооти ичимлик сув танқис бўлган жойларда қурилган мажмуа бўлиб, улар ер рельефига кўра қор-ёмғир сувлари, ер ости (кориз) сувлари ва оқар (арик) сувлари ёрдамида тўлдирилганлигини таъкидлаган. Сардоба атамаси форсча икки сўз **сард** – совуқ, **об** – сув бирикмаларидан иборат бўлиб, “совуқ сув” маъносини берганлиги тўғрисида ҳам маълумотлар берган. Шу жойда тадқиқотчи иншоотнинг ховузини сув билан қандай тўлдирилганлиги тўғрисида маълумот берган [6.14].

Геолог олим Бедгер Б.А. ўз тадқиқотларида Туркменистоннинг чўл ҳудудида Абдуллахон II номи билан аталган сардоба яхши сақланганлигини айтади. Сардоба иншооти Чоршанба темир йўл станциясидан 18 км узоқликда, работнинг ёнида жойлашган бўлиб, унинг диаметри 12,5 м га, баландлиги 10 м га тенг бўлган. Сардобага кириш учун тўрт томонидан эшик қўйилган. Сардобанинг пойдевори бўйлаб, ясси ҳолда сув тўпланадиган люк қилинган. Люк (қопқоқ)да йиғилган сувлар энсиз тарновча орқали ховузга туширилган [7.10].

Археолог М.Е.Массон тадқиқотларида ҳам Туркменистон ҳудудида жойлашган сардобаларнинг асосий қисми Абдуллахон II даврида бунёд қилинганлиги айтилади. Чунки, уларни бунёд қилишдаги меъморчилик услуги ва ишлатилган қурилиш материаллари (пишган ғишт, гипс ва бошқа қурилиш

компонентлари)нинг айнан XVI аср қурилиш услугига мос эканлиги айтилади.

Масалан, Қашқадарё воҳасида изланишлар олиб борган рус сайёҳи И.Л.Яворский ўз кундалигида XIX аср охирларида Қарши чўлида жойлашган сардобаларнинг бир нечасини ишдан чиққанлиги ва яроқсиз ҳолга келганлигини айтган. Сайёҳ, сардоба ховузлирини эриган қор сувлари ва ёмғир сувларидан тўлдирилганлигини, асрлар давомида уларни тўлдириш билан боғлиқ (қор ва ёмғир сувларининг етишмаслиги сабабли) муаммолар бўлиб турганлигини қайд этган. Ҳатто ушбу муаммоларнинг ечимини топиш мақсадида изланишлар ҳам олиб борган. Аниқланган сардоба ховузлирини тўлдириш учун уларга яқин жойлашган сув манбаларидан сунъий ариқлар қазилиб, шулар орқали сув олиб келинганлиги тўғрисида фикрлар ҳам билдирилган [8.315].

Худди шундай ҳолатни геолог М.М.Решеткин ҳам ўз тадқиқотларида кузатган. Масалан, Қарши чўлида қурилган Юсуф сардоба иншоотига узунлиги чамаси 15 км бўлган узоқликдан, янгидан қазилган сунъий ариқ орқали сув олиб келинган. Бундан ташқари Абдуллахон II даврида бунёд қилинган Қўш ва Бўзачи сардобаларига ҳам Қашқадарёнинг бош ўзанидан сунъий ариқ орқали сув олиб келинганлиги айтилган.

Қашқадарёнинг қуйи қисмида жойлашган Касби – жанубий Суғднинг йирик шаҳарларидан бири ҳисобланган. Ёзма манбаларга кўра, Касби, Насафдан 4 фарсах узоқликда бўлиб, ҳатто унда йирик Жомеъ масжиди бўлганлиги айтилган.

Истаҳрий ва Ибн Ҳавқал асарларида “Касби” атамаси, Касба шаклида тилга олинади. Бундан ташқари Касбини, Насафдан катта эканлиги ҳам қайд этилади. Ҳатто, Касби туманини Сомонийлар ҳукмронлиги даврида Бухоро-Балх йўли устида (Насафга етмасдан) жойлашган энг йирик савдо марказларидан бири эканлиги ҳам таъкидланади. Бу шаҳар тўғрисида фикр юритишимиздан мақсад, Касби аркига яқин жойда, шаҳар шаҳристонида Қашқадарё воҳасидаги энг йирик сардоба жойлашган. Бу ерда улкан сардобанинг қурилганлиги шаҳар аҳолисининг сувга эҳтиёжи катта бўлганлигини кўрсатади [9.7-10].

Воҳада асрлар давомида яхши сақланган, техник иншоот ҳисобланган сардобаларнинг ўрни ва қурилиш тарихини ўрганиш ҳамда таҳлил қилиш мақсадида изланишлар олиб борилди. Олиб борилган тадқиқотлар асосида янги маълумотлар қўлга киритилди. Воҳада Ўрачи, Талимаржон, Эгизак, Чорча, Юсуф, Қарши, Яккасардоба, Фатто, Ашун, Бегича, Шўрча ва Нишон сардобалари аниқланди. Улар орасида Касбига борадиган йўлда жойлашган Яккасардоба бизгача яхши сақланган ҳолда етиб келганлиги аниқланди. Яккасардоба воҳанинг чўл худудида сақланган бўлиб, иншоот ташқаридан қараганда ярим ой шаклига эга. Девори ва гумбази квадрат шаклда, иншоотнинг ўлчамлари 24см х 24см х 5см, 26см х 26см х 5см, бўлган пишган ғиштлардан кўтарилган. Сардобанинг баландлиги 9 м, иншоот тепасигача етти ярусдан иборат бўлиб, айланасимон шаклда кўтариб чиқилган. Яккасардобада 4 та аркасимон дераза бўлиб, унинг ўлчамлари 1,10м х 0,8м га тенг. Улар бир-бирига мос равишда симметрик тарзда жойлаштирилган. Деразаларнинг пастидан уларга мос равишда кичик аркасимон туйнуқлар ҳам қўйилган. Сардобанинг пойдевор қисми ҳовузнинг гардишидан бошлаб пишган ғишт билан кўтарилган. Ҳовузнинг диаметри 14 м га, чуқурлиги 4 м га тенг. Гумбазнинг юқори қисмидан, ҳовузга тўғри ёруғ тушиши учун айлана шаклда туйнуқ қўйилган. Яккасардобанинг эшиги аркасимон бўлиб, баландлиги 2,60 м га тенг эканлиги аниқланди.

**НАТИЖАЛАР.** Ўрта Осиё худуди бўйича бунёд этилган сардобаларнинг жойлашган ўрни, ҳозирда уларнинг сақланиш ҳолати ва қурилиш тарихини ўрганиш билан боғлиқ муаммолар илм аҳли ўртасида ҳалигача кўплаб муҳокама ва баҳс-мунозараларга сабаб бўлмоқда.

Масалан қадимшунос М.Е.Массоннинг тадқиқотларида сардоба ҳовузига сув ифлос бўлмаслиги учун маринка балиқлар солинганлиги айtilган. Лекин ўрта асрлар ёзма манбаларида сардобанинг ҳовузидаги сув тез-тез алмаштириб турилганлиги қайд қилинади. Бу албатта сув манбаларига яқин жойлашган сардобаларга тегишлидир. Археологлар М.Ҳ.Пардаев ва С.С.Суюновлар томонидан Жиззах–Сирдарё оралиғида жойлашган сардобаларда олиб борилган тадқиқотларда

Ёғочли сардобаси воҳанинг чўл худудида жойлашган бўлишига қарамай, Сирдарёдан бош олган сунъий суғориш тармоғининг кичик бир ўзани орқали сув олиб келинган. Ҳовузда сув ифлосланса алмаштирилиб турилган.

Худди шундай ҳолатни геолог М.М.Решеткин ҳам ўз тадқиқотларида кузатган. Масалан, Қарши чўлида қурилган Юсуф сардоба иншоотига узунлиги чамаси 15 км бўлган узоқликдан, янгидан қазилган сунъий ариқ орқали сув олиб келинган. Бундан ташқари Абдуллахон II даврида бунёд қилинган Қўш ва Бўзачи сардобаларига ҳам Қашқадарёнинг бош ўзанидан сунъий ариқ орқали сув олиб келинганлиги айtilган.

Айнан Қашқадарё чўл худудларида жойлашган сардобаларда тадқиқотлар олиб борган рус сайёҳи И.Л.Яворский ўз кундалигида сардоба ҳовузларини эриган қор сувлари ва ёмғир сувларидан тўлдирилганлигини, асрлар давомида уларни тўлдириш билан боғлиқ (қор ва ёмғир сувларининг етишмаслиги сабабли) муаммолар бўлиб, турганлигини қайд этган. Биз олиб борган изланишларда сардобаларнинг атрофида қор ва ёмғир бўлган пайтларда, уларнинг сувини махсус ҳовузларга туширишга ҳаракат қилганлар. Масалан Яккасардобага яқин жойда чуқурлик мавжуд. У сардоба ҳовузларига сув олиб кириш мақсадида қовланган бўлиши мумкин деган фикрга келдик. Ўрганишлар олиб борган сардобаларнинг учтасида шундай чуқурликлар сақланган.

Воҳа худудида асрлар давомида яхши сақланиб келган, ноёб техник сув иншооти ҳисобланган сардобаларнинг қурилиш тарихини ўрганиш ва таҳлил қилиш мақсадида Касби туманида жойлашган, ҳозирда ҳам яхши ҳолатда сақланган Яккасардобада изланишлар олиб борилди. Шу асосида талайгина янги маълумотлар қўлга киритилди. Яккасардоба иншооти ташқаридан қараганда ярим ой шакли кўринишига эга. Девори билан гумбази квадрат шаклда, ўлчамлари 24см х 24см х 5см, 26см х 26см х 5см, бўлган пишган ғиштлардан кўтарилган (XVI аср). Сардобанинг умумий баландлиги 9 м бўлиб, унинг тепасигача етти ярусдан иборат айланасимон шаклда кўтариб чиқилган. Яккасардобада 4 та аркасимон дераза бўлиб, унинг ўлчамлари 1,10м х 0,8м га тенг. Улар бир-бирига мос равишда симметрик тарзда

жойлаштирилган. Деразаларнинг пастидан уларга мос равишда кичик аркасимон туйнуклар ҳам қўйилган. Сардобанинг пойдевор қисми ҳовузнинг гардишидан бошлаб пишган ғишт билан кўтарилган бўлиб, ҳовузнинг диаметри 14 м га, чуқурлиги 4 м га тенг. Гумбазнинг юқори қисмидан, ҳовузга тўғри ёруғ тушиши учун айлана шаклда туйнук қўйилган. Яккасардобанинг эшиги аркасимон бўлиб, баландлиги 2,60 м га тенг эканлиги аниқланди. Қизиқarli томони шундаки, иншоотнинг жануби-шарқий томонида улкан чуқурлик мавжуд[10.272].

**ХУЛОСА.** Ўтказилган тадқиқотларга кўра Қарши воҳаси чўл худудида аниқланган ноёб техник сув иншооти сардобалар тўғрисида қуйидагича хулоса қилинди.

Биринчидан, сардоба иншоотини қуришда дастлаб қуриладиган ер сатҳининг текислиги ва жойлашган ўрни инобатга олинган.

Иккинчидан, сардобанинг ҳовузи асосан иншоотнинг ўртасида бўлган.

Учинчидан, сардобанинг ҳовузи қовлангандан сўнг, сув олиш учун қулай жойи танланган ва зина қилинган.

Тўртинчидан, сардобанинг ҳовузи қор, ёмғир, оқар ариқ сувлари ва ер ости (қориз) сувлари ёрдамида тўлдирилган. Ҳовузда сув ифлосланмаслиги учун алмаштириб турилган.

Бешинчидан, сардоба иншоотини қуриш учун қурилиш ашёларидан гипс, алебастр,

пишган ғишт ва йўнилган тош жинсларидан фойдаланилган.

Олтинчидан, Яккасардоба иншоотини қуришдаги меъморчилик услуби ва ишлатилган қурилиш материаллари (пишган ғишт, гипс ва бошқа қурилиш компонентлари)га қараб XVI асрда бунёд этилганлиги аниқланди.

### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Массон М.Е. Проблема изучения цистерн-сардоба, Ташкент, 1935.
2. Маев Н.А. Степные пути от Карши до Амударьи. Туркестанские ведомости, М., 1880.
3. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома. I-жилд, Тошкент. 1969.
4. Решеткин М.М. Дневник, Ташкент. 1928.
5. Собоцинский Л.А. Статистико-экономический очерк, Спб, М. 1913.
6. Лерх П.И. Археологическая поездка в Туркестанский край в 1857., Спб, М. 1870.
7. Бедгер Б.А. Полевой дневник, Москва. 1930.
8. Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879г., Спб, 1883.
9. С.С. Суёнов. Шимоли-ғарбий Уструшонанинг суғорилиш тарихи (V-XVI асрлар, археологик материаллар асосида) // диссертация, Самарқанд, 1999.
10. С.С. Суёнов. Қашқадарё воҳасининг суғорилиш тарихи, Қарши, 2023.



## ШИМОЛИЙ БАКТРИЯНИНГ СЎНГГИ БРОНЗА ВА ИЛК ТЕМИР ДАВРИ ПАЛЕОБОТАНИК МАТЕРИАЛЛАРИ ҚИЁСИЙ ТАХЛИЛИ

Аскаров Оллаберган Икром ўғли, ЎзРФА Миллий  
археология маркази

COMPARATIVE ANALYSIS OF  
PALEOBOTANICAL MATERIALS FROM THE  
LATE BRONZE AND EARLY IRON AGES OF  
NORTHERN BACTRIA  
Askarov Ollabergan Ikrom ugli, National Center of  
Archaeology, Academy of Sciences of Uzbekistan

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ  
ПАЛЕОБОТАНИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ  
ПОЗДНЕГО БРОНЗОВОГО И РАННЕГО  
ЖЕЛЕЗНОГО ВЕКА СЕВЕРНОЙ БАКТРИИ  
Аскаров Оллаберган Икром оглы, Национальный центр  
археологии Академии наук Узбекистана

**Аннотация:** Ушбу мақолада Сурхондарё воҳаси ва жанубий Ўзбекистондаги қадимги деҳқончилик маданияти ва унинг ривожланиш жараёнлари тасвирланган. Илк ўтроқ деҳқончилик маданияти бронза даврида, яъни милoddан аввалги III минг йиллик охирида пайдо бўлган ва Сополли маданияти билан боғлиқлиги ва Сополли маданияти кенг ҳудудларга тарқалганлиги, унга Тожикистон ва Шимолий Афғонистондаги Дашли маданияти ҳам кирганлиги ўз аксини топган. Неолит даврида маҳаллий халқлар овчилик ва теримчилик билан шуғулланган, кейинчалик деҳқончиликка ўтган. Сурхондарё воҳасида бронза даврида кичик микровоҳалар пайдо бўлиб, уларда суғорма деҳқончилик ривожланган. Археологик топилмалар, хусусан Сополлитепа ва Жарқўтон ёдгорликларида топилган ғалла омборлари, қадимги халқларнинг буғдой, арпа ва узум етиштирганлигини кўрсатади. Текширувлар натижаларига кўра, маҳаллий халқлар қишлоқ хўжалигида сув таъминоти ва суғориш тизимидан фойдаланган. Шунингдек, Сополлитепа қабрларидан топилган мато қолдиқлари маҳаллий деҳқонлар пахта ва ипак етиштирганлигини тасдиқлайди. Деҳқончилик маданиятининг ривожланиши бронза давридан илк темир давригача давом этганлиги тўғрисида фикрлар баён этилган.

**Калит сўзлар:** Ўзбекистоннинг жануби, бронза даври, илк темир даври, Сополли маданияти, палеоботаник маъдумотлар, илк деҳқончилик маданияти.

**Abstract:** This article describes the ancient agricultural culture and its development in the Surkhandarya oasis and southern Uzbekistan. The early settled agricultural culture emerged during the Bronze Age, around the end of the 3rd millennium BCE, and is associated with the Sopolli culture. The Sopolli culture spread across a wide area, including parts of Tajikistan and the Dashly culture in northern Afghanistan. In the Neolithic period, the local populations were engaged in hunting and gathering, later transitioning to



<https://orcid.org/0009-0009-0404-4493>

e-mail:  
askarovallabergan@gmail.com

agriculture. During the Bronze Age, small micro-oases appeared in the Surkhandarya oasis, where irrigated agriculture developed. Archaeological findings, especially the grain storages discovered at the Sopollitepa and Jarkutan sites, indicate that ancient peoples cultivated wheat, barley, and grapes. Research shows that local communities used water supply and irrigation systems in their farming. Additionally, textile remnants found in Sopollitepa graves suggest that ancient farmers cultivated cotton and silk. The article discusses the development of agricultural culture from the Bronze Age to the early Iron Age.

**Key words:** Southern Uzbekistan, Bronze Age, Early Iron Age, Sopolli culture, paleobotanical data, early agricultural culture

**Аннотация:** В статье описана древняя земледельческая культура и её развитие в Сурхандарьинском оазисе и на юге Узбекистана. Ранняя оседлая земледельческая культура возникла в бронзовом веке, около конца III тысячелетия до н.э. и связана с культурой Саполли. Культура Саполли распространилась на обширную территорию, включая части Таджикистана и культуру Дашлы на севере Афганистана. В неолитический период местное население занималось охотой и собирательством, позднее перейдя к земледелию. В бронзовом веке в Сурхандарьинском оазисе появились небольшие микрзоны, где развивалось орошаемое земледелие. Археологические находки, в частности зернохранилища, обнаруженные на поселениях Сополлитепа и Жаркутан, свидетельствуют о том, что древние народы выращивали пшеницу, ячмень и виноград. Исследования показывают, что местные сообщества использовали системы водоснабжения и ирригации для ведения сельского хозяйства. Кроме того, остатки тканей, найденные в могилах Сополлитепа, указывают на выращивание хлопка и шелка. В статье рассматривается развитие земледельческой культуры с бронзового века до раннего железного века.

**Ключевые слова:** Южный Узбекистан, бронзовый век, ранний железный век, культура Саполли, палеоботанические данные, ранняя земледельческая культура.

**КИРИШ.** Ўзбекистоннинг жанубида, яъни Сурхон воҳасида илк ўтроқ деҳқончилик маданияти бронза даврида, яъни мил. авв. III минг йилликнинг охирида вужудга келган Сополли маданияти фаолияти билан боғлиқ. Сополли маданияти худудий доираси бутун Сурхон воҳаси ерлари ва бронза даврининг охирги босқичдан бошлаб Тожикистон Республикасининг Душанбе шаҳри атрофига тарқалган. Шимолий Афғонистонда фаолият юритган Дашли маданияти сополли маданиятининг бир варианты ҳисобланган.

Маълумки, Сополли маданияти тарқалган ерларда неолит даври ихтисослашган ўзлаштирувчи хўжалик шакллари юритган халқлар яшаган. Сурхон воҳасида неолит даври Мачай, Тўда ва Зарауткамар каби ёдгорликлари ўрганилган бўлиб, Ҳисор маданияти доирасига кирган. Бу даврда маҳаллий худудда ихтисослашган ўзлаштирувчи хўжалик шакли юритган халқлар истиқомат қилиб, уларнинг иқтисодий ҳаётида овчилик ва терим-термачилик хўжалик шакли устунлик қилган. У.Ислмовнинг тадқиқотлари бўйича Мачай маконида яшаган аҳоли ҳаётининг иккинчи босқичида ёввойи ҳайвонларни

хонакилаштирган[1]. В.А.Рановнинг илмий қарашларига кўра териб-термачлаш билан кун кечирган Ҳисор маданияти аҳолиси фаолиятининг сўнгги босқичида ўтроқлашиб деҳқончилик хўжалик шаклини юритган.

**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД.** Ушбу мавзунинг ёртиш давомида илмий тадқиқотнинг умумэтироф этган бир нечта услублари, жумладан маълумотларнинг таҳлили қиёсий таҳлил, синтез, шунингдек тарих ёзишининг даврий кетма-кетлиги, ҳолислиги, реаллиги каби принципларидан фойдаланилди.

Сурхон воҳаси сўнгги бронза даврида кичик деҳқончилик микроҳоаларидан ташкил топган. Улар Бойсун-Кўхитанг тоғ ёнбағирларидаги проаллювиал-аллювиал текисликларида жойлашган. Воҳа жануби-ғарбдан Музrabод, Шеробод чўллари билан, шимоли-ғарбда – Бандихон, Қизириқдара ва Ҳалқажар дарёсигача давом этган катта пасттекисликлар билан туташган. Кичик дарёлардан ташкил топган сув манбалари, унумдор тупроқли ерлар ва кенг яйловлар бронза даври деҳқончилик маданияти ривожланишининг муҳим табиий омил саналган.

Қадимги деҳқончилик маданиятига оид моддий топилмалар, хусусан палеоботаник маълумотлар Сополлитепа ва Жарқўтон ёдгорликларининг уйлардан ва қабрлардан топилган. Кўпхонали уйларнинг ҳар бирида озуқа захираси, биринчи навбатда ғалла сақланадиган хоналар бўлган. Бундай хоналарда ўчоқ, сандал ва ахлат учун мўлжалланган ўралар учрамаган. Ғалла сақланиши учун мўлжалланган хоналарнинг айримларининг полига сопол синиқлари тўшалган лойсувоқ қилинган. Кўп ҳолларда ғалла омборларида хумлар ва йирик кўзалар жойлашган бўлиб, уларда ғалла экинларининг донлари сақланган.

Донларини аниқлаш учун уларнинг намуналарини академик И.И.Вавилов номидаги “Ўсимликшунослик” институти кишлок хўжалик фанлари доктори М.М.Якубционер, кишлок хўжалик фанлари номзоди Р.А.Удачин, М.В.Лукьянов и ва биология фанлари номзоди М.И.Рябоваларга берилган. Дон намуналарини текшириш натижаларига бўйича уларнинг таркибида пакана буғдой (*Triticum compactum* Host), юмшоқ буғдой (*Triticum aestivum* L), арпа (*Hordeum vulgare* L) ва узум донлари (*Vitis vinifera* L) мавжудлиги аниқланган[2]. Жанубий ўзбекистонлик деҳқонлар етиштирган дон экинларининг таркиби жихатдан жанубий туркменистоннинг неолит, энеолит ва бронза даврлари жамоалари дон экинлари бир хил бўлган[3].

#### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР.**

Пакана буғдойнинг куйган намуналари Жанубий Афғонистондаги Мундигак ёдгорлигининг энеолит даври (Мундигак II) маданий қатламидан ва Ҳинд водийсидаги Хараппа маданиятига оид манзилгоҳлардан топилган[4]. Икки хил турдаги дон экинларнинг катта ҳудудда тарқалганлиги Н.И.Вавиловнинг уларнинг Шарқий Хуросон марказига тааллуқли бўлган деган фикрини тасдиқлайди[5]. Жанубий ўзбекистонлик деҳқонлар томонидан бронза даврида экилган арпа ва сулининг ёввойи турлари ҳозирги пайтда ҳам Кўхитан тоғ тизмаси ёнбағидаги текисликларда учрайди. Мутахассис олимларнинг фикрига кўра Сополлитепа манзилгоҳидан топилган маданийлаштирилган бошоқли дон экин турлари ёғингарчилик миқдори паст бўлган қуруқ иқлим ҳукмрон

бўлган чўл ҳудудларининг доимий суғориладиган ерларида етиштирилган.

Сополлитепа ёдгорлигидаги қабрлардан қадимий матонинг қолдиқлари топилган. Уларни махсус лабораторияда текшириш натижасига кўра пахта ва ипак хомашёсидан тайёрланганлиги аниқланган. Академик А.Асқаровнинг фикри бўйича пахта ва ипакни маданийлаштириш дастлаб Ўзбекистонда амалга оширилган[6]. Жарқўтон манзилгоҳида эса вино тайёрлаш учун мўлжалланган махсус хонанинг ўрни очилган[7].

Шерабоддарё Хўжаипак микроҳаларининг унумдор тупроқлари суғорма деҳқончилиكنинг ривожланиши учун қулай шароит ҳисобланган. Унумдор тупроққа экилган каммайдондаги экинлар ўз даврида кўп миқдорда ҳосил берган. Жанубий ўлкаларнинг иссиқ иқлимли об-ҳаво шароити учун суғориш тизимисиз деҳқончиликнинг ривожланиши мумкин бўлмаган.

Бронза даври аҳолисининг деҳқончилик хўжалиги тараккиётидан дарак берадиган кўп сонли топилмалар сақланиб қолган. Улар тошдан ясалган ёрғучоқ, кели, келитош ва мотиганинг учи. Ариқларни қозишда қандай иш қуролларидан фойдаланилганлиги тўғрисида аниқ маълумот мавжуд эмас. Фақат Сополлитепа манзилгоҳидан мотиганинг тошдан ясалган иккита йирик учи ва ерни шудгорлаш мақсадида суякдан ясалган мотигасифат анжом топилган[8].

Бўза асосан буғдой, тарик ва узумдан тайёрланганлиги археологик маълумотлар орқали бизгача етиб келган. Сополлитепа манзилгоҳида ўрганилган 1, 100 ва 101 рақамли қабрларидан топилган кўзаларнинг тагида сақланиб қолган буғдой кепаги, жийда, узум данаклари гувоҳлик беради. Жийда бўзани ачитиш жараёнини тезлаштиришга хизмат қилган бўлиб, Сополлитепалик аҳоли бу амалиётни яхши ўзлаштирган. Академик А.Асқаровнинг тадқиқотлар натижасида келган хулосаларига кўра Сополлитепа манзилгоҳида яшаган қадимги деҳқонлар нон пишириш амалиётига эга бўлганлар. Тандир қолдиқлари тадқиқотчи томонидан ўрганилган. Тўртта тандир қолдиқлари манзилгоҳнинг 104 ва 105 хоналарида сақланиб қолган. Тадқиқотчининг хулосасига кўра мазкур хоналар нонвойхоналар ҳисобланган. Сополлитепа манзилгоҳидан



топилган тандирлар ўзбекларнинг замонавий нухасидан фарқ қилмаган. Айрим сопол идишларда қабрлардаги каби буғдой, тарикдан пиширилган диний маросим таомларининг қолдиқлари сақланиб қолган[9].

Шимолий Бактрия худудида сўнги бронза даври суғорма деҳқончилик хўжалик анъанаси давомийлиги тўғрисида аниқ маълумот мавжуд эмас. Бандихон микровоҳасида Ургуликсойдан бош олган қадимги ариқ Бандихон I ёдгорлиги яқинидан аниқланган. Ариқнинг эни 8-10 м ва чуқурлиги жойларда 1,5 м бўлиб, ўрни 3,5 км масофада сақланиб қолган. Ариқнинг оқими бўйлаб 1 км масофадан сўнг дастлаб иккита, кейин учта тармоққа бўлинган. Э.В.Ртвеладзе ариқдан қадимги деҳқонлар илк темир даврининг бошларидан бошлаб фойдаланганлиги тўғрисидаги фикрни билдирган[10]. Лекин Шимолий Бактрия ёдгорликларининг илк темир даври дастлабки босқичларига оид маданий қатламларидан зироатчилик билан боғлиқ моддий топилмалар, хусусан, дуккакли ўсимликларнинг қолдиқлари кам топилган[11]. Илк темир даврининг дастлабки босқичида деҳқончилик хўжалиги суст ривожланган. Дастлабки босқичининг охиридан бошлаб, суғориш тизими такомиллашиб, деҳқончилик ривожланган.

**XULOSA.** Умуман Шимоли-Ғарбий Бактрияда сўнги бронза даврида қадимги шарқ цивилизацияларига хос маданият қарор топиб, суғорма деҳқончилик хўжалиги ривожланган. Деҳқончиликда дуккакли ўсимликлар етиштириш, боғдорчилик ва ғўза етиштириш тараққий этган. Илк темир даврида эса суғориш тизими янада

такомиллашади. Деҳқончилик хўжалиги янада ривожланади.

## АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Исламов У.И. Пещера Мачай. Ташкент: Фан, 1975. – С. 76.
2. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура южного Узбекистана Ташкент: Фан, 1977. – С. 117-118.
3. Лисицина Г.Н. Становление и развитие орошаемого земледелия в Южной Туркмении. М: Наука, 1978. –С. 135-136.
4. Массон В.М. Первая цивилизация. М.: Высшая школа, 1989. –С. 78.
5. Вавилов Н.И. Центры происхождения культурных растений// Труды по прикладной ботанике и селекции. -1925. - Т. 16. - Вып. 2.-С. 7-8.
6. Вавилов, 1925, с. 25-32.
7. Аскарлов А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи Тошкент: O'zbekiston, 2015. –Б. 146.
8. Ширинов Т.Ш. Винодельня Джаркутана – памятник эпохи бронзы юга Узбекистана // ИМКУ. Вып. 24. Ташкент: Фан, 1990. – С. 18-28.
9. Аскарлов А.А. Сапаллитера Ташкент: Фан, 1973 –С. 18
10. Абдуллаев Б., Аскарлов А.А. Джаркутан. Ташкент: Фан, 1973. – С. 46.
11. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия – Тохаристан. Очерки истории и культуры (древность и средневековье). Ташкент: Фан, 1990. С.22-38.



## О НЕКОТОРЫХ ФУНКЦИЯХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РЕЧИ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СТАРШЕГО ПОКОЛЕНИЯ

Рузметов Сурожбек Аллаберганович, доцент Ургенчского государственного университета, доктор философии (PhD) по филологическим наукам

## KEKSA AVLOD VAKILLARI NUTQIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARINING BA‘ZI FUNKSIYALARI HAQIDA

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich, Urganch davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

## ON SOME FUNCTIONS OF BORROWINGS IN THE SPEECH OF REPRESENTATIVES OF THE OLDER GENERATION

Ruzmetov Surozhibek Allaberganovich, Associate Professor of Urgench State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences



<https://orcid.org/0000-0002-5893-1532>

e-mail:  
[@surojbek\\_ruzmetov](mailto:@surojbek_ruzmetov)

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются основные функции заимствованных слов в речи представителей старшего поколения. В качестве материала исследования выбраны видеоролики с сайта [www.youtube.com](http://www.youtube.com), в которых демонстрируется речь представителей старшего поколения. Установлено, что употребление заимствованных слов в речи людей пожилого возраста может быть обусловлено несколькими причинами.

**Ключевые слова:** слово, заимствование, процесс заимствования, представитель старшего поколения, речь, функция.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada keksa avlod vakillari nutqida o‘zlashgan so‘zlar qo‘llanilishining asosiy funksiyalari yoritilgan. Tadqiqot materiali sifatida [www.youtube.com](http://www.youtube.com) platformasidan ushbu avlod vakillari nutqi aks etgan videoroliklar olingan. Ularning nutqida bu kabi birliklarning qo‘llanilishi bir nechta sabab bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi ta’kidlangan.

**Kalit so‘zlar:** so‘z, o‘zlashma, o‘zlashish jarayoni, keksa avlod vakili, nutq, funksiya.

**Abstract:** The article examines the main functions of borrowed words in the speech of older people. The research material includes videos from the website [www.youtube.com](http://www.youtube.com), which demonstrate the speech of older people. It has been established that the use of borrowed words in the speech of older people can be due to several reasons.

**Key words:** word, borrowing, borrowing process, older person, speech, function.

**ВВЕДЕНИЕ.** Как известно, в мире не существует развитого языка, который не имел бы иноязычные заимствования в своем лексическом

составе. Суть процесса заимствования исследователями трактуется по-разному.

**ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД.** Некоторые лингвисты понимают под заимствованием процесс «перемещения» лексических единиц из одного языка в другой (Л.П.Крысин, А.П.Майоров и др.), другие – слова, полученные в результате процесса освоения иноязычных слов (графическое, фонетическое, морфологическое оформление) (О.С.Ахманова, Е.В.Маринова и др.), третьи – результат экономических, политических и культурных связей с другими народами (Д.Э.Розенталь). Сейчас, как никогда, ощущается настоящая потребность в подробном, глубоком анализе данного явления на основе достаточно обширного практического материала.

Существует множество факторов, которые влияют на использование человеком того или иного заимствованного слова. В частности, можно выделить такие социальные факторы, как возраст, социально-коммуникативный контекст, вероисповедание, половая принадлежность и т.п. В этом плане представляется показательным и интересным функционально-коммуникативная нагруженность заимствованных единиц в речи людей пожилого возраста. Данная тема актуальна и потому, что представители старшего поколения отличаются от репрезентантов других возрастных групп особым образом мышления; социальной ролью; опытом, результатом которого можно считать мудрость; иногда и слабым состоянием здоровья, обусловленного ухудшением обмена веществ в организме и т.п.

За последние два десятилетия в социолингвистике активизировалось направление, которое стало больше внимания уделять особенностям языка пожилых людей. Это может быть объяснено общим старением населения в развитых странах. По статистическим данным, в 1980 году в Великобритании доля населения, превысившего пенсионный рубеж, составляло 11,3 %, а к 2030 году, по прогнозам демографов, старшее поколение будет составлять одну пятую часть всего населения страны [3,с.81]. Все это ставит на повестку дня вопрос об изучении проблем, связанных с процессом старения для геронтологов, вопросов речеповеденческой деятельности – для социолингвистов и т.д.

Вопрос о заимствовании элементов, слов и цельных словосочетаний из одного языка в другой является одним из спорных вопросов в лингвистике. Как указывает И.Н. Геранина, впервые проблема о взаимодействии языков, взаимопроникновении элементов рассматривалась в трудах известного русского языковеда польского происхождения И.А.Бодуэна де Куртенэ (1875 г.) [1,с.101-102].

**ОБСУЖДЕНИЕ.** Для выявления, анализа и описания особенностей функционирования заимствованных единиц в речи представителей старшего поколения нами методом сплошной выборки было подобрано более 100 видеороликов (интервью) с сайта [www.youtube.com/watch?v=](http://www.youtube.com/watch?v=) (далее указывается в квадратной скобке уникальная кодовая ссылка с сайта). В результате анализа удалось установить, что заимствования в речи представителей старшего поколения в основном употребляются для обозначения новых вещей, явлений, устаревших понятий, экономии языковых средств, конкретизации, личностного самовыражения, эвфемизации и др.

**РЕЗУЛЬТАТЫ.** Необходимость обозначения новых вещей, явлений, понятий. Основной причиной заимствования иноязычного слова, указанной Л.П.Крысиным, является потребность в обозначении новой вещи или явления обыденной действительности [4,с.89-90]. Значит, новое слово проникает в язык вместе с обозначаемым предметом. В качестве примеров к таким заимствованиям можно отнести единицы интернет, компьютер, электростанция, которые были выявлены нами в речи представителей старшего поколения. Примеры употребления данных единиц:

Слава богу, у нее интернет, она может работать, мы с ней общаемся [[Si3H7lz0xr8](#)];

Он (Ю.А.Шрейдер) был блестящим математиком, занимался и компьютерами [[2PcidcPxvyk](#)]; Недавно электростанция взорвалась, все сгорело, т.к. было сухое [[ukJl2mJLums](#)]. Действительно, одним из основных причин лексического заимствования является возникшая необходимость номинации нового явления, предмета. Если для обозначения понятия будет образовано специальное исконное слово при помощи средств собственного деривационного потенциала, это не гарантирует,

что оно может выдержать конкуренцию с иноземным. Здесь следует вспомнить неустоявшиеся в русском языке исконные единицы колоземица и мироколица, предложенные в свое время Владимиром Далем взамен иноязычного атмосфера.

Необходимость в обозначении устаревших понятий. Заимствования в речи представителей старшего поколения могут употребляться для обозначения исчезнувших предметов, явлений. В частности, нами было выявлено несколько таких единиц: губерния, кулак, купон, мануфактура и др.

При анализе нами был обнаружен случай, когда представитель старшего поколения вместо единицы область допустил употребление давно устаревшей лексемы губерния: Мои дедушки были из Орловской губернии и оба погибли на войне, пропали без вести [SQPVkzK-zO8]. Видимо, информант запомнил место рождения своих предков в прозвучавшей форме в речи самих же предков: Орловская губерния. Во всяком случае, употребление единицы губерния вполне оправдываемо, т.к. в период (рождение предков), о котором говорится в предложении, нынешняя Орловская область именовалась губернией.

Следующей заимствованной единицей, вышедшей из обихода в результате исчезновения обозначаемого понятия, является кулак. Как мы знаем, одно из значений данного слова (кисть руки со сжатыми пальцами) относится к общеупотребительной лексике. Второе значение слова – сословие зажиточных крестьян – является устаревшим. Нам удалось обнаружить данное заимствование в речи представителей старшего поколения в обоих значениях: Продукты свои были, картошки – по кулаку [ukJl2mJLums]. В данном примере подразумевается именно значение кисть руки со сжатыми пальцами, которое «живет» в русском языке и по сей день. Пример употребления во втором значении: ... с нами жил кулак, которого раскулачили во время коллективизации [PT506&dq]. В ходе коллективизации сельского хозяйства, начатой в СССР в 1928 году, Политбюро Компартии издало указ, предусматривающий ликвидацию кулачества как класса. Значит, представителям старшего поколения было не только хорошо известно, но и

широко употреблялось второе значение единицы, о чем свидетельствует лексема раскулачивание, образованная от рассматриваемого нами слова.

По поводу слова мануфактура следует отметить, что обозначаемое им понятие (предприятия с использованием ручного труда) исчезли в XIX веке, кроме текстильных фабрик, на которых производство основывается в основном на использовании человеческого труда. В контексте представитель старшего поколения подразумевает московскую текстильную фабрику, основанную в конце XVIII века: Дали нам путевку на Трехгорную мануфактуру Москвы [Op-druecOcY]. Экономия языковых средств. Одной из не менее важных причин употребления представителями старшего поколения заимствованных единиц является тенденция «языковой экономии», при которой иноязычное слово включается в речь в целях замены длинных словосочетаний (в основном исконного происхождения) однословными обозначениями. Например, в предложении Кто сказал, что ветераны – это жалобы и охи?! [eI0FtpIJ6-M] единица ветеран заменяет конструкцию участник Второй мировой войны. Для замены конструкции костюм, представляющий собой соединение куртки и брюк представитель старшего поколения в речи употребил слово комбинезон: Ни платишек, ни комбинезонов у нас не было. Помню, что у меня было пальтишко [LCxj8Gi3js8]. В следующем примере представитель старшего поколения употребляет иноязычное фаст-фуд, подразумевая пищевые продукты быстрого приготовления. При этом, конструкция, включающая рассматриваемую нами единицу, употребляется в переносном смысле: Ныне наблюдается общее падение уровня культуры на планете: все согласны на фаст-фуд вместо хорошего шеф-повара [RpPJr3dj5bQ].

Итак, представители старшего поколения могут употребить заимствованное слово в целях экономии языковых средств, в частности, взамен многословной конструкции однословным обозначением иноязычного происхождения.

**Конкретизирующая функция заимствований.** Иноязычные слова в речи представителей старшего поколения также выполняют дифференцирующую, вернее,

конкретизирующую функцию. В частности, в одном из примеров нами был обнаружен случай употребления единицы рюкзак вместо слова сумка. В отличие от сумки, как мы знаем, слово рюкзак имеет сему «заплечный». Значит, в данном примере иноязычное слово не может быть заменено исконной сумка: Я сюда приехал с рюкзаком книг, женой и ребенком [Dkyjr9a0a0Q].

Следовательно, конкретизирующая функция заимствованного слова обеспечивается за счет дополнительного значения, которое заключается в семантике единицы. Подобные заимствования в речи представителей старшего поколения встречаются редко.

**Функция «личностного самовыражения».** Некоторым людям свойственна манера употреблять в своей лексике неоправданные заимствования, значения которых известны лишь немногим, а Л.М.Букиной подчеркивается свойство употребления иностранных слов в речи, служащих «показателем» эрудированности и высокостатусности человека [8,с.96]. Значит, мастерство употребления иноязычного слова в речи может свидетельствовать о принадлежности человека к интеллигенции. По поводу демонстрации высокостатусности отметим, что оно свойственно речи молодежи, нежели представителей старшего поколения.

**Функция эвфемизации.** Как отмечается Н.С.Валгиной, одной из причин употребления заимствованного слова является потребность в эвфемистической замене исконного слова [9]. В речи представителей старшего поколения мы обнаружили заимствования, которые служат для более мягкой передачи значения, заключенного в семантике исконной лексической единицы. Это можно пронаблюдать на примере единиц депрессия, феноптоз: Мы видим, как на глазах наши пенсионеры оживают от депрессии [15sjapqWNh4]. Здесь заимствованная единица депрессия заменяет исконно русское подавленность; Слово insult употреблено в значении отмирание клеток мозга; Мы назвали это явление феноптозом [W-5u1s2AgAM]. Здесь под феноптозом следует понимать запрограммированную смерть.

Как видим, все заимствования, подобранные представителями старшего

поколения для эвфемистической замены, в основном представлены терминами сферы медицины.

**Функция иронизации.** Как известно, некоторые слова могут нести экспрессивно-стилистическую нагрузку. В речи представителя старшего поколения нам удалось выявить заимствованные слова, которые употребляются в целях легкой насмешки: Мы сейчас живем благодаря тому, что советские геологи нам базу подготовили, а на Украине ничего нет. Что было делать украинским олигархам? Они начали как в России, так называемую модернизацию, реструктуризацию и оптимизацию [VRaziWEQ7MA].

Итак, единицы модернизация, реструктуризация и оптимизация выражают ироническое отношение говорящего к событиям на Украине после распада СССР, что также подтверждается интонацией.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** Таким образом, в результате проделанного анализа функционально-речевых особенностей употребления заимствованных из других языков единиц в речи представителей старшего поколения, нам удалось установить, что иноязычные слова выполняют следующие функции: обозначение новых вещей, явлений, понятий; обозначение устаревших понятий; экономия языковых средств; конкретизация; личностное самовыражение; эвфемизация и др.

#### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Геранина И. Н. О термине «заимствование». // Известия ПГПУ, 2008. – № 6 (10). – С. 101-102.
2. Розенталь Д. Э. Справочник по русскому языку. Практическая стилистика. – М.: Оникс, 2001. – С. 69.
3. Вахтин Н.Б., Головкин Е.В. Социолингвистика и социология языка: Учебное пособие. – СПб.: ИЦ «Гуманитарная академия»; Изд-во Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2004. – 336 с.
4. Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – М.: Наука, 1968. – С. 89-90.
5. Н. В. О роли франкоязычных заимствований в лексикологической системе

русского языка // Балтийский гуманитарный журнал, 2018. – №2 (23). – С. 97.

6. Сырескина С. В. Англоязычные заимствования в русском языке. // Молодой ученый, 2017. – № 41 (175). – С. 89.

7. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Шквал>

8. Букина Л.М. Внешняя и внутренняя обусловленность языкового заимствования. //

Вестник РУДН, серия Лингвистика, 2016. – Том 20, № 1. – С. 96.

9. Валгина Н. С. Активные процессы в современном русском языке: Учебное пособие. – М.: Логос, 2001. – 304 с. [<http://www.hi-edu.ru/e-books/xbook050/01/>].



## O‘ZBEKISTON YOSHLARIDA “OMMAVIY MADANIYAT”GA QARSHI IMMUNITETDA MILLIY QADRIYATLARNING STRATEGIK O‘RNI VA AHAMIYATI

Xayridinov Abbosxon Anvarovich, Ichki ishlar vazirligi  
Toshkent shahar 2-son akademik litseyi maxsus fanlar  
o‘qituvchisi, podpolkovnik

## THE STRATEGIC ROLE AND IMPORTANCE OF NATIONAL VALUES IN BUILDING IMMUNITY AGAINST “MASS CULTURE” AMONG UZBEK YOUTH

Hayridinov Abboskhon Anvarovich, Special Sciences Teacher at  
the Tashkent City 2nd Academic Lyceum of the Ministry of  
Internal Affairs, Lieutenant Colonel

## СТРАТЕГИЧЕСКАЯ РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИММУНИТЕТА ПРОТИВ “МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ” СРЕДИ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА

Хайридинов Аббосхон Анварович, преподаватель  
специальных дисциплин Ташкентского академического  
лицея №2 Министерства внутренних дел, подполковник



<https://orcid.org/0009-0003-1661-5472>

e-mail:  
academicaget6767@gmail.  
com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston yoshlarida “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’siriga qarshi immunitet shakllantirishda milliy qadriyatlarining strategik o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish orqali yoshlar ongida mustahkam ma’naviy immunitet shakllantirish mumkin. Eksperiment va sotsiologik so‘rovlar asosida ommaviy madaniyatning yoshlar tarbiyasiga ta’siri va milliy qadriyatlar bilan bog‘liq munosabat o‘zgarishlari aniqlandi. Milliy qadriyatlar nafaqat yoshlar tarbiyasida, balki ularning madaniy identifikatsiyasini saqlab qolishda ham muhim vosita hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** ommaviy madaniyat, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy immunitet, sotsiologik so‘rov, madaniy identifikatsiya.

**Abstract:** This article analyzes the strategic role and importance of national values in building immunity against the negative influence of “mass culture” among Uzbek youth. The results of the study show that promoting national values can foster strong spiritual immunity in the minds of young people. Based on experiments and sociological surveys, changes in attitudes toward mass culture and national values among youth were identified. National values are not only essential in youth education but also play a crucial role in preserving their cultural identity.

**Key words:** mass culture, national values, youth education, spiritual immunity, sociological survey, cultural identity.

**Аннотация:** В данной статье анализируется стратегическая роль и значение национальных ценностей в формировании иммунитета против негативного влияния «массовой культуры» среди узбекской молодежи. Результаты исследования показывают, что продвижение национальных ценностей может способствовать укреплению духовного иммунитета у молодежи. На основе экспериментов и социологических опросов выявлены изменения в отношении к массовой культуре и национальным ценностям среди молодежи. Национальные ценности важны не только в воспитании молодежи, но и играют ключевую роль в сохранении их культурной идентичности.

**Ключевые слова:** массовая культура, национальные ценности, воспитание молодежи, духовный иммунитет, социологический опрос, культурная идентичность.

**KIRISH.** Zamonaviy globalizatsiya davrida “ommaviy madaniyat” tushunchasi jahon bo‘ylab keng yoyilmoqda va uning ta’siri ko‘plab sohalarda, jumladan, yoshlar ongida sezilarli darajada namoyon bo‘lmoqda. “Ommaviy madaniyat” deganda, ko‘pincha, insonlarning madaniy, ijtimoiy va ma’naviy hayotini standartlashtirishga qaratilgan, asosan tijorat maqsadida yaratilgan madaniy hodisalar tushuniladi. Bu jarayon yoshlar orasida milliy qadriyatlar va an’analar ahamiyatini susaytirib, ularning madaniy identifikatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, O‘zbekiston yoshlari global ommaviy madaniyat oqimlaridan ta’sirlanib, o‘z milliy o‘zligini unutishi yoki kamroq qadrlashi xavfi ostida.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda yoshlar orasida internetdan foydalanish ko‘rsatkichi 95 foizga yetdi, shundan 70 foizga yaqini ijtimoiy tarmoqlar orqali global ommaviy madaniyat kontentiga muntazam kirib turadi. Bu raqamlar yoshlar orasida global madaniyat va ommaviy axborot vositalari ta’sirida shakllangan hodisalarning qanchalik tez va keng tarqalayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 2021-yilda qabul qilingan “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlar ma’naviyati va ma’rifatini oshirishni davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilaydi.

Shu sababli, yoshlar ongida milliy qadriyatlarning mustahkam o‘rnini saqlab qolish, ularda “ommaviy madaniyat” tahdidlariga qarshi immunitetni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Milliy qadriyatlar, o‘z navbatida, nafaqat madaniy meros sifatida, balki yoshlarning ma’naviy barkamolligini ta’minlashda, ularni ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada “ommaviy madaniyat” tahdidiga qarshi immunitet shakllantirishda milliy qadriyatlarning

strategik roli va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar yoshlarda mustahkam ma’naviy va axloqiy poydevor yaratish, ularga milliy madaniyat va urf-odatlarining ahamiyatini anglatish orqali global tahdidlarga qarshi immunitet hosil qilish vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot maqsadi – O‘zbekiston yoshlarida “ommaviy madaniyat” tahdidiga qarshi immunitet shakllantirishda milliy qadriyatlarining strategik o‘rnini ilmiy asosda tahlil qilish hamda bu jarayonda milliy qadriyatlarining rolini kuchaytirishga yo‘naltirilgan samarali usullarni aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

1. Ommaviy madaniyatning yoshlar ongiga ta’sirini o‘rganish.
2. Milliy qadriyatlarning yoshlar ma’naviy rivojlanishidagi ahamiyatini aniqlash.
3. “Ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashda milliy qadriyatlarni mustahkamlash usullarini ishlab chiqish.
4. O‘zbekiston yoshlari uchun milliy qadriyatlar asosida ma’naviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar berish.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** O‘zbekiston yoshlarida “ommaviy madaniyat” tahdidiga qarshi immunitet shakllantirish masalasi dunyo miqyosida o‘rganilgan muhim ijtimoiy-psixologik va madaniy hodisalarning bir qismi sifatida tahlil qilinishi lozim. Xalqaro miqyosda bu borada olib borilgan tadqiqotlar ommaviy madaniyatning ijtimoiy jarayonlarga ta’siri, ayniqsa, yosh avlod ongini shakllantirishdagi o‘rni borasida keng ko‘lamli ilmiy yondashuvlarni taklif qiladi. Ushbu tadqiqotlar milliy qadriyatlar, an’analar va global tijorat madaniyati o‘rtasidagi qarama-qarshilikni chuqur yoritadi.

Amerikalik tadqiqotchi J.Fiske ommaviy madaniyatni iste’molchilik madaniyatining asosiy komponenti sifatida tahlil qilgan. U ommaviy



madaniyatni tijorat manfaatlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida tavsiflab, uning global ijtimoiy va madaniy ta'sirini tahlil qiladi. Fiske o'z ishlarida ommaviy madaniyat orqali tarqatilayotgan mahsulotlar va g'oyalar insonning o'zini anglashiga, an'anaviy qadriyatlar va madaniyatga bo'lgan munosabatiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi (Fiske, 1989). J.Storey ham shunga o'xshash yondashuvda ommaviy madaniyatning kuchayishi natijasida milliy va madaniy identifikatsiyaning susayishini, bu jarayonning ijtimoiy strukturaga va madaniy merosga qanchalik jiddiy ta'sir etishini tahlil qiladi (Storey, 2015).

Xorijiy olimlardan M. Featherstone va S.Lash ommaviy madaniyatni globalizm doirasida tadqiq qilib, bu hodisaning milliy va madaniy qadriyatlarni qanday cheklab qo'yishi va ularni yo'qotish jarayoniga qanday hissa qo'shishini tahlil qiladilar. Featherstone o'z tadqiqotlarida ommaviy madaniyatni "yagona" madaniyat sifatida talqin qilib, uning natijasida milliy o'zlik va madaniy merosning marginal holatga tushib qolishini qayd etadi (Featherstone, 1995). Lash esa ommaviy madaniyatni individualizm va iste'molchilik ideologiyasi asosida shakllangan hodisa deb hisoblab, u yoshlar ongida an'anaviy qadriyatlarni buzishi va zaiflashtirishi mumkinligini ko'rsatadi (Lash, 1994).

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida milliy qadriyatlar va ularning yoshlar ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasidagi o'rni alohida e'tirof etilgan. A.Komilov milliy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni yosh avlodga singdirish masalasini dolzarb masala sifatida talqin qiladi. U o'z tadqiqotlarida ommaviy madaniyatning yoshlar ongi va madaniyatiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini milliy qadriyatlar orqali oldini olish zarurligini ta'kidlaydi (Komilov, 2019). Shu bilan birga, M.Jalilov milliy qadriyatlar va an'analarni ommaviy madaniyat tahdidlariga qarshi eng muhim ma'naviy vosita sifatida tavsiflab, ularni saqlash va rivojlantirish zarurati haqida to'xtaladi (Jalilov, 2020).

Xorijiy va mahalliy adabiyotlarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, global madaniyatning milliy qadriyatlar va yoshlar ongiga ta'sirini o'rganishda keng ko'lamlil ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Biroq milliy qadriyatlarni ommaviy madaniyat tahdidiga qarshi immunitet shakllantirishda strategik o'rganish masalasi O'zbekiston sharoitida hali ham dolzarb bo'lib

qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, milliy qadriyatlarining o'rni va ahamiyatini chuqur o'rganish, yoshlar ongiga singdirish jarayonida ularning qanday samaradorlik ko'rsatishini aniqlash muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

**METODOLOGIYA.** Tadqiqotda quyidagi usul va metodlardan foydalanildi:

1. **Nazariy tadqiqot usuli** – milliy qadriyatlar va ommaviy madaniyat haqidagi ilmiy konsepsiyalar, nazariy asarlar, maqolalar va davlat hujjatlari tahlil qilindi.

2. **Sotsiologik so'rov** – O'zbekiston yoshlarida ommaviy madaniyat ta'siri va milliy qadriyatlar haqidagi bilim darajasi aniqlash uchun so'rovlar o'tkazilib, statistik tahlil qilindi.

3. **Eksperimental usul** – milliy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilib, natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

4. **Kontent-tahlil** – ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi ommaviy madaniyat kontenti tahlil qilindi.

5. **Tajribali kuzatish** – milliy qadriyatlar va ommaviy madaniyatning yoshlar xulq-atvoriga ta'siri kuzatildi.

#### **TADVIQOTNING EKSPERIMENTAL**

**QISMI.** Tadqiqotning eksperimental qismi yoshlar ongida milliy qadriyatlarni singdirish orqali "ommaviy madaniyat" tahdidiga qarshi immunitet shakllantirish jarayonini sinovdan o'tkazishga qaratilgan. Ushbu eksperiment turli yosh guruhlarida ma'naviy tarbiya va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash metodlarining samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Eksperimental qism quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Eksperiment ishtirokchilari va guruhlar ajratilishi.

Tadqiqot uchun O'zbekistonning turli viloyatlaridan(Samarqand,Toshkent,Buxoro) turli ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi 16-25 yosh oraliqidagi 100 nafar yoshlar tanlab olindi. Ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi:

1. **Nazorat guruhi** – ushbu guruhga milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga doir maxsus tadbirlar o'tkazilmadi. Bu guruh oddiy madaniy va ta'limiy faoliyatlar bilan shug'ullandi.

2. **Eksperiment guruhi** – ushbu guruh uchun maxsus ishlab chiqilgan milliy qadriyatlarni

targ'ib qilish va ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan dastur doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi.

## 2. Dastlabki o'lchovlar va baholash.

Eksperiment boshlanishidan oldin, ikkala guruh ishtirokchilariga dastlabki testlar va sotsiologik so'rovlar o'tkazildi. Test va so'rovlar quyidagilarni o'z ichiga oldi:

- Ommaviy madaniyat ta'siriga duchorlik darajasi – yoshlar orasida ommaviy madaniyat kontenti (ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, musiqa va filmlar) bilan qanchalik ko'p muloqotda bo'lishlari aniqlab berildi.

- Milliy qadriyatlar to'g'risidagi bilim va munosabat – milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar va ularning hayotdagi o'rni haqida qanchalik xabardor ekanliklari o'lchandi.

- Ma'naviy immunitet darajasi – Yoshlarning ma'naviy qarashlari, axloqiy qadriyatlari va madaniy tanlovi, ular orasida ommaviy madaniyat va milliy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanat aniqlab chiqildi.

## 3. Tajriba jarayoni.

Eksperiment guruhi uchun uch oy davomida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:

- Milliy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan seminarlar va ma'ruzalar – o'zbek xalqining madaniy merosi, urf-odatlari, an'anaviy qadriyatlari haqida ma'ruzalar tashkil etildi.

- Madaniy tadbirlar – milliy bayramlar, xalq o'yinlari, teatr spektakllari va tarixiy filmlar ko'rsatilishi kabi tadbirlar o'tkazildi.

- Interaktiv mashg'ulotlar va treninglar – milliy qadriyatlar asosida shakllangan zamonaviy axloqiy me'yorlarni tushuntirishga qaratilgan interaktiv o'yinlar va treninglar o'tkazildi.

- Ommaviy madaniyat ta'sirini kamaytirishga qaratilgan ma'lumotlar – ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri haqida maxsus ko'rsatuvlar va treninglar tashkil etilib, yoshlar orasida o'z-o'zini himoyalash mexanizmlari tushuntirildi.

## 4. So'nggi o'lchovlar va baholash.

Eksperiment yakunida, ikkala guruhga yana bir bor test va sotsiologik so'rovlar o'tkazildi. So'rovlar

**Jadval 1:** Milliy qadriyatlar haqida bilim darajasidagi o'zgarishlar (%)

Guruh	Eksperimentdan oldin (%)	Eksperimentdan keyin (%)
Eksperiment guruhi	45%	80%
Nazorat guruhi	46%	50%

davomida dastlabki natijalar bilan taqqoslash uchun quyidagi jihatlar baholandi:

- Milliy qadriyatlar haqida bilim va munosabatdagi o'zgarishlar – eksperimentdan keyin milliy qadriyatlarga nisbatan qanchalik ijobiy o'zgarishlar kuzatilganligi o'lchandi.

- Ommaviy madaniyatning ta'siriga qarshi immunitet darajasi – Yoshlar ommaviy madaniyatning turli jihatlariga nisbatan qanday qarashlarda bo'lishlari tahlil qilindi.

- Xulq-atvor o'zgarishlari – milliy qadriyatlar va ma'naviyatga asoslangan xulq-atvordagi o'zgarishlar kuzatildi.

## 5. Natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish.

Eksperiment davomida yig'ilgan ma'lumotlar statistik tahlil vositalari yordamida qayta ishlanib, eksperiment guruhi va nazorat guruhidagi natijalar solishtirildi. Olingan ma'lumotlar milliy qadriyatlarni yoshlar orasida singdirish orqali "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitet shakllanishidagi samaradorlikni aniq ko'rsatib berdi. Tajriba natijalari asosida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy immunitetni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu eksperimental yondashuv milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga chuqur singdirish va "ommaviy madaniyat"ning ta'siriga qarshi samarali kurashishning metodologik asoslarini ko'rsatib berdi.


**NATIJALAR.** Ushbu tadqiqot natijalari milliy qadriyatlar asosida yoshlar ongida "ommaviy madaniyat" tahdidiga qarshi immunitet shakllantirishning samaradorligini ko'rsatdi. Eksperiment guruhi va nazorat guruhida o'tkazilgan so'rovlar, testlar va kuzatuvlar orqali aniq raqamlar va diagrammalar yordamida tahlil qilindi.

1. **Milliy qadriyatlar haqida bilim va munosabatdagi o'zgarishlar.** Eksperiment natijalariga ko'ra, milliy qadriyatlar asosidagi ta'limiy tadbirlardan so'ng eksperiment guruhidagi yoshlarning milliy qadriyatlar haqida bilim va ularga bo'lgan munosabatida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Ushbu o'zgarishlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Eksperiment guruhi ishtirokchilari milliy qadriyatlar haqida o'z bilimlarini sezilarli darajada oshirganliklari kuzatildi, bu esa maxsus seminar va tadbirlarning samaradorligini ko'rsatadi.

## 2. Ommaviy madaniyatning ta'siriga qarshi immunitet darajasi. Eksperimentdan oldin

**Diagramma 1:** Ommaviy madaniyat ta'siriga qarshi immunitet o'zgarishlari



Eksperiment guruhi ishtirokchilarida ommaviy madaniyatning ta'siri sezilarli darajada kamaygani ko'rinadi, bu esa milliy qadriyatlar asosida ma'naviy immunitet shakllanganligini ko'rsatadi.

## 3. Xulq-atvor o'zgarishlari.

Eksperimentdan keyin eksperiment guruhi ishtirokchilarida milliy qadriyatlar asosida xulq-atvorda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Ishtirokchilarning kundalik hayotida milliy qadriyatlarni qo'llash darajasi ortdi, va ularning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati ham milliy qadriyatlar asosida shakllana boshladi.

**Jadval 2:** Xulq-atvor o'zgarishlari bo'yicha kuzatish natijalari

Guruh	Milliy qadriyatlarni qo'llash (%)	Ijtimoiy tarmoqlarda milliy kontent ulashish (%)
Eksperiment guruhi	40%	65%
Nazorat guruhi	20%	35%

Eksperiment guruhi ishtirokchilari milliy qadriyatlarni hayotda qo'llash va ularni ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilish borasida ijobiy o'zgarishlar ko'rsatdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar asosida o'tkazilgan ta'limiy tadbirlar yoshlar ongida "ommaviy madaniyat" tahdidiga qarshi immunitet shakllantirishda samarali bo'ldi. Eksperiment guruhi ishtirokchilari nazorat guruhiga nisbatan milliy qadriyatlarga nisbatan yuqori bilim, ijobiy munosabat va xulq-atvor ko'rsatishdi. Shu sababli, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish orqali ommaviy madaniyat ta'sirini

kamaytirish va yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash zarur.

**MUHOKAMA.** Tadqiqot natijalari yoshlar ongida "ommaviy madaniyat" tahdidiga qarshi immunitet shakllantirishda milliy qadriyatlarning muhim o'rni va ahamiyatini tasdiqladi. O'tkazilgan eksperiment va so'rovlar ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta'limiy-ma'rifiy tadbirlar yoshlar ongida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Ushbu natijalar milliy qadriyatlarning ommaviy madaniyatga qarshi kurashda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

**1. Milliy qadriyatlarning bilim va munosabatga ta'siri.** Eksperiment guruhi ishtirokchilarida milliy qadriyatlar haqida bilim darajasining oshgani va ularga nisbatan munosabatning ijobiy tomonga o'zgarganligi kuzatildi. Bu milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga chuqur singdirish orqali ularning ongini global tijorat madaniyati ta'siridan himoya qilish mumkinligini ko'rsatadi. Bu borada A.Komilov va M.Jalilov kabi mahalliy olimlarning milliy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqidagi tadqiqotlari bilan uyg'un natijalar kuzatildi (Komilov, 2019; Jalilov, 2020). Mahalliy qadriyatlarni singdirish orqali yoshlar ommaviy madaniyatning salbiy oqibatlaridan himoyalaniadi va milliy identifikatsiya mustahkamlanadi.

**2. Ommaviy madaniyatning ta'sirini kamaytirish.** Eksperiment davomida milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan yoshlar ommaviy madaniyat ta'siriga qarshi immunitet shakllantirgani aniqlandi. Ommaviy madaniyatning iste'molchilik, tijorat va individualizm kabi jihatlari yoshlar orasida sezilarli darajada kamaygan. Bu esa ommaviy madaniyatning yoshlar ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga qanday salbiy ta'sir qilishini ko'rsatgan xorijiy tadqiqotlar bilan bog'liqdir (Fiske, 1989; Storey, 2015). Ushbu natijalar milliy qadriyatlarni targ'ib qilish va yoshlarni o'z an'ana va urf-odatlarida asosida tarbiyalash orqali "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashda yuqori natijalar olish mumkinligini ko'rsatadi.

**3. Xulq-atvordagi o'zgarishlar.** Eksperiment guruhi ishtirokchilarida milliy qadriyatlar asosida xulq-atvorda ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Yoshlar orasida milliy an'ana va qadriyatlarga asoslangan kundalik xatti-harakatlar kuchaydi, ular ijtimoiy tarmoqlarda milliy kontentlarni ulashishda faolroq ishtirok eta boshladilar. Bu esa milliy qadriyatlar asosidagi ta'lim yoshlar ongiga chuqurroq ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Ushbu xulq-atvor o'zgarishlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada bo'lgani milliy qadriyatlar asosida olib borilgan tadbirlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot milliy qadriyatlar asosida ommaviy madaniyatga qarshi immunitet shakllantirishning samaradorligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari nafaqat milliy qadriyatlar yoshlar ongida muhim o'rin egallashini, balki ular orqali ommaviy madaniyatning salbiy ta'siriga qarshi samarali kurashish mumkinligini

ham ko'rsatdi. Mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'un natijalar ushbu yondashuvning milliy tarbiya tizimida qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotdan kelib chiqadigan muhim xulosa shuki, O'zbekiston sharoitida milliy qadriyatlarni yoshlar orasida yanada kengroq targ'ib qilish, ularni ommaviy madaniyat oqimlaridan himoya qilish uchun zarur vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat siyosati doirasida yoshlarning milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim va tarbiyasini qo'llab-quvvatlash hamda ularni global madaniy tahdidlarga qarshi himoyalash uchun doimiy ravishda milliy ma'naviy tadbirlarni tashkil etish talab qilinadi.

**XULOSA.** Ushbu tadqiqot "ommaviy madaniyat" tahdidiga qarshi milliy qadriyatlar asosida yoshlar ongida immunitet shakllantirishning ahamiyati va samaradorligini ko'rsatib berdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlarni yoshlar orasida kengroq targ'ib qilish ularning madaniy identifikatsiyasini saqlab qolish va ommaviy madaniyatning salbiy ta'siridan himoyalaniashda muhim omil hisoblanadi.

#### **Quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:**

1. Milliy qadriyatlar bilim va munosabatda o'zgarishlar yaratdi – eksperiment guruhi ishtirokchilarida milliy qadriyatlarga nisbatan bilim va munosabatning sezilarli darajada ijobiy o'zgarishi kuzatildi. Bu esa maxsus tashkil etilgan ta'limiy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

2. Ommaviy madaniyatning ta'sirini kamaytirishga erishildi – eksperiment guruhi ishtirokchilari orasida ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri kamaydi. Bu milliy qadriyatlar asosida shakllangan ma'naviy immunitet orqali yoshlar ommaviy madaniyatning tahdidlariga nisbatan himoyalaniash imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatdi.

3. Xulq-atvorda milliy qadriyatlar asosidagi o'zgarishlar kuzatildi – eksperimentdan keyin yoshlar orasida milliy qadriyatlarga asoslangan xulq-atvorda ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ular kundalik hayotda milliy qadriyatlarni faol qo'llash bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda milliy kontentlarni ulashishda ham ko'proq ishtirok eta boshladi.

4. Targ'ibot va ta'lim jarayonlarining ahamiyati tasdiqlandi – tadqiqot natijalari milliy qadriyatlarni targ'ib qilish va yoshlar orasida ular haqida ta'lim berish ommaviy madaniyatning salbiy

oqibatlarini kamaytirishga samarali ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Shu sababli, davlat siyosatida milliy qadriyatlar va ma'naviy tarbiyani yanada kuchaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning natijalari milliy qadriyatlarni yoshlar orasida yanada kengroq targ'ib qilish, ularda mustahkam ma'naviy immunitet shakllantirish va global madaniy tahdidlarga qarshi turishda yordam beruvchi yondashuvlarni rivojlantirish uchun muhim amaliy va ilmiy asos yaratadi. Tadqiqotning kelajakdagi istiqbollari milliy tarbiya tizimini takomillashtirish, ommaviy madaniyatga qarshi samarali kurash vositalarini ishlab chiqish va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy yetuklikni yanada kuchaytirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Fiske, J. (1989). *Understanding Popular Culture*. London: Routledge. – 245 bet.
2. Storey, J. (2015). *Cultural Theory and Popular Culture: An Introduction (7th ed.)*. London: Routledge. – 320 bet.
3. Featherstone, M. (1995). *Undoing Culture: Globalization, Postmodernism and Identity*. London: Sage Publications. – 276 bet.
4. Lash, S. (1994). *Reflexive Modernization: Politics, Tradition and Aesthetics in the Modern Social Order*. Cambridge: Polity Press. – 280 bet.
5. Komilov, A. (2019). *Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti. – 210 bet.
6. Jalilov, M. (2020). *Yoshlar ma'naviyatida milliy qadriyatlarning ahamiyati*. Toshkent: Yangi asr avlodi. – 189 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi qonuni. (2021). *Yoshlar siyosati to'g'risida*. – 12 bet.
8. Kurbanbayeva, M. (2024). *O'zbek xalq og'zaki ijodiyotida adolatli jamiyat to'g'risidagi ilk tasavvurlar ifodasi*. *Tamaddun nuri jurnali*, 8(59), 78-81.



## JADID NAMOYONDALARI MEROSINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Abuyev Husan Odilovich, dotsent, Navoiy davlat pedagogika  
instituti

## THE IMPORTANCE OF THE LEGACY OF JADID MANIFESTATIONS IN TODAY'S ERA

Abuev Khusan Odilovich, associate professor, Navoi State  
Pedagogical Institute

## ЗНАЧЕНИЕ НАСЛЕДИЯ ДЖАДИДСКИХ ПРОЯВЛЕНИЙ В СОВРЕМЕННУЮ ЭПОХУ

Абуев Хусан Одилевич, доцент, Навоийский  
государственный педагогический институт



<https://orcid.org/0009-0001-1316-523X>

e-mail: [husan24@mail.ru](mailto:husan24@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida tarix maydoniga kelgan jadidlarning ilmiy merosi haqida fikr bildirilgan. Jadidlarning ilmiy—ma'rifiy merosining bugungu O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'rifiy sohadagi siyosati bilan o'xshash ekanligi qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik harakati, Behbudiy, Fitrat, Hamza, Qodiriy, "Yoshlarga murojaat", "Jamiyati xayriya", "Ilm ista".

**Abstract.** In this article, an opinion is expressed about the scientific heritage of Jadids, which came to the field of history as an educational, socio-political movement at the end of the XIX th century and the beginning of the XX th century. It is noted that the scientific and educational heritage of the ancients is similar to the educational policy implemented in Uzbekistan today.

**Key words:** The movement of Jadidism, Behbudi, Fitrat, Hamza, Kadiri, "Appeal to youth", "Relief society", "Ilm ista".

**Аннотация:** В данной статье высказывается мнение о научном наследии джадидов, пришедших в область истории как просветительское, общественно-политическое движение в конце XIX – начале XX века. Отмечается, что научно-образовательное наследие древних схоже с образовательной политикой, реализуемой сегодня в Узбекистане.

**Ключевые слова:** Движение джадидизма, Бехбуди, Фитрат, Хамза, Кадыри, "Обращение к молодежи", "Общество милосердия", "Илм уста".

**Kirish.** Har bir xalq, millat va davlat o'z kelajagini tarixdan saboq chiqarib, buyuk tarixiy shaxslarining g'oya va tajribalariga tayangan holda quradi. Shoir va nosir, dramaturg va publitsist, tilshunos va adabiyotshunos, tarixchi va faylasuf, san'atshunos va jamoat arbobi jadidchilik harakatining ilg'or namoyondalaridan Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat "Tarix - millatning o'tmishini, taraqqiyotini va tanazzuli sabablarini

o'rganaturg'on ilmdir" degan so'zlari, yoki Buyuk adibimiz Abdulla Qodiriyning "Moziyga qarab ish ko'rmoq xayrlidir" degan ibratli gaplari har qanday xalq, millat va davlat kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tarixan xalqimizning ilg'or g'oyalariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Buyuk ma'rifatparvar

bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi" [1] – deb aytib o'tgan gaplari yuqorida nomlari keltirilgan jadid namoyondalarining fikrlari bilan hamohangdir.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.**

Keyingi yillarda mamlakatimiz hayotida keng ko'lamda amalga oshirilayotgan islohotlardan biri tarixiy merosni qayta tiklash, buyuk allomalarimiz faoliyatini keng ko'lamda targ'ib qilish asnosida xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz dunyoqarashida yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirishdir.

O'zbekiston tarixining turli davrlarida jahon taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Shu bilan birgalikda vatanimizni bosqinchilardan ozod qilish va ularga qarshi kurashish yo'lida istiqlol g'oyalari ilgari surgan hamda jon fido qilgan vatandoshlarimiz xizmati bugungi mustaqil davlatimizning vujudga kelishida va taraqqiy etishida o'zlarining ilmiy-g'oyaviy xizmatlari kattadir.

Har qanday sharoitda ham o'z xalqining sha'nini baland ko'targuvchi yorqin shaxslar bor bo'lgan. Yaqin o'tmishimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, millatning o'zligini anglashga xizmat qilib, xalq baxti yulida aziz jonlarini qurbon qilgan Mahmudxuja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Ubaydulla Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Saidnosir Mirjalolov, Obidjon Maxmudov, Ashurali Zohiriy, Abduqodir Shakuriy va boshqa ko'plab insonlar siymosi har lahza qalblarimizni yoritib, tarixdan saboq olishga undaydi.

Vatanimizning uncha uzoq bo'lmagan XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlari tarixida rus podsho hukumati va uning o'rniga kelgan bolsheviklarning sovet mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashda yangi ma'rifatparvarlik oqimi hisoblangan jadidchilik harakati vujudga keldi.

Yuqorida nomlari keltirilgan shaxslar aynan shu harkatning asosiy va g'oyaviy namoyondalaridir.

Turkistonda jadidchilik harakati o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q, albatta. Uning vujudga kelishi uchun ma'lum bir ob'ektiv sharoit va sabablar mavjud edi. XIX asrning o'rtasi va XX asrning boshida jamiyatda yangilanish zarurati tug'ildi. Bir qator ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy muammolar paydo bo'ldi. Ularni hal etish uchun bel bog'lagan bir guruh ziyolilar xalq orasida «jadidlar» deb tan olindi.

Ularning zamonaviy ta'lim amaliyotiga oid konseptual g'oyalari ma'naviy meros sifatida hozirgi islohotlarning strategiya va keng miqyosli yo'liga muayyan darajada asos bo'lib xizmat qiladi.[2] Jadidlarning zamonaviy ta'limga oid konseptual g'oyalari yangi usul maktablarini joriy qilish, zamonaviy dunyoviy ilmlar asosida yoshlarga bilim berish bilangina chegaralanmasdan, shu davrda ilg'or riojlangan davlatlarda ta'lim olishdan iborat bo'lgan. Shu bois yoshlarni chet elda ta'lim olishini moddiy ta'minoti uchun "Jamiyati xayriya" tuziladi. Bu xayriya tashkilotining asosiy vazifasi yangi usul maktablarini ochish, aholining uysiz kambag'al qismiga yordam berish, darsliklarni yaratish va yoshlarni xorijga o'qitishdan iborat bo'lgan.

Jadid namoyondalari ilmiy, badiiy ijodlarida ham asosiy g'oya ta'lim, tarbiyaga e'tibor va aqidaviy xurofotlarni ma'rifiy yo'l bilan bartaraf etish, hamda hurriyat edi.

Jadidchilik harakatining yetakchi namoyondasi Abdulla Avloniy merosida dunyo ilm bilan birgalikda islom dini arkonlarini inson hayotining ajralmas qimi bo'lishi haqida qarashlar mavjud. Avloniyning "Namoz", "Ro'za", "Zakat", "Haj"[3] she'rlarida kishilarni iymonli bo'lishga islom dini arkonlarini to'la to'kis bajarish va amal qilishga chaqiradi.

Jadid ma'rifatparvar namoyondalaridan Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" nomli asarida aynan bugungi kun dolzarb muammolari hisoblangan oilaviy ajrimlarning oldini olish borasidagi muhim qarashlar berilgan. Ushbu asarda ham farzand tarbiyasi va kamolotiga aloxida e'tibor beriladi. Asarda Odamning kamoli faqat sog'liq va kuchdan iborat bo'lmay, balki jismonan, aqlan va axloqan yuksalishdan iborat deb ta'kidlanadi. Aql va axloqan yuksaklik esa ilmiy bilimlardan ekanligi e'tirof etiladi [4].

Jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy “Yoshlarga murojaat” maqolasida yoshlarni xorijiy til va ilm o‘rganishga, shuningdek, dabdabali marosimlarga sarflanadigan sarf xarajatlar o‘rniga ilm olishga chaqiradi.

Bas, siz muhtaramlar ham o‘z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko‘ra taraqqiy etsa, din va millatga xizmat etsa. (Din va millatga xizmat ilm va oqcha ila bo‘lur.) Shu ilmi zam oniyini tahsil qilmoq uchun harakat qilmog‘ingiz lozimdur. Hamvatanlarimiz mulkini sotib to‘y qilganidek siz-da, hatto, lozim bo‘lganda mulkingizni sotsangiz-da, o‘g‘lingizni zamoncha o‘qumoqiga sa‘y qilsangiz. To‘yga isrof qilinaturg‘on oqchalarni o‘qumoq yo‘liga sarf qilsangiz! [5]

Jadid ma‘rifatparvarlarini tashvishga soladigan jamiyatdagi asosiy muammo yoshlarga berilayotgan ta‘lim bo‘lib, Munavvarqori Abdurashidxonov berilayotgan ta‘limdan tashvishlanib buyuk Fuzuliy, Navoiy, Xo‘ja Hofiz, Bedillar kabi allomalarimiz asarlarini noto‘g‘ri talqin qilib o‘rgatilayotganligi va dunyoviy bilimlarga ahamiyat berilmaganligi haqida “Bizni jaholat - jahli murakkab” maqolasida tanqidiy mulohaza qiladi. Bu qanday oqibatlariga olib kelganligi haqida quyidagilarni qayd etadi: “Bu jaholat natijasidurki, o‘zimiz yerlik musulmonlardan o‘ldig‘imiz holda musofir rus va yahudiylar eshigida mardikor va xizmatchi o‘lduk. Bu jaholat xohishidurki, millat foydasi uchun jonin qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni yodlaridin chiqorib, iste‘dod va g‘ayratlarini choyxona va pivaxonalarga sarf etmaktadurlar.” [6] Jadidchilik g‘oyalari o‘z ijodida namoyon etgan o‘zbek adabiyotining yirik namoyondasi Hamza Hakmzoda Niyoziy hayotini o‘z xalqini istibdoddan olib chiqishga bag‘ishladi. O‘z ijodini jadid ma‘rifatparvarlari g‘oyalari bilan boyitdi. Jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi bo‘ldi [7]. Yuqorida nomlari tilga olingan jadid namoyondalari singari maktab ta‘limi uchun darsliklar yaratdi. Yangi usuldagi maktablar ochdi. O‘zining qisqa yozilgan “Ilm ista” she‘rida ilm olish muhim ekanligini bayon qiladi.

Kim bilurdi odam-u olam nadir, hayvon nechik?

Bo‘lmasa erdi agar insonda bu osori ilm.

Qaysi bir mavjuda boqsang bilmoqa kayfiyatini

Lozim o‘lgay topmaqa avval o‘qib axbor ilm...

Olamning xurshidi kundir, odamning xurshidi ilm,

Olamning zulmoti tundur, odamning nodori ilm.

Har murodu maqsadingga yetmoq istarsan murod,  
Ko‘z ochib bedor bo‘l, darkor ilm, darkor ilm!

Ul haqiqat oyiniga sayqal istarsan Nihon

Ilm ista, ilm ista, istag‘il zinhor ilm!

Shuning bilan birga Hamza diniy xurofot va bida‘tlarga qarshi kurashgan. Islom diniga e‘tiqodi bo‘yicha boshqalarga o‘rnak bo‘la olgan. 23 yoshidayoq haj amalini ado etganligida ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, “Turkiston muxtoriyatini” she‘rida islom millati va dinini ulug‘laganini guvohi bo‘lamiz.

Yashasun endi birlashub islom millati!

(Ahmad) ruhi qichqirub der: hoy ummatim!

Bukunda ham xo‘r qolsa, din, millatim,

Haq shohiddir, kerakmas sizdek ummatim,

Qutlug‘ bo‘lsin Turkiston muxtoriyati!

**Xulosa.** Jadid namoyondalari merosi kishini ilm olishga, vatanparvarlikka undaydi. Ilm nafaqat jaholatga qarshi qurol va taraqqiyotning asosi, balki shaxs erkinligi, millat va halq farovonligining asosi sifatida tarannum etiladi. Shu bois ushbu meros bugungi kun uchun ham o‘zining dolzarb ahamiyatiga egadir.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqloq va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi.

[https://daryo.uz/k/2023/12/11/prezidentning-jadidlar-milliy-ozlik-istiqloq-va-davlatchilik-goyalari-mavzusidagi-xalqaro-konferensiya-](https://daryo.uz/k/2023/12/11/prezidentning-jadidlar-milliy-ozlik-istiqloq-va-davlatchilik-goyalari-mavzusidagi-xalqaro-konferensiya)

2. A‘zamxo‘jayev S. Turkiston muxtoriyati: Milliy demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. –T.: “Ma‘naviyat”, 2000. - B.7.

3. Qarang: Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar. 2 jildlik 1-jild. –T.: “Ma‘naviyat”, 2020. - B. 198-200

4. Fitrat A Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: “Cho‘lpon”, 2013. –B. 70-75

5. Behbudiy M Tanlangan asarlar // To‘plovchi, so‘zboshi va izohlar: B. Qosimov,— 3-nashr. tuzatilgan va to‘ldirilgan .— T.: «Ma‘naviyat», 2006,— B. 170-171

6. Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar (Tahrir hay‘ati: O. Sharofiddinov, N.Aminov, N. Karimov va boshq.: Mas‘ul muharrir: N. Karimov,—T.: «Ma‘naviyat», 2003. — B. 146.

7. <https://muxtoriyat.uz/index.php/en/manbalar/maqolalar-uz/hamza-hakimzoda-niyoziyning-turkiston-muxtoriyati-hukumatiga-munosabati>



## AL-HAKIM AT-TERMIZIYNING “HAJ VA UNING SIRLARI” ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA

**Mahmud Normurodov**

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi

## ПРОИЗВЕДЕНИЕ АЛЬ-ХАКИМА АТ-ТЕРМИЗИ «ХАДЖ И ЕГО ТАЙНЫ» КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК

**Махмуд Нормуродов**

научный сотрудник Международного исследовательского центра Имама Термизи

## THE WORK OF AL-HAKIM AT-TERMIZI “HAJJ AND ITS SECRETS” AS A HISTORICAL SOURCE

**Mahmud Normurodov**

Researcher at the Imam Termizi International scientific-research Center



Tel: +998994450763

E-mail:

[mahmud.normurod@mail.ru](mailto:mahmud.normurod@mail.ru)

Orcid: 0009-0001-8611-4636

**Annotatsiya:** Ma'lumki, tarixda Movarounnahr deb atalgan o'lkamiz olim-u fozillar yurtidir. Bunga tarixiy manbalardagi tegishli qaydlardan tashqari, yurtimizdagi minglab qo'lyozmalar ham bevosita dalil bo'la oladi. Mana shunday olimlardan biri Hakim Termiziydir. Hakim Termiziyning “Haj va uning sirlari” asari hajga aloqador tushunchalar tahlilini o'z ichiga olgan. Asarda bu ibodat nima uchun islom haji deb nomlanishi, kimlarga bu ibodatni ado etish buyurilgani masalasi tushuntiriladi. Haj bilan umra ibodati o'rtasidagi farqlar, ularni ado etish yo'llari va hikmati xususida tahliliy fikrlar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Al-Hakim at-Termiziy, haj, qo'lyozma, nashr.

**Аннотация:** Известно, что наша страна, которая в истории называлась Мавераннахр, является страной ученых и добродетелей. Помимо соответствующих записей в исторических источниках, прямым доказательством этого могут служить тысячи рукописей в нашей стране. Одним из таких учёных является Хаким Термизи. Работа Хакима Термизи «Хадж и его тайны» содержит анализ понятий, связанных с хаджем. В работе объясняется, почему эта молитва называется исламским хаджем и кому предписано совершать эту молитву. Высказаны аналитические мнения о различиях между хадж-намазами и умрой, способах и мудрости их совершения.

**Ключевые слова:** Аль-Хаким ат-Тирмизи, паломничество, рукопись, публикация.

**Abstract:** It is known that our country, which in history was called Maverannahr, is a country of scholars and virtues. In addition to the relevant records in historical sources, thousands of manuscripts in our country can serve as direct evidence of this. One of such scholars is Hakim Termizi. Hakim Termizi's work “Hajj and its secrets” contains an analysis of concepts associated with the hajj. The work explains why this prayer is called the Islamic hajj and who is prescribed to perform this prayer. Analytical opinions are expressed on the differences between hajj prayers and umrah, the methods and wisdom of their performance.

**Key words:** Al-Hakim at-Tirmizi, pilgrimage, manuscript, publication.

### **KIRISH (ВЕВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).**

Ma'lumki, tarixda Movarounnahr deb atalgan o'lkamiz olimu fozillar yurtidir. Bunga tarixiy manbalardagi tegishli qaydlardan tashqari,

yurtimizdagi minglab qo'lyozmalar ham bevosita dalil bo'la oladi. Mana shunday mashhur siymolar silsilasida islomiy ilmlarning bir nechtasida asoschi sifatida e'tirof etiladigan islom uyg'onish davrining

yirik vakili Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bishr Hakim Termiziy (taxm. 205-320/820-932) alohida o'rin egallaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Al-Hakim at-Termiziyning ilmiy merosi keyingi davr ulamolari ijodiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, Abu Abdulloh Kurtubiy (vaf. 1273-y.), Ibn Hajar Asqaloniy (1372-1448), Abu Mahmud Abdulloh Hanafiy (vaf. 1361-y.), Muhammad Shamsu-l-haqq Obodiy, Ibn Kasir (vaf. 1373-y.), Jaloliddin as-Suyutiy (1445-1506) kabi bir qancha taniqli olimlar al-Hakim at-Termiziy ilmiy merosidan unumli foydalanganlar [7].

Al-Hakim at-Termiziyning «Haj va uning sirlari» kitobi qo'lyozma nusxalari mamlakatimizdagi qo'lyozmalar xazinalarida saqlanib qolmagan. Shu boisdan asarning tarjimai Xusni Nasr Zaydon tomonidan 1969-yilda Qohirada «as-Saoda» bosmaxonasida chop qilingan nashri asosida amalga oshirildi [7].

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Termiz qadimdan madaniy markazlardan biri hisoblanib, ko'plab buyuk olimlarni voyaga yetkazgan. Jahon ehtiromiga sazovor bo'lgan termizlik buyuk siymolardan biri – Abu Iso at-Termiziy bo'lsa, yana biri al-Hakim at-Termiziydir. Manbalarda ta'kidlanishicha, al-Hakim at-Termiziy tug'ilgan Termiz shahri IX asrda Movarounnahrning eng yirik va obod shaharlaridan biri sifatida mashhur bo'lgan. Alloma tafsir, hadis, fiqh, kalom, islom falsafasi, tasavvuf sohalarida samarali ijod qilgan. Lekin bu uning yozgan asarlari yo'nalishlarini to'liq aks ettiradi, deb ayta olmaymiz. Chunki odatda allomaning asarlarida ushbu yo'nalishlar qorishib ketgan holatlar ham uchraydi. Ba'zan uning bir asarida bir necha yo'nalishlar, hattoki, mazkur yetti yo'nalishning barchasini ham ko'rishimiz mumkin. Al-Hakim at-Termiziy ilmiy merosini yuzga yaqin turli hajmdagi asarlar tashkil qiladi. Bu haqdagi ma'lumotlar turli kataloglarda zikr qilinadi. Jumladan, Fuad Sezgin o'z katalogida al-Hakim at-Termiziy qalamiga mansub deb hisoblanadigan saksonta asar haqida ma'lumot beradi [2].

Alloma sermahsul faoliyat olib borgan va uning ko'plab asarlari bizning davrimizgacha yetib kelgan bo'lsa-da, ushbu asarlarning ulkan qismi yurtimiz tashqarisidagi xorijiy qo'lyozma fondlarida

saqlanadi. Buning boisi esa ehtimol, taxminan 250/865-yillarda yozilgan uning mashhur «Xatm al-avliyo» va «Kitab isbat al-ilal» asarlari bilan bog'liq. Bu kitoblardagi Hakim Termiziyning valiylik masalasini tahlil qilish uslubi va uning bu boradagi fikrlarining haqiqiy mazmun va mohiyatini zamondoshlari to'g'ri tushunmaydi. Natijada al-Hakim at-Termiziy ona yurtini tashlab ketishga majbur bo'ladi. Bu voqea aksariyat manbalarda zikr qilingan. Turli mualliflarning asarlarida bu voqea bir emas, bir necha bor takror bo'lganligi aytiladi. Bu hodisa alloma ilmiy merosining kelajakdagi taqdiriga ham muayyan ta'sir ko'rsatdi. Natijada olim asarlarining aksariyati mintaqamizdan tashqariga tarqab ketgan va bugungi kunda xorijiy mamlakatlar qo'lyozmalar xazinalarida saqlanadi [3].

**NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Olimning islom dinining beshta asosiy farzlaridan biri bo'lgan haj mavzusiga bag'ishlangan «Haj va uning sirlari» kitobi aniq dalillarga asoslanib yozilgani bilan ajralib turadi. Buning sababini aksariyat mutaxassislar bu asar olim hayotining oxirgi davrida bitilgan asarlaridan biri bo'lgani bilan izohlasalar, kamchilikni tashkil etuvchi ayrim tadqiqotchilar ushbu asar keyingi davrlarda juz'iy o'zgartirishlarga uchraganini aytib o'tadilar. Nima bo'lganda ham, al-Hakim at-Termiziy boy hayotiy va ilmiy tajribasini ushbu kitobga safarbar qilib, uning muvaffaqiyatini ta'minlagan [6].

Asar yetti bobdan iborat bo'lib, dastlab Ka'baning, asarda u Qadim uy deb ataladi, bunyod etilishi, Ibrohim (alayhissalom) unga poydevor qo'yishlari tarixi bayoni bilan boshlanadi. So'ngra bu ibodatni ado etish uchun lozim bo'lgan amallar va ularning sharhi o'rin olgan. Asarda bu ibodat nima uchun islom haji deb nomlanishi, kimlarga bu ibodatni ado etish buyurilgani masalasi tushuntiriladi. Haj bilan umra ibodati o'rtasidagi farqlar, ularni ado etish yo'llari va hikmati xususida tahliliy fikrlar bildiriladi. Haj ibodatining har bir talabini ado etishda hoji bajarishi lozim bo'lgan amallar, hojilarning darajalari, haj ibodati nima bilan va qanday boshlanib qaysi amal bilan yakunlanishi masalalari bu asarda o'z aksini topgan. Olim asarda haj ibodatining zohiriy va botiniy mazmun mohiyati haqida fikr yuritarkan, u insonning Alloh oldidagi bandaligini namoyon qilish va o'z nafsini uning ixtiyoriga butunlay taslim qilishni ko'rsatishdan iborat ekanligini xulosa qiladi.

Bunday yondashuvni uning har bir asarida topish mumkin. Shuningdek, al-Hakim at-Termiziy ma'lum bir so'zning ishlatilayotgan ma'nosini chuqur o'rganib, o'sha so'zni tashkil etgan harflarigacha tahlil qiladi. Keyin esa so'z va uni tashkil etgan harflarni u anglatayotgan ma'no bilan bog'liqlik jihatini ochib beradi [5].

Bu bilan so'zlar va ular bildirgan obyekt nomi o'zidan o'zi paydo bo'lib qolmagan, balki mantiqiy izchillik borligini ko'rsatib beradi. Al-Hakim at-Termiziy o'z fikrlarini o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazish hamda bu fikrlarning hayotdan uzilib qolmagani va amaliy tatbiq etish mumkinligini ko'rsatish maqsadida o'z tajribasidan kelib chiqib, turli misol, rivoyat va xulosalardan keng foydalanadi. Alloma ijodining yana o'ziga xos jihati u islom ilmlarining barcha sohalarini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Xoh u fiqh bo'lsin yoki kalom, suluk yoki tafsir bo'lsin, ularning barchasi bilan tanish bo'lgani asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi [1].

Al-Hakim at-Termiziy bu ilmlarning barchasini sohalariga bo'linmagan yaxlit ko'rishda, ya'ni bir-biri bilan chambarchas bog'liq bir butun holatda e'tiborga olishga harakat qiladi [2].

«Haj va uning sirlari» islom ilmlariga aloqador asarlardan bo'lib, bu xildagi kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida uchraydigan muammolardan biri arabcha so'z va iboralarni tarjimasiz asl holda qoldirish holatidir. Asarning tarjimasiz jarayonida iloji boricha bunday holga yo'l qo'ymaslikka harakat qilingan. Asli arabcha, lekin boshqa tillarga ham kirib qolgan turg'un so'z va iboralar, shuningdek, mavzuga aloqador maxsus so'zlar (termin) o'z holicha qoldirilgan taqdirda ham, bu so'z yoki iborara tagsharxda izoh berish uslubi qo'llanilgan. Matnda Qur'on oyatlarining tarjimasiz berilgan holda, ularning arabcha matni ham tagsharhda ilova qilingan. Mavzuning o'ziga xosligi va arab tilining xususiyatidan kelib chiqib, tarjimaning o'zbek tili qoidalari talabiga mos kelishini va tushunilishini osonlashtirish maqsadida zarur holatlarda katta qavs ichida, qo'shimchalar kiritish usuli tanlangan.

Tarjimada, arabcha matnda mavjud bo'lmasa ham, haj ibodatining hanafiy mazhabi doirasida ado etilishi bilan bog'liq bo'lgan zarur sharh va izohlar tagsharhda keltirilgan.

Tarixiy shaxslarga izohlar kitob so'ngida ilova shaklida berilgan. Ilmiy nashrlar talabiga rioya qilgan holda ko'rsatkichlar tuzilgan va adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Darhaqiqat, yuqorida o'tgan ma'lumotlardan Al-Hakim at-Termiziyning «Haj va uning sirlari» islom olamida qimmatli asarlardan bo'lib, ular borasida tadqiq va tahqiq ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Xulosa o'rnida aytish kerakki, «Haj va uning sirlari» asari Al-Hakim at-Termiziyning muhim asarlaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan mazkur risolani ilmiy jihatdan o'rganib, undagi ma'lumotlarni tadqiq etib, turli tillarga tarjima qilish bugungi kun olimlarining muhim vazifalaridandir.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Bernd Radtke. Al-Hakim at-Tirmidi. – Freiburg: Klaus Schwarz Verlag, 1980.
2. Fuad Sezgin. Tarix at-turos al-arabiy. Arab tiliga Mahmud Fahmiy Majoziy tarjimasiz. – Riyoz: Idora as-saqofa van-nashr bil-jami'a, 1411/1991. II.
3. Karl Brokkelman. Tarix al-adab al-arabiy. – Qohira: Dor al-ma'orif, 1977. VI. Arab tiliga Abdulhalim Najjor, Sayyid Ya'qub Bakr va Ramazon Abdutavvoblar o'g'irgan. Beshinchi nashr.
4. Muhammad Ibraheem al-Geyoushi, "Al-Hakim al-Tirmidhi: his works and thoughts", Islamic Quarterly, vol. 14, no. 4, London, 1970, pp. 159-201.
5. Nicolas Heer, "Some biografical and bibliografical notes on al-Hakim al-Tirmidhi", The world of Islam. Studies in honour of Philip K. Hitti. Edited by James Kritzeck and R. Bayly Winder. London, 1959, pp. 182-205.
6. Xatib Bag'dodiy. Ar-Rihlatu fi talabil hadis. - Bayrut: «Dorul kutubil ilmiyya», 1390/1975. Birinchi nashr.
7. Xolid Zahriy. Hakim Xuroson va anis az-zamon. – Marokash: Markaz addirosa val-abhas va ihya at-turos, 2013.

## КОНТРОЛЬНЫЕ ТЕСТИРОВАНИЕ ФУТБОЛИСТОВ 11-13 ЛЕТ НА МНОГОЛЕТНИХ ПОДГОТОВИТЕЛЬНЫХ ЭТАПАХ

(на примере стартовой скорости)

**Игамбердиев Обиджон Рубдулла ўгли**

Доктор философии (PhD) педагогических наук Узбекском  
государственном университете физической культуры и спорта  
Г. Чирчик, Узбекистан

## КЎП ЙИЛЛИК ТАЙЁРГАРЛИК БОСҚИЧЛАРИДАГИ 11-13

## ЁШЛИ ФУТБОЛЧИЛАРНИ НАЗОРАТ ТЕСТЛАРИДАН ЎТКАЗИШ

(старт тезлиги мисолида)

**Игамбердиев Обиджон Рубдулла ўгли**

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети  
Чирчиқ шаҳри, Ўзбекистон

## CONDUCTING CONTROL TESTS OF 11-13-YEAR- OLD FOOTBALL PLAYERS IN MULTI-YEAR TRAINING STAGES (for example, starting speed)

**Igamberdiev Obidjon Rubdulla o'gli**

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)  
State University of Physical Education and Sports of Uzbekistan  
Chirchik city, Uzbekistan



<https://orcid.org/0009-0000-6744-4695>

[obidjoni117@gmail.com](mailto:obidjoni117@gmail.com)

**Аннотация:** В статье рассмотрена подготовка

футболистов, проведены исследования по организации комплексной подготовки футболистов на этапах многолетней подготовки, а также тестирование игроков, регулярно занимающихся на этапах многолетней подготовки. детально изучен. Изучены аспекты, на которые следует обратить внимание при тестировании различных качеств игроков 11-13 лет. Результаты контрольных испытаний были статистически проанализированы и сделаны выводы.

**Ключевые слова:** подготовка футболистов, многолетняя подготовка, основные факторы, контрольные тесты, экспресс-анализ, юные игроки, подростки.

**Аннотация:** Мақолада футболчиларни тайёрлаш, кўп йиллик тайёргарлик босқичларида футболчиларни ҳар томонлама тайёргарлигини ташкил этиш бўйича ўтказилган тадқиқотлар ва кўп йиллик тайёргарлик босқичларида мунтазам шуғулланаётган футболчиларни тестлаш ишлари атрофича ўрганилган. 11-13 ёшли футболчиларни турли томонларини тестдан ўтказишда аҳамият қаратилиши лозим бўлган томонлари ўрганилган. Ўтказилган назорат тестларининг натижалари статистик таҳлил қилиниб хулосалар берилган.

**Калит сўзлар:** футболчиларни тайёрлаш, кўп йиллик тайёргарлик, асосий омиллар, назорат тестлари, тезкор таҳлил, ёш футболчилар, ўсмирлар.

**Abstract:** The article examines the training of football players, conducts research on the organization of complex training of football players at the stages of long-term training, as well as testing of players who regularly engage in long-term training. studied in detail. The aspects that should be paid attention to when

testing various qualities of players aged 11-13 are studied. The results of control tests were statistically analyzed and conclusions were made.

**Key words:** training of football players, long-term training, main factors, control tests, express analysis, young players, teenagers.

Футбол – один из самых популярных и интересных видов спорта. Не будет преувеличением сказать, что подготовка футболистов на высоком уровне является огромной задачей для специалистов и не оставляет равнодушными любителей футбола. Принято 7 апреля 2023 года» В Постановлении № PQ-115 «О дополнительных мерах по всестороннему развитию массового и профессионального футбола», повышении интереса молодежи к футболу, дальнейшем усилении пропагандистской работы в этом направлении, создании достаточной условия для занятий ими футболом, разработка и реализация перспективных планов и программ, создание качественного спортивного резерва национальных сборных и профессиональных футбольных клубов, внедрение цифровой системы идентификации, отбора и отбора талантливых игроков, подготовка игроков разработка методических пособий, создание системы отбора (отбора) молодых игроков, обладающих высокими талантами, раннее выявление способностей к игре в футбол у детей и подростков и устойчивого отношения к футболу у них для развития интереса, подбора команды квалифицированных тренеров по футбольной подготовке, для начала тренировочного процесса по подготовке спортивного резерва и высококвалифицированных игроков с использованием новейших методов организации системы образования определено, что необходимо провести комплексную работу [1,7].

Тенденция развития современного отечественного футбола состоит в том, что после проведения чемпионата мира 2018 г. в нашей стране отмечается существенное увеличение количества желающих заниматься данным видом спорта. По своей массовости футбол опережает многие виды спорта, в том числе и входящие в программу Олимпийских игр. Занятия футболом являются не только средством воспитания подрастающего поколения, но и

обеспечивают реализацию индивидуальных спортивных потребностей, которые дают возможность в ближайшей перспективе добиться высоких спортивных результатов в избранном виде спорта [2,5,8,11].

Соревновательная деятельность в футболе характеризуется взаимодействием двух противоборствующих сторон, которые пытаются получить преимущество друг над другом в ходе поединка. В процессе игры все действия футболистов направлены на реализацию двух целей: в атаке – создание и реализация голевой ситуации, в обороне – срыв атаки и организация контратаки. Следует отметить, что существуют промежутки игры, когда ни одной команде не удается завладеть мячом, однако они имеют весьма непродолжительное время [3,4,9,10].

Предварительные поисковые исследования позволили установить, что для эффективного прогнозирования перспективности игрока в профессиональном футболе актуальным является рассмотрение возрастной категории U 11–13 в качестве основного этапа, определяющего эффективность дальнейшей многолетней подготовки спортсменов академии ФК «Локомотив» (Тошкент). Следует отметить, что включение игрока в многолетний тренировочный процесс конкретной возрастной группы футбольной академии определяется выполнением нормативных требований по различным видам подготовки [5,8,10,11].

Выполнение нормативных требований включало оценку результатов тестовых заданий, позволяющих определить двигательные возможности спортсменов возрастной категории U 11–13 футбольной академии «Локомотив» (Тошкент). В результате исследования стартовой скорости у футболистов U 11–13 установлено, что игроки выполняют нормативные требования в беге на 5 м с высокого старта в первом игровом цикле на всех этапах годичной подготовки, а во втором цикле подготовки это не всегда удается сделать ( $p > 0,05$ ; Таблица 1).

Таблица 1

**Результаты выполнения нормативных требований стартовой скорости (бег 5 м) у спортсменов возрастной категории U 11–13 футбольной академии «Локомотив» (Тошкент).**


Этап	Бег на 5 м (с)					
	с высокого старта			с ходу		
	1-й цикл	2-й цикл	<i>p</i>	1-й цикл	2-й цикл	<i>p</i>
ОП	1,58 ± 0,05	–	–	1,3 ± 0,04	–	–
СП	1,55 ± 0,04	1,57 ± 0,06	>0,05	1,27 ± 0,03	1,29 ± 0,04	>0,05
ПС	1,51 ± 0,05	1,54 ± 0,04	>0,05	1,22 ± 0,03	1,27 ± 0,04	>0,05
СР	<b>1,45 ± 0,05</b>	<b>1,57 ± 0,05</b>	<b>&lt;0,05</b>	1,2 ± 0,02	1,26 ± 0,03	>0,05
ПХ	–	1,58 ± 0,07	–	–	1,29 ± 0,04	–

*Примечание: ОП – общеподготовительный;  
СП – специально подготовительный;  
СР – соревновательный;  
ПХ – переходный.*

Установлено, что на предсоревновательном этапе годичной подготовки показатели стартовой скорости у футболистов 11–13 лет в первом цикле достоверно лучше –  $1,47 \pm 0,05$  с, чем во втором –  $1,55 \pm 0,05$  с ( $p < 0,05$ ). Исследование стартовой скорости показало, что в первом и втором циклах годичной подготовки показатели бега на 5 м с ходу улучшаются к соревновательному этапу, достигая своего максимального значения –  $1,2 \pm 0,02$  и  $1,26 \pm 0,03$  с соответственно ( $p > 0,05$ ; Таблица 1). При этом следует констатировать, что большинство игроков футбольной академии «Локомотив» (Москва) выполняют этот норматив в возрасте 11–13 лет.

Результаты исследований свидетельствуют, что футболисты 12 лет

успешно справляются с выполнением норматива «бег на 30 м» как в подготовительный, так и в соревновательный период годичного тренировочного цикла. Футболисты 13 лет выполняют норматив только в соревновательный период, а 11-летние игроки не справляются с выполнением задания в течение года. В процессе проведенного исследования установлено, что показатели развития быстроты, оцениваемые с помощью бега на 30 м, в подготовительный и соревновательный периоды годичного тренировочного цикла у 11-летних спортсменов немного ниже ( $5,6 \pm 0,3$  и  $5,5 \pm 0,4$  с), чем у игроков 12 ( $5,3 \pm 0,2$  с) и 13 ( $5,5 \pm 0,4$  и  $5,2 \pm 0,3$  с) лет ( $p > 0,05$ ; Рисунок 1).




**Рисунок 1 – Результаты выполнения нормативных требований в беге на 30 м у спортсменов категории U 11–13 футбольной академии «Локомотив» (Тошкент)**

Незначительное изменение показателей развития быстроты за 3 года, на наш взгляд, связано с тем, что у подростков в этот период времени организм развивается равномерно, без особых скачков в тотальных размерах.

Анализ данных Рисунка 23 свидетельствует, что в подготовительный и соревновательный период годового тренировочного цикла выполнить нормативные требования в челночном беге на 120 м удастся только игрокам футбольной академии «Локомотив» (Тошкент) возрастной категории U

13. Такие результаты свидетельствуют, что разработанная программа спортивного отбора и ориентации игроков позволяет добиться первых серьезных результатов в двигательной подготовленности к моменту начала активного полового созревания индивида.

Выявлено, что у спортсменов U 11–13 футбольной академии «Локомотив» (Тошкент) происходит достоверное улучшение показателей развития специальной выносливости, оцениваемой с помощью челночного бега на 120 м в течение 3 лет занятий ( $p < 0,05$ ).



## Рисунок 2 – Результаты выполнения нормативных требований в челночном беге на 120 м у спортсменов возрастной категории U 11–13 ФК «Локомотив» (Тошкент)

В результате исследования установлено, что у 11-летних футболистов в подготовительный и соревновательный периоды годового тренировочного цикла показатели челночного бега на 120 м составили  $25,9 \pm 1,6$  и  $26,2 \pm 1,5$  с, у 12-летних –  $24,7 \pm 1,6$  и  $24,3 \pm 1,5$  с, а у 13-летних эти значения наиболее оптимальны для данного возраста и составляют  $23,6 \pm 1,5$  и  $22,9 \pm 1,6$  с соответственно ( $p < 0,05$ ; Рисунок 3).

Весьма характерно, что показатель челночного бега на 120 м характеризует не только проявление специальной выносливости, но и координационных способностей, которые являются основой для повышения двигательной подготовленности спортсменов упомянутой категории футбольной академии «Локомотив» (Тошкент).

При анализе результатов прыжка в длину с места толчком двух ног, характеризующих уровень развития скоростно-силовых способностей спортсменов, установлено, что все группы футболистов успешно справляются с выполнением нормативов данного теста и что рассматриваемые показатели имеют тенденцию незначительного увеличения к 13 годам ( $p > 0,05$ ; Рисунок 3).




Рисунок 3 – Результаты выполнения нормативных требований по прыжкам в длину с места толчком двух ног у спортсменов категории U 11–13 футбольной академии «Локомотив» (Тошкент)

Выявлено, что у 11-летних футболистов в подготовительный и соревновательный периоды показатель прыжка в длину с места толчком двух ног составил  $168,5 \pm 6,2$  и  $169,7 \pm 5,9$  см, у 12-летних он незначительно возрос до  $172,5 \pm 6,4$  и  $171,9 \pm 4,8$  см, а у 13-летних наблюдался наибольший показатель –  $174,7 \pm 4,2$  и  $175,1 \pm 3,3$  см соответственно ( $p > 0,05$ ; Рисунок 3).

Полученные данные в ходе исследования позволяют констатировать, что спортсмены возрастной категории U 11–13 футбольной академии «Локомотив» (Москва) справляются с выполнением нормативных требований, предъявляемых к двигательной подготовленности. Рассматриваемые данные подтверждают тот факт, что выбранная стратегия спортивного отбора и видовой ориентации дает положительные результаты при подготовке спортивного резерва в футболе.

Физическая активность в футболе обеспечивает физическое совершенствование игрока в том случае, когда на организм воздействуют рациональные тренировочные нагрузки. Дозирование тренировочной нагрузки должно осуществляться с учетом анализа индивидуальных функциональных особенностей сердечно-сосудистой системы футболиста. Только индивидуально подобранная физическая нагрузка способствует повышению сопротивляемости организма к отрицательным воздействиям внешней среды. Чередование тренировочных нагрузок минимального, умеренного и максимального значений способствует положительным сдвигам в организме спортсмена и обеспечивает положительный тренировочный эффект.

**Заключение.** В свою очередь, применение только незначительных или чрезмерных нагрузок может отрицательно сказаться на функциональном развитии сердечно-сосудистой системы, а в некоторых случаях привести и к патологическим изменениям в организме. Систематическая оценка диагностики сердечно-сосудистой системы позволяет своевременно вносить



коррективы в программу подготовки спортивного резерва в футбольной академии «Локомотив» (Тошкент). Полученные результаты исследования позволяют констатировать, что у специалистов футбольных академий имеются существенные резервы при определении перспективности игрока для профессионального футбола на основе анализа резервных возможностей дыхательной системы, которые позволяют с более высокой эффективностью преодолевать в многолетнем процессе подготовки тренировочные нагрузки различной величины и направленности.

### Использованная литература

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2023 йил 7 апрелдаги “Оммавий ва профессионал футболни ҳар томонлама ривожлантиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-115-сонли қарори. <http://Lex.uz>.
2. Абрамов, Е.Е. Дифференцированный подход к построению тренировочных нагрузок футболистов учебно-тренировочных групп: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Абрамов Евгений Евгеньевич. – Малаховка, 2006. – 132 с.
3. Антипов, А.В. Анализ параметров двигательных действий юных футболистов с учетом их возраста / А.В. Антипов, И.В. Кулишенко // Теория и практика физической культуры. – 2016. – № 6. – С. 51.
4. Арбузин, И.А. Изменение коэффициента брака игровой деятельности юных футболистов 11–13 лет при использовании методики развития игрового мышления / И.А. Арбузин // Проблемы совершенствования физической культуры, спорта и олимпизма в Сибири: матер. Всерос. науч.-практ. конф. молодых ученых; под общ. ред. В.А. Аикина. – Омск, 2005. – С. 50–51.
5. Игамбердиев О.Р. Кўп йиллик тайёргарликнинг дастлабки босқичларида футболчиларни саралаб олишнинг илмий – назарий асослари. // Fan – sportga • № 8/2022. 31-34-б.
6. Игамбердиев О.Р. Кўп йиллик тайёргарликнинг юқори босқичларида футболчиларни саралаб олиш тизимлари. Sportda ilmiy tadqiqotlar. – 2023/2. 12-16-б.
7. Igamberdiyev O. Yosh futbolchilarni tanlab olish va seleksiyalashda yangi tadqiq qilish uslubiyatlari // Академические исследования в современной науке. – 2022. – Т. 1. – №. 17. – С. 159-165.
8. Igamberdiyev O. The effectiveness of using tests for assessing their motor skills in the selection of young football players // International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 451-456.
9. Керимов Ф.А. Спортда илмий тадқиқотлар. // Дарслик. // Тошкент-2021. 380 б.
10. Эрматов Ш.С. Informative physical training tests for the selection of children for football // Eurasian Journal of Sport Science. © Eurasian Journal of Sport Science 2022; 2(1): <https://uzjournals.edu.uz/eajss/>. Germany. 2022. P. 96-99.
11. Чудин, А. Технология поэтапного отбора юных спортсменов 10 и 14 лет, занимающихся мини-футболом / А. Чудин // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка: Детский тренер: Журнал в журнале. – 2006. – № 6. – С. 29.



## TALABALAR O'QUV MOTIVATSIYASI VA QADRIYATLAR SOHASINING O'ZARO BOG'LIQLIK JIHLATLARI

**Djumaniyozova Muxayya Xusinovna**

Urganch davlat universiteti dotsenti, ps.f.f.d.(PhD)

## АСПЕКТЫ ВЗАИМОЗАВИСИМОСТИ АКАДЕМИЧЕСКОЙ МОТИВАЦИИ И ЦЕННОСТЕЙ СТУДЕНТОВ


**Джуманиязова Мухия Хусиновна**

Доцент Ургенчского государственного университета

## ASPECTS OF INTERDEPENDENCE OF STUDENTS' ACADEMIC MOTIVATION AND VALUES

**Djumaniyazova Mukhiya Khusinovna**

Associate Professor of Urganch State University, (PhD)



Orcid: 2042-0804-2098-0284

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada talabalar o'qish faoliyatida o'quv motivatsiyasining roli, psixolog olimlar tomonidan motiv, o'quv motivatsiyasi, qadriyatlar sohasi to'g'risidagi nazariy qarashlar bayon qilingan. Shuningdek, motiv va motivatsiya tushunchalari, ularning tuzilmalari, o'quv motivatsiyasi va qadriyatlar sohasining o'zaro bog'liqlik haqidagi ma'lumotlar empirik tahlil qilinib, talabalar o'quv motivatsiyasiga qadriyatlar ta'siri bo'yicha xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** motiv, motivlar tizimi, motivatsiya, o'quv motivatsiyasi, faoliyat, ehtiyoj, qadriyatga yo'naltirish, maqsad, g'oya, ichki motiv, tashqi motiv.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль учебной мотивации в учебной деятельности студентов, изложены теоретические взгляды психологов на мотив, учебную мотивацию и сферу ценностей. Кроме того, проанализированы понятия мотив и мотивация, их структуры, взаимосвязь учебной мотивации и сферы ценностей на эмпирическом уровне, а также приведены выводы о влиянии ценностей на учебную мотивацию студентов.

**Ключевые слова:** мотив, система мотивов, мотивация, учебная мотивация, деятельность, потребность, ценностная ориентация, цель, идея, внутренний мотив, внешний мотив.

**Annotation:** This article discusses the role of learning motivation in students' academic activities, presenting theoretical perspectives by psychologists on motives, learning motivation, and the value system. Additionally, the concepts of motive and motivation, their structures, and the interrelation between learning motivation and the value system are empirically analyzed. Conclusions are drawn regarding the influence of values on students' learning motivation.

**Key words:** motive, system of motives, motivation, learning motivation, activity, need, value orientation, goal, idea, internal motive, external motive.

**Kirish.** Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ta'lim jarayoni ishtirokchilarining psixologiyasiga ta'sir qilmasligi mumkin emas. Bunday vaziyatda talaba shaxsining motivatsion sohasini hisobga olishga qaratilgan yangi ta'lim strategiyasiga ehtiyoj yaqqol namoyon bo'ladi. Motivatsiya inson hayotida, birinchi navbatda, har qanday harakatning semantik yadrosi sifatida alohida rol o'ynaydi. Buni xulq-atvor va kasb tanlash motivlarini shakllantirish bilan bog'liq dinamik jarayon sifatida ham ko'rish mumkin.

Talabalarning o'quv faoliyati motivatsiyasini o'rganish juda muhimdir, chunki ularning o'qishga bo'lgan munosabati, o'quv samaradorligi, qiziqishi va keyinchalik kasbiy mahorati bunga bog'liq. O'quv motivlari shaxsni qadriyatga yo'naltirish vazifasini ham bajaradi. Insonning ma'lum bir qadriyatlarga yo'naltirilishi ularga taxminiy ijobiy baho natijalari orqali singib boradi. Shu bilan birga, subyekt uni ongli ravishda loyihalashtirib olgan taqdirdagina u yoki bu qadriyatga yo'naltirish haqida gapirish mumkin bo'ladi. Ba'zi insonlar qadriyatlarga bo'lgan ehtiyoj orqali emas, aksincha, tevarak-atrofini o'rab turgan odamlarning qadriyatlarga munosabatlarini o'zlashtirib olgan holda o'z xulqiga va faoliyatiga moslashtiradi, xuddi shu yo'l bilan ilgari o'zida bo'lmagan yangi ehtiyojlar negizini tiklaydi [1].

Faoliyatning mazmuni faqatgina shu faoliyatni qoniqtira oladigan ehtiyojlar mundarijasi bilangina belgilanmaydi. Inson asosiy ehtiyoj bilan bir yo'nalishda harakat qilayotgan vaziyatni obyektiv va subyektiv imkoniyatlarning mavjudligini, ehtiyojlar bor-yo'qligini hisobga oladi. Mana shundan keyingina motiv asosiga (ahamiyatiga, qimmatiga, ma'nosiga) ko'ra subyekt uchun mos bo'lgan xulqni subyektiv asosda hal qilishga, aks holda subyekt ushbu xulqni oqlab, faoliyatida namoyon qiladi. Ya'ni, motiv bir xulqni ikkinchi xulq bilan, kamroq qo'llanadiganini ko'proq qo'llanadigani bilan almashtiradi. Shu yo'l bilan ko'zlangan faoliyatga imkoniyat tug'iladi [2].

**Adabiyotlar tahlili.** Psixologiya fanida shaxsning anglangan qadriyatlar sohasini o'rganishda ko'plab mazmun jihatidan ushbu sohaga

yaqin tushunchalar bilan to'qnash kelamiz: ehtiyojlar, qadriyatlar, g'oya, qadriyatli yo'nalishlar, motivlar, maqsadlar – ular orasidagi chegarani aniq belgilash oson emas. Biroq, har qanday empirik tadqiqotni o'tkazish uchun, aynan mavzuda ko'rsatilgan hodisani o'rganish maqsadida, kategoriya apparatini aniqlab olish muhimdir.

Qadriyatni motiv sifatida muhokama qilganda, biz motiv tushunchasiga murojaat qilishimiz kerak bo'ladi. A.N.Leontyev motivni anglangan ehtiyoj sifatida ta'riflagan [3]. E.P.Ilyin ta'kidlashicha, agar "motivni anglangan ehtiyoj" deb qabul qilishni A.N.Leontyevning tushunchasini bevosita qabul qilinsa, maqsad (ehtiyoning o'zi) va motiv (ehtiyoning psixologik holati) o'rtasidagi farq yo'qoladi, motiv noto'g'ri tushunilib, faoliyatni aniqlovchi tashqi obyekt sifatida qabul qilinadi[4]. Qadriyat va motivning o'zaro munosabati muammosi psixologiyada motivni tushunish muammosi bilan bevosita bog'liqdir. V.G.Leontyev fikricha: "Motivlarni eksperimentda shaxsning g'oyalaridan va g'oyaviy yo'nalishlardan ajratish juda qiyin, ular faqat ushbu yo'nalishlar orqali namoyon bo'ladi. Bu esa qadriyatlarga ham to'liq tegishli" [5].

Motiv, qadriyat va g'oya tushunchalarining o'zaro kesishishini B.S.Alishiev ham ta'kidlaydi, lekin uning tizimli-funksional yondashuvida "g'oya" "mazmun"ga, "motiv" esa "tanlov"ga tegishli bo'lib, bu jarayonlar ketma-ketligi "axborot – mazmun – tanlov – harakat" sifatida talqin etiladi. Unga ko'ra, "g'oya muammosi mazmunni aniqlash jarayoni bilan, motiv muammosi esa harakatni tanlash jarayoni bilan bog'liq" [5]. Bizning fikrimizcha, "mazmun" ko'proq qadriyat bilan bog'liq, "g'oya" uchun esa "ahamiyatlilik" ko'proq xosdir.

**Metodlar tahlili.** Biz talabalar o'quv motivatsiyasi va qadriyatlar sohasining o'zaro bog'liqlik jihatlari o'rganish uchun Oliy ta'lim muassasasi 1-kurs va 4-kurs talabalarida I.G.Senin "Qadriyatlar yo'nalganligini aniqlash" test-so'rovnomasini o'tkazdik (1-jadval).

*I.G.Senin "Qadriyatlar yo'nalganligini aniqlash" so'rovnomasi guruhlar kesimidagi natijalar tahlili (Mann Uitni mezoni bo'yicha n=694)*

**1-jadval**

Shkalalar	guruh	N	O'rtacha rang	U	P
Kasb-hunar olami	1-kurs	323	375,62	46983,500	,000***

	4-kurs	371	323,02		
	Jami	694			
<b>Ta'lim-tarbiya</b>	1-kurs	323	407,04	41635,000	,000***
	4-kurs	371	295,66		
	Jami	694			
<b>Oilaviy hayot</b>	1-kurs	323	367,17	50954,500	,013*
	4-kurs	371	330,37		
	Jami	694			
<b>Ijtimoiy hayot</b>	1-kurs	323	327,47	54883,000	,345
	4-kurs	371	364,94		
	Jami	694			
<b>Qiziqishlar olami</b>	1-kurs	323	326,40	53780,500	,170
	4-kurs	371	365,87		
	Jami	694			
<b>Oliy nufuzga ega bo'lish</b>	1-kurs	323	336,39	56231,000	,673
	4-kurs	371	357,17		
	Jami	694			
<b>Yuqori moddiy ta'minot</b>	1-kurs	323	349,90	53248,000	,114
	4-kurs	371	345,41		
	Jami	694			
<b>Ijodkorlik</b>	1-kurs	323	350,71	52778,000	,078
	4-kurs	371	344,70		
	Jami	694			
<b>Faol ijtimoiy munosabatlar</b>	1-kurs	323	326,82	54988,000	,336
	4-kurs	371	365,51		
	Jami	694			
<b>O'z ustida ishlash</b>	1-kurs	323	303,51	52438,500	,058
	4-kurs	371	385,80		
	Jami	694			
<b>Yutuqlarga yo'nalish</b>	1-kurs	323	331,62	52469,500	,060
	4-kurs	371	361,32		
	Jami	694			
<b>Ma'naviy qoniqish</b>	1-kurs	323	313,02	52151,500	0,045*
	4-kurs	371	377,52		
	Jami	694			
<b>O'zlikni saqlash</b>	1-kurs	323	303,27	44849,000	0,000***
	4-kurs	371	386,00		
	Jami	694			

Izoh: \*\*\* $p < 0,001$ ; \* $p < 0,05$

I.G.Seninning “Qadriyatlar yo‘nalganligini aniqlash” test-so‘rovnomasining Kasb-hunar olami shkalasida ishonchli farqlar aniqlandi ( $U=46983$ ;  $p \leq 0,001$ ). Natijalar tahliliga ko‘ra 4-bosqich talabalariga qaraganda 1-bosqich talabalarida kasb-hunarga yo‘nalganlik qadriyatlari ustunligi aniqlandi. Talabalikning birinchi bosqichida talabalar o‘spirinlik yosh davrida bo‘lgangili

sababli, ularning yetakchi faoliyat turi kasb tanlash va kasbga qiziqish hisoblanadi.

O‘zi tanlab kirgan mutaxassislik bilan bog‘liq kasbni hamma tomonlama, mukammal o‘rganish istagi yuqori bo‘lib, mutaxassislik doirasidagi fanlarni zo‘r ishtiyoq bilan o‘rganishga intiladi. Aynan bu kasb-hunar olami shakalasi vositali qadriyatlar sirasiga mansubdir, bunda asosan talabalar o‘z kasbiy faoliyat sohasiga katta

ahamiyat beradilar, shuningdek, ko'p vaqtini shu kasbni o'rganishga sarflaydilar, kasbni egallash borasidagii barcha muammolarni hal etishga tezda kirishib ketadilar. Ular kasbiy faoliyatni hayotning asosiy mazmuni deb biladilar. 4-bosqich talabarlari o'z kasbini nazariy jihatdan to'laqonli o'rganib olganliklari sababli ularda bu qadriyatlar muhimligi yaqqol ko'zga tashlanmasligi mumkin ekan.

Inson ehtiyojlari tizimini "Qadriyatlar yo'nalishlari savolnomasi" ning ta'lim – tarbiya shkalasida ham ishonchli farqlar mavjudligi ma'lum bo'ldi ( $U=41635$ ;  $p\leq 0,001$ ). Olingan natijalarga binoan 1-bosqichda o'qiyotgan talabalarda ta'lim-tarbiya bilan bog'liq qadriyatlar 4-bosqich talabalarinikidan ustunroq ekan. 4-bosqich talabarlari to'rt yilgi o'qish davomida ustozlari tamonidan berilayotgan ta'lim – tarbiyaning har-xil jihatlarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'lganlar.

Birinchi bosqichda esa bu ayni muddao hisoblanadi, umumiy o'rta ta'limidan chiqib kelgan talabalar uchun oliy ta'limga xos madaniyat, bilimlarni o'zlashtirish, imtihonlardan o'tish masalasi, ularning o'qish bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlaridir. Ayniqsa bunday talabalar o'qimishli bo'lishga, o'z dunyoqarashini kengaytirishga intiluvchan bo'ladilar. Shuningdek, o'qishni, yangi-yangi bilimlarni egallashni, hayotdan orqada qolmaslikni eng muhim narsa deb hisoblashadilar.

Oilaviy hayot shkalasida ishonchli farqlar kuzatildi, 4-bosqich talabalariga nisbatan birinchi bosqich talabalarida Hayotiy sohalar bo'yicha oilaviy hayot qadriyatlari yuqoriligi ayon bo'ldi ( $U=50954$ ;  $p\leq 0,05$ ). Birinchi bosqichdagi talabalar o'z oilasi bilan bog'liq bo'lgan barcha voqeiklarga katta ahamiyat berishi bilan ajralib turadi. Ular ma'lum ma'noda balog'at yoshida bo'lganligi sababli oilada bo'layotgan vaziyatlarni to'liq tahlil eta oladilar va oila a'zolariga o'z ta'sirlarini ham o'tkazishni boshlaydilar.

Ma'naviy qoniqish shakalasi bo'yicha olingan ma'lumotlarda ishonchli farqlar kuzatildi ( $U=52151$ ;  $p\leq 0,05$ ). Natijalar tahliliga ko'ra, birinchi bosqich talabalariga qaraganda to'rtinch bosqich talabalarda ma'naviy qoniqish qadriyati yuqori ekan. 4-bosqich talabarlari o'zlarini ruhiy ma'naviy jihatdan qoniqtiradigan hayotiy sohalarni tanlashga intilar

ekanlar. Ular ko'pincha, o'zlariga qiziq bo'lgan, ma'naviy ozuqa, ichki qoniqish baxsh etadigan faoliyat bilan mashg'ul bo'lishni juda zarur deb hisoblar ekanlar. Ularning kasbi, faoliyatini ma'naviy qoniqish olib kelishiga qaratishi, qiziqarli, mazmunli ish yoki kasb egasi bo'lishga intilishida o'z aksini topadi. Bu talabalar o'z mehnatini mazmunan chuqur anglashga intilib, o'zlari bajargan ishning natijasidan emas, balki ko'proq ishning borishidan, jarayonidan zavq oladilar. To'rtinchi bosqich talabalariga o'zlari qilgan ishdan xavotirlanmaslik, uning sifatli bajarilganiga ishonch bilan, ma'lum ma'noda mag'rurlik bilan munosabatda bo'lish xosligi ma'lum bo'ldi. Inson ehtiyojlari tizimini "Qadriyatlar yo'nalishlari savolnomasi"ning o'zlikni saqlash shkalasida ishonchli farqlar kuzatildi ( $U=44849,0$ ;  $p\leq 0,001$ ) to'rtinchi bosqich talabalarida o'zlikni saqlash qadriyati birinchi bosqich talabalariga qaraganda yuqoriroq ekan.

Aytish mumkinki, 4-bosqich talabarlari mehnat faoliyatida o'ziga xos usuldan foydalanib, boshqalardan qanday bo'lmasin farq qilishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu talabalar o'zlariga xosligini, betakrorligini chertib ko'rsatish uchun noan'anaviy, noyob va nodir mutaxassisliklarni tanlashga moyil bo'ladilar. Bu bosqichdagi talabalarining boshqalardan mustaqil bo'lishga doir intilishlarini ifoda etadi. Bunday talabalar odatda hayotda eng muhim narsa deb, o'z shaxsining betakrorligi va o'ziga xosligini, o'ziga xos hayot tarziga, dunyoqarashga ega bo'lishni tushunadilar. Atrofdagilarning ta'siriga kamroq berilib, mustaqil fikrlariga binoan ish yuritishga moyil, o'ziga xos hayot tarziga ega bo'ladilar.

**Xulosa.** Ta'kidlash joizki, qadriyat yo'nalishlari shaxsning umumiy yo'nalishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bizning fikrimizcha, yo'nalishning bir qismini aks ettiradi va bu qadriyatlar sohasida namoyon bo'ladi. Qadriyat yo'nalishlari vektorlarini ko'rib chiqish orqali biz ularni shaxs o'quv motivlari bilan taqqoslash imkoniga ega bo'ldik. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari tahlilidan ko'rinib turibdiki, o'quv motivatsiyasi va qadriyatlar sohasi orasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, unga shaxs yoshi va bilim darajasi bevosita ta'sir qiladi.

Qadriyatlar sohasi shaxs va subyektning hayot faoliyatida asosiy rol o'ynaydi, u xulq-atvor va faoliyatni tartibga solish, motivatsion va boshqa funksiyalarni bajaradi. Barcha funksiyalar shaxsning

jamiyatga moslashishiga yo‘naltirilgan umumiy yo‘nalish bilan birlashadi. Shunday qilib, qadriyatlar sohasining asosiy funksiyalaridan biri – moslashuvchanlik funksiyasi hisoblanadi. Tadqiqotimizdagi gipotezalardan biri shundan iboratki, shaxsning qadriyat yo‘nalishi tuzilishi ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega bo‘lib, qadriyatlar sohasining moslashuvchanlik funksiyasini aks ettiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Анисимов С.Ф. Духовные ценности: производство и потребление. –Москва: Мысль, 1998. – 156 б.

2. Вилюнас, В. К. Психологические механизмы мотивации человека / В. К. Вилюнас. – М. : Изд-во МГУ, 1990. – 288 с.

3. Djumaniyazova M.X. Talabalar o‘quv motivatsiyasini rivojlanishi - psixologik muammo sifatida. “Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnali. № 6 (8) 2023.148-153 betlar.

4. Леонтьев, В. Г. Психологические механизмы мотивации учебной деятельности. / В. Г. Леонтьев. – Новосибирск: НГПИ, 1987 – 89 с.

5. Хекхаузен, Х. Мотивация и деятельность. – СПб: Питер, 2013. – 860 с.



## PERFEKSIONIZMNING MUVAFFAQIYAT VA SHAHSIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI

**Ilmira Jumaniyazova Kamiljanovna**

Ma'mun universiteti psixologiya va tibbiyot kafedrasida dotsenti,  
(PhD)

## ВЛИЯНИЕ ПЕРФЕКЦИОНИЗМА НА УСПЕХ И ЛИЧНОСТНОЕ РАЗВИТИЕ

**Ильмира Жуманиязова Камилжановна**

Доцент кафедры психологии и медицины Университета  
Маъмуна, доктор философии



E-mail:

temperament88@mail.ru

Orcid: 0046-0802-0093-028x

**Annotatsiya:** Ushbu maqola muvaffaqiyat va shaxsiy rivojlanishda perfekcionizmning ijobiy va salbiy ta'sirini o'rganadi. Adaptiv perfekcionizm shaxsning yutuqlarga erishishi va o'zini rivojlantirishiga yordam bersa, muvofiqlashmagan perfekcionizm ruhiy charchoq va ijtimoiy munosabatlarda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Maqolada perfekcionizmning akademik va kasbiy faoliyatdagi o'rni, ijtimoiy munosabatlarga ta'siri va qiyinchiliklardan saboq olishning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** perfekcionizm, muvaffaqiyat, shaxsiy rivojlanish, adaptiv perfekcionizm, ruhiy charchoq, ijtimoiy munosabatlar.

**Аннотация:** В статье рассматривается влияние перфекционизма на успех и личностное развитие. Адаптивный перфекционизм способствует достижению высоких результатов и развитию личности, в то время как дезадаптивный перфекционизм приводит к эмоциональному выгоранию и трудностям в социальных отношениях. В работе проанализированы роль перфекционизма в учебной и профессиональной деятельности, его влияние на социальные взаимодействия и значение извлечения уроков из трудностей.

**Ключевые слова:** перфекционизм, успех, личностное развитие, адаптивный перфекционизм, эмоциональное выгорание, социальные отношения.

**Abstract:** This article explores the impact of perfectionism on success and personal development. Adaptive perfectionism enhances achievements and personal growth, while maladaptive perfectionism leads to burnout and challenges in social relationships. The paper examines the role of perfectionism in academic and professional settings, its effect on social interactions, and the importance of learning from setbacks.

**Key words:** perfectionism, success, personal development, adaptive perfectionism, burnout, social relationships.

**Kirish.** Perfeksionizm rasman psixologik kasalliklar ro'yxatiga kirmasligiga qaramay, Amerikaning Psixologiya Assotsiatsiyasi tomonidan e'lon qilingan hisobotga ko'ra, u ko'plab ruhiy sog'liq muammolarining, jumladan, depressiya, xavotir, ovqatlanish buzilishlari, obsessiv-kompulsiv buzilishlar va hatto suitsidning asosida yotadi [1]. Mutaxassislarining taxminlariga ko'ra, perfeksionizmning ildizlari genetika va atrof-muhitga bog'liqdir [5].

Muvaffaqiyat va shaxsiy rivojlanish inson hayotidagi asosiy maqsadlardan hisoblanadi. Bunda shaxsning ichki intilishlari va tashqi sharoitlardan tashqari psixologik omillar ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, perfeksionizmning ta'siri katta: inson muvaffaqiyatga erishish jarayonida yuqori standartlarni belgilaydi, ammo buning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Bu jarayonda foydali perfeksionizm shaxsiy o'sishga yordam bersa, salbiy perfeksionizm stress va ruhiy tushkunlikka olib kelishi mumkin [6,7].

Muvofiqlashmagan perfeksionizm insonning ijtimoiy munosabatlariga, ruhiy salomatligiga va ish unumdorligiga jiddiy salbiy ta'sir qiladi. Bunday perfeksionistlar kichik xatolarga ham ortiqcha e'tibor qaratib, o'zlarini qiynalishadi va ko'pincha ijobiy o'zgarishlardan qo'rqadilar [4].

Bunday muvaffaqiyat modeli akademik va kasbiy sohalarda shaxsni yuqori natijalarga yetishishga undaydi. Masalan, STEM yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning natijalari yuqori perfeksionizmga ega bo'lganda yaxshiroq bo'lishi aniqlangan [6]. Bu ularning motivatsiyasini oshirib, ijobiy kayfiyat va samaradorlikni saqlab qolishga yordam beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** J.Stoeber va D.P.Janssen tadqiqotlarida perfeksionizmning shaxsiy rivojlanishga ta'siri uni qanday boshqarilishidan qat'i nazar o'zgarishi mumkinligini qayd qiladi. Adaptiv perfeksionizm shaxsni ijobiy o'zgarishlarga undaydi. Bunday shaxslar xatolarni saboq sifatida qabul qilib, ulardan rivojlanish uchun foydalanadilar [8].

P.B.Gnilka ta'kidlashicha adaptiv perfeksionizm odamga ijobiy o'zgarishlarga yordam beradi, lekin u ham muvozanatda bo'lishi lozimdir. Haddan tashqari yuqori standartlar o'z navbatida xavotir va ruhiy charchoqqa sabab bo'lishi mumkin. Aynan shu sababli, shaxs o'zining chegaralarini

bilishi va zarur hollarda dam olishga ham e'tibor qaratishi muhim. Akademik va kasbiy sohalarda yuqori natijalarga erishish foydali perfeksionizm orqali muvaffaqiyatliroq bo'ladi, lekin barcha qadamlarda xatolardan saboq olish va ularni ijobiy imkoniyat sifatida ko'rish talab etiladi [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** J.Stoeber va D.P.Janssen shuningdek perfeksionizmning foydali tomonlari ko'p bo'lsa-da, uning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri ham ko'rib chiqilishi kerak deb hisoblaydi. Ba'zi hollarda perfeksionist shaxslar atrof-dagilarga nisbatan ham ortiqcha talabchanlik qiladi, bu esa munosabatlarda ziddiyatlar keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, shaxs o'z talablarini realistik va moslashuvchan qila olishi kerak. Oilaviy va ijtimoiy hayotda moslashuvchanlik perfeksionizmning salbiy ta'sirlarini yumshatishga yordam beradi [8]. P.B. Gnilka boshqa tomondan, muvofiqlashmagan perfeksionizm shaxsga salbiy ta'sir qilib, ruhiy charchoq, stress va depressiyaga sabab bo'lishi mumkinligini e'tirof qiladi. Tadqiqotlarga ko'ra, bunday shaxslar xatolardan qo'rqib, o'zlarini ortiqcha tanqid qiladilar va natijada ijobiy o'sish imkoniyatlarini boy berishadi [2].

M. Lasalle va U. Hess muvaffaqiyatga yetishda yuqori standartlarni qo'yish insonga bir qator ijobiy natijalar beradi, lekin bu jarayonda strategik yondashuv muhimligini qayd qiladi. O'ziga mos maqsadlarni belgilash va har bir qadamni aniq rejalashtirish nafaqat akademik, balki kasbiy rivojlanishda ham ahamiyatlidir. Yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxs o'z intilishlarini ichki va tashqi motivlar bilan uyg'unlashtirganda, uning samaradorligi sezilarli darajada oshadi [3]. K. G Rice, F. G. Lopez fikricha muvaffaqiyatli shaxslar o'z maqsadlariga erishishda ichki motivatsiyaga tayanishadi. Bu shunchaki yuqori natijalarga erishish emas, balki shaxsning o'z rivojlanishidan qoniqish hosil qilishi bilan bog'liq. Ichki motivlar bilan harakat qiluvchi insonlar muvaffaqiyatsizliklarga boshqalardan ko'ra yengilroq moslashadi va uzoq muddatli rivojlanish uchun barqarorlikni saqlab qoladilar [6].

**Tahlil va natijalar.** Akademik va ish muhitida tashqi bosimlar ko'pincha stress va charchoqqa olib keladi. Yangiliklarni yaratish yoki ishda yuqori natijalarga erishishda odamning ichki ehtiyojlariga mos maqsadlar qo'yishi uni stressdan himoya qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'ziga mos



maqsadlar belgilagan va ularga asoslangan shaxslar tashqi tanqid va muvaffaqiyatsizliklarni yengilroq qabul qilishadi [2]. Barqaror rivojlanishning asosiy jihatlaridan biri muvozanatni saqlashdir. Bunday yondashuv shaxsga uzoq muddatli maqsadlarini realistik tarzda belgilash va yangi sharoitlarga tez moslashish imkoniyatini beradi. Masalan, STEM talabalari orasida o'z maqsadlarini qayta ko'rib

chiqish va yangi strategiyalarni qo'llash muvaffaqiyat darajasini oshirishi aniqlangan [6].

Quyidagi jadvalda muvaffaqiyat va perfeksionizm o'rtasidagi bog'liqlik adaptiv va muvofiqlashmagan perfeksionizm turlari bo'yicha taqqoslangan. Bu yerda har bir turning xislatlari, muvaffaqiyatga va shaxsiy rivojlanishga ta'siri, shuningdek, voqeyiy misollar keltirilgan (1-jadval).

<b>MUVAFFAQIYAT VA PERFEKSIONIZM O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK</b>				
<b>Perfeksionizm turi</b>	<b>Shaxsiy sifatlar</b>	<b>Muvaffaqiyatga ta'siri</b>	<b>Shaxsiy rivojlanishga ta'siri</b>	<b>Misollar</b>
<b>Adaptiv Perfeksionizm</b>	Yuqori standartlar, maqsadga yo'naltirilganlik, muvaffaqiyatsizliklarga ijobiy munosabat	Samaradorlikni oshiradi, vaqtni boshqarishga yordam beradi, motivatsiyani kuchaytiradi (Burnam et al., 2014)	O'zini hurmat qilishni oshiradi, barqarorlikni rivojlantiradi, xatolardan saboq olishni rag'batlantiradi (Rice et al., 2013)	STEM talabalari sog'lom yondashuv bilan yuqori natijalarga erishadi (Rice et al., 2013)
<b>Muvofiqlashmagan Perfeksionizm</b>	O'zini tanqid qilish, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish, kamchiliklarga e'tibor	Kechiktirishga olib keladi, stressni oshiradi, ish samaradorligini pasaytiradi (Gnilka et al., 2012)	Xavotir, depressiya va munosabatlarda muammolarga sabab bo'ladi (Gnilka et al., 2012; Stoeber & Janssen, 2011)	Yuqori talabchanlik sababli charchoqqa duchor bo'lgan yuqori natijali shaxslar (Gnilka et al., 2012)

Yuqoridagi jadvalda muvaffaqiyat va perfeksionizm o'rtasidagi bog'liqlik ijtimoiy munosabatlar bilan yanada boyitilgan. Adaptiv perfeksionizm jamoaviy ishda ijobiy muhit yaratib, hamkorlik va fikr almashishni rag'batlantiradi. Bunday yondashuvda shaxslar boshqalar bilan ishlashdan mamnunlik his qiladi va ijtimoiy munosabatlarini mustahkamlaydi.

Muvofiqlashmagan perfeksionizm esa ko'p hollarda ziddiyat va yolg'izlikka olib kelishi mumkin. Yuqori talabchanlik atrofdagilar bilan munosabatlarda qiyinchiliklar tug'dirib, shaxsni ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi ehtimoli bor. Bu yondoshuv perfeksionizmning nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki insonning jamoa ichidagi o'rniga ham qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi.

**Xulosa.** Perfeksionizm shaxsning yuqori natijalarga erishishiga va o'zini to'liq namoyon qilishiga yordam beradi. Bunday yondashuvda odamlar qiyinchiliklarni saboq sifatida qabul qilib, realistik maqsadlar qo'ya oladilar va o'z xatolarini rivojlanish imkoniyati sifatida ko'radilar. Boshqa tomondan, muvofiqlashmagan perfeksionizm haddan tashqari tanqidiy munosabat va

muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqishni kuchaytirib, stress va charchoqqa olib kelishi mumkin.

Muvaffaqiyatli rivojlanish uchun har bir shaxs uchun perfeksionizmning mos balansini topish zarur. Adaptiv yondashuv nafaqat kasbiy va akademik faoliyatda, balki ijtimoiy munosabatlarda ham barqarorlikni ta'minlaydi. Boshqa tomondan, perfeksionizmdan kelib chiquvchi ruhiy va ijtimoiy muammolardan qochish uchun xatolardan saboq olish va realistik yondashuvni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun inson o'z maqsadlariga intilib, bir vaqtning o'zida o'z salohiyatini to'g'ri baholash va qiyinchiliklardan ruhiy barqarorlik bilan chiqishga tayyor bo'lishi zarur hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- Benson, P.** (2003). The impact of perfectionism on mental health: A report by the American Psychological Association.
- Gnilka, P. B., Ashby, J. S., & Noble, C. M. (2012). Adaptive and maladaptive perfectionism as mediators of adult attachment styles and depression. *Journal of Counseling Psychology*, 59(4), 604–615.
- Lasalle, M., & Hess, U. (2022). A motivational approach to perfectionism and striving for excellence. *Frontiers in Psychology*, 13,

1022462.

<https://doi.org/10.3389/fpsyg.2022.1022462>.

4. Mobley, M., Slaney, R. B., & Rice, K. G. (2005). Perfectionism in college students: A typology. *Journal of Counseling Psychology*, 52(4), 504–514. doi:10.1037/0022-0167.52.4.504.

5. Moser, J. S., Moran, T. P., Schroder, H. S., Donnellan, M. B., & Yeung, N. (2012). The relationship between perfectionism and anxiety: Evidence supporting a neurobiological basis. *Journal of Abnormal Psychology*, 121(1), 206–212. doi:10.1037/a0025406.

6. Rice, K. G., Lopez, F. G., & Richardson, C. M. E. (2013). Perfectionism and performance among

STEM students: Implications for gender and academic achievement. *Journal of Educational Psychology*, 105(3), 734–743.

7. Rice, K. G., Vergara, D. T., & Aldea, M. A. (2006). Cognitive-affective mediators of perfectionism and college student adjustment. *Journal of Counseling Psychology*, 53(2), 204–213. doi:10.1037/0022-0167.53.2.204.

8. Stoeber, J., & Janssen, D. P. (2011). Perfectionism and coping with daily failures: Positive reframing helps achieve satisfaction at the end of the day. *Anxiety, Stress, & Coping*, 24(5), 477–49



## TIBBIY LEKSIKA ASOSIDA SHAKLLANGAN INGLIZ VA O‘ZBEK MAQOLLARIDA METAFORA VA METONIMIYA

**Chorieva Iroda Kurbonboevna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

## МЕТАФОРА И МЕТОНИМИЯ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦАХ, СФОРМИРОВАННЫХ НА ОСНОВЕ МЕДИЦИНСКОЙ ЛЕКСИКИ

**Чориева Ирода Курбанбоевна**

преподаватель Денауский институт предпринимательства и  
педагогика

## METAPHOR AND METONYMY IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS FORMED ON THE BASIS OF MEDICAL LEXICON

**Chorieva Iroda Kurbanboevna**

Teacher of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy



E-mail:

[iroda.chorieva@inbox.ru](mailto:iroda.chorieva@inbox.ru)

tel: +998905693345

Orcid: 0009-0005-2348-0902

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ingliz tilida “injury” va “wound” hamda o‘zbek tilida “yara” va “jarohat” leksemalarining ma’no va qo‘llanilishini chuqurroq tahlil qiladi. Leksemalar inson tanasidagi jismoniy zararni ifodalash bilan birga, ruhiy va ijtimoiy zararni ham ifodalashi mumkin. Maqolada “injury” va “wound”, “yara” va “jarohat” leksemalarining o‘ziga xos xususiyatlari va farqlari, shuningdek, ularning metafora va metonimiya turlarida qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, maqolada ushbu leksemalarni qo‘llagan maqollar va ularning madaniy va ijtimoiy ma’nolari ham ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** maqollar, yara, jarohat, badiiy san’at, metafora, metonimiya, sog‘lik, kasallik, qiyosiy tahlil, madaniy tasavvurlar.

**Аннотация:** Данная научная статья посвящена глубокому анализу лингвокультурных особенностей, выраженных через названия болезней и их симптомы в английских и узбекских народных пословицах. В пословицах болезни и их симптомы трактуются не только как медицинские понятия, но и как концепты, обладающие глубоким символическим и культурным значением. В данной работе изучается, какие представления о здоровье, исцелении, трудностях и человеческих ценностях имеют народные массы через названия болезней и симптомы, выбранные в пословицах.

**Ключевые слова:** пословицы, язва, рана, художественное искусство, метафора, метонимия, здоровье, болезнь, сравнительный анализ, культурные представления.

**Annotation:** This article provides a deeper analysis of the meanings and uses of the lexemes “injury” and “wound” in English, as well as “yara” and “jarohat” in Uzbek. These lexemes can express not only physical damage to the human body but also psychological and social harm. The article examines the unique characteristics and distinctions of “injury” and “wound,” and “yara” and “jarohat” lexemes as well as their application in metaphors and metonymies. Furthermore, it discusses proverbs that utilize these lexemes and their cultural and social meanings.

**Key words:** proverbs, wound, injury, stylistic device, metaphor, metonymy, health, illness/disease, comparative analysis, cultural concepts.

## KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Til - bu insoniyatning eng muhim muloqot vositalaridan biridir. U bizga o'z fikrlarimizni ifodalash, boshqalar bilan muloqot qilish va dunyoni tushunish imkonini beradi. Tilning boyligi va murakkabligi bizga turli ma'nolarni yetkazishga imkon beradi. Leksemalar – tilning asosiy birliklari bo'lib, ular turli xil ma'no va qo'llanilishga ega. Ingliz va o'zbek tillarida *“injury”* va *“wound”*, *“yara”* va *“jarohat”* leksemalarining ma'no va qo'llanilishini chuqurroq tahlil qilishda ularning inson tanasidagi jismoniy zararni ifodalash bilan birga, ruhiy va ijtimoiy zararni ham ifodalashi mumkinligiga e'tibor qaratish lozim. Ingliz tilidagi *“injury”* va *“wound”*, o'zbek tilidagi *“yara”* va *“jarohat”* leksemalarining o'ziga xos xususiyatlari va farqlari mavjud. Ushbu leksemalar qanday metafora va metonimiya turlarida qo'llanilishi, ular qo'llangan maqollar qanday madaniy va ijtimoiy ma'nolarni ifodalashi ham juda muhim.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, maqollar tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi va xalq donoligini ifoda etuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu maqollar, asosan, metafora va qiyoslar orqali madaniy tasavvurlarni estetik shaklda taqdim etadi. Tibbiy mazmunga ega leksemalar asosida shakllangan maqollarda shifokor va bemor o'rtasidagi munosabatlar, kundalik odatlar va sog'lom turmush tarzi haqida e'tirof etiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, maqollar milliy madaniyatlar va tillar o'rtasida sog'liq va kasallik bilan bog'liq qadriyatlar va dunyoqarashlarning muhimligini ko'rsatadi. O'zbek adabiyotlarida xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotning qiyoslanishi tez-tez uchray turadi, bu esa tibbiy bilimlarning xalq tajribasi bilan qanchalik yaqin ekanligini ko'rsatadi. Ingliz tilidagi maqollarda esa sog'liqni saqlash va kasallikning oldini olishda kundalik hayotiy odatlar muhim rol o'ynaydi.

Maqollarda metafora va metonimiya haqida tadqiqot olib borgan ko'plab olimlar mavjud. Ularning orasida quyidagilarni eslatib o'tish mumkin:

George Lakoff va Mark Jonsonlarning *“Metaforalar biz yashaydigan dunyo”* kitobi metafora va metonimiyaning til va fikrlashda muhim

rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ularning nazariyasi maqollarni tahlil qilishda ham qo'llanilishi mumkin, chunki maqollar ko'pincha metafora va metonimiya asosida qurilgan bo'ladi.

Raymon Jakobsning *“Metafora va metonimiya: Til va fikrlashda”* kitobi metafora va metonimiyaning turli xil turlarini va ularning qo'llanilishini batafsil tahlil qiladi. Uning nazariyasi maqollarni tahlil qilishda ham qo'llanilishi mumkin, chunki maqollar turli xil metafora va metonimiya turlaridan foydalanadi.

*“Injury”* va *“wound”*, *“yara”* va *“jarohat”* leksemalari mavjud maqollar milliy madaniyatlar va tillar o'rtasida sog'liq va kasallik bilan bog'liq qadriyatlar va dunyoqarashlarning muhimligini ko'rsatadi. O'zbek adabiyotlarida xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotning qiyoslanishi tez-tez uchray turadi, bu esa tibbiy bilimlarning xalq tajribasi bilan qanchalik yaqin ekanligini ko'rsatadi. Ingliz tilidagi maqollarda esa sog'liqni saqlash va kasallikning oldini olishda kundalik hayotiy odatlar muhim rol o'ynaydi.

## MUHOKAMA

**(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).** Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillaridagi tibbiy leksika asosida shakllangan maqollarda sog'liq, kasallik va jarohat haqidagi xalq tasavvurlari metafora va metonimiyaga boy. Ushbu maqollar ikki xil til va madaniyat vakillarining sog'liq va kasallik haqidagi tushunchalarini ifodalashda muhim lingvopoetik vosita sifatida xizmat qiladi. O'zbek va ingliz tillarida tibbiy leksika metafora va metonimiyani ishlatish orqali sog'liq va kasallikni tushuntirishda xalq ma'naviyati va hayotiy tajribalari aks ettiriladi. Har ikkala til maqollarida tibbiy atamalar ko'pincha ichki hissiy holatni ifodalash uchun ishlatiladi, ya'ni inson ruhiy azoblari va hayotiy sinovlar tibbiy terminlar yordamida umumlashtiriladi. Masalan, o'zbek tilidagi *“Tig' jarohati bitar, til jarohati bitmas”* [2] maqoli ma'nosiga ko'ra, jismoniy jarohatlar vaqt o'tishi bilan tuzaladi, ammo og'zaki aytilgan so'zlar orqali yetkazilgan ruhiy yoki hissiy jarohatlar hech qachon unutilmas va tuzalmaydi. Bu maqol orqali insonlar bir-birlariga so'z orqali yetkazadigan zararlarning jiddiyligi va davomiyligi ta'kidlanadi, chunki so'zlar bilan berilgan ruhiy jarohatlar odamning qalbida chuqur iz qoldiradi.

Navbatdagi o'zbek xalq og'zaki ijodi namunasi *"Xushomad so'zlagan til yalab-yalab yara etar"* [3] bo'lib, u asosan, ikkiyuzlamachilik va soxta maqto'vning zararli oqibatlarini ifodalaydi. Bu maqolda *"xushomad"* qilish orqali tilning yaqinlashish, muloyimlik bilan yaralar keltirishi tasvirlangan. Yani, xushomadgo'y inson boshqalarni quruq va samimiy bo'lmagan so'zlari bilan aldashi, natijada ularga zarar yetkazishi mumkinligini anglatadi. Bunda insonga yetkaziladigan zarar, u sezmaydigan yoki beparvo bo'lib qoladigan darajada bo'lishi mumkin.

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Ingliz maqollaridan *"Who pardons the bad, injures the good"* [1] paremasi yomon odatlar va xulq-atvorlarni kechirish, bu orqali yaxshilarga nisbatan adolatsizlik qilinishini ta'kidlaydi. Ushbu maqol, xususan, xatolarni kechirishning oqibatlari haqida ogohlantiradi, shuningdek, yomonni jazolash zarurligini ko'rsatadi. Buning ma'nosi shundaki, yomon xulq-atvorni kechirish, yaxshi odamlar uchun zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yana bir ingliz maqoli *"Time heals all wounds"* [1] emotsional og'riq, qayg'u yoki travma vaqt o'tishi bilan pasayishini anglatadi. Bu, insonlar chuqur og'riq yoki azobni boshdan kechirishlari mumkin, lekin vaqt o'tishi bilan bu hislar yo'qolishi va sog'ayishi mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu maqol ko'pincha qiyin vaziyatlarda tasalli berish uchun ishlatiladi, sabr-toqat va vaqt tabiiy ravishda tuzalish jarayoniga olib kelishini anglatadi.

Yuqorida ko'rsatilgan *"Tig' jarohati bitar, til jarohati bitmas"* o'zbek paremasining ma'nosi va ishlatilish o'rni haqida so'z yuritildi. Endi ushbu birgina maqoldagi badiiy san'at turlari bilan tanishamiz:

**Metafora:** *"Til jarohati"* ruhiy jarohatni bildiradi. Bu yerda til jarohati haqiqiy tan jarohati emas, balki insonning his-tuyg'ulariga yetkazilgan zarar sifatida ishlatilgan.

**Antiteza (qarshi qo'yish):** Bu maqolda *"tig' jarohati"* va *"til jarohati"* bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. Jismoniy jarohatlar (tig' jarohati) tuzaladi, ammo so'z bilan qilingan zarar (til jarohati) osonlikcha bitmaydi.

**Giperbola (bo'rttirish):** Til orqali yetkazilgan jarohatning *"bitmasligi"* kuchli bo'rttirilgan holda ifoda etilgan. Bu, odatda, til jarohatining uzoq vaqt davom etishiga ishora qiladi. Bu yerda insonlarning so'z bilan ko'proq ehtiyot bo'lishi kerakligi eslatiladi, chunki so'zlarning kuchi juda katta va ular shaxsiy munosabatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillaridagi tibbiy leksikaga ega maqollar turli xil madaniy va hayotiy tajribalarni ifoda etadi. Metafora va metonimiyadan foydalanish ikki tilda ham keng, lekin ularning stilistik vazifalari va maqsadlari madaniy farqlarga qarab o'zgarib turadi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Tibbiy leksika asosida shakllangan maqollarda sog'liq va kasallik haqidagi madaniy tasavvurlarni aniqlashda metafora va metonimiya vositalarining ahamiyati katta. O'zbek va ingliz maqollarida sog'liq faqat fizik jihatdan emas, balki mental va ruhiy jihatlardan ham ifoda etiladi. Bu maqollar, insonlarning sog'lig'i, kasallik va emotsional holatlari haqida keng tasavvurlarni yaratadi. Maqollarda metafora va metonimiya orqali sog'liqning xilma-xil jihatlari tasvirlanadi. Masalan, *"yara"* va *"jarohat"* kabi leksikalar, faqat fizik jarohatlar emas, balki ichki ruhiy holatlarni ham aks ettiradi. Shuningdek, ingliz tilidagi maqollarda *"injury"* va *"wound"* so'zlari emotsional azobni tasvirlashda ishlatiladi, bu esa insonning ruhiy holatiga urg'u beradi. Sog'liq haqidagi madaniy tasavvurlar, har ikki tilda ham, an'anaviy tushunchalar va xalq tasavvurlari orqali ifodalanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Martin H. Manser. The facts on file dictionary of Proverbs: Second edition. – New York: Facts on File An imprint of Infobase publishing, 2002.
2. Mirzayev T., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari: I-tom. – T.: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1987.
3. Mirzayev T., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari: II-tom. – T.: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1988.

## IBN SINONING FALSAFIY QISSALARIDA AXLOQIYLIK ME'ZONLARINING BADIY OBRAZLAR ORQALI IFODALANISHI

Uralov Dilshodbek, Alfraganus universiteti “Ijtimoiy  
fanlar” kafedrası dotsenti v.v.b.

## ВЫРАЖЕНИЕ КРИТЕРИЕВ ПРАВСТВЕННОСТИ В ФИЛОСОФСКИХ РАССКАЗАХ ИБН СИНЫ ЧЕРЕЗ ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОБРАЗЫ

Уралов Дильшодбек, кафедра «Социальных наук»  
Университета Альфраганус

## EXPRESSION OF MORAL CRITERIA IN IBN SINA'S PHILOSOPHICAL STORIES THROUGH ARTISTIC IMAGES

Uralov Dilshodbek, Department of Social Sciences,  
Alphraganus University

**Annotatsiya:** Maqolada insonlar fe'l-atvorida uchrab turadigan ayrim nuqsonlar, odamlar o'zlarini bu kabi nuqsonlardan asrab-avaylab yurishi, iloji boricha ulardan qochishi lozimligi haqida bayon etilgan. Mazkur nuqsonlarni Ibn Sino o'zining falsafiy qissalarida sanab ko'rsatadi hamda bu kabi nuqsonlardan qutulish yo'llari va sabablarini tavsiflab bergan.

**Kalit so'zlar:** salbiy xislatlar, yolg'ochilik, rashk, xusumat, qasd olish, tuhmat, irodasizlik, ezgu niyat, himmat, xayr-saxovat, shijoat, adolat, pokizalik, bilimdonlik, irodalilik.

**Аннотация:** В статье описаны некоторые недостатки человеческого характера и необходимость оградить себя от таких недостатков и максимально их избегать. Также Ибн Сина в своих философских рассказах перечисляет эти недостатки и описывает пути и причины избавления от таких недостатков.

**Ключевые слова:** отрицательные качества, коварство, ревность, вражда, месть, клевета, безволие, добрые намерения, трудолюбие, щедрость, смелость, справедливость, чистота, знание, воля.

**Annotation:** The article describes some of the shortcomings of human character and the need to protect yourself from such shortcomings and avoid them as much as possible. Ibn Sina also lists these shortcomings in his philosophical stories and describes the ways and reasons for getting rid of such shortcomings.

**Key words:** negative qualities, deceit, jealousy, enmity, revenge, slander, lack of will, good intentions, hard work, generosity, courage, justice, purity, knowledge, will.

**KIRISH  
(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).** Ibn Sinoning falsafiy qissalarida hayotda sodir bo'ladigan real voqealarni qush, hayvon kabi badiiy obrazlar orqali tasvirlab berilganini ko'rishimiz mumkin. Qissalaridagi barcha qahramonlar ma'lum ramziy siymolarni gavdalanitiradi: yosh yigit bilan birga G'arbdan Sharqqa sayohat qilayotgan qariya siymosi – faoliyat ko'rsatayotgan ong ramzidir. G'arb

deganda moddiy olam, ya'ni inson tanasi, sharq deganda – insonning ruhiy olami, ya'ni inson idroki tushuniladi. Idrok insonni yaramas kirdikorlardan ogohlikka chaqiradi, mantiq ilmini o'rganishga undaydi. “Xayy ibn Yaqzon” qissasida mantiqni – farosat (ya'ni fiziognomika) deb yuritilgan [1].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA  
METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД /  
MATERIALS AND METHODS).** Ibn Sino



Тел: + +998 88 108 07  
37

E-mail:

[duralov589@gmail.com](mailto:duralov589@gmail.com)

Orcid: 0009-0006-  
6318-6000

asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi xolos. Ko'p risolalari shaharma-shahar ko'chib yurish, feodal urushlari, saroy to'olonlari, turli falokatlar tufayli yo'qolib ketgan. Ko'p manbalarda Ibn Sino avvalo, tabib sifatida talqin etiladi, holbuki tabobat uning ilmiy sohalari orasida eng muhimlaridan biridir. Ibn Sino asarlarining asosiy qismi Yaqin va O'rta Sharqning o'sha davr ilmiy tili hisoblangan arab tilida, ba'zilar fors tilida yozilgan. Uning bizga ma'lum bo'lgan katta asari "Kitob ash-shifo" ("Shifo kitobi") 22 jilddan iborat bo'lib, 4 ta katta bo'limini mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar egallagan.

**MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Ibn Sino "Xayy ibn Yaqzon" asarida ilm-ma'rifatni o'rganishga kirishgani tufayli ko'zi ochilgani, natijada Aql (Hayy ibn Yaqzon) ko'ziga ko'ringani va ilm unga o'z jamolini namoyon etganini hikoya qilar ekan, ilm-aqlni o'lim bilmaydigan uyg'oq, qarimaydigan yosh, beli bukilmaydigan – barvasta, nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur qilib zarur bo'lgan va bilishi mumkin bo'lgan narsalarni o'qishga kirishgani, bu yo'lda aqlni ishga solib, farosatli bo'lib, o'zini yomonliklardan chetlashtiradigan turli xususiyatlarini bilib olganligini qayd etadi. Demak, "Xayy ibn Yaqzon" mantiq ilmiga bag'ishlangani bilan ham aqliy tarbiyada katta ahamiyatga ega. Risola insondagi yomon illatlarni bartaraf etishda ilm-u fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql-tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutulishi, o'zligini anglash vositasi ekanligi bilan adabiy-falsafiy asargina bo'lib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatlidir.

"Salomon va Ibsol" qissasining mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qissa hajm jihatidan kichik bo'lishiga qaramay, o'z oldiga katta tarbiyaviy masalalarni qo'yadi. Povestda sabot va matonatli, chidamli va intizomli, sofdil va ajoyib bir yigit – Ibsol obrazini hamda har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, o'zining iflos maqsadini amalga oshirishga tirishadigan, bu yo'lda hech narsadan toymaydigan salbiy bir ayol obrazini beradi. Masalan, Salomon bir inson bo'lsa, Ibsol shu insonning ma'rifiy, ruhiy darajasi. Ibn Sino Ibsol obrazida berilgan xislatlarni insonlarda ko'rmoqchi bo'ladi, shunga odamlarni da'vat qilib, uni ulug'laydi. Insonning tabiatida bo'ladigan shahvoniy hislari Salomonning xotini obrazi orqali beriladi [5].

Ibn Sinoning "Risolatut Tayr" ("Qush risolasi") asari uning adabiy ijodi va dunyoqarashini bilishi muhim asarlaridan hisoblanadi. Bu asar, aslida, ramz-ishoralar bilan yozilgan bo'lib olimning tarjimai holini bilishda katta ahamiyat qozonadi. "Risolatut Tayr" asarining bosh qismi olimning do'stlik haqidagi nasihatlaridan iborat. Bu yerda u odamlarni bir-biri bilan ahil, do'st bo'lib yashashga, do'stlikning qadriga yetishga, uning to'la ma'nosini yaxshi tushunib, uqib olishga chaqiradi. Og'zida do'stman, deb, amalda do'stning holidan xabar olmaydigan, nomigagina do'st bo'lib yuradigan kishilarni qoralaydi[6].

Aslida bu qush insonlar o'rnida tasvirlangan bo'lib, hikoya qiluvchi qush Ibn Sinoning o'zi edi. Ya'ni o'zi yashagan davrning qanchalik qiyin va azobli davr ekanligini tasvirlashga intilgan. Tuzoq qo'ygan ovchi Mahmud G'aznaviy bo'lib Ibn Sino qayerga bormasin uning ta'qibidan qutula olmagan edi. Unga yordam bergan podsho esa, Xorazmshoh Ma'mun edi.

#### **NATIJALAR**

**(РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS).** Ibn Sinoning bu xildagi asarlaridan yana biri "Hay ibn Yaqzon" ("Uyg'oq o'g'li Tirik") qissasidir. Ibn Sino kishi qalbida bo'lishi mumkin bo'lgan mana shunday xislatlarni "Hayy ibn Yaqzon" asarida ramziy ishoralalar bilan bayon qiladi, yaxshi-yomon xulq, fe'l-atvorlarni iborali tarzda "kishi oshnalari" tariqasida talqin qiladi. Bu oshnalarning ba'zisi ko'p nomaqbul yo'llarga boshlaydi, inson ana shu yo'llarga kirishdan o'zini ehtiyot qilishi lozimligini uqtiradi. Bu qissada naql etilishicha, hikoya qiluvchi shaxs bog'da o'rtoqlari bilan sayr qilib yurganida qarshisida kelayotgan bir nuroniy qariyaga duch keladi. U bilan tanishgisi kelib qariyaga yaqinlashgach, chol yigitdan oldin unga salom beradi. Yigit choldan otini so'rasa, nomim Hayy-Tirik, otamning ismi Yaqzon – Uyg'oq, vatanim – Baytul Muqaddas, hunarim – dunyoni sayohat qilish, deydi. Keyin chol dunyoni sayohat qilganini: ko'rgan-bilganini yigitga so'zlab beradi. Ibn Sino mazkur nuroniy chol misolida aqlni ko'rsatmoqchi bo'ladi hamda bu aql dunyoda kezib yuradi va har bir dargohga kira oladi, deydi. Chol yigitni o'z orqasidan yurishga da'vat qiladi. Bundan olimning kishilarni ilm ketidan borishga da'vat qilgani anglashiladi. Qissadagi Aql-Uyg'oq o'g'li Tirik odamlarni kishilarning fe'l-atvorini, tabiatini chuqurroq tushunish uchun farosat ilmi– mantiqni

bilishga da'vat etadi. Negaki, bu ilm, Ibn Sino iborasi bilan aytganda, foydasi naqd ilmlardan bo'lib, kishining didini o'stiradi, fikr doirasini kengaytiradi, bilgan-bilmaganlarini ko'z o'ngiga keltirib, uni tartibga soladi[5].

Inson, tabiatan, har narsani tushunish, bilish, sezish qobiliyatlariga ega. Lekin unda bir necha yomon xislatlar – ochko'zlik, birovga zulm qilish, o'g'rilik qilish va yolg'onchilik singari yomon xususiyatlar, Ibn Sino aytmoqchi bo'lganidek, yomon oshnalar ham bor. Bular odamning yomon oshnalar, to'g'rirog'i, dushmanlaridir; hayotda kishi, birinchi navbatda, mana shu dushmanlarga qarshi kurashmog'i, Ibn Sino tili bilan aytganda, kishi o'z jilovini bunday dushmanlar qo'lga tutqazib qo'ymasligi, ularning o'ziga yetakchi bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Doimo aql ishlatib, ulardan ustun kelishiga, ularning jilovini qo'lga olishga harakat qilishi lozim. Kishi shunday qilganida, u "oshnalar"ni uni zabt etib olmasdan burun "oshnalar"ni zabt etib olishga undaydi. Aks holda tanbal oshnang seni tanballik – yalqovlikka sudraydi, yolg'onchi oshnang haq narsalarni nohaqqa chiqaradi, yolg'on-yashiq, tubsiz narsalarni rostga aylantirib ko'rsatishga urinadi, senga ko'zbo'yamachilik rolini o'ynashga xizmat qiladi deydi. Ibn Sino qissaning bosh qismida, aslida bunday hikoya qilmoqchi va: Men es-hushimni tanib olgan chog'imda, menda ilm-ma'rifat olishga istak paydo bo'ldi. Keyin fikri-zikrim (asarda oshnaog'aynilar) bilan kirishdim. Salgina ijtihod qilgan edim, ko'zim ham ochilib ketdi; uning natijasi bo'lgan Aqlim nazarimda namoyon bo'ldi. Mening ilm sohasida mehr bilan qadam ranjida qilganimni ko'rib, ilm menga o'z jamolini ko'rsatdi, meni qutlab qarshi oldi[3].

Bunday o'ylab qaragam, Aql-ilm juda qadim zamonlardan beri davom etib kelar ekan. U o'limni bilmaydigan – barvasta, nuroniy, kim unga oshna bo'laman desa, u bilan qalinlashadigan va uni olqishlab kutib oladigan narsa ekan. Men tafakkur qilib, o'zimga zarur bo'lgan narsalarni o'qishga kirishdim; bu yo'lda aqlni ishga solib, o'zimni ko'p yomon kirdikorlardan saqlashga ulgura oldim; yomonliklardan chetlashishga olib boradigan har xil xususiyatlarimni bilib oldim. Qaysi fe'l-atvorim menga do'st-u, qaysisini dushman ekanini, qaysilarini meni to'g'ri yo'lga, qaysilari egri yo'lga boshlashini angladim. Xullas, men o'zimni o'zim yaxshilab sinchiklab o'rgandim, kimligimni

tushundim va shundan keyin bilib ishimni qilgan edim, katta-katta yutuqlarga erishdim, demoqchi bo'ladi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Xulosa qilib aytganda, o'z qissalarida Ibn Sino mardlikni targ'ib qilib, munofiqlik, sergaplik, yolg'onchilik, ishyoqmaslikni, riyokorlarning ikkiyuzlamachiliklarini fosh etadi. Ibn Sino kishilarni ilm-fanni o'rganishga, kasb-hunar egallashga da'vat etadi. Demak, Ibn Sino asarlari O'rta Osiyo xalqlari pedagogik qarashlari, o'rta asrlardagi ilm-fan tarixini o'rganishda ham eng muhim sarchashmalardan bo'lib hisoblanadi.

Ibn Sino o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ibn Sino sharqning Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoniy, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, Ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Faxriddin Roziy, Taftazoniy, Nosir Xisrav, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug'bek, Bedil, Bahmanyor ibn Marzbon kabi mutafakkir va olimlari o'z asarlarida uning ta'limoti va ilmiy g'oyalarini davom ettirdilar. Yevropada allomaning asarlari XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilinib, ta'lim maskanlarida o'qitila boshlandi. Yevropaning mashhur faylasuf va tabiatshunos olimlaridan Jordano Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Albert fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante va boshqalar Ibn Sinoning ilg'or fikrlaridan o'z ijodlarida foydalandilar va uning nomini zo'r hurmat bilan tilga oldilar.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Irisov A . Ibn Sino – ma'rifatparvar adib. – T: O'zbekiston, 1980. – 32 b.
2. Baratov M. Abu Ali Ibn Sino – buyuk mutafakkir . – T: Fan, 1980. – 22 b.
3. Irisov A Falsafiy qissalar . – T: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1963. – 34 b.
4. Abduhalimov B. Bayt al-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati. – T: O'zbekiston, 2010. – 111 b.
5. Qodirov A.A. Abu Ali Ibn Sino. – T: Meditsina, 1962. – 91 b.
6. Z.Islomov. Buyuk allomalarimiz. – T: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2002. – 88 b.



7. Xayrullayev M. Abu Ali ibn Sino (Ma'naviyat yulduzlari ). – T: Abdulla Qodiriy, 1999. – 87 b.

8. Ibrohim Basyuniy. Islom falsafasi va fikrlari. 1997. – 128 b.

9. Kurbanbayeva, M. (2024). FUQAROLAR VATANPARVARLIGI-FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI SHAKLLANISHIDA MUHIM OMIL. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 9(60), 23-25.

10. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolik jamiyati g 'oyalarining milliy davlatchiligimizdagi o 'rni. *Tamaddun nuri jurnali*, 7(58), 247-250.

11. Kurbanbayeva, M. (2023). Abu Rayhon Beruniy hayotiga doir ba'zi mulohazalar. *Tamaddun nuri jurnali*, 9(48), 64-66.

12. Kurbanbayeva, M. (2024). FUQAROLAR VATANPARVARLIGI-FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI SHAKLLANISHIDA MUHIM OMIL. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 9(60), 23-25.



INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA  
"MEHMONDO'STLIK"GA OID  
MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK  
XUSUSIYATLARI

Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi  
Navoi davlat pedagogika instituti

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ  
ПОСЛОВИЦ ПРО "ГОСТЕПРИИМСТВО" НА  
АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Наджмиддинова Мехригуль Наджмиддиновна  
Навоийский государственный педагогический институт

LINGUOCULTURALOGICAL FEATURES OF  
PROVERBS ON "HOSPITALITY" IN ENGLISH  
AND UZBEK

Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi  
Navoi state pedagogical institute



[mehrishka3080@gmail.com](mailto:mehrishka3080@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0007-8449-3373>

+998907313080

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida "mehmondo'stlik" konseptining lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlari ifodalangan bo'lib, bu xususiyatlar misollar orqali tushuntirib o'tilgan. Shuningdek ushbu tadqiqot ishi lingvokulturologiya va lingvopragmatika mavzusida ilmiy ish qilayotgan tadqiqotchilar uchun yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** konsept, qadriyat, odat, lingvokulturalogiya, lingvopragmatika, milliy, mehmondo'stlik, mezbon, madaniy skript.

**Annotation:** In this article, the linguocultural and linguopragmatic features of the concept of "hospitality" are expressed in English and Uzbek, these features are explained through examples. This research work also serves as an auxiliary resource for researchers who can do scientific work on the topic of linguoculturology and linguopragmatics.

**Key words:** concept, value, custom, linguoculturology, linguopragmatics, national, hospitality, host, cultural script.

**Аннотация:** В данной статье представлены лингвокультурологические и лингвопрагматические особенности понятия "гостеприимство" на английском и узбекском языках, эти особенности объясняются на примерах. Эта исследовательская работа также служит вспомогательным ресурсом для исследователей, занимающихся лингвокультурологией и лингвопрагматикой.

**Ключевые слова:** концепция, ценность, привычка, лингвокультурология, лингвопрагматика, Национальный, гостеприимство, хозяин, культурный сценарий.

## KIRISH

"Mehmondo'stlik" konsepti ingliz hamda o'zbek tilida birdek chuqur ma'no ifodalovchi tushuncha bo'lsa-da, uning lingvokulturalogik va lingvopragmatik xususiyatlari ikkala tilda ham bir-biridan ancha farq qiladi.

Lingvokulturalogik xususiyatlar: o'zbek madaniyatida "mehmondo'stlik" milliy o'ziga xoslik, oila sha'ni va ijtimoiy mavqe bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim qadriyat hisoblanadi. Mehmondo'stlik nafaqat jamiyatning bir bo'lagi, balki oilalar va jamoalarning jamoaviy o'ziga xosligini ta'kidlaydigan madaniy marosimdir. Mehmonlar ko'pincha maqomidan qat'i nazar, katta hurmat bilan munosabatda bo'lishadi. "Mehmondo'stlik" konsepti maqollar, urf-odatlar va nutq harakatlari orqali mustahkamlanadi. Mezbon katta ahamiyat egallaydi chunki unda mehmondo'stlik mas'uliyati kutilgandanda ko'proq bo'lishi kerak deb hisoblanadi. Chunki o'zbek madaniyatida mehmonni qadrlash, uni hurmat qilib, e'zozlash o'zbek xalqining eng go'zal odatlaridan biri hisoblanadi.

Quyida berilgan misollarda o'zbek xalqining qay darajada mehmondo'st ekanligini ko'rish mumkin:

- Mehmon otangdan ulug'\*(*"A guest is greater than your father."*)

- Mehmon kelsa, rizqi bilan keladi (*"A guest comes with their blessings."*)

- Mehmon ko'rmagan mehmonning qadrini bilmas (*"He who hasn't hosted guests doesn't know their value."*)

Shuningdek bu misollar o'zbek xalqi uchun mos bo'lgan odatiy xususiyatlar dabdabali taomlar tayyorlash, maxsus o'tirish joylari va mehmonni to'ydirmasdan tark etishiga yo'l qo'ymaslik kabi holatlar o'zbek xalqining ajralmas urf-odatlaridan biri hisoblanadi.

Ingliz madaniyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak ingliz tilida so'zlashadigan madaniyatlarda mehmondo'stlik ham qadrlanadi, lekin ko'proq shaxsiy imtiyozlar, qulaylik va samimiylikka e'tibor qaratiladi. Mehmondo'stlik muhim bo'lsa-da, u o'zbek madaniyatiga qaraganda ancha amaliy va kamroq rasmiylashtiriladi. Mehmonlarni iliq kutib olishadi, lekin ko'pincha dabdabali xizmat ko'rsatish kerak bo'lgan odam sifatida muomala qilishdan ko'ra, o'zlarini "uyda" his qilishlari tavsiya etiladi.

Quyidagi misollarda ingliz madaniyatiga xos bo'lgan xususiyatlar berilgan:

Umumiy iboralar:

- *"Make yourself at home."*

- *"The more, the merrier!"*

- *"It's no trouble at all!"*

- Mehmondo'stlik harakatlari ingliz xalqlari uchun norasmiy va do'stona tarzda ovqat taklif qilish, o'yin-kulgini ta'minlash yoki mehmonning qulayligini ta'minlash, bu ularning madaniyatiga xos umumiy xususiyatlardir.

### Lingvopragmatik xususiyatlar:

O'zbek madaniyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak pragmatik jihatdan o'zbek tilida "mehmondo'stlik" tushunchasi ko'proq mehmonni sharaflaydigan muhit yaratishdan iborat. Mehmonning qadr-qimmatini ifodalash uchun muloyim shakllar, hurmat shartlari va ko'pincha giperbolik tildan foydalanish keng tarqalgan. Mezbonlar ko'pincha mehmon uchun qiladigan harakatlarini kam baholaydilar (*"bu alohida narsa emas, shunchaki ovqat"*) va mehmonga nisbatan hurmat, e'tiborni ularning huzurida oshirib yuborishadi. Quyidagi misollarda bu xususiyatlarni kuzatish mumkin:

- *"Mana shu, bizning qo'limizdan kelgani"* - *"This is all we could manage,"* bu vaziyatni mehmon uchun alohida, maxsus taom mezbon tomonidan tayyorlanganda, kamtarlik namoyishi sifatida ishlatiladi

- *"Qani, dasturxon boshiga!"* - *"Come, let's sit at the table!"* - ovqatni boshlash uchun taklif sifatida

- *"Sizga bu yerda har doim joy bor"* - *"There's always a place for you here."*

Ingliz madaniyatida esa mehmondo'stlik ko'pincha mehmonning qulayligini ta'kidlaydigan, ammo o'zbek madaniyatidagi kabi majburiyat tuyg'usiz nutq harakatlarini o'z ichiga oladi. Taklifnomalar tasodifiy bo'lib, ortiqcha xizmatdan xushmuomalalik bilan voz kechish oson qabul qilinadi. O'zbek madaniyatida esa rad etish ko'pincha xushmuomalalikning bir qismi sifatida ko'riladi, ammo so'zma-so'z qabul qilinmaydi.

- *"Would you like something to drink?"* - *"Biror narsa ichishni xohlaysizmi?"* (Mehmondo'stlikni yumshoq, ta'sirchan tarzda taklif qilish.)

- *"Feel free to help yourself to anything in the fridge."* - *"Sovutgichdagi biror narsaga ehtiyojingga"*

bo'lsa o'zingizni erkin his eting."(Mehmonga mustaqillikni taklif qilish.)

- "You're always welcome here!" - "xush kelibsiz!"(Mehmondo'stlikning do'stona ifodasi.)

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

### O`zbek madaniyatiga xos misollar:

1. Mehmon otangdan ulug' (A guest is greater than your father).
2. Mehmon kelsa, rizqi bilan keladi (A guest comes with their blessings).
3. "Qo'ldan kelgancha qilinsa, ko'ngil to'q bo'ladi"(If you do your best, your conscience will be clear.).
4. Mehmon uchun eng yaxshi taom tayyorlanadi (The best food is prepared for the guest).
5. Mehmonni kutib olish – farzdir (Welcoming a guest is a duty).

### Ingliz madaniyatiga xos misollar:

1. "Make yourself at home." (O'z uyingizdagidek his qiling)
2. "Would you like something to drink?" (Ichishga nimadir xohlaysizmi)
3. "Help yourself to anything." (Marhamat, bimalol oling)
4. "It's so good to have you here!" (Sizning bu yerda ekanligingizdan juda xursandman)
5. "You're always welcome here." (Sizni bu yerda doim mamnuniyat bilan kutamiz)
6. "Let me know if you need anything." (Agar biror narsaga ehtiyojingga bo'lsa menga ayting)
7. "It's so nice to have you over!" (Sizni bu yerda ko'rish juda yaxshi)

"Mehmondo'stlik" tushunchasining lingvokultural va lingvopragmatik xususiyatlari haqida ilmiy yondashuvni tushunish uchun turli olimlarning asarlari va nazariyalari alohida ahamiyatga ega. Quyida ushbu sohada tadqiqot olib borgan olimlar, ularning ishlari va bu ishlarning "mehmondo'stlik" madaniyati bilan bog'liq jihatlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Anna Verjbitska lingvistik tadqiqotlarda insoniy muloqotning madaniyatga asoslangan semantik universallarini o'rgangan. Uning asarlari madaniy qadriyatlarning til vositasida qanday

ifodalanishini tahlil qilishga qaratilgan. Uning asosiy yondashuvlaridan biri shundan iboratki, turli madaniyatlarda odob-axloq va mehmondo'stlik o'ziga xos madaniy ssenariylarga asoslanadi<sup>1</sup>.

Anna Verjbitskaning ishi "mehmondo'stlik" tushunchasini til vositasida qanday aks ettirilishini tushunishga yordam beradi. Uning tadqiqotlari "mehmondo'stlik" kabi tushunchalarning har bir madaniyatda o'ziga xos madaniy kodlarga asoslanganligini ko'rsatadi. Masalan, o'zbek madaniyatidagi "mehmondo'stlik" qadriyatlari mehmonlarga yuqori hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni o'z ichiga oladi, bu esa madaniy skriptlarning tildagi aksidir.

Penelopa Braun va Stiven Levinsonning tadqiqotlari odob-axloq nazariyasida yetakchi o'rinda turadi va ijtimoiy muloqotda yuzaga keladigan tahdidli harakatlarni qanday boshqarish kerakligini o'rganadi. Ular ijobiy va salbiy odob-axloqni farqlaydilar: ijobiy odob-axloq insonlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga, salbiy odob-axloq esa insonning shaxsiy hududini hurmat qilishga qaratilgan<sup>2</sup>.

Ushbu nazariya mehmondo'stlikni tahlil qilish uchun muhimdir. o'zbek madaniyatida ijobiy odob-axloq strategiyalari keng tarqalgan bo'lib, mezbon mehmonni qayta-qayta mehmondo'stlik qilishga undaydi. Masalan, mehmonning dastlabki rad etishi odatda jiddiy qabul qilinmaydi va mezbon taklifni davom ettiradi. Braun va Levinsonning ishi mehmondo'stlikdagi madaniy farqlarni nazariy asoslashga yordam beradi.

Jon Xolms va Miriam Mayerxoff til, jins va ijtimoiy rollar o'rtasidagi munosabatlarni o'rgangan olimlardir. Ular mehmondo'stlik kabi ijtimoiy amaliyotlarning lingvistik ko'rinishlarini va bu amaliyotlarning madaniy va jinsiy roli bilan bog'liq jihatlarni tahlil qilganlar<sup>3</sup>.

O'zbek madaniyatida an'anaviy jinsiy rollar mehmondo'stlikda muhim o'rin tutadi. Ko'pincha ayollar mehmonlar uchun taom tayyorlash va ularni kutib olish bilan shug'ullanadilar. Xolms va Mayerxoffning sotsiolingvistik tadqiqotlari mehmondo'stlikning jinsiy va madaniy jihatdan qanday shakllanganligini tushuntiradi.

<sup>1</sup> Anna Verjbitska "Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction" (2003)

<sup>2</sup> Penelopa Braun va Stiven Levinson "Politeness: Some Universals in Language Usage" (1987)

<sup>3</sup> Jon Xolms va Miriam Mayerxoff "The Handbook of Language and Gender" (2003)

Ronald Skollon va Syuzan Vong Skollon madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy aloqalarni o'rgangan olimlardir. Ular muloqotning madaniy jihatdan qanday shakllanganini va turli madaniyatlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarga qanday sabab bo'lishini tahlil qiladi<sup>4</sup>. Ularning ishlari o'zbek "mehmondo'stlik" madaniyati va inglizcha madaniy me'yorlar o'rtasidagi farqlarni tushunishga yordam beradi. Masalan, o'zbeklar mehmonni ko'p martalab choy va taomga taklif qilishadi, bu esa G'arb madaniyatidagi odamlar uchun haddan tashqari ko'p bosim kabi tuyulishi mumkin. Skollon va Skollonning tadqiqotlari ushbu madaniyatlararo farqlarni qanday boshqarishni tushuntiradi.

Alisher Xodjayev o'zbek madaniyatida mehmondo'stlik tushunchasini o'rganib, bu madaniy hodisaning lingvistik va madaniy tomonlarini chuqur tahlil qiladi. U o'z asarlarida mehmondo'stlik bilan bog'liq bo'lgan xalq maqollari, marosimlar va an'anaviy nutq aktlarini o'rganadi<sup>5</sup>. Xodjayevning tadqiqotlari "mehmondo'stlik" tushunchasining o'zbek madaniyatidagi chuqur ildizlarini va bu an'ananing madaniy qadriyatlar bilan qanday bog'liqligini ko'rsatadi. U xalq maqollari va iboralar orqali mehmondo'stlikning lingvistik ifodalarini tahlil qilib, ularni o'zbek milliy o'zligining bir qismi sifatida ko'rsatadi.

Richard Uotts madaniyat va odob-axloq nazariyasiga qaratilgan tadqiqotlari bilan tanilgan. U odob-axloq nazariyalarining universallik iddaolarini tanqid qiladi va madaniyatga asoslangan odob-axloqning farqlarini o'rganadi<sup>6</sup>. Uottsning tadqiqotlari o'zbek madaniyatidagi mehmondo'stlikdagi odob-axloq strategiyalarini tushunishga yordam beradi. Masalan, o'zbek mezbonlarining qayta-qayta mehmonni taom yoki ichimlik taklif qilishlari G'arbiy madaniyatdagi insonlarga juda bosimli ko'rinishi mumkin, lekin bu o'zbek madaniyati uchun odob-axloqning bir qismidir.

Shuhrat Yuldashev o'zbek mehmondo'stlik an'alarining etnografik va lingvistik jihatlarini tadqiq qilgan. U "mehmondo'stlik" tushunchasining tarixiy ildizlarini o'rganadi va bu an'ananing o'zgarishlarini tahlil qiladi<sup>7</sup>. Yuldashev

mehmondo'stlikni o'zbek milliy o'zligini va an'anaviy qadriyatlarini mustahkamlash vositasi sifatida ko'rsatadi. Uning lingvistik tahlillari o'zbek xalq maqollari va iboralar orqali mehmondo'stlikning qanday aks ettirilganligini ko'rsatadi.

## NATIJARLAR

"Mehmondo'stlik" konseptining lingvokulturalogik va lingvopragmatik xususiyatlarini kontekstda muhokama qilishda uning nazariy asoslarini ham, amaliy qo'llanilishini ham o'rganish juda muhimdir. Kontseptsiyani ilmiy tahlil qilish uchun biz unga madaniy tilshunoslik, pragmatika va sotsiolingvistika nuqtai nazaridan yondashishimiz, tegishli nazariyalarni ajratib ko'rsatishimiz va o'zbek va ingliz tillarida so'zlashadigan madaniyatlar bilan bog'lanishimiz mumkin.

Lingvokulturalogiyada til madaniyat va qadriyatlarga chuqur singib ketgan deb ta'kidlanadi. O'zbek tilida "mehmondo'stlik" atamasi shunchaki tavsiflovchi emas, balki kollektivizm, jamoatchilik va boshqalarga hurmat kabi asosiy madaniy qadriyatlarining namoyonidir. Ushbu qadriyatlar mehmondo'stlik tilidan qanday foydalanish va talqin qilinishini shakllantiradi.

## MUHOKAMA

O'zbek tilidagi lingvo-madaniy xususiyatlar :  
- Kollektivizm: o'zbek madaniyati jamiyat va oilaga katta ahamiyat beradi. Mehmonni qabul qilish butun oila yoki jamoani aks ettiradigan mas'uliyat sifatida qaraladi.

- Mehmondo'stlik ijtimoiy mavqe bilan ham bog'liq. Uy egasining mehmonga munosabati ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeiga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun mehmonlarga, ularning ijtimoiy darajasidan qat'i nazar, katta hurmat bilan munosabatda bo'lishadi.

- Rituallashtirilgan mehmondo'stlik: maxsus taomlar tayyorlash, belgilangan sharafli joyni taklif qilish va aniq iboralar orqali xushmuomalalikni ifoda etish kabi o'ziga xos marosimlar ushbu madaniy qadriyatni mustahkamlaydi. "Mehmondo'stlik"ga bog'langan lingvistik iboralar ko'pincha rasmiy, juda muloyim va ba'zan giperbolik bo'lib, mehmonning

<sup>4</sup> Ronald Skollon va Syuzan Vong Skollon "Intercultural Communication: a Discourse approach" (2001)

<sup>5</sup> Alisher Xodjayev "Hospitality in Uzbek Culture: Linguistic and Cultural Insights" (2020)

<sup>6</sup> Richard Uotts "Politeness" (2003)

<sup>7</sup> Shuhrat Yuldashev "Uzbek Traditions of Hospitality: a Linguistic Perspective" (2017)

madaniy ahamiyatini aks ettiradi. Rituallashtirilgan lingvistik shakllarga misollar:

- "Mehmon otangdan ulug'" ("Mehmon sizning otangizdan kattaroqdir"): bu maqolda mehmonga hatto o'z otasidan ham ko'proq hurmat bilan munosabatda bo'lish kerakligi haqidagi madaniy urf-odat ta'kidlangan.

- "Mana bu bizning qo'limizdan kelgani": bu yerda kamtarlik ifodalanadi, garchi mehmon uchun maxsus taom ovqat tayyorlashga juda ko'p vaqt ketgan bo'lsa ham.

Ingliz madaniyatidagi lingvokulturalogik xususiyatlar:

- Individualizm: ingliz tilida so'zlashadigan madaniyatlarda mehmondo'stlik individualizm bilan uyg'unlashadi, shaxsiy qulaylik va norasmiy ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni ta'kidlaydi. Mezbonlar mehmonlarga yuksak sharaf bilan munosabatda bo'lishni ijtimoiy burch deb biladilar, o'zbek madaniyatidan farqli o'laroq, ingliz mehmondo'stligi mehmonni bezovta qilmaydigan tarzda qulay his qilishga qaratilgan.

- Lingvistik norasmiylik: ingliz tilida so'zlashadigan madaniyatlarda mehmondo'stlik ko'pincha tasodifiy, do'stona iboralar orqali ifodalanadi. "Make yourself at home" - "o'zingizni uydagidek his qiling" kabi iboralar mehmon uchun norasmiylik va erkinlik tuyg'usini, shaxsiy mustaqillikka berilgan qadriyatni aks ettiradi.

Lingvopragmatik xususiyatlar:

Pragmatik kompetentsiya ma'ruzachining turli xil ijtimoiy sharoitlarda tildan to'g'ri foydalanish qobiliyatini anglatadi. Mehmondo'stlik nuqtai nazaridan o'zbek tilidagi pragmatik xususiyatlar mehmonlarni taklif qilish, ovqat taklif qilish yoki mehmonning uzoqroq turishini talab qilish uchun o'ziga xos nutq aktlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu o'zaro ta'sirlar davomida qilingan lingvistik tanlovlarga madaniy qarashlar katta ta'sir ko'rsatadi.

- Talab qilish va rad etish strategiyasi: o'zbek madaniyatida pragmatik xususiyatlar mehmonga ovqat yoki xizmat taklif qilishni takroran talab qilishni o'z ichiga oladi. Mezbon mehmonning oziq-ovqat yoki sovg'alardan dastlabki voz kechishini nominal qiymati bo'yicha qabul qilishi madaniy jihatdan noo'rin. Uy egasi taklif qilishni davom ettirishi va hatto mehmonni qabul qilish uchun majburlashi mumkin. Bu kamtarlik va saxiylik g'oyasi bilan bog'liq.

- "Yana bir piyola choy oling, hali vaqt bor!" ("Have another cup of tea, there's still time!") Bu pragmatik strategiyaning namunasidir, bu yerda mezbon mehmonni, hatto dastlabki rad etishdan keyin ham ko'proq qatnashishni talab qiladi.

Ingliz madaniyatiga xos pragmatik xususiyatlar:

- To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita: ingliz tilida mehmondo'stlik bilan bog'liq nutq aktlari to'g'ridan-to'g'ri va rad etish odatda qo'shimcha talab qilmasdan qabul qilinadi. Xushmuomalalik tanlov taklif qilish yoki ruxsat so'rash orqali yetkaziladi, bu ingliz tilida so'zlashadigan jamiyatlarning individualistik tabiatini aks ettiradi.

- "Would you like something to drink?" vs. "Marhamat, choy iching!" ("Please, drink tea!")

- "Feel free to help yourself to anything in the kitchen" mustaqillik va shaxsiy makonning madaniy qadriyatlariga mos keladigan mehmonga avtonomiyani yetkazadi.

## XULOSA

Ushbu lingvistik va madaniy farqlarni tushunish madaniyatlararo aloqa uchun juda muhimdir, ayniqsa mehmondo'stlik muhim rol o'ynaydigan sharoitlarda, masalan, xalqaro diplomatiya, biznes almashuvi yoki shaxsiy munosabatlarda muhim hisoblanadi. Tushunmovchiliklar kollektivistik madaniyat vakillari yanada rasmiy va qat'iy mehmondo'stlikni kutishganda, individualistik madaniyat vakillari shaxsiy makon va avtonomiyaga ustuvor ahamiyat berishlari mumkin.

O'zbek tilida "mehmondo'stlik" tushunchasi va ingliz tilida so'zlashuvchi madaniyatlarda mehmondo'stlik til orqali ifodalangan chuqur madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Ikkala madaniyat ham mezbonning harakatini qadrlasa-da, mehmondo'stlikning lingvistik va pragmatik tarzda amalga oshirilishi sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu farqlarni tushunish samarali muloqot uchun juda muhimdir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Xodjayev. "Hospitality in Uzbek Culture: Linguistic and Cultural Insights" (2020)
2. Anna Verjbitska. "Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction" (2003)
3. Brown, P., & Levinson, S. (1987). "Politeness: Some Universals in Language Usage". Cambridge University Press.
4. Holmes, J., & Wilson, N. (2017). "An Introduction to Sociolinguistics". Routledge.

5. И. В. АРНОЛЬД. Лексикология современного английского языка. Москва, Высшая школа. 1986.
6. Jon Xolms va Miriam Mayerxoff. The Handbook of Language and Gender. (2003)
7. Khodjaev, N. (2020). \*
8. "Hospitality in Uzbek Culture: Linguistic and Cultural Insights". Tashkent State University Press.
9. Murray, P. (2016). "Hospitality across Cultures: lingvo-Pragmatic Perspectives". Cambridge University.
10. Najmiddinova M.N., Najmiddinova S.N., Baxtiyorova G.R., Otanazarova M.M. "MODELS OF TERMINOLOGICAL SIGN" INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT eISSN 2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 10, issue 11 (2023)
11. Najmiddinova M.N. "Differences between L1 and L2 learning", VITAL ANNEX: INTERNATIONAL JOURNAL OF NOVEL RESEARCH IN ADVANCED SCIENCES. Impact Factor: 9.5. Germany, 2022.
12. Najmiddinova M.N., "The similarities and differences between first language and second language acquisition", AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. Impact Factor: 7.543, ISSN: 2690-9626 (Online) America, 2022.
13. Nazaryan, R. (2015). "The Uzbek Concept of Hospitality and Its Social Implications". Tashkent University Press.
14. Penelopa Braun va Stiven Levinson. "Politeness: Some Universals in Language Usage" (1987)
15. Qosimov, A. (2018). "Cultural Significance of Hospitality in Central Asia". Uzbek National Encyclopedia.
16. Ronald Skollon va Syuzan Vong Skollon " Intercultural Communication: a Discourse approach" (2001)
17. Richard Uotts "Politeness"(2003)
18. Shuhrat Yuldashev "Uzbek Traditions of Hospitality: a Linguistic Perspective"(2017)
19. Smith, J. (2013). "Hospitality in English and american Cultures". Oxford University Press.
20. Wierzbicka, A. (2003). "Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction". Walter de Gruyter.



## FILOLOGIK YO'NALISHDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA YANGI AVLOD DARSЛИKLARI VA ULARGA QO'YILGAN TALABLAR

**Norboyev Zafar Abdumo'minovich**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dekan o'rinbosari

### УЧЕБНИКИ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ И ТРЕБОВАНИЯ К НИМ В ВУЗАХ ФИЛОЛОГИЧЕСКОЙ НАПРАВЛЕНИЯ

**Норбоев Зафар Абдумоминович**

Заместитель декана Узбекского государственного университета  
мировых языков

### NEW GENERATION TEXTBOOKS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE PHILOLOGICAL FIELD AND REQUIREMENTS FOR THEM

**Norboev Zafar Abdumo'minovich**

Deputy Dean of Uzbekistan State University of World Languages



0000-0001-9753-4591

**Annotasiya:** Mazkur maqolada filologik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida yangi avlod darsliklari va ularga qo'yilgan talablar yoritilgan. Yangi avlod darsliklarining sifati talabalarda kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan bo'lib u darslik mazmuni bilan baholanadi. Yangi avlod darsliklarining oldiga qo'yiladigan eng asosiy talablardan biri uning strukturasi va mazmunini muayyan fanning namunaviy dasturi mavzulariga to'liq moslashtirishdir.

**Kalit so'zlar:** yangi avlod darsliklari, innovatsion ta'lim, interaktiv yondashuv, kreativlik, kompetensiya.

**Аннотация:** В данной статье описаны учебники нового поколения и требования к ним в высших учебных заведениях филологического направления. Качество учебников нового поколения направлено на формирование компетентности учащихся и оценивается содержанием учебника. Одним из основных требований к учебникам нового поколения является полная адаптация его структуры и содержания к темам типовой программы конкретного предмета.

**Ключевые слова:** учебники нового поколения, инновационное образование, интерактивный подход, креативность, компетентность.

**Abstract:** This article describes the textbooks of the new generation and the requirements for them in higher educational institutions in the philological direction. The quality of new generation textbooks is aimed at the formation of competence in students and is evaluated by the content of the textbook. One of the main requirements for new generation textbooks is to fully adapt its structure and content to the topics of the model program of a particular subject.

**Key words:** new generation textbooks, innovative education, interactive approach, creativity, competence.

#### ABSTRACT / KIRISH / ВВЕДЕНИЕ

Mamlakatimizda xorijiy tillarni chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratilayotgan ekan,

tillarni o'qitishga mo'ljallangan yangi avlod darsliklarini yaratish borasida ham qator islohotlar amalga oshirilmogda. Prezidentimiz



ta'kidlaganlaridek, "Yangi darsliklarni shunday mukammal tayyorlash kerakki, keyinchalik bunga yana qaytmaylik. Bugungi ta'lim qirq yildan keyin biz haqimizda so'zlaydi" [1]. Oliy ta'lim tizimida yangi avlod darsliklarini yaratish fanni o'rganishga umumiy yondashuvni shakllantirish, o'quv materialining mazmunida ketma-ketlikka rioya qilish hamda metodika yo'nalishlarni belgilashda, tasvirli materiallarni tanlashda umumiy yondashuv va darsliklarning uslubidagi umumiylik kabi jihatlarni qamrab olishi zarur.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)**

Oliy ta'lim tizimida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun tayyorlanadigan yangi avlod darsliklari quyidagi talablar asosida yaratilishi lozim:

- darslik mavzulari, mazmuni va matnlari bir-birini takrorlamasligi;

- ishchi o'quv dasturlari va fan dasturlari mazmuniga muvofiq tuzilishi; tahsil oluvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda mavzular talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilishi, ularda mustaqil ta'lim olishga qiziqish uyg'otishi;

- o'quv materiallari talabalar uchun tushunarli bo'lishi;

- darslikda umume'tirof etilgan g'oyalar bilan bir qatorda talabalarni fikrlashga, muammolarning yechimini izlashga undaydigan texnologiyalarni qo'llash;

- talabalarda zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun o'quv materiallarining mazmunini aniq amaliy ko'nikmaga yo'naltirish;

- o'quv adabiyotining kasbiy xarakterga ega bo'lgan va mustaqil ishlash uchun mo'ljallangan muammoli savollar, topshiriqlar, mashqlar, loyihalar bilan ta'minlash;

- faol amaliy ishlashni taqozo qiladigan o'quv vaziyatlarini yaratish va o'quv materiallarini o'zlashtirish samarasini oshirish;

- talabalarga har bir mavzuning nazariy bayoni bo'yicha batafsil o'qish mumkin bo'lgan havolalar va iqtiboslarni berib borishi lozim [2. 83].

Yangi avlod darsliklarining sifati talabalarda kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan bo'lib u darslik mazmuni, talabalarga motivatsiya berish, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish va kompetensiyalarni shakllantirish kabi jihatlarni qamrab olganligi bilan baholanadi. Shunindек, yangi avlod darsliklarini yaratishda mavzuning murakkablik darajasi, nazariy yoki amaliy xususiyatlari, mavzuning talabaning kelgusi faoliyatidagi o'rni va ahamiyati, mavzuni o'zlashtirishda mustaqil ta'limning salmog'i e'tiborga olinadi. Bir so'z bilan aytganda, yangi avlod darsliklari talabalarni nafaqat muayyan tilni chuqur o'rganishga balki, ilmiy izlanishlarga yo'naltirish va o'z mutaxassisligi bo'yicha dolzarb mavzularda tadqiqotlar olib borishga yo'naltirishi lozim.

Yangi avlod darsliklari tushunchasi ta'limni modernizatsiya qiladigan va davlat ta'lim standartlariga muvofiq tayyorlangan nashrlarga nisbatan qo'llaniladi. Oliy ta'lim muassasalari uchun yaratilayotgan o'quv adabiyotlarining asosiy qimmatini uning mazmuni to'liqligida yoki uning matni batafsilligida emas, balki shu manba bilan talaba qanday ishlay olishidadir [3. 47]. Shu bois yangi o'quv adabiyotlarini ishlab chiqishda uni texnologiyalar bilan maksimal darajada ta'minlash, talabalarni ikki tomonlama muloqotga undaydigan darajada ishlab chiqish, ta'limning an'anaviy va masofaviy shakllarida talabani muayyan yo'nalish yoki mutaxassislik bo'yicha tayyorlashning mazmunini o'zida aks ettirishi lozim.

#### **DISCUSSION(МУХОКАМА/ОБСУЖДЕНИЕ)**

Bugungi Yangi O'zbekiston strategiyasining asosiy ta'limga oid islohotlarida ta'lim muassasalari o'quv-metodik bazalarni yangilash va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etar ekan, yangi avlod darsliklarini ko'paytirish borasida yangidan yangi tadqiqotlarni olib borish va ta'lim tizimini yangi avlod darsliklari bilan qamrab olish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardandir.

Yangi o'quv adabiyotining tarkibiga e'tibor qaratidigan bo'lsak, o'quv adabiyotlar tarkibini darslik va o'quv qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatma va ma'ruzalar matni tashkil etadi [4. 47]. Yangi o'quv adabiyotni yaratishda, avvalo, muayyan o'quv fanga moslashtirish, ya'ni agarda yangi o'quv adabiyoti arab tili fani uchun mo'ljallangan bo'lsa uni arab tiliga moslashtirish, dars mashg'ulotlari shakli arab

tilini o'qitishga asoslangan darsliklarni o'z ichiga olgan ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar tahliliga e'tibor qaratish lozim. Arab tilini o'qitish bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarida tilning nazariyasi, til sathlari bo'yicha grammatika, leksikologiya, stilistika, arab tili va o'zbek tilining qiyosiy tipologiyasi kabi nazariy jihatlar umumlashtiriladi. Arab tilining nazariy aspektlarini talabalarga samarali o'qitish orqali ularda arab tili ko'nikmasi rivojlantiriladi. Seminar mashg'ulotlarida esa, ma'ruza mashg'ulotlarida o'tilgan mavzularni mustahkamlash, amaliy mashg'ulotlarda esa, talabalarining arab tili bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirishga bag'ishlangan materiallar berib borilib, ularni rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Zamonaviy talablarga muvofiq, fanning o'quv-uslubiy ta'minoti an'anaviy darsliklar va o'quv qo'llanmalar bilan bir qatorda, raqamli ta'lim resurslari yoki faqat elektron darsliklardan iborat bo'lishi ham kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktyabrda qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida"gi 816-son Qarorida barcha o'quv adabiyotlariga qo'yilgan umumiy talablar aks ettirilib, o'quv adabiyotlarining shakllari va turlari, ularni yaratish va nashr qilish tartibi, elektron o'quv adabiyotlarini yaratish tamoyillari ham belgilab o'tilgan [5].

Yangi avlod darsliklarining oldiga qo'yiladigan eng asosiy talablardan biri uning strukturasi va mazmunini muayyan fanning namunaviy dasturi mavzulariga to'liq moslashtirishdir. Xususan filologik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida SEFR mezonlari orqali yangi avlod darsliklarini yaratish texnologiyasi darsliklardan ham hajm jihatidan, ham fan dasturi va ishchi dasturidagi mavzularning mos kelishi jihatidan tillar kesimida muayyan farqni yuzaga keltiradi. Ya'ni, agarda mazkur darslik arab tiliga ixtisoslashgan bo'lsa o'quv qo'llanmada fan dasturi va ishchi dasturida ko'rsatilgan mavzularga mos kelish darajasi foizlarda baholanib, pedagogning o'quv qo'llanma va darslik yaratish borasidagi mahoratini belgilab beradi.

#### **CONCLUSION (XULOSA / ЗАКЛЮЧЕНИЕ)**

Bugungi kunda professor-o'qituvchilar tomonidan tayyorlanayotgan darslik va o'quv qo'llanmalar odatda kafedra, fakultet va universitet kengashlarida muhokama qilinib, ijobiy xulosalar

olingandan so'ng, muvofiqlashtiruvchi kengash tavsiyasi bilan o'z yo'nalish va mutaxassisligiga mos ravishda yetakchi oliy ta'lim muassasalariga yakuniy xulosa uchun yuboriladi. Tayanch oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy salohiyatga ega professor-o'qituvchilar darslik va o'quv qo'llanmalarni muayyan talablar asosida ko'rib chiqqach, mazkur darslik yoki o'quv qo'llanma belgilangan talablarga javob bersa, unga ijobiy xulosa berish orqali nashrga tavsiya etiladi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, muayyan talablarga javob bermaydigan darsliklar nashriga muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tavsiya berilmaydi va nashr etilmaydi. Shunday ekan, darslik yaratish jarayoni murakkab jarayon bo'lib, bugungi kunda yaratilayotgan yangi o'quv adabiyotlarini tayyorlashda, xususan filologik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida SEFR mezonlari orqali yangi avlod darsliklarini yaratish texnologiyasi (arab tili misolida) yuqorida ta'kidlangan mezonlarga mos bo'lishi, arab tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitishda qo'llanadigan yangi avlod darsliklarini mashg'ulotlarda qo'llash uchun xalqaro tajribalarga asoslangan holda yaratish maqsadga muvofiqdir.

#### **REFERENCE (ADABIYOTLAR RO'YXATI/ЛИТЕРАТУРА)**

1. Тараққиётнинг тамал тоши илм-фан ва таълим-тарбияда. Президент Шавкат Мирзиёев 29 декабрь куни Халқаро конгресс марказида "Таълим сифатини ошириш – Янги Ўзбекистон тараққиётининг яққаю ягона тўғри йўлидир!" мавзусидаги замонавий дарсликлар кўرғазмаси. 29.12.2022. [https://uza.uz/uz/posts/taraqqiyotning-tamal-toshi-ilm-fan-va-talim-tarbiyada\\_440242](https://uza.uz/uz/posts/taraqqiyotning-tamal-toshi-ilm-fan-va-talim-tarbiyada_440242)
2. Турсунов К., Нормаматова Н. Дарслик тузилишига кўйиладиган замонавий методик талаблар. // «Халқ таълими» журнали 2-сон 2015.
3. Джураев Р.Х., Неъматов Ш.Х. Дарсликларнинг тарихий тараққиёт йўли ва бугунги кунда таълим-тарбия жараёнидаги ўрни. - Т.: «Сано-Стандарт», 2010.
4. Осмоловская И. М. Учебники нового поколения: поиск дидактических решений // Отечественная и зарубежная педагогика. — 2014. — №4 (19).
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Олий таълим муассасаларини ўқув адабиётлари билан таъминлаш тўғрисида"ги 816-сон қарори // 11.10.2018 й., 09/18/816/2032-сон.

## BAHOUDDIN NAQSHBAND G'UYALARIDA MEHNAT KONSEPSIYASIVA UNING FALSAFIY TAHLILI

**Jumayev Aslam Hazratovich**

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti  
tadqiqotchisi



djumayev@bk.ru

0000-0001-8448-875X

## ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИЯ ТРУДА В ИДЕЯХ БАХУДДИНА НАКШБАНДА

**Жумаев Аслам Хазратович**

научный соискатель Института повышения квалификации МВД  
Республики Узбекистан

## THE CONCEPT OF LABOR AND ITS PHILOSOPHICAL ANALYSIS IN BAHOUDDIN NAQSHBAND'S IDEAS

**Jumayev Aslam Khazratovich**

scientific candidate at the Institute for Advanced Studies of the  
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan  
djumayev@bk.ru

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Bahouddin Naqshband g'oyalarida mehnat konsepsiyasi va uning falsafiy tahlili yoritilgan. Tariqatlar tasavvufning amaliy ko'rinishi bo'lib, o'ziga xos uslub va qoidalar bilan insonni kamolotga yetkazishga xizmat qilgan. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limotidagi eng muhim masala inson va uning kamoloti masalasidir.

**Kalit so'zlar:** mutafakkir, tariqat, naqshbandiya, nafs, mehnat, axloqiy tarbiya.

**Аннотация:** В данной статье освещается философский анализ концепции труда в идеологиях Бахауддина Накшбанд. Тариқат — практическая форма суфизма, служившая доведению человека до совершенства с помощью собственных методов и правил. Важнейшим вопросом суфийского учения нақшбандия является вопрос о человеке и его совершенстве.

**Ключевые слова:** мыслитель, тариқат, нақшбандия, желания, трудолюбие, нравственное воспитание.

**Abstract:** This article describes the concept of work and its philosophical analysis in the ideas of Bahauddin Naqshband. Tariqats are a practical form of Sufism, which served to bring a person to perfection with their own methods and rules. The most important issue in Naqshbandi Sufi doctrine is the issue of man and his perfection.

**Key words:** thinker, tariqat, naqshbandiya, nafs, hard work, moral education.

### ABSTRACT / KIRISH / ВВЕДЕНИЕ

XIII-XIV asrlarga kelib tasavvuf ham nazariy-ilmiy nuqtai nazardan, ham amaliy

harakatchilik nuqtai nazardan yuksak cho'qqiga ko'tarilgan. Tasavvufda tariqatlar juda ko'p bo'lgan. Markaziy Osiyoda esa azaldan Naqshbandiya

**TAMADDUN NURI / THE LIGHT OF CIVILIZATION ISSN 2181-8258**

**2024-yil, 10-son (61) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal**

tariqati keng tarqalgan. Naqshbandiya tariqati o'zining mazmun-mohiyati jihatidan yangi tarbiya usullarini ishlab chiqqan. Shuningdek, tasavvuf ta'limoti naqshbandiylik tariqatida o'zining ijtimoiy, ma'naviy-mafkuraviy xususiyati bilan diniy va etnik bag'rikenglikni ifodalagan. Naqshbandiya tariqati komil insonni tarbiyalashni targ'ib qilgan va umumbashariyat tan olgan tariqatlardir.

Sharq xalqlari tarixida tasavvuf ta'limoti Bahouddin Naqshband yaratgan tasavvufiy ta'limot asosidagi mehnatsevarlik, insonparvarlik, ilm-ma'rifatga intilish va butun borliqqa muhabbat g'oyalarini targ'ib etish orqali komil insonni tarbiyalashga xizmat qilgan [1. 17].

Markaziy Osiyo hududida keng tarqalib, yassaviya tariqatidan ham kuchliroq nufuzga ega bo'lgan naqshbandiya tariqati XV asrdan boshlab, Hindiston va Istanbulga yoyilgan. Manbalarga ko'ra, naqshbandiya tariqati XVIII asrda Mavlono Xolid Bag'dodiyning sa'yi harakatlari natijasida Turkiya davlatida keng tarqalib eng faol harakatga aylangan. Bugungi kunda, Istanbulning o'zida 65 ta naqshbandiya dargohlarining mavjudligi, mazkur tariqatning keng tarqalganligidan dalolatdir.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)**

Tariqatlar borasida xojagon-naqshbandiya tariqatining vujudga kelishi quyidagicha izohlanadi. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni 1103-yilda Buxoro viloyati G'ijduvon shahrida tug'ilgan. Abdulxoliq G'ijduvoni Xoja Yusuf Hamadoniyni to'rtinchi shogirdi sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy (1141-1167 yy.) ham Xoja Yusuf Hamadoni bilan hamsuhbat va hammaslak bo'lganligi hamda Abdulxoliq G'ijduvoni va Xoja Ahmad Yassaviy aynan tasavvuf yo'lidagi tarbiyalarini Xoja Yusuf Hamadoniyan olib kamolotga yetganliklari ko'plab manbalarda e'tirof etilgan. Abdulxoliq G'ijduvoni "Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoni" asarida ustoz Xoja Yusuf Hamadoniyni har jihatdan komil va "shayxlar shayxi" deb ta'riflagan [2. 44].

Abdulxoliq G'ijduvoni naqshbandiya tariqatida xojalar silsilasining asoschisi sanalgan. Xojagon-naqshbandiya tariqatining olti yirik piri murshidi – Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboi Samosiy, Amir Kulol

bilan birga naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband hozirgi kungacha musulmon olamida "Yetti Pir" nomi bilan mashhurdirlar [3. 7].

Naqshbandiya ta'limoti Markaziy Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayotida juda katta o'rin egallagan. Bu ta'limot boshqalar mehnati bilan kun kechirishni, tekinko'rlikni, ijtimoiy zulmni qat'iy qoralagan. Shuningdek, ushbu ta'limot tarafdorlari tarkidunyochilikka, boy-zodagonlarning zulm va istibdodiga qarshi ma'rifat bilan kurashib, halol mehnat qilib kun kechirishga chaqirganlar. Naqshbandiya tariqati tarafdorlari kishilarni savdosotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik, musiqa, ilm-ma'rifat, xattotlik, naqqoshlik kabi barcha foydali va xayrli ishlar bilan shug'ullanishga da'vat etganlar. Shuning uchun ham o'z davrining yirik namoyondalari bo'lmish Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi taraqqiyparvar mutafakkirlar naqshbandiya ta'limoti yo'lini tanlaganlar.

#### **DISCUSSION ( MUHOKAMA / ОБСУЖДЕНИЕ)**

Naqshbandiya tasavvufiy ta'limotidagi eng muhim masala inson va uning kamoloti masalasidir. Naqshbandiya tariqati ta'limotida insonning mohiyati, uning o'ziga xos tuzilishga ega ekanligi va insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti masalalariga alohida e'tibor beriladi. Bahouddin Naqshband ta'limoti va naqshbandiya tariqati g'oyalarida ham asosiy e'tibor nafsni jilovlash, qalb tarbiyasi, nafsni boshqarish va me'yorga solish kabi tamoyillarga qaratilgan. Bahouddin Naqshband inson o'z nafsining tarbiyasini mukammal cho'qqisiga yetsa komili mukammallik darajasiga yetishini aytgan.

Bahouddin Naqshband inson o'z nafsiga hokim bo'lishi, uni tarbiyalashi va barcha kuchg'ayratini ezgulik tomon sarflashi lozimligini uqtiradi. Halol luqma masalasiga alohida to'xtalib, halol mehnat qilishni tavsiya etgan.

Naqshbandiya ta'limotiga ko'ra, tavba yo'lini tanlagan kishi nafs balosidan qutuladi. Ya'ni, doimiy qalbi zikr bilan band bo'lib qo'li mehnatda bo'ladi. Behuda uxlash, behuda, gapirish va behuda yeyishdan tiyiladi. Bu esa kishini jismoniy va ruhiy kamolot sari yetaklaydi [4. 71].

Naqshbandiya ta'limotida Haqni unutmagan holda halol mehnat qilish ya'ni, "Dast ba kuru dil ba yor" shiori ostida nafs tarbiyasiga erishish tariqat ahlini tekinko'rlikdan saqlab, halol mehnat qilish va halol luqma topishga undagan. Naqshbandiyadan

farqli o'laroq ko'plab tariqatlarda darveshlarning uzlatga chekinishi, mehnat qilmay, tilanchilik, tekinxo'rlik bilan kun kechirib, chilla saqlab nafsini tarbiyalash holatlari ham kuzatilgan [5. 32].

Bahouddin Naqshband yaratgan ta'limot asosidagi mehnatsevarlik, insonparvarlik, ilm-ma'rifatga intilish va butun borliqqa muhabbat g'oyalari orqali komil insonni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Bahouddin Naqshband doim halol yashashni targ'ib etgan. Unga ko'ra, dilni Alloh bilan bog'lagan holda kasb-hunar va qo'l mehnatini aslo tark etmaslik kerak. Faqirona yashash, xayr-ehson hisobiga emas, o'z mehnati hisobiga hayot kechirish lozim. Shuning uchun, Bahouddin Naqshbandning hayot yo'li va u yaratgan ta'limot Muhammad payg'ambar sunnatlariga o'xshashdir.

#### **RESULTS (NATIJALAR / РЕЗУЛЬТАТЫ)**

Bahouddin Naqshband umr bo'yi dehqonchilik bilan kun kechirgan. Shuningdek, butun umrini faqirlikda o'tkazgan Bahouddin Naqshband ushbu tariqatning asl aqidasi bo'lmish "Dast-ba koru dil ba yor" ya'ni, doimo ko'ngling ishda ko'ngling Allohda bo'lsin", degan g'oyani ilgari surgan. Bahouddin Naqshband o'z mehnati, kuchi bilan kun ko'rishni yoqtirgan, ishlab topgan mol-mulkini yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga in'om etgan. Hukmdorlardan doimo o'zini yiroq tutishga uringan va ulardan hech qachon ta'magirlik qilmagan<sup>1</sup>.

Naqshbandiya ta'limoti Markaziy Osiyoda Amir Temurning mo'g'ullar istilosiga qarshi kurashi, mustaqil davlat barpo etib, unda madaniy-ma'naviy rivojlanishni ta'minlashga intilishida, temuriylar davri renessansining vujudga kelishida ulkan hissa qo'shgan. XV asrning ko'p olim-fozillari, davlat arboblari, san'atkorlari naqshbandiya tariqati ta'limotidan keng foydalanganlar va ushbu tariqatga o'ta ijobiy munosabatda bo'lganlar.

#### **CONCLUSION (XULOSA / ЗАКЛЮЧЕНИЕ)**

Tariqatlar tasavvufning amaliy ko'rinishi bo'lib, o'ziga xos uslub va qoidalar bilan insonni

kamolotga yetkazishga xizmat qilgan. Mumtoz tariqatlar XII asrda vujudga kelgan bo'lsa, XIV asr ikkinchi yarmida vujudga kelgan xojagon-naqshbandiya tariqati butun tariqatlardagi (jumladan yassaviya tariqatidagi) mushtarak unsurlarni o'zida aks ettirgan mumtoz tariqatlarning biriga aylangan. Shu bilan birga, naqshbandiya tariqati ham boshqa tariqatlar kabi komil insonni tarbiyalashda o'ziga xos uslub va qoidalardan foydalangan. Naqshbandiya tariqati mumtoz tariqatlarning oxirgisi va shuning uchun unda butun tasavvuf va tariqatlardagi eng yaxshi tomonlar o'z aksini topgan.

Bahouddin Naqshbandning tarkidunyochilik qilmay, bu dunyo ishlaridan ochiq-oshkor qo'l siltamay turib ham yaratganga mukammal itoat etish mumkinligi haqidagi g'oyasi musulmon olamida tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta'minlagan. Bugungi kunda, Bahouddin Naqshbandning Buxorodagi qabri ziyoratgoh hisoblanadi. Bahouddin Naqshband va uning ta'limoti hamda naqshbandiy shayxlar to'g'risida ko'plab asarlar yaratilgan va ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

#### **REFERENCE (ADABIYOTLAR RO'YXATI/ ЛИТЕРАТУРА)**

1. Хожа Абдуллохлиқ Гиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний. Т.: Янги аср авлоди, 2003. –Б. 44
2. Г.Н.Наврўзова, Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. –Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти давлат корхонаси, 2021. – Б.192.
3. Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод. (Авроди Баҳоия) / Г.Наврўзова таржимаси. Бухоро: «Бухоро», 2000. 40-б.
4. С.Рахмонов. Икки тариқатнинг буюк даҳолари (Мавлоно Жалолиддин Румий ва Хожа Баҳоуддин Нақшбанд мисолида). Монография. Самарқанд: СамДЧТИ, 2022. – Б. 148.
5. Г.Н.Наврўзова, Э.Х.Зоиров. Бухорои шарифнинг етти пири. –Тошкент: Muharrir, 2018. – Б.80.

## SHRI AUROBINDO GHOSH VA JALOLIDDIN RUMIY FALSAFASIDA ONG TASAVVURLARINING KOMPARATIVISTIK TAHLILI

*Boydadayev Abdurrohmon Tolibjon o'g'li, Mirzo Ulug'bek  
nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi*

## COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF CONSCIOUSNESS IN THE PHILOSOPHY OF SRI AUROBINDO GHOSH WA JALALIDDIN RUMI

*Boydadaev Abdurrokhmon Tolibjon ugli, independent  
researcher of the National University of Uzbekistan named after  
Mirzo Ulugbek*



<https://orcid.org/0009-0007-3191-6715>

e-mail:

[a.boidadaev@yanex.com](mailto:a.boidadaev@yanex.com)

## КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О СОЗНАНИИ В ФИЛОСОФИИ ШРИ АУРОБИНДО ГХОША И ДЖАЛАЛИДИНА РУМИ

*Бойдадаев Абдуллохмон Толибжон угли, самостоятельный  
соискатель Национального университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ikki taniqli mutafakkir – Shri Aurobindo Ghosh va Jaloliddin Rumiyning ong haqidagi g'oyalarining komparativistik tahlili keltirilgan. Ularning falsafiy va irfoniy tushunchalarining asosiy jihatlari o'rganilib, ong mohiyatini tushunishdagi o'xshashliklar va farqlarni ta'kidlaydi. Maqola ong falsafasini tushunishni chuqurlashtirishga va falsafa, psixologiya va ma'naviyat sohalarida fanlararo tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlarni ochishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** ong, tafakkur, intellekt, intuitsiya, irratsionalizm, komparativistik tahlil.

**Abstract:** This article presents a comparative analysis of the ideas about consciousness held by two prominent thinkers - Sri Aurobindo Ghosh and Jalaluddin Rumi. It explores the key aspects of their philosophical and mystical concepts, emphasizing both the similarities and differences in their understanding of the nature of consciousness. The article aims to deepen our understanding of the philosophy of consciousness and open up new avenues for interdisciplinary research in the fields of philosophy, psychology, and spirituality.

**Key words:** consciousness, mind, intelligence, intuition, irrationalism, comparative analysis.

**Аннотация:** В данной статье представлен компаративный анализ представлений о сознании у двух выдающихся мыслителей – Шри Ауробиндо Гхоша и Джалалиддина Руми. Исследуются ключевые аспекты их философских и мистических концепций, подчеркивающие как сходства, так и различия в понимании природы сознания. Статья направлена на углубление понимания философии сознания и открытие новых горизонтов для междисциплинарных исследований в области философии, психологии и духовности.

**Ключевые слова:** сознание, мышление, интеллект, интуиция, иррационализм, компаративный анализ.

**KIRISH.** Ong muammosi falsafiy an'analarda markaziy o'rinni egallaydi va uni tushunishga bo'lgan yondashuvlarning xilma-xilligi tadqiqot uchun keng zamin yaratadi. Ushbu maqolada biz ikkita taniqli mutafakkir – Shri Aurobindo Ghosha va Jaloliddin Rumiyning ong haqidagi g'oyalarini qiyosiy tahlil qilamiz. Ikkala faylasuf ham turli xil madaniy va tarixiy kontekstlarga mansub bo'lsa-da, ongning tabiati va uning mohiyatining eng yuqori holatlari bilan bog'liqligi to'g'risida chuqur va ko'p qatlamli qarashlarni taklif qilishadi. Shri Aurobindo, hind faylasufi va shoiri, ongni nafaqat shaxsni, balki butun insoniyat sivilizatsiyasini o'zgartira oladigan dinamik kuch sifatida ko'rib, ma'naviy va moddiy integratsiyaga e'tibor qaratadi. Uning ta'limoti ichki evolyutsiya va ongning yuqori darajalariga erishish muhimligini ta'kidlaydi. Boshqa tomondan, mutafakkir Jaloliddin Rumiyni ongni muhabbat fenomeni orqali o'rganadi. Rumiyni uchun ong Xudoni anglash yo'lidir, bu yerda shaxsiy tajriba va sezgi asosiy rol o'ynaydi. Uning she'riy metaforalari va tasvirlari insonning ichki holati va universal ong o'rtasidagi munosabatni ta'kidlaydi. Tahlil davomida biz ushbu mutafakkirlarning yondashuvlaridagi o'xshashliklarni ham, farqlarni ham ochib beramiz, ularning falsafiy an'analari ongni tushunishni qanday shakllantirishini o'rganamiz.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Ong falsafasini irratsionalizm nuqtayi nazaridan tadqiq etish bilan I.Blauberg, O.Kuskarova, V.Babina, S.Barabanov, I.Bokachev, I.Neznamova, Yu.Arkan, I.Bulichev kabi xorijiy tadqiqotchilar shug'ullanib kelmoqda. Ularning tadqiqotlari asosan ongning irratsional mohiyatini o'rganishga qaratilgan. Mamlakatimizda ushbu sohada tadqiqotlar bilan R.Nosirov, R.Karimov, G.Kabulniyazova, G.Ruzmatova, G.Sultonova, K.Saidova, R.Bekbayev kabi mutaxassislar shug'ullanmoqda. Mazkur mutaxassislarning qarashida ong fenomenini tadqiq etish komparativistik tahlilga asoslangan.

Metodologik nuqtayi nazardan, ushbu maqolada keltirilgan muammoni batafsilroq ochib berish uchun komparativistik tahlil, germenevtika, kontekstual yondashuv, sintez, umumlashtirish, induksiya va deduksiya kabi usullar qo'llanilgan.

**NATIJALAR.** Insonning ruhiy rivojlanish jarayoni murakkab hamda ko'p qirrali bo'lib, asrlar davomida ko'plab buyuk mutafakkirlar e'tiborini

o'ziga tortib kelgan. Ular bu jarayonda uchraydigan qiyinchiliklar va qonuniyatlarni o'rganishga harakat qilishgan. Aynan shu mutafakkirlar qatoriga buyuk faylasuf J.Rumiyni va mashhur hind mutafakkiri A.Gxosh ham kiradilar. A.Gxosh ruhiy rivojlanish jarayonini o'rganar ekan, uni uch turga bo'ladi. Bular dunyoviy, diniy va ijtimoiy ko'rinishlarni tashkil etadi:

“Dunyoviy, ruhiy rivojlanish deb, tashqi muhit bilan inson o'rtasidagi munosabatlar majmuasi, tashqi muhitning insonga ta'siri, insonning jamiyatda egallagan o'rni, inson ijtimoiy faolligining turlari tushuniladi”[4].

Ruhiy rivojlanishning ikkinchi turi “...diniy rivojlanish bo'lib, uning maqsadi insonni narigi dunyo hayotiga tayyorlashdir, uning eng umumiy maqsadi insonni poklikka boshlash, avliyolik darajasiga erishish, gunohkor inson bandasini Allohning rahmati va marhamati bilan komillik darajasiga yetishishidir”[4].

Rivojlanishning uchinchi turi inson ruhining uning vujudi bilan birlashishi va inson ongini ruh orqali o'zgartirish, jon va ruhning birligi orqali nafs va hirsni nazorat etish, inson qalbidagi barcha xiraliklardan ozod bo'lishdan iboratdir. Bu borada Sh.Aurobindo “haqiqat kuch-quvvatini ruh bilan jonning birlashishi natijasida his qila bilish Allohning ilohiy ruhini va uning mo'jizakor kuchini yetkazuvchi vositaga aylanishi, ilohiy hayotning insonda yuzaga chiqishi va insonning ilohiy kuch-quvvat bilan birlashib ketishi – mana shu narsalar integral yoganing oliy maqsadidir”, – deb yozadi [4].

Dunyoviy ruhiy rivojlanish yoki hozirgi zamon tilida aytganda, ma'naviy rivojlanish inson tafakkurining qonuniyatlariga bo'ysunadi va bu yerdagi iroda asosan tafakkurning qonun-qoidalariga asoslanadi. Shri Aurobindoning fikricha, dunyoviy ruhiy rivojlanish shakli tafakkur bilan chegaralangan bo'lib, oliy ruhning trastsendental doiralariga kirib bora olmaydi, aql orqali qalb olamiga kirib bo'lmaydi. Sh.Aurobindo Gxosh shunday ta'kidlaydi: “Dunyoviy komillikka erishish yo'li insonni faqat aqliy-jismoniy mavjudot deb hisoblaydi. Uning oliy maqsadi inson tafakkurini yuksak darajaga ko'tarish, tananing sog'lomligiga erishish, jamiyat tomonidan tan olingan qonunlar va urf-odatlar asosida o'z shaxsiy baxtiga erishish, dunyoviy rohatlardan har taraflama lazzatlanish axloqiy-estetik qadriyatlarni rivojlantirish”[4].

Aurobindoning fikricha, bunday ma'naviyat va ruhiy rivojlanish shakli nihoyatda muhim bo'lgan tomonlarni e'tibordan chetda qoldiradi, ya'ni uning uchun insondagi barcha ruhiy holatlar faqat tafakkurning shakllari va elementlariga aylanib qoladi. Aslida esa, ruhning hayoti tafakkur doirasidan chetga chiqib ketadi va ruh tafakkurdan tubdan farq qiladi. Ruhiy rivojlanishning yoga shakli dunyoviy va diniy rivojlanishni inkor etmaydi. Insonda aqliy faoliyatdan tashqari ruhning hayoti va uning inson tabiatida mavjudligi tamoyili, diniy rivojlanish shaklini esa to'ldiruvchi fikr shundan iboratki, inson nafaqat u dunyoda, balki bu dunyoda ham baxt-saodatga erishishi mumkin. Uning ruhi va tanasi bu dunyoda ham mutanosib holatga kelishi mumkin.

**MUHOKAMA.** Oldingi falsafiy ta'limotlarda ruhi aqlning eng yuqori sof shakli deb tushunishgan. Lekin Sh.Aurobindo ta'limotida ruh tushunchasi ulardan tubdan farqlanib, u nihoyatda sermazmun va serqirra tushunchadir. Ruh tushunchasini ochib berish uchun Aurobindo ruhiy muhabbat masalasiga e'tiborni qaratadi va ruhiy muhabbat his-tuyg'usi orqali ruh tushunchasining mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Aurobindoning fikricha, ruhiy muhabbat zaminida Allohga bo'lgan muhabbat yotadi. Bunday muhabbat inson qalbida va inson qalbidan tashqarida mavjud bo'lgan xudoga qaratilgan. U xudoni oliy ruh va tabiat sifatida tushunadi. Uningcha, Alloh har narsada: koinot, yer, o'simliklar, hayvonlar, quyosh, osmon, yulduzlar va insonda mavjuddir. Insonda xudo uning oliy ruhi shaklida o'z qiyofasiga egadir. Insonning oliy ruhi inson qalbida yashiringan xudo bilan aynandir[7]. Aynan ana shu insonning oliy ruhi, Aurobindoning fikricha, inson qalbida yashiringan xudo, ruh tushunchasiga to'g'ri keladi. Xudo bir va u har yerda mavjud, uning inson qalbida mavjudligi hind falsafasida individual purusha tushunchasi orqali ifoda etiladi.

Aynan shu shaklda komillikka erishgan inson qiyofasi Allohning mavjudligi bilan qo'shiladi va Alloh inson qiyofasida o'z timsolini ko'radi. IX asrda yashagan mutasavvif shayx Mansur Xalloy "Anal haq!" deb, islom olamini g'azabiga duchor bo'ldi. Uning "Anal haq" tushunchasi aynan hind falsafasidagi individual purusha tushunchasiga mos keladi. Islomda inson Alloh bandasi deb tushunilgan, tasavvuf ta'limotida esa, inson komillikning eng yuqori darajasida fano bo'ladi, ya'ni o'zligidan voz

kechib, Alloh bilan qo'shib ketadi. Shunda uning borligi Allohning borligi bilan yagona bir borliqni tashkil etadi. "Anal haq" tasavvufda aynan shu jarayonni anglatadi. Bu jarayonning mohiyatini J.Rumiy o'zining "Ichingdagi ichingda" asarida ochib beradi.

"Anal haq" tushunchasi tasavvufda komil insonning Alloh timsoliga aylanishini anglatadi. Allohning yakkaligi insonning borligi bilan Allohning borligi o'rtasida o'tib bo'lmas farq yo'qligini anglatadi. Allohning borligi uni hamma yerda, jumladan, inson tabiatida ham mavjudligidir. Agar inson Allohning bandasi deb hisoblansa, uning borligi xudoning borligidan ajratiladi va inson Allohning xizmatkori, quliga aylanadi. Rumiyning fikricha, Allohning quli tushunchasi tasavvufdagi mahbub tushunchasidan ancha past turadi, chunki u insonning ichki botiniy olamida Allohning timsolini ko'rishga to'sqinlik qiladi.

Oliy ruhning insondagi tajallisi ruhiy muhabbatning siru-asrorlari orqali namoyon bo'ladi. Ruhiy muhabbat zaminida ma'shuq va ma'shuqa munosabatlari yotadi. Ma'shuq ekstaz holatida Allohga bo'lgan muhabbatiga butkul g'arq bo'ladi. O'zligidan voz kechib, fano holatiga tushadi. Ekstaz holati orqali insonning borligi Allohning borligi bilan qo'shiladi. Ma'shuqa jamolidan parda ochilib, ma'shuq uning visolida o'z qiyofasini ko'radi.

Tasavvufda ruhiy muhabbatning sir-sinoatlarini go'zal ma'shuqa va ko'zgu timsolida ham keltirishgan. Go'zal ma'shuqa bu olamiy jon timsoli bo'lsa, uning qo'lidagi ko'zgu esa olamiy jon tomonidan yaratilgan butun borliqdir[6]. Go'zal ma'shuqa ko'zguga qarab o'zining maftunkor jamolini ko'radi va bundan hayratlanib, uyquga ketadi. Ma'shuq aning uyquga ketishi hind falsafasida Braxmanning tunlari deb atalsa, uning uyqudan uyg'onib muhabbat zavqi bilan ko'zgdagi o'z aksiga qo'shib ketishi esa braxmanning kunlari deb ataladi.

Tasavvufdagi xulul va ittixod holatida xudo barcha narsalarda tajalli etib, shu narsalar orqali o'z qiyofasiga ega bo'ladi. Inson qalbidagi Alloh timsoli bu uning oliy ruh timsolidir. Tasavvufdagi yuqorida keltirilgan ma'shuq va ma'shuqa timsollari hind falsafasining yoga ta'limotining ruhiy muhabbat tasavvuriga mos keladi. Aurobindo shunday deb yozadi: "Xudoning mavjudligi uning mavhum holatdagi mavjudligi emasdir, balki u insondagi ruhiy zavqlanish va ruhiy muhabbat tuyg'ularini his



qilguvchi mavjudlikdir. Hindlar ta'limotida inson qalbidagi xudoning bunday mavjudligi individual purusha tushunchasi orqali ifoda etiladi" [4].

Rumi va Aurobindo ruhiy muhabbatni inson ruhining yagona ozuqasi deb hisoblaydilar. Jonning ozuqasi aslida nima? Rumiyning fikricha, shakl jihatidan jonning ozuqasi bu ibodatdir, lekin faqat ibodat bilan ruhiy ozuqaga erishib bo'lmaydi. Ibodat bilan birga Allohga bo'lgan ruhiy muhabbat qo'shilgan taqdiridagina jon o'zining ruhiy ozuqasiga to'liq erisha oladi. Ruhiy ozuqaga erishgan jongina fano holatiga tushadi. Fano holatida inson ruhi nur orqali Alloh borligiga qo'shib ketadi. Inson ruhining fano orqali xudo borligiga qo'shilishi ruh hayotining mazmunidir. Ekstaz holatida inson vujudidan nihoyatda kuchli ruhiy quvvat o'tadi, natijada inson trans holatiga tushadi.

Eng avvalo, bu jarayonda inson o'zligini yo'qotadi va kuchli ilohiy nur oqimiga qo'shib ketadi. Bunday holatni J.Rumi Mansur Xalloy kabi "Anal haq" deb ataydi. Bunday holatda insonning ichki dunyosi butun borliq bilan qo'shib ketadi.

Bu holatni hind yoga falsafasida ongning kengayishi deb atalsa, tasavvuf olamida bu so'zsiz zikr paytida namoyon bo'ladi. Ushbu ekstaz holatiga nihoyatda kam insonlar erisha oladilar, chunki insonlar ruhiy rivojlanish jarayonining har xil bosqichlarida bo'ladilar. Bu esa, o'z navbatida, ularning holati va quvvatini belgilaydi. Rumi insonlarni ruhiy ustozlar, ularning shogirdlari va oddiy insonlarga ajratadi. Ruhiy ustozning quvvati oddiy insonning quvvatidan yuz baravar kuchlidir. Bu quvvat yordamida ruhiy ustozlar boshqa insonlardan pardalangan sir-u sinotlardan xabar topishadi. Aynan shu ruhiy quvvat insonning ijodiy qobiliyatini belgilaydi.

"Bu ijodiy kuch-quvvatni Alloh na yer-u ko'kka, na hayvon-u o'simliklarga bermadi. Bu kuch-quvvatni faqat insongagina berib, unda o'z siymosini ko'rdi"[3].

Ammo inson doimo hamma o'zida yashiringan qobiliyatlarni yuzaga chiqara olmaydi. Bu haqda Rumi shunday fikr bildiradi: "Agar inson qimmatbaho xanjarni mix o'rnida ishlatib, unga qovoq ossa, bu xuddi qimmatbaho oltin idishda sholg'om qaynatishga o'xshaydi. Bu esa o'ta ahmoqlik emasmi?"[3].

Xuddi shunday inson ham o'zining ijodiy qobiliyatlarini har kungi arzimas yumushlarga sarflab, o'z qobiliyatlarini kerakli yo'nalishda

yuzaga chiqaza olmaydi. Moddiy boylikka hirs qo'yish inson tabiatida ochko'zlik, hasad va g'arazlarga olib keladi. Bu his-tuyg'ular insonning o'zligidan begonalashuviga olib keladi[2]. Bu esa, o'z navbatida inson qalbidagi ruhiy his-tuyg'ularni sezmasligiga olib keladi. Bunday begonalashuvdan qutulish uchun inson butun borlig'ini, o'zligini xudoga topshirishi kerak.

J.Rumiyning fikricha, inson o'z hayoti davomida to'plagan moddiy boylikka qaram bo'lmasligi kerak. Bu qaramlik inson qalbidagi Allohga va boshqa insonlarga bo'lgan muhabbat his-tuyg'usini so'ndiradi. Ruhiy muhabbat aslida inson qalbidagi barcha tirik mavjudotlarga bo'lgan muhabbat his-tuyg'usidir. Qalb ko'zi orqali inson butun borliqda yashiringan ruhiy go'zallikni his qiladi. Qalb ko'zi bilan ilg'agan narsalarni oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Olam go'zalligi aslida borliqdagi barcha narsalarda, mavjudotlarda yashiringan Allohning jamolidir. Shunday qilib, Allohga bo'lgan haqiqiy e'tiqod bu aslida Allohga bo'lgan muhabbatdir. Faqat Allohga bo'lgan muhabbat orqali insonda yashiringan ijodiy qobiliyat yuzaga chiqadi. Inson o'z hayoti davomida ko'pgina narsalarga mehr qo'yishi, ko'p narsalar bilan shug'ullanishi mumkin, lekin bu narsalarning barchasida chegara bor, holbuki, haqiqiy ruhiy ijodning haqiqiy chegarasi yo'qdir[3].

Haqiqiy ijodkorlik qobiliyati inson qalbidagi his-tuyg'ularni ruhiy jo'shqinlik orqali borliqdagi ruhiy kuch-quvvat bilan birlashtiradi va insondagi barcha zaifliklarni, charchoqlarni yengishga olib keladi. Shuning uchun ham hayotning o'zi ulkan ijodiy jarayondir. Insonning intellektual ijodi ruhiy ijodidan katta farq qiladi. Intellektual ijod aslida inson ongida borliqdagi barcha narsalarning in'ikosidir. Ammo bu ijod tafakkur doirasida chegaralangandir. Ruhiy ijod esa inson qalbida barcha borliqdagi ruhiy kuchlarni yuzaga chiqishi va bu ruhiy kuch orqali insonni butun borliq bilan qo'shib ketishidir.

J.Rumi inson qalbini nay sadolariga o'xshatadi. Bu sadolar orqali jon o'zining nozik go'zallik his-tuyg'usi va muhabbatini, hamda qayg'u-alam va iztiroblarini ifoda etadi. Ruhiy iztirob chekish inson o'zidagi ruhiy illatlardan poklanishidir. Bu orqali inson o'z manmanligi, xudbinligidan voz kechib, ichki his-tuyg'ularini borliqdagi ruhiy quvvat bilan birlashtiradi. Ruhiy muhabbat his-tuyg'usi orqali inson boshqa

odamlarda o'z aksini topadi va barcha odamlarning zoti bir ekanligini anglab yetadi. Ushbu zot xudoning o'zidir. Inson qalbi xuddi ko'zgudek boshqa insonning qalbidagi aks etadi [3].

XX asrning yirik faylasufi A. Bergson o'zining "Emerdjent evolyutsiya" asarida intuitsiya haqida yozar ekan, J. Rumiyning fikriga o'xshash ekanligini ko'rishimiz mumkin. Intuitsiya, Bergson ta'rifida, qalbdagi shunday bir his-tuyg'uki, u insonni barcha mavjudotlar bilan birlashtiradi [1]. Ruhiiy energiya, Bergson fikricha, yer yuzida ming yillar davomida bir necha oqimga bo'linib ketgan. Shunday oqimlardan biri intuitiv his-tuyg'udir. Intuitsiyani Bergson tafakkur faoliyatidan ajratib olib, oliy ruhning inson qalbidagi tajalliysi deb hisoblaydi. Bu tajalliy ruhiy muhabbat shaklida intuitsiyani yuzaga keltiradi. O'zining "Materiya va xotira" asarida yuqori darajadagi intuitsiya shaklini spontan-obrazli fikr yuritish qobiliyati, deb ham ataydi. Keyingi asarlarida esa, A. Bergson spontan-obrazli fikr yuritish qobiliyatini tafakkurdan ajratadi va kosmik darajadagi ruhiy energiya shakli deb hisoblaydi. Spontan-obrazli ko'rish haqida yozar ekan, Bergson uni ong ostidagi timsollarga asoslangan, deb hisoblaydi va bu K. Yungning ong ostidagi timsollariga o'xshab ketadi [5].

Hind yoga ta'limotida ham, Gxosh intuitiv ko'rish haqida gapirar ekan, unga ong ostidagi spontan timsollar xos deb yozadi. Bu qobiliyatni u ichki ko'rish deb ataydi. Hind falsafasi va tasavvuf ta'limotida ichki ko'rish zaminida ranglarni ko'rish qobiliyati yotadi, degan fikr mavjud. O'z ijodining markaziga inson qalbini qo'ygan J. Rumiyni yo'lovchiga o'xshatadi. Uning fikricha, bu yo'lovchining oldida begona uylarning eshiklari darrov ochilmaydi. Uzoq mashaqqatli va azobli yo'lni bosib o'tgandan keyingina bu uying eshiklari yo'lovchi uchun ochiladi. Inson qalbidagi ruhiy muhabbat orqali hayotning haqiqiy ma'nosi ochiladi.

Shri Aurobindoning fikrlari Rumiyni fikrlariga o'xshab ketadi. Masalan, Aurobindoning fikricha, ruhiy azob-uqubatlar inson qalbini poklovchi kuchli vositalardan biri hisoblanadi. "Yoga sintezi" asarida Aurobindo shunday deb yozadi: "Ayrim kimsalar hayotning azob-uqubatlaridan cho'chib, befarq bo'lib qolishadi, lekin Yaratganning sevgan bandasi uchun azob-uqubat, dard alamlarni chekib, sabrtoqatli bo'lish, uning visoliga yetishishning yagona yo'lidir. Inson hayotidagi g'am-anduh va azob-uqubatlar pardalangan to'siqlar bo'lib, ularni yengib

o'tgan insongina oxir-oqibat Alloh visoliga yetishar ekan, bu bilan u barcha g'am-anduhlardan forig' bo'ladi. Ular endilikda insonning ichki dunyosidagi rohat his-tuyg'ulariga aylanadi" [4].

**XULOSA.** Shunday qilib, yuqorida ko'rsatilgan yo'l va vositalar Rumiyni va Aurobindo ta'limotlarida bir-biriga o'xshaydi. Bunday o'xshashlikning hayron qoladigan joyi yo'q. Rumiyning tasavvufiy ta'limoti ham, Aurobindo Gxoshning yogasi ham qachonlardir yer yuzida mavjud bo'lgan va keyinchalik yo'qolib ketgan qadimiy madaniyat uchoqlarida barpo bo'lgan edi. Asrlar davomida bu ruhiy ta'limot Hindiston va Markaziy Osiyoga tarqalib bordi. Bu sarhadda yashovchi xalqlarning urf-odatlarini, diniy qarashlarini, iqlim shart-sharoitlaridagi farqlar ushbu ruhiy ta'limotni Markaziy Osiyoda va Hindistonda o'ziga xos shaklda tarqalishiga olib keldi. Agar Hindistonda insonning komillikka erishish haqidagi ta'limot asosan xilma-xil falsafiy tizim va yo'nalishlarda aks ettirilgan bo'lsa, Markaziy Osiyoda esa, bunday ta'limot xilma-xil sufiya mazhablarining amaliy hayoti va tajribasida namoyon buldi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Бергсон А. Творческая эволюция. – Минск, 1998. – Б.97.
2. Кабулнязова Г.Т. Компаративный анализ представлений Джалаладдина Руми, Анри Бергсона и Шри Аурбиндо Гхоша об интуиции и духовной любви // Вопросы философии. – 2021. – №11. – С.188-197. DOI: 10.21146/0042-8744-2021-11-188-197.
3. Румий Ж. Ичингдаги ичингда. – Тошкент, Ёзувчи, 1997. – Б.31-32.
4. Шри Аурбиндо. Синтез Йоги – Москва: Ника, 1993. – Б.246-248.
5. Юнг К. Психологические типы. – Минск: Попурри, 1998. – Б.110.
6. Karimov R., Bekbaev R. The Traditionalism of Rene Guenon in the Discourse of Philosophy of History and Social Anthropology // Wisdom. – 2022. – No.1(21). – P.194-202. DOI: doi:10.24234/wisdom.v21i1.712.
7. Karimov R., Naumenko O., Saidova K., Elmuratov R., Bekbaev R. The Phenomenon of Education in the Context of an Intercultural Philosophical Approach // Wisdom. – 2022. – №4(24). – P.84-90. DOI: 10.24234/wisdom.v24i4.941.

## К ВОПРОСУ О СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЯХ ГЛОСС В ТЕКСТАХ ИСТОРИЧЕСКИХ РОМАНОВ М.И.ШЕВЕРДИНА


*Хакимова Халима Ринатовна, самостоятельный  
соискатель  
НОУ «Университет Маъмуна»*

## M.I. SHEVERDIN TARIXIY ROMANLARI MATNLARIDAGI GLOSSALARNING SO‘Z YASASH IMKONIYATLARI HAQIDA

*Hakimova Halima Rinatovna, “Ma’mun universiteti” NTM  
mustaqil tadqiqotchisi*

## TO THE QUESTION OF WORD-FORMING POSSIBILITIES OF GLOSS IN THE TEXTS OF HISTORICAL NOVELS BY M.I.SHEVERDIN

*Khakimova Khalima Rinatovna, independent applicant  
“University of Ma’mun”*



<https://orcid.org/0009-0007-4357-9808>

*e-mail:*

[halimushka1@gmail.com](mailto:halimushka1@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada glossalarning so‘z yasash imkoniyatlari tadqiq qilingan. Material sifatida M.I.Sheverdinning tarixiy romanlari matnlari tanlangan. Bir glossadan bir nechta yasama so‘z hosil qilinishi aniqlangan bo‘lib, bu borada eng sermahsul birlik “кишлак” glossasi ekanligi isbotlangan.

**Kalit so‘zlar:** glossa, M.I.Sheverdin, so‘z yasash, tarixiy roman, derivat, yasama so‘z.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается вопрос о словообразовательных возможностях глосс. В качестве материала исследования послужили тексты исторических романов М.И.Шевердина. Было установлено, что на базе некоторых единиц может быть образовано несколько дериватов. Самой продуктивной глоссой в этом плане явилась единица «кишлак».

**Ключевые слова:** глосса, М.И.Шевердин, словообразование, исторический роман, дериват, производная основа, производящая основа.

**Abstract:** This article examines the word-formation capabilities of glosses. The texts of historical novels by Mikhail Sheverdin served as the research material. It was found that several derivatives can be formed on the basis of some units. The most productive unit in this regard was the unit “кишлак”.

**Key words:** gloss, Mikhail Sheverdin, word-formation, historical novel, derivative, derivative word.

**ВВЕДЕНИЕ.** Проблема изучения словообразовательных возможностей глосс, в частности на материале произведений М.И.Шевердина является вопросом, который детально не изучен учеными-лингвистами. Это обусловлено двумя причинами. Во-первых, подобные единицы стали предметом изучения

еще с недавних времен. Собственно, в лингвистической науке исследованы лишь следующие особенности глосс: проблема глоссирования и внутритекстового толкования[3], глоссы как компонент текста[5], их роль в историческом тексте XVIII века[4], глоссирование в качестве лексикографического

приёма[2], а также приёма редактирования исторического текста[1]. Как видим, масштабные исследования проводились в основном на материале исторических текстов. Вторая причина заключается в том, что произведения М.И.Шеввердина после распада СССР не изучались в лингвистическом плане. Доказательством служит факт рассмотрения его творчества в ряду «забытых писателей» в рамках конференций, коллективных трудов последних лет[6]. Результаты исследования деривационных возможностей глосс в текстах исторических романов позволяют рассмотреть вопрос об их адаптации в русском языке XX века.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ.** Эмпирической базой исследования послужили тексты следующих исторических романов М.И.Шеввердина: «Санджар Непобедимый» (1946), «По волчьему следу» (1951), «Паутина» (1958), «Агатовый перстень» (1958), «Тени пустыни» (1963), «Семь смертных грехов» (1967), «Перешагни бездну» (1974), «Колесница Джагарнаута» (1977), «Джейхун» (1980), «Дервиш света» (1982), «Взвихрен красный песок» (1984), «Вверяю сердце бурям» (1988). Выбор данных произведений обусловлен их насыщенностью глоссами – словами и выражениями, поясняющими устаревшую, диалектную или малоизвестную лексику.

В ходе сплошной выборки в целях демонстрации деривационного потенциала глосс из указанных текстов было выписано 37 единиц, которые выступают в качестве производящей основы.

Для изучения словообразовательного потенциала глосс были применены следующие методы исследования:

1. Описательный метод, предполагающий систематизацию и классификацию языкового материала;
2. Структурно-словообразовательный анализ, нацеленный на выявление словообразовательных моделей, по которым образованы новые единицы на базе глосс;
3. Сравнительно-сопоставительный метод, позволяющий определить специфику словообразовательных возможностей глосс в сопоставлении с общеупотребительной лексикой;

4. Элементы количественного анализа для установления продуктивности различных словообразовательных типов и моделей.

**РЕЗУЛЬТАТЫ.** Всего в текстах исторических романов М.И.Шеввердина нами было обнаружено 37 единиц, выступающих в качестве производящей основы. Среди них наиболее продуктивной оказалась глосса *кишлак*, от которого автором образованы дериваты *кишлакский*, *кишлачишко*, *кишлачник*, *кишлачица*, *кишлачный*, *кишлачок*, *предкишлачный* (7 единиц). Рассмотрим примеры употребления производных от данной глоссы в тексте конкретных произведений писателя:

... полетел под уклон по ровной и твёрдой, как паркет, *предкишлачной* площади [Набат. Агатовый перстень, с. 131];

*Прибежали кишлакские парни* [По волчьим следам, с. 63];

*Кишлачишко* попался пастушеский, темный [Набат. Агатовый перстень, с. 131];

... *кишлачники* не идут, не работают вместе с вами? [Санджар Непобедимый, с. 374];

С протянутыми руками, ... с растрепанными волосами *кишлачицы* ворвались на площадку [Набат. Паутина, с. 271];

Молиар продавал на *кишлачном* базарчике мешок гороха [Перешагни бездну, с. 461];

Сквозь туман, застилавший глаза, он видел ... игрушечный мост, *кишлачок*, всадника... [Набат. Агатовый перстень, с. 461].

Четыре производных слова образованы от глоссы *дервиш* (*дервишеский*, *дервишский*, *недервишский*, *по-дервишески*) и 3 единицы от *калтаман* (*калтаманить*, *калтаманский*, *калтаманство*). К глоссам, которые являются производящим словом для двух дериватов, мы отнесли топонимы *Афтобруи* (*афтобруинец*, *афтобруинский*), *Гюмиштепе* (*гюмиштепинец*, *гюмиштепинский*), *Чуян-тепа* (*чуянтепинец*, *чуянтепинский*). Также по 2 деривата М.И.Шеввердин образует от слов *дехканин* (*дехканский*, *дехканство*), *ференг* (*ференгистский*, *ференгский*) и *шиит* (*шиитизм*, *шиитский*), обозначающих человека. Помимо этого, местное обозначение жандармерии – *тахминат* – послужило основой для производства 2 дериватов (*тахминатский*, *тахминатчик*). Остальные 27 глосс, выступающих в качестве мотивирующей основы,

образуют по одному деривату. Их мы рассмотрим с конкретными примерами из произведений писателя. Значение единиц указано автором в приложении к произведению либо в качестве концевой сноски на конкретной странице употребления глоссы в тексте того или иного романа.

*Аджам* – иноземный<sup>1</sup>: *нежил и лелеял ее, точно аджамскую царевну из сказок* [Набат. Паутина, с. 376];

*Аламан* → военный набег: *когда ее привезли из Келата аламаницки иомуды, за нее на базаре давали сто двадцать золотых тиллей* [Тени пустыни, с. 36];

*Аллемани* → немцы: *Аллеманский пророк Гейдар совсем уж одолел великого северного соседа Ирана* [Колесница Джагарнаута, с. 322];

*Аскер* → стражник: *Такие морды он помнил у анатолийских крестьян и пастухов, одетых в аскерскую форму* [Набат. Паутина, с. 243];

*Боихатын* → старшая жена: *боихатынскому соглядатаю указал место в конце дастархана* [Перешагни бездну, с. 535];

*Газий* → борец за веру: *Не очень-то рассчитывал со своим здоровьем Георгий Иванович на «газийские» подвиги* [Дервиш света, с. 237];

*Дастархан* → скатерть: *При виде всего изобилия дастарханного сердце у нас запело* [Дервиш света, с. 135];

*Джадид* → буржуазные националисты: *...никто не мог прямо обвинить его в джадидских воззрениях* [Перешагни бездну, с. 210]. Как видим, автором представители национально-освободительного движения приравниваются к националистам, что, следовательно, соответствовало принципам господствовавшей в тот период коммунистической идеологии.

*Джихад* → война за веру: *... за участие джихадистов в газавате* [По волчьим следам, с. 378];

*Домулла* → ученый человек, учитель: *... гармонировала строгая домуллинская чалма и*

*белый халат ангорской шерсти...* [Вверяю сердце бурям, с. 270];

*Имам* → настоятель мечети: *... и в нем были мечети, где ваше имамство, — а вы, наверное, имам* [Санджар Непобедимый, с. 177];

*Инглиз* → англичанин: *Даже если оно — инглизское золото...* [Тени пустыни, с. 103];

*Казий* → судья: *... а казийский суд, слава аллаху, существует в Бухаре еще со времени халифа Моавия* [Санджар Непобедимый, с. 358];

*Кзыляяк* → бандит: *...стены увешаны гранатового цвета ахалтекинскими, салорскими, кзыляякскими, иомудскими коврами* [Санджар Непобедимый, с. 213];

*Кукнар* → мак опиума: *Хотел бы я знать, а сколько здесь сейчас эмирских джасусов — соглядатаев — среди этих презренных кукнаристов* [Вверяю сердце бурям, с. 52];

*Кязриз* → водовыводная галерея: *Глубина кязризного колодца превысила все предположения* [Колесница Джагарнаута, с. 26];

*Кяфир* → неверный: *Всё у тебя московское, кяфирское* [Набат. Агатовый перстень, с. 397];

*Махалля* → квартал: *восседал на особо почетном месте имам махаллинской мечети* [Санджар Непобедимый, с. 306];

*Маиш* → зернобобовое растение: *...тот день в Байсуне готовили в основном машевую кашу и бешибармак* [Санджар Непобедимый, с. 150];

*Мерген* → охотник: *но не для того, чтобы легче было добраться до мергенового жилища* [Вверяю сердце бурям, с. 62];

*Мюршид* → глава дервишеского ордена: *полные любопытства, у мазара и мюршидских шатров, постоянно готовые принести из источника воды* [Колесница Джагарнаута, с. 92];

*Овринг* → искусственный карниз на горной тропе: *заскрипели и затрещали овринговы лестницы* [Перешагни бездну, с. 614];

*Пахса* → глиняное ограждение: *...отхожего места, находящегося за боковой дверью, грубо врубленной в глиняную пахсовую стену* [Дервиш света, с. 182];

<sup>1</sup> В арабском языке слово «аджам» используется для обозначения людей, говорящих на других языках, отличных от арабского. Обычно это относится к иностранцам или неарабам. В историческом контексте

единица «аджам» часто употреблялась для описания персов или других народов, которые жили в пределах исламского мира, но не говорили на арабском языке.

*Хауз* → пруд: *Доктор наблюдает, как водонос – машкоб – поит из своей пиалы сырой хаузной водой всех желающих* [Дервиш света, с. 215];

*Хашар* → общественная работа: ...о «казу» – *всенародных хашарных работах в каналах* [Семь смертных грехов. Книга первая, с. 60];

*Шариат* → мусульманский кодекс: *Он презирал шариатских законоведов* [Дервиш света, с. 234];

*Югурдак* → мальчик на побегушках: ... *доволен своим югардакством* [По волчьим следам, с. 586].

Как видим, М.И.Шевердин на базе глосс – имен существительных в основном образует имена прилагательные с помощью исконных словообразовательных моделей и формантов современного русского языка. Среди единиц, которые адаптировались в русском языке, можно назвать глоссы *дехканский* и *шариатский*. Остальные дериваты не прошли этап лексикографической кодификации.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** Глоссы как уникальные единицы представляют собой весьма ценный материал в культурно-языковом плане. Подобные единицы, функционирующие в текстах исторических романов М.И.Шевердина, представляют собой понятия, отражающие национальный колорит, особенности восточного быта и вероисповедания. У писателя они «без затруднения» вступают в деривационные отношения, соединяясь со словообразовательными формантами русского языка. Следует отметить, что глоссы демонстрируют высокую деривационную активность в текстах рассматриваемых произведений.

Анализ словообразовательных моделей, реализуемых в глоссах, показал их тяготение к традиционным способам словопроизводства,

среди которых преобладает суффиксация, отражающая национально-культурную специфику русского словообразования.

Рассмотренные нами примеры и выявленные особенности словообразования глосс свидетельствуют о том, что они выполняют функцию важного средства репрезентации, особого подчеркивания в художественном тексте специфики описываемых историко-культурных реалий, характерных для восточных народов.

#### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Баранкова Г.С. Глоссирование как прием редактирования в списках поздней русской редакции «Шестоднева» // История русского языка. Памятники XI–XVIII вв. – М.: Наука, 1982.
2. Коваленко К.И. Глоссирование как лексикографический прием (на материале азбуковников XVII века) // И.И.Срезневский и русское историческое языкознание: опыт и перспективы. К 205-летию со дня рождения И.И.Срезневского. – Рязань, 2017.
3. Малышев А.А. Глоссирование vs внутритекстовое толкование лексики: терминологические точки соприкосновения в отношении текстов XVIII века // Ученые записки Петрозаводского государственного университета, 2019. №1 (178).
4. Чумандрина М.М. Роль глосс в изучении лексико-семантических отношений первой трети XVIII века // Развитие синонимических отношений в русском языке второй половины XVII века. – Казань: КазГУ, 1972.
5. Шаймерденова Н.Ж. Глоссы как феномен текста. – Алматы: Борки, 1998. 156 с.
6. Юхнова И.С. Образ врага в творчестве М.И. Шевердина // Забытые писатели. – М.: Свое издательство. – 360 с.



## XORAZM VOHASI URUG‘CHILIK TUZUMINI O‘RGANISHNING NAZARIY JIHLTLARI

Matyakubov Xamdam Xamidjanovich, Urganch davlat universiteti “Tarix” kafedrasi dotsenti, (PhD)


## THEORETICAL ASPECTS OF THE STUDY OF THE FERTILITY SYSTEM OF THE KHORAZM OASIS

Matyakubov Khamdam Khamidjanovich, Urganch State University

Associate Professor of the “History” Department, (PhD)

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ РОДОПЛЕМЕННОГО СТРОЯ ХОРЕЗМСКОГО АЗИСА

Матякубов Хамдам Хамиджанович, Ургенчский государственный университет, доцент кафедры «История», (PhD)



<https://orcid.org/0000-0001-5440-0112>

e-mail:

hamdamtarix@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada eng qadimgi davr tarixining nafaqat davrlashtirish xususiyatlari ochib berildi, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, urug‘-qabila uyushmasi va boshqaruv, tashqi aloqalar, e’tiqodlar va ma’naviy madaniyat tarixiga doir tadqiqotlar tahlili amalga oshirildi.

**Kalit so‘zlar:** urug‘, qabila, ibtidoiy jamiyat, harbiy demokratiya, tosh davri.

**Abstract:** In this article revealed not only the characteristics of periodization of the history of the oldest period, but also analyzed researches on the history of socio-economic relations, clan-tribe association and management, foreign relations, beliefs and spiritual culture.

**Key words:** clan, tribe, primitive society, military democracy, stone age.

**Аннотация:** В статье раскрыты не только особенности периодизации истории древнейшего периода, но и проанализированы исследования по истории социально-экономических отношений, родоплеменного объединения и управления, международных связей, верований и духовной культуры.

**Ключевые слова:** род, племя, первобытное общество, военная демократия, каменный век.

**KIRISH.** Insoniyat jamiyatining umumiy qonuniyatlar asosida to‘g‘ri chiziqda rivojlanishi g‘oyasiga qaraganda, tarixiy-madaniy jarayonlar taraqqiyotining ko‘p xilliligi konsepsiyasi haqiqatga javob berardi. Aslida, ushbu konsepsiyaning nazariy va uslubiy jihatlaridan, sobiq davri tarix, arxeologiya va etnologiya fanlari sohalarida tadqiqotchilar tomonidan qo‘llanilganligi, evolyutsionizm va marksizm g‘oyalaridan yiroqlashishga o‘xshardi. Ammo u yoki bu yangicha qarashlar, marksizm

asoschilari asarlaridan parchalarni keltirish bilan birgalikda bayon qilinardi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Insoniyat jamiyatining umumiy qonuniyatlar asosida to‘g‘ri chiziqda rivojlanishi g‘oyasiga qaraganda, tarixiy-madaniy jarayonlar taraqqiyotining ko‘p xilliligi konsepsiyasi haqiqatga javob berardi. Aslida, ushbu konsepsiyaning nazariy va uslubiy jihatlaridan, sobiq davri tarix, arxeologiya va etnologiya fanlari sohalarida tadqiqotchilar tomonidan qo‘llanilganligi, evolyutsionizm va marksizm g‘oyalaridan

yiroqlashishga o'xshardi. Ammo u yoki bu yangicha qarashlar, marksizm asoschilari asarlaridan parchalarni keltirish bilan birgalikda bayon qilinardi [13,c.169-170].

Bunga o'xshash boshqa variantlar bayoniga ko'ra, avval ishlab chiqarish xo'jalikning paydo bo'lishi natijasida, jamoalar hayotida sifatli tubdan o'zgarishlar va muntazam ravishda ortiqcha mahsulotning yuzaga kelishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining amalga oshadigan imkoni yaratilib, "ibtidoiy jamoa tuzumining halokatiga" yo'l ochib berildi[17,c.88].

Bizningcha, ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari – dehqonchilik va chorvachilikka o'tish natijasida insoniyat tarixida vujudga kelgan madaniy taraqqiyotni hisobga olib, bu borada ibtidoiy jamiyat tuzumining yemirilishi, inqirozi va halokatiga "yo'l ochib berilishi" yoki zamin yaratilishi haqida so'z yuritish bahslidir. Aksincha, "neolit inqilobi" deb atalgan tarixiy voqea, ibtidoiy jamiyat va urug'doshlik tuzumining yuksalishiga hamda mustahkamlanishiga olib keldi, sifat jihatdan yangi taraqqiyot davrini belgilab berdi deb xulosa chiqarish to'g'ri bo'ladi. Eng asosiysi "neolit inqilobi" jarayoni oldingi tarixiy davrlarga nisbatan barqaror qo'shimcha mahsulotni qo'lga kiritishga yaratib, turli bosqichlarda turlicha mintaqalarda vujudga keldi[5,c.61-66].

Buning natijasida ijtimoiy mehnat taqsimoti, hunarmandchilik sohasining dehqonchilikdan ajralib chiqishi va keyingi bosqichda savdo-sotiqning hunarmandchilikdan mustaqil rivojlanishi yuzaga keldi[7,c.145-146]. Ma'lumki, ovchilik, baliqchilik va termachilik sohalariga nisbatan dehqonchilik va xonaki chorvachilikning rivojlanishi asosida ortiqcha mahsulot paydo bo'lib, qishloq xo'jalik mahsulotlari va hunarmandchilik buyumlari bilan ayirboshlash taraqqiy topdi. Mazkur omillar ham ibtidoiy jamoa davrining so'nggi bosqichlarida urug'chilik tuzumining inqirozidan yiroq ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlaridan dalolat beradi.

Tarixshunoslikda xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi sabablari ichida ortiqcha mahsulotning ko'payib borishi va shu asosda ayirboshlash doirasining kengayishi hamda ijtimoiy mehnat taqsimoti qayd etildi [12,c.160-161]. Ushbu jarayonning, ya'ni xususiy mulkchilikning vujudga keltirgan boshqa manbai, ota tomonidan qarindosh katta oilalari mehnati bilan yaratilgan mulk va ishlab chiqarish vositalari ham asos bo'lishi ehtimoldan

xoli emas. Tadqiqotchilarning fikricha, avval urug'doshlik jamoasining jamoatchilik ishlab chiqarishida mehnat qurollari shaxsiy mulk bo'lgan, lekin bir shaxsga xos ishlab chiqarish jarayonining ahamiyati ortib borishi tufayli, mehnat qurollari xususiy mulkka aylangan[16,c. 196-197].

Ibtidoiy jamiyatning yemirilishi yo'nalishlari va shakllarini yoritishda "ibtidoiy qo'shnicilik jamoasi" ning kelib chiqishi masalasiga ham katta ahamiyat berilgan. Tadqiqotchilarning nuqtayi nazarida, qo'shnicilik jamoasi deganda hududiy qo'shnicilik jihatdan birlashgan aloqalarga ega va yer, yaylovlar hamda xomashyo konlaridan jamoatchilik asosida foydalanishgan, shu qatorda o'z kuchi bilan xo'jalik yuritgan alohida katta oilalardan iborat ijtimoiy-iqtisodiy tuzilish hisoblanadi [17,c.104-105]. Shuningdek, ibtidoiy davrga mansub turlicha hamkorlik shakllari va o'zaro yordam, umumiy urf-odatlar, marosimlar va e'tiqod birligi katta ahamiyat kasb etgan[1,6.204]. Ushbu qarashlar haqiqatga to'g'ri kelib, ilmiy adabiyotlarda qabul qilingan.

Tosh davri urug'doshlik tuzumining so'nggi bosqichida dehqonchilik va chorvachilik madaniyatining taraqqiyoti sababli, ishlab chiqaruvchi xo'jalik sohasi va shunga mos turmush tarziga ega jamoalar ichida juft kichik oilalaridan tashkil topgan alohida katta oilalar ajralib chiqqan. Katta oila bu birgalikda ishlab chiqarish vositalariga va mulkka egalik qilgan hamda birgalashib ishlab chiqarish va iste'mol jarayonida ishtirok etgan, qon-qarindoshlik va nikoh aloqalari jihatdan yaqin bo'lgan ijtimoiy guruh sifatida ta'riflanib, shu qatorda katta oila yemirilib borayotgan ibtidoiy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asosi bo'lganligi uqtirildi[9,c.107-108].

Bizningcha, katta oila ibtidoiy jamiyat tarixida yuzaga kelgan ijtimoiy yutuqlardan biridir. Negaki, katta patriarxal oilasi va umumiy ajdodidan kelib chiqqan, muayyan xo'jalik aloqalarni hamda an'anaviy urf-odatlar va marosimlarni quvvatlab turgan qarindosh oilalarning guruhlari, hatto Qadimgi Sharqda ilk davlat rivoj topgan bosqichda va keyingi davrlarda barqaror ishlab chiqarish uyushmasi bo'lgan[8, c.25-27].

Adabiyotlarda bahsli, ba'zan bir-biriga zid qarashlarning mavjudligi, birinchi navbatda, mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish, ijtimoiy sinflar va ularning o'rtasidagi ziddiyatlar va kurashning keskinlashishi kabi omillarni ilk davlatchilik



tizimiga o'tishda bosh sabablar sifatida talqin qilish bilan belgilangan edi. Ushbu o'ta muhim masalani ochib berish va hal qilish jarayonida yagona markscha "sinfy nazariya" qo'llanilib, muammoga oid boshqa muqobil g'oyalar va nazariyalar inkor etilgan [14,6.41-42]. Ibtidoiy jamiyatni, jumladan, urug'doshlik tuzumi tarixini o'rganishda markscha g'oyalar bilan birga shu ta'limotdan biroz yiroq yondashuvlar ham sobiq davrda olib borilgan tadqiqotlarda qo'llanilgan. Masalan, Markaziy Osiyo janubida (Turkmanistonning janubi-g'arbi) mil.avv III ming yillikning oxirlarida davlatchilikning vujudga kelishining dastlabki shartlari ichida dehqonchilik – chorvachilik asosida oziq-ovqat mahsulotlarini qo'lga kiritish, o'troq aholi sonining ko'payib borishi va shahar ko'rinishida yirik manzilgohlarning vujudga kelishi, hunarmandchilikning dehqonchilik sohasidan ajralib chiqishi va ixtisoslashgan mehnat faoliyatining paydo bo'lishi, diniy e'tiqodning rivojlanishi va yirik ibodatxonalarning bunyod etilishi, ijtimoiy tabaqalanish va ilk sinfy jamiyatning yuzaga kelishi kabi omillar keltirilgan [10,c.119-123]. Bular orasida o'tmish voqelikni o'zida aks ettirgan ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy belgilar ham bor. Ammo moddiy madaniyatdan ma'naviy hayotga daxldor bo'lgan faoliyatning ajralib chiqishi hamda jamiyatning umumiy manfaatlarni amalga oshirish zarurati, birlashuv omil sifatida yetarlicha bayon etilmagan. Shuningdek, insoniyat rivojlanishi yo'llarining umumiylik g'oyasiga qarshi, qadimgi madaniyatlarning notekis rivojlanishi, madaniyat hodisalarini geografik sharoit bilan bog'lash, turli madaniyatlar o'rtasida aloqalar, o'zaro ta'sir va migratsiyalarning ahamiyati kabi qarashlar tan olinib, yangi ilmiy ma'lumotlar talqin qilinganligini aytib o'tish lozim.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston tosh davri yodgorliklarni tekshirish borasida katta yutuqlarga erishildi, ulardan ko'plari (Teshiktosh, Ko'lbuloq, Uchtut, Machay, Jonboz 4) va boshqalar ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda tayanch qadimiy makonlar sifatida tan olingan [2,c.9-14]. Shuningdek, urug'doshlik tuzumining moddiy madaniyatini tadqiq etishda tekshirish usullari ancha takomillashib, arxeologik tadqiqotlarning nazariy jihatlarini ishlab chiqildi [11,c.15-21].

XX asr 90-yillari va XXI asr boshlarida Markaziy Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda tosh davrini o'rganish jarayoniga, ilgari va yangi

izlanishlar tufayli to'plangan arxeologik materiallarni fanga tatbiq etish, moddiy madaniyat va xo'jalik sohalarini o'rganish an'anaviy katta ahamiyatga ega bo'lgan [6,6.3-5] ibtidoiy jamiyat tarixi muammolariga nisbatan, Markaziy Osiyo va jahon sivilizatsiyasi, mintaqa miqyosida urbanizatsiya jarayonlarining genezisi va rivojlanish yo'llari, davlatchilik tarixi, etnomadaniy aloqalar va o'zaro ta'sir, hamda tarixni o'rganishda yangicha yondashuvlar kabi mavzularga oid ilmiy konferensiyalar ko'proq o'tkazildi.

Eng qadimgi davrlar tarixi masalalari ancha kamroq muhokama qilindi. Bahs-munozaralar va muqobil g'oyalar ayrim e'lon qilingan taqriz va javoblarda o'z aksini topdi. Misol uchun, A.Asqarov taklif etgan O'zbekiston tarixini davrlashtirish yangi tizimida qo'llanilgan "ibtidoiy to'da davri", "ibtidoiy urug'chilik jamoasi", "harbiy demokratiya" kabi tarixiy atamalar [3,6.76-77], A.Sagdullaevning yozishicha, an'anaviy tushunchalar bo'lib, darsliklarda ham keng qo'llanilgan, shuningdek, "harbiy demokratiya" va "sivilizatsiya" har xil tarixiy tushunchalar bo'lib, Markaziy Osiyoda ularning vujudga kelishi xronologiyasini bir-biridan ajratgan holda, aniq ko'rsatib berish zarur [15,6.73-74].

A.Asqarovning javobida masala yuzasidan aniqlik kiritilib, "kishilik tarixining birinchi formatsiyasi "Ibtidoiy jamoa tuzumi" deb atalib, uning tarkibiga odamzotning paydo bo'lishidan to dastlabki sinfy jamiyat tarkib topguniga qadar o'tgan davr kiritilgan, ya'ni unga "ibtidoiy to'da davri" ham kiritilgan" [4,6.70]. Shuningdek, buning davomida, "harbiy demokratiya" tushunchasiga izoh berilib, O'rta Osiyo sharoitida bu bosqich ilk temir (mil.avv.VII-IVasrlar) va antik davrni (mil.avv.I asr oxiri-milodiy IVasr) o'z ichiga oladi deb, misol uchun Qang' va Davan davlatlarida boshqaruv "harbiy demokratiya" prinsiplariga asoslanganligi uqtirildi, sivilizatsiya esa, "tub mohiyat va mazmun jihatidan harbiy demokratiya tushunchasidan farq qilib, u ko'proq ajdodlarimizning o'troq dehqonchilik madaniyati, shaharsozlik va ilk davlatchilik madaniyatiga ishlatilishi ham hech kimga sir emas", degan dalillar qayd etildi [4,6.71].

**XULOSA.** Yuqorida bayon etilgan holat, tadqiqotchilar o'rtasida ilmiy munozara namunasi bo'lib qoldi. Hozirda eng qadimgi davr tarixining nafaqat davrlashtirish xususiyatlarini ochib berish, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, urug'-qabila

uyushmasi va boshqaruv, tashqi aloqalar, e'tiqodlar va ma'naviy madaniyat tarixini yangi ma'lumotlarga asoslanib ko'rib chiqish dolzarb vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, eng qadimgi tarixning turli davrlardagi madaniy o'zgarishlarni va ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarida vujudga kelgan yutuqlarni o'z davri taraqqiyotining ilg'or belgilari deb baholash haqiqatga ko'proq to'g'ri keladi. Ular kelgusi jamiyat madaniyatining rivojlanishi va takomillashishiga o'z ta'sirini o'tkazib, yangi asoslarda davom etgan. Shu bois tarixiy an'analar va yangiliklarning o'zaro bog'liqligi va ta'siri masalasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ... Б.204.
2. Аскарлов А.А. Успехи археологов Узбекистана в изучении каменного века // ИМКУ. – Ташкент, 1974. Вып 11. – С. 9-14.
3. Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: О'zbekiston, 2015. – Б. 76-77.
4. Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи асари бўйича билдирилган мулоҳазаларга жавоб // О'zbekiston tarixi, 2016. №1. – Б.70.
5. Башилов В.А. Периодизация и темпы исторического процесса “неолитической революции” на Переднем Востоке и в новом свете // Древние цивилизации Востока. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 61-66.
6. Бердимуродов А.Э. Мустақиллик йилларида ўзбек археологиясининг тараққиёти // Ўзбекистон археологияси мустақиллик йилларида. – Самарқанд, 2016. – Б. 3-5.
7. Бутинов Н.А. Разделение труда в первобытном обществе // Труды Института этнографии АН СССР. – М. – Л., 1960. Т. LIV. – С. 145-146.
8. Дьяконов И.М. Община на древнем Востоке в работах советских исследователей // ВДИ. – М., 1963. № 1. – С. 25-27.
9. Косвен М.О. Семейная община и патронимия. – М.: Наука, 1963. – С.41-43.
10. Массон В.М. Алтын-депе // Тр. ЮТАКЭ. – Л.: Наука, 1981. – С. 119-123.
11. Массон В.М. Каменный век Средней Азии и понятие археологической культуры // ИМКУ. – Ташкент, 1974. Вып 11. – С.15-21.
12. Першиц А.И. Развитие форм собственности в первобытном обществе, как основа периодизации его истории // Тр. Института этнографии. – М. – Л., 1960. Т.LIV. – С. 160-161.
13. Першиц А.И., Монгайт А.Л., Алексеев В.П. История ... С.169-170.
14. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. – Тошкент: “Адолат”. 2001. – Б. 41-42.
15. Сағдуллаев А.А. Аскарловнинг янги асарида таклиф этилган ўзбеклар этногенези концепцияси ҳақида баъзи мулоҳазалар // О'zbekiston tarixi, 2015. №3. – Б.73-74.
16. Семенов Ю.И. Проблема начального этапа родового общества // Проблемы истории докапиталистических обществ. – М.: Наука, 1968. Кн.І. – С. 196-197.
17. Хазанов А.М. Разложение первобытнообщинного строя и возникновение классового общества // Первобытное общество. – М.: Наука, 1975. – С.88.



## TA'LIM VA ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO HAMKORLIK

(Xorazm viloyati misolida)

Xudayberganov San'at Sanjarovich, Urganch davlat universiteti  
katta o'qituvchisi



<https://orcid.org/0009-0001-1504-0908>

e-mail:

[xudayberganov\\_sanat01@gmail.com](mailto:xudayberganov_sanat01@gmail.com)

## INTERNATIONAL COOPERATION IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND SCIENCE (in the case of Khorezm region)

Khudaiberganov Sanat Sanjarovich, Senior lecturer of Urganch  
State University

## МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В РАЗВИТИИ ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ

(на примере Хорезмской области)

Худайберганов Санъат Санжарович, старший  
преподаватель Ургенчского государственного университета

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm viloyatida ta'lim va ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan xalqaro hamkorlik xususida so'z boradi. Xususan, Urganch davlat universitetida xalqaro hamkorlik borasida amalga oshirilayotgan ishlari yillar bo'yicha tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan xalqaro hamkorlik masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** fan, ta'lim, ilm, hamkorlik, rivojlanish, islohot, siyosat.

**Abstract:** This article discusses international cooperation in the field of education and science in the Khorezm region. In particular, the work of Urgench State University in the field of international cooperation is analyzed by years. The article also analyzes issues of international cooperation in higher education institutions operating in the Khorezm region.

**Keywords:** science, education, science, cooperation, development, reform, policy.

**Аннотация:** В данной статье говорится о международном сотрудничестве в сфере образования и науки в Хорезмской области. В частности, по годам проанализирована работа Ургенчского государственного университета в сфере международного сотрудничества. В статье также анализируются вопросы международного сотрудничества в высших учебных заведениях, действующих в Хорезмской области.

**Ключевые слова:** наука, образование, наука, сотрудничество, развитие, реформа, политика.

**KIRISH.** Mustaqillik yillarida mamlakatda ijtimoiy sohaning ko'p muhim yo'nalishlari qatori ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib keldi. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi"gi qonuni hamda 1991-1996-yillarda e'lon qilingan 30 dan ortiq Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida ta'lim sohasida qator o'zgarishlar amalga oshirildi. 1997-yil 29-avgustda yangi tahrirda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Milliy dastur asosida amalga oshirilgan islohotlar doirasida iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ularning chet elda o'qishini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ulug'bek", "Umid", "Iste'dod" va boshqa jamg'armalar tashkil etildi.

Bu borada Xorazm viloyatida umumiy o'rta ta'limda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida 2011-2015-yillarda xorazmlik o'quvchilarning 153 nafari xalqaro miqyosidagi tanlovlarda, 118 nafari xalqaro sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishdilar[17].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qarori asosida ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'rgatish borasida izchil tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 25-martdagi "Umumta'lim muassasalarining chet tillar o'qituvchilari malakasini va kasb-mahoratini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 67-sonli qarori asosida viloyatdagi barcha umumta'lim maktablarining har birida 2 tadan chet tili xonalari jihozlandi[4].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** So'nggi yillarda o'qituvchilarning bilimi va kasbiy mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonlarga xorijlik mutaxassislarining jalb etilishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda 2000-yilda Urganch davlat universitetida Xalqaro aloqalar bo'limi tashkil etildi.

2005-yilga kelib universitet AQSH, Xitoy, Germaniya, Rossiya, Hindiston, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Chexiya, Janubiy Korea, Malaziya, Eron kabi rivojlangan davlatlarning 20 dan ortiq universitetlari va ilmiy markazlari, 10 dan ortiq fond va tashkilotlari bilan aloqa o'rnatdi[7].

Shu o'rinda ta'kidlash joiz, viloyatda ilm-fan sohasini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarining olim va mutaxassislarining faol ishtirokida xalqaro hamkorlikdagi qator ilmiy loyihalar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, 2002-yilning yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi, YUNESKO va Germaniyaning Bonn universitetiga qarashli Rivojlanishlarni tadqiq qilish markazi (ZEF) o'rtasida shartnoma imzolaniib, uzoq muddatga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot dasturi "Xorazm viloyatida yer va suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy va ekologik qayta qurish" mavzusida xalqaro ilmiy loyiha ish boshladi[2.73]. Shartnomaga muvofiq ZEF loyihasi va uning asosiy hamkorlari mintaqa sharoitini o'rganishdi va tabiiy resurslardan foydalanishning maqbul rejalarini ishlab chiqishdi.

2002-2012-yillarda Xorazm viloyatida amalga oshirilgan ZEF/YUNESKO loyihasi viloyat tabiiy resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish va uning iqtisodiy samaradorligini baholash borasidagi o'ziga xos tajribalarni to'play oldi[3.38].

Tahlil etilayotgan yilda universitetning 27 nafar professor-o'qituvchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasining uzoq va qisqa muddatli grantlari sovrindorlari bo'lishgan, shulardan 20 nafari Angliya, Xitoy, Janubiy Koreya, Bolgariya kabi mamlakatlarning nufuzli universitetlarida malaka oshirib qaytdi[8].

2005-yilga kelib universitet professor-o'qituvchilari TEMPUS dasturining yana bir yirik grantini qo'lga kiritdi. Loyiha bir yilga mo'ljallangan bo'lib, loyiha O'zbekiston universitetlari uchun kvalifikatsion talablar ishlab chiqishni ko'zda tutdi. Tahlil etilayotgan yilda universitetda 17 nafar xorijlik talabalar tahsil oldi[9].

Tahlil etilayotgan davrda universitetga AQSHning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Pamela Spratlen xonim o'zining rasmiy tashrifini amalga oshirdi. Ushbu tashrif davomida

AQSH elchixonasi va universitetlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirishga kelishib olindi[11].

Prezident Sh.Mirziyoyev davlat mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan soʻzlagan tantanali tabrik nutqida mamlakat taraqqiyotining maqsadi Uchinchi Renessans boʻlishi lozimligi hamda hozirda dunyoda kechayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olishimiz mumkinligini alohida taʼkidladi[12]. Qayd etish kerakki, bu davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbus taraqqiyotning hozirgi bosqichida Oʻzbekiston milliy gʻoyasining yangi mazmunini ifodalaydi.

**MUHOKAMA.** Oliy taʼlim sohasidagi islohotlarda qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash bilan bir qatorda sohada xorijiy hamkorlikni rivojlantirish borasida ham salmoqli yutuqlar qoʻlga kiritildi. 2017–2021-yillarda Oʻzbekistonda aholini oliy taʼlim sohasiga qamrab olish darajasi 9 foizdan 28 foizga yetdi[11]. Bu koʻrsatkichni 2030-yilgacha 50 foizga koʻtarish davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri etib belgilangan.

Birgina Xorazm viloyatida aholini oliy taʼlimga jalb etish darajasini koʻradigan boʻlsak, 2010-yilda viloyatda 3 ta oliy oʻquv yurti oʻz ish faoliyatini yuritgan boʻlsa, keyinchalik 2021-yilga kelib oliy taʼlim muassasalari soni 7taga yetdi. Shulardan 4tasi davlat tarmogʻidagi oliy taʼlim muassasalari hamda ularning filiallari hissasiga toʻgʻri kelsa, 2ta nodavlat va 1ta xorijiy universitetning filiali faoliyat yuritgan. 2020-yilda 6,9 ming abituriyentlar oʻqishga qabul qilingan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2021-yilda 7,3 mingni tashkil etdi[12].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-2909 sonli Qarori qabul qilinib, unda har bir oliy taʼlim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-taʼlim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari oʻrnatish, oʻquv jarayoniga xalqaro taʼlim standartlariga asoslangan ilgʻor pedagogik

texnologiyalar, oʻquv dasturlari va oʻquv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish boʻyicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi[14]. Buning natijasida 2021-yilda respublika boʻylab “El-yurt umidi” jamgʻarmasi hamda OTMlarning oʻzaro hamkorlik va grant dasturlari doirasida 1345 nafar professor-oʻqituvchi xorijiy oliy taʼlim hamda ilmiy tadqiqot muassasalariga malaka oshirish va stajirovka oʻtash uchun yuborildi. Ularning 579 nafari Yevropa, 172 nafari Amerika, 82 nafari Osiyo, 512 nafari MDH mamlakatlarida tahsil olib qaytdi. Oliy taʼlim tarmogʻida taʼlim jarayonlarining sifati hamda uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida 2021-yilda 1793 nafar xorijlik mutaxassis mahalliy oʻquv jarayoniga jalb qilingan boʻlib, ularning 481 nafari Yevropa, 97 nafari Amerika, 263 nafari Osiyo, 952 nafari MDH mamlakatlari professor-oʻqituvchilari va soha mutaxassislaridir[5].

Oliy taʼlimni sifat jihatdan rivojlantirib yangi bosqichga olib chiqish, mamlakatdagi taʼlim dargohlarini eng zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi[15] va boshqa bir qator sohaga tegishli hujjatlar qabul qilingan. Konsepsiyani sohadagi taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqishda muhim qonunchilik hujjati sifatida eʼtirof qilish mumkin. Shuningdek, 2021-yil 24-dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy taʼlim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida[16]”gi PQ-60-sonli qarori moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy taʼlim muassasalarida oʻzaro kelishuvlar asnosida oliy taʼlim sohasida akademik mobillikni amalga oshirishga imkoniyat yaratildi.

**XULOSA.** Mustaqillikning qoʻlga kiritilishi viloyatda oliy taʼlim tizimining rivojlanishiga va ularning xalqaro darajadagi aloqalarining shakllanishiga zamin yaratgan. Yangi Oʻzbekiston sharoitida Oʻzbekistonda oliy taʼlim sohasini isloh qilish ishlariga jiddiy eʼtibor qaratildi. Oldingi yillarda erishilgan yutuqlar va yoʻl qoʻyilgan xatolarni tahlil qilish natijasida yangi vazifalar va ularni hal qilishning dasturlari ishlab chiqildi. Buning natijasida respublikadagi OTMlar qatori Xorazm viloyatidagi oliy taʼlim dargohlarida taʼlim sifatini oshirish va xorijiy hamkorlik aloqalarini

kengaytirish imkoniyatlari yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining amaliyotga joriy etilishi sohadagi taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqishda muhim tashkiliy-huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 29 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи газетаси, 2020 йил 31 август.
2. Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар. Хоразм мустақиллик йилларида. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 73.
3. Давлетов С.Р., Мадаминов Р.Р. Экологик маданият ва инновациялар уйғунлиги. – Хива: Хоразм Маъмун академияси, 2013. – Б. 32-38.
4. Маткаримов, Ш. Халқ таълими тизими: мустақиллик муваффақиятларни таъминламоқда 4.04.2016. // <https://www.xorazm.uz/uz/xalq-talimi-tizimi-mustaqillik-muvaffaqiyatlarni-taminlamoqda/>
5. Тошқулов А.Н. Олий таълим: юксалиш йўлидаги муҳим қадамлар // Янги Ўзбекистон, 2021 йил 31 декабрь.
6. ТТАУФЈА. Toshkent Tibbiyot akademiyasi xalqaro aloqalari haqidagi ma'lumotlar. – Urganch, 2003.
7. Urganch davlat universiteti joriy arxivi (UrDUJA). Xalqaro aloqalar bo'limi ma'lumotlari. – Urganch, 2005.
8. UrDUJA. Xalqaro aloqalar bo'limi ma'lumotlari. – Urganch, 2004.
9. UrDUJA. Xalqaro aloqalar bo'limi ma'lumotlari. – Urganch, 2005.
10. UrDUJA. Xalqaro aloqalar bo'limi ma'lumotlari. – Urganch, 2006.
11. UrDUJA. Urganch davlat universitetining Xalqaro aloqalari bo'yicha 2016-yil hisobotlari. – Urganch, 2016.
12. Ўзбекистонда 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг бешта устувор йуналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси натижалари ... – Б. 106.
13. Ўзбекистон ҳудудларининг йиллик статистик тўплами. – Т., 2022. – Б. 68.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чоратadbirlari тўғрисида”ги ПҚ-2909 сонли Қарори // <https://lex.uz/docs/3171590>
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли фармони // <https://lex.uz/docs/4545884>
16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 декабрдаги “Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича кўшимча чора-таadbirlar тўғрисида”ги ПҚ-60-сонли қарори // <https://lex.uz/docs/5793261>
17. Хоразм вилояти халқ таълими бошқармасининг жорий архив маълумотлари. – Урганч, 2022 йил.
18. Хоразм вилояти халқ таълими бошқармасининг жорий архив маълумотлари. – Урганч, 2015 йил.



## ATOQLI DAVLAT VA JAMOAT ARBOBI TUROR RISQULOVNING TURKISTON IQTISODIYOTINING INTEGRATSIYALASHUVI SOHASIDAGI TASHABBUSLARI

Qandov Bahodir Mirzayevich, Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

## INITIATIVES OF THE FAMOUS STATESMAN AND PUBLIC FIGURE TUROR RISKULOV IN THE SPHERE OF INTEGRATION OF THE ECONOMY OF TURKESTAN

Kandov Bakhadir Mirzaevich, Chirchik State Pedagogical University Associate Professor of the Department of “National Idea, Fundamentals of Spirituality and Legal Education”, Doctor of Philosophy (PhD)



<https://orcid.org/0009-0002-1923-2138>

e-mail:

kandov1976@mail.ru

## ИНИЦИАТИВЫ ИЗВЕСТНОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО И ОБЩЕСТВЕННОГО ДЕЯТЕЛЯ ТУРОРА РЫСКУЛОВА В СФЕРЕ ИНТЕГРАЦИИ ЭКОНОМИКИ ТУРКЕСТАНА

Кандов Бахадир Мирзаевич, Чирчикский государственный педагогический университет, доцент кафедры “Национальная идея, основы духовности и правового воспитания”, доктор философских наук (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada atoqli davlat va jamoat arbobi Turar Risqulovning Turkiston va Rossiya iqtisodiyotlarining integratsiyalashuv jarayonidagi tashabbuslari hamda iqtisodiy-ijtimoiy faoliyati yoritilgan. Shuningdek maqolada, Turkistonda transportning, birinchi navbatda, temir yo‘lining rivojlanishi Turkiston iqtisodiyotining integratsiyalashuvida alohida davr sifatida qaraldi, chunki bu Rossiyaning turli mintaqalari bilan kengroq integratsiya aloqalarini o‘rnatishga yordam berganligi ochib berilgan. Turar Risqulovning iqtisodiy-ijtimoiy faoliyati Turkiston iqtisodiyotining ishlab chiqarish salohiyatini jadal oshirish ehtiyojlarini qondirdi va Markaziy Osiyo respublikalari uchun ham katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiston, Turar Risqulov, Markaziy Osiyo, transport, temir yo‘l, iqtisodiyot, integratsiya, sanoat tovarlari, kemasozlik, mashinasozlik.

**Abstract:** This article describes the initiatives and economic and social activities of Turar Riskulov, a well-known statesman and public figure, in the process of integrating the economies of Turkestan and Russia. The article also considers the development of transport in Turkestan, primarily rail, as a special period of integration of the economy of Turkestan, since it was found that it contributed to the establishment of broader integration ties with various regions of Turkestan. Russia. The economic and social activities of Turar Riskulov met the needs of increasing the production potential of the Turkestan economy and were of great importance for the republics of Central Asia.

**Key words:** Turkestan, Turar Riskulov, Central Asia, transport, railway, economy, integration, industrial goods, shipbuilding, mechanical engineering.

**Аннотация:** В данной статье описаны инициативы и экономическая и социальная деятельность Турара Рыскулова, известного государственного и общественного деятеля, в процессе интеграции экономик Туркестана и России. Также в статье развитие транспорта в Туркестане, прежде всего железнодорожного, рассматривается как особый период интеграции экономики Туркестана, так как выявлено, что оно способствовало установлению более широких интеграционных связей с различными регионами Туркестана. Экономическая и социальная деятельность Турара Рыскулова отвечала потребностям повышения производственного потенциала Туркестанской экономики и имела большое значение для республик Средней Азии.

**Ключевые слова:** Туркестан, Турар Рыскулов, Средняя Азия, транспорт, железная дорога, экономика, интеграция, промышленные товары, судостроение, машиностроение.

**KIRISH.** Bugungi kunda Yangilanayotgan O‘zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat va huquqiy davlat qurish jarayonida vatanimiz tarixining sovetlar davrida kechgan eng murakkab, ziddiyatli voqealarni o‘rganish, undan tegishli xulosa va saboqlar chiqarish, butun xalqni, ayniqsa, yoshlarni chinakam tarix bilan qurollantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”[1, 29].

XX asrning boshlanishi Turkiston o‘lkasi tarixida eng jiddiy burilish yuz bergan davrlardan biriga to‘g‘ri keladi. O‘tgan o‘n yilliklar mobaynida o‘lka bag‘rida yetilgan jarayonlar ijtimoiy hayot yuzasiga qalqib chiqib, uning negizini qamrab olgan chuqur tanglikni ochib tashladi. Tashqi va ichki omillar tufayli vujudga kelgan bu jarayonlar o‘z tabiatiga ko‘ra bir xil emas, lekin o‘zining yemiruvchilik ta’siri jihatidan yaxlit edi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Mustaqillik yillarida e’lon qilingan ayrim asarlarda Turar Risqulov haqida, uning Turkiston xalqining mustaqilligi va ozodligi uchun olib borgan kurashi haqida xorijlik olimlar O.M.Koniratbayev, S.Beysembayev, S.Kulboyev, A.Koshanov, O.Sabden, A.Dogalov va A.V.Ustinovlar[2] hamda o‘zbekistonlik olimlar Q.K.Rajabov[3], D.Alimova, D.Ziyoeva, Sh.Karimov, R.Shamsutdinov[4] tomonidan yaratilgan ilmiy ishlari, ma’ruzalarida, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, risolalar va ilmiy maqolalarda sovet

rejimining Turkiston, Buxoro, Xorazm milliy respublikalarida o‘rnatilishi jarayonida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning yoritilishi barobarida, Turar Risqulovning faoliyati haqida qisqacha bo‘lsa-da ma’lumotlar keltirilgan va mulohazalar bayon etilgan.

**MUHOKAMA.** Ko‘pchilik aholi turmush darajasining pasayishi va uning qashshoqlashuvi bilan uyg‘unlashib ketgan davomli turg‘unlikka olib kelgan omillarning birinchi qatorida Turkiston jamiyatini zo‘rlilik bilan yangilash turardi. Mustamlakachilik usullari bilan tashqaridan amalga oshirilgan bu yangilash jarayoni doimo jamiyatni qoloqlikda saqlash omiliga aylanib ketdi. Iqtisodiy ekspansiya yillari mobaynida vujudga keltirilgan Turkiston xalq xo‘jaligining yangi o‘choqlari – zo‘r berib rivojlanayotgan paxta tozalash, paxta yog‘i ishlab chiqarish, yer osti boyliklarini qazib olish, temir yo‘l transporti tarmoqlari va boshqa sohalar o‘lka milliy xo‘jalik majmuasining tarkibiy qismi emas edi. Bu tarmoqlar, birinchidan, Rossiya imperiyasi markaziy sanoat rayonlarining talabehitoylari bilan bog‘liq bo‘lib, mahsulotning Turkiston doirasidan chetga chiqarilishi uni olinadigan foydadan butunlay mahrum etar, bu esa ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini barbod qilardi. Ikkinchidan, kapitalistik ishlab chiqarish o‘choqlarining barpo etilishi an’anaviy o‘lka iqtisodiyotini izdan chiqardi.

Mahalliy hunarmandchilik va kosibchilik ishlab chiqarilishi metropoliya sanoat tovarlarining raqobati sababli tobora ko‘proq tushkunlikka uchrab, yemirila bordi. Rossiya imperiyasi iqtisodiyoti uchun ishlagan o‘lka xo‘jaligining xomashyo yetishtirish yo‘nalishida bo‘lishi, donli ekin maydonlarining qisqartirilishi, hunarmandchilik-kosibchilik ishlab chiqarishining tushkunlikka



uchraganligi o'lkaning iqtisodiy jihatdan tobeligini yanada kuchaytirdi. Ana shu tobelik halokatli oqibatlarining butun og'irligini Birinchi jahon urushi yillarida xalq ommasi o'z gardanida sinab ko'rdi: muntazam harakatda bo'lgan temir yo'llar ishidagi uzilish va barbod bo'lish hollarining tez-tez sodir bo'lib turganligi sababli oziq-ovqat tangligi va ocharchilik surunkali tus oldi.

Turor Risqulov bu davrda Turkiston, RSFSR va Qozog'istonda turli rahbarlik lavozimlarida ishlagan edi. Bir tomondan, u Turkiston ASSRda ocharchilikni tugatishda faol qatnashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, turli nutq, ma'ruzalari, maqola va kitoblarida o'zi guvohi bo'lgan o'sha yillardagi ocharchilikning mudhish asoratlarini ko'rsatdi. Xullas, ocharchilik Turkistonda ham, sovet Rossiyasida ham 1918-1920 yillarda keng ko'lamda davom etib, yuz minglab va millionlab kishilarning o'limiga sababchi bo'ldi. Turkistonda oziq-ovqat siyosatining yangi bosqichi T.Risqulovning Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti raisi sifatidagi faoliyati bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Turkiston ASSRda ocharchilikka qarshi kurashda T.Risqulov boshchiligidagi milliy rahbar xodimlar (rasmiy hujjatlarda milliy kommunistlar deb ataladi) katta rol o'ynashdi.

Milliy rahbarlardan Turkiston ASSRda Turor Risqulov, Qayg'isiz Otaboyev, Abdulla Rahimboyev, Nazir To'raqulov, Inomjon Xidiraliyev, Nizomiddin Xo'jayev, Sultonbek Xo'janov, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Buxoro Xalq Sovet Respublikasida Fayzulla Xo'jayev, Fitrat, Abdulqodir Muhitdinov, Otaulla Xo'jayev, Xorazm Xalq Sovet Respublikasida Polvonniyoz Hoji Yusupov, Boboovun Salimov, Bekjon Rahmonov singari arboblardan o'zbek xalqining manfaatlari uchun Markaz vakillari va Yevropalik kommunistlarning shovinistik siyosatiga qarshi jiddiy kurashdilar. Turkistondagi milliy rahbar xodimlarni birlashtirishda Turor Risqulov rahbarlik qilgan Turkiston o'lka Musulmonlar byurosi katta rol o'ynadi.

**NATIJARLAR.** Turor Risqulov butun rahbarlik faoliyati davomida Turkiston va Rossiya iqtisodiyotlarining integratsiyalashuv jarayoniga faol hissa qo'shdi:

Birinchidan, Rossiya va Turkiston iqtisodiyoti va ishlab chiqarishi juda chambarchas bog'liq bo'lib, o'tgan asrda ular bir butun sifatida shakllandi.

Turkiston savdo aloqalarida Rossiyaning ulushi 70%, 30% 14 ittifoq respublikalari o'rtasida bo'lgan.

Ikkinchidan, Turkistonda Rossiya bilan hamkorlikda ishlab chiqarish, birinchi navbatda, respublika ichidagi iqtisodiy va texnologik aloqalarga emas, balki Rossiyaning chegaradosh viloyatlari bilan o'zaro aloqalarga asoslangan edi. Shunday qilib, ko'mir Turkistondan Uralga, Sharqiy Qozog'istonga esa Kuzbassdan olib kelingan.

Uchinchidan, o'nlab shahar tashkil etuvchi yirik korxonalarining faoliyati kooperativ aloqalarga va ularsiz o'zaro xom ashyo ta'minotiga bog'liq edi, umuman olganda, ishlab chiqarish faoliyati mumkin emas edi. Shunday qilib, Pavlodar neftni qayta ishlash zavodi faqat Tyumen nefti, Magnitogorsk metallurgiya zavodi Sokolovsko-Sarbay temir rudasi granulari, Uralning ferroqotishma zavodlari Aktyubinsk viloyatidagi (Donskoy GOK) xromit rudasi va boshqalar bilan ishlay oldi.

To'rtinchidan, Turkistonning mudofaa korxonalarini to'liq ravishda Rossiya tadqiqot markazlaridan olingan ilmiy-texnologik tadqiqotlar va tayyorlov qismlarining ta'minotiga bog'liq bo'lgan, chunki ularga respublika hududida mahsulotlarning oxirgi iste'molchilari ega bo'lmagan. Shu sababli, ular kemasozlik, umumiy mashinasozlik va boshqa sohalardagi talablar va ehtiyojlarga asoslanib, qismlar yetkazib berish bilan shug'ullangan.

Beshinchidan, respublikaning asosiy transport-kommunikatsiya tarmoqlari Rossiya tuzilmalari bilan yagona texnik va texnologik rejimda ishladi. Ilmiy, me'yoriy va moddiy-texnik ta'minot Rossiya tomonidan amalga oshirildi. Shunday qilib, temir yo'l transporti o'z ehtiyojlarining 80 foizini aviatsiya uchun yetkazib berish bilan qondirdi, bu esa aloqa sohasida bo'lgani kabi yuqoriroqdir.

Shu bilan birga, T.Risqulov Rossiya bilan iqtisodiy integratsiyaning ahamiyatini belgilovchi tarixiy va siyosiy omillar bilan bir qatorda uning geografik joylashuvini ham doimo hisobga olgan. Turkiston Rossiya bilan eng uzun chegaraga ega – 7,5 ming km, u yerda belgilanmagan, shaffof, minglab joylardan erkin o'tish mumkin[2]. Temir yo'l transportining texnologik tutashuv nuqtalari deyarli hech qachon davlat chegaralariga to'g'ri kelmasdi.

Shuning uchun uzoq muddatli yaqin iqtisodiy aloqalarni (shu jumladan ishlab chiqarish va korporativ aloqalarni) o'rnatish va rivojlantirish,

bizningcha, suveren Turkiston uchun hayotiy ahamiyatga ega.

Turkiston iqtisodiyotida integratsiya jarayonining rivojlanishi, T.Risqulovning fikricha, ko'plab davlatlar, ayniqsa, ularning chegaradosh hududlari bilan o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va chuqurlashtirishga xizmat qilishi kerak[55]. Afsuski, bu transcchegaraviy integratsiya jarayonlari ma'lum siyosiy sabablarga ko'ra kerakli darajada rivojlana olmadi. Qozog'iston mustaqillikka erishgandan keyingina uning Xitoy bilan transcchegaraviy integratsiya aloqalari asta-sekin yaxshilanib, rivojlana boshladi. Integratsiya aloqalarining bunday rivojlanishi va chuqurlashishi respublika iqtisodiyoti uchun katta foyda va'da qilmoqda.

Xususan, transportning, birinchi navbatda, temir yo'lining rivojlanishi Turkiston iqtisodiyotining integratsiyalashuvida alohida davr sifatida qaraldi, chunki bu Rossiyaning turli mintaqalari bilan kengroq integratsiya aloqalarini o'rnatishga yordam berdi. Bu Turkiston iqtisodiyotining ishlab chiqarish salohiyatini jadal oshirish ehtiyojlarini qondirdi va Markaziy Osiyo respublikalari uchun ham katta ahamiyatga ega edi.

**XULOSA.** Turkiston ASSR hayotida kechayotgan barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liq eng muhim masalalarning birortasi ham Turkkommissiya a'zolarining roziligisiz hal etilmas edi.

Bu davrda mahalliy xalq orasidan chiqqan, sovet va partiya qurilishida ancha tajriba orttirgan, chiniqqan N.Xo'jayev, T.Risqulov, N.To'raqulov, A.Rahimboyev, Q.Otaboyev, A.Ikromov, S.Segizboyev kabi mahalliy siyosiy arboblari u yoki bu rahbariy mansablarda faoliyat yuritgan bo'lsalar-da, ammo ularning ixtiyori Markaz rahbarlari qo'lida bo'lgan. Xullas, Turkiston komissiyasi qiyofasida Turkiston ASSR hayotida zo'rlik bilan qaror toptirib borilayotgan bolsheviklar diktaturasining asl mazmun-mohiyati mujassamlashgan edi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B.288.
2. Beysembayev S.B, Kulbayev S. Turar Riskulov. – Alma-Ata: Kazaxstan, 1974. – 40 s.; Koshanov A., Sabden O., Dogalov A. Турар Рыскулов: государственная деятельность и экономические воззрения. – Алматы, 2008.; Сабден О. Экономика: Избранные труды. Том XIX: Турар Рыскулов: Государственная деятельность и экономические воззрения. Изд. 2-ое. – Алматы: Институт экономики КН МОН РК, 2011. – 280 с.; Устинов В.М. Служение народу (Партийная и государственная деятельность Т. Рыскулова). – Алма-Ата: Казахстан, 1984. – 231 с.
3. O'zbekiston tarixi (1917-1991 y). Ikki kitob. Birinchi kitob. 1917-1939-yillar. Mas'ul muharrirlar: R.Abdullayev, M. Raximov, Q.Rajabov. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019.; Rajabov Q.K. Turkiston Muxtoriyati tarixi. – Toshkent: Fan, 2023. – B.256.; Rajabov Q. O'zbekiston XX asrda. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fan nashriyoti davlat korxonasi, 2024. – B.752.
4. Ziyoyeva D.H. Mustaqillik uchun kurashning o'qilmagan sahifalari / Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan. – Toshkent: Fan, 1996.; Alimova D., Golovanov A. O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlarini (1917-1990 y). – Toshkent: O'zbekiston, 2000 – 70 b.; Shamsutdinov R., Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar (Uchinchi kitob). – Andijon: Andijon, 2004 – 652 b.; Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 576 b.
5. Устинов В.М. Турар Рыскулов. Очерки политической биографии. – Алматы: Казахстан, 1996. – S.175-187.



## EKOLOGIK MADANIYAT VA DINIY QADRIYATLARNING IJTIMOIIY-MADANIY TRANSFORMATSIYASI

Qilichev Feruzbek To'ychi o'g'li, O'zbekiston Milliy universiteti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## SOCIOCULTURAL TRANSFORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AND RELIGIOUS VALUES

Kilichev Feruzbek Toychi o'g'li, National University of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD)

## СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Киличев Ферузбек Тойчи оглы, Национальный университет Узбекистана, доктор философии (PhD)

**Annotatsiya:** Maqolada ekologik madaniyat va diniy qadriyatlarning transformatsiyasi, ularning insonlarda atrof-muhitga hamda ona tabiatga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirish, bugungi kunda global ekologik muammolar va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, jumladan suv resurslarining yetishmasligi, global iqlim o'zgarishlari to'g'risida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ekologik madaniyat, ona tabiat, ijtimoiy-madaniy omillar, fan-texnika, global iqlim o'zgarishi, diniy ong.

**Abstract:** The article discusses the transformation of ecological culture and religious values, changing their attitude towards the environment and mother nature in a positive way, eliminating global environmental problems and their negative consequences, including the lack of water resources, global climate changes.

**Key words:** ecological culture, mother nature, socio-cultural factors, science and technology, global climate change, religious consciousness.

**Аннотация:** В статье рассматривается трансформация экологической культуры и религиозных ценностей, изменение отношения к окружающей среде и родной природе в положительную сторону, устранение глобальных экологических проблем и их негативных последствий, в том числе нехватки водных ресурсов, глобальных изменений климата.

**Ключевые слова:** экологическая культура, родная природа, социокультурные факторы, наука и технологии, глобальное изменение климата, религиозное сознание.



<https://orcid.org/0009-0004-1434-4274>

e-mail:  
qilichevferuzbek@gmail.com

**KIRISH.** Har qanday an'anaviy din insoniyat tarixida alohida o'rin tutadi. Diniy ongi shakllanmagan xalq bo'lmagan. Biroq odamlarning dinga munosabati vaqti-vaqti bilan turlicha takomillashib borgan. Buning uchun, avvalo, diniy qiziqish va bilim har bir ongli insonning ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqadi. O'zbek xalqi uchun, ayniqsa, mustaqillikning ilk kunlaridanoq bunday ma'naviy ehtiyoj alohida o'rin tutadi. Xalqimizning o'rta asrlarga borib taqaladigan tarixida diniy tinchlik va xalqlarning totuvligi masalasi doimo kun tartibida bo'lib kelgan. Bunday jamiyatning yaxlitligi, o'z navbatida, har bir dunyoviy davlatda erkin faoliyat yuritayotgan an'anaviy dinlarning bebaho boyligidir. Shu boisdan ham G.N.Eshanova "Diniy qadriyatlar tizimi ideal tarzda namoyon bo'ladi, shuningdek inson ilohiy qonunlarni muqaddas qadriyat sifatida qabul qiladi. Diniy e'tiqod hamisha insoniyat axloqining poydevorini tashkil etib kelgan"[4.12] deb ta'kidlaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar o'zini dunyoviy davlat sifatida shakllantirgan edi. Davlatimiz tomonidan diniy sohada jamiyatda totuvlik va hamjihatlikni saqlash, rivojlantirishga qaratilgan konstruktiv siyosat izchil olib borilib, bu borada ko'plab dasturlar qabul qilindi. Ularni amalga oshirishda mamlakatimizdagi turli diniy birlashmalarning vakillari ishtirok etmoqda. Buning sababi bugungi kunda dunyoda etnik va diniy nizolarning ko'pligidir. O'zbekiston sharoitida diniy konfessiyalarning faoliyati va ularda qadriyatlarga munosabat orqali ekologik madaniyatni shakllantirishga teng imkoniyat yaratilgan. 30 yillik suverenitet davomida mamlakatimizda ana shunday hamkorlik va tinchlikka da'vat etuvchi diniy qadriyatlar masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. O'zbek xalqi azaldan dinni milliy birdamlikning zaruriy sharti deb bilgan, shu bilan birga, milliy qadriyatlar va ma'naviyatga sodiq qolgan.

Islom dini dastlab yurtimizga zo'rlik bilan emas, tinch yo'l bilan kirdi. O'zbekiston dunyoviy davlat sifatida o'z boshqaruv tizimida din ishlariga bevosita aralashmagan bo'lsa-da, tinchlik va birodarlikni targ'ib qiluvchi ko'p asrlik diniy qadriyatlar xalq orasida chuqur ildiz otgan. O'zbekiston tarixi bilan shug'ullangan olimlar Sharqda tolerantlik qadimdan mavjudligini, xususan

Kushonlar davlati tarixida turli diniy e'tiqod, qavm vakillari o'zaro tinch-totuv, ahillikda yashagani, Markaziy Osiyoda, hatto siyosiy raqiblarning o'zaro tolerant: xayrixohlik, bir-birini tushunish, rahm-shafqat, murosa va sabr-toqat bilan munosabatda bo'lganliklari haqida ko'plab misollar keltirganlar va hozir ham bu fazilatlar o'zgartirilmadan saqlanib qolganligi haqida fikr yuritganlar[3.37].

Bu, o'z navbatida, o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligi va diniy pozitsiyasi azaldan muvaffaqiyatli uyg'unlashganidan dalolat beradi. Masalan, sunnat, er-xotinning nikohi, Qurbon hayitlari, motam, sadaqa, fitr, fотиha va boshqalar. Diniy an'analar o'zining hayotiyligini isbotladi. O'z navbatida "...diniy qadriyatlar har bir dinning muqaddas kitoblari, ta'limotlari bilan bog'liq holda izohlanadi. Borliqni, insonni Yaratuvchi, Boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi sifatida haqiqat, adolat, ezgulik, yaxshilik, saxovat, go'zallik va boshqa ma'naviy barkamollikning oliy namunasi bo'lgan Allohga munosabat qadriyatdir. Alloh yaratganlari ichida insonni Xalifa sifatida qadrini ulug'laydi. Inson Yaratgan tomonidan yuborilgan axloqiy qonunlarni muqaddas qadriyat sifatida qabul qiladi hamda axloqiy normalar tizimi shakllanadi"[4.19].

Diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash o'z navbatida ekologik madaniyatni yuksaltiradi. Shu xususda N.Z.Madaminova: "...diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg'unligidagi me'yorlarning buzilishi diniy va dunyoviy qadriyatlarning qadrsizlanishi, ya'ni odamlarning axloqiy va akseologik jihatdan tanazzulga uchrashiga olib keladi" [2.23].

Ateizm gullab-yashnagan mamlakatimizda Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin ma'naviy an'analar, diniy qadriyatlar qayta tiklandi. Masjidlar, cherkovlar, ibodatxonalar kabi yangi ibodatxonalar qurildi, eskilari ta'mirlandi. Shu bilan birga, davlat organlari va ko'plab diniy birlashmalar o'rtasidagi o'zaro ishonchli munosabatlar shakllandi. Bunday an'anaviy qadriyatlarning tiklanishiga birinchi turki bevosita mustaqillik bilan bog'liq edi. Biroq, har bir muvaffaqiyat ortida to'siqlar, kamchiliklar borligi hayot haqiqati hisoblanadi. Zero, mustamlakachilik davrida o'zbek xalqining ma'naviy madaniyat xazinalari ancha zaiflashgan edi. Boshqa tomondan,

diniy e'tiqod erkinligi berilgan bir paytda jamiyat hayotiga salbiy bid'at va missionerlik ham ta'sir ko'rsatdi. Natijada an'anaviy jamiyatda shakllangan ma'naviy qadriyatlarga, milliy va dinlararo totuvlikka, umumiy ichki barqarorlikka tahdid soldi. Bunday muammolarning oldini olish maqsadida mamlakatimizda turli sohalarda respublika miqyosida izchil ishlar amalga oshirilmogda. Xususan, kelajak avlodlarga diniy ma'lumotlarni yetkazish maqsadida maktablarda "Dinshunoslik asoslari" fani qo'shimcha fan sifatida joriy etildi. Universitetlarda dinshunoslik kafedralari ochilib, ularga har yili davlat grantlari ajratildi.

Ma'naviy qadriyatlarning mavjudligi va shaxs tomonidan qadrlanishi istiqbolli hodisadir. Zero, ko'plab hodisalarga qarshi turgan hozirgi globallashuv sharoitida o'z yurtiga, uning ma'naviy qadriyatlariga, an'analariga ega bo'lgan davlatgina global qoloqlik jarayoniga qarshi tura olishi aniq. Bunday qadriyatlar, o'z navbatida, 30 yil davomida jamiyatda qayta tiklandi, endilikda esa uni yosh avlodga yetkazish strategik maqsadga aylangan.

Mamlakatimizdagi diniy vaziyat nuqtayi nazaridan doimiy ravishda kun tartibida turadigan va yangilanishi kerak bo'lgan bir qancha dolzarb masalalar mavjud. Sekulyarizm – bu dunyoviylik yoki dinni inkor etish emas, davlatning diniy bo'lmagan, huquqiy tamoyillar asosida boshqaruvi, davlatning dinga nisbatan tutgan pozitsiyasi demokratik, qonuniy va e'tiqod erkinligini ta'minlaydi. Gumanistik qadriyatlar, vijdon erkinligi, dunyoqarash erkinligi, ma'naviy sohadagi fikrlar xilma-xilligi – bularning barchasi "dunyoviylik" tushunchasiga kiradi. Dunyoviy davlatda din alohida o'rin tutadi. Din davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, uni jamiyatdan, xalqning tabiatidan, turmush tarzidan ajratib bo'lmaydi. Binobarin, din dunyoviylik nuqtayi nazaridan ichki siyosatda, fuqarolarning ma'naviy hayoti va madaniyatida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Asrlar davomida xalqimiz dinni ma'naviyat asosi deb hisoblab kelgan. Xalqning ma'naviy qadriyatlari din tamoyillari bilan hamohang edi. Dinda axloq, o'zaro hurmat, ahillik, axloq, bilim, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va hokazo ko'pgina qadriyat va fazilatlar xalqimizga xos xususiyatlar bilan uzviy bog'lanib, o'ziga xos ma'naviy qadriyatlar majmuasini shakllantirgan. Ya'ni din

ma'naviyati an'anaviy qadriyatlarning asosiga aylangan. Binobarin, din sohasidagi axborot, ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri an'anaviy qadriyatlarni tiklash bo'ladi. O'z navbatida Sh.O'.Axrorova to'g'ri ta'kidlaganidek, "Diniy qadriyatlar ham "milliylashgan" ko'rinishda amal qilishi, diniy amal va qoidalar yaralishidayoq milliy amal va qoidalarga asoslanganligi, din chegara hatlab o'tayotganda o'z hududi milliy unsurlarini ham olib o'tishini nazarda tutib, ijtimoiy siyosat milliy qadriyatlarni o'rganish va takomillashtirishda mana shu uyg'unlikni e'tiborga olish lozim"[1.13], deydi.

Din va an'ana yonma-yon bo'lsa, din rivojlanadi, urf-odat boyib boradi, millat din ruhini his qiladi, uni qadriyat sifatida qabul qiladi. Ma'naviy qadriyatlarimiz dinimiz va ajdodlar an'analari o'rtasidagi chuqur bog'liqlikning o'rganilgan mahsulidir. Binobarin, din va an'ana birligi o'tmishimiz tarixi, kelajagimiz garovidir.

An'anaviy qadriyatlar zamonaviy dunyoviy jamiyatlarda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi va ichki siyosiy jarayonlarni barqarorlashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Nafaqat O'zbekiston jamiyati, balki butun jahon hamjamiyati, jumladan, tarixiy taqdiri mushtarak bo'lgan MDH davlatlari ham bu omilga alohida e'tibor qaratmogda. Hozirgi vaqtda postsovet hududida mamlakat yaxlitligini saqlash maqsadida an'anaviy qadriyatlarni modernizatsiya qilish jadal davom etmogda. Shu munosabat bilan aytish kerakki, radikal diniy oqimlar mafkurasining eng salbiy ta'siri an'anaviy ma'naviy-diniy qadriyatlarni parchalash orqali diniy ongni o'zgartirish jarayonidir. Zero, har qanday yot oqim jamiyatda shakllangan qadriyatlarni yo'q qilish orqali o'zini o'rnatishga yo'l ochadi. Bu esa, o'z navbatida, an'anaviy qadriyatlar bilan bir qatorda ichki barqarorlikning ham zaiflashishiga olib keladi. Binobarin, millatni shakllantirish, qadriyatlarni himoya qilish mamlakatning ichki barqarorligi va davlat poydevori yaxlitligini himoya qilishdir.

Diniy qadriyatlarning asosi tinchlik va totuvlikdir. Chunki faqat tinch-osoyishta hayot dindor kishiga Yaratgan oldidagi insoniy burchlarini bajarish imkonini beradi. Dunyoviy jamiyat nuqtayi nazaridan esa tinchlikning ahamiyati beqiyos. Din ham, dunyo ishlari ham faqat tinchlikda gullab-

yashnaydi. Buni anglash o'z navbatida vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalaydi, milliy g'oyalar sari yetaklaydi. Zero, tinchlik, barqarorlik va totuvlik faqat qonun, tartib va tizimga asoslangan yagona tuzilma – davlat doirasida o'rnatilishi mumkin. Shuning uchun ham islomda "Vatanni sevish iymondandir", deyiladi, dinga xizmat qilish yurtga xizmat sanaladi. Dinning ma'naviy salohiyati va asl mazmuni inson hayotiga chuqur ma'naviy mazmun baxsh etadi. Dinning faqat rasmiy tomoniga e'tibor qaratish va uning mazmunini nazardan chetda qoldirish – din tushunchasini cheklash, din institutlari doirasini toraytirish, uning hayotiyligi va moslashuvchanligiga sun'iy ravishda putur yetkazishdir. Binobarin, dinning ma'naviy qadriyatlari va salohiyatini to'g'ri baholab, undan to'g'ri foydalansak, jamiyatning ma'naviy saviyasi yuksaladi, dunyoviylikimiz yanada barkamol bo'ladi. Bu borada bevosita diniy bilimlar bilan bog'liq bo'lgan masalalarga e'tibor qaratish lozim. Kishilik jamiyati o'zining butun taraqqiyoti davomida ma'naviy kamolotga e'tibor qaratgan. "Komil inson" ideali barcha jamiyatlarga, barcha dinlarga xosdir. Zero, ma'naviy barkamol inson din nuqtayi nazaridan gunohdan, qonun nuqtayi nazaridan jinoyatdan uzoqlashadi, u eng yaxshi axloqiy g'oyalarga intiladi, insoniyat jamiyatining umumiy manfaati, yuksak ma'naviyatga xizmat qiladi. Shu boisdan ham Sh.O'.Axrorova "Ijtimoiy siyosat milliy qadriyatlar bilan uyg'unlikda diniy qadriyatlarlarning takomillashuvini ham hisobga olishi lozim. Chunki, birinchidan, diniy qadriyatlar milliy qadriyatlar elementlarisiz amal qilmaydi; ikkinchidan, ular o'z navbatida milliy qadriyatlar shakllanishiga ta'sir qiladi; uchinchidan, ularning aksari azaldan muayyan urug'-qabilalar an'alariga ilohiy tus berib, aqidaga aylantirilgan ko'rinishidir;

to'rtinchidan, diniy ta'limot qaysi hududda yaralgan bo'lsa, diniy qoidalarda o'sha hudud xalqlari milliy amal va qoidalarining namoyon bo'lishidir" [1.13] deb yozadi.

**XULOSA.** Binobarin, nafaqat axborot va targ'ibot sohasi mutaxassislari, balki diniy birlashmalar vakillari ham barcha dinlar, millatlar va insoniyat uchun umumiy bo'lgan ma'naviy qadriyatlarni har tomonlama targ'ib etishi zarur. Shu bilan birga, har bir ma'ruza, nasihatlarini bugungi jamiyatning o'ziga xos jihatlari, taraqqiyot darajasini hisobga olgan holda aytish zarurligiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Dinga nisbatan qattiq ta'qiq, ya'ni "Buni qilmasangiz, bo'lmaydi" kabilar bir tomondan nizolarni keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan dindan uzoqlashtiradi. Bugungi jamiyat saviyasi, talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda dinning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratish vaqti keldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ахророва Ш.Ў. Ўзбекистонда ижтимоий сиёсатни амалга оширишда миллий кадриятларнинг ўрни. Фалс. фан.бўй. фал. док. (PhD) дис. автор.. –Самарқанд, 2021. –Б.13.
2. Мадаминаова Н.З. Динийлик ва дунёвийлик конвергенцияси. Замонавий таълим. – Тошкент. 2018. № 9. – Б.23.
3. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. и др. Дальверзинтепе – кушанский город на юге Узбекистана. – Ташкент, 1978.
4. Эшанова Г.Н. Диний кадриятлар ва тасвирий санъат интеграциясининг шахс маънавиятига таъсири. Фалс. фан. ном. ...дис. автор.. – Тошкент, 2011. –Б.12.



## SUSTAINABILITY TRANSFORMATION: ISSUES FOR ENSURING SOCIETAL WELL-BEING THROUGH HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT

Saidkulov Nuriddin Akramkulovich, Associate Professor of Gulistan State Pedagogical Institute

## BARQARORLIK TRANSFORMATSIYASI: INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH ORQALI JAMIYAT FAROVONLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Saidkulov Nuriddin Akramkulovich, Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

## ТРАНСФОРМАЦИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО БЛАГОСОСТОЯНИЯ ОБЩЕСТВА ЧЕРЕЗ РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Саидкулов Нуриддин Акрамкулович, доцент Гулистанского государственного педагогического института



<https://orcid.org/0009-0002-7400-7451>

e-mail: [nuriddinsaidkulov89@gmail.com](mailto:nuriddinsaidkulov89@gmail.com)

**Abstract:** this article talks about the role of human capital in ensuring the development, stability and well-being of society and ways to develop human capital. As everyone knows, the issue of stability has always been a topical issue in the history of mankind. Ensuring the stability of the society was certainly done by relying on some criteria. Today, ensuring the stability of society depends on the development of human capital. Therefore, this article is based on the fact that human capital is a factor of ensuring the stability of society.

**Key words:** sustainability, community sustainability, human capital, development, active, inactive, negative human capital.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyoti, barqarorligi va farovonligini ta'minlashda inson kapitalining o'rni hamda inson kapitalini rivojlantirish yo'llari haqida so'z boradi. Barchaga ma'lumki, insoniyat tarixida barqarorlik masalasi har doim dolzarb mavzulardan bo'lib kelgan. Jamiyat barqarorligini ta'minlash, albatta qaysidir mezonlarga tayanish orqali amalga oshirilgan. Bugungi kunda jamiyat barqarorligini ta'minlash inson kapitali rivojlanganligiga bog'liq bo'lib bormoqda. Shu bois, ushbu maqolada inson kapitali jamiyat barqorligini ta'minlash omili ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** barqarorlik, jamiyat barqarorligi, inson kapitali, taraqqiyot, faol, nofaol, manfiy inson kapitali.

**Аннотация:** В данной статье говорится о роли человеческого капитала в обеспечении развития, стабильности и благополучия общества и путях развития человеческого капитала. Как известно, вопрос стабильности всегда был актуальным вопросом в истории человечества. Обеспечение стабильности общества, безусловно, осуществлялось с опорой на некоторые критерии. Сегодня обеспечение стабильности общества зависит от развития человеческого капитала. Поэтому данная статья исходит из того, что человеческий капитал является фактором обеспечения стабильности общества.

**Ключевые слова:** устойчивость, устойчивость общества, человеческий капитал, развитие, активный, неактивный, отрицательный человеческий капитал.

**INTRODUCTION.** One of the main tasks facing the socio-economic policy implemented in our country today is to ensure a comfortable lifestyle of the population and the direction of economic development. Macroeconomic stability achieved as a result of socio-economic policy and events in the real sector of the economy created an objective basis for sustainable development and solving social problems of the society. The main goal of development is to satisfy the material and spiritual needs of people, who are the real wealth of the nation.

**LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY.** In the years of independence, E.Yusupov, A.Ochildiyev, T.Mahmudov, S.Otamuratov, Sh.Pakhrutdinov, M.Kuronov, Q.Nazarov, R.Alimov, R.Samarov, N.Safarova, V.Kochkarov, U.Khasanov, U.Saidov, B.Umarov, N.Mamanazarov, O.Musayev, M.Kakhorova, T.Jorayev, O.Abdullajanov, O.Rahmatov, J.Najmiddinov, M.Bekmurodov, A.Mominov, U.Saidov, I.Saifnazarov, N.Safarova, B.Omonov, Sh.Kakhorova scientists have studied from the philosophical, political, sociological, historical point of view, the role of human capital in ensuring the stability of society, the composition, formation of human capital, and the problems of its effective use K.Kh.Abdurakhmanov, G.Akramova, E.B.Abdullayev, Sh.Kh.Mahmudov, M.M.Sodirjanov, M.J.Norqobilov, I.I.Toshpulatov, F.S.Qasimov and others have been widely studied in scientific researches. The article uses historicity, logicity, survey questionnaire, analysis, synthesis, external survey, comparative and empirical analysis, deductive and inductive observation methods and systematic approaches.

**DISCUSSION AND RESULTS.** As the role of man in the development of the economy was properly understood, the need to study him grew more and more, the scope and intensity of the research conducted in this regard increased. From this point of view, research on human development has expanded in recent years. Thus, in the conditions of fundamental economic and political changes, the development of human capital and the effective use of this capital are of great importance. Because the goal here is to reveal the factors affecting the development of social processes, to actively

influence the development trends of the process that assesses the state of solving all possible social consequences at the state level. In other words, the development of human capital and its effective use is one of the important directions of the active policy of our state.

In today's information society, the importance of human capital, its development trends, and its impact on society's stability are needed to be researched. Studying the impact of the problem of "human capital" on the stability of society, determining its goals and objectives is becoming an important object of scientific research in prestigious scientific research institutes and centers of the world. Also, the need to study the issues of comprehensive development of human capital is promoted in these scientific researches.

The problem of human capital has become one of the most studied topics of economic theories in recent years. Interest in studying this problem is increasing day by day. Despite the increasing importance of human capital, which is a criterion of economic development, there are certain difficulties in fulfilling the priority tasks announced in terms of its development, which makes it necessary to revise those priorities based on the requirements of the time. brought about. Of course, all these processes took place as a result of the synthesis of new theoretical approaches and existing historical experience.

Cultivation of human capital in any country depends on its structure. This is due to the line created for the revolution of its elements. This means, first of all, the attention paid to science, the level of education, and the human factor in general. Developed countries have achieved high indicators both in the economic sphere and in terms of the level of scientific and technical progress, because they constantly pay attention to the development of education and allocate sufficient funds. In the modern global world, the development of the science-intensive economy, scientific-technical and social development in various countries depends more on the quality indicators of the national education system and the state of the potential of scientific personnel.



It depends on the number of quality managers managing the changes taking place in the economic system in the context of reforms. All these together reflect the state of human capital in a country. The above makes the study of the concept of human capital as a new category relevant.

According to its reflection in social life, the following types of care of the state and society in our country, attention paid to human capital, investments directed to it can be distinguished:

- Active human capital.
- Inactive human capital.
- Negative human capital [1.-P.14].

Active human capital describes creative and innovative capital capable of contributing to the development of society by serving the interests of loved ones as a person who has fully mastered the investments made for him.

Inactive human capital – this type of human capital does not contribute to the development of the country. Inactive human capital has a consumer character.

Negative human capital, as the name implies, is a category that does not bring any benefit to the development of the family, society, country, does not contribute to economic growth, does not seek to improve living conditions, and personal development.

Today, there are various methodological approaches to the implementation of human capital to increase the standard of living of the population around the world, not only the generally recognized approaches to the study of human capital in order to ensure stability, but also the socio-political, economic and social aspects of any country. The problem of applying the principles that express spiritual and cultural characteristics is also becoming one of the priority issues. The socio-political reforms implemented in this regard have improved over the past quarter of a century, and the need to research the phenomenon of human capital in modern conditions is gaining urgent importance.

Focusing on the reforms implemented in our country to increase the standard of living of the members of the society depends on the growth of the real income of the population and the improvement of the quality of living conditions. "...the effect of the economic reforms and social changes that we are implementing is measured, first of all, by the extent to which they affect the material condition and well-

being of the population, its level and quality of life" [2.-P.17]. From this point of view, the improvement of the quality of life of the population of our country directly depends on the level of development of human capital.

In our country, the issues of "development of human capital and mobilization of all opportunities for this" [3], in particular, development of continuous education system, strengthening of population's health and creation of decent working conditions are gaining importance. In the strategy of innovative development of the Republic of Uzbekistan in 2019-2021, "the development of human capital is defined as the main goal and the main factor determining the level of the country's competitiveness in the international arena and its innovative development, and by 2030 it will be among the 50 most advanced countries in the world according to the Global Innovation Index rating. To reach the ranks of the country, to increase the quality and coverage of education at all levels, to develop the continuous education system, to ensure the flexibility of the personnel training system to the socio-economic needs, as well as to create conditions for the wide introduction of innovations"[4] such tasks are defined. At the same time, during the dialogue of the President with representatives of science, the importance of the task of establishing a personnel training system based on scientifically based experience [5] was emphasized. In the effective implementation of these tasks, it is important to deepen scientific research in areas such as improving the system of evaluating human capital and its structural elements, researching the scientific and methodological bases of the influence of human capital on the innovative formation of all areas, identifying and improving opportunities for the development of human capital in the republic. becomes important.

**CONCLUSION.** A number of scientific studies are being conducted on the development of human charity to ensure stability in the world, including the following priority directions: the genesis of the concepts of human charity, social charity and intellectual charity, the mechanism of modern movement, political goals, and the impact on social and international relations. In terms of improving the wide implementation of democratic values and humane ideas in our social life as the moral basis of human charity, including the

following: the current stage of the country's development is the most important social and the problem of formation of civil society and legal-social state as political institutions; in the context of globalization, the question of the need to develop concerted foundations for the study of democracy and human charity leads to the formation of an interdisciplinary approach to the study of human charity and the integration of scientific knowledge in this field; scientific problems related to the importance of theories about human charity and its formation today are considered a priority.

#### REFERENCES:

1. Усмонов Б.Ш., Қодиров М.Қ.,  
Элтазаров Ж.Д. Инсон капиталининг

шаклланишида таълим ва илм-фаннинг роли. Илмий-оммабоп рисола. – Тошкент, 2015. – Б. 14.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 17.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси <https://president.uz/uz/lists/view/2228>.

4. Инновацион ғояларни илм-фан ва саноатга кенг татбиқ этиш – ислохотлар самарадорлигининг бош мезони / Халқ сўзи, № 107 (7337). 25 май 2019 йил.



## FALSAFADA O'LIM HAQIDAGI TASAVVURLARNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI

**Madalimov Timur Abduvaliyevich**  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

## ЭВОЛЮЦИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О СМЕРТИ В ФИЛОСОФИИ

**Мадалимов Тимур Абдувалиевич**  
Доцент Чирчикского государственного педагогического  
университета

## EVOLUTION OF THE FORMATION OF IDEAS ABOUT DEATH IN PHILOSOPHY

**Madalimov Timur Abduvalievich**  
Associate Professor of Chirchik State Pedagogical University

**Annotatsiya:** Maqolada falsafa tarixida o'lim haqidagi qarashlarning shakllanishi tarixi ko'rsatilgan. Bunda o'limga nisbatan nafaqat psixologik yondashuv, balki falsafiy va diniy yondashuvlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'lim, tanatologiya, krematsiya, ruh, evtanaziya

**Аннотация:** В статье показана история формирования взглядов на смерть в истории философии. Дан не только психологический подход к смерти, но также философский и религиозный подходы.

**Ключевые слова:** смерть, анатомия, кремация, душа, эвтаназия.

**Abstract:** The article shows the history of the formation of views on death in the history of philosophy. Not only a psychological approach to death, but also philosophical and religious approaches are given.

**Key words:** death, tanatology, cremation, soul, euthanasia.

### KIRISH

Inson qaysi jamiyatda yashamasin, xoh u rivojlangan bo'lsin yoki rivojlanmagan o'lim masalasi doimo aktual hisoblanadi. O'lim to'shagida yotgan odamni ko'rish insonni junbushga keltiradi. O'lim insonning hayotda mavjudligi isbotlovchi element sifatida talqin qilinadi. O'lim jamiyatning madaniyati va rivojlanish darajasidan qat'iy nazar insonni qo'rqitadi. Tadqiqotchi M.P.Asafaylo o'lim fenomeneni ko'rib chiqib, uni e'tiqodlar va

marosimlar bilan bog'liq bo'lgan jamoada shakllangan deb hisoblaydi. "Insonning o'lim haqiqati va shu bilan birga hayotga intilishi, ruh va o'limdan keyingi ruhni rivojlantirish uchun jiddiy turtki bo'ladi" deb aytgan. Shunday qilib, o'lim bilan bog'liq e'tiqod va marosimlar doim insonlarga o'lim yaqinligini biladigan odamga ham tirikligida o'z yaqinlarining o'limini kutayotganlarga ham chuqur ta'sir qilishi mumkin. O'lim barchani



[t.madalimov1991@mail.ru](mailto:t.madalimov1991@mail.ru)

+998977011373

<https://orcid.org/0000-0001-9589-514X>

qo‘rqitgan, balki shuning uchun bo‘lsa ham dastlabki odamlar madaniyatida o‘liklar tabusi bo‘lgandir.

## **MAVZUNING DOLZARBLIGI VA HOZIRGI HOLATI**

Ibtidoiy jamoalar jamiyatda o‘z ajdodlari bezovta qilmasliklari uchun ko‘plab marosimlarni yaratganlar, hattoki bunday marosimlarda o‘liklarning ismlarini ham esga olishmagan. Zigmund Freyd o‘zining “Totem va tabu” asarida bunga shunday fikr bildirgan: “Ular hatto mayit tiriklik paytida yaxshi odam bo‘lishiga qaramay, vafotidan keyin yovuzga aylanib, o‘z qarindoshlari va yaqinlariga zarar yetkazmoqchi bo‘lgan vurdalakka aylanadi” deb ishonishgan. Ehtimol murdaning inson ko‘z-o‘ngida nafaqat ruh balki, yovuz ruh haqidagi g‘oyalarni keltirib chiqargan bo‘lishi mumkin. Lekin bir savol turli tadqiqotchilar orasida muhokama qilinadi. Inson vafot etgandan so‘ng nega u yerga ko‘milishi haqida masala doimo bahsli bo‘lib kelgan. Tarixchilar aytadiki, bu an‘ana o‘rta paleolitdan beri mavjuddir. E.Mirchaning aytishicha, bu marosim faqatgina amaliy maqsadlarni ko‘zlab emas, yana qandaydir falsafiy ma‘no anglatmay qolmagan. Slavyanlarning ba‘zi qabilalarida inson vafot etganidan keyin uni embrionsimon ko‘rinishda ko‘mish odat tusiga kirgan. Buning sababi shundaki, insonni paydo bo‘lishi uning vafoti bilan mutanosib bo‘lishi kerak deb taxmin qilish mumkin.

Inson vafot etganidan keyin uni yerga ko‘milishining hozirgi zamon bir nechta konsepsiyalari mavjud:

Gigiyenik sabab. Bu determinizmga ko‘ra, jasadni yerga ko‘mish marhumning tanasidan aholi salomatligiga xavf tug‘diruvchi kasalliklar va mikroorganizmlar tarqalishini oldini oladi. Bundan tashqari murdalarning qoldiqlari sochilib ketishidan asraydi.

Diniy va madaniy faktorlar. Ko‘pgina diniy an‘analarda jasadni yerga ko‘mish ruhiy holat deb qaralgan. Masalan, xristianlik va islomda inson jasadini ko‘mish odat tusiga kirgan.

Marhumni eslash va uni xotirasini e‘zozlash. O‘likni yerga ko‘mish marhumning xotirasini e‘zozlash va uning ruhiga hurmat izhor etish usuli hisoblanadi. Qabristonlarda ularni ziyorat qilish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Qonunlar va ijtimoiy qoidalar sabab. Ko‘pgina mamlakatlarda va mintaqalarda marhumning jasadini yerga ko‘mish masalasida

qonun qoidalar mavjud. Bu jamoat xavfsizligi, atrof-muhit yerdan foydalanishni tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Dafn marosimining paydo bo‘lishi insonlarga narigi dunyo haqidagi qarashlarni butkul rivojlantirdi. Ushbu g‘oyalarni ko‘plab topilmalar tasdiqlaydi. O‘lim ibtidoiy shaxs nazarida olamni tartibga soluvchi element maqomini oldi, shu sababli Y.Antonyan “o‘lim ibtidoiy jamiyat hayotida yaralish va tug‘ilish uchun sehrli kuch sifatida talqin qilinadi”

Narigi dunyo va oxirat haqidagi tasavvurlar ruh haqidagi tasavvurlar bilan parallel ravishda paydo bo‘lgan deyish mumkin. Sababi, insonda ruh haqida tasavvuri uni keyingi hayotga bo‘lgan intilishini oshiradi. Bundan tashqari inson hayotni kuzatar ekan, beixtiyor o‘zining yerdagi hayotining mohiyati va ma‘nosi haqida o‘ylaydi. Balki shu jarayon insonda dastlabki diniy dunyoqarashdan falsafiy dunyoqarashga transformatsiya qilganini bildirar. O‘lim insonning jismoniy hayotini to‘xtatib, ibtidoiy odamlarga ruhning timsolini yaratishga harakat qilgan. Y. Antonyanning xulosalariga keladigan bo‘lsak, aynan ruh insonning o‘limdan keyingi qo‘rquvini yengish imkoniyatini beradi. Asta-sekin insonning jon haqidagi universal g‘oyadan voz kechishi, insonlarda “hayot” tushunchasini manbaini qidirishga yordam beradi. Shunday qilib, inson ongida jonli va jonsiz tabiat tushunchasi vujudga keladi va hayotiylik manbalari asosida g‘ayritabiiy mavjudotlar - jon va ruh obrazlari shakllanadi. Ibtidoiy odamlar nazdida uni faqat oliy insonlargina ko‘ra oladi. E.Mircha o‘z tadqiqotlarida shu orqali inson va ruh o‘rtasidagi vositachi shaman haqida fikr bildirib uni ilk paleolit davrida paydo bo‘lganini anglatadi.

Britaniyalik sotsiolog Jorj Fruyzer o‘z xulosalarini xalqlarning ibtidoiy taraqqiyot bosqichidagi kuzatishlariga asoslanib, shunday fikrni ilgari suradi- “Ibtidoiy davrda ruh sof ma‘naviy obyekt hisoblanmagan u moddiy asosga ega bo‘lgan”, degan xulosaga keladi. Ya‘niki, u har bir mavjudot ichida moddiy ko‘rinishda yashaydi deb hisoblagan. Agar tirik mavjudot yashasa va harakat qilsa, bu ibtidoiy odamning fikriga ko‘ra, uning ichida qandaydir kichik “hayvon” yashaydi deb hisoblaydi va bu tiriklik jon deb ataladi. Jonsiz narsalarga jon kiritish bu insonga xos tushunchadir. Chunki insoniyat qadimgi yunon afsonalariga ishonib kelgan. Shu orqali insonda animistik fikrlash

paydo bo‘ladi. Ba’zi mutaxassislar esa ruh g‘oyasini instinktiv xususiyatga ega deb hisoblagan. Bu esa insondagi dastlabki dunyoqarash animizm asosida vujudga kelganidan dalolat beradi.

Tadqiqotchi Stankelevich esa insondagi animistik qarashni - insonni tiriklik manbaini qidirish bilan baholagan. Ya’ni yurak urishi, nafas olish, miya faoliyati va qon bilan baholagan. Ular qonni shunchaki qon emas balki, ruh-qon, nafasni esa ruh-nafas deb ta’kidlagan. Ularni nazdida inson qonida va nafasida tiriklik substansiyasi yotadi. Tirik mavjudotlarning ruhi haqidagi g‘oyalar insonni o‘rab turgan barcha jismlarda oddiy sharoitda ko‘rinmaydigan g‘ayritabiiy mavjudotlar - ruhlar borligiga ishonishadi. Odatda inson uyquga ketganda yoki bo‘lmasa hushidan ketganda ruh tanadan chiqib ketadi deyiladi. Shuning uchun ham Afrikaning ba’zi qabilalarida inson uyquga ketganida unga rasm chizish mumkin emas, chunki ruh qayta kelib, o‘z tanasini tanimay qoladi va tanaga qayta kira olmaydi deb o‘ylashgan. Bundan tashqari ruhni arvoq va sehrarlar o‘g‘irlab ketmasligi uchun unga doim in’omlar va marosimlar o‘tkazilib turilgan. Bu an’anani biz tadqiq qilayotgan hind falsafasida ham uchratishimiz mumkin. Masalan, Brahmanizmda xudo brahman va ajdodlar ruhi uchun hattoki insonlar ham qurbon qilingan. Dastlabki insonlar tasavvurida esa inson hech qachon o‘z ruhiga to‘laqonli egalik qilmagan. Chunki ularni tasavvurida ruh abadiydir. Inson doimo o‘limdan qochib yashashi hamda tananing ruhga nisbatan jismonan imkoniyati cheklanganligi uni shunday xulosa chiqarishga majbur qilgandir. Deyarli barcha dinlarda ruh abadiy hisoblanadi, lekin nima uchun uning abadiyligi isbotlanmagan. Ruhning abadiyligi uchun yana bir argument shundan iborat ediki, insonlar tushlarida vafot etgan yaqinlarini ko‘rgandan so‘ng bunday fikrga borganlar. “Ruh abadiy bo‘lmasa unda inson tushiga kirmas edi”.

Asli armanistonlik bo‘lgan shifokor Jek Kevorkyan insonlarda bo‘ladigan tuzalmas kasalliklar yoki gerontologik holatlarni hisobga olib, XX asr o‘rtalarida evtanaziya populizatsiyasi tufayli bir necha bor hibsga olingan. Pragalik psixiatr Stanislav Grof o‘zining “O‘lim yoqasidagi inson” asarida o‘limni “ijtimoiy hodisa” deb baholagan. Bu ta’rif balki o‘limga nisbatan pragmatik munosabatlar avj olganidan dalolat beradi.

Dastlabbiy biologiya va meditsinada ishlatilgan ushbu tanatologiya fani keyinchalik XX asr boshlariga kelib uni falsafiy yo‘nalish sifatida o‘rganish boshlandi. Eng avvalo uni tarixini o‘rganish masalasi boshlandi. Bu ayniqsa R.Kostenbaumning asarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning kelib chiqishi turli xalqlar va madaniyatiga borib taqaladi. Biroq u fan sifatida rivojlanishi ancha keyin edi. Lekin o‘lim haqidagi tasavvur insonlarda dastlab mifologik ko‘rinishda bo‘lganligini hech kim inkor etmaydi. Tanatologiyadagi mifologik yondashuv turli madaniyatlar va jamiyatlarning afsonalari, diniy etiqodlari va tasavvufiy tasvirlari orqali o‘limni tushunish va o‘rganishni anglatadi. Mifologiya va din aynan o‘limga munosabatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Uning mohiyati, oqibatlar va ma’nosini turlicha izohlaydi. Mifologiya, din va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni ham hisobga oladi. Afsonalar va diniy etiqod o‘limning madaniy va ijtimoiy jihatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan: motam marosimlari, o‘lim marosimlari va vidolashuv marosimlari va h.k.

#### **XULOSA**

Umuman olganda tanatologiyaning paydo bo‘lishi boshqa fanlar va madaniyatlar tamoyillariga ta’sir etmay qolmadi. Shuni barobarida o‘zi ham yangi tamoyillarga asos soldi. Ular quyidagilardan iborat:

Biz tadqiq qilayotgan qadimgi falsafada esa, bu masalaga jiddiy yondashiladi. Masalan ular ruhga nisbatan “onglilik” xususiyatiga ega deb ataladi. Buddaviylik ta’limotida bir hayot tugagandan keyin ikkinchi hayot boshlanadi deb ataladi. Insonning bu dunyoda qilgan gunohlari uchun keyingi hayotida javob berishi aytilgan. O‘zbekiston sharoitida evtanaziya faqatgina ayrim hollarda hayvonlarga nisbatan qo‘llanilsa, hind falsafasida aksincha hayvonlarni nafaqat o‘ldirish balki ularga ozor berish ham ta’qiqlanadi deb ta’kidlab o‘tilgan. Bu orqali hindlar hayvonlarda ham ongli “ruh” mavjudligini inkor etishmagan. Brahmanizmga ko‘ra esa insonlarning umri ularning baxt-saodati ularga qilingan qurbonlik bilan bog‘lanadi. Upanishadlarda esa o‘lim va ruh tushunchalari bevosita “brahman” tushunchasi bilan tushuntiriladi. Barcha narsa brahman bilan boshlanadi va u bilan tugaydi. Bu jarayonda brahmanga Atman tushunchasi ham yordam beradi. Insonning taqdiri bevosita karma qonunlari va sansara charxpalagi bilan bog‘liqdir.

Hozirgi kunda ruh haqida tushunchalar turli sohalarda turlicha qo'llaniladi. Uning yakdil sinkretik tushunchasi yo'q. Shuning uchun barcha xalqlarda u turlicha yondashuvga ega. Hozirgi kunga kelib esa u axloq tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelmoqda.

#### REFERENCES

1. Асафайло М.П. Формирование представлений о душе в древнеиндийской философии. Дис. М.; 23 с.

2. Freyd Z. Totem und tabu. Berlin.-1975. – p. 234.
3. Мирча Э. История веры и религиозных идей. – М.: 1976. – С. 23.
4. Антонян Ю. Миф ва вечность. – М.: 1955. – С. 375.
5. Sigstedt C. The Swedenborg Epic. The Life and Works of Emanuel Swedenborg. – New York.: Bookman Associates, 1952. – p. 48.



## TALABA SHAXSI POZITSIYASI RIVOJLANISHI VA NAMOYON BO‘LISHI XUSUSIYATLARI

Muratova Fotima Normaxmat qizi, Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi

## FEATURES OF THE DEVELOPMENT AND MANIFESTATION OF THE POSITION OF THE STUDENT PERSONALITY

Muratova Fatima Normakhmat qizi, teacher of the Department of “Social Sciences” of the Tashkent University of Economics and Technology

## ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ И ПРОЯВЛЕНИЯ ПОЗИЦИИ ЛИЧНОСТИ СТУДЕНТА

Муратова Фатима Нормакхмат кызы, преподаватель кафедры “Общественные науки” Ташкентского университета экономики и технологий

**Annotatsiya:** Bugungi kunda zamonaviy qarashlar ilgari surilgan jamiyatda subyektiv hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan odamlarga yuqori ehtiyoj mavjudligi, faol, mas’uliyatli, ijodiy, barkamol, o‘z hayotidagi voqealarni boshqarishga qodir, o‘zini va atrofdagi haqiqatni faol ravishda o‘zgartira oladigan shaxs talab qilinadi. Bugungi kunda zamonaviy fan qarashlarida shaxs ijtimoiy-madaniy hayotning subyektivi, individual tamoyilning tashuvchisi sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda “shaxs” deganda quyidagilar tahlil qilinadi:

- 1) shaxs – munosabatlar va ongli faoliyat subyektivi sifatida;
- 2) shaxs – muayyan jamiyat yoki jamoaning a’zosi sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlarning barqaror tizimi sifatida tushuniladi.

**Kalit so‘zlar:** shaxs, pozitsiya, subyektiv, jamiyat, kognitiv ichki pozitsiya, emotsiya, konsepsiya, frusturatsiya.

**Abstract:** Today, in a society where modern views are promoted, there is a high need for people who have a subjective life position, who are active, responsible, creative, competent, able to control the events of their lives, actively change themselves and the reality around them. person who receives is required. Today, in the views of modern science, a person is considered as a subject of socio-cultural life, a carrier of the individual principle. In scientific literature, the following are analyzed by “person”:

- 1) a person – as a subject of relationships and conscious activity;
- 2) a person is understood as a stable system of socially significant characteristics as a member of a particular society or team.

**Key words:** person, position, subjective, society, cognitive internal position, emotion, concept, frustration.



<https://orcid.org/0009-0001-5373-4396>

e-mail:  
narmuhammadovnaad@gmail.ru

**Аннотация:** Сегодня в обществе, где пропагандируются современные взгляды, высока потребность в людях, имеющих субъективную жизненную позицию, активных, ответственных, творческих, компетентных, умеющих контролировать события своей жизни, активно меняющих себя и реальность. Сегодня в взглядах современной науки человек рассматривается как субъект социокультурной жизни, носитель индивидуального начала. В научной литературе по “человеку” анализируются:

1) человек – как субъект отношений и сознательной деятельности;

2) человек понимается как устойчивая система социально значимых характеристик как член определенного общества или коллектива.

**Ключевые слова:** человек, позиция, субъективное, общество, когнитивная внутренняя позиция, эмоция, концепт, фрустрация.

**KIRISH.** Psixologiyadagi pozitsiya masalasida nazariy qarashlarning biri subyektiv yondashuv hisoblanib, unga ko‘ra, ontogenezda individual subyektivlikning rivojlanishi obyektivlikni engib o‘tish bilan tavsiflanadi, degan fikrni ilgari suradi. Ilmiy izlanuvchilar qarashlarida ontogenezda subyektiv pozitsiya rivojlanishi ko‘rib chiqilib, bunda subyektivlikning rivojlanishi bilan obyektivlikni yengish kuzatilgan[12]. Bunga asoslangan holda aytish mumkinki, insonga ta’sir qiluvchi tashqi muhit to‘siqlarini psixik jihatdan yengishga tayyor bo‘lish talabalaridagi pozitsion qarashlar bilan bog‘liq ekanligini e’tirof qilish mumkin. Subyektivlikni rivojlantirishda shaxsning psixologik fazilatlarini to‘plami, shuningdek, u o‘z faoliyatini namoyon etadigan hayot sohasi katta ahamiyatga ega. Subyektivlikni rivojlantirish uchun bu shartning ahamiyati A.V.Olim sharhlab, subyektivlikni tarixiy va individual rivojlanish jarayonida shakllangan shaxsning murakkab va qarama-qarshi sifatlarining tizimli yaxlitligi deb ta’riflagan. Shaxs tug‘ilmaydi, balki muloqot, faoliyat va boshqa faoliyat turlari jarayonida subyektga aylanishi bir qator adabiyotlarda tahlil qilib o‘tilgan[12].

Oliy o‘quv yurti talabasining pozitsion yo‘nalishini o‘rganishda biz shaxs munosabatlari tushunchasiga tayandik, uning asosiy vazifasi shaxsni munosabatlari orqali ongli ravishda tartibga solishni o‘rganishdir. Fikrimizcha, talabalik pozitsiyasi ularning o‘ziga va umuman atrofidagi dunyoga barqaror qarashi va qadriyatlarini tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi. Biz munosabatlar psixologiyasining asosiy pozitsiyasiga yondashgan holda aytishimiz mumkinki, har qanday vaqtda insonning shaxsiyati, psixikasi va ongi obyektiv voqelikni aks ettirishning birligini va shaxsning unga

bo‘lgan munosabatini, shaxsning ajralmas tizimini ifodalaydi.

Zamonaviy qarashlar ta’sirida psixologik yondashuvlarda hayotiy pozitsiya shaxsning subyektiv xususiyati sifatida taqdim etiladi. Xususan, S.L.Rubinshtein pozitsiyani hayotga, dunyoqarashga aniq ifodalangan munosabat sifatida belgilab beradi. O‘z hayotini, faoliyatini amalga oshirish usullari va harakat qilish uslublari shaxsiyatni tavsiflashini bildiradi[11]. Demak, talaba faoliyati ijobiy munosabatlarga asoslansa, uning harakat qilish uslublari va motivatsiya sohasi ham yutuqlar sari qadam tashlashda katta o‘rin egallaydi. Talaba hayotida salbiy munosabatlar va idrok tizimi shakllanishiga ko‘ra, yutuqlarga erishishda irodaviy soha rivojlanishi muhimligini ta’kidlash mumkin.

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR**

**TAHLILI.** Psixolog A.N.Leontyev ushbu konsepsiya haqida fikr bildirib, hayotiy pozitsiya natija emas, balki shaxs va uning ongini rivojlantirishning zaruriy sharti ekanligini ta’kidlaydi[7]. Bunga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, talabalik pozitsiyasining shakllanishida uning psixik rivojlanish darajasi ham ahamiyatli bo‘lib, talaba idroki katta ahamiyatga egadir.

L.I.Bojovich esa o‘z ishlarida insonning “ichki pozitsiya” tushunchasini kiritib, hayotiy pozitsiyani insonning butun hayoti jarayonida shakllanadigan, amalda bo‘lgan barcha munosabatlarining ma’lum bir tizimi sifatida belgilaydi[5]. Demak, ta’lim-tarbiya jarayoni ham talabalarda pozitsion o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, ulardagi maqsad va rejalarini amalga oshirishda dasturilamal vazifasini ham bajaradi. Aytish mumkinki, o‘quv yili boshida talabalarda ko‘tarinki kayfiyat, oliy o‘quv yurtiga kirganidan zavq-shavq tuyg‘usi kuzatilsa, ta’limning shart-sharoiti,



mazmuni, mohiyati, kun tartibi, muayyan qonun va qoidalar bilan yaqindan tanishish natijasida uning ruhiyatida o'zgarishlar ham kuzatiladi. Talabaning bu jarayonga moslashishdagi qiyinchiliklar ichki va tashqi omillar ta'siri oqibatida kelajakka ishonchsizlik, ikkinchidan hadiksirash kabi salbiy his-tuyg'ular namoyon bo'ladi. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish, ta'lim jarayonida talabaga o'ziga xos munosabatda bo'lish ulardagi pozitsion yondashuvda ham aksini topadi.

Tadqiqotchi Abulxanov-Slavskaya hayotiy pozitsiya nafaqat hayotga subyektiv munosabatning mavjudligi, balki ularni samarali amalga oshirish sifatida ham namoyon bo'lishini ta'kidlagan[1]. Demak, talabalardagi xatti-harakatlar tizimi ham uning "talabalik pozitsiyasi" ta'sirida, talabalikning qay darajada idrok qilinishi bilan bog'liq ekan.

Insonning hayotiy pozitsiyasi tushunchasi B.F.Lomov tomonidan ham talqin qilingan bo'lib, ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida yondashilgan. Unga ko'ra, hayotiy pozitsiya subyektiv munosabatlarni belgilashi, subyektning o'z hayotida atrofidagi odamlar bilan munosabatlarni tashkil qilishning barqaror, tipik usullari ekanligi, (u qarama-qarshiliklardan qochadimi, ularni yumshatadimi yoki aksincha, keskinlashtiradimi) va shaxsiyatning "inson qabul qiladigan munosabatlari" sifatidagi yo'naltirilib, rivojlanishiga hissa qo'shishi bildirilgan[1]. Shularga asoslangan holda aytish mumkinki, talabalardagi muvaffaqiyatga intilish yoki mutaxassislikda doimo ham o'z o'rnini topa bilmaslik kabi sabablar ulardagi qabul qilingan munosabatlar tizimi bilan bog'liq ekan. Tadqiqot ishimizda talabalardagi pozitsion yondashuvda ijobiy munosabatlarni rivojlantirish masalasiga korreksion dasturimizda alohida e'tibor qaratganmiz.

A.G.Asmolov hayotiy pozitsiya tushunchasi shaxsning tashqi va ichki, ruhiy haqiqatini bog'lashini ta'kidlagan[2]. Demak, shaxsiyat rivojlanish tizimi uning olamidagi mavjud ishongan yoki kutilgan natijalarga erishishni xohlagani sababli harakatlar tizimi rivojlanib borarkan.

D.A.Leontyevga ko'ra, shaxsning hayotiy pozitsiyasi o'z hayotiga munosabati sifatida belgilanishini bildiradi[8].

Shuni ta'kidlash kerakki, bir qator psixologlar hayotiy pozitsiya tushunchasini insonning obyektiv xususiyati sifatida talqin qilishadi.

B.G.Ananyev shaxsning hayotiy mavqeyi mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan belgilanishi, uning ma'lum bir ijtimoiy tuzilishdagi o'rni obyektiv jamiyatdagi maqomiga bog'liq, deb ta'kidlagan[3]. Shu asosda aytish mumkinki, talabalar ham o'z faoliyatlarida atrofdagi munosabatlar, kutuvlar va natijalar asosida o'ziga nisbatan bahoni shakllantirar ekan, bu jarayonni tashkil qilishda ular uchun muhim jihatni hisobga olish zarurati tug'iladi.

G.M.Andreevaga ko'ra, shaxsning mavqeyi uning ma'lum bir ijtimoiy guruhdagi o'rnini belgilaydigan ijtimoiy maqom tushunchasiga yaqindir[4].

B.D.Parygin hayotiy pozitsiyani shaxsning ijtimoiy mavqeidan kelib chiqadigan ijtimoiy normalar va qoidalar tizimiga umumiy munosabati sifatida belgilanishini aytadi[9]. Demak, talabalar kursi, mutaxassislik yo'nalishi va kelajakdagi ish o'rnining belgilanishiga asosan ulardagi pozitsion qarashlar ham o'zgarib turadi.

I.S.Kon esa "ijtimoiy pozitsiya" tushunchasini qo'llab, uni munosabatlarning ijtimoiy tuzilishidagi o'rni sifatida tavsiflaydi. Tadqiqotchi fikriga ko'ra, odam bir vaqtning o'zida bir nechta pozitsiya, rollarni egallashi mumkin: oila, professional [6]. Talabalar yangi jamoadagi vaziyat, tevarak-atrofdagilar bilan munosabatlar, oliy ta'lim tizimidagi shart-sharoit va talablari ulardagi imkoniyatlarini baholashga, o'zining shaxsiy xususiyatlarini, o'ziga nisbatan qo'yilayotgan talablarga javob bera olishi yoki javob bera olmasligi nuqtayi nazaridan anglashga olib keladi. Bu qarashlar tizimi har bir kurs kesimida shakllanib, rivojlanib boradi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Oliy ta'lim o'quv yurti talabalari pozitsiyasining shakllanishiga asoslangan faoliyatni tashkil qilinish muammolari bo'yicha psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish orqali shuni aytish mumkinki, faoliyatning subyektiga aylanish nafaqat uni o'zlashtirish, balki ushbu faoliyatga shaxsiy munosabatni ifoda etish imkonini beradi. Talaba pozitsiyasi ichki faoliyatda, ya'ni uning o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi anglash, o'z-o'zini takomillashtirish, introspeksiya, o'z faoliyatini tuzatish va boshqa jarayonlarda ishtirok etishida ifodalanadi.

Nazariy yondashuvlarni tahlil qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash mumkinki, "subyektiv hayotiy pozitsiya" tushunchasi ham ma'lum bir kategoriyalar

orqali izohlanadi va tushuniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu tushunchalardan foydalanish uning mazmuniy mohiyatini aks ettirganda, shaxsning hayotiy pozitsiyasi subyektiv bo'lgan, ya'ni passiv holatda ham bo'lishi mumkin. Inson unga faol munosabatda bo'lganidan yashashi, barcha hodisalarni oddiy deb qabul qilishi, o'z hayoti uchun alohida maqsad va ma'nolar qo'ymasdan ham yashashi mumkin. O'z navbatida izohlash mumkinki, "subyektiv pozitsiya" toifasidagi insonlar o'z hayotiga umumiy jihatdan emas, balki individual jihatlari, masalan, kasbiy faoliyatga, shaxsiy munosabat subyektini sifatida harakat qilish qobiliyatini namoyon qilishi mumkin.

"Subyektivlik", "hayotiy pozitsiya", "subyektiv pozitsiya" tushunchalari nazariy yondashuvlarni birlashtirib, "shaxsning subyektiv hayotiy pozitsiyasi" tushunchasining ta'rifini tahlil qilsak: subyektiv hayotiy pozitsiya – bu ajralmas xususiyatdir. Shaxsning hayotiy maqsadlari, vazifalarini belgilash, hayot istiqbollari aniqlash, hayotiy qiyinchiliklarni samarali hal qilish, o'zini va atrofdagi voqelikni o'zgartirishdagi ongli faoliyatini o'z ichiga olgan subyektiv munosabatlar majmuida namoyon bo'ladi. Bu qarashlarga asoslanib, biz shaxsning subyektiv hayotiy pozitsiyasi shaxsning ajralmas psixologik xususiyati ekanligi haqidagi g'oyani ilgari surish mumkin. Uning tarkibiy qismlari sifatida esa kognitiv, motivatsion, affektiv, tartibga solish va faoliyat sohasi katta o'rin egallashini aniqladik.

Bugungi kunda zamonaviy fan qarashlarida shaxs ijtimoiy-madaniy hayotning subyektini, individual tamoyilning tashuvchisi sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda "shaxs" deganda quyidagilar tahlil qilinadi:

1) shaxs – munosabatlar va ongli faoliyat subyektini sifatida;

2) shaxs – muayyan jamiyat yoki jamoaning a'zosi sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarning barqaror tizimi sifatida tushuniladi [10].

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. М.: Мысль, 1991.
2. Асмолов А.Г. Психология личности. М.: Смысл; Изд. центр Академия, 2010.
3. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – СПб.: Питер, – 2001.
4. Андреева Г.М. Социальная психология: учебник / Г.М. Андреева. – Издание 5-е, исправленное и дополненное. – Москва: Аспект Пресс, – 2010.
5. Божович Л.И. Проблемы формирования личности: Избранные психологические труды. 2-е изд. М.: Воронеж: МПСИ, 1997.
6. Кон И.С. Социологическая психология: Избранные психологические труды. М.: Воронеж: МПСИ, – 1999.
7. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Мысль, 1965.
8. Леонтьев, Д.А., Шильманская, А.Е. Жизненная позиция личности: от теории к операционализации / Д.А. Леонтьев, А.Е., Шильманская // Вопросы психологии. – 2019 – №1. – С. 90–100.
9. Парыгин Б.Д. Социальная психология. Проблемы методологии, истории и теории. СПб.: ИГУП, – 1999.
10. Педагогический энциклопедический словарь / гл. ред. Б.М. БимБад., ред. кол.: М.М. Безруких, В.А. Болотов, Л.С. Глебова и др. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – 528 с.
11. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2012.
12. Селезнева, М.В. Сравнительный анализ понятий «субъект» и «субъектность» в зарубежной психологии / М.В. Селезнева // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Психология и педагогика. – 2015 – № 2. – С. 47–53
13. <https://en.unesco.org/themes/teachers>

## TRASEKA LOYIHASI VA UNING DASTLABKI FAOLIYATI

Ozodbek Radjabov, O‘zbekiston Milliy universiteti,  
(PhD)

## ПРОЕКТ ТРАСЕКА И ЕГО ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Озодбек Раджабов, Национальный университет  
Узбекистана, (PhD)

## TRACEKA PROJECT AND ITS ACTIVITIES

Ozodbek Radjabov, National University of Uzbekistan, (PhD)

**Annotatsiya:** Mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo respublikalari g‘arb, janub va sharqqa chiqadigan transport koridorlariga tobora ehtiyoj seza boshlashdi. Yevroittifoq tomonidan Janubiy, Janubi-sharqiy Osiyo, Janubiy va Markaziy Yevropani bog‘laydigan “Yevropa-Kavkaz-Osiyo (TRASEKA) loyihasi 1991-yildayoq ishlab chiqilgan edi. Mazkur maqolada loyihaning amalga oshirilish tarixi haqida mulohazalar qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Mustaqillik davri, Markaziy Osiyo respublikalari, “Yevropa-Kavkaz-Osiyo (TRASEKA) loyihasi, Yevropa Ittifoqi, jahon savdo bozorlari.

**Abstract:** Central Asian republics that have gained independence increasingly need transport corridors to the west, south and east. The “Europe-Caucasus-Asia (TRACEKA)” project connecting South, Southeast Asia, South and Central Europe was developed by the European Union in 1991. This article discusses the history of the implementation of the project.

**Key words:** independence period, Central Asian republics, “Europe-Caucasus-Asia (TRACEKA)” project, European Union, world trade markets.

**Аннотация:** Республики Центральной Азии, получившие независимость, все больше нуждаются в транспортных коридорах на запад, юг и восток. Проект “Европа-Кавказ-Азия (ТРАСЕКА)”, соединяющий Южную, Юго-Восточную Азию, Южную и Центральную Европу, был разработан Европейским Союзом в 1991 году. В данной статье рассматривается история реализации проекта.

**Ключевые слова:** период независимости, республики Центральной Азии, проект “Европа-Кавказ-Азия (ТРАСЕКА)”, Европейский Союз, мировые торговые рынки.

**KIRISH.** 1998-yilda Ozarbayjonning Boku shahrida mazkur loyiha ishtirokchilari hisoblangan davlatlar tomonidan Asosiy ko‘ptomonlama kelishuv bitimi imzolandi. Shu kunning o‘zidayoq TRASEKA loyihasiga Gretsiya, Polsha kabi davlatlar qo‘shilishdi. 1998-yilning aprel oyida Boku shahrida IV Hukumatlararo TRASEKA yig‘ilishida esa loyiha safiga Afg‘oniston Islom Respublikasi ham qo‘shildi. 1999-yilda Bolgariyada o‘tkazilgan

konferensiyada esa Eron ham loyihada ishtirok qilishini bildirdi [1].

**TADQIQOT USULLARI VA ADABIYOTLAR TAHLILI.** Maqolani yozishda asosiy metodologik yondashuvlar sifatida obyektiv-tarixiy, tarixiy-qiyosiy va mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi.

**TADQIQOT NATIJALARI.** TRASEKAning Hukumatlararo komissiyasi loyiha



<https://orcid.org/0000-0002-7663-9981>

e-mail:

[ozodbek.radjabov.94@inbox.ru](mailto:ozodbek.radjabov.94@inbox.ru)

ru

doirasidagi barcha masalalarni konsensus asosida yechishga harakat qiladi. Hukumatlararo komissiyaning ikkinchi konferensiyasi 2002-yil bahorida Toshkent shahrida o'tkazildi va hukumatlararo komissiyaning rahbari etib O'zbekiston delegatsiyasi saylandi. O'zbekistonda o'tkazilgan konferensiya bir qancha muhim masalalarga yechimlarni ilgari surdi va qabul qilinishi uchun tavsiya etildi. Jumladan: loyiha ishtirokchilari hisoblangan davlatlardagi mavjud temir yo'l tarmoqlarini modernizatsiyalash jarayonini tezlashtirish; "TRASEKA Vizalari" loyihasi doirasida tranzit yuklari qatnovi uchun rasmiylashtiriladigan hujjatlar to'plamini umumiyashtirish, ma'muriy, chegara va bojxona to'siqlarini yengillashtirish, ishtirokchi davlatlar hududida harakatlanuvchi yuklarni kuzatib boruvchi mas'ullar xavfsizligi va erkinligini ta'minlash; "TRASEKA Koeffitsienti" yordamida loyihaning raqobatbardoshligini avvaldan mavjud bo'lgan transit yo'llar, xususan Transsib, Suvaysh kanali orqali o'tuvchi janubiy dengiz yo'llari bilan qiyosiy taqqoslab borish. Temir yo'l, dengiz va avtomobil transportida tarif dasturlarini ishlab chiquvchi ishchi guruh tuzilib, ishtirokchi davlatlar o'rtasida transport kommunikatsiyalari doirasidagi normativ-huquqiy bazani shakllantirib borish kabi vazifalar belgilangan edi[2].

TRASEKAning Toshkentda o'tkazilgan konferensiyasida qabul qilingan qarorlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlarining dunyo kommunikatsiya tarmoqlariga bog'lanish jarayonini tezlashtirsa, ikkinchi tomondan G'arbiy va Markaziy Xitoy, Janubiy Yevropa mamlakatlaridan yuk qatnovini sezilarli darajada oshishiga sabab bo'lishi kutilmoqda edi.

Yuqorida qayd etilganidek, TRASEKA loyihasidagi Eron Islom Respublikasining ishtiroki Markaziy Osiyo davlatlari uchun Fors ko'rfazidagi Eronning portlari va neft terminallaridan foydalanishni yengillashtiradi, iqtisodiy samara keltiradi.

Loyiha doirasidagi eng markaziy davlatlardan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Eron bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirib bormoqda. Xususan, birgina 2002-yilda O'zbekiston Eron hududi orqali yarim million tonna tranzit qatnovini amalga oshirgan bo'lsa, Eron aynan shu yili O'zbekiston orqali 750 ming tonna yuk qatnovini

amalga oshirgan. Ikki mamlakat o'rtasida o'zaro savdo ayriboshlash hajmi 260 mln dollarga yetgan. O'zbekiston tomonining tashabbusi bilan Afg'oniston orqali Eronga olib chiquvchi transport koridori loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, Termiz-Mozori-Sharif-Hirot-Bandar-Abbos yo'nalishida qadimiy Ipak yo'lini qayta tiklash g'oyasi shakllantirilgan.

TRASEKA yo'nalishi Xitoyning markaziy va g'arbiy o'lkalaridan boshlanib, Qozog'iziston va Qirg'iziston orqali O'zbekistonga kirib keladi va O'zbekistondan Turkmanistonning Turkmanboshi yoki Qozog'izistonning Oqtov portlari orqali Ozarbayjonning Boku va Gruziyaning Poti va Batumi portlarini birlashtiradi. Mazkur tarmoq Qora dengizning g'arbiy qirg'oqlaridagi Bolgariyaning Varna, Ruminiyaning Konstanta va Ukrainaning Ilichevsk portlari orqali Yevropa mintaqasiga kirib boradi. Ishlab chiqilgan mazkur marshrut amaldagi Shimol-janub koridoridan 1 yoki 2 ming kilometr ga qisqaroq.

TRASEKA yo'nalishining ishga tushirilishi Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlari uchun o'tkazish qobiliyati amaldagidan bir necha o'n barobar kuchliroq bo'lgan transport tarmoqlari, xususan temir yo'llar faoliyatining yo'lga qo'yilishiga sabab bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ishtirokchi davlatlar yuqori malaka qobiliyatiga ega bo'lgan, yetakchi mutaxassislarni jahon standartlaridan arzon yollagan holda tranzit yuk qatnovini xalqaro miqyosda amalga oshirishi va ishchi kuchiga minimal mablag' sarflashi mumkin. Chunki, temir yo'l qatnovida tezlik, muhofaza, qiymat muhim omillar sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi TRASEKA loyihasi doirasida o'zining transport infratuzilamsini taklif etgan, o'z navbatida mintaqadagi yetarli darajada qulay va zamonaviy tarmoq aynan shu respublikaga tegishli edi. TRASEKA loyihasi doirasidagi ishlarni amalga oshirish maqsadida rasmiy Toshkent tomonidan Andijon-Toshkent-Beynov avtobani ham tashkil qilingan. Bu esa TRASEKA loyihasi tavsiyalarining muayyan grafik asosida bajarilishi edi.

TRASEKA loyihasini amalga oshirish uchun YevroIttifoq o'z oldiga bir qancha maqsadlarni qo'ygan. Jumladan, Buyuk Ipak yo'lida joylashgan yosh va mustaqil mamlakatlarni siyosiy va iqtisodiy tomondan qo'llab-quvvatlash, ularga Yevropa va

Osiyo bozorlariga chiqishning alternativ yoʻnalishlarini yaratishga yordam berish, transport tarmoqlarini takomillashtirish yoʻnalishidagi islohotlarga koʻmaklashish, xalqaro moliya institutlari va iqtisodiy zanjirlariga qoʻshilishda TRASEKAdan katalizator maqomida foydalanish va boshqalar [4].

**XULOSA.** TRASEKA loyihasi temir yoʻl, avtomobil, suv va havo magistrallarini tizimlashgan umumiylik holatida Xitoy va Qozogʻiziston chegarasidagi Drujba va Gruziyaning Batumi portida kesishgan tarmogʻini yaratishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygani holda parallel ikkita Chimkent-Toshkent-Samarqand-Bayram-Ali-Ashxobod-Turkmanboshi-Boku-Chimkent-Oqtobe-Makat-Oqtov-Boku koridorlarini yoʻlga qoʻyishni rejalaydi.

1995-yilda Qozogʻizistonning Olmaota shahrida TRASEKA ishtirokchilari hisoblangan davlat rahbarlari toʻrtta ishchi guruhni shakllantirgan dasturga imzo chekishdi. Bular savdo sohasidagi hamkorlik, avtomobil, temir yoʻllar va dengiz transportini muvofiqlashtirish kabilardir. TRASEKAning bosh ofislari Bryussel, Tbilisi, Toshkent shaharlariga, subofislari esa Yerevan,

Boku, Ashxobod, Olmaota, Bishkek shaharlarida joylashtirildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Дубов В. Ширится транспортный коридор// Правда Востока.-Ташкент.2005. 23 июня.
2. Нижарадзе Г. Международные транспортные коридоры и взаимодействие национальных транспортных систем. / Доклад представителя Министерства транспорта Грузии на 2-ой Международной черноморской транспортной конференции “Черноморские транспорта системы- моста между Европой и Азией”, Украина, Киев, 5-6 марта 2002 г. – Киев, 2002. С.43-46.
3. Узбекистан: Десять лет по пути формирования рыночной экономики. / АН РУз. Институт экономики. Под.ред.акад. А.Х.Хикматова.-Ташкент,2001.-С.51-54.
4. Внешняя торговля стран СНГ и ЕС. – М., 1998.



## ХОРАЗМ ЖАДИДЛАРИНИНГ АДАБИЙ МЕРОСИ

Сайёра Самандарова, Урганч инновацион университети  
доценти  
Умид Бекмухаммад, Хоразм Маъмун академияси катта  
илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори  
[PhD], доцент

## LITERARY HERITAGE OF KHOREZM MODERNS

Sayyora Samandarova, Associate Professor of the Department  
of Social and Humanities and Languages, Candidate of  
Philosophy, Urganch Innovation University  
Umid Bekmuhammad, Senior Researcher of Khorezm  
Ma'mun Academy, Doctor of Philosophy in History [PhD],  
Associate Professor

## ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ ХОРЕЗМСКИХ ДЖАДИДОВ

Сайёра Самандарова, доцент Ургенчского  
инновационного университета  
Умид Бекмухаммад, старший научный сотрудник  
Хорезмской академии Маъмуна, доктор философии по  
историческим наукам [PhD], доцент

**Аннотация:** Ушбу мақолада Хоразм жадид адабиёти  
намоёндалари, уларнинг ижодий фаолияти ёритиб берилди.  
Шунингдек, жадид адабиётига ҳос тамойиллар асосида  
хоразмлик ижодкорларнинг айримларига ҳам баҳо бериб  
ўтилади.

**Калит сўзлар:** жадид, адабиёт, Хоразм, Бобоохун  
Салимов, “Таржимон” газетаси, шеърят, драматургия, театр.

**Abstract:** In this article, representatives of modern  
Khorezm literature and their creative activities are highlighted.

Also, based on the principles of modern literature, some of the creators of Khorezm will be evaluated.

**Key words:** jadid, literature, Khorezm, Bobohun Salimov, “Tarjimon” newspaper, poetry, dramaturgy, theater.

**Аннотация:** в статье освещены представители хорезмской джадидской литературы и их творческая деятельность. Также, исходя из принципов современной литературы, будут даны оценки некоторым творцам Хорезма.

**Ключевые слова:** джадид, литература, Хорезм, Бобоохун Салимов, газета “Тардимон”, поэзия, драматургия, театр.



<https://orcid.org/0009-0000-2632-5338>  
e-mail:  
sayyorasamandarova68@gmail.com



<https://orcid.org/0009-0006-6355-9524>  
e-mail:  
umidbekmuhammad@gmail.com

**КИРИШ.** Филология фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент Шаҳноза Назарова жадид адабиёти, ўзбек шеърятига таъсири ва унинг янгилашиш тамойилларини тадқиқ қилиб шундай хулосага келган: “Жаҳон адабиётшунослигида жадидчилик ҳаракати, жадид адабиётини ўрганишга доир энг янги илмий изланишлар натижасида қуйидаги олтин йўналиш устувор тадқиқот тармоғига айланди: 1) умумтурк жадидчилиги фалсафаси ва мафкураси (тарихий-сиёсий-мафкуравий жараёнларни қамраб олади); 2) умумтурк жадид зиёлиларининг муаммолари (миллий, диний, ижтимоий жиҳатларни, тил-имло-маориф, хотин-қизлар масалаларини назарда тутди); 3) умумтурк жадид адабиёти (шеърят, наср, драматургия, халқ оғзаки ижоди, адабий танқид масалалари ўрганилади); 4) умумтурк жадид матбуоти ва нашр фаолияти; 5) хайрия ва адабий жамиятлар, вақфлар, фондлар фаолияти; 6) умумтурк жадид театри ва санъати” [1].

Табиийки, Хоразм жадид адабиёти ҳам жадид, умумтурк жадид адабиётининг таркибий қисми бўлиб, фақат 1920 йилгача жадид матбуоти, 1922 йилгача жадид театри, драматургияси фаолият кўрсатмагани эътиборга олинса, қолган жиҳатлари айни бир хил тарзда ижодий шаклланишда, умумийликда давом қилган.

**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД.** Негаки, профессор Бегали Қосимов “Миллий уйғониш” асарида ёзганидек, “жадид адабиёти моҳиятан янги адабиёт эди. Чунки у қарашларни янгилади, фикрларни янгилади, ўзликни қайтарди”.

Табиийки, Туркистон, Бухоро жадидчилиги ҳаракатидан Хоразм жадидчилигининг фарқли жиҳатлари борлиги сингари, жадид адабиётида ҳам Хоразмнинг алоҳида ўрни борки, бу борада афсуски ҳали мукамал тадқиқот ишлари олиб борилмаган.

Маълумки, публицистика ҳам ижодкорларнинг шаклланиши, адабиёт оламига, насрда изланишлар олиб боришнинг дастлабки тажрибаси сифатида қаралади. Хоразм жадид адабиётида эса публицистика муҳим ўрин тутди. Шу боис, аввало жадид публицистикасига тўхталиб ўтсак.

**МУҲОКАМА.** “Таржимон” газетасидаги тарихий фактлардан маълумки, Рамазон Сайдашевнинг жадид мактабидаги педагоглигидан ташқари, Хоразмдан Қримга – “Таржимон” газетаси бош муҳаррири Исмоил Гаспралига мақолалар ёзиб турганлигидир. Табиийки, вазиятни, бораётган жараённи кузатиб, таҳлил қилиб шулар асосида ўз муносабатини, таъсирини билдириб турган Исмоилбек Гаспрали Хоразмдан келган ҳар бир хабарни газетада “Хивадан мактуб” рукнида чоп этиб турган. Шу тарзда Мулла Рамазон, Рамазон Сайдашев, Р.Сайдашев номлари билан воҳада кечаётган ҳар бир жараён, воқеликлар газетада нашр қилиниб турилган. Олдинлари Россия, Кавказ, Туркистондаги газеталар ва мухбирлар орқали ёритиб борилган Хоразм билан боғлиқ жараёнлар бевосита Рамазон Сайдашевнинг журналистлик фаолияти орқали Қримда нашр этилиб, минглаб мухлислар ва турли ҳудудларга етиб борди. Афсуски, Рамазон Сайдашевнинг педагоглик ва журналистик фаолияти тарих фанида умуман тадқиқ қилинмаган.

Рамазон Сайдашев ўзи сингари “Таржимон” газетасига мақолалар ёзадиган яна бир маслакдош шогирдини етиштирдик, бу ижодкор Ғофур Усманий эди. У ХХ аср бошларида Хива, Янги Урганч шаҳарларидаги жадид мактабларида ўқитувчилик қилган ва Рамазон Сайдашевнинг таълим ва матбуот соҳасидаги шогирди бўлганди.

Ғофур Усманий “Таржимон”дан ташқари “Вақт” газетасига ҳам Хоразмдаги таълим, тиббиёт ва ижтимоий-иқтисодий жараёнлар тўғрисидаги мақолаларини чоп этириб турган. Афсуски, Ғофур Усманийнинг ҳаёти ва фаолияти тарих фанида тадқиқ қилинмаган”[2].

Агарки, Рамазон Сайдашев ва Ғофур Усманийлар ҳаёти, фаолияти, ижоди тадқиқ қилинса, катта эҳтимол билан уларнинг жадид адабиётига қўшган ҳиссалари борлиги ҳам маълум бўларди.

Маълумки, ўзбек адабиёти, хусусан ХХ аср бошларидаги Хоразм адабий муҳитини Аваз Ўтар ижодисиз тасаввур қилиш қийин. Айнан ана шу даврдаги, яъни Хоразм жадид адабиётининг пешқадам намояндаси Аваз Ўтар (15.08.1884-1919) бўлиб, адабиётшунослар томонидан унинг ижоди маърифатпарвар шоир

сифатида этироф этилиб келинди. Бироқ унинг “Тил”, “Хуррият” шеърларидаги рухият, ғоя Чўлпон асарларидаги сингари жадид адабиёти намунасидир. Шунингдек, шоир ижодига оид бошқа асарларида ҳам жадидчилик ғоялари акс этган ва Аваз Ўтар доимий равишда Хоразм жадидларини қўллаб-қувватлаган ижодкор. У Кримда нашр этиладиган “Таржимон” газетасини ўқиб, уни Хоразмда тарғиб қилиб борган ва Хивада 1905 йилда жадид мактаби очган Мамат махрамнинг энг яқин маслакдоши бўлган.

Аваз камолотга етган бир пайтда сил касалига чалинади ва даволаниш учун Кавказ ва Кримга (1905-1906) боради. Тараққийпарвар Аваз Ўтар Бокуда озарбайжон жадид мактаблари билан танишади ҳамда Тоҳирзода Собир (1860-1911) сингари шоирлар билан учрашиб дўстлашади ва улар билан кейин ҳам ижодий алоқада бўлади. Шунингдек, Султон Мажид Ғанизода (1886-1937) томонидан ташкил этилган мактаблар фаолияти билан танишади. Сафарали Валибейов (1861-1902)нинг “Ватан тили”, “Усули жадид”, “Лисоний форсий” номли асарлари ва “Хазинаи ахбор” номли икки жилдлик қомусий луғатини ҳам Хоразмга олиб келади.

Хоразмга келганида Россия, Кавказ, Кримда нашр этиладиган кўплаб газета-журналлар, китобларни олиб келади. Аваз Ўтар кейинчалик ҳам доимий равишда рус, озарбайжон, татар тилларида чиқадиган газеталарни мунтазам равишда кузатиб борган. Тошкент, Фарғона ва Самарқандда чоп этилган жадид матбуоти билан бевосита алоқада бўлиб, ёзган ғазалларидан баъзиларини уларда нашр ҳам эттиради. Фарзандини бош вазир Ислонхўжа томонидан ташкил этилган Хивадаги жадид мактабига беради.

Жадидчилик ғояларини кенг тарғиб этиш Аваз Ўтар ижодига хос хусусиятлардан биридир. Бу унинг “Тил”, “Хуррият”, “Мактаб”, “Халқ”, “Фидойи халқим”, “Топар экан қачон?” деган шеърларида яққол кўринади.

Тарихдан маълумки, Аваз Ўтар оғир касал бўлгани боис шу даврдаги жадидларнинг сиёсий курашларига қўшилмаган. Бироқ у маънан уларни қўллаб-қувватлаб, “Мактаб”, “Тил”, “Халқ”, “Хуррият” номли шеърлар ёзган. Айниқса, 1917 йил апрелида Бобоохун Салимов,

Хусайнбек Матмуродовларнинг “Идорайи маршрутия” – парламент тузишини хуррият йўлидаги қадамлардан деб билди ва “Хуррият” номли шеър яратди.

Гарчи Хоразмда 1920 йилда жадид намояндаси Бекжон Раҳмон томонидан матбуотга асос солингангача воҳада биронта газета-журнал нашр этилмаган бўлса-да, Аваз Ўтар, Бобоохун Салимов, Сўфизода ва бошқа ижодкорларнинг ёзган ижодлари уларнинг кўлёма асарларида сақланиб келди.

Хоразмлик жадидлар томонидан яратилган назмдаги асарлар жадид адабиёти, шеърятининг таркибий қисмини ташкил этадики, бу борада Аваз Ўтар ижоди сингари Бобоохун Салимовнинг ижодий фаолияти ҳам жадид шеърятининг ёрқин намуналаридир.

Хоразмдаги жадидчилик ҳаракати ва улар мансуб бўлган сиёсий ҳаракат – “Ёш хиваликлар”нинг намояндалари орасида асосан Бобоохун Салимов бошқа сафдошларидан ижодкорлиги билан алоҳида ажралиб турган. Яъни, Полвонниёзхожи Юсупов, Худойберган Девонов, Назир Шоликоров ва бошқа жадид лидерлар каби унинг ҳам сиёсий фаолияти курашлар, ислохотчилик ғоялари билан ўтган бўлса-да, ундан асосийси бой ижодий, маънавий мерос қолди.

“Бобоохун Салимов шеърятда жадидлар ғояларидаги сингари маърифат, таълим мавзулари ёритилган. Шунингдек, у жамиятда рўй бераётган салбий муносабатларни йўқотиш учун ҳам мудроқ ғурурни уйғотиш лозимлигини англаб етганди. Шу боис ҳам Бобоохуннинг хонлик даврида яратилган ушбу шеърда жадидларнинг ғояси акс этганди”:

Хазон фаслида булбулдек,  
Дил афгор ўлғон ўхшайдур.  
Жаҳолат дардига барча  
Гирифтор ўлғон ўхшайдур.

“Ожиз” тахаллуси билан туркий, “Бобо” тахаллуси билан форсий тилда ижод қилган Бобоохун Салимовнинг бошқа шеърларида ҳам мустамлакачилик асорати даврига хос маҳзунлик, жамиятдаги воқеликларга реал баҳо бериш акс эттирилган “[3].

Бобоохун Салимовнинг сафдоши бўлган Хусайнбек Муҳаммадмуродов хонликдаги нуфузли давлат арбоби Матмурод девонбегининг ўғли эди. Ана шундай мавқега эга сулола вакили



XX аср бошларидаги Хоразм жадид лидерларидан бири бўлиб, 1917 йил апрелида ташкил этилган ҳукумат раиси қилиб сайланган ва ислохотларни амалга оширишга киришганди.

Ферузхон давридан бошлаб саройдаги нафақат амалдорлар, балки ижодкорлар орасида ҳам ўз шеърляти билан эътибор топган Хусайнбек Ферузхоннинг тавсияси билан ўзига Нозирий тахаллусини танлаганди. Нозирий мумтоз адабиётга хос кўплаб ғазаллар ёзиб бой ижодий мерос қолдирган ва адабий асарлари Тошкентдаги шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланмоқда. Агарки Нозирий ижодий мероси тадқиқ қилинса, унинг ижодида лирик шеърларгина эмас, жадид адабиётига хос ижтимоий-маърифий мавзудаги асарлар ҳам топилиши аниқ.

Негаки, ўз давридаги сиёсий жараёнларнинг энг олд сафларида юрган, жамиятни ҳаракатлантирувчи таъсир кучига, нуфузига эга шахс табиийки ўзи орзу қилган, интиланган ғояларни ижодида акс эттирган бўлиши аниқ.

Бекжон Раҳмондек жадидларнинг илғор вакили эса Фитрат, Чўлпон, Закий Валидий сингари ижоду илм аҳли билан маслақдош дўст эди. У “Инқилоб кўёши” номи билан Хоразмда матбуотга асос солган ижодкор ва 1923 йилда 580 та Хоразмнинг халқ мақолларини тўплаб “Оталар сўзи” номи билан нашр эттирган фольклоршунос ҳам бўлган. 1925 йилда у Муҳаммад Юсуф Девонзода билан ҳаммуаллифликда “Хоразм мусиқий тарихчаси” китобини Москва шаҳрида нашр қилдирганди. Фитрат “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи” асарида Бекжон Раҳмон ҳамда Муҳаммад Юсуф Девонзодаларнинг асаридан ғоят таъсирланганини ёзган ва ушбу китобнинг мусиқашуносликда тутган ўрнига ғоят юксак баҳо берган эди. Шу йили яна “Хилвати сўфиҳо” асарини ҳам ёзиб бошлайди.

“Катта террор” дея аталадиган машъум 1937-38 йиллардаги катағон қурбонлари номи қайд этилганда, Комил Девоний, Сафо Муғанний номлари ҳам келтириб ўтилади. Агарки, уларнинг ижтимоий-сиёсий фаолиятидан келиб чиқиб, адабий меросига, умуман ҳаётига разм солсак, ижодидаги маълум бир даврлар жадидлар ғоясида кечганлиги аён бўлади.

Тарихий фактлардан маълумки, Комил Девоний (1887-1938) жадидларнинг “Ёш хиваликлар” партияси аъзоси бўлган ижодкор. У 1887 йилда Хиванинг Сангар қишлоғида туғилган бўлиб, асл исми Муҳаммад Комил Исмоилжон ўғли эди. Бобоси Муҳаммад Панох Хива хонлигининг тўп қуёвчи қуролсоз устаси, шунингдек наққош, хаттот, мусиқа ва адабиёт бўйича ҳам маҳоратга эга бўлган. Хоразмдаги ижтимоий-маърифий, адабий жараёнларнинг фаол иштирокчиси бўлган Комил Девоний ҳаёти, ижодий мероси ҳам, афсуски, тўлиқ тадқиқ этилмаган.

Комил Девоний сингари Сафо Муғанний ҳам Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий ва маърифий жараёнлар, шу сингари адабий ҳаракатчиликда фаол қатнашган ижодкор эди.

Сафо Муғанний номи шоир ва хонанда, бастакор сифатида машхур. Бироқ унинг асл исми шарифи эса ҳужжатларда Сафо Оллоберганов бўлиб, 1882 йил Хива хонлигига қарашли Гандимиён (Гандумикон) қишлоғида камбағал деҳқон оиласида туғилганди. Ферузхон саройига Сафо Муғаннийни олиб келган ва унга ҳомийлик қилган инсон хонлиқнинг энг мўътабар зотларидан Вазири акбар Исломуҳжа эди. Натижада Сафо Муғанний Ферузхон саройида кўзга кўринган созандалардан танбур, дотор ва бошқа миллий мусиқа созларида куй чалиш маҳоратини ва бастакорлик сирларини мукамал даражада ўзлаштирди. Санъат ва шеърлят илмини ўрганиб, Хоразм шоирларининг, шунингдек, ўзининг ёзган шеърларига куйлар басталаб ижро этди.

Сафо Муғанний нафақат адабиёт, санъат, маданият ходими, балки жамиятни ислоҳ қилиш, давлат бошқарувини такомиллаштириш, Европа маданияти ютуқларини воҳага татбиқ этиш билан шуғулланишга ҳаракат қилади. Сафо Муғанний хонлик ағдарилиши билан тараққийпарвар инсон сифатида “Ёш хиваликлар”ни қўллаб-қувватлаб, жадидларнинг ушбу партиясига аъзо ҳам бўлиб кирганди.

Афсуски, Сафо Муғанний 1937 йилда “халқ душмани” сифатида қамоққа олинадиган ва 1938 йилда 10 йилга МТЛ (меҳнат тузатув лагери)га сургун қилинади. Дастлаб Ўзбекистондаги Малик совхозида, кейин эса 1941 йил 20 февраль санаси билан ишга тикилган маълумотномада, Ярославль вилояти, Рибин

тумани, Волжский МТЛда ҳукми ўтаган ва вафот этган.

Сафо Муғанний ҳаёти, фаолиятигина эмас, адабий мероси ҳам махсус тадқиқотни талаб қилади.

Комил Девоний, Сафо Муғаннийларнинг ижоди, хусусан уларнинг “Ёш хиваликлар” партиясидаги фаолияти, жадиличлик ғоялари асосидаги асарларини тадқиқ қилиш, адабиётшунослар олдидаги долзарб вазифа бўлиб турибди.

Тарихдаги реал вазиятдан келиб чиқилса, жадин адабиёти, хусусан драматургиясини Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийсиз тасаввур қилиш қийин. Ўтиборли томони Хоразмда Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий томонидан яратилган сахна асарлари воҳадаги театр, драматургиянинг асоси ҳисобланади.

Маълумки, 1921 йил ноябридан Ҳамза Хоразм республикасидаги қасаба уюшмалари ташкилотидан ишлаш билан бирга, кўплаб драмалар яратди ва уларда жадиличлик ғоялари ўз ифодасини топган. 1922 йил 2 мартда Хива шаҳрида театрга асос солди ва ўзи кўплаб драмаларни режиссёр сифатида сахналаштирди, айримларида ролларни ҳам ижро қилди. Тожизода, Машариф Полвонов, Умар Қурбоний ва бошқа саянаткорларни театр атрофига жипслаштирди. Ҳамзанинг бевосита Хоразмда яратилган “Хоразм инқилобининг учинчи лойиҳаси” номи тўрт пардали, етти кўринишдан иборат пьесасини “Хон зулми” деб ҳам атади.

**НАТИЖАЛАР.** Профессор Лазиз Қаюмовнинг “Ҳамза” (Тошкент-1989) ҳамда Олланазар Собировнинг “Хоразм театри” (Тошкент-1991 йил) монографияларидаги таҳлилларга кўра, “бундан ташқари Ҳамза яна ўз асарлари асосида сахналаштирган “Бой ила хизматчи”, “Тухматчилар жазоси”, “Заҳарли ҳаёт”, “Фарғона фожиалари” асарларинигина эмас, Ғулом Зафарийнинг “Эрк болалари”ни ҳам Хива театрида намойиш этган драматург, режиссёр эди. Ҳамза сахналаштирилган пьесаларини фақат Хивадагина эмас, Хоразм воҳасининг турли ҳудудларида ҳам намойиш қилиб борган” ижодкор бўлган.

“Ўзбек жадин адабиётининг намояндаларидан бири ва 1910-13 йилларда

Хоразмда фаолият кўрсатган педагог, шоир Муҳаммадшариф Сўфизода бўлиб, ўзбек демократик ва маърифатпарварлик даври адабиёти анъаналарини давом эттирган ижодкор эди. У уч йил давомида Хоразмдаги жадин мактабида фаолият кўрсатибгина қолмай, жадинлар ғоясини ақс эттирган адабий асарлар яратган ва ўз давридаги адабий муҳитнинг фаол ижодкори эди”[4].

Сўфизода ҳаёти, фаолияти, ижодий мероси гарчи истиқлол йилларида тадқиқ ва тарғиб қилинаётган бўлса-да, унинг Хоразмдаги уч йиллик педагогик, шоирлик фаолияти, яратган асарлари хануз тўлиқ тадқиқ қилинмай келинмоқда.

**ХУЛОСА.** Умуман олганда, Хоразм жадин адабиёти, унинг ўзига хос хусусиятлари, бошқа ҳудуддаги адабий жараёнлардан фарқли ва ўхшаш жиҳатлари, яратилган асарлар, жанрлари, улардаги ғоя, ижодкорларнинг фаолияти, адабий портретлари фундаментал тадқиқ қилинишини кутиб турибдики, бу адабиётшунослар зиммасидаги масъулиятли вазифалардан бири ҳисобланади. Агарки, “Жадин адабиёти антологияси” нашрга тайёрланса, табиийки ушбу тадқиқотдан хоразмлик юқоридаги, изланишлар олиб борилса, яна бошқа жадин ижодкорлар ҳам адабий мероси киритилиши аниқ.

#### АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ:

1. Ш.Назарова “XX аср ўзбек шеърятининг янгилиниш тамойиллари” (Янги ўзбек шеърятининг контекстида). “Академнашр”, Тошкент-2022 йил.
2. У.Бекмуҳаммад. “Таржимон”нинг Хоразмдаги мухбирлари, “Жадин” газетаси, 2024 йил 25 октябрь.
3. У.Бекмуҳаммад, С.Самандар. Бобоохун Салимов – жадин, давлат арбоби ва шоир. Milleniumus print нашриёти, Урганч – 2024.
4. С.Самандар, У.Бекмуҳаммад. Хоразм жадин намояндалари, ҳаёти, фаолияти ва адабий мероси. Milleniumus print нашриёти, Урганч – 2024.

## ОСВЕЩЕНИЕ РЕАЛИЙ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И ХАНОВ XIX ВЕКА В ИСТОРИЧЕСКИХ ТРУДАХ АГАХИ

*Матякубов Шоназар Собирович, старший научный сотрудник Хорезмской академии Маъмуна, доктор философии по историческим наукам (PhD)*

## XIX ASR XIVA XONLIGI VA XONLARI BILAN BOG'LIQ TARIXIY VOQEALARNING OGHIY TARIXIY ASARLARIDA YORITILISHI

*Matyakubov Shonazar Sobirovich, Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## COVERING THE REALITIES OF THE KHIVA KHANATE AND THE KHANS OF THE XIX CENTURY IN THE HISTORICAL WORKS OF AGAKHI

*Matyakubov Shonazar Sobirovich, Senior Researcher of the Khorezm Academy of Mamun, Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)*



<https://orcid.org/0009-0003-0888-2941>

e-mail:

[shonazarmatyoqubovv@gmail.com](mailto:shonazarmatyoqubovv@gmail.com)

com

**Аннотация:** В статье автор приводит информацию об освещении исторических событий, связанных с ханством и ханами Хивы XIX века, в исторических трудах Агахи.

**Ключевые слова:** Хорезм, Хива, Кият, Навои, Абулгази Баходирхан, Мунис, Агахий, Аллокулихан, Рахимкулихан, Мухаммад Аминхан, Сайид Мухаммадхан, Мухаммад Рахимхан.

**Annotatsiya:** Maqolada muallif XIX asrdagi Xiva xonligi va xonlari bilan bog'liq tarixiy voqealar Ogahiyning tarixiy asarlarida yoritilishi haqida ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** Xorazm, Xiva, Qiyot, Navoiy, Abulg'azi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Olloqulixon, Rahimqulixon, Muhammad Aminxon, Sayyid Muhammadxon, Muhammad Rahimxon.

**Abstract:** in the article the authors provide information about the coverage of historical events related to the Khanate and khans of Khiva XIX century, in the historical works of Agakhi.

**Key words:** Khorezm, Khiva, Kiyot, Navoi, Abulgazi Bakhodir Khan, Munis, Agakhi, Allokulikhan, Rakhimkulikhan, Muhammad Amin Khan, Sayid Muhammad Khan, Muhammad Rahim Khan.

**ВВЕДЕНИЕ.** Хорезм – одно из древних мест, занимающее особое место в истории художественного мышления человечества. Писатели и поэты, родившиеся в этой благословенной стране, имели свое влияние и

потенциал на всех этапах истории узбекской литературы. Среди великих людей, оставивших неизгладимый след в истории и литературе Хивинского ханства XIX века, Агахи был талантливым поэтом, зрелым историком и

искусным переводчиком, признанным одним из гениальных творцов периода после Алишера Навои в узбекской литературной среде. Народный поэт Узбекистана, Герой Узбекистана Абдулла Арипов справедливо заявил, что «Агахи – великий поэт и учёный, поднявший узбекскую литературу на новую, более высокую ступень после великого Навои». Матназар Абдулхаким, известный поэт и переводчик из Хорезма, говорил, что «Агахи выбрал свой псевдоним, основываясь на творчестве Навои»[1].

Мухаммадризо родился 17 декабря 1224 года хиджры т.е. в 1809 году нашей эры в селе Киёт близ Хивы в семье мираба Эрниязбека, в юности учился в хивинском медресе. В тяжелые дни после смерти его отца Эрниязбека мираба его дядя Шермухаммад Мунис (1778-1829), талантливый поэт своего времени, историк, искусный переводчик и певец-просветитель, человек, оказавший действенное влияние на литературной среде Хорезма помог ему, став отцом и наставником. Благодаря тесной связи Агахи с Шермухаммадом Мунисом, он вошёл в литературную и научную жизнь того периода, участвуя в поэтических собраниях известных хорезмских поэтов и учёных, любителей литературы, научных диспутах, проводившихся в семье Муниса, создавая условия для полного проявления его врождённых творческих способностей. Сам Мухаммадриза говорил об этом: «В юности беды цыпались на мою голову со всех сторон, в сердце моем всегда было беспокойство и в уме царило ханское правление. Но я забывал о всевозможной боли мира, участвуя в беседе учёных и поэтов. Поэт, которому на момент смерти Муниса было 20 лет, наслаждался уроками своего дяди и следовал за ним в его творчестве. В частности, написание продолжения исторического произведения «Фирдавс-уль-Икбал» («Райский сад») станет примером продолжения и дальнейшего обогащения лирических традиций непосредственно в конце исторического произведения. После смерти своего дяди Муниса Агахи занял вместо него должность мираба и добросовестно исполнял этот долг почти тридцать лет. Привлечение Агахи во дворец, его участие в государственных делах, назначение на важную должность мираба в ханстве стали важным переломным моментом в его личной

жизни и, следует отметить, в его общественной и творческой деятельности. Согласно требованиям своих обязанностей, Агахи имеет возможность знакомиться с экономическим и политическим положением всего ханства, жизнью разных классов общества. Надо сказать, что всё это влияет на его творческую деятельность, способствует расширению круга тем, трактовке актуальных вопросов в популярном духе. Своими энциклопедическими знаниями, энергией, честным трудом и высокими человеческими качествами он завоевал большую репутацию даже внутри дворца, художник вёл чрезвычайно активную деятельность, он был одним из влиятельных представителей собраний поэтов и ученых.

**ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД.** Агахи усердно изучает произведения восточных классиков, особенно творчество Навои. Следует отметить, что творческий опыт Навои и Муниса определенно послужили источником вдохновения для творчества Агахи. Помимо родного языка, Агахи владел арабским, персидским и турецкими языками. Как уже говорилось выше, Агахи стал талантливым поэтом, зрелым историком и искусным переводчиком своего времени. Академик В.В.Бартольд констатирует, что «литературно-исторические произведения, созданные Мунисом и Агахи... по описанию событий и большому количеству представленных в них доказательных источников оставили все труды по истории Коканда и Бухары дошедшие до нас»[2]. Несравненное место для Агахи занимают Абулгази Бахадирхан, Умар Баки, Шермухаммад Мунис, Диловарходжа, Баяни, Табиби, Роджи, занимающие значительное место в области хорезмийской историографии и перевода. Агахи известен не только как великий поэт и талантливый переводчик, но и как великий исследователь нашей истории. Работы Агахи происходят в сложный период Хивинского ханства, с одной стороны, при неограниченном доминировании исламской идеологии в общественной жизни и феодальной раздробленности в результате взаимных войн, с другой стороны, у ханов было сильное желание создать централизованное мощное государство, установить экономические, политические и культурные связи с относительно развитыми

странами. Стремление к созданию также в конечном итоге привело к возрождению литературного движения. Также произойдет значительный прогресс в истории общественно-прогрессивной мысли на территории ханства. Эти характеристики периода определенно отражены в творчестве Агахи.

**ОБСУЖДЕНИЕ.** Агахи завершил работу «Фирдавс-уль-икбал» («Райский сад»), которую не смог закончить его дядя Шермухаммад Мунис, который умирает в 1829 году, в тридцатилетнем возрасте, с описанием событий этого года, о восшествии Аллакулихана на хивинский престол, а кроме того, он создал еще 5 крупных самостоятельных исторических произведений. Это «Рияз уд-давла» (Сады Султаната в 1844 г.), «Зубдат ул-таварих» («Сливки истории в 1845-46 гг.»), «Джаме ул вакеоти Султани» (сборник событий Султаната в 1857г.), «Давлат гулшани» (Цветник государства, 1865г.), «Шахиди икбал» (Свидетель будущего, 1872г.) и другие исторические труды хивинских ханов Аллакулихан (1825-1842 гг.), Рахимкулихан (1843-1846 гг.), Мухаммад Амин-хан (1846-1855 гг.), Саййид Мухаммадхан (1856-64 гг.), в период правления Мухаммад Рахимхана II (1864-1910 гг.), почти шестидесятилетняя история Хорезма с 1813 по 1873 годы, особенности истории, культурной и социально-экономическая жизнь узбекского, туркменского, каракалпакского, казахского народов, проживавших в Хивинском ханстве, отношения ханов Хивинского ханства с Бухарским эмиратом, Кокандским ханством и соседними странами, такими как Иран, Индия, Афганистан, взаимные войны, торговые связи Хивы и России, а также другие исторические события, наряду с обширными сведениями о культуре, обычаях и семейной жизни народов, представлены последовательно в месячном, годовом и пособытийном порядке. Другая особенность исторических произведений Агахи состоит в том, что исторические события описаны в художественно-образном стиле, представлены поэтические фрагменты и стихи, выражающие лирическое отступление. Это, в свою очередь, делает исторические труды более эрудированными и впечатляющими. Исторические труды Агахи представляют собой летопись, отражающую события Хорезма за

более чем полвека. Эти работы отличаются богатством фактического материала и доказательств, а также тем, что являются надежным источником. В частности, «Зубдат ул-Таварих» - третья книга Агахи после «Фирдавс-уль-Икбал» и «Рияз-уль-Даула», в которой в уникальной художественной форме описаны события эпохи Рахимкули-хана. Содержит сведения о военных походах Рахимкули-хана, отношении эмира Бухары Насрулла-хана к Кокандскому ханству, территории, климате и природе Хивинского ханства в то время. Это произведение представляет собой не просто описание событий, а написано языком, богатым художественными красками, а также примечательно тем, что отражает общественно-политические взгляды Агахи. До нас дошло пять рукописных экземпляров «Зубдат ул-Таварих», один хранится в Институте восточных рукописей Санкт-Петербургской академии наук в России, другой в Российской национальной библиотеке в Санкт-Петербурге, а остальные три хранятся в Институте востоковедения имени Абу Райхана Беруни. В произведении Агахи «Джаме ул-вакеоти султани» описываются сложные и противоречивые происшествия и события во время правления Мухаммада Амин-хана. «Цветник государства» - четвертая работа Агахи, посвященная эпохе Саййида Мухаммад-хана. В работе в основном говорится о становлении Саййида Мухаммада ханом, резне явмутов, назначении ханом своих братьев и родственников и вождей племен на обязанности и титулы, в том числе о том, что его брат Саййид Махмуд получил власть Амирулумара в Хазараспе, подробности сражений против туркмен, Зорликхана и Мухаммада Панаха во времена Саййида Мухаммадхана. Включены важные исторические детали, такие как отчет о первом конфликте с русскими, дипломатические отношения с Кокандом и Бухарой, поездка Шукруллы в Турцию. Произведение «Шахиди икбал» (Свидетель счастья) посвящено эпохе Мухаммада Рахимхана Сани-Феруза, и заканчивается описанием событий 1865-1873 годов. В своем труде Агахи указывает время восшествия на престол Мухаммад Рахим-хана следующим образом: «Конец и дата Сунбулы в году крысы – одна тысяча двести восемьдесят первый год хиджры, в четверг...» По мнению

академика В.В.Бартольда, эта дата соответствует 10 сентября 1864 года. В книге есть страницы, связанные с охотой, природными пейзажами, строительством и творчеством, литературой и искусством, также описаны различные состязания и народные игры. В своей работе Агахи описывает ситуацию в Центральной Азии, находящейся на грани падения ханства. Это истории о беспомощной капитуляции правителя Бухары Амира Музаффара и неизбежной тирании, обрушившейся на голову Мухаммад Рахимхана второго. Эти истории – не просто результат повествования, а предостерегающий крик против темных сил, угрожающих стране[3]. В своих исторических трудах Агахи старался осветить не только ханов, но и жизнь султанов, министров и чиновников вокруг хана, их благородные дела. Например, в «Шахиди икбал» он подчеркивает характеристики Матмурада Деванбеги, одного из чиновников ханства и пишет: «Мухаммад Мурад Деванбеги был человеком большого трудолюбия, мудрости, мужества, государственности, богатства, верности»[4]. Во время одного из своих путешествий, связанных со своей работой в качестве мираба, Агахи упал с лошади и сильно повредил ногу и после этого он был вынужден оставить свою должность мираба, когда ему ещё не было и пятидесяти.

**РЕЗУЛЬТАТЫ.** Агахи, по натуре неугомонный и чрезвычайно энергичный, до последних лет жизни не прекращал творческой и научной работы, энергично и благодатно махал пером на поприще историографии и перевода. Агахи умер в декабре 1291 года хиджры т.е. в 1874 году в возрасте шестидесяти пяти лет и был похоронен рядом со своим дядей Шермухаммадом Мунисом на кладбище Шейх Мавлан Баба, расположенном в деревне Киёт, где он родился. «Поэтом и историком, создателем хорезмийской историографии продолжившего труд после Абулгази Бахадирхана, Шермухаммеда Муниса и Мухаммадриза Агахи является Мухаммад Юсуфбек Баяни (1840-1926)»[5]. Он отметил, что историю Хорезма подробно написали Мунис и Агахи, но в связи со

смертью Агахи он взял на себя задачу написать историю последних лет эпохи Мухаммад Рахимхана, и в своем труде «Шаджараи Хорезмшахи». К.Муниров, исследователь Агахи, глубоко изучивший научное наследие Агахи, говорил: «Опубликованы некоторые сведения о жизни, литературной деятельности и исторических произведениях Агахи. Но они до сих пор не могут адекватно объяснить великого мастера слова Агахи, его место в истории узбекской литературы, его значительный вклад в узбекскую литературу, значение исторических трудов Агахи в изучении истории народов Средней Азии»[6].

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** В заключении можно отметить то что, исторические произведения Агахи, имеющие чисто научное значение, имеют большое значение как источник достоверных сведений о литературной и культурной жизни периода и ее основных проявлениях, и во многом близки к художественной прозе. Короче говоря, как и все великие гении Востока, Мухаммадриза Агахи был мастером энциклопедических знаний. Мыслитель, который почти пятьдесят лет творчески и научно работал не только в области литературной поэзии, но также в области историографии и литературно-научного перевода, оставил поколениям чрезвычайно важное наследие.

#### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. М. Абдулхакимов. Мангулик жамоли. Хорезмское издательство, Ургенч, 2009.
2. В.В.Бартольд. История культурной жизни Туркистана. Л. 1927 г. С.113.
3. Д. Рахим, Ш. Матрасул. Феруз. Второе издание, завершённое и переработанное. Ташкент, Экстремум пресс.2011г. стр. 248.
4. Агахи. Шахиди икбал. Страница 49.
5. Матъякубов Ш., Джуманиязова Ф., Аминов Х. Буюклар мангу кўним топган маскан. Дурдона. Бухара-2022. Страница 23.
6. К. Муниров. Исторические труды Муниса, Агахи и Баяни. Т. 1960 с 23.

## BUXORO AMIRLIGIDA TIBBIYOT VA XOTIN-QIZLAR SOG'LIGINI SAQLASH MASALALARI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

**Sanobar Shadmanova**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
tarix fanlari doktori, professor

**Soxiba Boysariyeva**

Ilmiy tadqiqotchi

## ВОПРОСЫ МЕДИЦИНЫ И ЖЕНСКОГО ЗДОРОВЬЯ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ (КОНЕЦ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА)

**Санобар Шадманова**

Ташкентский государственный университет востоковедения  
доктор исторических наук, профессор

**Сохиба Бойсариева**

Научный исследователь

## ISSUES OF MEDICINE AND WOMEN'S HEALTH IN THE EMIRATE OF BUKHARA (END OF THE 19TH - BEGINNING OF THE 20TH CENTURY)

**Sanobar Shadmanova**

Tashkent State University of Oriental Studies  
Doctor of Historical Sciences, Professor

**Sohiba Boysariyeva**

Researcher

**Annotatsiya:** Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida ayollarga tibbiy yordam ko'rsatish katta muammolari yoritib berilgan. Bu davrda tibbiyot holati, davolash usullari borasida fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro amirligi, tibbiyot, xotin-qizlar, tabib, shifokor, dori-darmon, xalq tabobati.

**Аннотация:** В статье освещены основные проблемы оказания медицинской помощи женщинам в Бухарском эмирате в конце XIX – начале XX веков. В этот период представлены мнения о состоянии медицины и методах лечения.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, медицина, женщины, врач, медицина, народная медицина.

**Abstract:** The article highlights the main problems of providing medical care to women in the Bukhara Emirate in the late 19th – early 20th centuries. During this period, opinions are presented on the state of medicine and treatment methods.

**Key words:** Bukhara Emirate, medicine, women, doctor, medicine, traditional medicine.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION).** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida ayollarga tibbiy yordam ko'rsatish katta muammolardan biri hisoblangan. Asrlar bo'yi an'anaviy tabobatdan

foydalanib kelgan amirlik aholisida bu davrga kelib, zamonaviy tibbiy yordam olish imkoniyati vujudga kelgan. Amirlikning markazi bo'lgan Buxoroda dastlabki shifoxonalar ochilgan. Mazkur shifoxonalarga nafaqat erkaklar, balki xotin-qizlar



E-mail:

[sanobar\\_shadmanova@mail.ru](mailto:sanobar_shadmanova@mail.ru)

Orcid: 0009-0008-4635-0766

Tel: +998909920327



E-mail:

[sanobar\\_shadmanova@mail.ru](mailto:sanobar_shadmanova@mail.ru)

Orcid: 0009-0008-4635-0766

ham murojaat qila boshlagan. Xususan, 1897-yilda Buxorodagi mahalliy aholiga tibbiy yordam ko'rsatuvchi shifoxonaning ayollar bo'limiga 5151 nafar bemor, 9042 marta murojaat qilishgan hamda bir kunda o'rtacha hisobda ushbu bo'limga 25 nafar bemor tibbiy yordam so'rab kelgan. Bir yilda ayollar bo'limiga mahalliy aholi tomonidan 9042 marta murojaat qilinganligi shifoxonaga katta ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi. Shulardan 25 nafari erkaklar, 3439 nafari ayollar va 1692 nafari bolalarni tashkil etgan. Bemorlarning milliy tarkibida musulmonlar (2976 kishi) va mahalliy yahudiylar (1883 kishi) ko'pchilikni tashkil etgan, shuningdek, ruslar va rus yahudiylari ham bor (292 kishi). Bu esa shifoxona xizmatlaridan turli etnik va diniy guruhlar foydalanganligini ko'rsatadi, ya'ni shifoxonada millat yoki din bo'yicha farqlanmagan xizmatlar ko'rsatilgan [9].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida tibbiyot va xotin-qizlar sog'ligini saqlash masalalari bilan bir qator mahalliy olimlar shug'ullanganlar. Ayniqsa, O'zbekiston Milliy arxivi, I.3-fond, 2-ro'yxat, 725-ish, 3-varaq, O'zbekiston Milliy arxivi, I.2-fond, 1-ro'yxat, 231- ish, 128-137 varaqlar; I.3-fond, 1-ro'yxat, 532- ish, 22- varaq, O'zbekiston Milliy arxivi, I.1-fond, 5-ro'yxat, 939-ish, 11-varaq; I.3-fond, 1-ro'yxat, 174- ish, 202-varaq; 446-ish, 20-varaqlarda ushbu masala yuzasidan qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Sadridin Ayniy o'z xotiralarida yozishicha, Buxoro amirligida xizmat qilgan ba'zi tibbiy xodimlar o'z ishiga sovuqqonlik bilan qaragan edi, xususan Gavkushon guzarida bir xonani ijaraga olib, yevropacha tarzda yangitdan yasatib yashagan hamda tojik tilini yaxshi bilgan ayol shifokor to'g'risida yozar ekan, undan hayoti xavf ostida qolgan bir tanishiga tibbiy yordam so'rab murojaat qilganda juda qo'pollik bilan muomala qilib, yordamga kelmaganini va natijada ushbu bemor tibbiy yordam ololmaganidan qon to'xtamasdan vafot etganini yozadi [1].

Shifokor ayol Rakitskaya "eski" Buxoro xotin-qizlar ambulatoriyasida to'qqiz yil (1902-1911) ishladi. Arxiv hujjatlarida Buxoro aholisiga tibbiy yordam ko'rsatishda sovuqqon munosabatda bo'lganligini ko'rsatuvchi hujjatlar mavjud.

Masalan, 1909-yil iyun oyida ambulatoriyaga 3 nafar egiz farzand kutayotgan buxoro yahudiysi keladi va ular bir kun oldin bir farzandni dunyoga keltirib, ikkinchisini tug'a olmagan, hayoti xavf ostida qolgan ayolga tibbiy yordam so'rashadi. Ko'zi yoriyotgan ayolning yonida doya Kapelyush bo'lib, u bir necha marta Rakitskayaga odam jo'natadi, lekin mazkur shifokor turli bahonalar bilan ayolga tug'ruq vaqtida yordam berish uchun bormaydi va u hech qayerga bormasligini, uning ustidan shikoyat qilishlari mumkinligini ochiq aytgan. Shundan so'ng, tug'ayotgan ayolning eri, boshqa xabarchilar bilan maslahatlashib, ularning qoidalariga ko'ra, tug'uruqdagi ayolga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun erkaklarga ruxsat berilmasligi aytilsa-da, ayolni qutqarib qolish uchun erkak shifokorga murojaat qilishga majbur bo'ladi va turmush o'rtog'iga tibbiy yordam ko'rsatishni so'raydi. Erkak shifokor zarur tibbiy yordamni ko'rsatadi, natijada ayol uch egizakni dunyoga keltiradi.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Bu davrda amirlik aholisi shifoxonalarga faqat qatnab emas, balki statsionar holatda ham davolanishgan. Jumladan, Buxorodagi rus-tuzem shifoxonasida mahalliy aholi statsionar holatda ham davolanar edi, unda bemorlar yotib davolanishi uchun 30 ta o'rin bor edi. 1897-yilda 458 nafar bemor yotib davolangan bo'lsa, shulardan 113 nafari ayollar va 7 nafarini bolalar tashkil etgan edi [10]. Ushbu bemorlarning milliy tarkibiga e'tibor bersak, mahalliy millatga mansub bemorlar 83 nafardan iborat bo'lgan, ruslar 30 nafarni va 7 nafari yahudiylardan iborat edi [9]. Qish faslida shifoxonaga yotib davolanuvchilar yozdagiga qaraganda ko'pchilikni tashkil qilar edi. Ayniqsa, yanvar oyida bemorlar eng ko'pchilik bo'lib, 16 bemor davolangan edi. Statsionar holatida davolangan bemorlarning 5 nafariga turlicha jarrohlik amaliyotlari qo'llangan edi.

1911-yilda Buxoro amirligida ayollar uchun ham maxsus ambulatoriya ishga tushib, u tug'uruq bo'limiga ham ega edi. Arxiv hujjatlariga ma'lumotlariga ko'ra, 1912-yilda ayollar ambulatoriyasida esa 13.500 nafar bemor davolangan [5]. Ushbu shifoxonalarda xizmat qiluvchi xodimlar ishga turlicha yondoshganlar. Shunday bo'lsa-da, mazkur shifokor ayol mahalliy boylar orasida juda mashhur bo'lib, marhum amirning alohida e'tibori va iltifotidan bahramand bo'lgan, amir unga katta ishonch bildirib, jiddiy



vaziyatlarda uni taklif qilgan. Hatto Amir Abdul Ahadning bunday homiylik munosabati natijasida Qushbegining shikoyatiga ko'ra, tibbiy yordam ko'rsatmaganligi uchun ishdan bo'shatilishi mumkin bo'lgan vaqtda ham bo'shatilmaganligini ko'rish mumkin. Ostonaqul Qushbegi amirning ko'rsatmasi bilan qozikalon va Rakitskayaning iltimosiga binoan A.S.S.Lyutshdan unga hech qanday jazo qo'llamaslikni so'rashga majbur bo'ldi.

Oqibatda shunday vaziyat yuzaga keldiki, u amirning qo'llab-quvatlashiga umid qilib, xuddi shu ishni davom ettirdi, ambulatoriya qabul qilish vaqtini qisqartirdi va shifoxonani tuzalmaydigan bemorlar bilan to'ldirishga harakat qildi. Rakitskaya ishdan bo'shatildi, ammo Qushbegi amir nomidan uni o'z lavozimida qoldirishni so'radi. 1912 yil yanvarda Mirzo Nasrullaboy Qushbegi Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligiga murojaat qilgan va u yerda "uning yaxshi davolashini hamma buxoroliklar, ayniqsa, oliy hazratlari o'rdasida yaxshi bilishi, uning sof mahalliy tilda gapirishi va katta tajribaga ega ekanligi hammaga ma'qulligi" ta'kidlanadi [5]. Uning qayd etishicha, shu vaqtda ham u tibbiy yordam ko'rsatish uchun Amir o'rdasiga borib turgan. Biroq, bu safar ariza rad etildi. Qushbegiga bergan javobida yozilishicha, u butun faoliyatini ko'hna Buxoro aholisining boy tabaqasi orasida eng ko'p amaliyotga ega bo'lishga qaratgan. U asosiy maqsadini – birinchi navbatda ambulatoriyaga tashrif buyurgan kambag'allarga yordam berish vazifasini unutgan. Rakitskaya ambulator qabulni o'ta bepisandlik bilan o'tkazdi, uni muddatidan oldin tugatishga harakat qildi va ba'zan chekka qishloqlardan kelib, kun bo'yi tibbiy yordam kutayotgan kambag'allarning iltimoslariga zarracha e'tibor bermadi. Lyutsh u bilan gaplashganiga qaramay, u xuddi shu yo'nalishda harakat qilishni davom ettirdi. Maktubda Rakitskayaning lavozimidan chetlatilishi amir oilasiga tibbiy yordam ko'rsatishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmasligi, u Buxoroda qolib, amir oilasining oilaviy shifokori bo'lishi mumkinligi alohida ta'kidlangan. Xuddi shunday, Buxoro aholisining boy tabaqasi ham uning xizmatlaridan foydalanish uchun to'liq imkoniyatga ega bo'ladi. Ayol shifokor lavozimiga esa birinchi navbatda o'z xizmat vazifalarini bajarish bilan shug'ullanadigan shaxs tayinlanadi, uning to'g'ridan-to'g'ri vazifasi esa o'z foydasini ko'zlash emas, balki kambag'al

bemorlarni vijdonan davolashdan iboratligi aytiladi [6].

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** XX asrning boshlarida Buxoro amirligining ba'zi bir hududlarida shifoxona va ambulatoriyalar vujudga kelgan edi, ularni qurish uchun ketgan xarajatlar Buxoro amirligi xazinasi hisobidan qoplangan edi. 1898-1899-yillarda Buxoro hukumati shifoxonalarni moliyaviy ta'minlash uchun ikki ming so'm atrofida pul ajratgan. Ammo, keyinchalik hukumat moliyaviy yordam bermaganligidan aholiga tibbiy maslahat bepul berilgan bo'lsa-da, dori 15 tiyinga beriladigan bo'ldi. Moddiy ahvoli og'ir bo'lgan aholiga esa bu ham og'irlik qilar edi, bu esa o'z navbatida shifoxonalarga tibbiy yordam so'rab murojaat qilgan aholining soni kamayib ketgan edi [8]. Shunga qaramasdan, Buxoro amirligidagi boshqa joylarda ham shifoxonalar vujudga kelgan. Xususan, 1916-yilga kelib, Eski Buxoro, Karki, Chorjo'y, Hisor, Dushanbe, Qarshi va Shahrisabzda xotin-qizlar hamda erkaklar uchun shifoxonalar ochilgan edi [4].

Buxoro amirligi aholisi o'rtasida rishta kasalligiga chalinganlar tez- tez uchrab turgan. Bunga asosiy sabab toza ichimlik suvining yetishmasligi edi. Insonning hovuzdan suv ichishi natijasida gijja uning oshqozoniga tushib, rishta kasalligiga olib kelgan. Uning uzunligi 80 santimetrgacha yetgan va asosan oyoqning teriosti hujayralarida rivojlangan, ba'zi hollarda bemorning bir necha joylarida birdaniga paydo bo'lgan. Xanikov ta'kidlashicha, bitta xivalikda 120 ta shunday gijja borligi aniqlangan. Bu kasallikka chalinganlar uzoq yillar bu kasallikdan aziyat chekkan. Odatda kasallikning belgillari bir necha oylardan so'ng namoyon bo'lgan. Vamberi Buxoroga kelgan doktor Volfning Angliyaga borgandan keyin bir yildan so'ng rishta bilan og'rib qolganini aytib o'tgan edi. Fedchenko hovuzlardagi ichimlik suvini ushbu zarakunandalardan tozalash uchun ularda baliqlarni ko'paytirishni taklif etgan edi. Buxorodagi shifoxonalar rishta kasalini davolash yo'llarini bilmas edi, tibbiy xodimlar rishta alomati paydo bo'lgan joyga yod surtish bilangina cheklangan edi [1]. Umuman bu kasallik bilan mahalliy aholi shifoxonalarga kamdan kam hollardagina murojaat qilar edi, masalan 1897-yilda Buxorodagi mahalliy aholiga tibbiy yordam ko'rsatuvchi shifoxonaning ayollar bo'limiga bu kasallik bilan 12 nafargina bemor murojaat qilgan

edi [9]. Buxoro aholisi bu kasallikdan qutulish uchun rishtakash sartaoshlarga va duoxonlarga murojaat qilishgan.

Masalan, 1914-yilda “eski” Buxorodagi shifoxonaga 17.940 nafar bemor 29.611 marta tibbiy yordam so‘rab murojaat qilgan bo‘lsa, shulardan to‘rtidan bir qismi bezgak kasali bilan og‘rigan bemorlarni tashkil etgan [7]. Qizilcha (skarlatina), bo‘g‘ma (difterit) va qizamiq kabi og‘ir yuqumli kasalliklardan har yili aholining ko‘pchilik qismi nobud bo‘lgan [3]. O‘sha davr mutaxassislarining ma‘lumotlariga ko‘ra, 1897-yilda Buxoroda qizamiq epidemiyaga aylangan edi. Shu yili Buxorodagi mahalliy aholiga tibbiy yordam ko‘rsatuvchi shifoxonaning ayollar bo‘limiga bu kasallik bilan 34 bemor murojaat qilgan bo‘lsa, 119 nafar bemor xususiy ravishda murojaat qilishgan [9]. Moxov kasalligiga chalingan bemorlarning ahvoli yanada ayanchli edi [2]. Amirlik aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatgan shifokorlardan I.Penzyakov, Yakimov va Konev kabi shifokorlar u yerda ancha uzoq vaqt xizmat qilgan edi [4]. Shifokorlarning bu yerdagi 3 yillik xizmati Rossiya markaziy guberniyalaridagi 4 yillik xizmatga tenglashtirilgan edi [5]. Buxoro amirligida uzoq ishlagan shifokorlardan biri feldsher S.V.Mesberg bo‘lib, u 1897-yildan 1912-yilgacha Buxorodagi mahalliy aholi uchun ochilgan shifoxonaning ayollar bo‘limida akusher sifatida faoliyat yuritgan edi. 1912-yilda esa Buxorodagi “yangi shifoxona”da ishlay boshlagan edi [5], avval Toshkentdagi mahalliy ayollar va bolalar kasalxonasida xizmat qilgan vrach Yevgeniya Mandelshtam bilan birga ayollarga tibbiy yordam ko‘rsata boshlagan edi. Buxoro amiri o‘z navbatida rus shifokorlarining mehnatini qadrlashga harakat qilgan edi, xususan 1916-yilda bir qator shifokorlar amirlikning mahalliy aholisiga uzoq vaqt mobaynida ko‘rsatgan xizmatlari uchun Buxoro amirligining kumush ordeni bilan taqdirlangan edilar [6].

XIX asrning oxirlarida Buxoro amirligi aholisi orasida chechakka qarshi emlash ishlari amalga oshirila boshlangan edi. 1897 yilda 67 kishi chechakka qarshi emlangan bo‘lsa, emlanganlar asosan mahalliy yahudiylardan (57 kishi) iborat bo‘lib, ruslar (8 kishi) va musulmonlar (2 kishi) orasida emlash ishlari kamroq amalga oshirilgan [9].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Xulosa qilib aytganda, XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida

yollarga tibbiy yordam ko‘rsatish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ayniqsa ayollar uchun zamonaviy tibbiy muassasa vujudga kelishi ijobiy hol bo‘lgan edi. Shuningdek, mahalliy ayollar an’anaviy tibbiyot bilan bir qatorda zamonaviy tibbiyot xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ma‘lum darajada ega bo‘lgan edilar. Ammo, tashkil etilgan ambulatoriyalar va shifoxonalar son jihatdan kam bo‘lib, faqatgina ba’zi katta shaharlar aholisining ayrim qismini qamrab olgan. Amirlik aholisining asosiy qismi, ayniqsa qishloq aholisi e’tibordan chetda qolgan edi. Bundan tashqari, ular moliyaviy tomondan og‘ir ahvolda edi. Bundan tashqari, medisina xodimlarining mahalliy tillarni bilmasligi hamda tarjimonlarning yetishmasligi mahalliy ayollarga tibbiy yordam ko‘rsatilishini qiyinlashtirgan edi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Ayniy S. Asarlar. 8 jildlik. 7-jild. Esdaliklar. 4-qism (Tojikchadan A. Hakimov tarjimasini. Red. A. Rustamov) — Toshkent: “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – B.253.
2. O‘zbekiston Milliy arxivi, I.1-fond, 5-ro‘yxat, 939-ish, 11-varaq; I.3-fond, 1-ro‘yxat, 174- ish, 202-varaq; 446-ish, 20-varaq.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi, I.2-fond, 1-ro‘yxat, 231- ish, 128-137 varaqlar; I.3-fond, 1-ro‘yxat, 532- ish, 22- varaq.
4. O‘zbekiston Milliy arxivi, I.3-fond, 1-ro‘yxat, 446 ish, 1-varaq; 519-ish, 1-varaq; I.126-fond, 1-ro‘yxat, 1304-ish, 3-varaq.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi, I.3-fond, 2-ro‘yxat, 407-ish, 10-varaq orqasi.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi, I.3-fond, 2-ro‘yxat, 485-ish, 2-varaq.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi, I.3-fond, 2-ro‘yxat, 725-ish, 3-varaq.
8. Логофет Д.И. Страны бесправия. – Спб., 1909. – С.95-96.
9. Отчёт по женскому отделению русско-туземной лечебницы в Бухаре // Туркестанские ведомости. – 1898. – №78.
10. Русско-туземная лечебница в Бухаре // Туркестанские ведомости. – 1898. – №80.

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "YAQIN-UZOQ" OPPOZITSIYASINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Xaitova Gulhayo Tovasharovna

Termiz davlat pedagogika instituti, Amaliy ingliz tili kafedrasida  
o'qituvchisi

### ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОППОЗИЦИИ «БЛИЗКО-ДАЛЕКО» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Хайтова Гулхайё Товашаровна

Преподаватель кафедры "Прикладного английского языка"  
Термезского государственного педагогического института

### LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF THE "NEAR- FAR" OPPOSITION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Haitova Gulhayo Tovasharovna

Teacher of the Department "Applied English Language" of the Termez  
State Pedagogical Institute



Tel.: +998 97 810 12 27

e-mail:

xaitovagulhayo6@mail.

ru

Orcid: 0009-0008-

1070-1958

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarining izohli va ikki tilli lug'atlari ma'lumotlariga ko'ra, yaqin-uzoq oppozitsiyalarining leksik-semantik tuzilishini qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil qilinayotgan "yaqin-uzoq" oppozitsiyasining ingliz va o'zbek tillarida mos kelishi va farqli jihatlari, o'z va ko'chma ma'nolarda namoyon bo'lishi tillarning noqardosh ekanligi bilan izohlanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi "yaqin-uzoq" qarama-qarshilikning leksik-semantik tahlili ikkala madaniyatda ham munosabatlar qanday ifodalanishi va konseptualizatsiyasi haqida tushuncha beradi. Ushbu qarama-qarshilikni o'rganib chiqib, biz ushbu tillarning yaqinlik va masofani ifodalashdagi o'xshashlik va farqlariga duch keldik.

**Kalit so'zlar:** o'z ma'no, ko'chma ma'no, sema, yaqin, uzoq, oppozitsiya, ekvivalent.

**Аннотация:** В данной статье, по данным толковых и двуязычных словарей английского и узбекского языков, проводится сравнительный анализ лексико-семантической структуры близкородственных и дальневосточных противопоставлений. Совпадение и различие в английском и узбекском языках анализируемой оппозиции "близко-далеко", проявление в собственном и переносном значениях объясняется тем, что языки неоднородны. Лексико-семантический анализ противостояния "близко-далеко" в английском и узбекском языках дает представление о том, как выражаются и концептуализируются отношения в обеих культурах. Изучая это противоречие, мы столкнулись с сходствами и различиями в том, как эти языки выражают близость и расстояние.

**Ключевые слова:** собственное значение, переносное значение, sema, ближний, дальний, противопоставление собственное значение, переносное значение, sema, ближний, дальний, противопоставление, эквивалент.

**Annotation:** In this article, according to the explanatory and bilingual dictionaries of English and Uzbek languages, it consists in a comparative analysis of the lexical-semantic structure of close-distant oppositions. The fact that the "near-distant" opposition under analysis is consistent and different in English and Uzbek, manifested in its own and portable meanings, is explained by the fact that the languages are nonlinear. Lexical-semantic analysis of the "near-distant" opposition in English and Uzbek gives insight into how relations are expressed and conceptualized in both cultures. Having studied this contradiction, we have come across the similarities and differences of these languages in the representation of proximity and distance.

**Key words:** Proper meaning, figurative meaning, sema, near, far, opposition, equivalent.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Qarama-qarshiliklarni, ya'ni oppozitsiyalarni o'rganish leksik birliklar ma'nosining turli darajalaridagi ichki tuzilish va semantik jarayonlar qonuniyatlarining muhim muammolaridan biridir. "Oppozitsiya" atamasi har qanday ikki til hodisasining qarama-qarshi munosabatlari deb tushuniladi. Shu bilan birga, qarama-qarshilikka kiritilgan leksik birliklar taqqoslash uchun asos bo'lgan umumiy xususiyatlarga va o'ziga xos xususiyatlarga qo'shimcha ravishda o'z ma'nolarida bo'lishi kerak.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Qarama-qarshilik kategoriyasi borliqning asosiy mezonlaridan biri sifatida doimo olimlar diqqat markazidagi hodisalardan biri sifatida e'tirof etib kelingan. Jumladan, rus tilshunosligidagi L.A.Novikov, V.A.Ivanova, N.Miller kabi tilshunoslarning ilmiy izlanishlari shular jumlasidandir. Turkologiyada ham qarama-qarshilik haqida bir qancha maqolalar yozilgan, darsliklarda dastlabki umumiy ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, mazkur mavzuga bag'ishlangan monografik asarlar 1970-yillar davomida maydonga kela boshladi. Birinchi navbatda qozoq tilidagi antonimlarni maxsus o'rgangan Musin [5] hamda ozarbayjon tilidagi antonimlarni tahlil qilgan Talibov [9]lar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarni ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. O'zbek tilshunosligida esa antonimiya, oppozitsiya hodisalari haqidagi ilk ilmiy qarashlar S.Mutallibov [6], S.Usmonov [11] kabi olimlarning maqolalarida o'z aksini topgan bo'lsa, keyinchalik R.Shukurov[15], B.Isabekovlar[6] tomonidan ushbu masala nomzodlik dissertatsiyalarida tadqiq qilingan. Leksik birliklardagi semantik qarama-qarshilikni faqat antonimiya doirasidagina emas, balki undan tashqarida ham tekshirish maqsadga muvofiqdir va shu asosda antisemiya borasidagi D.Abdullayevaga tegishli ilmiy tahlillar ham tilshunosligimizdagi mazkur sohadagi yutuqlardan biri desak xato qilmagan bo'lamiz [1].

**MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)** "Yaqin" leksemasi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan o'zlashma so'z hisoblanadi va "haqiqiy bilim", "qat'iy ishonch" degan ma'nolarni anglatadi. Yaqin leksemasi sifat so'z turkumiga oid bo'lib, masofaga nisbatan ishlatiladi va uzoq emas degan

ma'noda qo'llaniladi. *Biror kilometr yo'l bosganidan keyin, shu yaqin o'rtadan miltiq tovushi chiqdi [2:94]. Saltanat quyoshga o'xshaydi, juda yaqin borsang, yonib ketishing mumkin [12:9]., Yaqin yo'l desang, Dushanbadayam kasalxona bor [10:113]. Markaziy laboratoriya endi yangi, keng binoda, o'z aktivlariga yaqin joyda mahkam o'rnashdi.* "Yaqin" leksemasi shevalarda *beri, o'g'uz lahjasida esa bari* leksemalari bilan ma'nodosh bo'ladi, *beri, bari* so'zlari ham masofaga nisbatan qo'llaniladi.; *Men kaftim bilan beri kelinglar ishorasini berdim [10:77], Oysuluv, beri kel, Yo'ldoshxon bilan tanishib ol, onamizning oldiga borib maqtanasan [12:33].*

"Yaqin" leksemasi vaqtga nisbatan ham qo'llanilib, vaqt oralig'i katta bo'lmagan, kelajakda sodir bo'ladigan va bajarilganligiga ko'p vaqt bo'lmagan ish-harakatlar oldidan ishlatiladi: *Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi...[2:37], Yaqin kungacha bir-birimizni do'st deb yurganimizga hayron bo'laman., Imtihonga yaqin qolganda, laborant qiz agrotexnikadan o'zim o'rgatib qo'yaman degan edi[8].*

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Xuddi shunday asosi "yaqin" bo'lgan ravish so'z turkumiga kiruvchi "yaqinda" leksemasi ham o'z navbatida vaqt ma'nosini ifodalab keladi. "Yaqinda" ravishini tahlil qilar ekanmiz, ushbu leksemadan anglashilgan ma'nolar umumiy vaqt semasiga birlashsa ham, ular o'rtasida tafovut mavjud. *Ma'lum bo'lishicha, u yaqinda, boyvachcha bilan unga qarashli konchilikka borgan ekan [2:26].* Masalan, yuqorida keltirilgan gapdagi "yaqinda" so'zi ayni vaqtdan biroz avval bajarilgan ish harakat mazmunini beryapti. *Hali, shu yaqinda pista chaqqanimni eslolmayman[10:123], U yaqinda boshqa ishga o'tadi., Yaqinda, biz ham sayrga chiqamiz* kabi gaplarda shu kunlar ichida, kelajakda bajarilishiga oz qolgan ma'no anglashilayapti.

*U ham o'sha paxta tozalash zavodida o'ttiz besh yilga yaqin avval oddiy ishchi, keyin master bo'lib ishlagan va shu yil bahorda pensiyaga chiqqan ekan.* Ushbu keltirilgan misollarda yaqin so'zining taxmin ma'nosini ifodalab, taxminan so'zi bilan ma'nodosh bo'lyapti. O'zbek tilining izohli lug'atida, "yaqin" leksemasining o'z va ko'chma ma'nolari bilan birgalikda 7 ga yaqin ma'nolari keltirib o'tilgan [14:130]. "Yaqin" leksemasining

ma'nolari quyidagicha ta'riflangan. Ingliz tilining izohli lug'atida esa o'z va ko'chma ma'nolari bilan birgalikda 5 ta ma'nolari keltirilgan. "Yaqin" leksemasi ingliz tilida "near" so'zi bilan, shu bilan bir qatorda yaqin sememasini beruvchi *close to*, *nearby*, ...kabi so'zlar bilan qo'llaniladi. Longman Dictionary of Contemporary English lug'atida *near* leksemasining beshta ma'nosi keltirib o'tilgan [16:1162]. *They live near London, I am sure, he owns a house somewhere near here...* ushbu gaplarda *near* so'zi masofaga nisbatan ishlatilib, xuddi o'zbek tilidagidek, unchalik uzoq emas ma'nosini anglatyapti. *I told him not to go near there, Once he crawled near to the sick wolf* xuddi o'zbek tilidagi singari *near* so'zi ham masofaga nisbatan o'z ma'nosida qo'llanilyapti. *Near* leksemasi ingliz tilida vaqt ma'nosiga ham murojaat qilishi mumkin qachonki, ma'lum bir vaqt yoki voqea oldidan sodir bo'ladigan vaqtga ishora qilinsa. *It was near twelve – Soat o'n ikkiga yaqin edi.*

Uzoq leksemasi sifat so'z turkumiga mansub bo'lib, qadimgi turkiy tildagi **uzoqla** ma'nosini anglatgan **uza** fe'lidan – **q** qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. O'zbek tilidagi **q** undoshi oldidan **a** unlisi **o** ga almashgan. **Uza+q = uzoq**. "Uzoq" leksemasini ham ingliz va o'zbek tillaridaagi lug'atlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak, ikkala tilda ham 4 ta ma'nosi mavjudligini (o'z va ko'chma ma'nolari bilan birgalikda) ko'rishimiz mumkin. Vaqt va masofa ma'nolarini anglatishi ikkala tilda ham aynanlikga ega. *The children didn't go far from home – Bolalar uydan uzoqqa ketishmadi.* Yuqorida keltirib o'tilgan jumalarda **uzoq/far** leksemasi masofaga nisbatan ikkala tilda ham ishlatilyapti. *The first petrol driven car was produced as far back as 1883- Birinchi benzinli mashina uzoq zamonga, 1883-yilga taqaladi.*

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**. Xulosa qilib aytganda, noqardosh tillar hisoblanuvchi, ingliz va o'zbek tillardagi lingvistik hodisalarni jumladan qarama-qarshiliklarni leksik va semantik jihatdan qanday ifodalanishini o'rganish orqali biz har ikki tilning madaniy kontekstlar ta'sirida dunyoqarashini, so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarda ifodalanishini, ingliz va o'zbek tillaridagi farqlilik va o'xshashliklarni chuqurroq tushunamiz. Ingliz va o'zbek tillaridagi "yaqin-uzoq" qarama-qarshiligi

chog'ishtirilganda yaqin leksemasining o'zbek tilidagi izohli lug'atlarda aks ettirilganida ko'ra 7 ta ma'noda, ingliz tilida esa 5 ta ma'noda kelishi dalillandi. Xuddi shundat uzoq leksemasi ham chog'ishtirilganda ikkala tilda ham ma'nolarning teng ekanligiga, ya'ni 4 tadan ma'no ifodalanishiga guvoh bo'ldik.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abdullayeva D. O'zbek tilida antisemiya: Filol. fan. nomz. ... diss. Aftoreferat. Toshkent: 2010. – B. 166.
1. A.Qahhor. Adabiyot muallimi. Toshkent: Ziyonashr, 2019. – 94 b.
2. Isabekov B. Hozirgi o'zbek tilida leksik antonimiya: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent. 1973.
3. Jack London. To build a fire and other stories. Global language resources. 2003. – P.194
4. Мусин Ж. АНТОНИМ В КАЗАХСКОМ ЯЗЫКЕ. – Алма-Ата. 1970
5. Mutallibov S. Antonim so'zlar // Sovet maktabi, 1955. – B. 112.
6. P.Qodirov. Avlodlar dovoni. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 12 b.
7. S.Ahmad. Cho'l burguti. – Toshkent: 1960. – 103 b.
8. Талибов К. А. АНТОНИМЫ В СОВРЕМЕННОМ АЗЕРБАЙДЖАНСКОМ ЯЗЫКЕ. – Баку. 1971. – С. 134.
9. Tog'aymurod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: Sharq, 1994. – 77 b.
10. Usmonov S. Antonimlar // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. 1958. – B. 244.
11. To'xtaboyev X. Qiz bolaga tosh otmang. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 33 b.
12. Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 9.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 130 b.
14. Shukurov R. O'zbek tili antonimlarining leksik-semantik tabiati: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent: 1973 – B. 155.
15. Xaitova, G. . (2024). Ingliz va o'zbek tillarida "yaqin-uzoq" oppozitsiyasining lingvokulturalogik tadqiqi. *Наука и технология в современном мире*, 3(1), 15–17. Извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/view/26059>

## MIFLAR YORDAMIDA ONGNI MANIPULYATSIYALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Toshov Xurshid Ilxomovich**

O‘zMu “Falsafa va mantiq” kafedrasida tayanch doktoranti (DSc),  
dotsent

## ОСОБЕННОСТИ МАНИПУЛЯЦИИ РАЗУМОМ ЧЕРЕЗ МИФЫ

**Тошов Хуршид Ильхомович**

Доцент кафедры «Философия и логика» УзМУ, доцент

## CHARACTERISTICS OF MIND MANIPULATION THROUGH MYTHS

**Tashov Khurshid Ilxomovich**

Assistant doctor (DSc) of the "Philosophy and Logic"  
department of UzMU, associate professor



E-mail: [sujdiniya@mail.ru](mailto:sujdiniya@mail.ru)

+998977939641

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada miflarning manipulyativ xarakteri tahlil qilinadi. Bunda an’anaviy va zamonaviy tafakkurlarda namoyon bo‘luvchi miflarning umumiy hamda farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning kishilar ongini egallash borasidagi epistemologik va psixologik jihatlari ochib beriladi, qolaversa, falsafiy tafakkur taraqqiyoti mobaynida yuzaga kelgan bu boradagi konsepsiyalar tadqiqiga diqqat qaratiladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatlarda miflar yaratish hamda uni ommalashtirish mexanizmlari falsafiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Bunda yevropasentristik ruhdagi miflarning tahlili asosida afsonalarning inson qalbi va ongini manipulyatsiyalash imkoniyatlari ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** mif, qadimiy miflar, zamonaviy miflar, mistifikatsiya, yevropasentrik miflar, madaniy yadro, ijtimoiy evolyutsiya, liberalism ongsizlik.

**Аннотация:** В данной статье анализируется манипулятивный характер мифов. Путем сравнительного анализа общего и различных аспектов мифов, возникающих в традиционном и современном мышлении, выявляются их гносеологические и психологические аспекты занимания сознания людей. Кроме того, уделено внимание изучению понятий по этому поводу, возникших в ходе развития философского мышления. Также с философской точки зрения рассматриваются механизмы мифотворчества и популяризации в современных обществах. На основе анализа мифов в евроцентристском духе раскрываются возможности мифов манипулировать человеческим сердцем и разумом.

**Ключевые слова:** миф, древние мифы, современные мифы, мистификация, европоцентристские мифы, культурное ядро, социальная эволюция, либерализм бессознательного.

**Abstract:** this article analyzes the manipulative character of myths. Through the comparative analysis of the common and different aspects of the myths that appear in traditional and modern thinking, their epistemological and psychological aspects of occupying the minds of people are revealed. In addition, attention is paid to the study of concepts in this regard, which arose during the development of philosophical thinking. Also, the mechanisms of myth creation and popularization in modern societies are considered from a philosophical point of view. Based on the analysis of myths in a Eurocentric spirit, the possibilities of myths to manipulate the human heart and mind are revealed.

**Key words:** myth, ancient myths, modern myths, mystification, Eurocentric myths, cultural core, social evolution, liberalism unconscious.

**Kirish.** Miflar irratsional hamda diniy mazmunga ega bo'lib, jamiyat an'alarining ajralmas qismini tashkil etadi va, ayniqsa, ideokratik boshqaruv tizimlarining ijtimoiy strukturasi legitimatsiya qilishda muhim rol bajaradi. Biroq shuni nazardan soqit qilmaslik lozimki, miflar zamonaviy jamiyatlarda voqelikni o'zida aks etuvchi ijtimoiy ong shakli sifatida hali o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Miflarning tuzulmasi va ularning dunyoqarash shakli sifatidagi jihatlari yaxshi o'rganilgan bo'lib, bunday tadqiqodlar natijalaridan, zamonaviy jamiyatlarda miflarni yaratish va ulardan ongni manipulyatsiya qilishda keng foydalanilmoqda. Tabiiyki, bunday miflar xalqlarning madaniyat yadrosini tashkil qilgan. Qadimgi Yunon, Hindiston, qadimgi turkiy elatlar miflari kabi uzoq vaqt saqlanib qolingan afsonalarning zamonaviy jamiyat an'ana va qadriyatlariga aylanib ketishi birmuncha murakkab sanaladi. Lekin, shunga qaramay zamonaviy jamiyatlarda yaratilayotgan miflar ommaviy madaniyat doirasida, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilishga imkon yaratadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ongni manipulyatsiyalash fenomenining mohiyati va uning ijtimoiy-siyosiy, psixologik, axloqiy va madaniy jihatlari ochib berishga qaratilgan ko'plab izlanishlarni ajratib ko'rsatish mumkin, ammo, ularning ayrimlari g'oyaviy nuqtai nazardan muayyan g'oyaviy yaqinlik kasb etadi. Bu esa ularni tadqiq etishda tasnifiy yondashuvga zarurat tug'diradi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur fenomenni tadqiq etishga qaratilgan, funksionalistik, gumanistik, refleksiv va inqilobiy singari zamonaviy yondashuvlar asosida shakllangan izlanishlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Ongni manipulyatsiya qilish fenomeni sohalararo tadqiqod predmeti sanalib, u falsafa, psixologiya, sotsiologiya, lingvistika, siyosiy fanlar singari yo'nalishlarda keng o'rganiladi. Ayni fenomen yaxlit holda to'laligicha o'rganilmagan bo'lsada, uning ayrim jihatlari yuqoridagi tadqiqot sohalar nuqtai nazaridan muayyan darajada tahlil etilgan, jumladan, E.Shostroma[1], K.Xorni[2] izlanishlarida manipulyatsiya obyektiva va subyektiva o'rtasidagi psixologik farqlar ochib berilgan bo'lsa, Ye.L.Dotsenko[3] ishlarida manipulyatsiya fenomenini tushuntirishga qaratilgan yondashuvlar natijalari hamda ularning psixologik jihatlari

sintezlanadi. G. Tard, G.Lebon, S.Moskovich, S.Sigele, V.M.Bexterev, Z.Freyd, K.G.Yung asarlarida individual va ommaviy ongga ta'sir ko'rsatish usullarining o'ziga xos xususiyatlari tahliliga diqqat qaratiladi. F.Zimbardo, M. Lyayppe, D.Mayers, E.Aronson, E.R.Pratkanis izlanishlarida esa, shaxs kognitiv tuzulmasiga ijtimoiy ta'sir ko'rsatish jarayonlarining alohida aspektlari tahlil etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Olmon faylasufi E. Kassirer o'zining "Zamonaviy siyosiy miflarning texnikasi" nomli asarida siyosiy maqsadlarda miflardan jamoatchilik ongini manipulyatsiya qilish vositalari sifatida qasddan foydalanilayotganligini qayd etadi. Faylasufning mazkur asaridan quydagi iqtiboslarni keltirish mumkin: "Mif odatda, onglanmaganlik faoliyati mahsuli hamda tasavvur o'yinlarining natijasi sifatida talqin qilinadi. Biroq, zamonaviy jamiyatlarda miflar qat'iy, puxta o'ylangan reja asosida yaratiladi. Yangi siyosiy miflar spontan tarzda yuzaga kelmaydi, boz ustiga ular erkin, ijodiy tasavvurning mahsuli ham emas. Aksincha, ular o'z ishining ustalari tomonidan sun'iy yaratilgan mahsulotdir. XX asrdagi buyuk texnologik kashfiyotlar, xuddi qurol yaroqlar kabi miflar ham ulkan bir industriyaga aylanib bormoqda. Bu prinsipial jihatdan muhim davr bo'lib, ijtimoiy hayotimizni butunlay o'zgartirib yuboradi"[4].

Bundan tashqari E.Kassirer siyosiy zo'ravonlik va majburlash metodlari insoniyat tarixi davomida qo'llanilib kelinganligini ta'kidlaydi. Lekin bunga qaramay, aksariyat hollarda ushbu metodlar moddiy natijaga diqqat qaratganligi ma'lum. Hatto eng shafqatsiz siyosiy tizimlar ham, bir qator xulq-atvor modellarinigina singdirishga uringan. Ular insonlarning fikr xayollarini band etishdan manfaatdor bo'lmaganlar. Kasirerning fikricha, zamonaviy siyosiy miflar esa butunlay yangi mazmunga ega. Ular biror xatti-harakatni ta'qiqlashga qaratilmagan. Zamonaviy miflar dastlab insonni o'zgartirishni, so'ngra uning barcha faoliyatini nazorat qilish va boshqarishni nazarda tutadi.

“Bizning siyosatchilarimiz shuni yaxshi biladiki, deb yozadi Kasirer, ommani kuch bilan emas, tasavvur yordamida boshqarish samaraliroq. Shu bois, ular bu ilmdan ustalik bilan foydalanmoqdalar. Bugungi kunda siyosatchi omma ko‘z o‘ngida kelajakni bashorat qiluvchi koxinga aylanib qoldi. Bashorat yangi siyosiy texnologiyalarning ajralmas qismiga aylandi”[5].

Bu ma’nodan falsafa siyosiy miflar shakllanishi uchun to‘sqinlik qila olmaydi, chunki ular o‘ziga xos mazmunga ega. Ular mantiqiy argumentlarga bo‘ysunmaydi, ularni sillogizm yordamida rad etish murakkab. Biroq, shunga qaramay falsafa, miflarning yaratilish shartlari va ularni ishlab chiqarayotgan manipulyatorlarni bilishda yordam beradi. Kasirer siyosiy mifni bilish deganda, uning kuchli va kamchilik tomonlarini baholashni ko‘zda tutadi. Zamonaviy miflarning vujudga kelishini, strukturasi, ishlash texnologiyalarini bilish olimning fikricha, uni bartaraf etishda muhim o‘rin tutadi.

Jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishda manfaat nuqtai nazaridan miflarni turli kategoriyalarga ajratish mumkin. Ana shunday kategoriyalardan biri bu qora miflar tushunchasidir.

Odatda qora miflar xalqaro miqyosda, ijtimoiy ongda paydo qilinadi va lozim topilgan vaqtda muvaffaqiyatli manipulyatsiya qilish uchun, uzoq vaqt xotirada saqlanadi. Aksariyat tarixiy qora miflar nufuzli intellektuallar: olimlar, yozuvchilar tomonidan yaratiladi va hukmron elita tomonidan madaniy gegemonlikni saqlab qolish maqsadida qo‘llab-quvvatlanadi. Bu miflar hukmron guruhlarning tarix sahnasiga chiqish davridagi hodisalarni oqlashga xizmat qiladi. Agar qora miflar nufuzli xalqaro olimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlansa u holda ular uzoq vaqt saqlanib qoladi hamda unga yondosh boshqa qora miflarning yaralishiga sabab bo‘ladi.

Agar yurtimiz tarixiga diqqat qaratsak, ayniqsa, sobiq ittifoq ideologiyasi doirasida bir nechta qora miflarni kuzatish mumkin. Misol uchun Amir Temurning g‘oyat shafqatsizligiga oid qora miflar bunga misol bo‘ladi. Unga ko‘ra Amir Temurning potologik darajada shafqatsiz bo‘lishi turkiy xalqlarning irratsional “yovvoyi” mentaliteti bilan bog‘lanadi. Bu ma’nodan nafaqat Amir Temurning boshqaruv usuli, balki rus bosqiniga davom etgan davlatchilik tizimi ratsional madaniyat, ya’ni g‘arb madaniy standartlariga mos kelmaydi.

Bu kabi muayyan mafkuraga xizmat qiluvchi qora miflarni insoniyat tarixi taraqqiyoti davomida ko‘plab uchratish mumkin.

Agar Yevropa tarixiga nazar solsak, inkvizitsiya haqidagi mif bugungi zamonaviy g‘arb jamiyatlarining asosiy miflari, protestantlik va kapitalizmning paydo bo‘lishi, ilm fanni yuzaga keltirishiga sabab bo‘lgan, degan mif bilan chambarchas bog‘liqligini kuzatish mumkin. Bu ma’nodan feodalizmning shavqatsizliklari, keyinchalik ishchilarning eksplutatsiya qilinishi, mustamlakachilik harakatlari, millionlab qoratanlik insonlarning qullikka sotilishi ilm fanning yuzaga kelishi va taraqqiyot haqidagi miflar bilan oqlanadi.

Keyinchalik fan tarixida yana bir muhim tezis ilgari surildi. Unga ko‘ra ilm fan Yevropaning shimoli hududlarida yuzaga keldi, zotan shimolda inkvizitsiya keng tarqalmagandi. Chunki inkvizitsiya va kontrreformatsiya avj olgan janubiy hududlarga ratsional tafakkur begona edi [6].

Yuqoridagi mulohazalarga tayanib shuni nazardan chetda qoldirmaslik lozimki, insoniyatning madaniy rivojiga, ilm fan taraqqiyotiga qaysidir hudud, xalqlar, millatlarning ta’sirini bo‘rtirib ko‘rsatish bir jihatdan murakkab, bir tomondan esa, oson. Bu ma’nodan, ratsional tafakkur tarziga ega bugungi zamonaviy jamiyatlarning qay tarzda qachon ushbu ko‘rinishga kelganligini, arvohlar, iblislar, jodugarlar haqidagi tassavvurga to‘la uyg‘onish davri tafakkuridan zamonaviy ratsionallikka o‘tganligini, marifatparvarlik davri, Dekard davri qaysi nuqtadan boshlanishini aniqlash imkonsiz.

Shuningdek, Yevropa tarixini o‘rganuvchi bir qator olimlar diniy reformatsiya aniqrog‘i, protestantlik mazxabining paydo bo‘lishi inkvizitsiyaga barham berishda muhim rol o‘ynadi, degan tezisni qora mif deb ataydilar. Ularning mulohazalariga ko‘ra, reformatsiya aqlni diniy xurofotlardan xalos qildi degan qarash, protestant mazxabining asoschilari: Lyuter, Kalvin, Baksterlarning mutaassib darajada jodugarlikka qarshi chiqqanlik faktiga to‘g‘ri kelmasligini ta’kidlaydilar.

Zamonaviy inson tafakkuridagi asosiy yorqin miflar G‘arbning ratsionalistik metodologiyasi natijasida vujudga keltirilgan. Bu miflar jamlanmasini aksariyat faylasuf olimlar “yevropasentrizm” haqidagi miflar deb ataydilar. Bu ma’nodan “Yevropa” tushunchasi geografik nuqtai



nazardan emas, madaniy kontekstda talqin qilinadi. XX asrning ikkinchi yarmida ayrim madaniyatshunos olimlar yevropasentrizmning yadrosi sifatida AQSh sotsio madaniy muhitini ko'rsatadilar, lekin bu qarashlarni qabul qilmaydigan ilmiy doiralari ham mavjud.

Umuman olganda, yevropasentrizmni G'arbning metodologiyasi deb atash mumkin, chunki, uning doirasiga bir-birini butunlay inkor qiluvchi qarashlarni kiritish mumkin. Masalan, liberalizm va marksizm bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shuni e'tiborga molikki, liberalizm ham, marksizm ham tarixning g'arb manadiyati shakllangan bosqichlariga oid dunyo manzarasi va postulatlaridan kelib chiqadi.

Yevropasentrizm o'ziga xos mafkura sifatida ayniqsa, g'arbning sobiq mustamlaka hududlari va uchunchi dunyo mamlakatlariga singdiriladi. Bu ma'noda yevropasentrizm tarixiy nuqtai nazardan har qanday millatga xos etnosentrizmdan farq qiladi. Yevropasentrizm ideologiya sifatida, universalizmga da'vo qiladi. Unga ko'ra, har bir xalq, madaniyat, millat bir xil tarixiy bosqichni bosib o'tadi, ular rivojlanish bosqichlariga ko'ra, bir-birlaridan o'zaro farq qiladi.

Yevropasentrizm ayniqsa, XIX asrda keng tarqaldi, lekin uning asosiy g'oyalari hatto bugungi kunda ham o'zgarmani yo'q. Ayniqsa, o'z tarixiy yo'lini belgilashni boshlagan jamiyatlarda yevropasentrizm mafkurasini targ'ib qiluvchi siyosatchilar "Albatta G'arbiga ergashish kerak, chunki bu farovon hayot" qabilidagi shiorlar bilan oldinga intiladilar.

Shuni nazardan chetda qoldirmaslik lozimki, yevropasentrizmni butun insoniyatni yaxlit, universal dunyo manzarasini ilgari suruvchi utopik g'oyalar ekanligini G'arbning ilg'or faylasuf, olimlarining o'zi ta'kidlaydi. Misol uchun, fransuz antropolog olimi K. Levi Stros yevropasentrizm g'oyalarini inkor etadi:

"Biz ko'nikib qolgan ma'nodagi butun dunyoning yaxlit sivilizatsiyasining mavjud bo'lishi mumkin emas. Chunki sivilizatsiya ulkan miqdordagi xilma-xil madaniyatlarning o'zaro birligini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, sivilizatsiyaning mavjudligi ana shu turfa xil madaniyatlarning tirikligi bilan belgilanadi. Dunyo sivilizatsiyasi o'zining originalligi va tabiiyligini saqlab qolgan hamda teng holda rivojlanayotgan ko'pgina madaniyatlarning katta ittifoqini anglatadi.

Agar ta'bir joyiz bo'lsa, insoniyatning muqaddas burchi bitta madaniyat, millat yoki jamiyatning statusini ulug'lovchi ko'r-ko'rona partikulyatsiya ta'siridan xolos bo'lishga intilishdir. Shuni unutmaslik kerakki, insoniyatning faqat bir qismi boshqalarga to'g'ri hayot tarzini ko'rsatuvchi formulaga ega emas, boz ustiga butun dunyoda bir xil hayot tarzining o'zi bo'lishi mumkin emas" [7].

Quyida yevropasentrizmning bir nechta bazaviy miqlarini keltirib o'tamiz, zotan aynan mana shu miqlar keyinchalik: yevropa demokratiyasi, bozor iqtisodiyoti, fuqarolik jamiyati va erkinlik haqidagi mafkuraviy konsepsiyalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

G'arb sivilizatsiyasining xristian sivilizatsiyasi bilan aynanlashtirish borasidagi urinishlar buning yaqqol misoli bo'la oladi.

Barcha yirik sivilizatsiyalari kabi G'arbiy Yevropa madaniyati ham o'zining konsolidatsiya jarayonida diniy omillardan keng foydalangan. Bu jihatdan, yevropasentrizm mafkura sifatida g'arbning xristianligi haqidagi mifni o'z strukturasi o'ziga xos ratsional tafakkur tarzi va dunyoqarash shaklini aks etuvchi matritsa o'rnida qabul qildi. Madaniyatning turli tarixi bosqichlarida mazkur mif turli variantlarda talqin qilindi. Fransuz marifatparvarlik davrida esa, butunlay inkor qilindi.

Cherkovga munosabat "Ilonning boshini yanch" shiori ostida namoyon qilindi. XX asrning oxiriga kelib esa, G'arb yahudiy xristianlik sivilizatsiyasi degan qarashlar ham ilgari surildi. Bu ma'noda xristianlik o'ziga xos obraz shakllantiruvchi omil sifatida baholandi. Aynan shu davrda G'arb xristian kishisi, Sharqlik musulmon insonga qarama-qarshi qo'yildi. Zamonaviy xristian inson obrazini yaratishda mafkurachilar, san'atkorlar birday xizmat qildilar.

Biroq yevropasentrizmning ushbu bosqichi xristianlik mifini talqin qilishdagi ichki ziddiyatlar bilan ham belgilanadi. Unga ko'ra, bir tomondan mazkur mifni konsolidatsiya qilishni istovchi tarafdorlar ko'paygan bo'lsa, boshqa tomondan, zamonaviy inson obrazidagi axloqiy me'yorlarning aksariyati xristianlikning asosiy g'oyalariga mos kelmaydi.

Ushbu murakkablik sanoat madaniyatining zamonaviy kishisi obrazini yaratish vaqtidayoq yuzaga kelgandi. Masalan mustamlakachilik harakatlari va ularning oqibatida yuzaga kelgan irqchilikni oqlash inson haqidagi xristianlik ilgari

surgan qarashlardan voz kechishga olib keldi. Zotan, hatto, o'rtaslar tafakkurida ham irqchilikka yo'l qo'yilmagandi.

Natijada yahudiylarning tanlangan xalq haqidagi qarashlari britaniyaliklar talqinida ilgari surildi. Bundan tashqari, Buyuk Karlning izdoshlari qadimiy keltlar ekanligi haqidagi miflar o'ylab topildi. Tarixchi olim A. Toynbi, "Ingliz zaban protestantlar orasida hatto bugungi kunda ham, xuddi eski axdda bitilganidek o'zlarini tanlangan xalq ekanligiga ishonuvchi insonlar mavjud"[8].

Diniy reformatsiya ya'ni, protestantlikning yuzaga kelishi davrida injil motivlaridan ko'ra eski axdga murojaat qilish, an'anaviy jamiyatning axloq qoidalariga mos kelmaydigan odatlar: moddiy foydaga intilish, kapital yig'ish kabi holatlarni oqlashda muhim rol bajardi. Bu jarayonni nemis sotsiologi va faylasufi M.Veber o'zining "Protestantlik axloqi va kapitalizm ruhi" nomli asarida batafsil bayon qiladi. Unga ko'ra, birgina tijorat va olib sotarlikni diniy nuqtai nazardan oqlanishi, keyinchalik moddiy kapitalga intilishning to'g'ri ekanligini g'oyaviy jihatdan asoslagan holda, g'arb kishisi tafakkurida teologik qarashlarning o'ziga xos inqilobini amalga oshirdi. M.Veyber mazkur jarayonlarning shu qadar katta ta'sirga ega bo'lganligini, ayrim britaniyalik diniy sektalar o'zlarini britan yaxudiylari deb ataganliklari bilan izohlaydi.

M.Veyber mazkur britaniya "yahudiyligining" zamonaviy jamiyat madaniyatini shakllanishida muhim rol bajarganligini ta'kidlab o'tadi.

Umuman olganda, texnologiya va kuch qudrat kulti aks etgan sanoat sivilizatsiyasining madaniy qiyofasi xristianlik qadriyatlarini emas, olamni qayta tuzish uni taraqqiy ettirishni namoyon qiluvchi "titan Prometey" obrazini ilgari suradi. Darhaqiqat, ma'rifatparvarlik davridan boshlangan g'arb madaniyatini Prometey obrazi ifodalaydi. Ushbu obraz nafaqat tafakkur tarzi balki, barcha sohalariga kirib bordi. Bunyodkorlik, ma'rifat tarqatish, tarbiya, tabiat kuchlarini bo'ysundirish, bularning barchasi sanoat sivilizatsiyasining asosiy qadriyatlarini sanaladi.

XX asrning so'nggi davrlarini yozuvchilar, san'atkorlar, faylasuflarning ta'biri bilan aytganda sikloplik madaniyatining namoyon bo'lishi deb atash mumkin. Zotan bu ma'noda dastlab bunyodkorlikka xizmat qilgan kuch qudrat, endilikda vayronkorlik

jihatlarini namoyon qilmoqda. Bu jarayonlarning madaniy qiyofasida esa, neomajusiylilik rituellari ko'proq ko'zga tashlanadi. O'z navbatida mafkurachi manipulyatorlar buni g'arb antik madaniyatning to'g'ridan to'g'ri vorisi degan mulohazalar bilan oqlaydilar.

Yevropasentrizmning yana bir keng tarqalgan miflaridan biri bu, G'arb sivilizatsiyasi antik davr madaniyatidan bevosita kelib chiqqan degan tezis sanaladi. Mazkur tezis barcha tarixiy davrlarga ko'ra, mutanosib tarzda talqin qilinadi.

Iqtisodiy jihatdan antik davrdan yangi davrga o'tish jarayonlari formatsion yondashuvga ko'ra izohlanadi. Boshqacha qilib aytganda, tarix taraqqiyotning uzluksiz jarayoniga muvofiq o'zgarib boradi. Ibtidoiy jamiyatlardagi ishlab chiqarish kuchlari o'zgarishi natijasida quldorlik bosqichi, so'ngra feodalizm, ilm fan rivojlanishi natijasidagi ishlab chiqish munosabatlari o'zgarishi bilan kapitalizm yuzaga keladi. Formatsion davrning faqat shu ko'rinishdagi o'zgarishi to'g'ri deb baholanadi. Slavyan va turkiy xalqlarda quldorlik tizimining bo'lmaganligi, xitoyda esa krepostnoylik huquqining mavjud emasligi, mazkur xalqlarning sivilizatsiya davrlarini boshdan kechirmaganligi bilan izohlanadi.

Tom ma'noda tarixga nisbatan formatsion yondashuv yevropasentrizmning miflaridan biri sanaladi. Zotan, qadimgi antik madaniyat g'arb sivilizatsiyasining bir qismi emas, qadimgi sharq madaniy tizimi bilan bog'liq hisoblanadi. Keyinchalik g'arbiy Yevropa Rim va Sharqiy xristianlik Vizantiya orqali uning vorisiga aylandi. Yunon miflari o'rniga arentalizm – sharqning rimlashgan miflari yaratildi. Shuni nazardan soqit qilmaslik lozimki, antik davr miflari o'z mohiyatiga ko'ra xristian miflaridan tubdan farq qilgan. Bu haqda, antik davr miflari bo'yicha yirik mutaxassis, AQShlik olim M.Bernalning qarashlariga asoslanib Samir Amin quyidagi mulohazalarni keltiradi:

"Yevropasentrizmning miflari shu qadar o'ziga xoski, unda turli elementlar zaxira qilib qo'yiladi. Agar mafkuraviy vaziyat to'g'ri kelsa bir element o'rniga, ustalik bilan boshqasi qo'llaniladi. Masalan, ma'rifatparvarlik davridagi burjuaziya xristianlik ta'limotini g'oyat tanqid qilgan, shu bois, ular ayni shu davrda yunon miflarini bo'rttirib ko'rsatishga uringan. Bu mifga ko'ra, qadimgi Yunoniston ratsional falsafaning beshigi bo'lgan, Sharq esa metafizikani yengib o'ta olmagandi.

Mazkur tezisni mistifikatsiya qilinganini Marten Bernal o'zining ta'biriga ko'ra, qadimgi yunonistonni miflashtirish jarayoni bilan izohlaydi. Bernal qadimgi yunonlar o'zlarining qadimgi Sharq madaniyatining bir qismi ekanligini bayon etishgan jihatlarga diqqat qaratadi. Qadimgi yunonlar Misr va finikiyaliklardan o'rgangan narsalarini g'oyat qadrlaganlar va bugun yevropasentristlar ta'kidlayotgan g'arb madaniyatiga o'zlarini mansub deb bilmaganlar. Aksincha, ular o'zlarining ajdodlari sifatida Misr va finikiyaliklarni ko'rsatib o'tganlar"[9].

Yevropasentriзмning keng tarqalgan miflaridan yana biri bu ijtimoiy evolyusiya nazariyasi sanaladi. Evolyusiya nazariyasi ayniqsa, Ch.Darvinning qarashlari muvaffaqiyatidan so'ng, fundamental mifga aylandi. Darwin nazariyasi, o'sha davr ijtimoiy hayotga, tafakkur tarziga kirib ulgurgan stereotip va qarashlarni ilmiy asoslab berishga xizmat qildi. Unga ko'ra, jamiyat rivojlangan, rivojlanayotgan hamda rivojlanmaganlar qatlamiga ajratildi. Kundalik tafakkur tarziga, rivojlanmagan qatlamlar, madaniyatlar raqobat oqibatida yo'qolib ketadi, kuchlilar rivojlanmaganlarni eksplutatsiya qilishi mumkin, zero bu, tabiat qonuni degan fikr kirib bordi.

Biroq, antropolog olimlar jamiyat va madaniyatga evolyutsion qarashni tadbiiq qilish mafkuraviy spikulyatsiyadan boshqa narsa emasligini, u hech qanday ilmiy asosga ega emasligini ta'kidlashadi. Masalan, K. Levi Stros bu jihatni quydagicha izohlaydi:

"Biologik evolyutsionizm va soxta evolyutsionizm o'zaro katta farq qiluvchi hodisalardir. Masalan, yer qarining geologik qatlamlariga nazar solsak, muayyan moddalarning yuzaga kelishi turlicha kechadi. Geologik nuqtai nazardan yer qatlamlaridagi moddalar xuddi, hayvonot olamidagidek, biri ikkinchisini keltirib chiqarmaydi. Shu bois xam, hayvonot olamiga tegishli bo'lgan turlarning kelib chiqishi nazariyasini mavjud barcha sohalarga qo'llash g'oyat darajada ilmsizlikni anglatadi"[10].

Ammo, ayni o'rinda evolyutsionizmning faqatgina mafkuraviy targ'ibot vositasi ko'rinishidagi jihatlari haqida so'z bormoqda. Shu ma'noda, har qanday ilmiy nazariya uning tabiiy yoki ijtimoiy-gumanitar sohaga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, manipulyatorlar tomonidan ustalik

bilan foydalanilishi mumkinligini nazardan soqit qilmaslik lozim.

Ma'lumki, argumentlash nazariyasida autoretetlar fikrning chinligini asoslashdagi muhim argument sifatida qo'llanilishi mumkin, ko'pincha, bunday autoretetlar qatoriga, buyuk va taniqli shaxslar, diniy matnlar, qadriyatlar kabilar keltirilib o'tiladi. Ammo, yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, ilmiy nazariya va konsepsiyalar ham kishilarni muayyan fikr yoki pozitsiyaning chinligini isbotlashdagi nufuz argumenti sifatida tadbiiq qilinishi mumkin. Bu esa avvalo, ziyolilar qatlami, u orqali esa, keng aholi ommasi ongini manipulyatsiyalashda birmuncha qo'l keladigan mexanizm sanaladi. Ayniqsa, tarixni sohtalashtirishga qaratilgan manipulyatsiya jarayonida ana shunday konsepsiyalar asosida miflar yaratish mexanizmi manipulyatorlar tomonidan unumli foydalaniladi.

### **Xulosa va takliflar**

1. Mif eng qadimgi dunyoqarash shakli bo'lib, u muayyan makon va zamonda ro'y bergan axborot taqchilligi oqibatida yuzaga keladi.
2. Zamonaviy miflar ham muayyan ijtimoiy-siyosiy masalada kuzatiladigan axborot taqchilligidan unumli foydalanilgan holda manipulyativ maqsadlarga ko'ra ishlab chiqilgan holda jamoatchilik ongiga keng singdiriladi.
3. Zamonaviy miflar orasida ilmiy miflar argumentatsion nuqtai nazardan kuchili ratsional asosga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bunday miflar irqchilik, orientalizm, sivilizatsion gegemoniya singari destruktiv ideologiyalarni mantiqiy va ilmiy asoslash uchun ishlab chiqiladi.
4. Zamonaviy miflar jamoatchilik ongiga keng ta'sir ko'rsatish uchun aforitetga murojaat qilish usuli orqali asoslanadi. Aniqrog'i, yetakchi mutaxassis va ekspertlarning qarashlari, ilmiy ishlari sun'iy tarzda ishlab chiqilayotgan mifni asoslovchi argument sifatida ko'rsatiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Шостром Э. «Анти-Карнеги», или Человек-манипулятор. - М.: Попурри, 2004. - 127 с.
2. Хорни К. Невротическая личность нашего времени. - М.: Академический проект, 2006. - 208 с.
3. Доценко Е Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита - М: Юрайт, - 44с.

4. *Кассирер, Э.* Философия Просвещения / Пер. с нем. В. Л. Махлина. — М.: РОССПЭН, 2004. — 400 с.

5. *Carnivalization As a Way of Transmitting Socio-cultural Experience in the Era of Post-literacy* Natalya Vladimirova, Yevgeniya Kolmakova, Yevgeniy Mezentsev, Liliya Mosienko, and Natalya Solomina Omsk State Technical University, Omsk, Russi 4th CTPE 2019 Fourth International Scientific Conference Communication Trends in the Post-literacy Era: Multilingualism, Multimodality, Multiculturalism Volume 202.

6. *Science, technology & society in seventeenth century England* by Merton, Robert King, 1910.

Publication date 1970 Topics Science -- Social aspects, Science -- Great Britain -- History, Science and civilization Publisher New York : H. Fertig

7. Lévi-Strauss Claude. *Structural Anthropology*. — Basic Books, 1963. — С. 51.

8. *Тойнби А. Дж.* Цивилизация перед судом истории: Сборник / Пер. с англ. — М.: Рольф, 2002. — 592 с.

9. [Foster J.B.](#) [Samir Amin at 80: An Introduction and Tribute](#) // [Monthly Review: An Independent Socialist Magazine](#) / [J.B.Foster](#)— New York City: 2011. — Vol. 63, Iss.5.

10. Lévi-Strauss Claude. *Structural Anthropology*. — Basic Books, 1963. — С. 51.



## ҚОРАҚАЛПОҚ ТИЛИДАГИ КЎП КОМПОНЕНТЛИ ҚЎШМА ГАПЛАРНИНГ КОММУНИКАТИВ ЖИХАТЛАРИ

**Мангитбаева Зайфун Узакбаевна,**

таянч докторант Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси  
Қорақалпоғистон бўлими, Қорақалпоқ гуманитар фанлар илмий  
тадқиқот институти

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ МНОГОКОМПОНЕНТНЫХ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

**Мангитбаева Зайфун Узакбаевна,**

базовый докторант Каракалпакское отделение Академии наук  
Республики Узбекистан Каракалпакский научно-  
исследовательский институт гуманитарных наук

## THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY OF MULTICOMPONENT COMPLEX SENTENCES

**Mangitbaeva Zayfun Uzakbaevna,**

basic doctoral student Karakalpak Branch of the Academy of  
Sciences of the Republic of Uzbekistan  
Karakalpak Scientific Research Institute of Humanities



el.pochta:  
[zayfunamangitbaeva@gmail.com](mailto:zayfunamangitbaeva@gmail.com)  
0009-0002-9103-2253

**Аннотация:** Ушбу мақола қорақалпоқ тилидаги кўп компонентли қўшма гапларнинг коммуникатив жиҳатларини ўрганишга бағишланган. Иш доирасида кўп компонентли гапларнинг вазифалари, уларнинг предикатив бирликлар ўртасидаги мураккаб мантикий ва семантик алоқаларни ифодалашдаги ўрни батафсил ёритилган. Кўп компонентли гапларни тузишда асосий роль ўйнайдиган боғловчилар, шунингдек, тингловчи ёки ўқувчи эътиборини бошқаришга қаратилган коммуникатив стратегияларга алоҳида эътибор қаратилган.

**Таянч сўзлар:** кўп компонентли боғланган қўшма гаплар, коммуникатив жиҳатлар, боғловчилар, синтаксис.

**Аннотация:** Статья посвящена изучению коммуникативных аспектов многокомпонентных сложных предложений в каракалпакском языке. В рамках работы подробно освещаются функции многокомпонентных предложений, их роль в выражении сложных логических и семантических связей между предикативными единицами. Особое внимание уделяется союзам, играющим ключевую роль в построении многокомпонентных предложений, а также коммуникативным стратегиям, направленным на управление вниманием слушателя или читателя.

**Ключевые слова:** многокомпонентные сложносочиненные предложения, коммуникативные аспекты, союзы, синтаксис.

**Abstract:** This article examines the communicative aspects of multi-component complex sentences in the Karakalpak language. The study thoroughly explores the functions of multi-component sentences and their role in expressing intricate logical and semantic relationships between predicative units. Special attention is given to conjunctions, which play a crucial role in constructing multi-component sentences, as well as to communicative strategies aimed at managing the attention of the listener or reader.

**Key words:** multi-component compound sentences, communicative aspects, conjunctions, syntax.

**Кириш.** Туркий тиллар гуруҳи вакилларида бири бўлган қорақалпоқ тили бой ва ранг-баранг синтактик тузилишга эга. Синтаксиснинг энг муҳим жиҳатларидан бири кўп компонентли қўшма гаплардан фойдаланиш бўлиб, улар ҳаракатлар, воқеалар ва ҳолатлар ўртасидаги мураккаб муносабатларни етказишга имкон беради. Бу гаплар ёзма нутқда ҳам, оғзаки нутқда ҳам кенг қўлланилиб, боғланган ва мантикий тугалланган фикрларни тузишда муҳим роль ўйнайди. Ушбу мақоланинг мақсади қорақалпоқ тилидаги кўп компонентли қўшма гапларнинг коммуникатив жиҳатлари, уларнинг ахборотни ташкил этиш ва тингловчи ёки ўқувчи идрокини бошқаришда тутган ўрнини тадқиқ этишдан иборат. Бунинг учун бундай гапларни ҳосил қилишда қўлланиладиган боғловчиларнинг асосий типларини кўриб чиқамиз ҳамда уларнинг турли матн типларида коммуникатив функцияларини таҳлил қиламиз. М.И.Шеремисина ва Т.А.Колосованинг рус тилидаги қўшма гапнинг назарий масалаларига бағишланган илмий ишида қўшма гапнинг таснифи қуйидаги уч тамойилга асосланади: 1) қўшма гап таркибидаги предикатив компонентларнинг маъноли (ёки маъносиз) алоқада келиши. Бу белги бўйича барча қўшма гаплар маънодор ва маъносиз бўлади; 2) қўшма гап таркибидаги предикатив компонентларнинг кетма-кетлик ва тобелик бўлиб қарама-қарши қўйилиши.[1. 96] Қўшма гаплар икки ёки ундан ортиқ содда гапларни боғлаш усуллари орқали шаклланади ва уларнинг ўртасидаги алоқа турли боғловчи воситалар ёки интонация ёрдамида амалга оширилади. Эргашган қўшма гапларда бир гап бошқасини изоҳлаб, бири асосий, иккинчиси бўйсундирувчи бўлиб келади. Боғланган қўшма гапларда содда гаплар тенг аҳамиятга эга бўлиб, маънолари бир-бири билан узвий боғланиб туради. Боғловчисиз қўшма гаплар эса, интонация ва лексик воситалар ёрдамида ўзаро алоқага киришиб, маънодош муносабатлар ҳосил қилади. Шу асосда биз кўп компонентли қўшма гапларнинг коммуникатив жиҳатлари тадқиқ этилади.

**Тадқиқот методологияси.** Кўп компонентли қўшма гаплар синтактик қурилмалар бўлиб, улар бир нечта предикатив қисмлардан иборат бўлиб, боғловчилар билан боғланган. Бундай гапнинг

ҳар бир предикатив қисми маъно ва грамматика нуктаи назаридан нисбатан мустақил бўлади, бироқ улар битта умумий коммуникатив вазифа билан бирлашади.

Қорақалпоқ тили учун "ҳәм", "бирақ", "ямаса", "ал", "менен", "да, де, та, те", каби ҳар хил турдаги боғловчиларнинг қўлланиши хосдир. Бу боғловчилар бириктириш, қарама-қарши қўйиш, танлаш каби гап компонентлари ўртасидаги муносабатларни етказишга ёрдам беради. Кўп компонентли гаплар оддий ва мураккаб компонентларни ўз ичига олиши мумкин, бу уларни мураккаб ва кўп қатламли маъноларни узатиш учун идеал воситага айлантиради. Масалан: "Бул пикир мектепнинг директорына да, колхоздың баслығына да жетти, бирақ олар кеўли ҳасиретли Нуржан ғаррыны мәжбүрлеўге жүрексинбеди, ал қызы Мехрибан әкесин жалғыз таслап кетиўге қыймады. (Т.Қ) Бу боғловчилар гап бўлақлари ўртасидаги вақт кетма-кетлиги, сабаб-оқибат алоқаси, қарама-қаршилиқ ёки муқобиллик каби турли семантик муносабатларга эътибор қаратади. Масалан, "ҳәм" боғловчиси бир хил ҳаракатлар ёки воқеаларни ифодаловчи қисмларни боғлаш учун қўлланилади. Бундай ҳолда, кўп қисмли жумла мантикий кетма-кетликни ёки бир вақтнинг ўзида содир бўлаётган ҳаракатларни ифодалайди. "Бирақ" боғловчиси эса жумланинг предикатли қисмлари ўртасидаги қарама-қаршилиқни кўрсатиб, зидликни ифодалайди. "Биз еркеклер, мухаббетти кобирек шийеленискен ҳалда кабыл етемиз, ал ҳаяллар көбирек қорқыңқырап қабыл етеди, бирақ барлық ҳаяллар бундай емес.(Т.Қ)

Кўп компонентли қўшма гаплар қорақалпоқ тилида муҳим коммуникатив вазифани бажаради. Уларнинг асосий вазифаси бир нечта предикатив қисмларни битта гапга бирлаштиришдан иборат бўлиб, бу мураккаб ахборотни самарали етказиш ва нутқни боғланишли ва мантикий қилиш имконини беради. Бундай гапларнинг муҳим хусусияти шундаки, улар турли боғловчилар ва интонацион тузилмалар ёрдамида хабарнинг асосий элементларига йўналтириб, тингловчи эътиборини бошқариш қобилиятига эга.

1. Ахборотни бирлаштириш: Қўшма гаплар бир неча воқеа ёки ҳаракатни битта фикрга

бирлаштиришга имкон беради, бу эса нутқни нисбатан ихчам ва тизимли қилади.

2. Мантиқий тузилма ҳосил қилиш: Қўшма гаплардаги боғловчилар гап бўлаклари ўртасидаги мантиқий кетма-кетликка ишора қилади, бу эса тингловчи ёки ўқувчига воқеалар ўртасидаги боғлиқликни яхшироқ тушунишга ёрдам беради. Масалан, "шунинг учун" боғловчиси сабаб-оқибат муносабатини аниқ кўрсатиб, тингловчига хабарни яхшироқ идрок этишга ёрдам беради.

3. Муҳим унсурларга урғу бериш: " *biŋaq* " (лекин) ёки "ал" каби боғловчилар хабарнинг алоҳида аҳамиятга эга бўлган қисмларига урғу беришга ёрдам беради. Масалан, бирақ боғловчиси қарама-қаршиликни ёки воқеаларнинг кутилмаган бурилишини таъкидлаш учун ишлатилади.

Шуни ҳам айтиш керакки, айрим манбаларда инкор боғловчиси хусусида қуйидагича берилган фикрлар ҳам кузатилади: «Инкор боғловчиси инкор маъносини ифодаловчи содда гапларнигина боғлайди ва боғланган қўшма гап компонентларида ифодаланган инкор маъносини санаб кўрсатади»[2.169]

4. Нутқнинг ихчамлиги ва узвийлиги: Кўп компонентли гаплар нутқни ихчамлаштиради, чунки фикрни бир нечта содда гапларга бўлинишига йўл қўймайди. Бу, айниқса, кўп микдордаги ахборотни қисқа ва боғланишли шаклда етказиш зарур бўлган ёзма нутқда муҳимдир.

**Таҳлил ва натижалар.** Кўп компонентли қўшма гапларнинг коммуникатив самарадорлиги уларнинг маълумотни қабул қилувчи томонидан осон идрок этиладиган тарзда тузилиш қобилиятида намоён бўлади. Тенг боғловчилар бу жараёнда ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлиб, тингловчи ёки ўқувчига гап қисмлари ўртасидаги алоқа хусусияти ҳақида сигнал беради ва мантиқий изчилликни ўрнатишга қўмаклашади.

Оғзаки нутқда кўп компонентли гаплар кўпинча предикатив қисмларни ажратиш ва хабарни янада тушунарли қилишга ёрдам берадиган интонация паузалари билан бирга келади. Интонация, шунингдек, умумий маъно учун муҳимлигини таъкидлаб, гапнинг маълум қисмларига эътибор қаратиши мумкин. Масалан: "Ол Муҳаммед пайғамбер деп қырк жасында пайғамберликке ерискенин билмейтуғын еди, ал

Бестюжев шамалап айтқан еди, сөйтсе де, Маман бул гәплерге онша марапатланбады".(Т.Қ)

Ёзма нутқда бундай гаплар боғланишли ва мантиқий тугалланган матнларни яратишга ёрдам беради. Бу, айниқса, мураккаб маълумотларни аниқ ва тизимли шаклда тақдим этиш талаб қилинадиган илмий ва публицистик матнлар учун муҳимдир. Кўп компонентли гаплар ғоялар ўртасида равон ўтишларни таъминлайди, бу эса матнни ўқувчига янада тушунарли ва мантиқий қилади.

Боғловчилар билан бирга келадиган интонацион паузалар гапнинг предикатив қисмларини ажратиш ва улар ўртасида алоқа ўрнатишга ёрдам беради. Масалан, оғзаки нутқда *бирақ* боғловчиси пауза билан келиши мумкин, бу эса қарама-қаршиликка эътиборни қаратади ва муҳим ахборотни ажратиб кўрсатишга ёрдам беради.

**Хулоса.** Кўп компонентли қўшма гаплар қорақалпоқ тилида мураккаб семантик ва мантиқий алоқаларни узатиш билан боғлиқ кўплаб коммуникатив функцияларни бажариб муҳим роль ўйнайди. Ушбу таклифлар нутқни янада боғланишли ва мантиқий қилишга, муҳим нукталарга урғу беришга ва эътиборни бошқаришга ёрдам беради. Ёзма ва оғзаки нутқда кўп компонентли гаплардан равон ва тизимли хабарларни яратиш, тил воситаларининг аниқлигини ва тежамкорлигини таъминлаш учун фойдаланилади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Шеремисина М.И. Колосова Т.А. Очерки по теории сложного предложения. Новосибирск. Изд-во «Наука», 1987. 96-97-стр.
2. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент, 1987, 169-бет.
3. Альниязов А. Ҳозирги қорақалпоқ тилидаги боғланган қўшма гапларнинг функционал-семантик таҳлили. Фил.фан.докт. автореф. Нукус, 2020.
- 4.Нажимов А. Ҳазирги қарақалпақ тили Синтаксис. Нөкис, «Қарақалпақстан» 1990.
5. Т. Qayıpbergenov "Tánha óziñe málim sır" Povestler hám publicistikalıq maqalalar - Nókis: Qaraqalpaqstan, 1991. 404-b.
- 6.Т. Қайыпбергенов. Қарақалпақ дәстаны. Маман бий эпсанасы. Нөкис, «Билим» баспасы, 2018-жыл. 512 бет.

## 1991-2024-YILLARDA MARKAZIY OSIYO BOZORLARIDA AYOL VA ERKAK SAVDOGARLAR VAZIFALARI XUSUSIDA

**Oxunjonova Shaxodat Yusubjon qizi**

FarDU O'zbekiston tarixi kafedrasida v.b.dotsenti, tarix fanlari falsafa  
doktori

## 1991-2024 ГГ. НА РЫНКАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ОБ ОБЯЗАННОСТИ ЖЕНЩИН И МУЖЧИН ТРЕЙДЕРОВ

**Oxundjonova Shaxodat Yusubjon kizi**

Доктор философии по истории И.О. Доцент кафедры истории  
Узбекистана, Ферганский Государственный университет

## 1991-2024 IN CENTRAL ASIAN MARKETS ON WOMEN AND MEN TRADERS' DUTIES

**Okhunjonova Shakhodat Yusubjon kizi**

Doctor of philosophy in history Assistant Professor at the  
Department of History of Uzbekistan, the Fergana State University



E-mail:

[oxunjonova1191@mail.ru](mailto:oxunjonova1191@mail.ru)

91 113 77 59

<https://orcid.org/0000-0002-1435-8930>

**Annotatsiya:** Maqolada aholining katta qismi, asosan ayollarning 1990 yillardagi savdo sotiq jarayonida faollashish sabablari, bozorlardagi sotuvchi ayollarning qanday mahsulotlar bilan savdo qilishi va qayerdan arzon mahsulot olishlari, qay tartibda sotishlari xususida fikr yuritiladi.

**Tayanch so'z va iboralar:** Aralash bozorlar, moki savdogarlar, bozor iqtisodiyoti, chelnochnaya torgovlya.

**Аннотация:** В статье обсуждается причина, по которой большинство населения, в основном женщины, стали активными в процессе торговли 1990-х годов, какие товары женщины продают на рынках и где покупать дешевые товары.

**Ключевые слова и фразы:** смешанные рынки, челноки, рыночная экономика, челночная торговля.

**Annotation:** The article discusses the reason why the majority of the population, mainly women, became active in the 1990s trade process, what products women sell in markets and where to buy cheap products.

**Key words and phrases:** mixed markets, shuttle traders, market economy, chelnochnaya torgovlya.

**Kirish.** Mamlakat taraqqiyotini baholaydigan bir qator mezonlar bo'lib, shulardan biri jamiyatda ayollarga bo'lgan munosabatdir. Ayollarga bo'lgan munosabat bilan mamlakatning qolaversa jamiyatning qay darajada madaniyatligini aniqlash mumkin. Chunki, ayol jamiyatning eng oliy qadriyati bo'lib, jamiyatni tebratuvchi kuchdir.

Darhaqiqat ayollar jamiyatimizning rivojlanish yo'lida yoki hayotning barcha jabhalarida erkaklar bilan yelkama-yelka turib mehnat qilishgan. Masalan bozorlarni kuzatib shu narsani payqab olish mumkinki go'sht bilan, asosan, erkaklar savdo qilib

kelishgan, tozalangan tovuq go'shtlarini esa ko'proq ayollar sotishgan. Ko'kat savdosi bilan xotin-qizlar band bo'lgan. Ba'zan yoshi katta o'zbek otaxonlarining shivit (ukrop), petrushka, kashnich, selder, salat, jambil, rayxon bilan savdo qilayotganini ham uchratish mumkin bo'lgan. Poliz mahsulotlarini, asosan, erkaklar, sut mahsulotlarini esa ayollar sotishgan. Avtomobil, qurilish mollari bozori va chorva bozorlarida erkaklar savdo qilishsa, tilla bozorlarida ayol savdogarlar salmog'i katta. Xushxo'r koreys salatlarining sotuvchisi - koreys



ayollari bo'lib, qolgan turdagi mahsulotlar xam erkaklar, ham ayollar tomonidan sotilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** A.Khalidning "Gender Roles in Post-Soviet Economies"[13] nomli naqolasida Markaziy Osiyo mamlakatlarida gender rollarining o'zgarishi va iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki haqida ma'lumot beradi. Erkaklar an'anaviy ravishda yirik savdo va biznesda faol bo'lishgan, ayollar esa ko'proq kichik do'konlar va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

"Women Entrepreneurs in Central Asia"[14] - nomli maqola ayol tadbirkorlar va ularning iqtisodiy faoliyatdagi o'rni haqida bo'lib, ayollar ko'pincha oila bizneslariga ega bo'lib, kichik savdolarini olib borishga majbur bo'lgan. Ayollar iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynagan, ammo ular erkaklarga nisbatan kamroq resurslarga ega bo'lgan va iqtisodiy imkoniyatlardan to'siqlarga duch kelgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tadqiqotda asosan og'zaki tarix va kuzatuv, tarixiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Savdogarlikning O'zbekistondagi o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – uning asosan ayollar tomonidan amalga oshirilishidir. Aralash bozorlardagi savdogarlarning 90% i 30 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollardir [7]. O'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra bozorda sotuvchilar va tovar egalarining aksariyati ayollar hisoblanib ushbu hodisani ayollarning ko'proq moslashuvchanligi, savdolashish qobiliyatining kuchliligi deb izohlash mumkin[11].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Moki [6] savdo ya'ni mol olib kelish uchun xuddi mokidek o'zlari topgan yo'l orqali tinimsiz borib-kelib savdo qilish bilan shug'ullanish SSSR parchalanib ketganidan so'ng faollashdi. 1990 yillarda MDH mamlakatlaridan, shu jumladan o'zbekistonlik ayollar ham Istanbulga avtobuslarda kelib, sotiladigan kiyim-kechaklarni avtobuslar orqali tashishgan. Endi ushbu savdo turi dunyoning turli burchaklaridan xaridorlarni jalb qiladigan ko'p milliardli biznesga aylanib, o'zining kamtarona nomidan ustun kelgan. Turkiyaning Laleli bozoridan eng katta hajmdagi mahsulotni Rossiya, undan keyin Ukraina, Qozog'iston va O'zbekiston savdogarlari sotib olgan[10].

Moki savdogarlarning aksariyati o'rta yoshdagi ayollar bo'lib, bu ayollar uchun jismonan

og'ir ish hisoblansa-da, lekin ayni paytda farovon yashash imkonini berganligi bois bu ish bilan shug'ullanishlarini ta'kidlaganlar. Bu birgina o'zbek ayollari uchun xos bo'lmay, butun MDH mamlakatlarida 1990-yillardan keyin moki savdo faoliyati keng tarqalgan. 2007-yil noyabr oyida Belgorodda birinchi tadbirkorlar haykali ochilgan. Haykalning balandligi - uch metr bo'lib, tarkibi bronzadan qilingan. Haykal uchun joy Belgorodning markaziy bozori yaqinidan tanlangan. Ushbu kompozitsiya muallifi, yosh haykaltarosh Taras Kostenko bo'lib, bu haykal ustida olti oy ishlagan. Haykaltaroshning so'zlariga ko'ra, ilhom olish va savdoning qiyinchiligini his qilish uchun tajribaga ega bo'lgan tadbirkorlarni yordamga chaqirgan. Taras Kostenkoga ular qanday qilib sayohat qilishganini, azob chekkanliklarini, navbatda turishganini, etaklari ostidagi buyumlarni qanday ko'targanliklarini va bu sumkalarni tortib olishganini aytishgan[3]. Bunday savdogarlarning haykallari yana Yekateringburgda, Xitoyda, Qirg'izistonning Dordoy bozorida ochilgan[9].

Ayollarning bozorda faollashishining muammoli jihatlari, sabablariga e'tibor beradigan bo'lsak, iqtisodiy hayotda xotin-qizlar ishchi kuchining 46,7 % [1] ini tashkil etsa-da, lekin ularning asosiy qismi ish haqi darajasi past bo'lgan sohalarda jamlanganligi natijasida ayollar norasmiy ravishda qo'shimcha joylarda ham ishlashga majbur bo'ladi [8]. Sir emaski, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida barcha muassasa va tashkilotlar raqobatda g'olib bo'lish uchun ish joylarini qisqartirish davrida birinchi bo'lib ayollarni qisqartirishi kuzatilgan. Ishga olishda ham ishchi kuchi sifatida erkaklar afzalroq hisoblanadilar.

Iqtisodchi olim N.Rahimovning fikriga ko'ra, 2002-yilda ayollar iqtisodiyotda aholi sonining 13 mln. nafarini yoki 44 % ini tashkil etib, 3 ta asosiy sabab bo'yicha ular o'rtasidagi ishsizlik 57,3 % ga yetgan [5]. Birinchidan, iqtisodiy islohotlar natijasida bir necha tashkilotlarning bankrot holatiga tushishi sababli ayollarning obyektiv ravishda ishdan bo'shatilishi; ikkinchidan - bozor iqtisodiyoti rivojlanishida ayrim sohalarda ayollar mehnatiga ehtiyoj qolmaganligi tufayli ularning uy bekasi bo'lib qolishi yoki mehnat birjalariga borishga majbur bo'lishi; uchinchidan, bugungi kunda ayollar o'zlarini ish bilan band qilish maqsadida "biznes bilan shug'ullanish" istagida "chelnochnaya trgovlya" deb nom olgan savdo

turiga jalb etilishi bilan bog'liq. Lekin bu tadbirkorlik usulida ham qator qiyinchiliklar mavjudligi sababli ayollarning ko'pchiligi yana ishsizlar qatoriga kirib qolmoqdalar[5].

Bunday holat MDH davlatlariga xos bo'lib, masalan Rossiya Federatsiyasida ham kuzatilgan. 1990-yillarda ko'pchilik universitet bitiruvchilari mutaxassislik bo'yicha ish topa olmaganlaridan keyin bozorda ishlashga majbur bo'lganlar. Bozorda mustaqil ishni boshlash uchun yetarli mablag'ga ega bo'lganlar orasida ham avval, yollangan sotuvchi sifatida 3-4 yil ishlashlariga to'g'ri kelgan. Bozordagi tijoratchilar orasida oliy ma'lumotlilar (hatto fan nomzodlari) ham ko'pchilikni tashkil qiladi. 1999-2000-yillar mobaynida ushbu biznesga odamlarning oqimi ko'paygan[12].

Respondentlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, savdo faoliyati bilan shug'ullanish iqtisodiy jihatdan tez o'nglanishlariga asos bo'lgan. Qulay uy-joy, avtomobilga ega bo'lib, farzandlarining kontrakt to'lovini to'lashga imkoniyat yaratgan, o'g'il uylab, qiz chiqarishgan. Ayollarning bozorda savdo qilishi bir qator qiyinchiliklar ham tug'dirgan. Og'ir yuklarni ko'tarishi natijasida jarrohlik amaliyotini bir necha marta boshdan kechirganliklarini ham ta'kidlaganlar. Shuningdek, ulgurji bozorlarda asosan kechqurun savdo bo'lishini hisobga olgan holda, uyqusiz tunlarining zahmatini ham ta'kidlaganlar[4].

Internet va savdo platformalari esa savdoni osonlashtirib, ayollarning ham, erkaklarning ham onlayn savdo qilishni oshirdi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Bozorda sotuvchilar va tovar egalari asosan ayollar bo'lib, bu ko'proq moki savdogarlik biznesi uchun xos bo'lgan. Ushbu hodisaning sabablarini asosan ayollarning ko'proq moslashuvchanligi, savdolashish qobiliyati, ya'ni bozori chaqqon mahsulotlarni xarid qilish, haridorni jalb qilish qobiliyati shuningdek, mahsulotni sotib olishi uchun haridorda ishonchni hosil qilishi bilan izohlashimiz mumkin. Muammo sifatida esa bozorchi ayollarning ham haq huquqlarini himoya qilib mehnatlarini qonuniy qadrlash yo'llarini ham o'ylab ko'rish kerakligi, shuningdek, matbuot sahifalarida ayol savdogarlar xususida ko'plab mulohazali maqolalar e'lon qilinganligiga e'tibor qaratish lozim. Masalan, davriy matbuotdagi "Qop ko'targan ayol", "Ohak bozori bundadir, dehqon bozori qaydadir?" kabi maqolalarda bozorchi

ayollarning odob-axloqni unutib qo'yayotganliklari, muqaddas nomga gard yuqtirayotganlari-yu, bozordagi olib sotarlarning hiylalari xususida mulohaza yuritiladi [2:75-b]. Ammo, ayollarimizning bugungi kunda bozorga chiqishlari turli ijtimoiy sabablari bo'lib, ushbu maqolamiz tahlilida biz ularni qoralash niyatidan uzoqmiz. Aynan bozordagi savdogar ayollarning hamisha el orasida bo'lishi sababli ularning sharqona bozor odob ahloq qoidalariga amal qilishsa yaxshi bo'ladi. Savdogar savdoning nonini halollab yegani uchun ko'plar uni kasb hunar bilib, sadoqat - etiqod bilan xalqqa xizmat qilishgan. Sharq tarixining zarvaraqlarini ko'zdan kechirsak, minglab buyuk allomalar, arboblal, shoirlar, muarrixlar, olim-u fuzalolar, ko'plab ulug' zotlar savdogar oilasidan yetishib chiqqanini ko'rish mumkin. Masalan, Turkiston muhtor jumhuriyatining tashkilotchilaridan bo'lmish atoqli arbob Fayzulla Xo'jayev, buyuk o'zbek shoiri Cho'lpon savdogarlar oilasida tarbiya topganligini faxrlanib, namuna qilib ko'rsatish mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Женщины и мужчины Узбекистана. Статистический сборник. – Тошкент, 2010. – С.153.
2. Иқтисод ва хисобот // Қоп кўтарган аёл. 1998 йил. № 3. 75-бет.
3. Памятник первым предпринимателям (Белгород) <http://worldwalk.info/ru/catalog/1080/>
4. Rustamova Nafisa, 1967-yilda tug'ilgan. Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanida yashaydi. Suhbat 2019-yil 28-oktabr kuni 10:00 da yozib olingan.
5. Султонова Э. Аёл давлатнинг ривожланиш стратегиясида (Глобал муаммо сифатида). - Тошкент: ЖИДУ, 2005. – Б. 145.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. 2-жилд. – Б .610-611.
7. Ўзбекистон макон ва замонлар оша. Социомаданий альманах. – Тошкент: Суғдиёна, 2011. – Б. 234.
8. Ўзбекистонда ўтиш даврида инсон тараққиёти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000, - Б. 31.

9. Челнок  
<https://lenta.ru/news/2009/07/20/chelnok/>  
20:12, 20 июля 2009.
10. Челночная торговля <http://www.ca-portal.ru/article:44485>
11. Яковлев А., Голикова В., Капралова Н. А рынки и “челночная” торговля в Российской экономике: вчера открытые сегодня, завтра (по материалам эмпирических исследований 2001-2005-гг.) Пре.принт WP4/2006/05Серия WP4 Москва. ГУВШЭ-2006. Социология рынков. – С. 18.
12. Яковлев А.А., Голикова В.В., Капралова Н.Л. Опубликовано в журнале. Мир России. 2007, № 2, - С. 84-106.  
<http://www.demoscope.ru/weekly/2007/0293/analit04.php>
13. **Khalid, A. (2010):** “Gender Roles in Post-Soviet Economies” // [https://www.researchgate.net/publication/297747217\\_Gender\\_and\\_nation\\_in\\_post-Soviet\\_Central\\_Asia\\_From\\_national\\_narratives\\_to\\_women's\\_practices](https://www.researchgate.net/publication/297747217_Gender_and_nation_in_post-Soviet_Central_Asia_From_national_narratives_to_women's_practices)
14. **Zhanat, R. (2015):** “Women Entrepreneurs in Central Asia” // [https://www.researchgate.net/publication/376030520\\_Drivers\\_for\\_Women\\_Entrepreneurship\\_in\\_Central\\_Asia\\_A\\_Case\\_Analysis\\_of\\_Kazakhstan\\_Enterprises](https://www.researchgate.net/publication/376030520_Drivers_for_Women_Entrepreneurship_in_Central_Asia_A_Case_Analysis_of_Kazakhstan_Enterprises)



## ҚОРАҚАЛПОҚ ҚАХРАМОНЛИК ДОСТОНЛАРИ ТИЛИДА ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИГА ХОС ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ

Қутибаева Арайлим Бердибай кизи,

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти таянч  
докторанти

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ, ХАРАКТЕРНЫХ ДЛЯ ФОЛЬКЛОРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ, В ЯЗЫКЕ

## КАРАКАЛПАКСКОГО ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА

Қутибаева Арайлим Бердибаевна,

базовый докторант Нукусский государственный  
педагогический институт имени Ажинияза

## THE USE OF PHRASEOLOGICAL UNITS CHARACTERISTIC OF FOLKLORE WORKS IN THE LANGUAGE OF THE KARAKALPAK HEROIC EPIC

Qutibaeva Araylim Berdibaevna, basic doctoral student  
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz



el.pochta:

[arayberdibaevna@gmail.com](mailto:arayberdibaevna@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0009-9192-3823>

**Annotatsiya:** Илмий мақолада Қарақалпоқ қаҳрамонлик достонлари тилидаги фразеологизмлар шу жумладан фольклорлик фразеологизмларнинг қўлланишидаги фарқларини ойдинлаштиришга бағишланган. Достонда фольклор фразеологияси таҳлил қилинди.

**Таянч сўзлар:** фразеологизм, лексика, вариант, антоним, диалект.

**Резюме:** Научная статья посвящена выяснению различий в употреблении фразеологизмов в языке каракалпакского героического эпоса, в том числе фольклорных фразеологизмов. В эпосе проанализирована народная фразеология.

**Ключевые слова:** фразеология, лексика, вариант, антоним, диалект.

**Summary:** The scientific article is dedicated to clarifying the differences in the use of phraseological units in the language of Karakalpak heroic epics, including folklore phraseological units. Folk phraseology was analyzed in the epic.

**Key words:** phraseology, vocabulary, variant, antonym, dialect.

**Кириш.** Тилда кам деганда бир неча сўз занжиридан туриб, бир сўзнинг маъносига тенг бўлган тургун сўз занжирлари фразеологизмлар сифатида маълум. Улар илк даврлардан буён халқ орасида мунтазам шаклланиб келган тафаккурни безовчи воситадир. Фразеологизмлар фикр таъсирчанлигини ошириш, сўзнинг эмоционал-экспрессив бўёқдор синоними, варианти, антоними ёки кўп маъноли бўлиб келади. Бу фразеологизмларнинг тил бойлиги,

қаймоғи эканлигини исботлайди. Биз ушбу мақолада фольклор асарлари тилига мослаб қўлланиладиган айрим фразеологизмларни "Алпомиш" достони тили материаллари асосида таҳлил қиламиз.

Фольклор фразеологизмлар тилининг умумий фразеологик фондининг катта бир ажралмас қисмидир. Фразеологик жамғарма - миллий тилдаги мавжуд барча фразеологизмларни тўлиқ қамраб олувчи жамланма. У тенг

икки компонентли, диалектал, эскирган, этнографик хусусиятга эга ва ҳ.к. турли хусусиятларга эга фразеологизмлар гуруҳидан туради. Улардан бири фольклор фразеологизмларидир. Фольклор фразеологизмлар халқ оғзаки адабиётининг йирик жанрлари ҳисобланган дostonлар, эртақлардан бошлаб кичик жанрлари нақл-мақоллар, ёлгончилар, топишмоқлар ва ҳ.к. тилига мослаб қўлланадиган фразеологизмлардир. Бундай фразеологизмлар асосан, фольклор асари тилида унумли қўлланилиши, уларнинг аксарият турларига хос асарлар тилида тез-тез ишлатилиши, бошқа асарлари тилида жуда унумсиз учраши ёки қўлланилмаслиги билан ажралиб туради. Улар фольклор асари тилининг таъсирчан, бадиий, образли бўлиши учун муҳим хизмат қилади.

Фольклор фразеологизмларини тадқиқ этиш қорақалпоқ тилшунослиги олдида турган долзарб масалалардан биридир. Лингвофольклористика бошқа туркий тилларда алоҳида соҳа сифатида ривожланган бўлиб, унда фольклор асарлари тили яхлит яхлитлик тарзида тадқиқ этилади. Маматов "Шу билан бирга, ўзбек тилининг фразеологик қатламларини белгилаш, нутқ жараёнидаги алоҳида қўлланиш хусусиятлари, айна ҳодисадаги камчиликлар, фразеологик ўзлаштириш, халқ тили фразеологияси, ўзбек фольклори фразеологияси, ўзбек диалектал фразеологиясини тадқиқ этиш зарур"[3.39] деб кўрсатади.

Қорақалпоқ фольклори жуда бой бўлиб, унинг 100 жилдлиги нашр этилиши халқ тили ва адабиётининг бойлигини, қорақалпоқ халқининг эса сўз санъаткорлиги, зукколигини кўрсатади. Бу унинг жанрларидан бири ҳисобланган қахрамонлик дostonлари тилида ҳам яққол намоён бўлади. Ушбу дostonлардан бири "Алпомиш" дostonи тилида ҳам фольклор фразеологизмларининг кенг қўлланилганлигини кўриш мумкин. Улар дoston тилининг бадиийлигини оширади, қахрамон образларини яратишда, уларнинг портрети, характерини яратишда, қахрамонларнинг турли ижобий ёки ҳистуйғуларини акс этиришда муҳим воситадир.

"Дostonлар тилининг ўзига хос хусусиятларидан бири унда халқ фольклори анъанаси катта аҳамиятга эга. Дostonлар тилида поэтик белгилар ҳам, насрий белгилар ҳам аралаш ҳолда бадиий, экспрессив, эмоционал

хизматлар билан ишлатилади. Дoston тилида синонимлар, омонимлар, антонимлар, паронимлар шунингдек, маъноси бир сўзга тенг бўлган фразеологизмлар ҳам бадиий маҳорат билан қўлланади, деб фикр билдиради А.Пирниязова [4.176].

"Алпомиш" дostonи қорақалпоқ қахрамонлик дostonлари орасида ўзининг ғоявий-мазмуний жиҳатдан ўзига хослиги, дoston тилининг халқ тилига жуда яқинлиги, оддий халққа жуда тушунарлилиги, соддалиги, халқона санъат, миллий психология, урф-одат, анъаналарни ўзида бадиий акс этириши жиҳатидан яққол ажралиб туради. Дoston тили лексик-семантик жиҳатдан бойлиги, бадиийлиги билан ажралиб туради. Унда касбий, эскирган, диалектал сўзлар, ўзлашмалар, синонимлар ёки антонимлар, этнографизмлар, полисемия ва вариантлик ҳодисалари, турли сўз тармоқларига оид лексик бирликлар ва ҳ.к. учрайди. Улардан бири - фразеологизмлар. Фразеологизмлар дoston тили умумий луғат фондининг энг асосий бирликларидан бири ҳисобланади ва алоҳида фразеологик фондни ташкил этади. Дoston тилида фразеологизмлар жуда хилма-хил бўлиб келади. Улар орасида тенг икки компонентли, оғзаки сўзлашув тилига хос, диалектал, эскирган, поэтик, этнографик сифатдаги ва ҳ.к. фразеологизмлар мавжуд. Бундай фразеологизмларнинг бир гуруҳи - фольклор асарлари тилига мослашган фразеологизмлардир. Улар кундалик ҳаётда ёки оғзаки нутқда, кейинги даврларда яратилган бошқа бадиий асарлар тилида унумли қўлланилмайдиган, ўша фольклор асарлари тилига хос бўлган фразеологизмлардир. Улар "Алпомиш" дostonи тилининг бадиий-поэтик таъсирчанлигини ошириб келади. Масалан:

1.— *Он алтысы сыртта турып, усы билгишлеў-аў деген екеўи ишкерирекке барыңқырап есикке жақынлап келип патиадан келген жаўшылығын билдирип, Байсары байга бадабат урып бир сөз деди:...* (104-бет)

2. *Жылдан-жылга талдай бойым өседи, Ярым келмей көкейимди кеседи.* (106-бет)

Дастлабки мисолда "Бадавлат urish. Эҳтиёт бўлиш, кўрқитиш"[2.52], зўравонлик кўрсатиш, кўзни кўрқитиш маъноларини ифодаловчи фразеологизм бўлиб, у кўпинча фольклор асарлари тилида тез-тез учрайдиган, унга

мослашиб кетган бирлик сифатида қахрамоннинг нутқий таърифини яратиш, нутқ кўриниши, хусусияти орқали қахрамоннинг мақсадини кўрсатиш, устунлигини ифодалаш ва ҳ.к. каби стилистик хизматларда қўлланган.

Кейинги мисолда келтирилган "көкейин кесиў" фразеологизми бугунги нуқтаи назардан эскирган, маъноси тўлиқ тушунарсиз ҳисобланган бирлик бўлиб, Б.Тўйчибоев, Қ.Қошқирли асарларида унга қуйидагича изоҳ берилади: "Кўгейи кесилди - кўгайи кесилди. Умиди узилди, ишончи сўнди, кўнгли қолди"[5.118]. Бу фразеологизм Гулпарчин тилида Алпомишни узоқ кутиб, йўлига қараб умидини узиш ҳолатини кўрсатиш учун ишлатилади.

Фольклор асарлари тилида, жумладан, "Алпомиш" достони тилида ҳам фикр ифодалашда қўлланиладиган бир қанча фразеологизмлар мавжуд бўлиб, улардан қуйидаги бирликлар достон тилида қўлланади:

1. *Анда Байсары бай кемпири онды жуўап бермегеннен кейин, қызы Гулпаршынның алдына барып, келген жаўшыларды да бир-бир баян қылып бир сөз деди: ... (105-бет)*

2. ...қай жеңгенимиз алайық, қыз жеңгендики болағалсын, – деп хабаршыны атландырды, хабаршы кетти, Тайшыханға жетти, Қаражанның айтқанларын, бирим-бирим баян етти. (109-бет) «Бир-бир баян етиў. Биримлеп, нақма-нақ айтып бериў»[2.61] деган маънодаги фразеологизм бўлиб, у достон қахрамонларининг нутқ хусусиятини, фикр-мулоҳазаларини баён этиш усулини, тартибини кўрсатиб келади. Сўнгги мисолда бир-бир баён қилиб фразеологизмнинг *бирим-бирим баён қилди* варианты қўлланилган. Бу достон тилининг фразеологик бойлигини, шу достонни яратган халқнинг тил маҳорати, сўз бойлигини кўрсатади.

Бундай фразеологик вариантлик ҳодисалари достон тилида тез-тез учрайди. Бу семантик ҳодиса достон тилидаги фразеологизмларнинг маъно жиҳатдан бойлиги, теранлигини англатади. Масалан: **Берсе теңлик пенен, бермесе зорлық пенен, берсе қолынан, бермесе жолынан**, қарсыласса ат қойың оңы менен солынан деп хан буйырған шығар, не де болса ол қараның алдына барайын, ийилип сәлем берейин, үлкени болса қайнаға дейин, кишкенеси болса мырзаға дейин, алдап-суўлап турайын, арысланым келгенше басымның ғамын қылайын. (108-бет) "Берсе

қолынан, бермесе жолынан – рәўиш мәнили теңлес еки компонентли фразеологизмлер»[1.38] дан бири бўлиб, бир нарсани бошқа одамдан эркинлигига қарамай, куч билан, зўрлик билан тортиб олиш маъносини билдиради. Шу *берса қўлидан, бермаса йўлидан* фразеологизми бошқа асарлар тилида ёки оғзаки нутқда ҳам қўлланилади, *берса теңлик билан, бермаса зўравонлик билан* варианты эса фольклор асари тилига хос бўлиб келади. Шунингдек, *берса қўлидан, бермаса йўлидан* фразеологизмига қарши қўйсангиз от қўйинг ўнг билан шапидан бирликлари ҳам маъно жиҳатидан уйғунлашиб, ушбу маънони янада кучайтириб, тобора ўткирлаштириб, унинг давоми каби кўринади. Буларнинг барчаси шундай хулоса беради: достон тили бадий, ундаги маъновий-семантик ҳодисалар хилма-хил, образли, бадий-тасвирий усулларга бой.

Хулоса қилиб айтганда, қорақалпоқ тилининг лексик таркибида қахрамонлик достонлари тилининг фразеологияси унумли қўлланади. Қорақалпоқ қахрамонлик достонлари тилининг фразеологизмлари бир-бири билан синоним, антоним, омоним ва вариантдош бўлиб ҳам келиши, достон тили фразеологизмларга жуда бой эканлигини кўрсатиш билан бирга қорақалпоқ халқи тилининг бойлиги ва достон яратишда жиловларнинг сўзсеварлигини ҳам исботлаб келган. Достон тилида фразеологизмлар тилдаги сўзлардан эмоционал-экспрессив бўёқлари билан фарқланади, айниқса, айтиладиган фикрни образли қилиб кучайтиришда аҳамияти катта.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Айназарова Г. Қарақалпақ тилиндеги теңлес еки компонентли фразеологизмлер. – Нөкис: Бердақ атындағы ҚМУ, 2005. – 83 б.
2. Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилинің қысқаша түсіндірме сөзлиги. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1985, 52-бет.
3. Маматов М. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент: Наврўз, 2019, 260. 39-бет.
4. Пирниязова Алима Қудияровна. Қарақалпақ тили фразеологиялық системасы ҳәм оның стилистикалық имканиятлары. – Нөкис: «Qaraqalpaqstan» баспасы. 2020-жыл, 176 бет.
5. Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2012, 118-бет.

## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН ХУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ БЎЙИЧА ИЖТИМОЙ ШЕРИКЛИКНИНГ ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Нишанбаева Энажон Зарипбаевна, ЎзМУ доценти

## LEGAL BASIS OF SOCIAL PARTNERSHIP FOR THE PROTECTION OF HUMAN RIGHTS IN THE NEW UZBEKISTAN

Nishanbaeva Enajon Zaripbaevna, associate professor of  
UzMU

## ПРАВОВАЯ ОСНОВА СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Нишанбаева Энажон Зарипбаевна, доцент УзМУ



<https://orcid.org/0009-0008-9037-6410>

e-mail:  
nishanbayeva\_e71@mail.ru

**Аннотация:** Ушбу мақолада, янги Ўзбекистонда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича ижтимоий шерикликнинг ҳуқуқий асослари, инсон ҳуқуқлари ҳамда эркинликларини ёритиш каби масалалар таҳлил этилади.

**Калит сўзлар:** ижтимоий шериклик, жамоатчилик назорати, ижтимоий масъулият, ҳуқуқий давлат, нодавлат ташкилот, жамоатчилик назорати, тараққиёт стратегияси, фуқаролик жамияти.

**Abstract:** This article analyzes issues such as the legal basis of social partnership for the protection of human rights in the new Uzbekistan and the coverage of human rights and freedoms.

**Key words:** social partnership, public control, social responsibility, rule of law, non-governmental organization, public control, development strategy, civil society.

**Аннотация:** В данной статье анализируются такие вопросы, как правовая основа социального партнерства по защите прав человека в новом Узбекистане и освещение прав и свобод человека.

**Ключевые слова:** социальное партнерство, общественный контроль, социальная ответственность, верховенство закона, неправительственная организация, общественный контроль, стратегия развития, гражданское общество.

**КИРИШ.** Халқаро тажриба инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари, турли ижтимоий-сиёсий гуруҳлар ва синфлар манфаатларини таъминлаш ва муҳофаза қилиш, долзарб ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий, маданий-гуманитар, экологик вазифаларни ҳал этиш, жамият барқарор ривожланишини таъминлаш, фуқаролик жамиятини шакллантиришда ижтимоий шериклик алоҳида ўрин тутишини кўрсатмоқда.

Ижтимоий шериклик бу давлат

ҳокимияти органлари ва фуқаролик жамияти институтларининг ўзаро ҳамкорлиги ва манфаатларини уйғунлаштириш асосида жамиятда мавжуд бўлган муайян ижтимоий муаммоларни ҳал этишга қаратилган мулоқот ҳамда консенсусга келиш тизимидир[1].

Мамлакатда ижтимоий шериклик тамойилларининг амал қилиши - миллий иқтисод, барқарор ривожланиш, аҳоли фаровонлиги ва турмуш даражаси ўсишининг гарови эканлигини кўрсатади.

**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР.** Ушбу мақолада ижтимоий шериклик муносабатларини тадқиқ этган хорижий ва маҳаллий (А.Муминов, А.Бегматов, М.Мирзакаримова, Э.Нишанбаева, А.Абдухалилов) олимларнинг мавзуга оид тадқиқотлари таҳлил қилинди.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Ўзбекистон Республикасининг “Ижтимоий шериклик тўғрисида”, “Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида”, “Жамоат фондлари тўғрисида”, янги таҳрирдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида”, “Жамоатчилик назорати тўғрисида”, “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонунлари, Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳамда Янги Ўзбекистоннинг узок муддатли ривожланиш йўналишларини белгилаб берган **учта тараққиёт стратегияси** (Ҳаракатлар стратегияси, Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси ҳамда “Ўзбекистон – 2030” стратегияси) дан ҳам фойдаланилди.

Мақола умум қабул қилинган тарихий методлар – тарихийлик, илмийлик, қиёсий-мантӣқий таҳлил, кетма-кетлик, холислик тамойиллари асосида ёритилган бўлиб, унда мамлакатимизда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича ижтимоий шерикликнинг ҳуқуқий асослари таҳлил этилган.

**МУҲОКАМА.** Маълумки, ҳуқуқий давлатда жиддий аҳамиятга эга бўлган ижтимоий муносабатлар Конституция ва унга асосланган қонунлар билан тартибга солинади. Давлат органларининг фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорлиги ҳам ўз моҳиятига кўра шундай ўта долзарб ижтимоий муносабатлардан бири ҳисобланади. Ижтимоий шерикликнинг ҳуқуқий асосларини тадқиқ этишда амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда мавжуд ҳамкорликка оид нормаларни таснифлаш, тизимлаштириш алоҳида аҳамият касб этади.

Мамлакатимиз қонунчилигида давлат ва ФЖИ ҳамкорлиги ва ижтимоий шериклик муносабатларини тартибга соладиган 100дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мавжуд ва уларни куйидаги 3 гуруҳга ажратиш мумкин.

**Биринчи гуруҳ.** Мазкур ҳамкорликнинг

конституциявий-ҳуқуқий асосларини белгиловчи Конституция нормалари ва махсус қонунлар.

Улар орасида “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги махсус қонун ушбу соҳадаги муносабатларни тартибга солади, ижтимоий шерикликнинг ташкилий, ҳуқуқий, институционал, молиявий жиҳатларини очиқ беради. Шунингдек, ФЖИларнинг янада ривожланиши ҳамда аҳолининг ҳуқуқ ва эркинликлари, манфаатларини ҳимоя қилиш, амалга оширилаётган ислохотлар самарадорлигини таъминлаш, мамлакат тараққиётига оид дастурларни амалга ошириш, ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий, маданий-маърифий, эколого-гуманитар муаммоларни ҳал этишда улар ролининг кучайиши, давлат тузилмалари билан ўзаро муносабатларидаги аниқ чегараларни ва ташкилий-ҳуқуқий механизмларни белгилайди[2].

“Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги қонуннинг 5-моддасида қайд этилишича, “Давлат жамоат бирлашмалари ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига риоя этилишини таъминлайди ҳамда Конституцияга мувофиқ улар ўз уставларидаги вазифаларни бажаришлари учун шарт-шароит яратилишига кафолат беради”[3]. Шу каби ҳуқуқий нормани “Жамоат фондлари тўғрисида”ги қонун 8-моддасида ҳам кузатиш мумкин: “Фондларнинг давлат органлари билан ўзаро муносабатлари ижтимоий шериклик, юридик ва жисмоний шахсларнинг ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш асосида курилади. Давлат органлари фондларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига риоя этилишини таъминлайди, фондларнинг ижтимоий аҳамиятга молик дастурлари ва лойиҳаларини қўллаб-қувватлаши мумкин”[4].

“Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида” қонун 4-моддасига кўра “Давлат нодавлат нотижорат ташкилотларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига риоя этилишини таъминлайди, уларга ижтимоий ҳаётда иштирок этиш учун тенг ҳуқуқий имкониятлар яратиб беради. Нодавлат нотижорат ташкилотларининг алоҳида ижтимоий фойдали дастурларига давлат кўмак кўрсатиши мумкин”, деган қоида ўз ифодасини



топган[5].

Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ўзаро ҳамкорлигига оид нормалар “Нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятининг кафолатлари тўғрисида”ги қонунда ҳам ўз ифодасини топган. Унга кўра: давлат ННТларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ҳимоя қилинишини кафолатлайди; уларни қўллаб-қувватлаш шакллари (субсидия, ижтимоий буюртма бериш ва грантлар ажратиш, ахборий ёрдам кўрсатиш ва ҳ.к.) ва шартлари белгиланган; юридик ва жисмоний шахслар қонун ҳужжатларига мувофиқ ННТларнинг фаолиятини молиявий ёки бошқа жиҳатдан қўллаб-қувватлашлари мумкинлиги белгиланган.

**Иккинчи гуруҳ.** Айрим моддаларида айнан давлат ва нодавлат ташкилоти ҳамкорлигининг у ёки бу жиҳатларини акс эттирган муайян соҳавий қонунлар. Мисол тариқасида “Меҳнат кодекси”, “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида”, “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида”, “Ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”, “Ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш тўғрисида”, “Истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”, “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонунларни кўрсатиш мумкин.

Хусусан, Меҳнат кодексининг 6-моддасига кўра “меҳнат соҳасидаги ижтимоий шериклик принципи ходимларнинг, улар вакилларининг, иш берувчиларнинг, улар вакилларининг, шунингдек давлат органларининг ижтимоий-меҳнат муносабатларини тартибга солиш масалалари юзасидан ходимларнинг, иш берувчиларнинг ва давлатнинг манфаатларини мувофиқлаштиришни таъминлашга қаратилган ҳамкорлигидан иборатдир” (трипартизм тамойили).

Кодекснинг 40-моддасида меҳнат соҳасидаги ижтимоий шерикликнинг ҳуқуқий ҳужжатлари жамоа келишувлари, жамоа шартномаси ва ташкилотнинг иш берувчи томонидан касаба уюшмаси кўмитаси билан келишувга кўра қабул қилинган бошқа ички ҳужжатларидан иборатлиги белгиланган. 52-моддасида эса: республика даражасида ходимлар ва иш берувчиларнинг тенг сонли вакилларида ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича уч

томонлама комиссия тузилиши; унинг таркибига ходимлар ва иш берувчиларнинг республика бирлашмалари вакиллари, шунингдек Вазирлар Маҳкамасининг вакиллари кириши мустаҳкамлаб қўйилган[6].

Улар инсон ҳуқуқлари халқаро ҳуқуқи, Халқаро меҳнат ташкилоти ҳужжатларининг меҳнат соҳасидаги ижтимоий шериклик муносабатларини тартибга солувчи нормаларга тўла мос келади.

Янги таҳрирдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида”ги қонунга кўра[7]:

- Вазирлар Маҳкамаси ўз ваколатига кирувчи масалалар юзасидан ФЖИлар билан ҳамкорлик қилиши, уларга зарур ёрдам кўрсатиши ҳамда уларнинг таклифларини кўриб чиқиши (44-модда);

- аниқ соҳалар ва йўналишларда амалга оширилаётган ислохотларнинг боришини ўрганиш мақсадида Бош вазир томонидан маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари, давлат бошқаруви ҳудудий органлари раҳбарлари, ННТлар вакиллари иштирокида ҳудудларда Ҳукуматнинг мавзули сайёр мажлислари ўтказилиши мумкинлиги таъкидланган (53-модда, 4-қисми).

Ушбу қоидаларни давлат ва ФЖИларнинг самарали ўзаро ҳамкорлигини йўлга қўйишда муҳим аҳамиятга эга. Зеро, Вазирлар Маҳкамаси янги таҳрирдаги Ўзбекистон Конституциясининг 114-моддасига биноан ижро этувчи ҳокимиятни амалга оширади. Бу эса, ўз навбатида, ижтимоий ҳақморлик ҳамда ФЖИларнинг инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлаш борасидаги вазифаларини тўлақонли амалга ошириши учун муайян имкониятлар яратади.

**НАТИЖАЛАР.** Фуқароларнинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва ҳаётга татбиқ этишдаги иштирокига оид ҳуқуқларининг таъминланишида “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида”ги қонуннинг қўйидагиларни назарда тутувчи нормалари аҳамиятлидир:

- жисмоний ва юридик шахслар тегишли давлат органларига норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини тайёрлаш тўғрисида таклифлар киритишга ҳақлиги ҳамда норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини тайёрлаш бўйича ишчи гуруҳлар (комиссиялар) таркибига,

ННТлар вакиллари, фуқаролар ўз розилиги билан киритилиши мумкинлиги (20 ва 22 - моддалари);  
- фуқаролар, ФЖИлар норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ жамоатчилик мониторинги ва назоратини амалга ошириши, қонунчиликнинг ҳолатини, қўлланилиш амалиётини, жамоатчилик фикрини ва халқаро тажрибани ўрганиши (53-модда 4-қисми);

- норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларининг жамоатчилик муҳокамаси манфаатдор давлат органлари, ФЖИлар ва ўзга ташкилотларнинг вакиллари, олимлар, мутахассислар ва фуқаролар иштирокида ўтказилиши (23 ва 24 - моддалар).

“Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги қонунда[8] эса давлат органлари ва муассасалари фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ташкил этиш ҳамда амалга ошириш соҳасидаги муносабатларни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солувчи меъёрлар белгиланган. Қонунга биноан, хусусан, фуқаролар, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, ННТ, ОАВлар жамоатчилик назорати субъектларидир.

Шунга ўхшаш нормалар “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуннинг 14-моддаси, “Кексалар, ногиронлиги бўлган шахслар ва аҳолининг бошқа ижтимоий эҳтиёжманд тоифалари учун ижтимоий хизматлар тўғрисида”ги қонун 11-моддаси ва бошқа қатор қонунларда ҳам белгиланган. Уларда, хусусан, давлат ва бошқа дастурларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга ошириш, аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантиришда иштирок этиш, қонунчиликнинг ижро этилиши устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириш, қонунчиликни такомиллаштириш юзасидан таклифлар киритиш, давлат органлари ва бошқа ташкилотлар билан ҳамкорлик қилиш каби масалалар ёритиб берилган.

**Учинчи гуруҳ.** Ижтимоий шериклик муносабатларини ҳуқуқий тартибга солувчи қонуности ҳужжатлари.

Бугунги кунда мазкур соҳада ҳам 300 дан ортиқ қонуности ҳужжатлари мавжуд бўлиб, диссертация мавзуси ва унинг ҳажми нуктаи назаридан келиб чиқиб, уларнинг айримларини фуқароларнинг шахсий, сиёсий, иқтисодий,

ижтимоий ва маданий ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, адолатли фуқаролик жамиятини шакллантириш ва мамлакатимиздаги изчил демократик ўзгаришларда уларнинг ўрни ва аҳамиятини ошириш нуктаи назаридан таснифлаш ўринли, деб биламиз.

Улар орасида, албатта, Янги Ўзбекистоннинг узоқ муддатли ривожланиш йўналишларини белгилаб берган **учта тараккиёт стратегияси** (Ҳаракатлар стратегияси, Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси ҳамда “Ўзбекистон – 2030” стратегияси) алоҳида ўрин эгаллайди.

Ушбу стратегияларни ҳаётга татбиқ этиш жараёнида мамлакатда:

- халқ билан очик мулоқотнинг механизмларини такомиллаштириш, муҳим қарорларни жамоатчилик фикрини инобатга олган ҳолда қабул қилиш амалиётини кенгайтириш;

- норма ижодкорлиги жараёнини модернизация қилиш, қонунчилик ҳужжатларининг қатъий ижросини таъминлаш, қонун ижодкорлиги жараёнида фуқаролик жамияти институтлари билан маслаҳатлашувлар ўтказиш амалиётини такомиллаштириш;

- сиёсий тизимни ривожлантириш, сиёсий партияларнинг давлат ва жамият ҳаётидаги ролини кучайтириш, улар ўртасида соғлом рақобат муҳитини шакллантириш;

- фуқаролик жамияти институтларини қўллаб-қувватлаш ҳажмларини кенгайтириш, уларнинг ижтимоий ва сиёсий фаоллигини ҳамда ижтимоий шерикликнинг самарасини ошириш, ижтимоий шерикликда амалга ошириладиган лойиҳалар сонини камида **3 баробарга** кўпайтириш, давлат дастурларида иштирок этаётган ННТлар сонини камида **80** тага етказиш;

- таъсирчан жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг замонавий шаклларини жорий этиш, унинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш, жамоавий мурожаатлар асосида ҳудудий, тармоқ ва давлат дастурлари ижро сифатини текшириш амалиётини жорий этиш;

- маҳалла институтининг жамият бошқарувидаги ўрни ва фаолияти самарадорлигини ошириш, уни жамоатчилик бошқаруви ва назоратининг таянч бўғинига айлантириш;

- оммавий ахборот воситаларининг ролини кучайтириш, уларнинг ва журналистларнинг касбий фаолиятини ва ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш, профессионал фаолиятига тўсқинлик қилганлик учун жавобгарликни кучайтириш каби йўналишларда комплекс ва тизимли фаолият йўлга қўйилган.

Бу борада инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ҳуқуқ талаблари, БМТнинг устав органлари ва шартномавий қўмиталарининг тавсияларини инобатга олган ҳолда, шунингдек, кенг жамоатчилик муҳокамаси, халқаро ва миллий маслаҳатлашувлар натижасида ишлаб чиқилган Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегияси ҳамда тизимлаштирилган қонунчилик базасини шакллантириш, амалга оширилаётган ислохотларнинг ҳуқуқий жиҳатдан таъминланишини такомиллаштириш мақсадларида “Қонун ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепцияси” қабул қилинганини таъкидлаш жоиз.

Шунингдек, фуқароларнинг жамият ва давлат бошқарувидаги иштирок ҳуқуқини таъминлаш, ижтимоий шерикликнинг самардорлигини янада ошириш, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари муҳокамасига жамоатчиликни кенг жалб қилишга хизмат қилувчи [regulation.gov.uz](http://regulation.gov.uz) ҳамда [Mening fikrim](http://Meningfikrim.gov.uz) веб порталлари ишга туширилди.

Натижада фуқаролар, жамоатчилик, жумладан қонунчилик ташаббуслари учун ягона майдон шаклланди, “Халқ – қонунларнинг ягона манбаи ва муаллифидир”, “Конституциянинг ягона манбаи ва муаллифи халқдир” ҳамда “Барча муҳим қарорлар халқ билан бевосита мулоқот асосида, жамоатчилик фикрини инобатга олган ҳолда қабул қилинади” тамойилларини амалга ошириш учун мустаҳкам замин яратилди. Тадқиқотлар ушбу Ўзбекистон тажрибаси инсон ҳуқуқлари халқаро ҳуқуқига тўла мос келишидан далолат беради.

Натижада, бугунги кунда фуқаролар, фуқаролик жамияти институтлари, олимлар, оммавий ахборот воситалари ва тадбиркорлик субъектларининг кодекслар, қонунлар ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш, уларни жамоатчилик муҳокамаси

ва экспертизадан ўтказиш, қонунни қўллаш амалиётини такомиллаштиришга кенг жалб этилиши ҳамда фуқаролик жамияти ташаббуслари институти жамият ва давлат ҳаётида мустаҳкам ўрин эгаллади, дейишга барча асослар мавжуд.

**ХУЛОСА.** Шунини алоҳида таъкидлашимиз лозимки, ушбу ҳужжатлар асосида давлат ҳокимияти органларининг фаолияти тўғрисида мунтазам равишда жамоатчиликка ахборот тақдим этиш, халқаро амалиётда кенг тарқалган жамоатчилик назоратининг таъсирчан шакллари жорий қилиш, уларни амалга ошириш механизмларини батафсил регламентация қилиш ва амалиётда самарали қўллаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари ҳузуридаги жамоатчилик кенгашлари фаолияти, тегишли соҳалардаги ишларнинг ҳолатини яхшилашда уларнинг роли ва самарали иштироки каби масалаларни ҳал этиш бўйича тизимли ишлар бажарилди.

#### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Муминов А., Нишанбаева Э., Абдулхалилов А. Ижтимоий шериклик. Услубий қўлланма. Тошкент. Университет. 2018. 84-б.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги Қонуни. - <https://www.lex.uz/docs/2468214>;
3. Хамидова К. Ижтимоий шериклик муносабатларининг мустаҳкам ҳуқуқий асоси // Адолат ижтимоий-сиёсий газетасининг расмий веб-сайти: <http://adolat.uz>.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги қонуни - <https://www.lex.uz/ru/docs/111825>;
5. Ўзбекистон Республикасининг “Жамоат фондлари тўғрисида”ги қонуни - <https://www.lex.uz/ru/docs/42231>.
6. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси – <https://www.lex.uz/ru/docs/6257288>
7. Ўзбекистон Республикасининг янги тахрирдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида”ги қонуни - <https://www.lex.uz/docs/4636594>
8. Ўзбекистон Республикасининг “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Қонуни - <https://lex.uz/docs/3679092>

**ПРОФЕССОР КАЛЛИ АЙИМБЕТОВ  
АСАРЛАРИДА МИЛЛИЙ МАДАНИЯТИМИЗ  
ЗИЁЛИЛАРИ ХИЗМАТИНИНГ ТАДКИК  
ЭТИЛИШИ**

Айтмуратова Жанылсын Жалгасовна, Қорақалпоқ давлат  
университети

**PROFESSOR KALLI AYIMBETOV'S WORKS ON  
THE STUDY OF THE CONTRIBUTION OF OUR  
NATIONAL INTELLECTUALS**

Aytmuratova Janylsyn Jalgasovna, Karakalpak State  
University

**ПРОФЕССОР КАЛЛИ АЙИМБЕТОВ В СВОИХ  
ТРУДАХ ОБ ИССЛЕДОВАНИИ ВКЛАДА  
НАЦИОНАЛЬНОЙ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ**

Айтмуратова Жанылсын Жалгасовна, Каракалпакский  
государственный университет



<https://orcid.org/0000-0001-7301-9763>

e-mail:

aytmuratova88.88@mail.ru

**Аннотация:** Мақолада қорақалпоқ адабиёти ривож, айникса, қорақалпоқ адабиёти ва адабий тилини тадқиқ қилиш бўйича тамал тошини қўйган олимлардан бири, филология фанлари доктори Қалли Айимбетовнинг хизматлари ва у томонидан тадқиқ этилган миллий зиёлилар хизмати ҳақида сўз боради.

**Калит сўзлар:** чалқ донолиги, фольклор, адабиёт ва санъат, “Тонг нури” труппаси.

**Abstract:** The article discusses the contributions of Doctor of Philology Kalli Ayimbetov, one of the scholars who laid the foundation for the study of Karakalpak literature and literary language, as well as his research on the contributions of national intellectuals.

**Key words:** folk wisdom, folklore, literature and art, “Tong Nuri” troupe.

**Аннотация:** В статье рассматриваются заслуги доктора филологических наук Калли Айимбетова, одного из ученых, заложивших основу изучения каракалпакской литературы и литературного языка, а также его исследования вклада национальной интеллигенции.

**Ключевые слова:** народная мудрость, фольклор, литература и искусство, труппа “Тонг нури”.

**КИРИШ.** Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 3 август куни Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувида “Миллий маданиятимиз, адабиёт ва санъатимизни ривожлантириш – халқимизнинг маънавий дунёсини ривожлантиришнинг мустаҳкам асоси”

деб номланган баёнотида “Ҳозирги вақтда, маданият соҳасида ёвузликка қарши маърифат билан курашиш, ёшларимизни ҳақиқий санъатни англашга ўргатиш, уларнинг эстетик оламини соғлом тарзда шакллантириш бўйича олдимизда ўта муҳим вазифалар турибди”<sup>1</sup> деб таъкидлаганидек, бугунги куни бизлар учун

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш халқимиз маънавий

оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир” маърузаси//Халқ сўзи. 2017й., 4 август.

миллий маданиятимизнинг ривожланишига катта ҳисса қўшган фидойи зиёлиларимизнинг хизматини ўрганиш катта аҳамиятга эга.

Қорақалпоғистон зиёлилари Республикамизда олиб борилган фан ва маданият соҳасидаги изланишларда доимо фаол қатнашиб келган. Ўтган асрнинг 20-30 йилларида Н.А.Баскаков, А.А.Мельков, С.А.Малов, А.А.Соколов, П.П.Иванов, С.П.Толстов каби таниқли рус олимлари қорақалпоқ адабиёти, тили ва тарихини ўрганиши баробарида кўплаб шогирдларни етиштиришга ҳам хизмат қилдилар. Натижада уларнинг кўпчилиги ХХ асрнинг 40-50-йилларида етук фан ва маданият ходимларига айланди.

Қорақалпоғистонда филология фанларининг асосини яратувчиларнинг бири, филология фанлари доктори, профессор Қалли Айимбетов ўзининг илмий асарларида Қорақалпоғистон маданияти ва санъатининг ривожига катта ҳисса қўшган маданият арбобларининг хизматини ўрганишга катта аҳамият қаратган.

Қ.Айимбетов ўтган асрнинг 20-30-йилларида талабалик вақтидан республикаимизнинг маданиятини, санъатини, таълим ва маънавий ишларини ривожлантиришга ҳисса қўшган ёш таланти эгаси сифатида кўзга ташланди.

Профессор Қалли Айимбетов ёшлигидан илм йўлини танлаган даврда таниқли давлат арбобларидан Қасым Өўезов, илм, адабиёт ва маданият соҳасида Сейфулғабит Мажитов, Нажим Давқараев, Асан Бегимов, Айтбай Матъякубов, Хожакмет Ахметов, Абдираман Утепов каби иқтидорли ижодкорлар бирга ишлашди. Қалли Айимбетовнинг илмга қадам қўйган даврини, таниқли давлат арбоби, эл оғаси, меҳнат қаҳрамони Қаллибек Камалов ўзининг “Халқ донолигини эъзозлаб ўтган олим” мақоласида қўйдагича баҳолайди. “Ўттизинчи йиллардан бошлаб қорақалпоқ халқининг этнографиясини ва фольклорини тўплаш ишлари бўйича. А.Л.Мельков, С.Е.Малов, А.А.Соколов, С.П.Толстов, П.П.Ивановларнинг Қорақалпоғистонда ташкил этилган илмий экспедицияларида таржимон ва йўл бошловчи

ишларини олиб борган инсон”, -деб кўрсатганидек, у ҳақиқатан ҳам қорақалпоқ фольклорини тадқиқ этувчиларнинг ташаббускори бўлди.

“1938-йили Қорақалпоғистонда тил ва адабиёт илмий тадқиқот институтининг очилиши ва уни тажрибали олим Қ.Айимбетовнинг бошқаруви қорақалпоқ фольклори билан халқ шоирлари асарларининг кенг қўламда тўпланиши ва тадқиқ этилишига сабабчи бўлди. Н.Давқараев, О.Кожуров, С.Мауленов, Ш.Хожаниязов, А.Бегимов, Н.Жапақов, А.Шамуратов, Қ.Ермановлар билан биргаликда Қ.Айимбетов эски маданий меросларимизни тўplash ва уларнинг энг яхши намуналарини чоп этиш ишларига фаол қатнашди”, -деб баҳолайди филология фанлари доктори Қ.Байниязов.

Академик Жуманазар Базарбаевнинг “Қалли Айимбетовни қорақалпоқ фольклорини тадқиқ этивчиларнинг отаси” деб таъкидлаганидек, у ўзининг 1960, 1968, 1972, 1988-йилларда Қорақалпоғистон босмасида нашр этилган “Халық даналығы” асарида қорақалпоқ жировчилик санъатининг шаклланиши ва ривожланишида жировлар мактаби шажарасини ёзиб қолдиради. Бунда кўбизнинг пири Қўрқит ота ва Суппасли Сипира Жировдан бошлаб, ўтган асрнинг ўрталаригача қорақалпоқ жировларининг шажара жадвалини тузади. Олим ўз асарларида Жийемурат Жиров, Нурабулла Жиров, Қурбанбай Жиров, Есемурат ва Қыяс Жировларнинг репертуарлари, маҳорат билан ижро қилган дostonлари ва улардан ёзиб олинган дostonларнинг вариантлари ҳақида бебаҳо маълумотлар беради. Профессор Қалли Айимбетов юқорида келтирилган асарнинг 129-146-бетларида Қорақалпоқ бахшичилик санъатининг шаклланишидаги ва ривожланишидаги генеологик шажара жадвалини Ақимбет бахшидан бошлаб, Амет Тарихов оралиғидаги бахшиларнинг ижодий маҳорати ва шогирд тайёрлаш йўли ҳақида тарихий манбаларни ёзиб қолдиради. Ушбу асарнинг 152-бетиде йигирмадан ортиқ қорақалпоқ қиссахон шоирларининг генеологик шажарасининг жадвалини тузади<sup>2</sup>.

2 Байниязов Қ. Профессор Қалли Айимбетов. Илимий-биографиялық очерк. - Нөкис: Илим, 2006. 68 б.

Қиссахонлардан Қоразбек шоир, Қози Маўлик, Мамбетнияз шоир, Садиқ, Аяпберген, Аббаз, Қазақбай, Қаўендер ижоди хақида маълумотлар беради.

Филология фанлари доктори профессор Камал Мамбетовнинг “Агар Қорақалпоғистоннинг 1913-йилдан 1973-йиллар оралиғидаги олтмиш йиллик тарихи ёзилиши зарур бўлса, хақиқий тарихни фақатгина Қалли оғанинг ўзидан ёзиб олиш мумкин”<sup>3</sup>, деган сўзлари олим томонидан ёзилган асарларнинг миллий маданиятимиз, тарихимиз, адабиёт ва санъатимизни ўрганиш учун аҳамиятли манба эканлигини кўрсатади. Профессор Қ.Айимбетов томонидан 1972 йили ва сўнгги 2008 йили “Қарақалпақстан” босмасидан нашр этилган “Өткен кунлерден елеслер” асарида чорак асрдан зиёд воқеаларни ўз ичига оладиган республикамизнинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаётида вужудга келган тарихий ўзгаришларни ёзиб қолдиради. Айниқса, олимнинг Қорақалпоқ халқининг ўз олдиға ўтов тикиб, мустақиллик учун кураш йўлида жонини фидо қилган давлат арбобларидан Аллаяр Досназаров, Қасим Аvezов, Ибройим Бекимбетов, Керимберди Сағдуллаев, Матеке Жуманазаровларнинг ўз даврининг билимли, иқтидорли ўғлонлари сифатидаги ташкиллаштирувчи хизматлари хақида сўз этилади.

Олимнинг “Өткен кунлерден елеслер” асарида республикамизда дастлабки таълим, фан, маданият ва санъат муассасаларининг очилишида фидойилик кўрсатган устоз ва маънавият зиёлиларидан Хилал Баймухамедов, Сейфулгабит Мажитовнинг таълим соҳасидаги хизматларини ёзиб қолдиради.

1927 йили май ойида Қорақалпоғистонда миллий санъатимизнинг ривожланишидаги “Маданият маркази” бўлган миллий давлат театрига асос солган “Тонг нури” труппасининг тузилишида Тўрткўл шаҳар Педтехникуми муаллими Зариф Қосимовнинг хизмати хақида сўз этилади.

Қалли Айимбетов Тўрткўл шаҳрида таълим олган вақтларида республикамизда театр санъатининг шаклланишига асос солинган. “Тонг нури” труппасининг аъзоси драматург Абдираман Утеповнинг Қорақалпоқ халқининг адабиёти билан маданиятини ривожлантиришда энг дастлабкилардан бўлиб театрда драма спектаклларининг қўйилишига фаол иштирок этганлигини кўрсатади. Профессор Қ.Айимбетов “Өткен кунлерден елеслер” асарининг VII-VIII бўлимида Олмаота шаҳрида билим олган талабалик йилларида профессор Шанжар Асфендияров, қозоқ халқининг таниқли маърифатпарвар шоир ва ёзувчиларидан Мухтар Аvezов, Академик Е.Тарле, Сакен Сейфулин, Нозир Туракуловларнинг устозлик ва илмий-адабий ижодий хизматлари хақида маълумотлар ёзиб қолдиради.

#### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Айимбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1988. - 326 б.
2. Айимбетов Қ. Өткен кунлерден елеслер. – Нөкис: Илим, 2008. -328 б.
3. Камалов Қ. Илимли елге нур жаўар. - Нөкис: «Илим», 2010. - 92 б.
4. Қўчқаров Я. Тўрткўл тарихи. Ҳикоялар, хотиралар, бадиалар, манбалар. -Урганч: Хоразм, 2006.
5. Байниязов Қ. Профессор Қаллы Айимбетов. Илимий-биографиялық очерк. -Нөкис: Илим, 2006.68 б.



<sup>3</sup> Қ.Камалов. «Халық даналығын қәстерлеп өткен алым». Илимли елге нур жаўар. –Нөкис: «Илим», 2010-ж. 43-бет.

SHARQ VA G'ARB MUTAFAKKIRLARI  
QARASHLARIDA JAMOATCHILIK NAZORATI  
TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUN  
AMALIYOTIDAGI IJTIMOIIY-FALSAFIY  
AHAMIYATI

Babajanov Sarvarbek Bekpulatovich, Urganch innovatsion  
universiteti v.b. dotsenti



<https://orcid.org/0009-0000-8501-2219>

e-mail:

[sarvarbekbabaionov@urgiu.](mailto:sarvarbekbabaionov@urgiu.uz)

uz

КОНЦЕПЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ  
ВО ВЗГЛЯДАХ ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ  
УЧЕНЫХ И ЕЕ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ  
ЗНАЧЕНИЕ В СОВРЕМЕННОЙ ПРАКТИКЕ

Бабажанов Сарварбек Бекпулатович, и.о. доцента  
Ургенчского инновационного университета

THE CONCEPT OF PUBLIC CONTROL IN THE  
VIEWS OF EASTERN AND WESTERN  
SCIENTISTS AND ITS SOCIO-PHILOSOPHICAL  
SIGNIFICANCE IN MODERN PRACTICE

Babajanov Sarvarbek Bekpulatovich, Acting Associate Professor  
of the Urgench Innovation University

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi davr, oʻrta asr va yangi davr Sharq va Gʻarb mutafakkirlari qarashlarida insoniyat tarixida fuqarolik jamiyati qurishning birlamchi asosi boʻlgan jamoatchilik nazorati fenomenining mazmun-mohiyati, jamoatchilik nazorati tushunchasi masalalari, jamoatchilik nazorati mexanizmlari va uning amaliyotdagi ahamiyati, mamlakatimizda jamoatchilik nazoratini taʼminlash borasidagi huquqiy normalar tahlil qilingan.

**Kalit soʻzlar:** jamiyat, davlat, xalq, jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi.

**Abstract:** This article analyzes the content of the phenomenon of public control, which is the primary basis for building a civil society in the history of mankind in the views of Eastern and Western thinkers of antiquity, the Middle Ages and Modern Times, the concept of public control, mechanisms of public control and its significance in practice, legal norms for ensuring public control in our country.

**Key words:** society, state, people, public control, civil society, public administration.

**Аннотация:** В данной статье проанализировано содержание феномена общественного контроля, являющегося первоосновой построения гражданского общества в истории человечества на взглядах восточных и западных мыслителей античности, Средневековья и Нового Времени, вопросы понятия общественного контроля, механизмы общественного контроля и его значение на практике, правовые нормы по обеспечению общественного контроля в нашей стране.

**Ключевые слова:** общество, государство, народ, общественный контроль, гражданское общество, государственное управление.

**KIRISH.** Mamlakatimizda keyingi yillarda – xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi”, amalga oshirilayotgan islohotlarda “Davlat organlari – Bizning bosh maqsadimiz – yurtimizda xalq

hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilishdan iborat”, “Qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma’nodagi xalq bo’lishi shart” tamoyillari asosida jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik institutlari rolini kuchaytirishga qaratilayotganligi bejiz emas[1–B.82]. Chunki, jamoatchilik nazorati samaradorligiga erishmasdan turib demokratik qadriyatlar ustuvor bo’lgan, inson huquq va erkinliklari ta’minlangan fuqarolik jamiyatini qurib bo’lmaydi. Shuning uchun, jamoatchilik nazorati “lokomotivi” bo’lgan subyektlar faoliyatining ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini, usul va vositalarini yanada kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Barchamizga ma’lumki, bugungi davr – faol fuqaroviylik pozitsiyasiga ega bo’lgan, o’z huquq va burchlaridan foydalanish orqali, hayotiy pozitsiyasini jamiyat manfaatlari bilan uyg’unlashtirish ko’nikmasini qaror toptirgan insonlar yashaydigan huquqiy demokratik davlat qurishni talab etmoqda. Zero huquqiy demokratik jamiyatni barpo etish, kelajak poydevorini qurish, hech shubhasiz, har birimizdan qat’iyatli va omilkor bo’lishni, yangicha fikr yuritish, yangicha ishlashni talab etmoqda[1; 9-b.].

Davlat tashkilotlari va boshqaruv organlari faoliyati ustidan tizimli jamoatchilik nazoratini ta’minlash mexanizmini yo’lga qo’yish orqali, jamiyatda qanday pozitiv o’zgarishlarni qaror toptirish mumkin? Bu kabi savollarga javob berishdan oldin, ushbu fenomenning mazmun-mohiyatini tarixiy jihatdan tahlil qilish lozim bo’ladi. Chunki, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy metodologik tamoyillarni ijtimoiy-falsafiy tahlil etish asnosida “jamoatchilik nazorati” fenomenning ijtimoiy kategoriyasi mohiyatini anglab olish mumkin.

Insoniyat tarixida fuqarolik jamiyati qurishning birlamchi asosi bo’lgan jamoatchilik nazorati fenomenining mazmun-mohiyatini tushunish, uni harakatga keltiruvchi mexanizmlar samaradorligini topish, unga ta’sir etuvchi omillar darajasini kamaytirish, undan xalq va davlat manfaatlarini bog’lovchi konstruktiv asos sifatida foydalanish konsepsiyasini yaratish (nisbatan universal) borasida ko’plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, quyida ushbu konsepsiyalarning ayrimlarida ilgari surilgan

g’oyalarning ilmiy-falsafiy mohiyatini davrlashtirish asnosida izohlab o’tamiz:

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Qadimgi Xitoy faylasuflarining qarashlari bo’yicha davlat ishlarida adolat mezonini o’rnatilsa, xalq fikri inobatga olinsagina jamoatchilik nazoratining kurtaklari yuzaga kelishi mumkin. Bu borada Lao Szining (eramizdan avvalgi 579-499 yillar) qarashlari bo’yicha adolatli davlat boshqaruvining barqaror, mustahkam asosi jamoatchilik fikrida namoyon bo’ladi hamda davlat ishlari ustidan jamoatchilik nazoratini o’rnatish orqali hukmdor xalq ishonchini qozonishi mumkinligi keltirib o’tiladi. Uning nuqtayi nazarini bo’yicha, jamoatchilik nazorati – mamlakatni adolatli boshqarishning asosi[2;23-s.] hisoblanadi.

Xitoy faylasuflaridan Konfutsiy (miloddan avvalgi 55-479 yillar) ham davlat boshqaruvida barqarorlik, tinch va farovon hayot garovi bo’lgan “davlat boshqaruvi mezonlari”ga alohida to’xtalib, o’zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ilgari surgan mutafakkirlardan biri hisoblanadi.

Konfutsiy ta’limoti bo’yicha, jamoatchilik fikri ustun bo’lgan, jamoatchilik nazorati o’rnatilgan davlatni boshqarish, hukmdorga faqat qulaylik va yurt tinchligini saqlab turish imkoniyatini beradi. Faylasuf ushbu qarashlarini shunday bayon etadi. Ya’ni Konfutsiy hukmdor va xalq o’rtasidagi o’zaro munosabatni shunday qiyoslaydi: “Podshoh misli bir chavandoz bo’lsa, amaldorlar va qonunlar yugan va jilov, fuqarolar esa otdir. Otni yengil boshqarmoq uchun uni puxta yuganlamoq va jilovni to’g’ri boshqarmoq lozimdir. Shuning bilan birga otlarning kuchini bir-biriga muvofiqlashtirib, ortda qolganlarini nazorat qilmoq joizdir. Ana shu shartlarga amal qilgan chavandoz ovoz chiqarmasa, niqtalamasa ham otlar o’z-o’zidan chopib ketaveradi”[3;18-b]. Darhaqiqat, xalq davlat qonunlariga amal qilishi uchun, avvalo bu qonunlar xalq manfaatlariga mos kelishi, davlat organlarining o’zi esa, ushbu qonunlarga qay darajada amal qilayotganligida belgilanadi.

Qadimgi yunon faylasufi Aflotun (miloddan avvalgi 427-347 yillar) o’zining “Davlat”, “Qonun”, “Siyosat”, “Qonundan keyingi davr” kabi asarlarida jamoatchilik nazoratining ijtimoiy mexanizmini ko’rsatishga harakat qiladi. U “haqiqiy va to’g’ri fikrlay oluvchi faylasuflar davlat tepasiga kelmaguncha yoxud hukmdorlar ilohiy iqtidorlari ila tom ma’nodagi faylasuflik maqomiga



ko'tarilmaganlariga qadar insoniyat yovuzlikdan qutulolmaydi" [3;44-b] deb, davlat ishlarini yuritishda yoki boshqaruvchi "odil xalq" singari fikrlaydigan darajaga yetmaguncha (jamoatchilik nazoratini ta'minlamaguncha) – davlat ishlarida siljish (rivojlanish) bo'lmashligini uqtirib o'tadi.

Antik yunon mutafakkirlaridan Aristotel (miloddan avvalgi 384-322 yillar) o'z qarashlarida davlat boshqaruvini demokratlashtirishda xalq fikrini inobatga olishga, ularga katta vakolatlarni berish orqali davlat boshqaruvini tashkillashtirishga alohida urg'u beradi. Bu aynan bugungi jamoatchilik nazorati fenomenining retrospektiv asoslarini ko'rsatadi. Arastu konsepsiyasining asosiy g'oyasida "Xalq yig'ini – ekklesiya" yotadi, ya'ni xalq yig'inining vakolat doirasi juda keng bo'lib, xalq yig'ini orqali mansabdor shaxslarni saylash, ular faoliyatini tekshirish, shuningdek, mansabdor shaxslarni ayblash va boshqa masalalarga alohida to'xtaladi. Bu yig'inda afinalik har bir fuqaro istagan masalasini xalq yig'iniga qo'yishga[4; 214-218-b], unda so'zga chiqishga haqli hisoblangan.

Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmulk (1018-1092) tomonidan yaratilgan "Siyosatnoma" asarida keltirilishicha, "Odil podshohlar hamisha zaiflar haqida o'ylaydi va mamlakat zarurati uchun har ikki-uch yilda muqatte'larning ishlarini taftish qiladi, toki muqatte'lar raiyat haqiga ko'z olaytirmasin, viloyat obod va ma'mur bo'lsin"[5; 44-b]. Darhaqiqat, davlat siyosatiga nisbatan shakllangan jamoatchilik fikrini, uning tendensiyalarini doimiy o'rganish – boshqaruv organlari o'z vazifasini qay darajada bajarayotganini nazorat qilib borish, davlat va xalq o'rtasidagi munosabatlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, har qanday tarixiy davrda xalq mehri-muruvvatini qozonishda muhim qoida bo'lgan mezonlar borki, ular keng jamoatchilik ongida davlatga nisbatan pozitiv fikrlar shakllanishida namoyon bo'ladi.

O'rta asr g'arb mutafakkirlaridan Jordano Bruno (1548-1600) feodal zo'ravonliklari o'rnini inson ijtimoiy turmushining foydasi uchun belgilangan Qonun egallashi kerakligini ta'kidlab, jamiyat uchun zarur bo'lgan va foydali yaxshi fazilatli kishilar aql zakovatidan foydalangan holda[6; 138-s] davlat boshqaruv ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish g'oyasini ilgari suradi.

XVII asr boshida Tomazzo Kampanella "Quyosh shahri" asarida jamoatchilik nazoratini

tashkillashtirish mexanizmini yaratish borasidagi qarashlari bilan ilmiy jamoatchilik e'tiborini tortadi. Kampanella: "Har bir yangi oy chiqqan va oy to'lgan kunda ibodatni amalga oshirish uchun Kengash yig'ilishi. Unda yigirma yoshga to'lgan va undan katta barcha ishtirok etadi va ularga birma-bir davlatda qanday kamchiliklar mavjud, qaysi mansabdor shaxslar o'z majburiyatlarini yaxshi, qaysilari yomon bajarimoqdalar, deb savol berish" [7; 97-s] va shu asosida davlat organlari faoliyatini taftish etish g'oyasini ilgari suradi.

**MUHOKAMA.** XX asr oxiri, XXI asr boshlaridan davlat boshqaruvi sohasida jamoatchilik nazorati tushunchasiga yangicha yondashuv izchillik bilan kirib keldi. Xususan, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya hamda Amerika Qo'shma Shtatlaridagi boshqaruv tuzilmalarida jamoatchilik ishtiroki, boshqaruvi va nazorati mexanizmlarida o'ziga xos usublarning qo'llanila boshlashi fonida, davlat organlari faoliyatiga nisbatan jamoatchilik munosabati ham o'zgarib bordi. Ushbu jarayonni mamlakatimiz misolida qaraydigan bo'lsak, xalq va davlat organlari hamjihatligini mustahkamlashga qaratilgan "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2018) davlat islohotlarining shaxs manfaatlariga qaratilganligini ko'rsatish mumkin. Chunki, davlat organlari faoliyatidagi shaffoflikni keltirib chiqarish, birinchidan davlat organlariga nisbatan pozitiv jamoatchilik fikrini shakllanishiga olib kelsa, ikkinchidan xalq davlat organlariga emas, aksincha davlat organlari xalq xizmatida bo'lishini ta'minlaydi.

**XULOSA.** Bugungi zamonaviy jamiyatda jamoatchilik nazoratini olib boruvchi institutlarga qaratilayotgan jiddiy e'tibor natijasida jamoatchilik nazorati mexanizmlari takomillashuviga erishish yo'lida turli darajadagi konsepsiyalar ishlab chiqilmoqda. Bularning barchasi, shubhasiz o'z funksiyalaridan kelib chiqqan holda – fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy erkinliklarini ta'minlashga, davlat organlari va xalq "ko'prigini" o'rnatilishiga xizmat qiladi. Jamoatchilik nazoratini olib boruvchi institutsional tizim elementlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha yaratilayotgan bugungi imkoniyatlar, bu tizimga jamiyat ijtimoiy hayotidagi zarurat sifatida qarash imkoniyatini bermiqda.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: О‘zbekiston, 2021. –Б.82.
2. Гончаров А.А. Гражданский контроль над органами власти. –М.: Весь Мир, 2010.
3. Жўраева С. Ҳақиқат манзаралари, 96 мумтоз файласуф. –Т.: Янги аср авлоди, 2002. – 372 б.
4. Мухамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳуқуқи тарихи. –Т.: Адолат, 1999.
5. Низомулмулк. Сиёсатнома. Иккинчи тўлдирилган, қайта ишланган нашри – Т.: Янги аср авлоди, 2008. –239 б.
6. Горфункель А.Х. Джордано Бруно. –М., 1973.
7. Утопический социализм: Хрестоматия. –М., 1982.
8. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolar vatanparvarligi – fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishida muhim omil. Tamaddun nuri jurnali, 9 (60), 23-25.
9. Kurbanbayeva, M. (2024). O‘zbek xalq og ‘zaki ijodiyotida adolatli jamiyat to‘g‘risidagi ilk tasavvurlar ifodasi. Tamaddun nuri jurnali, 8(59), 78-81.
10. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolik jamiyati g‘oyalarining milliy davlatchiligimizdagi o‘rni. Tamaddun nuri jurnali, 7(58), 247-250.



## GO‘RO‘G‘LI DOSTONNING O‘ZBEK DOSTONCHILIGIDA O‘RGANILISH TARIXI

**Abdullayeva Mastona Ashir qizi**

Termiz davlat universiteti Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)  
yo‘nalishi 2- kurs magistranti

## ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ЭПОСА ГЁРОГЛЫ В УЗБЕКСКОМ ЭПОСЕ

**Абдуллаева Мастона Ашир кизи**

Термезский государственный университет  
магистрант 2 курса по специальности литературоведение  
(узбекская литература)

## THE HISTORY OF STUDY OF GOROGLI EPIC IN UZBEK EPIC

**Abdullayeva Mastona Ashir kizi**

Termiz State University  
2nd year master’s student in Literary studies (Uzbek literature)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Go‘ro‘g‘li dostonining o‘zbek adabiyotida va xalq og‘zaki ijodi adabiyotida tutgan o‘rni, ahamiyati va dostonning o‘rganilish tarixi haqida so‘z yuritilgan. Dostonning baxshilarimiz tomonidan kuylab kelinish tarixi, qardosh xalqlar orasida bu dostonning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Go‘ro‘g‘li dostoni, dostonning o‘rganilish bosqichlari, doston variantlari, baxshi.

**Аннотация:** В данной статье говорится о роли, значении и истории изучения эпоса в узбекской литературе и фольклорной литературе. Была упомянута история эпоса, воспетого нашими бахши, и значение этого эпоса среди братских народов.

**Ключевые слова:** эпос Гёроглы, этапы изучения эпоса, варианты эпоса, бахши.

**Abstract:** This article discusses the role, significance and history of studying the epic “Gurugli” in Uzbek literature and folklore literature. The history of the epic being sung by our Bakhshis, the importance of this epic among the brotherly peoples is highlighted.

**Key words:** Gorogly epic, stages of studying the epic, variants of the epic, bakhshi.

**KIRISH (INTRODUCTION / ВВЕДЕНИЕ).** O‘zbek adabiyotida dostonchilik tarixi juda qadimga borib taqaladi. Ma’lumki, o‘zbek xalq baxshilari tomonidan ko‘p yillar davomida yaxshi ko‘rib aytib kelingan «Go‘ro‘g‘li» turkumi dostonlarida o‘z vatanini mardlarcha himoya qilish, ona yurtini ko‘z

qorachig‘iday asrash, pok sevgi va sadoqatni ulug‘lash, oilani qadrli, bebaho makon deb bilish, turli millat va elatlar o‘rtasida tinchlik va osoyishtalik, erkinlik, baxt va farovonlik uchun kurash g‘oyalari aytib o‘tiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, xalqimizning fikricha mardlik va botirlik,



Tel: +998 99 176 61 98

E-mail:

[mastonaabdullayeva24@gmail.com](mailto:mastonaabdullayeva24@gmail.com)

Orcid: 0009-0000-1136-2240

olijanoblik, haqgo'ylik elparvarlikning hech unutilmas ramzlaridan biri sifatida ulug'langan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/MATERIALS AND METHODS).** O'zining betakror badiiy sehri tufayli qimmatli badiiy qadriyatlamini yaratgan xalqimiz epik tafakkurining go'zal durdonasi bo'lgan «Go'ro'g'li» turkumi dostonlari baxshilarimiz orasida ikki xil versiya holida tarqalgan. Shularning birinchisi, Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Nurota, Shahrisabz, Sherobod va Piskent dostonchilik maktablari, shuningdek, janubiy Tojikistonda istiqomat qiluvchi o'zbek-laqaylar va Farg'onalik baxshilar repertuarida bor bo'lgan sharqiy versiyasidir. «Go'ro'g'li» («Ko'ro'g'lu») dostonlarini dastlabki yozib olish, nashr etish va o'rganish ishlari XVIII asrning birinchi choragi va XIX asrning 40-yillariga to'g'ri keladi. Ushbu o'rganishlardan keyin yurtimizda Go'ro'g'li dostoniga qiziqish judayam kuchayib bordi. Turli xil milliy urf-odat va an'alarimizni davom ettirgan holda ushbu dostonni to'ylarda va bayramlarda kuylash odat tusiga aylandi [2].

Ushbu doston Janubiy Ozarbayjon baxshi (u yerda oshiqlar deyiladi)lari tomonidan 1721-yilda arman tilida yozib olingan. Shuningdek, doston Gruziya Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar institutining musulmon fondidan 1856-yilda arman harflari bilan ozarbayjon tilida ko'chirilgan [1].

O'zbek va turkman «Go'ro'g'li»sining ayrim namunalarini ko'chirib olish va qalamga olish ishlari XIX asrning o'rtalariga to'g'ri kelmoqda. 1853-yilda ko'chirilgan, K.P.Kaufman kolleksiyasida 321-inventar raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma, shuningdek, 1936-yilda Hodi Zarif tomonidan topilgan yana bir boshqa qo'lyozma bunga dalil bo'la oladi. Bu o'rinda 1870-yilda general-mayor A.K.Abramov tashkil etgan Iskandarko'l ekspeditsiyasi kundaligidagi tarjimon Abdurahmon Mustajirov tomonidan o'zbek tilida yozib olingan «Go'ro'g'li» dostonining bir parcha matnini ham alohida ko'rsatib o'tish zarur. Jumladan, 1880-1881-yillarda o'zbek va turk versiyalarining litografik nashrlari amalga oshirildi. «Go'ro'g'li» («Ko'ro'g'lu») dostonlarini to'plash, nashr etish va o'rganish borasida XX va XXI asrning boshlarida ham ko'pgina ishlar amalga oshirildi [3].

**MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ /DISCUSSION).** «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarini

yetakchi xalq baxshilari og'zidan bevosita yozib olish ishlari 1926-yildan boshlandi. Shundan beri mamlakatimizning turli viloyatlariga o'nlab folklor ekspeditsiyalari uyushtirildi. Bu ekspeditsiyalarda o'zbek folklorshunoslarining barcha avlodi ishtirok etdi. Ushbu ekspeditsiyalar juda samarali bo'lib, dostonning yanada ko'proq o'rganilishiga sabab bo'lmoqda. To'plangan materiallarning kattagina qismini «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi dostonlar tashkil etadi. Ularning umumiy hajmi variantlari bilan birga hisoblanganda, ikki yuzga yaqindir. Barcha manbalar hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining folklor arxivida saqlanmoqda [4].

B.A.Karriev va X.G.Ko'ro'g'lular esa ozarbayjon «Ko'ro'g'lu» dostoniga nisbatan turkman Ko'ro'g'lu – Go'ro'g'lisida arxaik elementlar ko'p o'rin olganligini qayd qilib o'tishgan. XVI–XVII asrlardan boshlab Ko'ro'g'lu va uning nomi bilan bog'liq dostonlar mashhur bo'la boshlagach, ilgari mavjud dostonlarga yangidan yaratilganlari ham qo'shib, Go'ro'g'li nomi atrofida turkumlasha boshlagan. Ilgarigi qahramon nomi ham Go'ro'g'li bo'lgan bo'lishi mumkin. Biroq qadimiy turkey «go'r-ko'r» so'zining «botir, mard, bahodir» ma'nolari arxaiklashib, qahramonning g'ayritabiiy tug'ilishi motivi formalarga ham o'zgarishlar kiritilgan va qahramon nomi «go'rda tug'ilgan o'g'il» ma'nosini kasb etgan. Shu bilan birga, ayrim variantlarda «botir o'g'li» degan qadimiy ma'no ham parallel ravishda saqlangan. Turkumning so'nggi dostonining «Ero'g'li» deb atalishi buni tasdiqlaydi». [1]

Bizningcha, «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarning muayyan qismi ikki joyda, ikki xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yaratilib, mustaqil rivojlanishda davom etgan. Ushbu fikrlardan ko'rinib turibdiki, olimlarimiz tomonidan Go'ro'g'li dostonining nomi yaratilish davri xususida turlicha munosabat va fikrlar mavjud. Biz bu fikrlarning hech birini to'lig'icha inkor etolmaymiz. Chunki xalq dostonlarining tub ildizi bir-biriga juda ham tutashib ketgan [4].

Ko'rinib turibdiki, keltirilgan fikrlar, asosan, faraz tariqasida aytilgan, yetarli darajada ilmiy dalillanmagan. Ayni paytda, shoir O.Sulaymonov, shuningdek, ozarbayjon folklorshunosi M.Seyidov umumturkiy «Go'ro'g'li/Ko'ro'g'lu» genezisi yuzasidan o'rta tashlagan fikrlar bilvosita o'zbek

«Go‘ro‘g‘li»siga ham tegishlidir. Ya‘ni O.Sulaymonov Go‘ro‘g‘li so‘zini «Quyosh o‘g‘li» deb talqin etadi va bu obrazni qadim Misrdagi quyosh o‘g‘li (Gor) haqidagi miflar bilan bir o‘zakdan ungan deb ko‘rsatadi. M.Seyidov esa Go‘ro‘g‘li nomini «tog‘ o‘g‘li» deb talqin qilib, bu obraz «olov» va «quyosh» bilan ham bog‘liq, bevosita o‘lib tiriluvchi tabiat haqidagi miflar asosida shakllangan, deb yozadi va Go‘ro‘g‘li obrazi eramizdan avvalgi IV yuz yilliklarda vujudga kelib, eramizning XVI–XVII asrlarida yanada kuchaygan, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi [2].

**NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS).** Arxaik eposning navbatdagi talqinlaridan bir shoxobchasi Markaziy Osiyodan Kavkaz va Kichik Osiyoga ko‘chgan o‘g‘uz qabilalari bilan u hududlarga ham tarqaldi, yangilandi. So‘nggi talqinlar o‘zaro madaniy-adabiy aloqalar natijasida Markaziy Osiyo versiyalariga ham ma‘lum ta‘sirini o‘tkazdi. O‘zbek «Go‘ro‘g‘li» dostonining qahramon tug‘ilishi tabiiy homila talqinini olgan versiyalarda bu holat aniq sezilsa-da, tug‘ilish g‘ayritabiiy homila talqinini olgan versiyalar qadimiy o‘zanda rivojlanib, ta‘silardan xoli qoldi. Ushbu versiyalarda saqlangan qadimiy motiv va unsurlar doston genezisini aniqlashda tayanch omillar bo‘ladi. Doston syujeti asosida turuvchi mif dastlab tabiat hodisalarini izohlab, Go‘ro‘g‘li tabiat qudratining timsoli sifatida namoyon bo‘lgan, keyinchalik syujet voqelik epik sathga ko‘chgach, u endi epik qahramonga aylangan», deb ko‘rsatadi. Epos syujeti va yetakchi obrazlar talqinini xalqimiz orasida keng tarqalgan, bugungi kunda ham amal qilayotgan marosim-bayramlardagi quyosh turkum miflariga qiyosan o‘rganib o‘z fikrini asoslaydi. Baxshi-shoirilar orasida «Go‘ro‘g‘li qirq doston», deb yuritish keng tarqalgan. Lekin dostonlar sonini yetmish ikkita, hatto yuz yigirma doston sifatida ko‘rsatish ham bor. Epik an‘anaga ko‘ra, Go‘ro‘g‘li 120 yoshga kiradi, asosiy variantga ko‘ra, u o‘lmaydi, balki afsonaviy Suldo‘zi tog‘ida, g‘orga kirib g‘oyib bo‘ladi. Turkumning so‘nggi dostonining laqay variantida u g‘orda uxlaydi, faqat yilda bir marotaba qimirib, o‘ngarilib yotadi. [3]

O‘zbek folklorshunosligida «Go‘ro‘g‘li» turkumi dostonlarini o‘rganish, avvalo, ularning alohida-alohida kitoblar tarzidagi nashrlari bilan

boshlandi. Chunki barchamizga ma‘lumki dostonning turli xil baxshilarimiz tomonidan kuylangan variantlari ko‘p. Bu o‘rinda Hodi Zarifning 1941-yilda «Ravshan» va «Malika ayyor» dostonlariga yozgan so‘zboshilari juda katta ahamiyatga ega. [1]

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, «Go‘ro‘g‘li» dostonlarining barcha variant va versiyalarini o‘rganishdagi va tadqiq etishdagi muhim muammolardan biri ularning yaratilish davri, asosiy syujetning ilk o‘zagi, yuzaga kelgan o‘rni, rivojlanish bosqichlari, tadrijiy taraqqiyotini aniqlash masalasidir. Folklorshunoslar H.T.Zarifov, B.A.Karriev, V.M.Jirmunskiy, M.S.Saidov, T.Mirzayev, M.Murodov va boshqalar «Go‘ro‘g‘li» eposining sharqiy va g‘arbiy versiyalarini bir umumiy yadro asosida tarqalganligi haqida yozishgan. Ular doston yadrosi janubiy Ozarbayjonda XVI–XVII asrlarda kechgan tarixiy voqealar asosida vujudga keldi, degan fikrni yoqlashadi. Folklorshunoslarning bunday xulosaga kelishlariga arman tarixchilari Arakel Tabriziy (1670-yili vafot etgan) hamda Elyos Mushgyan (XVIII asr)larning taxminiy farazlari asos qilib olinmoqda.

#### **ADABIYOTLAR RO‘UXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES)**

1. Go‘ro‘g‘li – o‘zbek xalq dostonlari. So‘zboshi muallifi Mirzayev T. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2006. – 142 b.
2. Razzoqov H. va boshq., O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 232 b.
3. Hodi Zarif. Ravshan dostoni haqida. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1971. – B. 60.
4. Metin Ekici: Türk dünyası incelemeleri dergisi. Savı İL İzmir. 1997. S. - 239.
5. Faruk Sümer, Köroğlu'nun tarihi şahsiyeti hakkında vesikeler. Uluslar arası folklor ve halk edebiyatı semineri bildirileri. – Ankara: 1976. – S. 46.

## IKKINCHI JAHON URUSHI ARAFASIDA XORAZM AYOLLARINING IJTIMOYIY - MADANIY HAYOTDA TUTGAN O'RNI

Jumaniyazova Firuza Jumanazarovna, Xorazm Ma'mun akademiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi kichik ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## THE ROLE OF KHORAZM WOMEN IN SOCIAL AND CULTURAL LIFE ON THE EVE OF THE SECOND WORLD WAR

Jumaniyazova Firuza Jumanazarovna, Junior Researcher, Social and Humanitarian Department, Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy on Historical Sciences (PhD)

## РОЛЬ ХОРЕЗМСКИХ ЖЕНЩИН В ОБЩЕСТВЕННОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ НАКАНУНЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Джуманиязова Фируза Джуманазаровна, младший научный сотрудник отдела социальных и гуманитарных наук Хорезмской академии Маъмуна, доктор философии по историческим наукам (PhD)



<https://orcid.org/0009-0009-4929-3143>

e-mail:

[jumanazarovafiruza8485@gmail.com](mailto:jumanazarovafiruza8485@gmail.com)

**Annotatsiya:** maqolada ikkinchi jahon urushi arafasida xorazmlik ayollarning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rni, xotin-qizlarning turli-tuman to'garaklarga jalb qilinishi va mexanizatorlik, traktorchilik kabi erkaklar bajaradigan kasblarga tortilishi haqidagi ma'lumotlar arxiv materiallari asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** urush, maorif, ta'lim, pedagog, o'quvchi, targ'ibot ishlari, devoriy gazeta.

**Abstract:** In the article, on the eve of the Second World War, the role of Khorezm women in the social and cultural life, the involvement of women in various circles and the involvement of men in the professions such as mechanization and tractor-making are highlighted on the basis of archival materials.

**Key words:** war, education, education, pedagog, student, propaganda, wall newspaper.

**Аннотация:** в статье, на основе архивных материалов, освещается роль хорезмских женщин в общественной и культурной жизни накануне Второй мировой войны, вовлечение женщин в различные круги и привлечение мужчин к таким профессиям, как механизация и тракторостроение.

**Ключевые слова:** война, просвещение, просвещение, педагог, студент, пропаганда, стенгазета.

**KIRISH.** Xorazm okrugida jamiyat hayotiga xotin-qizlardan tortib, ularning siyosiy va ijtimoiy faolliklarini oshirish va erkaklar bilan teng huquqli qilish borasidagi ilk harakatlar aslida 1920-yilda, ya'ni Xorazm Xalq Sovet respublikasi davrida boshlangan edi. Jumladan, 1920-yilning may oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Turkiston ishchi-dehqon ayollar I – syezdi bo'lib o'tib, unda Xorazm xotin-qizlari ham qatnashgan edilar. Buning natijasi o'laroq, Xorazm xotin-qizlari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun 1920-yil 2-iyunda Xiva

shahrida qabul qilinib, Xorazm Xalq respublikasi firqa qo'mitasi Markaziy qo'mitasi qoshida respublika xotin-qizlar uyushmasi tashkil etildi[1]. Uyushmaning hududlarda xotin-qizlar bilan ishlash bo'limlari mavjud edi. Uyushmaning asosiy maqsadi uyida o'tirgan xotin-qizlarni artellarga tortib, foydali ish bilan shug'ullanishga undab, xotin-qizlar klublariga jalb qilib, ularning ijtimoiy madaniyatini oshirish va shu asosda ayollarni jamiyatning teng huquqli a'zosiga aylantirishdan iborat edi. Shu bilan birga, xotin-qizlar bilan ishlash uyushmasi eng

avvalo ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi dolzarb muammolarga, jumladan, nikoh yoshi va qalin puli kabi masalalarga asosiy e'tiborlarini qaratdilar. Aslida bu umum Turkiston (Qozog'iston, Xorazm va Buxoro respublikalarini ham o'z ichiga olgan tarixiy o'lka sifatida nazarda tutilmoqda) miqyosidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanib, aynan xotin-qizlar uyushmasining sa'y-harakatlari bilan 1921-yil 14-iyunda Turkiston Markaziy Ijroiya qo'mitasi tomonidan qizlar uchun to'lanadigan qalin pulini bekor qilish va nikoh yoshini oshirish to'g'risida Nizom ishlab chiqildi hamda uni amaliyotga joriy etishga kirishildi. Shu yili Xorazmda ham nikoh yoshi qizlar uchun 16 yosh, erkaklar uchun 17 yosh qilib belgilangan. Ko'pxotinlikka chek qo'yilgan[2].

Maryam Sultonmurodova, Xayrulbanot Saydasheva, Durxon Bekchurina, Saodat Qutlimurodova (Salimova), Xadicha Bekmuhammedova (Rizaeva), Bibijamol Idrisova, Onabibi Safoeva, Xadicha Sultonmurodova, Saodat Ollayorova, So'najon Sharipova, Norjon Abdusalomova, Fotima Bekmuhammedova, Oysha Abdullaeva va Sorajon Sharipova kabi Xorazm respublikasining faol xotin-qizlari uyushma faoliyatida jonbozlik ko'rsatib, mazkur tadbirlarni hayotga joriy qilish yo'lida qattiq kurash olib borishga majbur bo'ldilar. Chunki, bu ijtimoiy-ma'naviy tadbirlarning mazmun-mohiyatini tushunish uchun eng avvalo xotin-qizlar muayyan bilim va tushunchalarga ega bo'lishlari lozim edi. Shu jihatdan olganda, xotin-qizlar bilan ishlash uyushmasi vakillari xuddi jadidlar kabi eng avvalo xotin-qizlarning savodsizligini tugatishga asosiy e'tibor qaratdilar. Bu muammoni bartaraf etishning yagona yo'li esa xotin-qizlar uchun alohida maktablar tashkil qilib, ularning savodini oshirish lozim edi. Shuning uchun, Rossiyaning musulmon o'lkalari va Turkistonda bo'lgani kabi, 1921-yil 5-iyunda Xorazmda ham savodsizlikni tugatish maktabi ochilib, unga dastlab 65 xotin-qiz jalb qilindi[3].

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.** 1920-1939-yillarda Xorazm xotin-qizlarining ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rni masalasi yoritilgan bir necha ilmiy nashrlar chop etildi. Ularda ayollarning jamiyatdagi o'rni bo'yicha olib borilgan ishlar haqida dastlabki ma'lumotlar berildi. Viloyatda xotin-qizlarni savodsizlikni tugatish uchun tashkil qilingan maktablar, artellar, to'garaklarga jalb qilinishi bo'yicha

M.Matniyozovning Xorazm tarixi kitobida ham qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Tadqiqotda obyektivlik va tarixiylik prinsipi asosida, ma'lumotlarni qiyosiy tahlil etish va statistik usuldan foydalanildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Xotin-qizlar uchun alohida maktablar tashkil qilish masalasi bo'yicha yangi ishlar 1923-yil 28-yanvarda boshlandi[4]. 1923-yil aprelda yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish uchun o'z tarkibiga yanada ko'proq ayollarni birlashtirgan "Xonimlar uyushmasi" tuzildi. Uning birinchi rahbari Xayrulbanot Saydoshova bo'lib, bu oqila va o'qimishli ayol keyinchalik ham xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish va ularning savodini oshirish yo'lida faol xizmat qildi. Bu tashkilot shu davrda Turkiston va Buxoro respublikalari xotin-qizlar uyushmalari bilan doimo aloqada bo'lganlar. Xorazm kompartiyasi Markaziy Komiteti huzuridagi partiya yacheykasi majlisida 1923-yil 11-noyabrda xotin-qizlar uyushmasi masalasi muhokama qilindi. Unda ko'proq mahalliy xotin-qizlarning jamiyatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-ma'naviy sohalariga jalb etish masalasiga e'tibor qaratildi.

Xotin-qizlarning savodsizligini tugatish borasidagi sa'y-harakatlar natijasi o'laroq 1924-yilda Xivada xotin-qizlarning birinchi kommuna maktabi tashkil qilindi. 1924-yilda esa "Xotin-qizlar bilan ishlash bo'limi" tuzildi[5].

Bu yillarda Xorazm respublikasida xotin-qizlar bilan ishlash bo'limi vakillaridan Onabibi Safoeva, Onabibi Murodova, Hojar Kamolova, Guljon Qilicheva, Xadicha Sultonmurodova, Xadicha Bekchurina, Sojida Bakirova, Xayrulbanot va Hayot Saydashevalar har bir xonadonga kirib, ayollarning shaxsiy hayoti bilan tanishib, xotin-qizlarni savodli qilish maqsadida keng ko'lamli ishlar olib bordilar. Xotin-qizlarni ayollar klublariga jalb qilishda garmonchi xalfa Onajon Safar qizi ham faol qatnashgan. U xonadonlarga kirib qo'shiq aytib ayollarni klublarga jalb qilgan[6].

1925-yil 15-iyulda Xiva shahrida birinchi xotin-qizlar bilim yurti ochildi. Bilim yurtida Zaynab Kamolova, Xadicha Valishova, Zaynab Potiyeva, Hamida Azimovalar o'qituvchilik qilish bilan birga jamoat ishlarida ham faol ishtirok qilganlar. Jumladan, Zaynab Kamolova Xiva shahar sud

komissiyasi a'zosi bo'lgan bo'lsa, Hamida Azimova klublar va qiroatxona komissiyasi a'zosi bo'lgan[7].

Xullas, 1924-1926-yillar davomida Xorazmda endigina xotin-qizlar o'rtasida savodsizlikni tugatish, ayollar qiroatxonalarini va xotin-qizlar klublarini tashkil etish, xotin-qizlarni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy hamda madaniy-ma'naviy sohalarga jalb etish, ayollarni rahbariy lavozimlarga ko'tarish, ulardan siyosiy rahbarlar tayyorlash kabi harakatlar boshlangan, ammo boshqa hududlarda bo'lgani kabi bu harakatlar Xorazmda ham qattiq qarshilikka va qiyinchiliklarga duch kelgan. Shunday bo'lsa-da, xotin-qizlarni jamiyatning teng huquqli a'zosi qilish yo'lidagi harakatlar Xorazm okrugi tuzilgandan keyin ham davom qildi. Jumladan, "Xotin-qizlar bilan ishlash bo'limi" yanada kattalashib, u 1926-yilda Xorazm okrugi xotin-qizlar bo'limiga aylantirildi[8].

Umuman olganda, 1920-30-yillar davomida sovet davlatida amalga oshirilgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tadbirlar jarayonlaridan Xorazm okrugi xotin-qizlari chetda qolmadi. 1925-1927-yillar yer-suv islohotlari, 1927-yil sanoatlashtirish va 1929-1932-yillar jamoalashtirish va nihoyat 1927-yildan boshlangan va Ikkinchi jahon urushi boshlanguncha davom qilgan "Hujum" harakati kampaniyalariga xotin-qizlar sovet hukumati tomonidan turli yo'llar bilan jalb qilinib, umumiy holatda sovet hukumati bu jarayonlarda jamiyatda xotin-qizlarning o'zni masalasiga alohida ahamiyat qaratdi.

**XULOSA.** Umuman olganda, bu harakat amalga oshirilib, sovet jamiyatida xotin-qizlar teng huquqliligi borasida katta ishlar qilingan bo'lsa-da, amalda urush boshlanishi arafasida O'zbekiston SSR va shu jumladan, Xorazm viloyati ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy hayotida o'zni va mavqeyi ancha past bo'lgan. Jumladan, "ayollarga erkaklar bilan teng huquq berilishi" munosabati bilan ayollarning jamoat ishlaridagi ishtiroki ortib borgan bo'lsa-da, ular jamiyatda, jamoatchilik ishlarida erkaklar bilan teng ishtirok etishi bilan bir vaqtda ularning oiladagi an'anaviy, etnik holatlari: ayollik, onalik mavqeyi, oilaviy rollar taqsimotida ular zimmasiga tushadigan ishlar miqdorining ko'pligi saqlanib qolaverdi[9].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sovet hukumati O'zbekistonda dastlabki yillarda xotin-qizlar

kuchidan keng foydalanish masalasiga ehtiyotkorona yondashdi. Masalan, dastlab ular fabrika va zavodlarning faqat yengil soha yo'nalishlariga, tikuvchilik, to'quvchilik yoki boshqa yengilroq sohalarga jalb qilinib, ilgari ongida ham mavjud bo'lmagan og'ir yuk ko'taradigan va sog'lig'iga zararli, murakkab sohalarga darhol tortilmadi. Ammo, bu bilan sovet hukumatining bu masalaga gumanistik jihatdan yondashganligiga ishonmaslik lozim. Bu holatni shu davrlardagi jahon miqyosidagi ayollarga nisbatan kechayotgan siyosiy jarayonlarni tahlil qilish bilan tushuntirish to'g'riroq bo'lardi. Ya'ni, bir tarafdin xorijiy davlatlarning Rossiyaga nisbatan uyushtirilgan intervensiyaning mag'lubiyatga uchrashi bilan ham hali dunyoda "bolshevizm balosi"ni yo'qotishga qaratilgan harakatlar to'xtamagani, ikkinchidan esa, sovet davlatining o'zlarining qurayotgan sotsialistik jamiyatini dunyoga eng gumanitar jamiyat qilib ko'rsatishga urinish ayni kuchaygan payti ekanligini ham hisobga olish lozim. Faqat 20-yillar oxiriga kelib bu yondashuv keskin o'zgardi va bu harakat endilikda dunyoqarashlar kurashidan sinfiy kurashga aylandi va shundan keyingina sovet hukumati va kommunistik partiya ushbu ijtimoiy-siyosiy masalani o'zining siyosiy va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, keskin hal qilish yo'lidan bordi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sobirov O.S., Qozoqov E.Q. Xorazm tarixidan lavhalar. – Urganch, "Murabbiy", 1994. – B.38.
2. O'sha joyda.
3. Savodxonlik uchun yurish // Xorazm haqiqati, 1982, 19 noyabr.
4. Savodxonlik uchun yurish // Xorazm haqiqati, 1982, 19 noyabr.
5. Xorazm xotin-qizlarining shonli yo'li // Xorazm haqiqati, 1964, 8 mart.
6. O'sha joyda.
7. Sobirov O.S., Qozoqov E.Q. Xorazm tarixidan lavhalar.– B.38.
8. Sobirov O.S., Qozoqov E.Q. Xorazm tarixidan lavhalar.– B. 43.
9. Любимова С. Работа партии среди тружениц Востока / Библиотека работницы и крестьянки. Москва – Ленинград: Государственное издательство, 1928. С. 6.



## ARXEOLGIK TADQIQOTLARDA ILG'OR TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH HAMDA 3D MODELLASHTIRISH

<sup>1</sup>Sadullaev Bahram Pulatovich, Xorazm Ma'mun akademiasida ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<sup>2</sup>Matqurbanov Fayzulla Rajabovich, Xorazm Ma'mun akademiyasi kichik ilmiy xodimi

## THE USE OF ADVANCED TECHNOLOGIES AND 3D MODELING IN ARCHAEOLOGICAL RESEARCH

<sup>1</sup>Sadullaev Bahram Pulatovich, senior researcher of the department of social and humanitarian sciences of Khorezm Ma'mun Academy, doctor of philosophy in history (PhD)

<sup>2</sup>Matqurbanov Fayzulla Rajabovich, junior researcher at Khorezm Ma'mun Academy

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕРЕДОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И 3D-МОДЕЛИРОВАНИЯ В АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

<sup>1</sup>Sadullaev Bahram Pulatovich, старший научный сотрудник отдела социальных и гуманитарных наук Хорезмской академии Ма'муна, доктор философии по историческим наукам (PhD)

<sup>2</sup>Маткурбанов Файзулла Раджабович, младший научный сотрудник Хорезмской академии Ма'муна

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Arxeologiya sohasida muhim jihat hisoblangan arxeologik tadqiqotlarni rejalashtirish, tashkillashtirish, olib borish va tahlil asosida xulosa qilish ishlarini amalga oshirishda zamonaviy yondashuvlar asosida fikr yuritib, zamonaviy texnik uskunalar, kompyuter dasturlari yutuqlaridan foydalanishning ahamiyatiga urg'u berilgan nazariy va amaliy ma'lumotlar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** arxeologik tadqiqotlar, zamonaviy texnik vositalar, kompyuter dasturlari, 3D modellar, vizual tarix, obidalarni raqamlashtirish.

**Abstract:** This article presents theoretical and practical insights into the importance of employing modern approaches in planning, organizing, conducting, and ultimately analyzing and concluding archaeological research. It emphasizes the significance of using advancements in modern technical equipment and computer software in the field of archaeology.

**Key words:** archaeological research, modern technical tools, computer software, 3D models, visual history, digitization of monuments.

**Аннотация:** В данной статье представлены теоретические и практические сведения о важности использования современных подходов при планировании, организации, проведении и на основе анализов формулировать выводы в археологических исследованиях. Акцент сделан на значимости применения достижений современных технических устройств и компьютерных программ в области археологии.

**Ключевые слова:** археологические исследования, современные технические средства, компьютерные программы, 3D-модели, визуальная история, оцифровка памятников.



<https://orcid.org/0000-0001-9053-3385>

e-mail:

bakhram76@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-3660-0083>

e-mail:

fmrking\_1992@mail.ru

**KIRISH.** Arxeologiya tez sur'atlarda o'z axborot bazasini kengaytirayotgan fanlar qatoriga kiradi. XX asrning ikkinchi yarmidagi muhim kashfiyotlar qadimgi madaniyat va sivilizatsiyalar haqida ilgari noma'lum bo'lgan yangi ma'lumotlarni kashf etdi. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi tufayli ushbu topilmalar keng jamoatchilikka tanish bo'ldi va arxeologiya fani katta mashhurlikka erishdi, go'yo ilmiy-texnik inqilob davridagi ilmiy izlanishlar uslubini moslashtirgan holda ommaviy fan darajasiga ko'tarildi. Jadal sur'atlarda rivojlanib kelayotgan arxeologiya fani hozirgi kunga kelib fanlararo aloqalarni ham mustahkamlab oldi. Chunonchi, arxeologik tadqiqot ishlarini rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish uchun zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan ham hamohang tarzda faoliyat olib bormoqda. Zamonaviy texnik vositalar arxeologlarga yer ostidagi obyektlarni buzmasdan aniqlash, ularni batafsil tahlil qilish, yuqori sifatli tasvirlar yaratish va qazish ishlarini samarali rejalashtirish imkonini beradi. Kompyuter dasturlari yordamida esa tadqiqot natijalarini namoyish etish anchayin qulay, tushunarli va ommabop sanaladi.

**ASOSIY QISM.** XX asrning 30-yillaridan to hozirgi kungacha bo'lgan davr oralig'ida O'zbekiston tarixi arxeologik topilmalar asosida juda sezilarli darajada boyidi. Bunga asosiy omil sifatida o'tgan bir asr mobaynida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarni keltirish mumkin. Shunga qaramasdan tariximizning hali ham ochilmagan sirli qirralari arxeologik izlanishlarga muhtoj bo'lib turibdi. Xuddi shu masalaning jumboqlarini ochishimizda arxeologiyaga dastyor vazifasini bajaruvchi omillar, ya'ni texnik vositalar tavsifi haqida to'xtalib o'tsam.

1. **Yer Radari (Ground Penetrating Radar - GPR).** Yer radari impulsli elektromagnit to'lqinlarni yerga yuboradi va aks ettirilgan signallarni qayd qiladi. Bu usul yerdagi qatlamlar, infratuzilmalar, devorlar yoki qabristonlarni aniqlashda juda foydali bo'ladi. Bu texnologiya arxeologlarga qazish ishlari boshlanishidan oldin yer osti strukturasi haqida ma'lumot beradi.

2. **Lidar (Light Detection and Ranging).** Lidar – nurning akslanishi asosida yuqori aniqlikdagi 3D xaritalar yaratishga imkon beruvchi texnologiya. Ushbu usul o'rmonzorli joylarda ham

topilmalarni aniq aniqlash imkoniyatini beradi. Masalan, Maya sivilizatsiyasiga oid joylarda Lidar o'rmon ostidagi xarobalarni kashf qilishda muhim rol o'ynagan.

3. **Fotogrammetriya.** Bu texnologiya fotosuratlardan foydalanib obyektlarning uch o'lchamli modelini yaratadi. Fotogrammetriya yordamida qazilma maydonlar yoki yodgorliklar haqidagi batafsil 3D modellarni olish mumkin, bu esa topilmalarning geometrik o'lchamlarini aniq qayd qilishda yordam beradi.

4. **GPS va GIS (Geographical Information System).** GPS va GIS arxeologik topilmalarni geolokatsiyalashda va ularning keng miqyosli xaritalarini yaratishda qo'llaniladi. Bu usul tadqiqotlarda har bir topilmaning aniq joylashuvini belgilashda muhim rol o'ynaydi, ayniqsa katta qazish ishlari olib borilayotgan joylarda.

5. **Dronlar (uchuvchisiz uchish apparatlari).** Dronlar katta maydonlarni qisqa vaqt ichida suratga olish imkoniyatini beradi. Bu texnologiya katta arxeologik joylarni yuqoridan kuzatishda va xaritalashda samarali hisoblanadi. Dronlar yordamida yuqori sifatli tasvirlar olinib, ulardan qazish ishlari davomida yo'riqnoma sifatida foydalanish mumkin.

6. **3D scannerlar.** Ushbu qurilmalar yodgorliklar yoki topilmalarni aniq o'lchash va raqamlashtirishda qo'llaniladi. 3D skanerlar yordamida obyektlarning aniq uch o'lchamli modellarini yaratish mumkin, bu esa topilmalarning saqlanishiga zarar yetkazmasdan tahlil qilish imkonini beradi.

7. **Mikroskoplar.** Zamonaviy mikroskoplar juda yuqori aniqlikdagi optik tizimlarga ega bo'lib, ular yordamida arxeologlar topilmalar sirtidagi mikroskopik izlar, minerallar va boshqa elementlarni o'rganishlari mumkin. Ayniqsa, eski buyumlar, ashyolar va skelet qoldiqlarini tadqiq qilishda foydalidir.

Bu qurilmalar arxeologiyaga zamonaviy yondashuvlarni olib kirib, an'anaviy qazish va o'rganish usullarini to'ldiradi, hamda ish jarayonini yanada samaraliroq qiladi.

Arxeologiyada kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi kompyuter grafikasi usullarining takomillashuvi, shuningdek, tasvirlarni kiritish va qayta ishlash vositalarining rivoji bilan bog'liq. Dastlab, arxeologik yodgorliklar, alohida

obyektlar va topilmalar tasvirlari ma'lumotlar bazalarida tasvirlangan obyektlarni ko'proq ko'zga ko'rinarli shaklda taqdim etish uchun yordamchi resurs sifatida qaralgan. Keyinchalik, kompyuter grafikasi va tasvirlarni qayta ishlash texnologiyalarining rivojlanishi bilan arxeologik obyektlarni vizualizatsiya qilish va ularni chuqurroq o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu texnologiyalar arxeologik topilmalarni, obyektlarni va yodgorliklarni aniqroq hujjatlashtirish va tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Shu bilan birga, yangi kompyuter usullari yordamida yodgorliklarning virtual rekonstruksiyalari, uch o'lchamli modellar va raqamli xaritalar yaratish mumkin bo'lib, ular arxeologik tadqiqotlarni ancha osonlashtiradi va samaradorligini oshiradi. Shu o'rinda eng muhim xususiyatlardan biri bu vizual tarix yoritilgan video rolik yarata olishga qodir kompyuter dasturlarini takidlab o'tish joizdir.

Bu borada nafaqat chet ellik, balkim, O'zbekistonlik arxeologlar keng miqyosda AutoCad, MicroStation, AutoCad Map, Easy Cad, 3DsMax, Autodesk Maya, ArchiCAD, 3DWorldStudio, Unity 3DQuest 3D, 3DVia Studio (Virtual Tools), Unigine, 3D Game Studio va boshqa shu kabi maxsus dasturlardan foydalanib kelishmoqda. Bu dasturlarga

**Ilovalar: 1) 3DsMax kompyuter dasturi yordamida tayyorlangan amaliy natija. Ko'za va piyola 3D modeli**



**2) Darvozaqir 1. 3DsMax dasturi yordamida tayyorlangan 3D model hamda Lumion dasturi yordamida tayyorlangan video rolikdan olingan tasvir**

qo'shimcha sifatida Revit, Blender, Unreal Engine, Lumion dasturlarini ham sanab o'tish lozim. Tadqiqotchi D.I.Jerebyatevning ilmiy ishida 3D (uch o'lchovli) modellashtirishning tarix va arxeologiya sohasidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**XULOSA.** Butun dunyoda xalqlar tarixi, milliy madaniy meros namunalariga nisbatan e'tibor oshib bormoqda, qaysiki tarixiy obidalarning vaqt o'tishi bilan asl holicha saqalanib qolish muammosi dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu boisdan ham obidalarni o'rganish va asrashda arxeolog olimlar zamon bilan hamnafas holda harakat qilib faoliyat yuritib kelmoqdalar. Chunonchi, arxeologik yodgorliklarga chang solayotgan katta xavf hisoblangan tabiiy va sun'iy ta'sirlardan obidalarni asrab qolib, kelajak avlodga yetkazishdek mashaqqatli vazifada ilg'or texnika yutuqlaridan unumli tarzda foydalanib kelishmoqda. Arxeolog olimlarning mehnatlari natijasida kelajakda o'quvchilar tariximizni mukammal tarzda o'rganishlari mumkin bo'ladi. Chunki har bir obida, har bir arxeologik topilmaning 3D modeli yaratilib, raqamlashtirilishi natijasida o'sha tarixni virtual holda real holatda ko'rib, his qilib o'rganish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.



#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Массон В.М. Исторические реконструкции в археологии. – Самара. 1996.
2. Афанасьев Г.Е., Джаникян Г.Г., Сорокина И.А., Эрлих В.Р. Полнотекстовая и картинно-графическая база данных для описания

археологических памятников SITE // Практика и теория археологических исследований. М. 2001. (Тр. Отдела охранных раскопок).

3. Дервянко А.П., Холюшкин Ю.П., Воронин В.Т., Штабной К.В., Воробьев В.В. О работах по созданию виртуального музея “Секреты Сибири” // Информационные технологии в гуманитарных исследованиях. Новосибирск. Вып. 1. 1998.

4. Тоғаев Ж.Э. Бронза ва илк темир даври тарихий реконструкцияси масаласи (Жанубий Ўзбекистон мисолида). Монография. — Тошкент, 2020.

5. Жеребятьев Д.И. Методы исторической реконструкции памятников истории и культуры России средствами трёхмерного компьютерного моделирования. Автореф. дисс. канд. ист. наук. — Москва, 2013.



## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK REFLEKSIYALASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK VA METODIK YONDASHUVLAR

Yuldasheva Gavxaroy O‘rinboy qizi, Urganch innovatsion  
universiteti o‘qituvchisi

## DIDACTIC AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL REFLECTION ABILITY OF FUTURE TEACHERS

Yuldasheva Gavkharoy Orinboy qizi, Teacher of Urganch  
Innovation University

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ РЕФЛЕКСИИ СПОСОБНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Юлдашева Гавхарой Уринбой кызы, преподаватель  
Ургенчского инновационного университета

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirishda didaktik va metodik yondashuvlarning ahamiyatini tahlil etish hamda didaktik tamoyillar va metodik usullar yordamida o‘qituvchilarni shaxsiy va kasbiy o‘shishiga hissa qo‘shishning samarali yo‘llari to‘g‘risida fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** bo‘lajak o‘qituvchilar, pedagogik refleksiyalash, didaktik, metodik yondashuv, refleksiya, ta’limiy refleksiya, refleksiv layoqat, kasbiy refleksiya.

**Abstract:** This article analyzes the importance of didactic and methodical approaches in the development of pedagogical reflection skills of future teachers, as well as ideas about effective ways to contribute to the personal and professional growth of teachers with the help of didactic principles and methodical methods, comments are provided.

**Key words:** future teachers, pedagogical reflection, didactic, methodical approach, reflection, educational reflection, reflexive ability, professional reflection.

**Аннотация:** В данной статье анализируется значение дидактических и методических подходов в развитии умений педагогической рефлексии будущих учителей, а также приводятся идеи об эффективных способах содействия личностному и профессиональному росту учителей с помощью дидактических принципов и методических комментариев.

**Ключевые слова:** будущие учителя, педагогическая рефлексия, дидактика, методический подход, рефлексия, педагогическая рефлексия, рефлексивная способность, профессиональная рефлексия.



<https://orcid.org/0009-0001-1448-8479>

e-mail:

[gavharovy5@gmail.com](mailto:gavharovy5@gmail.com)

**KIRISH.** Hozirgi vaqtda ta'limda bo'lajak o'qituvchilarning fikrlash va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini takomillashtirishga qaratilgan katta modernizatsiya islohotlari qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qaroriga 1-ilovasida "...xalqaro mezonlar asosida o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlash, o'quv jarayonini tashkil etish me'yorlarini belgilash hamda ta'lim tashkilotlarining boshqaruv va pedagog kadrlarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish" kabi ustuvor yo'nalish belgilab qo'yilgan[1]. Ular bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida shakllangan stereotiplardan xalos bo'lishga, shaxsiy o'sishga yordam berishga va o'zini kasbda qayta ko'rib chiqishga imkon beradi.

Bugungi rivojlangan bir davrda ta'lim-tarbiya jarayoniga katta e'tibor berilmoqda. Zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanish davrida ta'lim tizimiga va unda faoliyat olib borayotgan zamonaviy o'qituvchilarga katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

O'qituvchining kasbiy pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosini faqat uning kasbiy refleksiya asosida hal qilish mumkin. Kasbiy pedagogik refleksiya nafaqat kasbiy faoliyat, balki, bilim, ko'nikma va malakalarning o'sishini ta'minlaydi hamda ushbu faoliyatni takomillashtirish asosi ham sanaladi.

O.N.Rodina tomonidan shaxsning bir qator shaxsiy sifatleri sirasiga refleksiyalash faoliyati ham kiritilgan. Bo'lajak o'qituvchi kasbiy faoliyat subyekti sifatida refleksiyalash kompetensiyasiga ega bo'lishi lozimligi bir qator o'zbek olimlari tomonidan ham ta'kidlangan[2].

R.Safarova, N.Muslimov, B.Ma'murov, G.Ibragimova, X.Ibraimov, B.Adizov kabilarning ishlarida o'qituvchining pedagogik refleksiya o'ldirishga oid faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Refleksiv layoqatlar o'zida o'zini baholash, o'zini nazorat qilish, o'zini boshqarish, o'z faoliyatini korreksiyalash ko'nikmalarining o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur hodisa I.N.Semenov tomonidan keng tadqiq qilingan[3]. O'qituvchining kasbiy refleksiya

egaligi psixologik tadqiqotlar doirasida tadqiq qilina boshlanganiga uncha ko'p bo'lgan emas. Kasbiy refleksiya muammosi B.Z.Vulfov tomonidan tadqiq qilingan[4]. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion xarakterdagi pedagogik faoliyatga tayyorlashga oid izlanishlar doirasida mutaxassisning reflektiv kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu masala V.L.Maturov, O.V.Moskalenko, L.M.Mitinalar tomonidan tadqiq etilgan.

Aksariyat mutaxassislar pedagogning refleksiyalash layoqati tushunchasi doirasida o'qituvchining o'z o'zini anglash faoliyatini nazarda tutadilar. Bu jarayonda o'qituvchi o'z faoliyatiga nisbatan tahliliy nuqtayi nazardan yondashadi. Shunga ko'ra A.A.Bizyayeva tomonidan pedagogik refleksiyaning ikki darajasi ajratib ko'rsatilgan[5].

1. Tezkor – o'z tarkibiga reflektiv ongning tezkor, konstruktiv ijrochilikka asoslangan, motivatsion, prognozlash yo'nalishlarini mujassamlashtiradi.

2. Pedagogik refleksiyaning shaxsiy darajasi bo'lajak o'qituvchining kasbiy-shaxsiy, subyektiv yo'nalishlari hamda reflektiv vaziyatlarga shaxsiy subyektiv jihatdan kirishishini anglatadi.

V.V.Davidovning ta'biricha – "reflektiv ko'nikmalar o'quv harakatlarining ichki tayanch asosi hisoblanadi. Mazkur ko'nikmalar shaxsning ehtiyojlarini, mayllarini o'zaro muvofiqlashtiradi. Reflektiv ko'nikmalar o'quv-biluv harakatlari mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Reflektiv faoliyat bo'lajak o'qituvchining mustaqil bilim olishi, izlanishi natijasida rivojlanadi va madaniy dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'ladi"[6].

Refleksiya o'quv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini madaniy jihatdan anglashiga ko'maklashadi. Bunday madaniy jihatdan o'z-o'zini anglash aniq pedagogik vaziyatlarda vujudga keladi. Reflektiv yondashuv asosida maxsus tashkil etilgan pedagogik vaziyatlar bo'lajak o'qituvchilarning madaniy rivojlanish imkoniyatlari, shart-sharoitlari, buning uchun zarur bo'lgan madaniy muhitni mujassamlashtiradi.

Tadqiqot doirasida o'rganilgan ilmiy tadqiqot va adabiyotlarning izchil tahlili asosida pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirishda foydalaniladigan metodlar bir nechta guruhlarga bo'linadi. Ushbu guruhlar refleksiya jarayonining maqsadi, usuli va natijalariga ko'ra

farqlanadi. Quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

**1. Individual refleksiya metodlari.** Bu metodlar o'qituvchining yoki talabaning o'z-o'zini tahlil qilish va faoliyatini mustaqil ravishda baholash imkoniyatini beradi.

**2. Kollektiv refleksiya metodlari.** Bu metodlarni o'qituvchi va talabalar yoki o'qituvchilar o'rtasida o'zaro fikr almashish va tajriba tahlili ya'ni kichik guruhlar bilan talabalar yoki o'qituvchilarning kichik jamoat shaklida faoliyatlarini tahlil qilishi, ochiq savollarni berish va muayyan savollar asosida muhokama savollarga javob berish orqali muammolarni tahlil qilish.

**3. Amaliy refleksiv metodlar.** Bu metodlarning o'qituvchi yoki talabalar kundalik faoliyati davomida refleksiv xarakterdagi tajribaga asoslangan. Mashg'ulot jarayonini kuzatish va bu jarayonlarni tahlillashtirish, "nima o'rgatdim va ular nimani o'rgandi?" usulini qo'llash, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni muntazam, tizimli bartaraf etib borish kabilarni o'z ichiga oladi.

**4. Innovatsion refleksiya metodlari.** Yangi texnologiyalar va pedagogik yondashuvlar yordamida amalga oshiriladigan, turli shakllarda tashkillanuvchi mashg'ulotlarning videotasvirga tushirish, maxsus onlayn platformalarda: yoki bloglarda reflektiv tajriba almashish muhitini tashkillash, interaktiv vositalar interaktiv testlar va mashg'ulotlar orqali tahlil qilish.

**5. Tashqi refleksiya.** Bu metodlar ma'lum pedagogik faoliyatning tashqaridan kuzatgan holda boshqa shaxslar, ya'ni uzoq yillik metodik ko'nikma va malakaga ega salohiyatli murabbiylar tomonidan tahlil qilish, ta'lim jamoasining o'zaro baholash mulohazalar berishga qaratilgan metodik majmuani o'zida mujassamlashtiradi.

**MUHOKAMA.** Pedagogik refleksiyaning tabiati o'qituvchining kasbiy faoliyatida uning bajaradigan funksiyalari orqali to'liqroq ochib beriladi. aynan refleksiya "Men-konsepsiya"ni shakllantirishda ishtirok etib, xatti-harakatlarning haqiqiy motivlarini aniqlab, pedagogik jarayonning barcha tomonlarining o'zaro ta'sirining ma'noviy xususiyatlarini beradi. Pedagogik refleksiya o'zining loyihalash funksiyasini amalga oshirib, pedagogik jarayon ishtirokchilarining faoliyatini imitatsiya qiladi, bu esa o'quvchilar bilan kelajakdagi o'zaro ta'sirning turli jihatlarini rejalashtirish imkonini beradi. Rivojlantiruvchi funksiyani bajarib,

o'qituvchining kasbiy refleksiyasi uning shaxsini o'zgartirish va takomillashtirish maqsadlarini belgilaydi.

Ta'lim jarayonida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil refleksiya shakllarining xilma-xilligi hisoblanadi. Ta'limiy refleksiyaning shakllari turlicha:

- verbal shakllar: og'zaki muhokama, hikoya, yuz berayotgan o'zgarishlarni bayon etish, so'rov.

- noverbal shakllar: insho, yozma anketa, ro'y berayotgan o'zgarishlarning grafik yoki rasmi tasviri.

Ta'lim oluvchilarda refleksiv ko'nikmalarni samarali rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida refleksiya texnologiyalari va shakllaridan kompleks foydalanish zarur. Talaba shaxsiga kompleks ta'sir ko'rsatish pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

**NATIJALAR.** Refleksiyalash qobiliyati bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishi va o'z-o'zini madaniy jihatdan namoyon qilishiga optimal muhit yaratadi. Pedagogik refleksiya yordamida bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilar va hamkasblarai ularni madaniy jihatdan qay darajada anglashini his qilishlariga sharoit va imkoniyat yaratadi. Refleksiyalash qobiliyati madaniy rivojlanish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy-madaniy meros bilan munosabatga kirishadilar. Refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirish asosida bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa subyektlariga qanday munosabatda bo'lishlari lozimligini tushunib yetishga muvaffaq bo'ladilar.

Pedagogik refleksiyalash borasida olib borilgan ilmiy izlanishlardan ko'rinadiki, shaxsda o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi baholash, o'z-o'zini boshqarishni modellashtirish, o'zini o'zi tarbiyalash kabi qator jarayonlarning rivojlanishi bilan ko'rsatiladi. Shuning bilan birga shaxsdagi bilish jarayonlari, emotsional motivatsion sohalarining taraqqiyoti refleksivlik rivojlanishining asosiy pedagogik omillar hisoblanadi. O'quv faoliyatida ta'lim oluvchi o'zini biladi, unda o'zi haqida tasavvurlar, o'zini o'zi baholash tarkib topadi, natijada, o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarish, natijalarni baholash ko'nikmalari shakllanadi. Demak, talabalarda o'z-o'ziga va

boshqa insonlarga yoʻnalganlik oʻtmishdagi faoliyatga, hozirgi faoliyatga, boshqalar bilan hamkorlik va muloqotga refleksiya ijtimoiy intellektning oʻzini oʻzi boshqarish, empatiya, oʻzini oʻzi motivatsiyalash kabi komponentlari bilan ahamiyatli hisoblanadi.

**XULOSA.** Boʻlajak oʻqituvchilarning pedagogik refleksiya qobiliyatini rivojlantirishda didaktik va metodik yondashuvlarning ahamiyati katta. Pedagogik refleksiya oʻqituvchining oʻz faoliyatini tahlil qilish, uning samaradorligini baholash va oʻquvchilar bilan muloqotda yuzaga keladigan muammolarni hal etishda oʻz bilim va tajribalarini qayta koʻrib chiqishga yordam beradi. Didaktik tamoyillarni amaliyotga tatbiq qilish orqali oʻqituvchilar oʻz pedagogik uslublarini takomillashtiradi va oʻquvchilarni yanada samarali oʻqitish imkoniyatiga ega boʻladi. Pedagogik refleksiya jarayonida metodik yondashuvning oʻziga xos usullari, masalan, suhbatlar, tahlillar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, oʻqituvchiga oʻquvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda darslarni tashkil etishga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.07.2023 yildagi PQ-200-son.
2. Родина Ольга Николаевна (2020). Педагогические условия формирования компетенции социального взаимодействия студентов в совместной учебной деятельности. Педагогика. Вопросы теории и практики, 5 (5), 610-614.
3. Семенов И.Н. Методологические основы Московской школы рефлексивно-гуманитарной психологии и педагогики творчества // Методологические концепции и школы в СССР (1951-1991). Вып. I. /Под. ред. И.С. Ладенко. Новосибирск. НГУ. 1992.
4. Вульф В.З. Семь парадоксов воспитания. – М.: Новая школа, 1994.
5. Бизяева А.А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия - Псков : ПГПИ им. С.М.Кирова, 2004. - 216 стр.
6. Давыдов, В.В. Теория развивающего обучения / В.В. Давыдов. — М.: ИНТОР, 1996. — 544 с.





## MAFKURA VA MAFKURAVIY IMMUNITETNING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Xolikov Yuldosh To'ychiyevich, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

## THE ROLE OF IDEOLOGY AND IDEOLOGICAL IMMUNITY IN THE LIFE OF SOCIETY

Xolikov Yuldash Tuychievich, Independent researcher at the Institute of Socio-Spiritual Research at the Republican Center for Spirituality and Enlightenment

## РОЛЬ ИДЕОЛОГИИ И ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

Холиков Юлдош Туйчиевич, Независимый исследователь Института социально-духовных исследований при Республиканском центре духовности и просвещения



<https://orcid.org/0009-0009-6391-3409>

e-mail:

xalikovyuldosh@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada mafkuraning jamiyatdagi ahamiyati, mafkuraviy ta'limot va dasturlarning insoniyat rivoji va taraqqiyoti uchun xizmat qilishi, ularning rivojlanish tendensiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, muallif mafkuraviy immunitetni shakllantirish va uning shakllanishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar, istiqbolda uning yechimini ta'minlaydigan taklif va tavsiyalarga e'tibor qaratadi.

**Kalit so'zlar:** mafkura, mafkuraviy immunitet, g'oya, g'oyalar tizimi, buzg'unchi mafkura, bunyodkor mafkura, g'oyaviy tarbiyalash, mafkuraviy plyuralizm.

**Abstract:** The article scientifically analyzes the importance of ideology in society, the service of ideological teachings and programs to the development and progress of mankind, and the trends of their development. The author also draws attention to the formation of ideological immunity and the problems that may arise during its formation, suggestions and recommendations that will ensure its solution in the future.

**Keywords:** ideology, ideological immunity, idea, system of ideas, destructive ideology, creative ideology, ideological education, ideological pluralism.

**Аннотация:** В статье научно проанализировано значение идеологии в обществе, служение идеологических учений и программ развитию и прогрессу человечества, тенденции их развития. Также автор обращает внимание на формирование идеологического иммунитета и проблемы, которые могут возникнуть при его формировании, предложения и рекомендации, которые обеспечат его решение в перспективе.

**Ключевые слова:** идеология, идеологический иммунитет, идея, система идей, деструктивная идеология, созидательная идеология, идеологическое воспитание, идеологический плюрализм.

**KIRISH.** Tarixning barcha davrida yangicha, mustaqil tafakkurga jamiyatning o'zi ehtiyoj sezishi obyektiv zarurat ekanligini kuzatishimiz mumkin. Bu masala ayniqsa, mustaqillik tufayli yanada faollashadi. Mustaqil tafakkur, yangicha dunyoqarash o'z navbatida

jamiyatni ham tubdan yangilanishini ta'minlaydi. Shubhasiz, mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri bu xalqni mafkuraviy jihatdan qurollantirishdan iboratdir. Mafkura bu bir butun tizimlar – siyosat, huquq, axloq, din, falsafa

bilan boyigan ilmiy qarashlar, g'oyalar va fikrlar yig'indisidan tashkil topgan.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.** Tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, mafkurada manfaatlarini ifodalayotgan guruh va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Bu haqida ilmiy izlanishlar olib borgan va borayotgan tadqiqotchilar o'zlarining asarlarida ta'kidlab o'tishgan, jumladan, D.Mamatkulov (2018), Q.Nazarov (2002), A.Ochidiyev (2009), Sh.To'rayev (2022), A.Sharipov (2021)lar mafkuraning jamiyatdagi ahamiyati, uning tarkibiy qismlari va vazifalari, mafkuraviy immunitetning obyektiv zarurat ekanligi kabi masalalarga e'tibor qaratishgan. Amerikalik tadqiqotchi Z.Bjezinskiy (1993) mafkura siyosiy murosa yoki to'qnashuvning, intellektual kelishuv yoki qarama-qarshilikning manbaini tashkil qilishi mumkin, deya xulosa beradi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Maqolada mafkura tushunchasi, uning ilmiy-nazariy tomonlari muhokama qilinadi. Mafkuraning jamiyatdagi o'rni va mafkuraviy immunitetning ahamiyati tavsiflanadi. Tadqiqotchilarning bu boradagi ilmiy izlanish va tadqiqotlari tahlil qilindi va O'zbekiston jamiyatida mafkuraning bunyodkorlik funksiyalarini takomillashtirish yuzasidan berilgan xulosalar ilmiy jihatdan asoslantirildi.

**TAHLILLAR VA NATIJALAR.** Mafkura (arabcha "fikrlar majmui") – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlarini, orzu-istak va maqsad-muddolari ifodalangan g'oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi[15]. Mafkura insoniyatni ma'lum bir maqsad atrofida birlashtiruvchi, uyushtiruvchi amaliy xatti-harakatlar va yo'nalishlarga oid fikr va g'oyalar majmuidir. Demak, turli shakl va mazmundagi fikr (g'oya)larning yig'indisini mafkura ifodalab berar ekan. Shundan kelib chiqib, ular, ya'ni mafkura va g'oya o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjud. Mafkura va g'oya o'rtasidagi umumiylik – bu maqsad mushtarakligi bo'lsa, juz'iylik – maqsad va vosita farqidadir. Bu o'rinda g'oya maqsadni, mafkura esa maqsadga erishish vositasini ifoda etadi[7]. Mafkura g'oya (fikr)lar orqali boyiydi va undan kuch olib, maqsad, mazmun va shaklga qarab jamiyatni ilgarilanma harakatga keltiradi yoki aksincha tanazzulga yuz tutishiga olib keladi.

Insoniyat tarixida turli-tuman mafkuralar bo'lgan. Turli xalqlar va ijtimoiy kuchlarning g'oyaviy rahnamolari, mutafakkir va arboblari o'zlarining manfaat va maqsadlaridan kelib chiqib mafkuraviy ta'limot va dasturlar ishlab chiqqanlar[5]. Albatta, yaratilgan mafkuraviy ta'limot va dasturlar uzoq vaqt davomida insoniyat rivoji va taraqqiyoti uchun xizmat qilgan va bugungi kungacha yetib kelgan. Masalan, Konfutsiy, Aristotel, Forobiy va boshqa ta'limotlarini ko'rsatishimiz mumkinki, bu jamiyat hayoti taraqqiyotiga hozirga qadar xizmat qilib kelmoqda.

D.M.Mamatqulovning fikricha, mafkura uch tarkibiy qismdan tashkil topadi. Bular: muayyan tizimga solingan (ilmiy, falsafiy, diniy va boshqa tomondan asoslangan) g'oyalar, kategoriyalar, prinsiplar majmui; mafkuradagi g'oyalar, kategoriya va prinsiplarni jamiyatga tatbiq etuvchi subyektiv omillar (mafkuraviy institutlar, muassasalar, tashkilotlar); g'oya va kategoriyalarni jamiyatga tatbiq etish jarayonida qo'llanilgan yo'llar, usullar va vositalar[4]. Ushbu tarkibiy qismlar bir butunlikda mafkurani tashkil etadi.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning maqsadi – taraqqiyot va rivojlanishga erishishdir. Rivojlanish g'oyasi, tarixda kuzatilganidek, umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Ammo ushbu rivojlanish yo'llari va vositalarini izlashda mafkuralar bunyodkor va buzg'unchi bo'ladi. Buzg'unchi mafkuralar rivojlanishni o'zgaralar hisobidan amalga oshirishni targ'ib etsa, bunyodkor mafkuralar rivojlanishni o'z kuchi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, bilimlar asosida amalga oshirishni maqsad qilib oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz" [8] degan fikrlari ham tasdiqlaydi.

Har qanday mafkura jamiyatda yangi paydo bo'lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlarning talab-ehtiyojlari, maqsadlarini ifoda etuvchi yangi g'oyaviy tizim sifatida vujudga keladi va asosan, quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'yadi: 1) muayyan g'oyani odamlarning ongiga va ruhiyatiga singdirish; aholining turli guruhlarini birlashtirish; 2) ko'zlangan maqsad va niyatlarga erishish uchun odamlarni safarbar etish; ularni ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish; 3) aholini, ayniqsa, yosh avlodni g'oyaviy tarbiyalash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish; 4) boshqa mafkuraviy va g'oyaviy

ta'sirlardan himoya qilish [5] va boshqalar. Haqiqatan ham, mafkura jamiyat a'zolarining mushtarak maqsadlari, orzu va intilishlarini birlashtirib turgan umumiy bilimlar tizimi bo'lganligi uchun ham jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mafkuraning vazifasi – odamlarning ongini shakllantirish va ularning ongiga ta'sir qilish orqali ularni nazorat qilishdir. Mafkura ilm-fanni oldinga qo'yilgan maqsadga erishish vositasi sifatida ishlatib, xulq-atvor stereotiplarida ham yaqqol namoyon bo'ladigan ma'lum ongli stereotiplarni yaratadi. Jahon dinlari – global miqyosdagi, davrlar miqyosidagi mafkuralarning namunasi. Biroq, bunday ishonch da'vat, sinf, odamlar va insoniyat chegarasida aytilgan mafkuradan farqli o'laroq aynan inson e'tiqodiga qaratiladi. Shunday qilib, ma'naviyatni zamonaviy ta'limning mafkurasini deb hisoblash mumkin [16]. Shu o'rinda mafkuraning ijtimoiy vazifasi haqida ham qisqacha to'xtalib o'tsak. Mafkuraning ijtimoiy vazifasi bevosita kishilik jamiyati taraqqiyotining bosqichlari bilan belgilanadi. U turli davrlarda turli-tuman ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy ta'sirlar natijasida dunyoga keladi va o'z davrida odamlar tafakkurini boyitishga, ularni yangi g'oyalar bilan qurollantirishga zamin yaratadi.

Har bir davr mafkurasini o'sha davr davlatlari manfaatlaridan kelib chiqib, taraqqiyotning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlarini u yoki bu darajada belgilab berishga xizmat qiladi. "Jamiyatda ijtimoiy tabaqa, toifa va guruhlarining faoliyati, ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonidagi o'rni bir xil emas. Shu sababli ham ularning o'ziga xos obyektiv (jamiyat bilan bog'liq bo'lgan) va subyektiv (shaxs bilan bog'liq bo'lgan) manfaatlar mavjud bo'ladi. Lekin ular ushbu manfaatlar nimadan tashkil topganligini har doim ham anglashmaydi. Albatta, manfaatlarni to'g'ri anglamaslik va hisobga olmaslik jamiyatda turli qarama-qarshiliklar, ziddiyat va to'qnashuvlarga sabab bo'ladi, muammolar esa o'z yechimini topmaydi. Manfaatlar to'qnashuvi natijasida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligiga putur yetadi" [2].

A.Ochilidzevning fikriga ko'ra: "...mafkuradan ko'zlangan maqsad kelajakda erishilishi lozim bo'lgan natijalar bo'lsa-da, ana shu natijalar hamisha ham insoniyatga ezgulik yo'lida xizmat qilayotgani yo'q" [11]. Ayrim mafkuralar jamiyatni izdan chiqarishga olib kelmoqda.

Har qanday ijtimoiy g'oya faqat ma'lum bir mafkuraviy qarashlar doirasidagina o'zining uyushtiruvchilik va yo'naltiruvchilik salohiyatini, jozibadorlik kuchini namoyon qila olishi mumkin. Insoniyat rivojlanish tarixining hamma zamonlarida ma'lum bir maqsadlarni ko'zlangan mafkuralar tufayli natijalarga erishilgan. Har qanday natijalarga erishish uchun kishilarda to'plangan bilim va malakalar, ularning ma'lum bir g'oyalar atrofida birlashishiga xizmat qilgan. G'oyalar tizimining bir maqsadga aylanishi o'sha jamiyatlarning dasturi sifatida mafkuraga aylanganini ko'rish mumkin [13].

Mafkuraviy plyuralizm jamiyatda yangi yangi g'oyalar paydo bo'lishiga, turli xalqlar, millat va elatlar, siyosiy guruhlarning manfaatlarini birday, teng va adolatli ro'yobga chiqarishga sharoit yaratadi. Z.Bjezinskiyning fikriga ko'ra, mafkura siyosiy murosa yoki to'qnashuvning, intellektual kelishuv yoki qarama-qarshilikning manbaini tashkil qilishi mumkin. Shuning uchun ham u birinchilardan bo'lib mafkuraviy ma'nolarni bir mamlakatga, muayyan bir mintaqaga, global miqyosda insoniyatga taalluqli geopolitik maqsadlar bilan birlashtirdi [1].

Tadqiqotimizda "mafkuraviy immunitet" tushunchasiga ham e'tiborimizni qaratishni maqsadga muvofiq deb bildik. Jamiyatda siyosiy immunitet, madaniy immunitet, ma'naviy immunitet kabi tushunchalar va ularning ildizlari uchraydi. "Mafkuraviy immunitet" tushunchasi ham jamiyatga tegishli bo'lib, u tibbiyot atamasidagi "immunitet" tushunchasi bilan bog'liq holda keladi.

Shu o'rinda immunitet so'zining ma'nosini ham tahlil qilsak. "Immunitet" so'zining ma'nosi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da (lotincha – qutulish, xalos, xoli bo'lish) tibbiyot nuqtayi nazaridan yondashilib, organizmning o'zidan irsiy jihatdan yot xususiyatlari bilan farq qildadigan, uning butunligiga va biologik o'ziga xosligiga zarar yetkazadigan mikroorganizmlar (kasallik qo'zg'atuvchilar), zaharli moddalar va boshqalardan himoyalaniş reaksiyasi [19] deb keltirilgan. "Falsafa qomusiy lug'ati"da – immunitet kishi organizmining turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyati" [15], deyiladi. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'atida, "Immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan asrashga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi" [6] sifatida ta'riflanadi.

Demak, immunitet kishida yot, begona narsa va hodisalarga qarshi tura olishlik va unga qarshi himoyalaniş qobiliyatini yuzaga kelishi desak, yangilishmagan bo‘lamiz. Fikrimizni M.Yuldashevaning quyida keltirilgan argumentlari ham isbotlaydi: “Immunitet, o‘z navbatida odamni to‘g‘ri yo‘ldan “ozish”dan, turli yo‘llarga adashib, keyin pushaymon bo‘lishlardan, baxtsizlikdan, millatni esa parokandalikdan, parchalanishlardan, sinfiy yoki mahalliy bo‘linishlardan asrab qoladi” [18].

Ta‘kidlaganimizdek, immunitet nafaqat bu tibbiyot atamasi, balki bugungi kunda zamonaviy ijtimoiy fanlar “mafkuraviy immunitet” tushunchasini fanga olib kirib undan foydalanmoqda.

Professorlar Q.Nazarov, A.Ochildiyevlar tomonidan yozilgan izohli lug‘atda “Mafkuraviy immunitet” – ma‘naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiyon, buzg‘unchi kayfiyatga ega, g‘oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalash”[9] bilan bog‘liq tushuncha deyilsa, “Mafkuraviy immunitet aslida davlat va millatning ma‘naviy birligi bo‘lib, ularning ma‘naviy sog‘lomligini himoya qiluvchi g‘oyaviy qalqon vazifasini bajaradi”[12], deb ta‘kidlaydi prof. I.Saifnazarov.

“Mafkuraviy immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g‘oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi”[15], - deb ta‘rif beriladi falsafiy qomusiy lug‘atida. “Mafkuraviy immunitet – ma‘naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiyon, buzg‘unchi xarakterdagi g‘oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo‘l keladi”[17]. Ta‘kidlanganidek, har qanday kasallikning oldini olishda inson organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Mafkuraviy immunitet – tartibga solingan, yaxlit tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va g‘oyalar majmui bo‘lib, u har qanday tahdidlarga bardoshli, o‘zligini saqlagan holda jamiyatda munosib o‘rin egallashga, yot mafkuralarga faol qarshi turishga chorlaydigan inson yoki jamiyatda hosil qilingan kuch. Ayni paytda, mafkuraviy immunitet har qanday tahdidlarni bartaraf etishning barqaror mexanizmiga aylanadi [14]. “Mafkuraviy immunitet” shakllanishida ezgulik, odamiylik,

gumanizm g‘oyalar, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi bilan birgalikda mafkuraviy tarbiya tamoyillarga e‘tibor qaratmog‘imiz darkor [10].

Ana shunday kuchli mexanizmni tashkil etuvchi mafkuraviy immunitetning o‘ziga xos shakllanish xususiyatlarini quyidagilarda ko‘rish mumkin bo‘ladi: Birinchidan, insonning umumiy immunitet tizimi ikki yo‘nalishda bo‘ladigan bo‘lsa, mafkuraviy immunitet hosil qilinuvchi sifatida shakllantirib boriladi. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun alohida xususiyatga ega bo‘ladi. Bunda avlodlar orasidagi aloqadorlik, munosabatlar, ya‘ni qadriyatlar tizimidagi vorislikni kuchaytirish yangi avlodda har tomonlama barqaror mafkuraning shakllanishiga olib keladi. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda taraqqiyot barqaror rivojlanish yo‘liga kiradi, fuqarolarda daxldorlik fazilati kuchayib boradi[21]. Zamonaviy jamiyatda kishilarimizda yot va zararli g‘oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni hosil qilish va uni yuksaltirish zarur bo‘ladi. “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”[20], deya izohlaydi.

**XULOSALAR.** Ta‘kidlash kerakki, mafkura, mafkuraviy immunitet tushunchalarining mohiyatini to‘la anglab yetmasdan turib, uni shakllantirish, yot, buzg‘unchi g‘oyal va mafkuralarga nisbatan jamiyat immunitetini shakllantirib bo‘lmaydi. Buning uchun jamiyat mafkuraviy immunitetini hosil qiladigan konsepsiyalar ishlab chiqishni jamiyatning o‘zi obyektiv ijtimoiy zaruratga aylantirmoqda.

Mafkuraviy tarbiya jarayonida kishilarda vayronkor va buzg‘unchilikka asoslangan zo‘ravonlik mafkuralariga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e‘tibor beriladi. Bu uzoq davom etadigan jarayondir. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g‘oyani zo‘r berib tiqishtirish, singdirish emas, balki odamlarda mustaqil fikrlash, oq-qorani ajratish, buzg‘unchi mafkuralarga qarshi hushyor va ogoh bo‘lish xususiyatlarni tarbiyalash demakdir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бжезинский З. Вне контроля. Глобальный беспорядок накануне XXI столетия. – Нью Йорк: 1993. – С.113.
2. Berdikulov S. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik milliy modelining falsafiy genezisi va rivojlanish istiqbollari. Fals. fan. dokt. diss. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – B. 53.
3. Душаев А.Ж. Глобализация и идеологический иммунитет // Молодой учёный. – № 13 (93). Июль, 2015. – С. 826.
4. Mamatqulov D. Malaka oshirish jarayonida umumta'lim maktab rahbarlarining mafkuraviy kompetentliligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. bo'yicha fal. dok. ... dis. – Toshkent, 2018. –143 b.
5. Mafkura // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mafkura-uz/> - elektron resurs
6. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2021. – B.306.
7. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimidagi oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B.56. (218 b).
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // <http://uza.uz/oz/politics/onun-ustuvorligi-va-inson-manfaatlarini-taminlash-yurt-tara--07-12-2016> - elektron resurs.
9. Nazarov Q., Ochildiyev A. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug'at). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – B.79.
10. Ortiqov O.R. Talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish. Monografiya. – Buxoro: Durdona, 2021. – B. 39-40. (– 152 b).
11. Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
12. Saifnazarov I., Saifnazarova F. Mafkuraviy xurujlar nima? – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2015. – B.17.
13. To'rayev Sh. Milliy g'oya va mafkuralar tarixi. – Toshkent: Muharrir, 2022. – B. 6-11.
14. To'rayev Sh.N. Mafkuraviy tahdidlarning ma'naviy jarayonlarga ta'sirini oldini olishning ijtimoiy-falsafiy asoslari. Fals. fan. doktori (DSs) diss. – Toshkent, 2023. – B. 164.
15. Falsafa: Qomusiy lug'at / Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent, 2004. – B.244.
16. Sharipov A.Z. Yangilanayotgan O'zbekistonda ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi. Fals. fan dokt.diss. – Toshkent, 2021. – B. 58-59.
17. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqloq g'oyasi. – Toshkent: Akademiya, 2005. – B. 93.
18. Yuldasheva M.M. Hozirgi davr yoshlar dunyoqarashida ma'naviy-mafkuraviy xurujlarning oldini olish zaruriyati // Zamonaviy targ'ibot texnologiyalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: MUXR PRESS, 2024. 481 bet.
19. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – B. 202.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2017-yil 22-dekabr). – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 20 b.
21. Quronov M., Jabborov H.X. Yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik-psixologik treninglari. – Toshkent: Muharrir, 2019. – B. 6.



### 3 - 4 – SINFLARDA BADIY MATN USTIDA ISHLASH METODIKASI

Urazboyeva Sabohat Ortiqboyevna, Urganch innovatsion universiteti stajyor o'qituvchisi

### МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД ХУДОЖЕСТВЕННЫМ ТЕКСТОМ В 3 - 4 КЛАССАХ

Уразбоева Сабохат Артикбоевна, преподаватель-стажер  
Ургенчского инновационного университета

### METHODOLOGY OF WORKING ON ARTISTIC TEXT IN 3-4 GRADES

Urazboyeva Sabohat Artikboyevna, Teacher-trainee at Urganch  
Innovation University



<https://orcid.org/0009-0000-2277-1488>

e-mail:  
[sabohat@icloud.com](mailto:sabohat@icloud.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy matn asosida bilimlarini shakllantirish va ularni nutqiy ravonlikka o'rgatish, shu bilan birga vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanga munosib farzand bo'lish kabi tuyg'ular va ularni qanday qilib shakllantirishimiz to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** matn, badiiy matn, vatanparvarlik, tarbiya, tafakkur, ijodkorlik.

**Abstract:** The article discusses how to shape the knowledge of elementary school students on the basis of literary texts and teach them to speak fluently, and at the same time educate them in the spirit of patriotism and how to form them.

**Key words:** text, artistic text, patriotism, education, thinking, creativity.

**Аннотация:** В статье рассматривается, как на основе художественных текстов формировать знания учащихся младших классов и научить их бегло говорить, и одновременно воспитывать их в духе патриотизма и как формировать их.

**Ключевые слова:** текст, художественный текст, патриотизм, воспитание, мышление, творчество.

**KIRISH.** Badiiy matn — bu adabiyotda yaratilgan, san'at va estetik maqsadlarni ko'zlab yozilgan matn bo'lib, uning asosiy vazifasi o'quvchini yoki tinglovchini estetik jihatdan zavqlantirish, ruhiy va emotsional ta'sir ko'rsatishdir. Badiiy matnni yaratuvchi muallif o'zining g'oya va fikrlarini, hissiyot va tuyg'ularini estetik jihatdan bezatilgan so'zlar orqali ifodalaydi, natijada o'quvchining tasavvur va his-tuyg'ularini uyg'otadi. Badiiy matnlarning ko'plab shakllari mavjud, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Badiiy matnning shakllari yozilish uslubi, mazmuni va badiiy vositalaridan kelib chiqqan holda

bir-biridan farq qiladi. Masalan, poeziya (she'riyat), proza (hikoya, roman), doston, drama (teatr asarlari) kabi shakllar mavjud.

Badiiy matnlarning mazmuni va shakli o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, har bir shakl o'zining badiiy vositalarini (metafora, tasvir, rang-barang ifodalar va hokazo) o'zi uchun xos tarzda ishlatadi. Shu bilan birga, badiiy matnning shakli va mazmuni adabiyotning turli janrlariga qarab o'zgarib turadi, bu esa o'quvchi yoki tinglovchining estetik tajribasini yanada boyitadi.

**Badiiy matnning asosiy xususiyatlari:**

1. **Badiiylik:** badiiy matnlarning eng muhim xususiyati ularning estetik maqsadga yo'naltirilganligidir.

2. **Tasvirlash:** badiiy matnlar tasvirlash orqali hayotning turli jihatlarini, tabiiy manzaralarni yoki inson xususiyatlarini ifodalaydi.

3. **Emotsional ta'sir:** badiiy matnlar o'quvchida turli his-tuyg'ularni uyg'otish uchun yoziladi.

4. **Imkoniyat va ijodkorlik:** badiiy matnlar yozuvchining ijodiy va san'atkorlik yondashuvini o'zida aks ettiradi.

5. **Mavzu va g'oya:** badiiy matnning asosiy mazmuni hayotning turli tomonlarini ko'rsatish bo'lib, muayyan g'oya, qarash yoki axloqiy masalalarni ilgari suradi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Tilshunos M.X.Hakimov ilmiy matn tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsiya ishida bu haqda shunday yozadi: "Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchilar yordamida birikishini o'rganish.

Tilshunos E.Qilichev "Matnning lingvistik tahlili" deb nomlangan kitobida "Matn – hamma elementlari o'zaro zich aloqada bo'lgan va avtor nuqtayi nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma" degan ta'rifni keltiradi[4:8].

**MUHOKAMA. Badiiy matn ustida ishlashda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar:**

1. **Tahlil qilish.** Badiiy matnni o'qib chiqqandan so'ng, uning asosiy g'oyasini va muallifning maqsadini tahlil qilish zarur.

2. **Muhokama.** O'quvchilarga matnni o'qib chiqishdan so'ng, uning ma'nosi, qahramonlarning harakatlari yoki g'oyasi haqida savollar berish orqali muhokama o'tkazish.

3. **Ijodiy ishlar.** Badiiy matnni o'qib bo'lgach, o'quvchilarga o'z hikoyalarini yoki she'rlarini yozishni taklif etish.

4. **Vizualizatsiya.** Matndagi voqealar yoki qahramonlar asosida rasm yoki diagramma yaratish.

5. **Sahnalashtirish.** Badiiy matnni teatr sahnasida ijro etish yoki rollarga ajratib, o'quvchilarga personajlarni o'ynashni taklif qilish.

**Muhokama.** 3–4-sinflarda **badiiy matn ustida ishlash** metodikasi o'quvchilarning o'qish va

yozish qobiliyatlarini rivojlantirish, matnni tushunish, tahlil qilish va uni estetik jihatdan qadrlashga o'rgatish maqsadiga mo'ljallangan.

**1. Matnni tanlash:** badiiy matnni tanlashda bolalar yoshiga, psixologik va rivojlanish xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. Matn qiziqarli, bolaning ongiga mos bo'lishi zarur.

- Hikoyalar: oddiy syujetli, bir nechta qahramonlar va sodda voqealarga asoslangan hikoyalar.

- She'rlar: bolalarga mos, qisqa, ritmik va tushunish uchun oson she'rlar.

- Afsonalar va dostonlar: xalq og'zaki ijodining namunalaridan foydalanish mumkin.

**2. Matnni o'qitishda asosiy metodlar.** Badiiy matnni o'qitish metodikasi faqat matnni o'qish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarning matnni qanday anglashlarini, tasavvur qilishlarini va his qilishlarini o'rganish zarur.

a. O'qishdan oldin ishlash;

b. O'qish davomida ishlash;

c. O'qishdan keyin ishlash.

• Tahlil qilish;

• Savol-javob;

• Yaratish va taqqoslash;

• Yozma ishlar.

**3. Fikrlarni va tasavvurni rivojlantirish.**

Badiiy matnni o'rganishda o'quvchilarning tasavvuri va fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirish juda muhim. Bu yoshdagi bolalar hali ham o'z hayot tajribalarini kengaytirishda, yangi obrazlar va tushunchalar yaratishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

**4. Matnni tushunishga va tahlil qilishga yordam beradigan o'yinlar va faoliyatlar:** O'quvchilarni faollashtirish uchun turli o'yinlar va faoliyatlar kiritish mumkin.

**5. Badiiy matnni mulohaza qilish va baholash.** Badiiy matnni o'rganish yakunida o'quvchilarni ularning fikrlari, mulohazalari va izohlari bilan bo'lishishga rag'batlantirish zarur[3:9].

3-4-sinf darsliklaridagi berilgan mashqlarni ko'rib chiqamiz, solishtirib ko'ramiz va matnlar bilan o'quvchilar qanday shartlar asosida ish olib borishini o'rganamiz. 3-sinf ona tili darsligi 101-mashqni tahlil qilib chiqamiz. Mashq sharti: "9-may Xotira va qadrlash kunini qanday o'tkazishingiz haqida matn yozing.

### **Xotira muqaddas (Ibrat)**

Odamzod umri davomida elim deb, yurtim deb barakali mehnat qiladi. Ba'zilar Vatan uchun jonini fido etadi. Ba'zilar halol ishlab, faxriylar safidan munosib o'rin oladi. Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun jonini fido etgan ajdodlar yodi minnatdor avlodlar xotirasida abadiy saqlanadi. Vatan ravnaqi, farovon hayot uchun fidokorona mehnat qilgan faxriylar e'zozlanadi, hurmat bilan qadrlanadi".

4-sinf ona tili darsligi 40-mashqni tahlil qilamiz. Mashq sharti: "Partadoshingiz yoki sinfdoshingiz bilan "Men Vatanimni sevaman" mavzusida interyu tayyorlang va taqdim eting[1:70].

#### **"Men Vatanimni sevaman" mavzusida interyu rejasi:**

##### **1. Tanishtiruv**

2. Suhbatdoshingiz haqida qisqacha ma'lumot

##### **3. Savollar**

a) Vatan deganda nimani tushunasiz?

b) Vatan oldidagi burch va majburiyatlaringiz.

d) Siz kelajakda vatan uchun nimalar qila olishingizni ko'z oldingizga keltira olasizmi?

e) Yurtimizga kelgan chet ellik do'stlaringiz sizdan vatanningizdagi milliylikka xos bo'lgan jihatlarni so'rasa nimalarni ayta olasiz?"

##### **4. Xayrlashuv[2:32]**

Berilgan har ikkala mashqda Vatan haqida matn tuzish va tahlil qilish, shu bilan birgalikda suhbat olib borish topshiriqlari qo'yilgan.

Ushbu matn asosida o'quvchilar bir tomondan Vatan tushunchasi va uning mustaqilligi va bugungi kunga qadar qanday ishlar olib borilganligi va vatan oldidagi har bir farzandning burchlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lsalar, ikkinchi tomondan matn yozish va matndagi bog'lanishli nutqning izchilligini topshiriqni bajarish bilan birga o'rganib boradilar. Shu bois o'quvchilar

matn bilan ishlaganda ilmiy bilimlar bilan birga nutqiy komponentlarni ham oshirib boradilar.

**XULOSA.** Badiiy matn bilan ishlashda muhim jihat shundaki, o'quvchilarga matnni faqat o'qish bilan cheklanmasdan, uning badiiy strukturasi va uslublarini chuqur tahlil qilish, matndagi badiiy vositalarni tushunishga imkon yaratish va ijodiy fikrlashni rivojlantirish zarurdir. 3-4-sinf o'quvchilari uchun badiiy matnlarni o'rganishda interaktiv va ijodiy metodlarning qo'llanilishi samarali bo'ladi. Ushbu metodlar qatoriga muhokama, rasm chizish, teatrlashtirish kabi usullar kiradi. Bunday yondashuvlar o'quvchilarga matnni faqat intellektual darajada emas, balki emotsional va ijodiy nuqtayi nazardan ham tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning fikrlarini erkin ifodalashiga yordam berib, adabiyotga bo'lgan qiziqish va e'tiborlarini oshiradi. O'quvchilarda adabiy asarlarni o'zlari talqin qilish va yangi fikrlarni ilgari surish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, ularning estetik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. 3-sinf ona tili darsligi D.D.Baynazarova, M.E.Toirova. "Navda Edutainment". Toshkent, 2023.

2. 4-sinf ona tili darsligi. D.D.Baynazarova, M.E.Toirova. "Navda Edutainment". Toshkent, 2023.

3. Qosimova K, Matchonov S, G'ulomova. Ona tili o'qitish metodikasi. T.Boyo, 2022.-304.

4. Matchonov S. "Boshlang'ich sinflarda ona tili va uni o'qitish metodikasi" (Boshlang'ich ta'lim talabalari uchun darslik). T.:Ishonchli hamkor, 2021-y.

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent - O'zbekiston. 2016. 56 B.

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent - O'zbekiston. 2016. 488 B.





Qabul qilindi: 16.09.2024

Chop etildi: 30.10.2024

UDK: 81.42

**SIYOSIY DISKURSDA KONSEPTUAL METAFORA  
TAHLILI****Yakubov Faxriddin Jo'raqulovich, Samarqand davlat  
universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi****АНАЛИЗ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МЕТАФОРЫ В  
ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ****Якубов Фахриддин Джуракулович,  
преподаватель Каттакурганского филиала Самаркандского  
государственного университета****ANALYSIS OF CONCEPTUAL METAPHOR IN  
POLITICAL DISCOURSE****Yakubov Fakhriddin Jurakulovich,  
Teacher of Kattakurgan branch of Samarkand State University**<https://orcid.org/0009-0007-8491-8263>

e-mail:

[yakubovf57@gmail.com](mailto:yakubovf57@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada diskurs, siyosiy diskurs va siyosiy diskursda konseptual metaforaning ishlatilishi haqida gap boradi, maqsadli domen, manba domenlarni o'rganishda konseptual referent, konseptual korrelyatlarning aloqalari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, deskriptiv tahlil metodi yordamida konseptual metaforalarni tahlil qilish usullari bayon qilinadi. Metaforik iboralarning maqolada ko'rsatilgan tartib bo'yicha tahlil qilinishi metaforik tizimning referent va korrelyat kengliklari haqida hamda diskurs turiga qarab o'zaro xaritalash natijalari haqida keng tasavvur beradi.

**Kalit so'zlar:** siyosiy diskurs, referent, konseptual metafora, domen, konseptual referent, deskriptiv tahlil, korrelyativ konsept, kongruent xaritalash.

**Abstract:** The article examines discourse, political discourse, the use of conceptual metaphor in political discourse, analyzes the relationship of the conceptual referent, conceptual correlates in the study of the target area, source areas. In addition, the methods of analyzing conceptual metaphors are presented using the method of descriptive analysis. The analysis of metaphorical expressions in the order indicated in the article gives a broad idea of the referential and correlation breadth of the metaphorical system, as well as the results of cross-mapping depending on the type of discourse.

**Key words:** political discourse, referent, conceptual metaphor, domain, conceptual referent, descriptive analysis, correlative concept, congruent mapping.

**Аннотация:** В статье рассматривается дискурс, политический дискурс, использование концептуальной метафоры в политическом дискурсе, анализируются отношения концептуального референта, концептуальных коррелятов при изучении целевой области, исходных областей. Кроме того, с помощью метода дескриптивного анализа излагаются методы анализа концептуальных метафор. Анализ метафорических выражений в порядке, указанном в статье, дает широкое представление о референтной и корреляционной широте метафорической системы, а также о результатах перекрестного картирования в зависимости от типа дискурса.

**Ключевые слова:** политический дискурс, референт, концептуальная метафора, домен, концептуальный референт, дескриптивный анализ, коррелятивная концепция, конгруэнтное картирование.

**KIRISH.** Diskurs tilning maxsus ishlatilish jarayoni sifatida nutq bilan bog'langan, matnlarda qayd etilgan va ekstralingvistik omillarga bog'liq bo'lgan murakkab kommunikativ fenomendir[1]. N.D.Arutyunovanning ta'rifiga ko'ra, diskurs "hayotga singib ketgan nutq"[2]. Umuman, diskursning to'rt asosiy komponenti bor: adresant (gapiruvchi), matn, adresat va situatsiya / kontekst, bular siyosiy diskursda ham o'ziga xos aniqlanadi. Adresant / gapiruvchi sifatida konkret shaxs / siyosatchi, siyosiy partiya, xususiy yoki davlat institutlari, shu jumladan ma'lum bir ijtimoiy guruhning siyosiy pozitsiyasini aks ettiruvchi ommaviy axborot vositalari chiqadi. Adresat - xalq yoki kishilarning katta guruhi, ularning ba'zida siyosiy qarashlari o'xshash bo'lishi mumkin, lekin yanada shaxsiyroq darajada unchalik farq qilmaydi. Adresatga uzatiladigan xabar (matn) ma'lum bir bilimni shakllantirish uchun yoki umumiy mentalitetga ba'zi qiymatli stereotiplarni – baho hormonalari va e'tiqodlarni kiritish uchun yo'naltirilgan bo'ladi[3].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Siyosiy tilshunoslikda til materialini o'rganishda tanqidiy va deskriptiv tahlil ishlatiladi. Tanqidiy tahlil ijtimoiy hokimiyat jamiyatda o'z hukmronligini o'rnatishda foydalanadigan vositalarni o'rganishga; kommunikativ faoliyat yordamida aynan qanday qilib ijtimoiy tengsizlik belgilanishi va o'rnatilishini va til bilan qarshilik qilish usullarini aniqlashga qaratilgan. Bu yo'nalish vakillari faol ijtimoiy pozitsiyani egallaydi, ijtimoiy konfliktning oldini olish yo'llarini izlaydi. "Tanqidiy tahlil" atamasida "tanqidiy" aniqlovchisi til, hokimiyat va mafkura o'rtasida mutaxassis bo'lmaganlar uchun yashirin bo'lgan aloqa ta'kidlanadi [5].

Deskriptiv tahlilda esa o'z mafkuraviy bahosini (ayniqsa muallifning siyosiy e'tiqodlarini) chetlab o'tib, fenomenlarni tasvirlash va tushuntirishga harakat ustunlik qiladi. Bunda fuqarolik pozitsiyasining yo'qligi emas, tadqiqotning ilmiy obyektivligi kriteriyalari hisobga olinadi[6]. Siyosiy diskurs deskriptiv tahlilining ko'p sonli tadqiqotlari orasida metaforani o'rganishga bag'ishlangan variantlari ham talaygina. Xususan, metaforani diskursiv tushunish nazariyasida (I.Volter, I.Helmig, R.Xyulsse) metafora argumentatsiya usuli sifatida emas, ijtimoiy fenomen sifatida, kishilarning ma'lum guruhi uchun umumiy bo'lgan "ijtimoiy reallik qurilishi"ga katta ta'sir

ko'rsatadigan tushunchalarni aks ettiradigan ijtimoiy fenomen sifatida qaraladi. Bu nazariyaga ko'ra diskursning o'zi "diskurs agentlari" bo'ladigan metaforalarni vujudga keltiradi. Bunda siyosiy kommunikatsiyaning individual-kognitiv xususiyatlariga katta ahamiyat beriladi[4].

An'anaga ko'ra, metafora nominativ yoki stilistik usul sifatida tushuniladi. Bunda so'z va ifodalar o'xshashlik asosida majoziy ma'noda qo'llaniladi. An'anaviy talqin konseptual metafora Nazariyasida kengaymoqda[3], kognitiv tilshunoslikning asosiy maktablaridan biri – til va nutq hodisalarini fikrlash tizimi bilan bog'liqligini hisobga olgan holda tushuntirishga qaratilgan zamonaviy ilmiy paradigma. Konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, til va nutq fakti metaforasi ortida kognitiv mexanizm sifatidagi metafora turibdi. Bu mexanizm mavhum, perseptiv (perceptive) qabul qilinmay-digan obyektlarni konkret, perseptiv qabul qilina-digan obyektlar bilan qiyoslab olinadigan ma'lu-motlarni qayta ishlashga mo'ljallangan. Konseptual metaforada nafaqat alohida konseptlar o'zaro ta'siri, balki butun domenlar, yoki har xil aralash konseptlarni o'z ichiga olgan keng tushunchali sohalar o'rin oladi.

**MUHOKAMA.** Konseptual metafora maqsadli va birlamchi manba konseptlar yoki domenlarni o'z ichiga oladi. Metafora yordamida tushunilgan **maqsadli konsept / domen** (target concept / domain) **konseptual referentdir**. Qiyoslash uchun olingan manba konsept / domen (source concept / domain) **konseptual korrelyatdir**. Referent va korrelyat turli tushunchali maydonlarga tegishli bo'lishi kerak, ya'ni ular fikrda ajralib turgan bo'lishi kerak. Referentni korrelyat bilan taqqoslaganda o'zaro xaritalash (cross mapping) amalga oshiriladi: korrelyatning ma'lum bir xarakteristikalar referentning ma'lum bir xarakteristikalariga proyeksiyalanadi. Metaforik xaritalash inferensiyani (entailments, inferences) o'z ichiga oladi : bevosita til shaklida bo'lmagan korrelyativ domen tarkibiy qismlari undan chiqarilishi mumkin. Masalan, Argument is a journey / bahs bu yo'lda harakatlanishdir konseptual metaforasida (We'll proceed in a step-by-step fashion. We have covered a lot of ground) bahs ishtirokchilari sayohatchilarga (yo'lchilarga), bahsning o'zi esa ularning harakatlanishiga o'xshatiladi, bahsning borishi esa bosib o'tilgan yo'l. "Sayohatchilar" korrelyatsion domenining yashirin

komponenti inferensiya (xulosa qilinadi, anglab olinadi) qilinadi, bu metaforik ifodada yo‘q.

Metafora yordamida taqdim etilgan referent xususiyatlarining namunalari, yoritish / yashirish hodisasi bilan bog‘liq (highlighting / hiding): agar referent konkret korrelyat terminlari bilan tuzilsa, korrelyat referentning ba‘zi xususiyatlarini yoritadi va ayni vaqtda yashiradi, boshqa xususiyatlarini esa harakatsiz qoldiradi. Shu bilan birga referent turli xarakteristikalarini tushunish bir qancha korrelyatlarni talab qilishi mumkin. Bir referentga tegishli bir qancha korrelyatli konseptlar / domenlar **metafora diapazonini** (range of metaphor) ni tashkil etadi. O‘z navbatida korrelyat konsept / domen nafaqat bir referent konsept bilan, balki bir qanchasi bilan o‘zaro harakatda bo‘lishi mumkin. Bir korrelyatga tegishli bir qancha referent konseptlar / domenlar **metafora spektrini** (scope of metaphor) tashkil qiladi. Referent va korrelyat domenlar o‘zaro ta‘sirining natijasida bir qancha metaforik ifodalar paydo bo‘ladi (ularning soni bir necha o‘nlab va hatto yuzlab ifodalarga yetishi mumkin), ularning tahlili materialni qayta ishlashning ma‘lum usullarini talab qiladi.

**NATIJALAR.** Ushbu tadqiqotda ko‘plab til ma‘lumotlari bilan taqdim etilgan konseptual metaforalar tahlili usuli qo‘llaniladi. Bu metodika konseptual metaforalarning referent va korrelyat sohalari yanada batafsil tahlil qilishni amalga oshirishga imkon beradigan jarayonlar kompleksini hamda bu sohalar o‘zaro ta‘siri (o‘zaro xaritalash) usullarini o‘z ichiga oladi.

1. Konseptual metaforalar referent sohasini ko‘rib chiqish; tahlil qilinayotgan metaforik iboralar bilan ifodalangan umumiy referent makon – tushunchali maydonning hajmini aniqlash; referent makonning strukturlanishi, undagi domenlar (tematik qismlar) va domenlar tarkibiga kiradigan konseptlarni ajratish; referent domen tuzilishini tarmoq yoki matritsali konseptual model shaklida taqdim etish (ularni qurish prinsiplari) da bayon etlgan.

2. Konseptual metaforalarning umumiy **korrelyativ sohalari** tahlili: referent domenlarning har birini nomlaydigan metaforik iboralar korrelyatlari, korrelyat domenlarga (kengroq, umumlashgan tushunchalarga) tematik jihatdan guruhlanadi.

3. Referent va korrelyativ sohalarning **o‘zaro ta‘sir usulini** aniqlash (ularni o‘zaro xaritalash).

3.1. Korrelyativ va referent domenlar o‘rtasida aloqani o‘rnatish, ya‘ni konseptual

metafora formula sxemasini (umumiy formulasini) yaratish. Bunda korrelyativ sohaning referent sohaga xaritalash kongruentligi faktorini hisobga olish kerak. Kongruent xaritalash J.Lakoff tomonidan kiritilgan “struktur metafora hodisasi” tushunchasi bilan to‘g‘ri keladi (event structure metaphor) [3]. Struktur metaforada bir konsept / domen boshqasining terminlarida metaforik strukturlanadi. Struktur metafora hodisasi bir qancha o‘zaro bog‘langan konstitutiv metafora va inferensiyalarni o‘z ichiga oladi, ular aynan bitta hodisani tushunish uchun ishlatiladi. “Life is journey” (“Hayot yo‘lda harakatlanish”) umumiy metaforasi aniqroq metaforalardan tashkil topgan <Joylar bu holatlardir / States are locations> (He’s at a crossroad in his life), <O‘zgarishlar harakatlanishdir / Change is motion (He went from his forties to his fifties without a hint of a mid-life crisis), <Sabablar kuchlardir / Causes are forces> (He got a head start in his life), <Maqsadlar manzillardir / Purposes are destinations> (I can’t even seem to get where I want to be in life) va hokazo.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, yuqorida bayon qilingan konseptual metaforalar kompleks metodikasi bo‘yicha siyosiy arboblarning nutqlaridagi konseptual metaforalarni kognitiv tahlil qilish mumkin.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bayley P. Live oratory in the television age: The language of formal speeches. Cooperativa Libraria Universitaria Editrice Bologna, 1985. 77–174.
2. Dijk van T.A. Making news: a study in the construction of reality. – New York: Free Press, 1998.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. Chicago: University of Chicago Press. 1999.
4. Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь – Москва: 1990. – С. 136–137.
5. Будаев Э.В., Чудинов А.П. Зарубежная политическая лингвистика. – М.: ФЛИНТА, 2018. – 352 с.
6. Демьянков В.З. Политический дискурс как предмет политологической филологии / В.З.Демьянков // Политическая наука. Политический дискурс: История и современные исследования. ИНИОН РАН. – М, 2002. – № 3. – С. 32–43.

## TILSHUNOSLIKDA LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIK TUSHUNCHALARINING ROLI

Ahmedova Halima, Termiz davlat universiteti “Fakultetlararo  
chet tillari” kafedrasida katta o‘qituvchisi

## THE ROLE OF LEXICAL AND PHRASEOLOGICAL UNIT CONCEPTS IN LINGUISTICS

Ahmedova Halima, Senior Lecturer, Department of Interfaculty  
Foreign Languages, Termez State University

## РОЛЬ ЛЕКСИЧЕСКИХ И ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ КОНЦЕПТОВ В ЛИНГВИСТИКЕ

Ахмедова Халима, старший преподаватель кафедры  
межфакультетских иностранных языков Термезского  
государственного университета



<https://orcid.org/0009-0007-4428-8981>

e-mail:

[ahmedova@gmail.com](mailto:ahmedova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada leksik va frazeologik birlik tushunchalari, ularning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, ushbu tushunchalarning tilshunoslik tizimidagi o‘rni va o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** leksik birlik tushunchasi, frazeologiya, tilshunoslik, termin, terminologiya, lingvistika.

**Abstract:** This article presents opinions on the concepts of lexical and phraseological units, their essence, goals and objectives. It also analyzes the place of these concepts in the system of linguistics and their specific aspects.

**Key words:** concept of lexical combination, phraseology, linguistics, term, terminology, linguistics.

**Аннотация.** В данной статье представлены мнения о понятиях лексических и фразеологических единиц, их сущности, целях и задачах. Также анализируется место этих понятий в системе языкознания и их специфические аспекты.

**Ключевые слова:** понятие лексического сочетания, фразеология, языкознание, термин, терминология, языкознание.

**KIRISH.** Bugungi kunga kelib tilshunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar son va sifat jihatidan o‘sib bormoqda. Bu tadqiqotlar doirasida tildagi leksik birliklar, uning tilshunoslik sohasidagi ahamiyati, frazeologik birliklar bilan o‘zaro munosabatlari masalasiga alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Nutqning asosiy qurilish materiali bo‘lgan lug‘at uning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil qiladi, shuning uchun tilning lug‘atini o‘zlashtirish barcha nutq qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy shartidir. Lug‘at leksik

birliklardan iborat. Leksik birlik – bu har qanday narsa, hodisalar, ularning xususiyatlarini anglatishi mumkin bo‘lgan so‘z, so‘z birikmasi yoki boshqa til birligi hisoblanadi. Leksik birliklar – bu tilshunoslik tizimidagi asosiy elementlar bo‘lib, ular ma’lum bir ma’no va funksiyani ifodalaydi. Leksik birliklar tilning boyligini va ifoda imkoniyatlarini oshiradi. Ularni to‘g‘ri ishlatish esa muloqot samaradorligini ta’minlaydi[1].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA  
METODLAR.** V.I.Shaxovskiy ta’biri bilan

aytganda, leksik birlik – til lug‘atining asosiy elementlarini tashkil etuvchi so‘z, so‘zning bir qismi yoki so‘zlar zanjiridir[4].

Tilning frazeologik tarkibi V.V.Vinogradovning mashhur tasnifiga ko‘ra idiomatik iboralar va frazeologik birliklarni o‘z ichiga oladi. Bunday iboralar turg‘un birikmalarning boshqa turlaridan bir qator belgilari bilan farqlanadi: birinchidan, ular so‘zlardan emas, balki birikmalardan tashkil topgan. Ikkinchidan, ular butun frazeologik birlikka xos bo‘lgan yaxlit ma‘noga ega bo‘lib, uni tashkil etuvchi komponentlarning alohida ma‘nolariga ajralmaydi, bu esa idiomalarni so‘zlarning o‘zgaruvchan birikmalaridan ajratib turadi. Uchinchidan, gap tarkibidagi idiomatik birikmalar yaxlit birlik sifatida doimo ma‘lum sintaktik o‘rinlarni egallab, grammatik jihatdan ajratilmaydigan birikmalar sifatida so‘zlar bilan munosabat va aloqaga kirishadi [3].

**MUHOKAMA.** Leksik birliklar tilshunoslik tizimida uchta asosiy vazifani bajaradi: nominativ, aniqlovchi va kommunikativ. Nominativ funksiya moddiy olamning obyektlari va hodisalarini nomlashdir. Aniqlovchi vazifasi haqida gapiradigan bo‘lsak, u leksik birliklarning mantiqiy belgilash vositasi bo‘lishiga imkon beradi. Kommunikativ funksiya leksik birliklarga aloqa vositasi sifatida qaraydi. Shu bilan bir qatorda, leksik birliklarning yana quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Ma‘no ifodalash. Leksik birliklar ma‘lum bir ma‘noni ifodalaydi va fikrlarni aniq bayon qilish imkonini beradi;

2. Muloqot o‘rnatish. Leksik birliklar yordamida odamlar o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini va g‘oyalarini bir-birlariga yetkazadilar. Ular muloqotni samarali va tushunarli qiladi.

3. Grammatik funksiya. Leksik birliklar grammatik tuzilmalarda muhim rol o‘ynaydi. Ular fe‘l, ot, sifat kabi so‘z turkumlarini tashkil etadi va jumla tuzishda ishtirok etadi.

4. Stilistik funksiya. Leksik birliklar tilning stilistik jihatlarini belgilaydi. Turli xil leksik birliklar yordamida muayyan uslubni yaratish mumkin (masalan, rasmiy, norasmiy, adabiy).

5. Kontekstual ma‘no. Leksik birliklarning ma‘nosi kontekstga bog‘liq. Ular turli vaziyatlarda turlicha ma‘nolarni anglatishi mumkin, bu esa muloqotni yanada boyitadi.

6. Madaniyatni aks ettirish. Leksik birliklar orqali xalqning urf-odatlarini, an‘analari va madaniyati ifodalanadi. Masalan, maxsus terminlar yoki idiomalar o‘sha xalqning hayot tarzini aks ettiradi.

7. O‘qitish va o‘rganish. Leksik birliklar til o‘rganishda muhim ahamiyatga ega, chunki ularni bilish va to‘g‘ri ishlatish til ko‘nikmalarini rivojlantiradi [6].

Zamonaviy tilshunoslikda leksik birlik bilan bir qatorda frazeologik birlikning tilshunoslik tizimidagi maxsus birlik sifatidagi kvalifikatsiyasi shubha ostiga olinmaydi. Frazeologik birlik qoida tariqasida yaxlit ma‘noga ega bo‘lgan leksemalarning nisbatan turg‘un, takrorlanuvchi, ifodali birikmasi hisoblanadi.

Aniqlanishicha, frazeologik birlik tildagi maxsus birlik va funksional maqsad sifatida uning sifat jihatidan o‘ziga xosligini belgilovchi o‘ziga xos shakl va mazmun belgilariga ega. Ushbu belgilarning har biri alohida-alohida va boshqalar bilan birgalikda nafaqat frazeologik birlikni boshqa til birliklaridan ajratishga, balki uning shakl va mazmun jihatidan boshqa leksik birliklar bilan, birinchi navbatda, til birliklari bilan bog‘liqlik darajasini aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga, frazeologik birlikning tildagi o‘rni va uning boshqa til birliklari bilan shakl va mazmun munosabatining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi masala, birinchi navbatda, bizning fikrimizcha, bu boradagi mulohazalar bilan bog‘liq holda o‘z yechimini topmagan. Bu bilan til frazeologiyasiga taalluqli ayrim hodisalarni izohlash va baholashda turli xil nomuvofiqliklar va qarama-qarshiliklar kelib chiqadi[5].

Idiomatik iboralar o‘z xossalari va nutqda qo‘llanilishi jihatidan so‘zlar bilan yaqin munosabatga kirishadi: so‘zlar kabi ular ham leksik va grammatik ma‘noga ega. Leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra, ular ma‘lum leksik-grammatik kategoriyalarga taqsimlanadi. So‘zlar bilan bir xil xususiyatlardan foydalanib, ularni qo‘llanish sohasi, stilistik va emotsional-ekspressiv bo‘yoqlari bilan tavsiflash mumkin. So‘zlar va idiomalar o‘rtasidagi bunday bog‘liqlik ularning to‘liq o‘xshashligini anglatmaydi: so‘zlar va frazeologik birliklarni taqqoslash jarayoni parametrlarning har biri uchun ularning sezilarli farqlarini ko‘rsatadi, bu ushbu til birliklarining har birining kategorik o‘ziga xosligi bilan bog‘liq [2].

**NATIJALAR.** Tildagi soʻzlar va idiomalar inson tomonidan atrofda voqelikni bilish jarayonida shakllanadigan tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Tilning lugʻat tarkibi tilning konseptual tarmogʻini maʼlum bir semantik tizim sifatida aks ettiradi, uning maʼlum qismlari leksik va frazeologik birliklarni ifodalaydi, ular voqelikni turkumlashda turli xil nominatsiyalarga ega. Leksik nominatsiya uchun asosiy narsa inson ongi tomonidan maʼlum bir sinfning barcha obyektlariga xos boʻlgan umumiy va eng muhim xususiyatlar asosida aniqlangan bir xil obyektlar, jarayonlar, hodisalar va boshqalar sinfini belgilashdir.

Shunday qilib, leksik birliklar, birinchi navbatda, voqelikni turkumlash jarayonida insonlar jamoasi tomonidan oʻrnatilgan atrofda olam elementlarini, ularning bir-biri bilan aloqalari va munosabatlarini tilda aks ettirish uchun ishlatiladi[3].

Leksik birlikdan farqli oʻlaroq, frazeologik birlik tilda obyektlar sinfini (keng maʼnoda) belgilash uchun emas, balki bir sinf ichidagi alohida obyektlarni boshqa obyektlaridan farq qiladigan biron bir xususiyatga koʻra farqlash uchun ishlatiladi. Tilning lugʻat tarkibidagi leksika va frazeologiya oʻrtasidagi munosabat masalasi tildagi leksik va frazeologik birliklar oʻrtasidagi munosabatning umumiy tavsifi uchun eng muhim masalalardan biridir. Ushbu muammoni muhokama qilish jarayonida izchillik bilan turli yechimlar taklif qilindi. Bir qator xususiyatlarga koʻra leksik va frazeologik birlik oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik gʻoyasi ifodalangan. Frazeologiya maxsus tilshunoslik fani sifatida shakllanishidan oldin leksik va frazeologik birlik oʻrtasidagi ekvivalentlik nazariyasi shakllandi[4].

Frazeologik birlikning soʻz va iboralardan keskin farq qiluvchi tilning maxsus birligi sifatida eʼtirof etilishi hamda frazeologiyaning oʻziga xos tadqiqot obyekti va predmetiga ega boʻlgan maxsus fan sifatida belgilanishi bilan frazeologiyani oʻrganish, tilning oʻziga xos xususiyatlariga eʼtibor qaratila boshlandi. Frazeologik birlikning oʻziga xos xususiyatlari, pirovardida tilning alohida birligi sifatida uning kategorik oʻziga xosligini belgilaydigan xususiyatlarga ega ekanligini aniqlashga imkon berdi.

Bu esa tilning lugʻat tarkibidagi maxsus tizim sifatida lugʻat va frazeologiyaning alohida va maʼlum darajada yakka holda oʻrganilishiga olib

keldi. Shu bilan birga, bu yoʻnalishdagi izlanishlar frazeologiya haqidagi ilmiy gʻoyalarning kengayishiga, frazeologik birlikning tilning maxsus birligi sifatidagi mohiyati haqidagi bilimlarning chuqurlashishiga hissa qoʻshdi. Bu, oʻz navbatida, tilning lugʻat tarkibi va frazeologiyasini har bir lisoniy birlik oʻz oʻrniga ega boʻlgan, boshqa birliklar bilan maʼlum munosabatda boʻlgan va ular bilan maʼlum aloqalarga kirishadigan yagona leksik-frazeologik tizim sifatida baholanishiga olib keldi. Ammo bu yerda shuni aytish kerakki, leksik va frazeologik birliklarni bunday oʻrganish mohiyatan endigina boshlanmoqda[6].

**XULOSA.** Xulosa sifatida aytish mumkinki, tildagi leksik va frazeologik birliklar oʻrtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Leksik va frazeologik tizimlar tilda parallel ravishda birga yashaydi, oʻzaro bir-biriga taʼsir qiladi, bir-birini toʻldiradi. Har bir leksik birlikning shakl va mazmunining oʻziga xosligi uning tildagi funksional maqsadini va nutqda qoʻllanish doirasini belgilaydi. Soʻz bilan yetarlicha ifodalab boʻlmaydigan tushuncha mazmuni frazeologik birlik orqali ifodalanadi, aksincha, frazeologik birlik bilan ifodalab boʻlmaydigan narsa soʻz bilan ifodalanadi.

#### **ADABIYOTLAR ROYXATI:**

1. Hasanboyeva O.I. Til oʻrgatish metodikasida leksik birliklarning oʻrni. Экономика и социум. 2022. – С. 226-229.
2. Mamatov A.E. Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent: 1992. – B. 182.
3. Авербух К.Я. Терминологическая вариантность // Вопросы языкознания. – 1986. № 6. – С. 38-50.
4. Володина Н.М. Термин как элемент системы языкового выражения специальных понятий // Научно-техническая терминология. – М., 2001. № 2. – С. 27-29.
5. Герд А.С. Формирование терминологической структуры русского биологического текста. – Л.: Наука, 1981. – 112 с.
6. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах: учебное пособие для филолог. спец. вузов. – М.: Высш. шк., 1987. – 104 с.
7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – B. 175.

## ИЗУЧЕНИЯ ЭТНОГРАФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Хасанова Камила Бахтиёровна, преподаватель кафедры  
английского языка и литературы Термезского  
государственного университета

## STUDYING ETHNOGRAPHIC VOCABULARY IN THE UZBEK LANGUAGE

Xasanova Kamila Baxtiyorovna, Teacher of Termez state  
university

## O'ZBEK TILIDA ETNOGRAFIK LEKSIKANI O'RGANISH

Xasanova Kamila Baxtiyorovna, Termiz davlat universiteti  
o'qituvchisi



<https://orcid.org/0009-0007-9439-9882>

e-mail:

khasanovakamila0808@gmail.com

**Аннотация:** На сегодняшний день в лингвистике и языкознании уделяется особое внимание на изучение лексики имеющих национальную окраску. В данной статье мы рассмотрели употребление и изучение этнографической лексики в узбекском языке, приведены примеры научных работ различных лингвистов, также показаны отличительные черты с точки зрения изучения данной науки.

**Ключевые слова:** лексика, лингвистика, аспект, направление, этимология, обряды, этнографизмы, традиции, культура.

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda tilshunoslikda milliy ohang bilan uyg'unlashgan leksikani o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu maqolada biz o'zbek tilidagi etnografik leksika qo'llanish va o'rganilish tarixini ko'rib chiqdik, turli tilshunos olimlarning ilmiy ishlaridan misollar keltirilib, ushbu fanni o'rganish nuqtayi nazaridan o'ziga xos xususiyatlar ko'rsatildi.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, aspekt, yo'nalish, etimologiya, marosimlar, etnografizmlar, an'analar, madaniyat.

**Abstract:** Today in linguistics is gave a special attention to the study of vocabulary with national colours. In this article, we examined the use and study of ethnographic vocabulary in the Uzbek language, examples of scientific works of various linguists, and their distinctive features.

**Key words:** vocabulary, linguistics, aspect, direction, etymology, rituals, ethnographisms, traditions, culture.

**ВВЕДЕНИЕ.** Самым изменчивым языковым уровнем, постоянно находящимся под воздействием трансформационных процессов, считается лексический состав языка. Широко известно что в лингвистике такое направление как этнолингвистика, развивалась в конце XIX – начале XX века. Предметом этнолингвистики является исследование культуры. Термин «этнолингвистика» обычно применяется вместе с терминами этнография и этнология. В широком своем значении эти термины включают всю сферу взаимодействия между языком, культурой и этносом.

Этнографическая лексика – это специальные своеобразные слова, выражают признаки национальной культуры определенного народа, считаются иноязычными словами для других языков. Актуальность изучения данной сферы обусловлена тем, что последние годы характеризуются повышенным интересом к исследованию национальных элементов, в том числе и имеющих региональные и культурные особенности.

#### **ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД.**

Употребление этнографической лексики в узбекской лингвистике достаточно широко. В данной области одним из первых проводивших исследования лингвистов можно считать Н.Мирзаева. В его работе «Этнографическая лексика узбекского языка (на основе материалов узбекских говоров Кашкадарьинского вилоята)» он выделяет этнографическую лексику встречающихся наиболее часто в Кашкадарьинском регионе и их особенности и отличительные черты от других лексических единиц[7].

Ю.Бабажанов в своей работе сосредоточил внимание на обрядах и обычаях, которые связаны с жизнью человека с первого до последнего его дня. Автор анализирует семантический аспект этнографической лексики, который представлен следующими тематическими рядами: 1) обряды, связанные с рождением, первыми сорока днями жизни; 2) свадьбой и 3) похоронами. Например: 1) чилла, сувга тушириш, бавак; 2) бешик туйи – «колыбельная свадьба»; 3) етиси, учи, кирки, жаноза. В данном труде рассматривается также этнографизмы, являющимися названиями

национальных блюд (хей-хей, чанчак); танцев и игр (женак, пачиз, норим-норим), с профессиями (кур битди, уста чакирик, жой кумак, тараша, гул тараш, уста, капча). Ю.Бабажанов выявляет следующие пласты этнографической лексики в плане истории и этимологии: 1) общетюркский; 2) арабский; 3) персидско-таджикский. Например: 1) кайнатма, сузма, тўйлик; 2) садр, майит, суннат, искоти, мозор; 3) сартахта, капгир, дастурхон, пойгир [3].

Большие заслуги в деле сбора и изучения материальной культуры узбекского народа принадлежит М.Кахоровой и ее работе «Системное исследование узбекских этнографизмов»[6].

#### **ОБСУЖДЕНИЕ.**

Интересные исследования в области лингвокультурного анализа этнографизмов каракалпакстанских казахов принадлежат Г.А.Адыловой. В ряде своих работ указанный автор дает исчерпывающие сведения о этнографизмах, деля их в основном на четыре тематические группы по смыслу и употреблению: 1) этнографизмы, связанные с появлением малыша на свет и его воспитанием; 2) этнографизмы, появившиеся в связи с брачными обрядами; 3) этнографизмы, связанные с похоронными обрядами; 4) этнографизмы, связанные с обычаями питания. По структуре автор делит этнографизмы на простые и сложные. Она констатирует тот факт, что большинство этнографизмов в литературном языке не имеют перевода и эквивалента, поэтому их можно использовать в литературном языке. Значит, этнографическая лексика выполняет функцию нескончаемого основного источника в развитии литературного языка [2].

**РЕЗУЛЬТАТЫ.** В работе Р.Р.Касимовой «Этнографизмы в английском переводе текстов фольклора узбекских свадебных и траурных обрядов» аргументированы лингвистические, семантические и стилистические особенности, свойственные толкованию, переводу и описанию этнографизмов в английских переводах узбекского свадебного и траурного обрядового фольклора. Также представлена классификация таких разновидностей этнографизмов, относящихся к узбекским свадебным и траурным обрядам, как народные игры, названия обрядов, национальные ткани, формы обращения к



родственникам и выявлено, этнографизмы, обозначающие названия национальных блюд и одежды, атрибутов разных обрядов, которые выражаются в английском языке посредством изобразительного, трансформационного, калькированного и эквивалентных методов [5]. Н.Р.Амантурдиев в своей работе «Лексикографические особенности этнографии Сурхандарьи» большое внимание уделил изучению этнографической лексики Сурхандарьинского региона, его диалектным особенностям. Также автор сделал сравнительный анализ этнографизмов в толковом словаре узбекского языка 1987 года и пятитомном толковом словаре (2006-2008 гг.), которые были проанализированы в сравнительном, этимологическом, статистическом, семантико-структурном плане[1]. Данный анализ считается своевременным, так как всесторонне раскрывает данную тему и способствует улучшению освещения этнографизмов в толковых словарях узбекского языка.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** Данные исследования нам позволяют утверждать, что именно, узбекские лингвисты открыли новые перспективы для дальнейшего углубления изучения этнографической лексики. Можно отметить что, этнографическая лексика является продуктом нескольких столетий. Исходя из этого многие этнографизмы являются общими для тюркских, арабских и персидских народов обогащающий и показывающий словарный запас и национальные традиции каждого народа.

#### **ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:**

1. Амантурдиев Н.Р. Сурхандарь этнографизмларининг хусусиятлари: Автореф. дисс... док. философии по филол. наук. – Гулистон, 2021. – 48 с.
2. Bobojonov Y. Janubiy Xorazm etnografik leksikasi. Filol.fan. nom...diss. avtoreferati - Toshkent, 1997. – B.27.
3. Kaxarova M.M. O‘zbek etnografizmlarining sistemaviy tadqiqi. Filol.fan.nomz.diss. – Toshkent, 2009. – C.44.
4. Khasanova, K.B., & Safarova, D.A. (2022). Teaching vocabulary: Methods and approaches. *Global Scientific Review*, 3, 15-16.
5. Mirzayev N. O‘zbek tilining etnografik leksikasi. Filol.fan.nom.diss. – Toshkent, 1971. – B.127.
6. Xasanova, K. (2021). Madaniyat va til bog‘liqligi. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(3).
7. Адылова Г.А. Лингвокультурологический анализ этнографизмов каракалпакстанских казахов. Автореф. дисс...док. философии по филол. наук – Нукус, 2018. – 52 с.
8. Джурабаев А. Ономаσιологическое исследование названий свадебных обрядов в узбекском языке (на основе материалов андижанских говоров: Автореф. дисс....канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – С.74.
9. Касимова Р.Р. Этнографизмы в английском переводе текстов фольклора узбекских свадебных и траурных обрядов Автореф. дисс. ... док. философии по филол. наук. – Ташкент, 2018. – С.49.
10. Касимова Р.Р. Этнографизмы в английском переводе текстов фольклора узбекских свадебных и траурных обрядов Автореф. дисс. ... док. философии по филол. наук. – Ташкент, 2018. – С.49.
11. Хасанова К. (2020). Понятие экзотизм, этнографизм и варваризмы. *Danish Scientific Journal*, (36-3), 30-31.



Qabul qilindi: 16.09.2024

Chop etildi: 30.10.2024

**SAIF ZAFARI BUXORIYNING «DURRUL MAJOLIS» ASARIDA SHAYXLAR TALQINI****Amonova Zilola Qodirovna**

Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d.

**Boqiyev Azizbek Abdullajon o'g'li,**

Buxoro davlat universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi magistranti, Mir Arab oliy madrasasi hamda Jo'ybori kalon ayol-qizlar o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi mudarrisi

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ШЕЙХОВ В «ДУРРУЛ МАДЖОЛИС» САИФА ЗАФАРИ БУХАРИ****Амонова Зилола Кадыровна,**

профессор Бухарского государственного университета, д.ф.н.

**Бокиев Азизбек,**

магистрант кафедры текстологии и литературного источниковедения Бухарского государственного университета, Руководитель высшего медресе Мир Араб и среднего специального исламского образовательного учреждения для женщин и девочек Джойбори Калон

**THE INTERPRETATION OF THE SHAIKHS IN «DURRUL MAJOLIS» BY SAIF ZAFARI BUKHARY****Amonova Zilola Qodirovna**

Bukhara State University, associate professor of the Uzbek language and literature department, doctor of philology

**Boqiyev Azizbek Abdullajon ugli**

Bukhara State University Master's student of Textology and Literary Source Studies, Head of Mir Arab Higher Madrasa and Joybori Kalon Secondary Special Islamic Educational Institution for Women and Girls

**Annotatsiya:** Maqolada Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat kutubxonasida 726-inventar raqam ostida saqlanayotgan «Durrul majolis» asarida keltirilgan shayxlar bilan bog'liq hikoyatlar g'oyaviy-badiiy tahlilga tortilgan. Mazkur asar Qissasi anbiyo xarakteridagi asarlar sirasiga mansub sanaladi. Ammo ayni xarakterdagi asarlardan farqli o'laroq, mazkur kitobda ayrim sahoba va valiyullohlar bilan bog'liq qissalar ham keltirilgan. Maqolada Sulton Boyazid Bistomiy, Sulton Ibrohim Adham bilan bog'liq hikoyatlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Saif Zafari Buxoriy, «Durrul majolis», toshbosma, Qissasi anbiyo, shayx, tahlil, talqin, Sulton Boyazid Bistomiy, Ibrohim Adham.

**Аннотация:** В статье идейно-художественному анализу подвергаются истории, связанные с шейхами, представленные в произведении «Дуррул Маджолис», хранящемся в Бухарской областной библиотеке имени Абу Али ибн Сины под инвентарным номером 726. В статье анализируются истории, связанные с султаном Баязидом Бистоми, султаном Ибрагимом Адхамом.

**Ключевые слова:** Саиф Зафари Бухари, «Дуррул Маджолис», литография, Киссаси анбиё, шейх, анализ, интерпретация, Султан Баязид Бистоми, Ибрагим Адхам.



E-mail:

[zilolajonamonova@gmail.com](mailto:zilolajonamonova@gmail.com)

m

Tel: +99891 410 63 92.

Orcid: 0000-0001-7710-3065



E-mail:

[mullomuxtasar7@gmail.com](mailto:mullomuxtasar7@gmail.com)

Orcid: 0009-0002-7919-8437

**Annotation:** In the article, the stories related to the sheikhs presented in the work «Durrul Majolis» stored in the Bukhara Regional Library named after Abu Ali Ibn Sina under inventory number 726, are subjected to an ideological and artistic analysis. This work was published in 1910 at the Gholomi printing house in Tashkent. However, unlike the works of the same nature, this book also contains stories related to some Companions and saints. The article analyzes stories related to Sultan Bayazid Bistomi, Sultan Ibrahim Adham.

**Key words:** Saif Zafari Bukhari, «Durrul Majolis», lithograph, Qissasi anbiyo, shaykh, analysis, interpretation, Sultan Bayazid Bistomi, Ibrahim Adham.

## **KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).**

Mustaqillik sharofati bilan, barcha sohalarda bo‘lgani kabi mumtoz adabiyotni o‘rganishda ham ijobiy o‘zgarishlar yuzaga keldi. Ayniqsa, mumtoz asarlarni falsafiy sarchashmasi bo‘lmish Qur‘oni Karim, Hadisi Sharif va tasavvuf ta‘limoti bilan bog‘liqlikda o‘rganishga alohida ahamiyat qaratildi. Shuningdek, islom dini va Qur‘oni Karim bilan bog‘liq mavzuda yaratilgan asarlarni tahlil va talqin qilish, mumtoz kitoblarni sharhlab o‘qitish davr talabi sifatida birinchi planga chiqarildi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).**

Ma‘lumki, Sharq musulmon adabiyotida payg‘ambarlar tarixiga oid bir qancha asarlar yaratilgan. Jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida ham ko‘plab ayni xarakterdagi kitoblar mavjud. Bu yo‘nalishda “Qissayi Rabg‘uziy”, “Durrul majolis” kabilarni alohida ta‘kidlash lozim. Ushbu asarlarda Qur‘oni Karimda nomlari zikr etilgan payg‘ambarlar hayotiga oid voqealar badiiy talqin etilgan. Masalan, “Qissayi Rabg‘uziy” 72 katta-yu kichik voqealar tizmasidan iborat bo‘lib, xalq orasida “Qissayi anbiyo” nomi bilan yuritilgan. Payg‘ambarlar tarixiga oid asarlar yaratish arab bo‘lmagan xalqlarda arab tilida nozil qilingan Qur‘oni Karim kitobini o‘rganish va uning mohiyatini to‘liq anglashga katta yordam bergan. Shuning uchun ayni xarakterdagi asarlar yaratilgan. Misol tariqasida Saif Zafari Buxoriyning «Durrul majolis» asarini aytish mumkin. Mazkur asar Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat kutubxonasida 726-inventar raqam ostida saqlanadi. Bu noyob manba 1910-yil Toshkentdagi G‘ulomiy matbaasida bosmadan chiqarilgan bo‘lib, 240 sahifadan iborat. Kitob Toshkentda chop etilgan bo‘lsa-da, Buxoro qo‘lyozmalari fondida saqlanayotgani uchun shartli ravishda “Buxoro toshbosmasi” nomi bilan o‘rganil-moqda. Toshbosma betlari sahifaning yuqori qismi-da arab raqamlari bilan ko‘rsatilgan. Asar 33 bobdan iborat bo‘lib, Muhammad (s.a.v), Odam (a.s), Ibrohim (a.s), Muso

(a.s), Ismoil (a.s), Ayyub (a.s), Sulaymon ( a.s), Shuayb (a.s), Yusuf (a.s), Yunus (a.s), Iso (a.s), Lut (a.s),Yaqub (a.s) kabi 13 payg‘ambar hayoti bilan bog‘liq turli hajmdagi hikoyat keltirilgan. «Durrul majolis» Qissasi anbiyo xarakteridagi asarlar sirasiga mansub bo‘lsa-da, ulardan farqli o‘laroq, mazkur kitobda ayrim sahoba va valiyullohlar bilan bog‘liq qissalar ham keltirilgan. Asarda shayxlar talqini ikki xil usulda berilgan:


1) Aynan bir shayx faoliyatiga bag‘ishlangan to‘liq qissa;

2) Payg‘ambarlar bilan bog‘liq qissalar orasida shayxlar haqida kichik hikoyalarning berilishi.

Asarda aynan bir shayx faoliyatiga bag‘ishlangan to‘liq qissalar soni yettita bo‘lib, ular quyidagilar: 1. Ibrohim Adham; 2. Hasan Basriy; 3. Abdulloh ibn Muborak; 4. Xo‘ja Robi’ Hisomiddin; 5. Xo‘ja Sufyon Savriy; 6. Xo‘ja Hasan Nuri; 7. Shayx Barsiso.

## **MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)**

Muallif asarda hikoya ichida hikoya usulidan ham unumli foydalangan. Masalan, Odam (a.s) haqidagi hajman yirik qissa orasida bir qancha kichik hajmli hikoyatlarni keltirgan. Asardagi birinchi keltirilgan bu qissa “Hazrati Odam alayhissalomning jasadi muboraklarini yaratmog‘ini bayonidadur”, deb nomlanadi. Mazkur qissa hajm jihatdan ancha salmoqli bo‘lib, 11 sahifani tashkil etadi. Qissa Odam (a.s) haqida bo‘lsa-da, unda Sulaymon, Ibrohim, Yunus (a.s) payg‘ambarlar va Sulton Boyazid Bistomiy haqidagi hikoyat ham kiritilgan. Muallif mazkur qissada shayx Boyazid Bistomiyning Alloh dargohidagi eng maqbul jihat nima ekanligini anglamoqlari bilan bog‘liq hikoyatni keltiriladi:



**Joriy yozuvdagi tabdili:** Va yana bir soʻzdirki, Sulton Boyazid Bistomiy quddasallohu sirrohu Haq subhanahu va taologʻa munojot qilib aydilarki: “Ey bor Xudoyo Xudovando sani dargohingga qaysi nimarsa loyiqdurki, amr qilsang men ani qilsam bajo va dil deb”. Bas Alloh taolodin farmon boʻldi-ki, uch nimarsa meni haridimda yoʻqdur, agar sanda boʻlsa kelturgin toki man xaridor boʻlay”, dedi. Sulton Boyazid Bistomiy soʻradilarki “Xudoyo Xudovando u uch narsa nimarsa nimadur?” deb. Bas Alloh taolodin nido keldiki, ul uch nimarsani biri dilshikastalikdur, ikkinchisi shuldurki tilidin har taqsirot oʻtsa tavba qilmoqlikdur, uchinchisi shuldurki oʻzini zaif va bechorahol bilmoqdur”. Hikoyaga eʼtibor qaratsak, tariqat maqomlari bilan bogʻliq masalalar qalamga olingan. Boyazid Bistomiy Allohdan uning dargohidagi eng loyiq, maqbul amal nima ekanligini soʻraganda, avvali, dilshikastalik, degan javobni oladi. Chunki oʻzni kamchiliklar va gunohlari tufayli dilshikasta tutmoqlik eng maqbul jihatlardan sanaladi. Bu borada mashoyixlar: “Kulib turgan odamdan nega kulyapsan? deb soʻrashmaydi, ammo yigʻlab turgan kishidan nega yigʻlayotganligi soʻraladi”. Shunday ekan, dilshikastalar ham Alloh dargohida eʼtiborsiz qolmas. Masalaga ana shu nuqtayi nazardan yondashsak, Alloh dargohidagi eng loyiq narsalarning avvali dilshikastalik ekanligining sababi ayonlashadi. Alloh dargonidagi ikkinchi loyiq narsa bu tildan bir qusur oʻtsa tavba qilmoqlikdir. Zero, tariqat maqomlarining avvali ham tavbadir. Qolaversa, tavbaga “bob ul-avbob”, yaʼni eshiklarning eshigi sifatida qaraladi. Chunki Alloh vasliga kirish eshigi tariqat boʻlsa, tariqatning eshigi esa tavbadir. Zero, islom va tasavvuf amallari tavba bilan boshlanadi. Tavbaning haqiqati shuki, solik Xudoga yetishish yoʻlida gʻov boʻladigan jamiki narsalardan yuz oʻgirishga qasamyod etadi, butun intilishi, tavajjuhini Allohga qaratadi, avvalgi hayot tarzidan butunlay voz kechadi” [4,27]. Shu bois ham hikoyatda Alloh dargohidagi maqbul jihatlardan biri sifatida tavba keltirilgan. Hikoyatda Alloh dargohidagi eng maqbullarning uchinchi sifatida oʻzini zaif va bechorahol bilmoqdur, deya qayd etiladi. Darhaqiqat, ulugʻ va qudratli Alloh oldida banda, tabiiyki, zaif va becharaholdir. Zero, Haq taoloning marhamati va muhabbati ila insonlar xalq qilindi. Shunday ekan, solih bandalar oʻzlarini Alloh qudrati oldida oʻta zaif va bechorahol ekanliklarini his etib, toʻlaqonli anglaydilar. Ishq sultoni Majnun ham oʻzini

hazinu nochor, ishq oʻti qarshisida xasdan ham past koʻradi [4,202]. Yana Muso (a.s) bilan bogʻliq bir hikoyatda ham ayni masalaga urgʻu beriladi: “Allohdan vahiy keldiki, “Ey Muso, degil: ul inson haqiqatan ham Bani Isroilning eng yaxshisidir, eng koʻp toat qilganligi uchun emas, balki oʻzini hammadan past hisoblagani uchun shundaydir” [4, 297].

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Aynan bir shayx faoliyatiga bagʻishlangan toʻliq qissalar tahlili borasida Sulton Ibrohim Adham bilan bogʻliq hikoyat oʻn sakkizinchi bobda “Sulton Ibrohim Adham hikoyatlari bayonidadur” sarlavhasi ostida berilgan. Muallif mazkur hikoyatni Ibrohim Adhamning podshohlik amalini tark etib, darveshlik yoʻlini ixtiyor qilganligi bilan bogʻliq voqealar bilan boshlaydi: “Aytibdurlarki, Ibrohim Adham rohmatallohi alayh podshohlikni tark qilib eski liboslarini egnilarigʻa kiyib Xudoyi taoloni yodigʻa mashgʻul boʻlib taxt-u baxtlaridin kechib bir kechada hu deb biyobon tarafgʻa chiqib kettilar”. Ibrohim Adham oxirat va eʼtiqod yoʻlidagi qatʼiyati uchun oʻz saltanatidan voz kechganligi koʻpgina tasavvuf manbalarida alohida qayd etilgan. Jumladan, uning nomini bir qancha tazkiralarda ham koʻrish mumkin. Masalan, Farididdin Attorning “Tazkirat ul avliyo”sida ayni mulohazalar qayd etilgan: “Ibrohim dunyoni tark etib, shol kiyib, Allohga yuz tutdi, dunyo toʻnini chiqarib, oxirat toʻnini kiydi” [3,112]. Shuningdek, Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” tazkirasida ham ushbu masalaga urgʻu berilgan: “...mulk tarkin qilib, bu toifa tariqin ixtiyor qildi” [2, 32]. “Durrul majolis”da Ibrohim Adhamning saltanat tarkini ixtiyor qilgandan soʻng, Horun ar Rashid shahriga kelganligi va hukmdor bilan bogʻliq savol-javoblar batafsil ifodalangan: “Va koʻp muddatlar yoʻl yurub bir kecha Horun ar Rashidni shahrigʻa keldilar. Va ul kechada mirshablar yurar erdilar. Anda mirshablarni koʻzi Ibrohim Adhamgʻa tushib darhol tutib: “San oʻgʻrisan”, deb mahkam ushladilar va aydilar: “San oʻgʻri boʻlmasang erdi yarim kechada yurmas erding”, deb ushlab oʻlturdilar toki tong otib kun yorugʻdi. Andin soʻng mirshablar Ibrohim Adhamni Horun ar Rashidning hizmatigʻa olib bordilar va aydilar: “Ey podshohi olam, bul kishi, albatta, oʻgʻri boʻlgʻoy deb ushlab kechada tutib olib keldik. Agar oʻgʻri boʻlmasa erdi kechasi yurmas erdi, dedilar. Anda Horun ar Rashid sulton Ibrohim Adhamni yuzlarigʻa qaradi va koʻnglida aydiki: “Bu yuzligʻ

odamdin nechuk o'g'urluq keladur", deb boz yana andisha qildi-ki, man ani tuhmat birla tutib jazo bersam oxiratda mandin bu to'g'ridin savol so'rasalar necha chandon xitob qilsalar alarga nima javob berurman, deb o'yladi va aydiki: Andin savol so'rayin toki nima javob berur ekan, deb sulton Ibrohim Adhamdin so'radiki: "Agar san o'g'ri bo'lmasang yarim kechada nega chiqib erding". Anda sulton Ibrohim Adham aydilar: "Man Xudoyi taoloni talabida chiqib erdim", dedilar. Anda mirshabni jahllari chiqib sulton Ibrohim Adhamni bir salla urdi va g'azabi kelib erdi aydi: "Ey o'g'ri, sandin so'z so'rasalar san boshqa tarafdin javob berursan", dedi. Anda mirshabni bir salla urganiga va so'zlariga Horun ar Rashidni achchig'i keldi aydiki: "Ey mirshab, man andin har nima so'z so'radim ul manga rostliq birla javob berdi, ammo sanga kim buyurdi-ki, salla urg'il deb. Va mani oldimda nechuk bejizat ani urding va yana sani bir salla urganingni qasosig'a sani ikki salla ursun", dedi va bu Horun ar Rashidni so'zig'a sulton Ibrohim Adham kuldilar. Anda Horun ar Rashid aydi: "Man sani ursun desam san nega kularsan?" Sulton Ibrohim Adham aydilar: "Bu bechora mirshab sani rizolig'ing uchun mani bir salla urdi va man parvardigorni talabida yurgan odamdurman na uchun ani ikki salla ururman", deb kuldilar. Anda Horun ar Rashid aydi: "Marhabo sizga beadablig' qilg'on kishi, albatta, o'zi jazosini topar dedi va yana Horun ar Rashid aydi: "Ey odam, bu narsani yegil", deb. Sulton Ibrohim Adham aydilar: "Ul narsangni yemasman", deb. Horun ar Rashid aydi: "Nima uchun yemaysiz?" Sulton Ibrohim Adham aydilar: "Ul narsa shubhadin holi ermas: biri toza va biri shubhalikdur. Horun ar Rashid aydi: "Shubha deganingiz nimadur?" Sulton Ibrohim Adham aydilar: "Ul narsag'a dazza birovni haqidin qo'shilg'on bo'lsa ul narsa shubhalik bo'lur va yana mani ko'nglumni dunyo lazzatidin ko'targandurman". Horun ar Rashid aydi: "Bashartiki, sizni omon turtarmiz va tuhmatdan saqlarmiz bir necha kun mani oldimda bo'lsangiz". Sulton Ibrohim Adham aydilar: "Man agar sani oldingda itoatsizlik qilsam mani nima qilursan?" Horun ar Rashid qo'lig'a tig' olib aydi: "Shul tig' birla boshingni tanangdin judo qilurman", dedi. Anda Sulton Ibrohim Adham aydilarki: "Hanuz gunoh qilmasdin ilgari shul so'zga boshimni tanamdin judo qilsang sani suhbatigda nechuk turub bo'lur va yana man parvardigorni hizmatida na

uchun bo'lmaydurman-ki, agar bir kunda ming marotaba gunoh qilsam ham yana aytsam-ki, Xudoyo bad qildim, xato qildim, tavba qildim desam parvardigor o'z lutfi karami birla degayki "afu qildim", deb. Anda Horun ar Rashid aydi: "Emdi mandin biror narsa talab qilgil, toki ul narsa sanga zod va rohila bo'lsun", dedi. Anda sulton Ibrohim Adham aydilar: "Ey Horun ar Rashid, man sandin hech narsani talab qilmasman va Xudoyi azza va jallaning hazonasidin manga hech narsa yo'qdurki magar o'zidin o'zini talab qilurman", - dedilar. Anda Horun ar Rashid aydi: Ey baland himmat, oliy qadr sohibi, ayg'ilki san kimdursan?" Anda sulton Ibrohim Adham aydilar: "Man Balx shahrini podshohidurmanki, Alloh taoloni talabida hamma mulku moli taxtu saltanatlarimni barbod urib g'ariblig'ni ixtiyor qildim", deb sulton Ibrohim Adham Yaman tarafig'a yuz kelturub ravona bo'ldilar. Mazkur parchada keltirilgan voqealar Farididdin Attorning "Tazkirat ul avliyo"sida ham, Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" tazkirasida ham keltirilmagan. Bu parchaga e'tibor qaratilsa, shayxning Alloh yo'lini ixtiyor qilgani va bu yo'lda o'z e'tiqodiga sobit ekanligi, ayniqsa, hech kimdan hech narsa talab qilmaganligiga urg'u berilgan: "Ey Horun ar Rashid, man sandin hech narsani talab qilmasman va Xudoyi azza va jallaning hazonasidin manga hech narsa yo'qdurki magar o'zidin o'zini talab qilurman". Ibrohim Adham Horun ar Rashid bilan suhbatining oxirida o'zining kimligini aytib tanishtiradi. Shu o'rinda yana muallif o'z saltanatini ixtiyoriy tark etib, darveshlik yo'lini tanlagan ulug' saodat egasining himmati va e'tiqodining ne qadar yuksakligiga kitobxon diqqatini tortadi: "Man Balx shahrini podshohidurmanki, Alloh taoloni talabida hamma mulk-u moli taxt-u saltanatlarimni barbod urib g'ariblig'ni ixtiyor qildim".

Hazrati Ibrohim Adham Yamanga kelib ulgurmaslaridanoq, u kishining ta'riflari butun Yaman ahliga yetdi. Xaloyiq butun mol-u dunyosini tark etib, Alloh darveshi bo'lgan shayx ziyoratiga oshiqib, peshvoz chiqadilar, ammo bu holdan xabar topgan shayx karvondan ajralib, yolg'iz o'zlari yo'l bosib keladilar. Bunda ham ulug' shayxning kamtarligi, buyuk maqsadi faqat Haq rizoligi va unga yetishish ekanligi ta'kidlangan. Qissa so'ngida shayxning Balxdan chiqib ketganlariga o'ttiz yil bo'lgan muddatdagi tafsilotlarga o'rin ajratilgan: "Alqissa, bir kun sulton Ibrohim Adhamni yo'llari

bozorg‘a tushdi ko‘rdularki, bir do‘konda bir kishi anjir birla xurmo sotib o‘lturubdur. Va yana sulton Ibrohim Adhamni izzatdin tushganlariga muddati o‘ttiz yil bo‘libdurki, taxt-u baxt va mamlakatlarini tark qilib, g‘urbat ko‘chasig‘a tushub yurganlarig‘a. Ammo anjir birla xurmoni ko‘ngillari tilar erdi. Lekin faqr-u miskinliklaridin olib yemaklari mumkun emas erdi. Ul vaqtiki anjir birla xurmo sotib o‘lturg‘on kishini ko‘rub aydilar: “Ey birodar, sani anjir birla xurmongni ko‘rub ko‘nglim ketibdur, ammo sotib olurg‘a pulim yo‘qdur” va yana aydilarki: “oyog‘imda bir eski kafshim bordur, ul kafshni sanga berayin, san manga anjir berg‘il va xurmo berg‘il”, dedilar. Anda anjirfurush aydi: “Man eski kafshg‘a anjir bermasman”, dedi. Anda Ibrohim Adham noumid bo‘lib, bir tarafg‘a qarab ketdilar. Va ul anjirfurushni oldida bir mard xo‘ja bor erdi, aydiki: “Ey anjirfurush, na uchun ikki poy katta kafshga anjir va xurmo bermading? Va ul ketgan kishini hech bildingmuki, ul kishi Balx shahrining podshohi sulton Ibrohim Adhamdurkim, podshohlikni va hamma toj-u taxt va mol-u saltanatlarini tark qilib Xudoni ishqida qalandar bo‘lib, o‘zini g‘urbatg‘a solib yurubdur va o‘ttiz yildin beri shul ahvolda bo‘lib yuradur. Hali ham bo‘lsa bir tabaqda anjir birla xurmoni to‘ldirib, orqasidin olib borg‘il, man sani har bir dona anjir xurmong‘a bir tillodin pul beray, dedi. Anda mard xo‘jadin anjirfurush bu so‘zni eshitib, darhol bir tabaqg‘a anjir va xurmodin solib sulton Ibrohim Adhamni orqalaridin olib borib chaqirib aydiki: “Ey mardi Xudo, to‘xtang, man sizga anjir va xurmo olib keldim”, dedi. Ibrohim Adham orqalarig‘a qarab aydilarki: “Ey anjirfurush, sanga mani bir odam ta‘rif qilg‘ondan so‘ng olib kelding, man emdi anjir xurmo yemasman va dinimni ham xarob qilmasman”, deb sahrog‘a yuz keltirub ravona bo‘ldilar. Va o‘ngu chapg‘a qarab aydilar: Hech kim ko‘rinmadi. Va aydilarki: “Ey Parvardigorim, mani anjir birla xurmom sani zikringdur”, dedilar. Va yana aydilar: “Ey Parvardigorim, mani bog‘u bo‘stonim sani yodingdur”. Va yana aydilar: “Ey Xoliqi zamin osmon, mani ahlu ayolim va avlodim sani zikri tasbehing va hamdingdur”. Va yana aydilar: “Man Sani ko‘yingni g‘aribidurman va bu g‘aribing sani dargohing‘a yuz keltub keldi. Emdi San o‘zing bandanavozdursan bu bandang o‘zini Sanga suporish qildi, deb jonni haqqa taslim qildi. Inna lillahi va inna ilayhi rojiun.

Ulug‘ shayx so‘nggi nafasigacha nafsini jilovlash, uni o‘z istaklariga qo‘yib bermaslik uchun kurashgan. Zero, tasavvuf shayxlari ham tariqatga qadam qo‘ygan kunlaridan boshlab, to umrlarining so‘ngigacha nafs bilan kurashib, riyozat va taqvo yo‘lini mahkam tutganlar. Ibrohim Adham ham anjir va xurmo sotayotgan do‘kondorning oldidan o‘tayotib, ko‘ngillari anjir va xurmo tusab qoladi, ammo olmoq uchun pullari yo‘q edi. O‘z kavshlari evaziga olmoqchi bo‘ldilar, ammo do‘kondor unamadi. Boshqa kishining fikrlari bilan do‘kondor anjir va xurmoni orqalaridan eltdi, lekin endi shayx qabul qilmadilar. Qissaning oxirini muallif yuksak pafos bilan yakunlaydi: “Ey Parvardigorim, mani anjir birla xurmom sani zikringdur” dedilar. Va yana aydilar: “Ey Parvardigorim, mani bog‘u bo‘stonim sani yodingdur”. Va yana aydilar: “Ey Xoliqi zamin osmon, mani ahlu ayolim va avlodim sani zikri tasbehing va hamdingdur”. Va yana aydilar: “Man Sani ko‘yingni g‘aribidurman va bu g‘aribing sani dargohing‘a yuz keltub keldi. Emdi San o‘zing bandanavozdursan bu bandang o‘zini Sanga suporish qildi”. Ijodkor ta‘sirchanlikni ta‘minlash maqsadida har bir fikrni undalma (Ey Parvardigorim) bilan boshlab, nido san‘atidan o‘rinli foydalangan.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Muallif ana shunday ko‘tarinki pafos bilan qissani yakunlagan. Shayx Ibrohim Adham bilan bog‘liq qissa asarga bejizga kiritilmagan. Chunki, ushbu shayxning hayoti insonlar uchun ibrat maktabi sanaladi. Qadimdan to hozirga qadar boylik to‘plashga ruju‘ qo‘ygan insonlar ko‘plab topiladi. Ibrohim Adhamning esa Alloh yo‘lida toj-u taxtdan voz kechib, darveshlik yo‘lini tutishi kamdan-kam uchraydigan hodisa sanaladi. Shuning uchun o‘zbek mumtoz adabiyotida shayxning nomi va faoliyati ko‘plab lirik va epik asarlar uchun talmeh asosi bo‘lib xizmat qilgan.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

#### **(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. در المجالس سيف ظفر البخاري طشقند 1329 هجري
2. Alisher Navoiy. Nasoyimul muhabbat. – Toshkent. 2001.
3. Farididdin Attor. Tazkiratul avliyo. – Toshkent. 2013.
4. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – Toshkent. 2009.
5. Amonova Z., Axrorova Z. “Nasoyim ul muhabbat” da Imom G‘azzoliy talqini //Alisher Navoi and 21 st century. – Toshkent. 2024.

## TIBBIY LEKSIKA ASOSIDA SHAKLLANGAN INGLIZ VA O‘ZBEK MAQOLLARIDA METAFORA VA METONIMIYA

**Choriyeva Iroda Kurbonboyevna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

## МЕТАФОРА И МЕТОНИМИЯ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦАХ, СФОРМИРОВАННЫХ НА ОСНОВЕ МЕДИЦИНСКОЙ ЛЕКСИКИ

**Чориева Ирода Курбанбоевна**

преподаватель Денауский институт предпринимательства и  
педагогика

## METAPHOR AND METONYMY IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS FORMED ON THE BASIS OF MEDICAL LEXICON

**Chorieva Iroda Kurbanboevna**

Teacher of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy



E-mail:

[iroda.chorieva@inbox.ru](mailto:iroda.chorieva@inbox.ru)

tel: +998905693345

Orcid: 0009-0005-2348-0902

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ingliz tilida “injury” va “wound” hamda o‘zbek tilida “yara” va “jarohat” leksemalarining ma’no va qo‘llanilishini chuqurroq tahlil qiladi. Leksemalar inson tanasidagi jismoniy zararni ifodalash bilan birga, ruhiy va ijtimoiy zararni ham ifodalashi mumkin. Maqolada “injury” va “wound”, “yara” va “jarohat” leksemalarining o‘ziga xos xususiyatlari va farqlari, shuningdek, ularning metafora va metonimiya turlarida qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, maqolada ushbu leksemalarni qo‘llagan maqollar va ularning madaniy va ijtimoiy ma’nolari ham ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** maqollar, yara, jarohat, badiiy san’at, metafora, metonimiya, sog‘lik, kasallik, qiyosiy tahlil, madaniy tasavvurlar.

**Аннотация:** Данная научная статья посвящена глубокому анализу лингвокультурных особенностей, выраженных через названия болезней и их симптомы в английских и узбекских народных пословицах. В пословицах болезни и их симптомы трактуются не только как медицинские понятия, но и как концепты, обладающие глубоким символическим и культурным значением. В данной работе изучается, какие представления о здоровье, исцелении, трудностях и человеческих ценностях имеют народные массы через названия болезней и симптомы, выбранные в пословицах.

**Ключевые слова:** пословицы, язва, рана, художественное искусство, метафора, метонимия, здоровье, болезнь, сравнительный анализ, культурные представления.

**Annotation:** This article provides a deeper analysis of the meanings and uses of the lexemes “injury” and “wound” in English, as well as “yara” and “jarohat” in Uzbek. These lexemes can express not only physical damage to the human body but also psychological and social harm. The article examines the unique characteristics and distinctions of “injury” and “wound,” and “yara” and “jarohat” lexemes as well as their application in metaphors and metonymies. Furthermore, it discusses proverbs that utilize these lexemes and their cultural and social meanings.

**Key words:** proverbs, wound, injury, stylistic device, metaphor, metonymy, health, illness/disease, comparative analysis, cultural concepts.

## KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Til - bu insoniyatning eng muhim muloqot vositalaridan biridir. U bizga o'z fikrlarimizni ifodalash, boshqalar bilan muloqot qilish va dunyoni tushunish imkonini beradi. Tilning boyligi va murakkabligi bizga turli ma'nolarni yetkazishga imkon beradi. Leksemalar – tilning asosiy birliklari bo'lib, ular turli xil ma'no va qo'llanilishga ega. Ingliz va o'zbek tillarida *“injury”* va *“wound”*, *“yara”* va *“jarohat”* leksemalarining ma'no va qo'llanilishini chuqurroq tahlil qilishda ularning inson tanasidagi jismoniy zararni ifodalash bilan birga, ruhiy va ijtimoiy zararni ham ifodalashi mumkinligiga e'tibor qaratish lozim. Ingliz tilidagi *“injury”* va *“wound”*, o'zbek tilidagi *“yara”* va *“jarohat”* leksemalarining o'ziga xos xususiyatlari va farqlari mavjud. Ushbu leksemalar qanday metafora va metonimiya turlarida qo'llanilishi, ular qo'llangan maqollar qanday madaiy va ijtimoiy ma'nolarni ifodalashi ham juda muhim.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/MATERIALS AND METHODS).** Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, maqollar tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi va xalq donoligini ifoda etuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu maqollar, asosan, metafora va qiyoslar orqali madaniy tasavvurlarni estetik shaklda taqdim etadi. Tibbiy mazmunga ega leksemalar asosida shakllangan maqollarda shifokor va bemor o'rtasidagi munosabatlar, kundalik odatlar va sog'lom turmush tarzi haqida e'tirof etiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, maqollar milliy madaniyatlar va tillar o'rtasida sog'liq va kasallik bilan bog'liq qadriyatlar va dunyoqarashlarning muhimligini ko'rsatadi. O'zbek adabiyotlarida xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotning qiyoslanishi tez-tez uchrab turadi, bu esa tibbiy bilimlarning xalq tajribasi bilan qanchalik yaqin ekanligini ko'rsatadi. Ingliz tilidagi maqollarda esa sog'liqni saqlash va kasallikning oldini olishda kundalik hayotiy odatlar muhim rol o'ynaydi. Maqollarda metafora va metonimiya haqida tadqiqot olib borgan ko'plab olimlar mavjud. Ularning orasida quyidagilarni eslatib o'tish mumkin:

George Lakoff va Mark Jonsonlarning *“Metaforalar biz yashaydigan dunyo”* kitobi metafora va metonimiyaning til va fikrlashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ularning nazariyasi maqollarni tahlil qilishda ham qo'llanilishi mumkin, chunki ma-

qollar ko'pincha metafora va metonimiya asosida qurilgan bo'ladi. Raymon Jakobsning *“Metafora va metonimiya: Til va fikrlashda”* kitobi metafora va metonimiyaning turli xil turlarini va ularning qo'llanilishini batafsil tahlil qiladi. Uning nazariyasi maqollarni tahlil qilishda ham qo'llanilishi mumkin, chunki maqollar turli xil metafora va metonimiya turlaridan foydalanadi.

*“Injury”* va *“wound”*, *“yara”* va *“jarohat”* leksemalari mavjud maqollar milliy madaniyatlar va tillar o'rtasida sog'liq va kasallik bilan bog'liq qadriyatlar va dunyoqarashlarning muhimligini ko'rsatadi. O'zbek adabiyotlarida xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotning qiyoslanishi tez-tez uchrab turadi, bu esa tibbiy bilimlarning xalq tajribasi bilan qanchalik yaqin ekanligini ko'rsatadi. Ingliz tilidagi maqollarda esa sog'liqni saqlash va kasallikning oldini olishda kundalik hayotiy odatlar muhim rol o'ynaydi.

## MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek va ingliz tillaridagi tibbiy leksika asosida shakllangan maqollarda sog'liq, kasallik va jarohat haqidagi xalq tasavvurlari metafora va metonimiyaga boy. Ushbu maqollar ikki xil til va madaniyat vakillarining sog'liq va kasallik haqidagi tushunchalarini ifodalashda muhim lingvopoetik vosita sifatida xizmat qiladi. O'zbek va ingliz tillarida tibbiy leksika metafora va metonimiyani ishlatish orqali sog'liq va kasallikni tushuntirishda xalq ma'naviyoti va hayotiy tajribalari aks ettiriladi. Har ikkala til maqollarida tibbiy atamalar ko'pincha ichki hissiy holatni ifodalash uchun ishlatiladi, ya'ni inson ruhiy azoblari va hayotiy sinovlar tibbiy terminlar yordamida umumlashtiriladi. Masalan, O'zbek tilidagi *“Tig' jarohati bitar, til jarohati bitmas”* [2] maqoli ma'nosiga ko'ra, jismoniy jarohatlar vaqt o'tishi bilan tuzaladi, ammo og'zaki aytilgan so'zlar orqali yetkazilgan ruhiy yoki hissiy jarohatlar hech qachon unutilmas va tuzalmaydi. Bu maqol orqali insonlar bir-birlariga so'z orqali yetkazadigan zararlarning jiddiyligi va davomiyligi ta'kidlanadi, chunki so'zlar bilan berilgan ruhiy jarohatlar odamning qalbida chuqur iz qoldiradi.

Navbatdagi o'zbek xalq og'zaki ijodi namunasi *“Xushomad so'zlagan til yalab-yalab yara etar”* [3] bo'lib, u, asosan, ikkiyuzlamachilik va soxta maqtovning zararli oqibatlarini ifodalaydi. Bu maqolda *“xushomad”* qilish orqali tilning



yaqinlashish, muloyimlik bilan yaralar keltirishi tasvirlangan. Yani, xushomadgo'y inson boshqalarni quruq va samimiy bo'lmagan so'zlari bilan aldashi, natijada ularga zarar yetkazishi mumkinligini anglatadi. Bunda insonga yetkaziladigan zarar, u sezmaydigan yoki beparvo bo'lib qoladigan darajada bo'lishi mumkin.

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Ingliz maqollaridan *"Who pardons the bad, injures the good"* [1] pameasi yomon odatlar va xulq-atvorlarni kechirish, bu orqali yaxshilarga nisbatan adolatsizlik qilinishini ta'kidlaydi. Ushbu maqol, xususan, xatolarni kechirishning oqibatlari haqida ogohlantiradi, shuningdek, yomonni jazolash zarurligini ko'rsatadi. Buning ma'nosi shundaki, yomon xulq-atvorni kechirish, yaxshi odamlar uchun zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Yana bir ingliz maqoli *"Time heals all wounds"* [1] emotsional og'riq, qayg'u yoki travma vaqt o'tishi bilan pasayishini anglatadi. Bu, insonlar chuqur og'riq yoki azobni boshdan kechirishlari mumkin, lekin vaqt o'tishi bilan bu hislar yo'qolishi va sog'ayishi mumkinligini ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rsatilgan *"Tig' jarohati bitar, til jarohati bitmas"* o'zbek pameasining ma'nosi va ishlatilish o'rni haqida so'z yuritildi. Endi ushbu birgina maqoldagi badiiy san'at turlari bilan tanishamiz:

**Metafora:** *"Til jarohati"* ruhiy jarohatni bildiradi. Bu yerda til jarohati haqiqiy tan jarohati emas, balki insonning his-tuyg'ulariga yetkazilgan zarar sifatida ishlatilgan.

**Antiteza (qarshi qo'yish):** Bu maqolda *"tig' jarohati"* va *"til jarohati"* bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. Jismoniy jarohatlar (tig' jarohati) tuzaladi, ammo so'z bilan qilingan zarar (til jarohati) osonlikcha bitmaydi.

**Giperbola (bo'rttirish):** Til orqali yetkazilgan jarohatning *"bitmasligi"* kuchli bo'rttirilgan holda ifoda etilgan. Bu, odatda, til jarohatining uzoq vaqt davom etishiga ishora qiladi. Bu yerda insonlarning so'z bilan ko'proq ehtiyot bo'lishi kerakligi eslatiladi, chunki so'zlarning kuchi juda katta va ular shaxsiy munosabatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillaridagi tibbiy leksikaga ega maqollar turli xil madaniy va hayotiy tajribalarni ifoda etadi. Metafora va metonimiyadan foydalanish ikki tilda

ham keng, lekin ularning stilistik vazifalari va maqsadlari madaniy farqlarga qarab o'zgarib turadi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).** Tibbiy leksika asosida shakllangan maqollarda sog'liq va kasallik haqidagi madaniy tasavvurlarni aniqlashda metafora va metonimiya vositalarining ahamiyati katta. O'zbek va ingliz maqollarida sog'liq faqat fizik jihatdan emas, balki mental va ruhiy jihatlardan ham ifoda etiladi. Bu maqollar, insonlarning sog'lig'i, kasallik va emotsional holatlari haqida keng tasavvurlarni yaratadi. Maqollarda metafora va metonimiya orqali sog'liqning xilma-xil jihatlari tasvirlanadi. Masalan, *"yara"* va *"jarohat"* kabi leksikalar, faqat fizik jarohatlar emas, balki ichki ruhiy holatlarni ham aks ettiradi. Shuningdek, ingliz tilidagi maqollarda *"injury"* va *"wound"* so'zlari emotsional azobni tasvirlashda ishlatiladi, bu esa insonning ruhiy holatiga urg'u beradi. Sog'liq haqidagi madaniy tasavvurlar, har ikki tilda ham, an'anaviy tushunchalar va xalq tasavvurlari orqali ifodalanadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI  
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /  
REFERENCES)**

1. Martin H. Manser. The facts on file dictionary of Proverbs: Second edition. – New York: Facts on File An imprint of Infobase publishing, 2002.
2. Mirzayev T., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari: I-tom. – T.: O'zbekiston SSR, "Fan" nashriyoti, 1987.
3. Mirzayev T., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari: II-tom. – T.: O'zbekiston SSR, "Fan" nashriyoti, 1988.
4. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs /Maqollar/Пословицы. Tashkent: Mehnat, 2000.
5. Mohammed Attia. Dictionary of Common English Proverbs. 2004.
6. Jennifer Speake. The Oxford Dictionary of Proverbs: Fifth edition. – USA.: Oxford University Press, 2007.
7. Chorieva Iroda Kurbonboevna,. (2024). The role of proverbs and wise words in improving the medical culture of the people in english and uzbek languages. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 4(01), 19–22.
8. Smith, J. The Role of Proverbs in Folk Medicine: A Comparative Study of English and Uzbek Proverbs. Journal of Cross-Cultural Studies, 25(3), 345-360.

**O‘ZBEKISTON SSR DA IJTIMOIIY TURMUSHNING  
AHOLI SALOMATLIGIGA TA’SIRI****Najmiddinov Qodirjon Murodjon o‘g‘li,**  
*Namangan Davlat universiteti**“Tarix” kafedrasi tayanch doktoranti***THE INFLUENCE OF SOCIAL LIFE ON THE  
HEALTH OF THE POPULATION IN THE  
UZBEKISTAN SSR****Najmiddinov Kadirjon Murodjon o‘g‘li,**  
*Namangan State University**Basic doctoral student of the Department of History***ВЛИЯНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ НА  
ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНСКОЙ  
ССР****Наджмиддинов Кадиржон сын Муроджона,**  
*Наманганский государственный университет*  
*Базовый докторант кафедры истории*[najmiddinovqodirjon13@  
gmail.com](mailto:najmiddinovqodirjon13@gmail.com)

Tel: +998 90 796 28 22

ORCID:0009-0003-6638-  
4430

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston SSR aholisi mustabid qaramlik davrida qanday ahvolda yashaganligi, aholining daromadlari va xarajatlarining aholi sog‘lig‘iga bevosita ta’siri qiyosiy va tahliliy ravishda o‘rganilgan. Shuningdek, sanatoriyalar va kurortlar, aholi iste’mol madaniyati haqidagi masalalarning ham salomatlikdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqot ishida aholining ijtimoiy turmushidagi kamchiliklarning aholi sog‘lig‘iga bo‘lgan ta’sirini ochib berishga harakat qilingan.

**Kalit so‘zlar:** sanatoriyalar, kurortlar, gripp, bronxial astma, pnevmoniya, buqoq, epidemiya.

**Аннотация:** В данной статье сравнительно и аналитически изучены условия жизни населения Узбекской ССР в период постоянной зависимости, прямое влияние доходов и расходов населения на здоровье населения. Также особое внимание уделено оздоровительному значению санаториев и курортов, вопросам потребительской культуры населения. В данной исследовательской работе предпринята попытка выявить влияние недостатков в социальной жизни населения на здоровье населения.

**Ключевые слова:** санатории, курорты, грипп, бронхиальная астма, пневмония, оспа, эпидемия.

**Abstract:** In this article, the conditions of the population of the Uzbek SSR during the period of permanent dependence, the direct impact of the income and expenses of the population on the health of the population are studied comparatively and analytically. Also, special attention is paid to the health importance of sanatoriums and spas, issues of consumer culture of the population. In this research work, an attempt was made to reveal the impact of the shortcomings in the social life of the population on the health of the population.

**Key words:** sanatoriums, spas, flu, bronchial asthma, pneumonia, smallpox, epidemic.

**KIRISH.** O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, insonni ulug‘lash va uning baxtli hayot kechirishi uchun kuchli davlat siyosati olib borilmoqda. Mamlakatimizdagi barcha qatlam vakillarini yuqori daromadli ish o‘rinlari, uy-joy va sifatli iste‘mol buyumlari bilan ta‘minlash insonning uzoq va sog‘lom hayot kechirishining asosiy shartlaridan hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda, xalqimizga munosib hayot kechirishlari uchun chuqur islohotlar amalga oshirib kelinyapti. Lekin, O‘zbekiston SSR davrida aholining ijtimoiy turmushi ayanchli ahvolda edi. Ular yetarlicha maosh olib ishlamaganlar, uy-joy muammosi va oziq-ovqat bilan aholini ta‘minlash borasida ham jiddiy kamchiliklar bor edi. Inson sog‘lig‘ini saqlashda muayyan davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, aholining yashash va madaniyat darajasining yuqori ekanligi ham muhim omillardan hisoblanadi. Mutaxassislarining fikricha, inson sog‘lig‘ining 49-53 foizi turmush sharoitlariga bog‘liq. Ijtimoiy turmush sharoitining nochorligi tufayli sil, teritanosil, shiqliq, ruhiy-asab kasalliklari kelib chiqadi.

#### **NATIJALAR VA MUHOKAMA.**

Xalqimizda “kambag‘allik bu – kasallik” degan dono naql bor. Xalq sog‘lig‘ini saqlash va aholini yuqori malakali tibbiy yordam va dori-darmon bilan bepul ta‘minlash SSSR ning asosiy qonuni – Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan. Lekin, O‘zbekistonda meditsina ishi bepul bo‘lsa ham, sobiq ittifoq butun umri davomida aholi sog‘lig‘ini ta‘minlashda sifatli ishlarni amalga oshirolmadi.

O‘zbekiston hududida kimyoviy tarkibi har xil mineral suvlar, bahavo joylar mavjud. Hammasi bo‘lib 200 dan ziyod mineral bloklar suvi tekshirilgan (shulardan 61 tasining shifobaxshligi aniqlangan), 100 dan ortiq bahavo joylar, 30 dan ziyod tuz-balchiqli ko‘llar tekshirilgan (1983) [1].

Aholi salomatligini saqlashda sanatoriya va kurortlar faoliyati ham muhim hisoblanadi. Bu davrda O‘zbekiston hududida 60 dan ortiq mineral suv manbalari va xushmanzara joylar o‘rganilgan, bu joylarda sanatoriyalar va dam olish uylari tashkil etilgan. Vodil va Shohimardon (Farg‘ona viloyatida), Bo‘stonliq (Toshkent viloyati), Zomin (Samarqand viloyati), Boysun-Mingchuqur (Surxondaryo viloyati) va boshqalar shular jumlasidandir [2].

1958-yilda O‘zbekistonda Sovet Ittifoqidagi dastlabki tuberkuloz kasalliklarini mehnat

jarayonida davolovchi “Paxtaliko‘l” sanatoriysi tashkil etildi. Keyinchalik bunday sanatoriyalar respublikaning ko‘pgina viloyatlarida kolxozlarning faol ishtiroki bilan barpo etildi [3].

1967-yilda O‘zbekistonda 66 sanatoriya (shulardan 39 tasi bolalar uchun) va 15 ta dam olish uyi mavjud bo‘lib, bulardan 20 ta ixtisoslashgan sanatoriya Sog‘liqni saqlash ministrligiga qaragan. Bundan tashqari, respublikaning eng xushmanzara joylarida kasal bolalar uchun 39 ta sanatoriya ochilgan. Oltita balneologik shifoxona tashkil etilgan, ulardan ikkitasi (Chimyon va Qiziltepa) Farg‘ona oblastida, bittasi Toshkent yaqinida (“Toshminovodi” balneologik shifoxonasi) joylashgan. Samarqand viloyatida “Nagornaya” shifoxonasi qurilgan. Shunday shifoxonalar Surxondaryo (Jayronxona) va Andijon (Janubiy Olamushuk) viloyatlarida ham ishga tushirilgan. Chortoq kurorti eng mashhur balneologik kurortlardan edi. Ana shu kurortda tayanch va harakat organlari, periferik nerv sistemasi kasalliklari, teri kasalliklari, ayollar tanosil a‘zolari kasalliklari, shuningdek, hazm organlari kasalliklari davolanadi [4].

Bundan tashqari, O‘zbekiston SSR Sog‘liqni saqlash ministrligi qaramog‘ida Kislovodsk, Sochi va Yalta shaharlarida sanatoriyalar bo‘lgan [5]. Bu yerga har yili ko‘plab ishchi va xizmatchilar dam olish va sog‘liqlarini tiklash uchun yuborilgan.

O‘zbekistonda silni davolash uchun “Shohimardon”, “Ko‘li Qubbon”, “Moviy ko‘l” – Farg‘ona viloyatida va “Chimyon” (Toshkent viloyatida) kabi maxsus iqlim kurortlari ham barpo etilgan. Har yozda O‘zbekistonning barcha viloyatlarida pioneer lagerlari, bolalar maydonchalari va boshqalar tashkil etiladi. 1966-yilda birinchi marta sanatoriy tipidagi lagerlar ochildi [6].

Farg‘ona vodiysidagi deyarli barcha soy va daryolar baland tog‘lardan oqib tushadi. Eng ko‘p suv keltiradigan daryolar Norin va Qoradaryo hisoblanadi. Alohida aytib o‘tish kerakki, ko‘pgina kasalliklar aholi iste‘molida ishlatiladigan suvning kimyoviy tarkibi bilan bog‘liq. Mazkur o‘lkada tog‘lardan bevosita oqib tushuvchi daryo suvlari tarkibining yod moddasiga taqchilligi mintaqada endemik buqoq kasalligining ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Bu hol ayniqsa, Farg‘ona viloyatida, xususan, Qo‘qon atrofida ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Aholining buqoq bilan kasallanishi vodiya har 1000 aholiga 45 kishidan ko'proqni tashkil etgan. Bu O'zbekiston bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich edi.

Farg'ona vodiysining ayrim qismlarida, jumladan, Yozyavon, Dang'ara va boshqa tumanlarda chuchuk suvning yetishmasligi bois suv boshqa hududlardan keltiriladi. Shunga qaramasdan, mazkur hududlar mintaqada bolalar orasida uchraydigan yuqumli kasalliklar salmog'i bo'yicha alohida ajralib turadi.

Farg'ona vodiysi bir nechta yirik shaharlarga ega bo'lishiga qaramasdan shahar aholisiga nisbatan qishloq aholisi ko'pchilikni tashkil etadi, ya'ni urbanizatsiya darajasi yuqori emas edi. Lekin, ayrim shaharlar Andijon, Namangan, Farg'ona shaharlari respublikamizdagi siyosiy-iqtisodiy markazlaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda, yirik sanoat, transport markazlaridan hamdir. Ushbu hol o'z navbatida, uning atmosfera havosining ifloslanish darajasini ham yanada kuchaytirdi. Shuning uchun bu shaharlar O'zbekistonda xavfli o'sma, teri-tanosil xastaliklari va aholining o'lim ko'rsatkichlari bo'yicha alohida ajralib turadi.

Respublikamizda 1991-yilda har 100 ming aholiga xavfli o'sma bilan bog'liq o'lim 53,0 ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu raqam Sirdaryo viloyatida 63,7 ni ko'rsatdi. Chunki, Mirzacho'l tibbiy geografik rayoniga kiruvchi Sirdaryo viloyati xo'jalik tarkibida IESlar faoliyati bilan bog'liq tarzda xavfli o'sma, qon va qon hosil qiluvchi a'zolar bilan bog'liq o'lim ko'rsatkichlari bir muncha yuqori edi.

Bu davrda Farg'ona vodiysi qishloq aholisiga ajratilgan pensiya va nafaqalar miqdori kishi boshiga hisoblaganda, SSSR dagi o'rtacha darajadan juda past bo'lgan. Masalan, 1971-1985-yillar mobaynida ham respublika 9 million aholisining maoshi 75 so'mdan kam edi. Nogironlar, qariyalar, yosh bolalar, o'zini-o'zi boqa olmaydiganlar, jon boshiga 50 so'mdan kam daromad olayotganlar soni 5 milliondan ko'p edi. O'zbekiston SSR aholisining deyarli 50 foizi yashash uchun zarur bo'lgan eng kam miqdordan kamroq daromad bilan kun kechirib kelmoqda edi. Bu miqdor 85 so'mni tashkil etardi [7]. Solishtirish uchun, ishchi va xizmatchilarning o'rtacha ish haqi SSSR da 1970-yilda 122 so'm bo'lgan bo'lsa, 1986-yilda 190 so'm edi [8].

Respublika ijtimoiy iste'mol fondi hisobidan beriladigan to'lov va imtiyozlarning SSSR dagi o'rtacha darajadan ancha pastligi ham ahvolni yanada og'irlashtirgan. Masalan, 1970-yilda to'lovlar SSSR da yashovchi har bir kishi uchun 263 so'mni, 1980-yilda 441 so'mni, 1986-yilda 547 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, O'zbekistonda 1970-yilda 191 so'mni, 1980-yilda 310 so'mni, 1986-yilda esa 365 so'mni tashkil etdi [9]. Bu holat respublika qishloq aholisining kundalik oziq-ovqat mahsulotlari iste'molida ham bir qator muammolarni keltirib chiqargan. Masalan, Andijon viloyatida 1980-yilda go'sht mahsulotlari iste'moli 22,7 kg., sut va sut mahsulotlari esa 153 kg. ni tashkil etdi. Bu raqamlar 1987-yilda 17,2 kg va 94,6 kg. ni tashkil etib, yanada pasaygan. Oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish iste'molchining asosiy ovqatlanish ratsioni hisoblanadi. Hatto O'zbekistonda yil bo'yi yetishtirish mumkin bo'lgan sabzavot iste'moli ham zarur me'yorning 53,4 foizini tashkil qilgan [10].

Yuqori quvvatli mahsulotlarni iste'mol qilish, hatto zarur iste'mol darajasining to'rtidan bir qismini ham tashkil qilmagan. Andijon viloyati, Stalin rayoni (hozirgi Shahrixon) Sherqo'rg'on qishlog'i kolxozchilarining oylik xarajatlari tahlil qilinganida, 6 kishilik kolxozchi oilasining bir oylik xarajatida un 75 kg, paxta yog'i 4 kg, kartoshka 9 kg, sabzi 6 kg, guruch 8 kg, piyoz 5 kg, makaron 3 kg, qo'y go'shti 2 kg, mol go'shti 3 kg ni tashkil etgan [11]. Xarajatlar qatoriga sariyog', tuxum, qand-shakar kiritilmagan. To'yimli ratsionning kamligi barcha aholining sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Daromad pastligi bois, ehtiyoj birinchi navbatda zarur bo'lgan mahsulotlar, ya'ni non va non mahsulotlari hisobiga qondirilgan.

Lekin, SSSR o'sha paytda oziq-ovqat mahsulotlari mo'l-ko'lligi va arzonligi jihatidan jahonda birinchi qatorda turadi, deb aytilgan. Bir bulka non 25 tiyin, bir kg shakar 80 tiyin, bir kg guruch ham 80 tiyin, shuningdek, makaron, baliq, konditer tovarlari, choyning bahosi ham bir xil narxda bo'lgan. Bu narxlar 40 yildan beri o'zgarmay ushlab turilgan [12].

1980-yillarning o'rtalarida o'zbekistonliklar asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi bo'yicha Ittifoqda eng oxirgi o'rinlarda edi. Respublika qishloqlarida go'sht iste'moli Ittifoqdagi o'rtacha miqdordan 5-6 barobar, sut, sariyog' 3 barobar, tuxum 3,5 barobar, kartoshka 4,7 barobar,

baliq mahsulotlari 21,6 barobar kam iste'mol qilingan [13].

O'zbekiston SSR da kolxozchilarning o'rtacha oylik ish haqi 1970-yilda – 92 so'm, 1980-yilda – 130 so'm, 1985-yilda 130,1 so'm, 1987-yilda 132,1 so'm bo'lgan. Har bir kolxozchi oilasi qaramog'ida o'rtacha 5-6 tadan farzand bo'lgani hisobga olinsa, topilgan daromadning jon boshiga qanchadan to'g'ri kelishini bilib olish qiyin emas. O'zbekistonda ish bilan band aholining 40 foizi qishloq xo'jaligida mehnat qilganini hisobga olsak, respublika aholisining juda katta qismi oylik daromad bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ancha past bo'lganini ko'rish mumkin [14].

1960-yillarda respublika shaharlarida 30-35 foiz, rayon markazlarida 15-20 foiz chiqindilar yig'ilgan va yo'qotilgan. Lekin, kolxoz va sovxozlarda sanitar tozalash xizmati umuman bo'lmagan. Kanalizatsiya respublikaning 14 ta shahrida mavjud edi. Respublikadagi 407 ta yirik korxonalaridan 225 tasi sutkasiga 275,2 kubometr nasosli va sanoat oqova suvlarini ochiq suv havzalariga tozalamasdan oqizib yuborgan.[15]

Vodiy qishloq rayonlarini suv bilan ta'minlash butun respublikada bo'lgani kabi markazlashtirilmagan holda ochiq suv havzalaridan amalga oshirilgan. Jumladan, Farg'ona viloyatida 72 foiz va Andijon viloyatida 78 foiz qishloq aholisi ochiq suv havzalaridan suv ichgan. Farg'ona vodiysi viloyatlari qishloq aholisi ichimlik suvi bilan ta'minlanish bo'yicha faqat Toshkent viloyatidan keyingi o'rinda turgan. Vodiydagi 33 ta qishloq aholisi ichimlik suvi olishda artezan, 30 tasi quduq suvlaridan foydalangan. Farg'ona viloyatida ichimlik suvi bilan ta'minlangan qishloq aholisi 6,7 foizni hamda Andijon viloyatida esa 2,9 foizni tashkil etgan [16].

Farg'ona vodiysida yer osti suvlarining minerallashuvi yuqori bo'lganligi sababli quduq suvlaridan foydalanish keng tarqalmagan hamda qishloq aholisining faqat 3-7 foizi ushbu resurslardan foydalangan. Ba'zi bir rayonlarda (Leningrad, Frunze (hozirgi Dang'ara) ) qishloq aholisi "tubsiz" deb atalgan shaxta quduqlaridagi suvlardan foydalangan. Quduq suvlari odatda sifatli bo'lmagan, ularda kimyoviy elementlar va spora (tayoqchasimon bakteriya) uchrab turgan [17].

### XULOSA

Xulosa o'rnida aytish kerakki, aholining ijtimoiy turmush tarzi, yashayotgan makoni, iste'mol

qilayotgan mahsulotlari uning sog'lig'iga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yuqorida ko'rinib turganidek, aholi orasida turli kasallik va epidemiyalar kelib chiqishida bu omillarning o'rni katta edi. Shuning uchun doim kasalliklarning oqibatlarini bilan kurashmasdan, uning kelib chiqish sabablarini o'rganish va unga qarshi samarali yechimlar ishlab chiqish eng muhim vazifa hisoblanadi. Sovet hukumati esa aholi turmush darajasini oshirmasdan turib, aholini sog'lom turmush darajasiga qaytara olmasligini tushunib yetmadi. Sog'liqni saqlash sohasi jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan uzviy rivojlanishi uchun izchil va davomli ijtimoiy siyosat olib borilmaganligi natijasida inson salomatligi sohasida doimiy muammolar paydo bo'ldi. O'tkazilgan islohotlar ham yetarlicha samara bermadi.

### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Саломатлик: оммабоп медицина энциклопедияси. - Тошкент, Ўзбек совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1985. -Б.384.
2. Қодиров А.А, Дехто Л.Я. Ўзбекистон ССР да соғлиқни сақлаш ишлари. –Тошкент, Ўзбекистон, 1967. -Б.25.
3. Маъзумов Б.Х. Совет Ўзбекистонидида соғлиқни сақлаш ишлари. -Тошкент.:Ўзбекистон, 1964.-Б.37.
4. Қодиров А.А, Дехто Л.Я. Ўзбекистон ССР да соғлиқни сақлаш ишлари. – Тошкент.:Ўзбекистон, 1967. -Б.26.
5. Саломатлик: оммабоп медицина энциклопедияси. -Тошкент, Ўзбек совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1985. -Б.384.
6. Қодиров А.А, Дехто Л.Я. Ўзбекистон ССР да соғлиқни сақлаш ишлари. -Тошкент, Ўзбекистон, 1967. -Б.27.
7. Бобожонов Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. (70-80 йиллар мисолида). -Тошкент, Шарк, 1999. -Б.43.
8. Жавлиев Т. Табиат, инсон ва дин. -Тошкент, Фан, 1986. –В.113.
9. Тажимирзаев Э. XX асрнинг 60-80-йилларида Фарғона водийси қишлоқлари аҳолисининг кундалик ҳаёти. дисс. Андижон, 2020. -Б.37.
10. Эгамов Э., Меҳмонов С. Қишлоқ аҳолисининг турмуш шароити: муаммо ва ечимлар. -Тошкент, Меҳнат, 1991. -Б.106.

11. Andijon viloyati arxivi. 522-fond, 5-ro'uxat, 574-ish, 444-varaq.
12. Жавлиев Т. Табиат, инсон ва дин. -Т.:Фан, 1986. –В.114.
13. Тажимирзаев Э. XX асрнинг 60-80-йилларида Фарғона водийси қишлоқлари аҳолисининг кундалик ҳаёти. дисс. Андижон. 2020. -Б.38.
14. Эгамов Э., Меҳмонов С. Қишлоқ аҳолисининг турмуш шароити: муаммо ва ечимлар. -Тошкент, Меҳнат, 1991. -Б.116.
15. О'zbekiston Ilmiy texnikaviy va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi (ITTHMA). R-40-fond, 4-ro'uxat, 10-ish, 84-varaq.
16. О'zbekiston ITTHMA. R-62-fond,1-ro'uxat, 394-ish, 48-varaq.
17. О'zbekiston ITTHMA. R-62-fond,1-ro'uxat, 394-ish, 49-51-varaqlar.



## MAMLAKATIMIZNING YANGI BOSQICHIDA MEDIYAMARKAZLAR OPERATIVLIGINI OSHIRISH

Tursunova Shahnoza Bekchanovna

TATU Urganch filiali "O'zbek tili va ijtimoiy fanlar"

kafedrasi dotsenti

## INCREASING THE OPERATIONALITY OF MEDIA CENTERS IN THE NEW STAGE OF OUR COUNTRY

Tursunova Shahnoza Bekchanovna

TATU Urganch branch "Uzbek language and social  
sciences" associate professor of the department

## ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАБОТЫ МЕДИАЦЕНТРОВ НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ НАШЕЙ СТРАНЫ

Турсунова Шахноза Бекчановна

Ургенчский филиал ТУИТ Доцент кафедры «Узбекский  
язык и общественные науки»

**Annotatsiya:** Maqolada ommaviy axborot vositalari va markazlarning mediamakondagi faoliyati, insonparvarlik tamoyillarini targ'ib etishning ilmiy-ratsional hamda konstruktiv yo'llarini ishlab chiqish va OAV dagi ijtimoiy fikrlar, taklif va tavsiyalar innovatsion izlanishlarga yo'naltiruvchi u yoki bu sohaga yangilik olib kirish muhim ahamiyat kasb etilishi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** OAV, mediamarkaz, axborot xavfsizligi, jurnalistika, televideniye, jurnal, operativlik, mediatahlil, mediaxborot, internet saytlari, kibermakon.

**Abstract:** The article analyzes the activity of mass media and centers in the media space, the development of scientific-rational and constructive ways of promoting the principles of humanitarianism, and the importance of bringing innovation to one or another field, which directs social opinions, suggestions and recommendations in the media to innovative research.


**Key words:** mass media, media center, information security, journalism, television, magazine, operative, media analysis, media information, internet sites, cyberspace.

**Аннотация:** В статье анализируется деятельность средств массовой информации и центров в медиaprостранстве, выработка научно-рациональных и конструктивных путей продвижения принципов гуманизма, а также важность привнесения инноваций в ту или иную сферу, которая направляет общественные мнения, предложения и рекомендации в средствах массовой информации на инновационные исследования.

**Ключевые слова:** средства массовой информации, медиaцентр, информационная безопасность, журналистика, телевидение, журнал, оперативник, медиaанализ, медиaинформация, интернет-сайты, киберпространство.

**Kirish.** Jahonda mamlakatlar rivojlanish jarayonining jadallashuvi yoshlarning innovatsion tafakkurni shakllantirish, ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida ommaviy axborot vositalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ularning rolini oshirishga oid islohotlar olib



Orcid: 0009-0008-9812-308X

[tursunovashahnoza534@gmail.com](mailto:tursunovashahnoza534@gmail.com)

+998996856515

borilmoqda. “Mamlakatimizda demokratik yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, ommaviy axborot vositalari faoliyati samaradorligini oshirish yoʻlida davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan sohani qoʻllab-quvvatlash, bu vakillarining mashaqqatli mehnatini har tomonlama ragʻbatlantirishga bundan buyon ham alohida eʼtibor qaratiladi. Bu yoʻlni davlat siyosatining eng muhim yoʻnalishlaridan biri deb bilamiz va qatʼiy davom ettiramiz”[1]. Shu nuqtayi nazardan, milliy ommaviy axborot vositalari va markazlarning mediamakondagi faoliyati, innovatsion tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini yaratish, insonparvarlik tamoyillarini targʻib etishning ilmiy-ratsional hamda konstruktiv yoʻllarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamoatchilik bilan aloqalar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi deyarli barcha idora va tashkilotlarning faoliyatlari jamoatchilik bilan aloqalar asosida rivojlantirilmoqda. Jamoatchilik bilan aloqalar asosan Axborot xizmatlari orqali yoʻlga qoʻyiladi. Axborot xizmatlari bu vazifani ommaviy axborot vositalari (OAV) bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 7-avgustda qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalari sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash Davlat dasturi toʻgʻrisida”gi, 2006-yil 22-sentyabrda qabul qilingan “Davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlarida ham Axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirishga alohida eʼtibor qaratilganidir.

### **Tajriba (tadqiqot) obyektiv uslubiyati:**

2016-yili Sh.M.Mirziyoyevning Oʻzbekiston davlati tepasiga kelishi va keyinchalik Prezidentlikka saylanishi ijtimoiy hayotda, mediamarkazlar faoliyatida mutlaq yangi davr boʻldi. Bu davrni mediamarkazlar “Yangi Oʻzbekiston” davri deb baholamoqda. Mavzumiz uchun muhimi shundaki, Prezident xalq bilan ochiq, demokratik tamoyillarga muvofiq keladigan muloqot oʻrnatishni, tanqidiy usulni oʻzining ish uslubi sifatida eʼlon qildi.

Prezident huzurida Xalq qabulxonalarining va Prezident, Bosh Vazir va vazirliklar virtual qabulxonalarining ochilishi, axborot agentliklar

yangi tizimining shakllantirilishi, mahkamalar faoliyatining shaffofligini taʼminlash maqsadida maxsus ishonch telefonlari, veb saytlarning ishga tushirilishi, jurnalist blogerlar safining kengayishi va ular faoliyatini kafolatlashning yangi normalari yaratilishi kabilar mavzumiz uchun muhimdir. Mazkur oʻzgarishlar Oʻzbekiston aholisi uchun innovatsiyadir. Internetni kuzatib borayotgan har bir kishi bugun Oʻzbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qoʻyganiga ishonch hosil qiladi, soʻz erkinligi haqiqiy qadriyatimizga va hayot tarzimizga aylanib borayotganiga guvoh boʻladi. Bu innovatsion va modernizatsion oʻzgarishlar Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan hamda qabul qilingan “2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi” bilan boshlandi. Bu strategiya avval loyiha sifatida xalq muhokamasiga qoʻyildi. Muhokama paytida 1300 dan ziyod ekspertlar qatnashdi, 1310 dan oshiq taklif va tavsiyalar kelib tushdi. Eʼtiborli jihati shundaki, muhokamada chet ellik ekspertlar tomonidan 400 ga yaqin taklif va ishlanmalar, innovatsion takliflar bildirildi, ularning milliy demokratik taraqqiyotga muvofiq keladiganlari hisobga olindi.

Harakatlar strategiyasidagi bosh vazifalar haqida toʻxtalib Prezidentimiz taʼkidlaydi: “Hamimiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar oʻz oldiga nafaqat koʻplab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga oʻtish vazifasini qoʻymoqda. Yaʼni oʻz iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, oʻzlashtirish va ilgʻor texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda. Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexnazimlari eng avvalo shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bogʻliq”. Prezident mamlakatning innovatsion rivojlanishi ilm-fandagi yutuqlarga, ilmiy-texnikaviy kashfiyotlar va ishlanmalarga bogʻliqligini alohida taʼkidlaydi. Shuning uchun ham u, yetakchi olimlar, isteʼdodli yosh ilmiy xodimlar, ixtirochilar, ilm-fan namoyondalarining nufuzini



oshirish, innovatsion ishlanmalarini qo'llab-quvvatlash, targ'ib etish davlatning usutuvar vazifalaridan biri, deb ko'rsatadi. Mazkur konseptual fikr keyinchalik "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi"ni ishlab chiqishga va Prezidentning "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonini qabul qilishga undadi. Mamlakatimizni innovatsion rivojlanish konsepsiyasiga ko'ra, O'zbekiston 2030-yillarga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha dunyodagi 50 ilg'or davlatlar qatoridan joy olishi kerak. Mazkur ilg'or davlatlar taraqqiyoti ilmiy-texnik kashfiyotlar va yuqori axborot texnologiyalarga asoslangan, ushbu ilmiy-texnik omillar insonni og'ir qo'l mehnatidan xalos qilgan, mehnat samaradorligini endi rivojlanish yo'liga kirgan davlatlarnikidan deyarli 200 barobarga oshirgan, kishining axborot yangiliklarga bo'lgan ma'naviy va intellektual qiziqishlarini to'la qondirishga erishgan.

Bugun dunyodagi eng yirik transmilliy axborot korporatsiyalarining, mediamarkazlarning deyarli 50-55 foizi AQSHda, 20-25 foizi Yevropa davlatlarida joylashgan. Beixtiyor T.Jeffersonning quyidagi so'zlari esga tushadi: "Agar menga hukumat bo'lsin gazetalar bo'lmasin yoki gazetalar bo'lsin-u hukumat bo'lmasin birini tanlang, deyishsa, men hech ikkilanmay hukumat bo'lmasa ham gazetalar bo'lishi kerak, degan bo'lardim", degan so'zlari yodga tushadi. Shunday ko'rsatkichlarga erishish oson emas, OAVning faoliyati keskin tarzda o'quvchilar qiziqishlari tomon yo'naltirilishi, mafkuraviy va boshqa tashqi ta'ziyqlardan holi bo'lishi kerak. Buni kommersiyasiz amalga oshirish mumkinmi? Bizning fikrimizcha, mediamarkazlar o'z faoliyatini aniq auditoriya va mahalliy muammolar yechimlariga qaratishi kerak. Bugun rasmiy axborotlarni tarqatish goho gazeta jurnallarning uchdan bir hajmini egallamoqda. Masalan, Prezident va hukumat qarorlari, ular amalga oshirayotgan ishlar tafsilotlari, rasmiy safarlar haqidagi axborotlar deyarli barcha viloyat va tuman gazetalarida beriladi. Yuqoridagi xorijiy davlatlar mediamarkazlari auditoriyasini qiziqtiradigan axborotlarni beradi, rasmiy shaxslarning safarlari va chiqishlari mahalliy muammolarga taalluqli bo'lsa berilishi mumkin [3].

"Ommaviy axborot vositalari" degan tushuncha fransuzcha "moyens dinformation de masse" so'zidan olingan bo'lib, u o'tgan asrning 60 yillaridan beri ilmiy iste'moldadir. Uning asosiy xususiyati sifatida e'tirof etiladigan jihati texnika vositalari (gazeta, jurnal, radio, televideniye, telefon) orqali axborotlarni ochiq tarzda ommaga yetkazib berishdir. Ba'zi mutaxassislar unda axborotlarni tepadan pastga yo'naltirish an'ana, shuning uchun uning o'rniga "ommaviy kommunikatsiya vositalari" degan kategoriyani qo'llash ma'qul degan fikrni bildirishadi. Ba'zan esa ular qatorida "ommaviy targ'ibot vositalari" degan atama ham ishlatiladi. [2]. O'zbek tilida, ayniqsa jurnalistikada bu kategoriyalar muhokama qilinmaydi, ular umumiy nom bilan "ommaviy axborot vositalari" deb ataladi. Bizning fikrimizcha, bu borada turli fikrlarni bildirish, etimologik tahlil o'tkazish, ayniqsa axborotlarning operativligi, obyektivligi va emotsional qabul qilinishi nuqtayi nazaridan u yoki bu kategoriyalarni kiritish mumkin. Masalan, ular o'rniga ba'zan "mediaxborot", "mediamarkaz", "mediatahlil" tushunchalarini qo'llaymiz. Eng muhimi ommaviy axborot vositalarining o'z funksiyalar (mediafunksiyalar)ini bajarishidir.

Ilmiy adabiyotlarda OAVni turli tipologik belgilari borligi qayd etiladi va ularni transmilliy, milliy, regional va mahalliy ko'rinishlarga ajratishadi. Haqiqatan ham, mediamarkazlar ana shu ijtimoiy jug'rofiy, kibermakonda tarqalish belgilariga qarab joylashtirilgan, har bir mediamarkaz ma'lum bir jug'rofiy hududda, makonda, manzilda faoliyat olib boradi. Biroq ular axborotlar tarqatish erkinligidan kelib chiqib transmilliy axborotlardan ham foydalanishlari mumkin. Bu taqdirda hatto tuman gazetasi yoki viloyat televideniyesi global axborotlar bazasini yaratishga intiladi va ulardan foydalanadi.

OAVni auditoriyasiga muvofiq ham klassifikatsiya qilish mumkin. Masalan, yoshlar uchun mo'ljallangan, maktab o'quvchilari, talabalar, keksalar, shifokorlar, olimlar, diplomatlar, vrachlar, yosh tadqiqotchilar, uy bekalari, oshpazlar uchun ham mo'ljallangan gazeta va jurnallar mavjud. Mazkur OAV aniq auditoriyaning qiziqishlaridan kelib chiqadi va ularning ma'naviy, axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. OAVni yozma, og'zaki ko'rgazmali, internet saytlari, demokratik xususiyati, xususiy yoki ijtimoiy ekanligi, axborotlarga ega bo'lish va ularni tarqatish sifati,

nashr etilish belgilari kabilar orqali ham guruhlash mumkin. Ularni ichki funksiyalari va belgilarini tahlil qilish va ochib berish jurnalistikaning vazifasi hisoblanadi.

**Tajriba (tadqiqot) natijalari va ularning muhokamasi:** Ommaviy axborot vositalari (mediamarkazlar)ning bosh funksiyasi jamiyat hayotida sodir bo'layotgan yangiliklar va o'zgarishlarni xalqqa, ommaga yetkazish (mediatahlil)dir. Demokratik qadriyatlarni qaror toptirishni maqsad qilib qo'ygan har bir jamiyat, sotsium mediamarkazlar va mediaxborotlar imkoniyatlaridan foydalanishga intiladi. Chunki, demokratiya va hurfikrlilik, ko'pfikrlilik uyg'undir. Jamiyat hayotining barometri bo'lgan ijtimoiy kommunikatsiya jarayonlari avvalo ommaviy axborot vositalari orqali kishilar onggiga, tasavvurlari va dunyoqarashiga ta'sir etadi, "ommaviy axborot madaniyatini", muhitini yaratadi [4].

Ommaviy axborot vositalarining o'ziga xos fundamental jihatlari mavjud. Ulardan biri axborot subyekti (jurnalist, publitsist, muallif)ning mediamarkazlar faoliyatida, dasturlari va ko'rsatuvlarida avvalo ijodkor sifatida qatnashishidir. Ushbu subyektlar o'zining so'z va ijod erkinligi huquqlaridan kelib chiqib, mediamarkazlarda tadbirlar uyushtiradi, ommaviy auditoriyaga u yoki bu muammolar bo'yicha o'zining qarashlari va tavsiyalarini yetkazadi. Ommaviy axborot vositalari, jurnalist faoliyati sinkretik xususiyatga ega, unda badiiy obrazlar yaratish va ijtimoiy fikrlarni shakllantirish, tarixiy tajribalarni qayta tiklash va ularni zamonaviy muammolar bilan uyg'unlashtirish, badiiy estetik mavzularni texnik vositalar bilan bezatish, obrazlar, simvollar va artefaktlar yaratish, individual rejalarni, metafizik mushohadalarni ommalashtirish, keng auditoriyaga yetkazish, intellektual kuchlarning mediavositalar radio, televideniye, gazeta va jurnallarda, internet saytlarida chiqishini uyushtirish kabi imkoniyatlar mavjud [5].

Bizning fikrimizcha, avvalo mediamarkazlarning jamiyat, sotsium taraqqiyotining maqsadlari bilan uyg'un faoliyat olib borishidan kelib chiqish kerak. Ijtimoiy taraqqiyot maqsadlari mediamarkazlar faoliyatini strategik rejalashtirish negizidir. Agar jamiyat demokratik o'zgarishni, yangilanishni maqsad qilib qo'ysa, mediamarkazlar ushbu maqsaddan kelib chiqishi, o'z imkoniyatlari va vositalari yordamida unga yetishga xizmat qilishi kerak. Bir narsani esdan chiqarmaslik kerak, hech bir jamiyatda

ijtimoiy maqsadlardan mutlaq xoli, mutlaq erkin gazeta, jurnal yoki televideniya yo'q, hatto bloger o'zining xususiy fikrini e'lon qilganida ham o'zi yashayotgan ijtimoiy muhit qiziqishlaridan kelib chiqadi, ushbu muhitning muammolarini tilga oladi. Mediamarkazlar faoliyatini strategik rejalashtirishga ta'sir qiluvchi ikkinchi muhim omil etnoan'analardir. Agar G'arbda shaxs erki va huquqlari barqaror etnoan'ana sifatida e'tirof etilsa, barcha institutlar faoliyati individ manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilsa, Sharqda bu etnoan'ana kommunitarizmida namoyon bo'ladi. Jamoa bo'lib yashashni qo'llab-quvvatlash, e'tiqodiy qarashlarning mushtarakligi, bir-birini qo'llab-quvvatlash hayot tarzi ekanligi, etnos, qavm va urug' manfaatlarini shaxsiy istaklardan yuqori qo'yish an'anasi ushbu kommunitarizmning belgilari hisoblanadi. Mediamarkazlar o'z faoliyatini strategik rejalashtirayotganida ushbu etno-an'analarni hisobga olmasligi mumkin emas, chunki ularning axborot mahsulotlari aniq kishilar, aholi va etnomuhitning ma'naviy talablarini qondirishi kerak. Masalan, O'zbekistondagi mediamarkazlar jamiya-timozda kechayotgan demokratik o'zgarishlardan kelib chiqmasligi mumkinmi? Ular demokratik tamoyillarga tayanayotganida o'zbek etnoan'alaridan, kommunitar turmush tarzidan joy olgan belgilarni inobatga olmasligi mumkinmi? Albatta, yo'q. O'zbekiston mavhum demokratik jamiyat emas, balki o'zbek xalqining tarixiy madaniy rivojlanishiga, mentaliteti va orzu istaklariga muvofiq keladigan, xalqimizning aniq qiziqish va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan demokratik jamiyat qurishni strategik maqsad qilib qo'ygan. Demak, mediamarkazlar va mediavositalar ushbu strategik maqsaddan o'ziga vazifa, yo'nalish va madad oladi.

Mediamarkazlar ichki faoliyati haqida turli qarashlar va konseptual fikrlar mavjud. Ularning demokratik institutlar, ijtimoiy onggaga ta'sir etuvchi markazlar ekanini ularning ichki faoliyati, pozitsiyasi ifoda etadi. Rivojlangan davlatlarda mediamarkazlar aniq ijtimoiy muhit muammolarini ko'tarib chiqqani va ularni umummilliy, umumetnik miqyosda hal etishga erishgani bilan belgilanadi. Jurnalistlar ham shaxsiy ko'ringan muammoni umummilliy, umumetnik darajadagi muammoga aylantirishga intilishadi, oddiy voqeadan sensatsiya, shov-shuv yaratishni kasbiy burchi deb biladi. Ular nazarida OAVning demokratik institut ekanligi

oddiy, arzimas voqelikni ham tilga olib, unga jamiyat va davlat diqqatini jalb etganidadir. Ichki faoliyatni shunday tarzda tashkil etish bir tomondan, mediamarkazlarga mustaqillik bersa, ikkinchi tomondan, ularga mas’ullikni o‘z ustiga olish majburiyatini yuklaydi.

**Xulosa.** Axborot texnologiyalarini yangilab, modernizatsiyalab turish ilmiy-texnik taraqqiyot, axborot asrining talablaridan biridir. Axborot texnologiyalarining yangilanishi axborotlarning yangilanish qonuniyatlariga muvofiq kelishi zarur. Yangi-yangi axborotlar, yangi-yangi texnologiyalar yordamida tarqatilganida samara beradi, ommalashadi va ma’rifiy qiziqish uyg‘otadi.

Hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyot davri, “to‘rtinchi inqilob” (K.Shvabs) yangi axborotlarni tez tarqatadigan va ommalashtiradigan texnologiyalarni yaratayotgan ekan, bu jarayonlardan, imkoniyatlardan mediamarkazlar chekkada qola olmaydi. Bugun yaratilayotgan ilmiy-texnik kashfiyotlar bilimlarning intensivlashishi, chuqurlashishi mahsullaridir. Nanotexnologiya, internet saytlar, blogerlar, medialogalarning tibbiyot, savdo-sotiq, moliya, davlat xizmatlari, ijtimoiy kommunikatsiya tizimlariga kirib kelayotgani axborot institutlari faoliyatini rang-baranglashtirib yubormoqda.

Endi biz yangi yangi axborotlarga muhtoj bo‘lgan holda, ularning tez va samarali ta’sirini ta’minlash haqida ham qayg‘urishga majburmiz. Bu bizni innovatsion kashfiyotlarga intilib, ularni targ‘ib etib yashashga undaydi.

Tavakkal qilib ishlash bozor iqtisodiyotining talablaridan biridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlayotgan OAV ham tavakkal qilishga majbur. Axborotlar, mediaxizmatlar xavfsizligini ta’minlash kishining axborotlar olish huquqi va erkinliklari bilan bog‘liq vazifadir. OAV tarqatadigan axborotlar kishilar o‘rtasida nizolarni keltirib chiqarmasligi, adovat va boshqalarning insoniy sha’nini to‘kishga qaratilmasligi kerak. Axborotlar, mediaxizmatlar xavfsizligi avvalo obyektiv axborotlar tarqatish, jamiyatda insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish bilan bog‘liqdir.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 121.
2. Лапшин И.И. Философия изобретения и изобретения в философии.– Москва: Республика, 1999.– С. 91.
3. Эшбеков Т. Жамоатчилик билан алоқалар ва ахборот хизматлари. Ўқув қўлланма. - Тошкент: ЎзМУ, 2012. 4 б.
4. Бадрийяр Ж. Общество потребления. – Москва: Изд. АСТ, 2020. – С. 138–149.
5. Маркина Ю. В. Мировые транснациональные медиа корпорации сегмент глобализации информационной деятельности // Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки. – 2018. – Том 37. – С. 25–29.



## AHMAD TOSHKO‘PRIZODANING “SO‘Z ILMI” TASNIFI

**Ergashev Urolbek Berkinovich**, Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix” kafedrasida (PhD) dotsenti

### КЛАССИФИКАЦИЯ «НАУКИ СЛОВА» АХМАДА ТАШКУПРИЗАДА

**Эргашев Уролбек Беркинович**, доцент (PhD) кафедры «Социально-гуманитарные науки и история» Ташкентского университета международного финансового менеджмента и технологий

### AHMAD TOSHKOPRIZODA’S “SCIENCE OF WORDS” CLASSIFICATION

**Ergashev Urolbek Berkinovich**, Docent (PhD) of the Department of “Social-humanitarian sciences and history” of the Tashkent International University of Financial Management and Technologies



Tel.: +998936131114

e-mail:

[urolbekjanoblari@gmail.com](mailto:urolbekjanoblari@gmail.com)

Orcid: 0009-0005-4139-0564

**Annotatsiya:** Hozirgi davrga kelib fanlar tasnifi mukammal ko‘rinishga ega. Bunday mukammallikka ilmlar tasnifidagi tarixiy an‘analari, tadqiqotlar va yangiliklarning ta‘siri bor. Bular orasida Ahmad Toshko‘prizodaning “Mavduot al-ulum” asarining ham muhim o‘rni bor. Mazkur maqolada Ahmad Toshko‘prizodaning “Mavduot al-Ulum” asarida tasniflangan “So‘z ilmi” tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Ahmad Toshko‘prizoda, “Mavduot al-Ulum”, “So‘z ilmi”, oddiy so‘zlar, murakkab so‘zlar, arab ilmi.

**Аннотация:** К настоящему времени классификация предметов имеет совершенный вид. На такое превосходство влияют исторические традиции, исследования и инновации в классификации наук. Среди них важное место занимает произведение Ахмада Ташкупризада «Мавдуат аль-Улум». В данной статье анализируется «Наука слова», классифицированная в труде «Мавдуат аль-Улум» Ахмада Ташкупризада.

**Ключевые слова:** Ахмад Ташкупризада, «Мавдуат аль-Улум», «Наука слова», простые слова, сложные слова, арабская наука.

**Abstract:** By the present time, the classification of sciences has become perfect. Such perfection is influenced by historical traditions, research and innovations in the classification of sciences. Among these, Akhmad Tashkuprizada’s work “Mawduat al-ulum” also has an important place. This article analyzes the “Science of Words” classified in Akhmad Tashkuprizada’s work “Mawduat al-ulum”.

**Key words:** Akhmad Tashkuprizada, “Mawduat al-ulum”, “Science of Words”, simple words, complex words, arabic science.

**KIRISH (ВЕВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).** Sharqda ilmlar tasnifi masalasiga oid dastlabki tadqiqotlar antik davr yunon faylasuflari qarashlari asosida olib borilgan bo‘lsa-da, uni rivojlantirish va Sharqqa xos tizimini yaratish Sharqlik olimlarning ulkan yutug‘i hisoblanadi. Umumiy madaniy

rivojlanish ta‘sirida fanlarning ayrim sohalari, xususan ayrim tabiiy bilimlar yuksalish davri kechayotgan bir vaqtda fanlarning imkoniyati, sistemasi, mazmuni, tabiati, ularning kelib chiqishi va tartibi muhim masala sifatida oldinga surildi. O‘sha davr ayrim din rahnamolari esa islom dinini

mustahkamlashga imkon beruvchi faqat islomiy ilmlarni o'rganish va ishlab chiqish zarur deb hisoblar edi. Ular tabiiy ilmlar va falsafaning befoydaligini isbotlashga uringanlar. Lekin shunday bo'lsada, dunyoviy ilmlarga qiziqish borgan sari kuchayib, tabiiy ilmlarni o'rganish ehtiyoji ortib bordi.

“Mavduot al-ulum” asari nafaqat o'z davrida balki, keyingi davrlarda ham ko'pgina olimlarning ilmiy tadqiqotlariga turtki bo'lganligi hamda islomiy ilmlarning eng quyi sohalarigacha batafsil tasniflanib, ularni sharhlanganligi uning musulmon Sharqi xalqlari orasida ilmiy qiymati yuqori ekanligini belgilaydi. Ahmad Toshko'prizoda tomonidan ishlab chiqilgan tasnif esa, turli ilm tarmoqlari doirasidagi tadqiqotlarning rivojlanishini yanada qulaylashtirgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** “Mavduot al-ulum” 1541-yilda yozilgan bo'lib, bu asar faqatgina falsafiy bir tasnif bo'libgina qolmasdan, Ibn An-Nadim, al-Xorazmiy, al-Forobiy, Ibn Sino va Ibn Al-Akfoniyning ilmlar tasnifi sohasidagi tadqiqotlarining mantiqiy davomi hamda so'ngisi hisoblanadi. Asar Usmoniylar imperiyasida ilmlar tasnifi sohasidagi eng muhim manbaga aylangan. Asar hajm jihatdan al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asaridan to'rt marta katta hisoblanadi. Toshko'prizoda ilm va fanlarning turi juda ko'p bo'lib, ularni o'zlashtirishda bir kishining umri yetarli emasligini ta'kidlaydi.

“Mavduot al-ulum” asaridagi ilmlar tasnifi o'z davri uchun mukammal klassifikatsiya edi. Biroq u o'rta asr ilmiy tasavvurlariga xos bo'lgan yuzakilik, chegaralanish, ba'zi masalalarni hal qilishda diniy yondashish singari kamchiliklardan holi emas. Uning uchun ilmlar qatorida shariat amallarining o'rganilishi, g'ayri tabiiy kuchlar va amallarga ishonish kabi dunyoqarashlarning ta'sirini ham ko'rishimiz mumkin. Lekin bu jihat mutafakkirning ilmiy salohiyatiga shubha uyg'otishi kerak emas. Chunki tasnifda keltirilgan bunday ilmlar, biz xohlaymizmi yoki yo'q, o'sha davr insonlar tafakkurida mavjud bo'lgan.

“Mavduot al-ulum” asarining arabcha tarixiy qo'lyozmasi 1895-yil 3 jild ko'rinishida Bayrutda va Istanbulda nashrdan chiqarilgan. Asarda Toshko'prizoda ilmlarni 7 ta asosiy guruhga ajratgan:

I. Yozuv ilmi – 2 qismga bo'lingan bo'lib, jami 9 ta ilm.

II. So'z ilmi – 3 qismga bo'lingan bo'lib, jami 42 ta ilm.

III. Xatolardan saqlanish ilmi (mantiq) – jami 7 ta ilm.

IV. Nazariy falsafa – 3 qismga bo'lingan bo'lib, jami 121 ta ilm.

V. Amaliy falsafa (donishmandlik) – jami 6 ta ilm.

VI. Shariat (din) ilmi – 7 qismga bo'lingan bo'lib, jami 110 ta ilm.

VII. Botiniy ilm – 3 qismga bo'lingan bo'lib, jami 31 ta ilm.

Bu guruhlar o'z navbatida 18 qismga bo'lingan bo'lib, umumiy 330 ga yaqin ilmni o'z ichiga oladi[1].

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazida № 2444 va 2445 raqamlari ostida ham mazkur asarning nusxalari saqlanadi. Ushbu nashrlar 1895-yilda Istanbulda chop etilgan. Shuningdek, markazda Faxriddin Roziyning “Jomi' al-ulum”, Sa'id al-Ansoriy al-Akfoniy as-Sahoviyning “Irshod al-qosid ila isno al-maqosid”, Hoji Xalifa (Kotib Chalabiy)ning “Kitob kashf az-zunun an asami al-kutub va-l-funun”, Al-Makkiyning “Mir'ot al-ulum” kabi ilmlar tasnifiga oid asarlari ham saqlanadi.

**МУНОКАМА(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).** Ahmad Toshko'prizodaning “Mavduot al-ulum” asarida ikkinchi bo'lib “So'z ilmi” tasnifi keltirilgan va u quyidagi tartibda shakllantirilgan.

So'z ilmi quyidagi tarkibiy tuzilmaga asoslanadi:

1. Oddiy so'zlar: so'zlarni talaffuz qilish ilmi, til haqidagi ilm, shakl (arab tili) ilmi, so'z yasash (etimologiya) ilmi, morfologiya haqidagi ilm.

2. Murakkab so'zlar: sintaksis, ritorika, stilistika, notiqlik, metrika, qofiya ilmi, she'r yozilishi (tuzilishi), she'riyat asosi (boshlang'ich), nasr (nasrlar) yozilishi, nasr yozish asoslari va uning zarur vositalari, ma'ruza o'qish, devon (yozilishi), xronologiya haqidagi ilmlarga bo'linadi.

3. Arab ilmi: maqol (matal), millat hodisalari va ularning marosimlari, she'r yozish, shartnoma va arxiv, topishmoq (jumboq) va chigal masalalar (so'fizm), topishmoq (sir, maxfiylik), topishmoq (jumboq, g'ayri oddiylik), xatolik (yozuv xatoligi, noto'g'rilik, varaqlash (sahifalash), so'z o'yini haqidagi ilm, diyonat hikoyalari (ezgulik, xayrli ish),

payg‘ambarlar ma‘lumotlari avliyolarning yurish-turishlari va yashash tarzi, xalifalar tarixi, Qur‘on qiroatchilarining toifalari, Qur‘on sharhlovchilarining toifalari, hadischilarning toifalari haqidagi ilm, Payg‘ambarning izdoshlari va sahobalarining yashash tarzi, Hanafiya vakillarining darajalari, Molikizm vakillarining darajalari, Xanbalizm vakillarining darajalari, Xalos qiluvchilarning darajalari, donishmandlarning darajalari, tabiblarning darajalari haqidagi ilm[2].

Toshko‘prizodaning “so‘z ilmi” tasnifi hajm va miqdor nuqtai nazaridan boshqa mutafakkirlarnikidan farq qiladi. Garchi Farobiy yoki Xorazmiy tasnifida so‘z ilmlari til ilmining bir qismi sifatida ko‘rilgan bo‘lsada, Toshko‘prizoda bu ilmlarni quyi yo‘nalishlarigacha tasniflab alohida ilmlar sifatida ko‘rsatgan. Davrlar o‘tishi bilan so‘z ilmlari ham rivojlanib yanada takomillashganligi bilan bu holatni izohlash mumkin.

**NATIJA LAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** “So‘z ilmi”ning oddiy so‘zlar, murakkab so‘zlar va arab ilmlari sifatida 3 qismga bo‘linishi mazkur sohadagi o‘tmish an‘analarga muvofiq amalga oshirilgan bo‘lsa-da, mutafakkirning so‘z ilmi tasnifida ham arab ilmlarining ustuvorlik qilishini kuzatashimiz mumkin. Mazkur tasnifda keltirilgan ilmlar bugungi kunda alohida fan sifatida ko‘rilmaydi. Chunki so‘z ilmida keltirilgan barcha ilmlar bevosita islom dini va madaniyati bilan bog‘liq holda tasnif etilgan. Xatto, tasnifda keltirilgan etimologiya, morfologiya, sintaksis, ritorika, stilistika, notiqlik, xronologiya kabi sohalar ham faqat arab grammatikasi va madaniyatiga bog‘liq ilmlar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Olarning “so‘z ilmi” tasnifining 3-qism – “Arab ilmi”da keltirilgan va o‘z davrida keng o‘rganilgan ilmlar bugungi kunda mustaqil ilm sifatida ajratib ko‘rsatilmaydi. Aksincha, ular Islom dini tarixiga oid ayrim mavzularning nomi yoki uning qismlari hisoblanadi. “So‘z ilmi”ning bunday

tasnifi al-Forobiy, al-Xorazmiy, Ibn Sino va hatto al-G‘azzoliyda ham uchramaydi.

“Mavduot al-ulum”ning “arab ilmi”da keltirilgan “shartnoma va arxiv”, “topishmoq va chigal masalalar (so‘fizm), “topishmoq (sir, maxfiylik)”, “topishmoq (jumboq, g‘ayri oddiylik), “so‘z o‘yini”, “diyonat hikoyalari (ezgulik, xayrli ish)” kabi ilmlar Toshko‘prizodagacha bo‘lgan davrda yashagan va ilmlar tasnifi bilan shug‘ullangan mutafakkirlar tomonidan alohida ilm tarmog‘i sifatida ko‘rilmagan.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Hozirgi kunga kelib “Mavduot al-ulum” asarida keltirilgan ilmlar tasnifi mazmun jihatidan o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Chunki, tasnifda keltirilgan aksariyat ilmlar ist‘emoldan chiqib ketgan, ba‘zilari esa mustaqil fan sifatida e‘tirof etilmaydi. Lekin, mazkur asarni puxta tadqiq etish orqali ilmlar tasnifi masalasining jamiyat ilmiy tafakkuri taraqqiyotiga bo‘lgan ta‘sirini o‘rganishimiz, tahlil qilishimiz, bu borada yangi ilmiy xulosalarni olishimiz mumkin. Ahmad Toshko‘prizodaning “Mavduot al-ulum” asari ilmlar tasnifi masalasidagi tarixiy an‘analardan, tadqiqotlar va yangiliklarning evolyutsion rivojlanish istiqbollari ilmiy tahlil qilishga va baholashga ko‘mak berib, bugungi davr uchun foydali nazariyalarni ishlab chiqishga zarur fikrlar, g‘oyalar va takliflarni bera oladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):**

1. Taşköprizâde Ahmed Efendi. Miftâhu’s-Saâde ve Misbâhu’s-Siyâde fi Mevzuâtî’l-Ulûm. Cild I, II, III. (Thk. Kamil Kamil Bekri, Abdülvehhab Ebü’n-Nur). Kahire: Dârü’l-Kütübi’l-Hadise, 1968.
2. Taşköprizade Ahmed Efendi. Mevzuatu’l Ulum, (çevirmesi – Mümin Çevik) Cild I. İstanbul, 1989 –S. 95-188.



**DUNYONING LISONIY MANZARASIDA  
“SMILE/TABASSUM” TUSHUNCHALARINING  
VERBALLASHUV VOSITALARI (ingliz va o‘zbek  
tillari misolida)**

**Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti Amaliy ingliz tili  
kafedrası o‘qituvchisi

**СРЕДСТВА ВЕРБАЛИЗАЦИИ ПОНЯТИЙ “SMILE  
/ TABASSUM” В ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА  
(на примере английского и узбекского языков)**

**Жураева Нилуфар Собиржон кизи**

Термезский государственный педагогический институт  
Преподаватель кафедры прикладного английского языка

**VERBALIZATION TOOLS OF THE CONCEPTS OF  
“SMILE/TABASSUM” IN THE LINGUISTIC  
LANDSCAPE OF THE WORLD  
(on the example of english and uzbek languages)**

**Juraeva Nilufar Sobirjon qizi**

Termez State Pedagogical Institute  
Teacher of the Department of Applied English



Tel: +998992440097

e-mail:

[njorayeva461@gmail.com](mailto:njorayeva461@gmail.com)

Orcid: 0009-0006-6511-9231

**Annotatsiya:** Tuyg‘ular odamlarning bir birga o‘zaro ta’sirida markaziy rol o‘ynaydi va ularning og‘zaki nutqi tillar hamda madaniyatlarda farq qiladi. “Smile” (ingliz tilida) va “tabassum” (o‘zbek tilida) tushunchalari baxt, do‘stlik va ijtimoiy uyg‘unlik kabi hissiy holatlarning lingvistik jihatdan qanday kodlanganligini aks ettiradi. Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarining lingvistik manzarasida ushbu tushunchalarni ifodalashda ishlatiladigan verbalizatsiya vositalarini o‘rganishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Hissiy tushuncha, “smile”, “tabassum”, konsept, konseptual metafora.*

**Аннотация:** Эмоции играют центральную роль во взаимодействии людей, и их устная речь отличается в разных языках и культурах. Понятия “smile” (в английском языке) и “tabassum” (в узбекском языке) отражают то, как лингвистически кодируются такие эмоциональные состояния, как счастье, дружба и социальная гармония. Данная статья посвящена изучению средств вербализации, используемых для выражения этих понятий в языковом ландшафте английского и узбекского языков.

**Ключевые слова:** *эмоциональная концепция, “smile”, “tabassum” концепция, концептуальная метафора.*

**Abstract:** Emotions play a central role in the interaction of people together, and their oral speech differs in languages and cultures. The concepts of “smile” (in English) and “tabassum” (in Uzbek) reflect how emotional states such as happiness, friendship and social harmony are linguistically encoded. This article focuses on the study of the verbalization tools used to express these concepts in the linguistic landscape of English and Uzbek.

**Key words:** *emotional concept, “smile”, “tabassum”, concept, conceptual metaphor.*

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Ma'lumki, har bir tilda so'zlashuvchi shaxs, madaniy farqlaridan qat'iy nazar, bir xil asosiy his-tuyg'ularni boshdan kechiradi va bu odamlarni birlashtiradi. Tuyg'ular turli madaniyatdagi odamlarni bir-biriga ko'proq/kamroq o'xshash qiladigan markaziy qism [5] hisoblanib va ma'lum bir lingvomadaniyatni ifodalovchi inson tafakkurining muhim tarkibiy qismidir. **Hissiy tushuncha** deganda "etnik, madaniy jihatdan shartlangan, murakkab, tarkibiy-semantik, leksik va/yoki frazeologik og'zaki ta'lim" tushuniladi, u kontseptual asosga asoslanadi hamda kontseptsiyadan tashqari, baholash shu bilan birga tasvirni o'z ichiga oladi [5]. Shunday ekan, emotsional tushunchalar etnospesifik ekanligi va ma'lum bir tilshunoslik vakillarining fikrlash jarayonini qayd etishini aniqlash mumkin. Shunisi e'tiborga loyiqki, ekstralingvistik bilimlarning saqlovchisi sifatida so'z hissiy tajribalarni ham, atrofdagi dunyo voqealarini baholashni ham anglatadi. Ijtimoiy-madaniy parametrlar ko'p jihatdan ma'lum bir hissiyotni og'zaki ifodalaydigan so'zning mazmunini belgilaydi: umumjahon va millatlararo tajribalardan tashqari, ma'lum bir etnik guruhga xos bo'lgan hamda "milliy shartli reflekslar" tufayli yuzaga keladigan his-tuyg'ularni aniqlash mumkin.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Tilda hissiyotlarni verbalizatsiya qilish, xususan, kognitiv tilshunoslik va sotsiolingvistika doirasida keng o'rganilgan. Lakoff va Jonsoning [1] metaforik tushunchalar nazariyasi shuni ko'rsatadiki, baxt va do'stlik kabi mavhum tuyg'ular ko'pincha metafora yoki majoziy til orqali ifodalanadi. Vierzbicka [2] hissiyotlarning madaniy o'lchovlarini ta'kidlab, madaniy me'yorlar hissiyotlarning tillarda og'zaki bo'lishiga qanday ta'sir qilishini ta'kidlaydi. O'zbek tilshunosligida ham kontsept tadqiqi borasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Xususan, G.A. Abduraxmanova [3], F.I. Nurmanov [6] va H. Xasanovalarning [7] tadqiqot ishlari o'zbek va O'rta Osiyo turkiy tillarining dunyo lingvistik manzarasidagi milliy madaniyat parchalarini o'rganishga bag'ishlangan. Biroq "smile/tabassum" hissiy tushunchasining dunyo lingvistik manzarasida ifodalanish xususiyatlari hozirgacha qiyosiy jihatdan har tomonlama tadqiqot

predmeti bo'lib kelgan emas. Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida "smile" va "tabassum"ning og'zaki so'zlashuvi misollarini tahlil qilib, qiyosiy yondashuvdan foydalanadi. Ma'lumotlar lug'atlar, badiiy matnlar va onlayn korpuslardan olingan bo'lib, ikkala tilda ishlatiladigan idiomatik iboralarni ko'rib chiqadi.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Ingliz va o'zbek tillarida "tabassum" nafaqat hissiyotning jismoniy ko'rinishi, balki turli hissiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan kuchli lingvistik tushuncha bo'lib xizmat qiladi. Lingvistik jihatdan "tabassum" ekspressiv, kommunikativ va ijtimoiy funksiyalarni bajaradigan ko'p funktsional tushuncha sifatida qaralishi mumkin. O'zbek tilida "tabassum" ham xuddi shunday ahamiyatga ega bo'lib, ko'pincha iliqlik, xushmuomalalik va samimiylikni anglatadi. Ikkala til ham tabassumning ba'zi universal funksiyalariga ega bo'lsa-da, madaniy farqlar aniq lingvistik iboralar va talqinlarga olib keladi. Hissiy tushuncha hisoblanmish "smile/tabassum" tushunchalarini haqida so'z boshlashdan konsept ya'ni tushunchaning o'ziga to'xtalib o'tishni maqul deb topdik. Avvalambor, E.S.Kubryakova konseptni "o'zaro bog'lovchi bo'g'in, fikrlash va til; inson tajribasini aks ettiruvchi ong birligi sifatida"; "ongimizning aqliy va psixik resurslari, inson bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tuzilmasi birligi sifatida; xotiraning operativ mazmun birligi, aqliy leksika, miyaning konseptual tizimi va tili (lingua mentalis), dunyoning butun tasviri, inson ruhiyatida aks etadi"-deb ta'kidlaydi [4, c.18]. Shunday qilib, konsept inson bilim va tajribasidan tashkil topgan fikrlash jarayonidagi ma'nolarga ta'sir etadi. Shuningdek, inson faoliyati va bilim dunyosida o'z aksini topadi. O'zbek tilshunoslaridan Sh.Safarov konseptning "moddiylashuvi ong va til tizimi o'rtasidagi hamkorlikning mahsuli, oddiy qilib aytganda uni shakllanishining boshlang'ich nuqtasi voqelik bo'lagi (predmet) haqidagi tasavvur-obrazning yuzaga kelishidir. Bu obraz oddiy sxema yoki shakl bo'lib qolmasdan, balki mazmunli hodisadir", – deb ta'kidlaydi [10,21-b].

Zamonaviy tilshunoslikda esa rivojlanishlar va izlanishlar olib borishlar natijasida konseptual metafora atamasi namoyon bo'la boshladi. Konseptual degani "tushuncha", "tasavvur", "bilish" deganidir. Kontseptual metafora kognitiv



tilshunoslikdagi muhim atamalardan biri hisoblanadi. Bu turli xil sohalarga tegishli bo'lgan bir nechta tushunchalar (kontseptual tuzilmalar) o'rtasida kognitiv aloqalarni yoki xaritalarni o'rnatish jarayonini anglatadi. Metafora "bir narsani boshqa bir narsa asosida yoki vositasida tushunish" deb ta'kidlagan Lakoff va M. Jonson [1]. Dastlab tilshunoslikda metaforalar grammatik, leksik va semantik jihatdan o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy tilshunoslik esa metaforaning tafakkur bilan bog'liq tomonini diqqat markaziga qo'ydi. Shu asosda zamonaviy tilshunoslikda yangi tushuncha "konseptual metafora" tushunchasi paydo bo'ldi.

**NATIJALAR(РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)**  
). Kontseptual metafora nazariyasiga ko'ra, hissiyotlar kabi mavhum tushunchalar ko'pincha aniqroq tajribalar nuqtai nazaridan tushuniladi [1]. "Tabassum" ko'pincha metaforik jihatdan baxt ("a smile that lights up the room") va ijtimoiy bog'lanish ("a welcoming smile") kabi ijobiy his-tuyg'ular bilan bog'liq.

Kognitiv tilshunoslikda tabassumlar leksik birliklar (so'zlar yoki iboralar) va kontseptual tasavvurlar sifatida tushuniladi. "Tabassum" so'zi og'zaki ekvivalentlarga ega bo'lgan og'zaki bo'lmagan muloqot vositalarining kengroq to'plamiga tegishli bo'lib, bu hissiyotlarni til orqali konsepsiyalashning yorqin namunasidir.

"Smile" so'zi o'rta ingliz tili davridagi "smilen" dan kelib chiqqan bo'lib, bu o'z navbatida eski ingliz "smylian" dan olingan. Bu Skandinaviya tilida tabassum qilish yoki kulish ma'nosini anglatuvchi "smila" so'zi bilan bog'liq deb qaraladi. Ingliz tilidagi "smile" leksemasi og'iz burchaklarining yuqoriga burilishi bilan tavsiflangan yuz ifodasini anglatadi, ko'pincha baxt, zavq, do'stlik yoki o'yin-kulgini anglatadi. U turli xil lingvistik, madaniy va hissiy ma'nolarga bo'lib, verbal ifodalanishning bir necha turlari mavjud. Jumladan:

1) oddiy so'zlar bilan ifodalanishi orqali:

- "She smiled at the baby"- U bolaga kulib qaradi.

- "A smile appeared on his face"- Yuzida tabassum ko'rindi.

O'zbek tilidagi "tabassum" leksemasi, inglizcha "smile" leksemasi singari, baxt, do'stlik yoki quvonchni anglatuvchi yuz ifodasini anglatadi. Biroq, o'zbek tilida "tabassum" chuqur ma'nolarga ega bo'lib, ko'pincha nafosat va ichki quvonch bilan

bog'liq. O'zbek tilida "tabassum" tushunchasi ham ingliz tilidagidek bir xil vazifalarga ega. Masalan:

- U menga tabassum qildi;
- Avaz, Feruz sha'niga aytgan bir baytini eslab, murtida kuldi. (S.Siyoyev, „Yorug'lik“.

Ushbu misollarda "smile" hamda "tabassum" tushunchalari tabassum jismoniy harakatini ko'rsatuvchi fe'l yoki ot vazifasini bajaradi. Bu konsepsiyani og'zaki bayon qilishning bevosita usullaridan biridir.

2) Stilistik birliklar bilan ifodalanish orqali:

Ingliz tilida:

- "The sun smiled down on us" (tabiatning timsoli, iliqlik yoki xayrixohlikni anglatadi) - *Quyosh bizga jilmayib qo'ydi.*

- "A smile costs nothing, but gives much" (xayrihohlik hamda mehribonlik) – *Tabassum tekin, biroq bahosiz.*

O'zbek tilida:

- *Ko'zlari muloyim kulib turibdi* [9];

- *Ko'zi kulib turibdi-yu, lablari titraydi* [9].

Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, "smile" va "tabassum" tushunchalari hissiy iliqlik, saxiylik yoki ijobiylik uchun metafora sifatida ishlatilib, asl ma'nosidan ko'proq ma'no anglatmoqda.

Frazeologik iboralar orqali ifodalanishi

- "Grin and bear it" – (qiyin vaziyatlarga ijobiy munosabat bilan chidamoq);

- "Wipe that smile off your face" – (Ko'pincha tanbeh ohangida ishlatiladi, bu ma'lum bir kontekstda baxtni ko'rsatishning nomuvofiqligini ko'rsatadi).

- "Put a smile on someone's face"- (Biror kishini baxtli qilishni anglatadi).

O'zbek tilida:

- "Labidan tabassum arimaydi"- (Doimo xushchaqchaq yoki yaxshi kayfiyatda yurish) kabi misollarni keltirish mumkin.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ /**

**CONCLUSION).** "Tabassum"ning ingliz va o'zbek tillarida tushuncha sifatida verbalizatsiyasi uning lingvistik moslashuvchanligi va madaniy ahamiyatini namoyish etadi. "Tabassum" va "smile"ning asosiy ma'nolari ijobiy his-tuyg'ularni ifodalashda bir-biriga zid bo'lsa-da, ulardan foydalanish madaniy me'yorlarga muvofiq farq qiladi. Ingliz tilida tabassumlar ko'proq individualdir, o'zbek tilida esa ular ijtimoiy

totuvlikni saqlashda katta rol o'ynaydi. Ikkala til ham til, hissiyot va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradigan ushbu universal insoniy hissiy tushunchani ifodalash uchun lingvistik vositalarga boy hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI  
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /  
REFERENCES)**

1. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press. 1980.
2. Wierzbicka, A. *Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals*. Cambridge University Press. 1999.
3. Абдурахманова А. К. Способы номинации лиц как отражение языковой картины мира в узбекском и русском языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент: 2007. 24– с.
4. Кубрякова Е.С. Язык и знание. На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
5. Красавский Н.А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах. – М: 2008. – С. 25
6. Нурманов Ф. И. Миф – важный компонент языковой картины мира. // Журнал «Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук» 2015 № 5-1 с.276-278.
7. Хасанова Г.Х. Национальная культурная картина мира. // Журнал «Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук». 2015. № 5-1. – С.299-301.
8. Шаховский В.И. Эмоциональные культурные концепты: параллели и контрасты//Языковая личность: культурные концепты: Сб. научн. трудов ВГПУ, ПМПУ. – Волгоград: Перемена, 1996. – С.87
9. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2012. – 215 b.
10. Safarov Sh. Kognitiv tilshunosli. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.



## PRAGMATIC INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF PATIENCE AND ENDURANCE

**Raxmanova Sarvinoz Alisherovna**

Teacher of Termiz State Pedagogical Institute

## ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЙ ТЕРПЕНИЯ И ВЫНОСЛИВОСТИ

**Рахманова Сарвиноз Алишеровна**

Преподаватель Термезского государственного педагогического института

## SABR-TOQAT VA CHIDAMLILIK TUSHUNCHALARINING PRAGMATIK TALQINI

**Raxmanova Sarvinoz Alisherovna**

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi



Phone: +998 91 230 50 52

e-mail:

[sarvinozraxonova94@gmail.com](mailto:sarvinozraxonova94@gmail.com)

Orcid: 0009-0009-2366-2393

**Abstract:** This article explores the concepts of patience and endurance through a pragmatic lens, examining their implications in everyday life, psychological resilience, and social interactions. By drawing upon various philosophical, psychological, and sociolinguistic perspectives, the paper aims to elucidate the nuanced meanings of these concepts and their relevance in contemporary society. The study highlights how patience and endurance are not merely passive traits but active skills that can be cultivated and applied in various contexts, thus contributing to personal growth and social harmony.

**Key words:** patience, endurance, concept, personal growth, social harmony.

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются концепции терпения и выносливости с прагматической точки зрения, изучается их влияние на повседневную жизнь, психологическую устойчивость и социальные взаимодействия. Опираясь на различные философские, психологические и социолингвистические перспективы, статья направлена на то, чтобы прояснить нюансы значений этих концепций и их актуальность в современном обществе. Исследование подчеркивает, что терпение и выносливость — это не просто пассивные черты, а активные навыки, которые можно развивать и применять в различных контекстах, тем самым способствуя личностному росту и социальной гармонии.

**Ключевые слова:** терпение, выносливость, концепция, личностный рост, социальная гармония.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola sabr-toqat va chidamlilik tushunchalarini pragmatik nuqtai nazardan ko'rib chiqadi, ularning kundalik hayotga, aqliy chidamlilik va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarga ta'sirini o'rganadi. Maqola turli falsafiy, psixologik va sotsiolingvistik nuqtai nazarlardan kelib chiqib, ushbu tushunchalarning nozik ma'nolarini va ularning zamonaviy jamiyatdagi dolzarbligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot shuni ta'kidlaydiki, sabr-toqat va chidamlilik nafaqat passiv xususiyatlar, balki turli kontekstlarda ishlab chiqilishi va qo'llanilishi mumkin bo'lgan faol ko'nikmalardir va shu bilan shaxsiy o'sishni va ijtimoiy uyg'unlikni rag'batlantiradi.

**Kalit so'zlar:** sabr, chidamlilik, tushuncha, shaxsiy o'sish, ijtimoiy uyg'unlik.

### INTRODUCTION

**(ВВЕДЕНИЕ/KIRISH).** Pragmatics is a subfield of linguistics that studies how context influences the interpretation of meaning in communication. Unlike semantics, which focuses on the literal meaning of

words and sentences, pragmatics examines how speakers and listeners use context—such as social situations, relationships, intentions, and cultural norms—to derive meaning beyond the literal interpretation of language.

## MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR).

Pragmatics is essential for understanding how meaning is constructed and interpreted in real-life communication. It provides insights into the complexities of language use, revealing how context shapes our understanding of spoken and written discourse. By focusing on the interaction between language and its users, pragmatics plays a crucial role in effective communication and the social functions of language. Patience and endurance are two interrelated concepts that have garnered significant attention across disciplines, including psychology, philosophy, and sociology. While often used interchangeably, they embody distinct qualities that play crucial roles in human behavior and interpersonal relationships. Patience is typically associated with the ability to tolerate delay, difficulties, or annoyance without becoming angry or upset. In contrast, endurance is linked to the capacity to withstand hardship or adversity over an extended period. This article seeks to provide a pragmatic interpretation of these concepts, emphasizing their practical applications and implications in everyday life. [1]

To understand the pragmatic aspects of patience and endurance, it is essential to define these concepts clearly.

**Patience** can be defined as the ability to remain calm and composed in the face of delays or challenges. It involves a conscious choice to avoid impulsive reactions and maintain a positive outlook, even when circumstances are unfavorable. Psychologically, patience is often viewed as a form of self-regulation, enabling individuals to manage their emotions and responses in stressful situations. Research suggests that patient individuals tend to experience lower levels of stress and are more adept at problem-solving. [2]

**Endurance**, on the other hand, refers to the capacity to persist in the face of adversity. It encompasses not only physical stamina but also psychological resilience. Endurance is often tested in challenging situations where individuals must confront discomfort, pain, or uncertainty over extended periods. From a psychological standpoint, endurance is linked to grit, determination, and the ability to remain focused on long-term goals despite obstacles. [5]

## DISCUSSION

(ОБСУЖДЕНИЕ/МУХОКАМА). While patience and endurance are distinct concepts, they are closely related and often coexist in practice. Patience can be seen as a prerequisite for endurance, as the ability to tolerate immediate discomfort enables individuals to endure longer-term challenges. Conversely, endurance can foster patience, as individuals who successfully navigate prolonged difficulties may develop a greater capacity for waiting and deferring gratification. [3]

In personal contexts, patience manifests in various forms, such as waiting for significant life changes, managing interpersonal relationships, or dealing with personal challenges. Practicing patience can lead to better decision-making and improved emotional well-being. For instance, individuals who exercise patience in relationships tend to cultivate deeper connections and foster understanding, as they are less likely to react impulsively to conflicts. In the workplace, patience is vital for team dynamics and project management. Professionals who demonstrate patience can navigate challenges more effectively, facilitating collaboration and creativity. A patient approach allows individuals to listen actively to others' perspectives, ultimately leading to more effective problem-solving and innovation. [2]

Educational settings provide fertile ground for cultivating patience.

Educators who model patience create an environment conducive to learning, allowing students to explore ideas and ask questions without fear of judgment. Patience in teaching can enhance student engagement and motivation, leading to improved academic outcomes. Endurance plays a critical role in personal growth and self-improvement. Individuals who cultivate endurance can navigate life's challenges with resilience, fostering a growth mindset. Endurance enables individuals to persist in the face of setbacks, ultimately leading to greater achievements and fulfillment. In sports and physical activities, endurance is paramount. Athletes must train their bodies and minds to withstand physical discomfort and fatigue. The development of endurance not only enhances physical performance but also builds mental toughness, enabling athletes to push beyond perceived limits. [4]

Endurance is essential in social and community efforts, particularly in advocacy and

activism. Individuals engaged in social justice movements often face prolonged struggles against systemic injustices. The endurance to persist despite setbacks and challenges is crucial for driving meaningful change and fostering social cohesion. Psychologically, patience and endurance are influenced by cognitive and emotional processes. Cognitive reframing, the ability to view situations from different perspectives, can enhance patience by allowing individuals to reinterpret delays or frustrations as opportunities for growth. Similarly, emotional regulation skills contribute to endurance, enabling individuals to manage stress and maintain focus on long-term goals. Mindfulness practices have been shown to enhance both patience and endurance. By cultivating present-moment awareness, individuals can develop greater tolerance for discomfort and uncertainty. Mindfulness fosters acceptance and reduces impulsive reactions, promoting a more patient and enduring approach to life's challenges. [6]

In many Eastern philosophies, such as Buddhism and Taoism, patience and endurance are highly valued virtues. Buddhist teachings emphasize the importance of patience in achieving enlightenment, while Taoist philosophy advocates for a balanced approach to life that includes acceptance of natural rhythms and cycles.

**RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ /NATIJARAR).** In Western cultures, patience and endurance are often associated with individualism and self-discipline. The Stoic philosophy, for example, encourages individuals to develop endurance in the face of adversity and to practice patience as a means of achieving inner peace. Despite the numerous benefits of patience and endurance, modern society often presents challenges to cultivating these qualities. The fast-paced nature of contemporary life, fueled by technology and instant gratification, can undermine individuals' ability to wait and persist. [6]

Strategies for overcoming these challenges include: **Setting Realistic Expectations:** Understanding that meaningful outcomes often require time and effort can help individuals practice patience and endurance more effectively.

**Embracing Discomfort:** Developing a tolerance for discomfort and uncertainty can enhance individuals' capacity to endure challenges.

**Practicing Gratitude:** Fostering a mindset of gratitude can shift focus from frustrations to positive aspects of situations, enhancing patience. [3]

### **CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / XULOSA).**

In conclusion, the pragmatic interpretation of patience and endurance reveals their significance in various aspects of life. Far from being passive traits, both qualities are active skills that can be cultivated and applied in personal, professional, and social contexts.

By understanding the nuances of patience and endurance, individuals can enhance their psychological resilience, improve their interpersonal relationships, and contribute positively to their communities. As society continues to navigate the complexities of modern life, the cultivation of patience and endurance will remain essential for personal growth and social harmony.

### **REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / ADABIYOTLAR RO'YXATI)**

1. Baumeister, R. F., & Vohs, K. D. Self-Regulation, Ego Depletion, and Motivation. *Social and Personality Psychology Compass*. 2007. – P. 115-128.
2. Csikszentmihalyi, M. *Flow: The Psychology of Optimal Experience*. Harper & Row. 1990.
3. Duckworth, A. L., Peterson, C., Matthews, M. D., & Kelly, D. R. Grit: Perseverance and Passion for Long-Term Goals. *Journal of Personality and Social Psychology*, 92(6), 2007. – P. 1087-1101.
4. Kabat-Zinn, J. *Full Catastrophe Living: Using the Wisdom of Your Body and Mind to Face Stress, Pain, and Illness*. Delacorte Press. 1990.
5. Nussbaum, M. C. *Creating Capabilities: The Human Development Approach*. Harvard University Press. 2011.
6. Seligman, M. E. P. Positive Psychology, Positive Prevention, and Positive Therapy. In C. R. Snyder & J. L. Sullivan (Eds.), *Handbook of Positive Psychology* (pp. 3-12). Oxford University Press. 2002.

## SURXON VOHASI LO'LILARI IJTIMOY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ro'ziyeva Mashxura Abdimo'minovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

## ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ ЦЫГАН СУРХАНСКОГО ОАЗИСА

Рузиева Машхура Абдимуминовна

Преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

## FEATURES OF THE SOCIAL LIFE OF THE GYPSIES OF THE SURKHAN OASIS

Ruzieva Mashhura Abdimuminovna

Lecturer at Termez University of Economics and Service



Tel: +998 93 075 60

66

E-mail:

[mashxura.ruziyeva@  
mail.ru](mailto:mashxura.ruziyeva@mail.ru)

Orcid: 0009-0005-

9526-9671

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxon vohasi lo'lilari ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlari, ularning etnogenezi va etnik tarkibi borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Surxon vohasi lo'lilarida xo'jalik faoliyati, ijtimoiy hayoti va marosimlaridagi o'ziga xos jihatlar etnografik ma'lumotlar asosida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Surxon vohasi, lo'lilar, ijtimoiy hayot, to'y-marosimlar, kundalik hayot, etnogenezis va etnik tarkibi.

**Аннотация:** В данной статье изложены мнения об особенностях общественной жизни цыган Сурханского оазиса, их этногенезе и этническом составе. На основе этнографических данных выявлены особенности хозяйственной деятельности, общественной жизни и обрядов цыган Сурханского оазиса.

**Ключевые слова:** Сурханский оазис, цыгане, общественная жизнь, свадебные обряды, повседневная жизнь, этногенез и этнический состав.

**Abstract:** This article presents opinions on the peculiarities of social life of the Roma of the Surkhan oasis, their ethnogenesis and ethnic composition. Based on ethnographic data, the peculiarities of economic activity, social life and rituals of the Roma of the Surkhan oasis are revealed.

**Key words:** Surkhan oasis, gypsies, social life, wedding ceremonies, everyday life, ethnogenesis and ethnic composition.

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Jahonda yuz berayotgan globallashuv davrida etnomadaniy jarayonlarning ta'sirida kam sonli etnoslarni saqlab qolish va yer yuzida ularga amaliy yordam berish muhim vazifalardan sanaladi. Bugungi kunda millatlar va elatlarning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatuvchi omillar va etnoslar tarixini tadqiq qilishga bo'lgan ilmiy qiziqish oshib bormoqda. Shu bois, jahondagi lo'lilarning o'tmish etnik tarixi, o'zligini anglashning o'ziga xos jihatlarini, milliy madaniyatining rang-barangligini saqlab qolish, uni o'rganish, tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning Germaniya, Bolgariya, Buyuk Britaniya, Chexiya, Kanada, Isroil, AQSh, Rossiya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarining ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan ko'p ming yillik lo'lilar madaniyati, an'anaviy turmush tarzi va tabiiy-geografik sharoitga moslashishi, ijtimoiy munosabatlari o'rganilmoqda. Jahon etnografiyasida lo'lilar tarixi, tili, madaniyatini o'rganish bo'yicha (цыганология) nomli alohida yo'nalish faoliyat yuritmoqda. Lo'lilar an'anaviy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlarini etnologik aspektda tahlil etishda BMTning (FAO), (FIBL), (FOAM) kabi ilmiy markazlari tomonidan ushbu sohada ilmiy

tadqiqotlar olib borilayotganligi tadqiqotning zaruriyatini belgilaydi. O'zbekistonda xususan, Surxondaryo viloyatida lo'lilar o'zbeklar bilan birga bir necha asrlardan beri yashayotganligi davlat hujjatlari asosida aniqlangan va o'z tasdiq'ini topgan.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).**

Lo'lilar tarixshunosligi bo'yicha bugungi kunga qadar bir qator mahalliy va g'arb olimlari tomonidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, A.D.Grebenkin, A.P.Xoroshxin, A.N.Vilkins kabi olimlar tadqiqotlarida Turkiston o'lkasida yashovchi lo'lilarning tarqalish geografiyasi, o'rnashgan joylari, jamiyatda tutgan o'rni va yerli aholi bilan munosabatlari aks ettirilgan.

L.Jukova, N.N.Tursunov, Sh.Ataxanov, S.N.Tursunov kabi olimlarning tadqiqotlari lo'lilarning xo'jalik mashg'uloti, e'tiqodi va iqtisodiy hayoti bayoni bilan ajralib turadi.

#### **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ /**

**DISCUSSION).** O'rta Osiyoda o'zlarini mug'ati deb atagan lo'lilar guruhi ham yashashadi. Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida yashovchi lo'lilar ba'zan o'zlarini mo'ltoni deb ham atashadi. Ularning asosiy urf-odatlaridan va mashg'ulot turlaridan biri bu tilanchilik qilib yurishlari hisoblanib, mazkur odatni Hindistondan O'rta Osiyoga olib kelganlar. Lo'lilar ajdodlarining hind odatidan kelib chiqqan peshonasiga xol qilish odati O'zbekistonning janubida yashovchi lo'lilar orasida keng tarqalgan [2].

Etnograf J.R.Vinnikov ta'kidlaganidek, 1960-yillarda etnik jihatdan aralashgan aholi hududlarida kichik milliy guruhlarning etnik birlashishi jarayonlari kuzatildi. Shunday qilib, Samarqand va Buxoro viloyatlarida lo'lilar asta-sekin atrofdagi o'zbek aholisiga singishdi. Ammo shunga qaramay, davlat tomonidan amalga oshirilgan choralardan keyin ham lo'lilarning o'zlarining "to'xtatish" yiliga kamida bir necha oy ko'chib yurish, dunyoviy tashvishlardan bir muncha vaqt uzoqlashtirish, o'zlarini hech narsaga yuklamasdan yashash odati etnografik guruhlarning bir qismida saqlanib qoldi [3].

Ma'lumki, lo'lilar qishloq va mahallalarda biqiq yoki tarqoq holda istiqomat qilib kelishadi. Ularning asosiy qismi O'zbekiston fuqarosi sanaladi va boshqa fuqarolar kabi teng huquqli majburiyatlarga egadirlar. Milliy o'zlikni anglashni odatda ikki xil darajaga ajratish mumkin. Birinchi daraja – shaxsiy-psixologik bo'lib, bunda inson o'zini kichik jamiyatning, masalan, oilaning bir bo'lagi sifatida his qiladi.

U orqali o'zining "men" ini angelaydi. Aynan, oilada hayot haqidagi dastlabki tasavvurlariga ega bo'ladi. Shuningdek, har bir xalqning o'zi-ga xosliklari misolida olib qaralsa, oila o'zga mu-hitda juda muhim sanalib, milliy qadriyatlarni ajdodlardan avlodlarga uzatuvchi vosita vazifasini bajaradi [5].

Ikkinchi, kengroq daraja – guruhiy, ijtimoiy-psixologik bo'lib, o'zlikni anglash jarayoni muayyan guruhda sodir bo'ladi. Kishining "men"i haqidagi tasavvuri o'zining aniq ijtimoiy guruhga mansubligini anglashi orqali shakllanadi. Shuni ham inobatga olish lozimki, bunday holatda har bir xalqning vakillarida o'z-o'zini identifikatsiyalashda muammolar yuzaga kelishi ham mumkin. Chunki, ular bir tomondan o'zlarini tarixan qardosh xalqlarining qismi, deb his qilsalar, ikkinchi tomondan yashab turgan mamlakatlari va jamiyatlarining a'zosi, deb bilishadi [4].

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS).** Lo'lilar oilasiga tashrif buyurishganida, olimlar tadqiqot davrida hali qayd etilmagan, qiz olib qochish odatini aniqlashgan. Tadqiqotchilar tomonidan lo'lilarning bu va boshqa urf-odatlarini, marosimlari ularning o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Lo'lilar "O'rta Osiyo lo'lilari" tushunchasiga eng mos keladi. Samarqand va uning tumanlarida 500 ga yaqin lo'lilar bor edi. Bu yerda ularning to'xtash joylari bor edi. Qish faslidan boshqa vaqtlarda chodirlardan muvaqqat yashash uchun uy qurib, bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishgan. Chodirlar soni 10-20 tadan iborat bo'lgan. Qishda ular mahalliy aholidan uylar yoki qo'shimcha binolarni ijaraga olib, qish sovug'idan o'zlarini asrashgan. Asosiy mashg'uloti otlarni ko'paytirish, sotish va almashtirish, yog'ochga ishlov berish hunarmandchiligi (yog'och qoshiq, lagan, elak va turli xil uy anjomlarini yasash). Ular sehr-jodu, an'anaviy tibbiyot bilan ham shug'ullanishgan [7].

Sariosiyo, Uzun, Denov tumanidagi lo'lilar qo'shni Tojikiston orqali vohamizga ko'chib kelgan lo'lilar avlodidir.

Surxon vohasida yashaydigan lo'lilar doimiy yashash joyidan ro'yxatdan o'tmaganligi, pasport rejimiga amal qilmaslik natijasida turmush qurgan ko'pgina kelin-kuyovlarning nikohlari davlat organlari tomonidan qayd qilinmagan. Bunday oilalarning kelgusida tug'ilgan bolalarida ham tug'ilganlik haqidagi guvohnomalar bo'lmagan. Natijada, tug'ilganligi haqidagi guvohnomalari yo'q lo'li bolalarining ko'pchiligi maktabdan chetda qolgan.

Shuningdek, nikoh qayd qilinganligi haqidagi hujjatning, bolalarining tugʻilganligi haqidagi guvohnomalarning yoʻqligi sababli koʻp bolali loʻli oilalari nafaqa olishmagan. Maktabdan chetda qolgan bolalarning koʻpchiligi, keyinchalik pasport ham olishmagan. Bu esa koʻplab loʻli yigitlarini harbiy xizmatdan chetda qolishlariga sabab boʻlgan. Tugʻilganligi haqidagi guvohnoma yoki pasporti yoʻq savodsiz loʻlilarning korxon va tashkilotlarga ishga kirishi ham qiyin masalaga aylangan. Yashash joylarida doimiy roʻyxatdan oʻtmasdan yashaganliklari sababli, mahalliy davlat organlari nazoratidan chetda qolgan loʻlilarda bir qancha salbiy holatlar paydo boʻlgan. Buni balogʻat yoshiga yetmay turib, qurilayotgan oilalar bilan izohlash mumkin. Bunday salbiy koʻrinishlar yashash joyida roʻyxatdan oʻtmaslikka, qurilgan nikohning davlat organlarida qayd qildirmaslik, tugʻilganligi haqidagi guvohnoma va pasportining yoʻqligi kabi sabablar keyinchalik ham saqlanib qolgan.

Surxon vohasida tarqoq holda yashagan loʻlilardan farqli tarzda, toʻp-toʻp boʻlib yashaganlarda aralash nikohlar qurish juda sekin kechgan. Buning asosiy sababi toʻp-toʻp boʻlib yashagan loʻlilarning biqiq holatdagi turmush tarzi hisoblanadi. Ana shu biqiqlik natijasida turgʻunlashgandan keyingi oʻn yilliklarda ham loʻlilarning nafaqat atrofdagi mahalliy oʻzbek yoki tojiklar bilan, balki ularning oʻzaro ichki guruhlari oʻrtasida ham aralash nikohlar qayd etilmagan [4].

Bir tomonlama aralash (er-loʻli, xotin-boshqa millat) nikohlar mavjud. Umuman olganda, aralash nikohlar loʻlilarda boshqa xalqlarga nisbatan juda kam miqdorni tashkil etadi. Vaholanki, etnik jarayonlarda aralash nikohlarning roli katta, zero etnosga oʻzga qavm elementlarini olib kirishda faqat nikohgina eng qulay yoʻllardan biri hisoblanadi. Loʻlilarda aralash nikohlarning kamdan-kam hollarda uchrashi loʻli elatining sofligiga sabab boʻladi. Loʻlilar antropologiyasiga eʼtibor beradigan boʻlsak, tub yerli aholidan katta farq qiladi.

#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).**

Surxon vohasida loʻlilari turmush tarzi va mashgʻulotlari asrlar davomida atrofdagi xalqlarning etnomadaniyati taʼsirida oʻzgarishlarga uchradi. Bu hududda loʻlilar turmush tarzi va kundalik mashgʻulotlaridagi oʻzgarishlar ularning iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega boʻldi. Mehnat koʻnikmalari va yangi-yangi xoʻjalik mashgʻulotlarini oʻzlashtirish natijasida qashshoq va

nochor loʻlilar qatlami keskin kamaya boshladi. Ilgari ular kam malaka va bilim talab etuvchi ishlarda ishlagan boʻlsalarda, bugungi kunda maorif, madaniyat, sogʻliqni saqlash hamda ichki ishlar tizimida ham faoliyat olib bormoqda. Hozirda loʻlilar orasida mulkiy farqlanish sezilarli darajada ortgan. Chorvadorlar, ishbilarmonlar bilan bir qatorda oʻrta hol oilalar, kambagʻal oilalar ham mavjud. Loʻlilarning iqtisodiy hayotida hal qiluvchi omil xoʻjalik mashgʻuloti alohida ajralib turadi. Ular dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik turlari bilan juda oz miqdorda shugʻullanganlar. Asosan, oʻzlarining hayot tarziga qulay hisoblangan aholiga tomoshalar koʻrsatish, tilanchilik, folbinlik, mayda savdo-sotiq, tabiblik orqali kundalik ehtiyojlarini qondirganlar.

#### **ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

#### **(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Tursunov S., Pardayev T., Qurbonov A., Tursunov N. Oʻzbekiston tarixi va madaniyati-Surxondaryo etnografiyasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.
2. Viloyat davlat arxivi Fond-474. 1-jild, 203.
3. Винников Я. Р. Этнические процессы в Средней Азии I некоторая закономерность IX развития. (Тезисы докладов и обобщений Всесоюзного археолого-этнографического совещания по итогам полевых исследований). – Москва, 1972. – С. 72.
4. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX- начале XXв. (Этнокультурные процессы). – Ташкент: Фан, 1991. – С. 97-101.
5. Денов район давлат архиви. Фонд-35 опись-1 жилд-32
6. Кармышева Б. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Наука, 1976. – С.253.
7. Назаров Х. Влияние октябрьской революции на положение и быт среднеазиатских цыган (на примере, цыган живущих в городе Самарканда и Самаркандской области). Автореферат диссертации на соискание учений степени кандидата исторических наук. – Москва: 1970.



## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “MUHABBAT” KONSEPTLI ANTROPOMORF METAFORIK MODELLAR

**Tadjieva Mastura Fayzullayevna,**

Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, (PhD)

## АНТРОПОМОРФНЫЕ МЕТАФОРИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ С КОНЦЕПТОМ “ЛЮБОВЬ” В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ



E-mail:

[tadjieva\\_mastura@mail.ru](mailto:tadjieva_mastura@mail.ru)

[Tel: +998 97 243 28 26](tel:+998972432826)

[Orcid: 0009-0002-2980-6457](https://orcid.org/0009-0002-2980-6457)

**Tadjieva Mastura Fayzullaevna,** старший преподаватель  
Термезского государственного университета, (PhD)

## ANTHROPOMORPHIC METAPHORICAL MODELS WITH THE CONCEPT OF “LOVE” IN ENGLISH AND UZBEK

**Tadjieva Mastura Fayzullaevna,** senior Lecturer of Termez State  
University, (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarida “muhabbat” konsepti metaforik modellari tahlil qiladi, bu modellarning har bir tilning madaniy, ijtimoiy va hissiy manzaralarini qanday aks ettirishini o‘rganadi. Muhabbat ifodalardagi lisoniy tuzilmalar va antropomorf metaforalar tahlil qilinib, tilning inson his-tuyg‘ularini shakllantirishdagi roli haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** kognitiv model, metafora, antropomorf metaforik model.

**Аннотация:** В данной статье анализируются метафорические модели концепта «любовь» в английском и узбекском языках, исследуя, как эти модели отражают культурные, социальные и эмоциональные картины каждого языка. Анализируются лингвистические конструкции и антропоморфные метафоры в выражениях любви, обсуждается роль языка в формировании эмоций человека.

**Ключевые слова:** Когнитивная модель, метафора, антропоморфная метафорическая модель.

**Abstract:** This article analyzes the metaphorical models of the concept of "love" in English and Uzbek, examining how these models reflect the cultural, social, and emotional pictures of each language. Linguistic structures and anthropomorphic metaphors in expressions of love are analyzed, and the role of language in the formation of human emotions is discussed.

**Key words:** cognitive model, metaphor, anthropomorphic metaphorical model.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Muhabbat insoniyat uchun universal bir his-tuyg‘u bo‘lsa-da, uning qanday tasavvur qilinishi va ifodalanishi har bir tilga xos jihatlar bilan farqlanadi. “Muhabbat” tuyg‘usini metaforik taqqoslash tahlili uning ingliz va o‘zbek tillarida ifodalanishining kognitiv mexanizmini ochib berishga imkon beradi, ya’ni, “muhabbat”ning

metaforizatsiya jarayoni uni boshqa soha nuqtai nazaridan tushunish, idrok etish va ifodalash imkonini beradigan kognitiv mexanizmdir. Konseptni o‘rganishning samarali usullaridan biri metaforik modellashtirishdir. Kognitiv tilshunoslikda olimlar tabiiy til aqliy bo‘shliqlarni kognitiv modellar orqali tuzatadi, deb ta’kidlaydilar. “Kognitiv modelni inson ongida dunyo haqidagi ma’lumotlarni qayta ishlash

va saqlashni ta'minlaydigan asosiy mexanizm deb hisoblash mumkin" [4].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, kognitiv metafora dunyoning konseptual manzarasini modellashtirishning yetakchi usullaridan biri hisoblanadi. V.I.Postovalovning fikricha, metafora prizma rolini o'ynaydi, bu orqali inson o'zini va atrofidagi dunyoni anglaydi va tushuntiradi [6].

Metaforani kognitiv-lingvistik yondashuv orqali o'rgangan J.Lakoff va M.Jonson o'zlarining "Metaphors We Live By" asarida "Metafora nafaqat kundalik hayotimizni, tilimizni, balki fikr-u xayolimiz va xatti-harakatlarimizni ham qamrab oladi", – deya e'tirof etadi. Ularning ta'kidlashicha, "metaforaning mohiyati bir narsani boshqa narsaga nisbatan tushunish va boshdan kechirishdir".[3]

Lakoff va Jonsonning konseptual metafora uchun keltirgan misollaridan biri "Love is a journey" bo'lib, undagi JOURNEY (sayohat) yordamida *love* (muhabbat)ni tushunish va boshdan kechirish osonroq. "We went our separate ways" iborasida "muhabbat bu sayohat" deb tushunilgan konseptual domen, "muhabbat" maqsad domen sifatida va "sayohat" manba domeni sifatida, "ular ayro yo'llardan ketishdi" metaforik ifodasi bilan ifodalangan. Shunday qilib, ushbu misolda ifodalangan konsept shundan iboratki, muhabbat bilan yo'lga tushgan ikki kishi uchun alohida sayohatlar ularga "o'z yo'llari bilan borish", ya'ni munosabatlarni tugatish bilan tenglashadi. Lakoff va Jonson ta'kidlashicha, "ba'zi tushunchalar deyarli to'liq metafora yordamida tuzilgan" [3], va misol tariqasida, "love" konseptining asosan metaforik jihatdan tuzilganligini ko'rsatadi: "*love is a journey, love is a physical force (electromagnetic, gravitational, etc.), love is a patient, love is madness, love is magic, love is war*" [3].

Manba domeni (konsepti) asos bo'lib, uning xususiyatlari maqsad domeniga (konseptiga) o'tkaziladi va ular o'rtasida ma'lum o'xshashliklar o'rnatilib metaforik modellar shakllanadi.[1] Anglashiladiki, ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar ongida mavjud bo'lgan va paydo bo'ladigan konseptual sohalar o'rtasidagi aloqa sxemasini (X – bu Y) formula bilan ifodalanishi metaforik modeldir.

Muhabbat metaforalarini o'rganib chiqqan venger tilshunos olimi Zoltan Kyovechesh o'zining "Metaphor and emotion: language, culture, and body

in human feeling" asarida Lakoff va Jonsonning asarlarida qo'llanilgan metaforalariga qo'shimcha ravishda kundalik tilda qo'llaniladigan muhabbat konseptual metaforalarini taklif qiladi [2].

#### **MUHOKAMA**

**(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).** Tilshunoslikda bevosita kuzatish imkoni bo'lmagan mavhum, hissiy konseptlarni kognitiv modellashtirish usuli yordamida maqsad domenga proyeksiya qilingan manba domeniga qarab tadqiqotchilar antropomorf, naturmorf, zoomorf, fitomorf, predmet metaforik modellarni ajratadilar (N.A.Krasavskiy, M.V.Pimenova, E.V.Obletova). Konseptual metaforaning manbai o'rganilayotgan hodisalarga o'xshatilgan jismoniy, moddiy hodisalardir.

Olamning lisoniy manzarasida "Muhabbat" konseptini modellashtirish konseptni ifodalash usullarini aniqlash, uning integral tuzilishini qayta qurishni o'z ichiga oladi. Ingliz va o'zbek tillarida "muhabbat" konseptini ifodalovchi metaforalarning antropomorf, fiziologik, naturmorf, zoomorf, fitomorf, abiomorf (predmetli) metaforik modellari aniqlandi. Ushbu maqolamizda **antropomorf metaforik modellar**ga to'xtalib o'tamiz.

Antropomorfizmga ko'ra jonsiz narsalarga harakat qilish qobiliyati (yashash, o'lish, hissiyotlarni boshdan kechirish va boshqalar) beriladi. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida tabiatning tushunarsiz hodisalari va dunyo tuzilishi qonuniyatlarini tushuntirishda foydalanilgan antropomorfizm qadim zamonlardan beri tafakkurning metafora tabiatining eng muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

**Antropomorf metaforik modellardan** foydalanishning yuqori darajasi insonning real harakatlari, voqelikni o'zgartiruvchi faoliyatining ijtimoiy-psixologik ahamiyati bilan izohlanadi. "Antropomorf metafora – narsa, predmet, shuningdek, odamdan boshqa mavjudot turlariga insonga xos belgilarning ko'chirilishidan hosil bo'lgan metafora. Masalan, Muhabbat bu – ibodan libos kiygan kelinchak" [5,182] Antropomorf metaforik model doirasida "muhabbat" his-tuyg'usi tirik organizmga, biologik mavjudotga o'xshatiladi.

**NATIJARAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Tahlil natijalari ingliz va o'zbek tillarida muhabbatga oid bir nechta muhim antropomorf metaforik modellarning mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu metaforik model Muhabbat – Inson (Love –

Person) Va Muhabbat – Raqib (Love – Opponent) metaforalari yordamida amalga oshiriladi.

Muhabbat – Inson:

1) **Muhabbat inson yoki har qanday tirik organizm kabi tug‘ilishi, yashashi, o‘lishi va ko‘milishi mumkin.** O‘zbek va ingliz tillari manzarasida ham birdek muhabbat tuyg‘usining ushbu biologik jarayonni boshidan kechirguvchi inson sifatida namoyon bo‘lishini quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

O‘zbek tilida: *Hayotdan alamzada yurak ko‘zlari yovuzlik pardasida to‘silgan, muhabbat otlig‘ pokiza fazilat bunday biqiq va qorong‘i bo‘shliqda yashay olmas edi. (Tohir Malik, “Shaytanat”); Biroq, birinchi muhabbatini tuproqqa ko‘mgan Azizxon kechagi Azizxon emasdi. (Said Ahmad, “Ufq”)*

Ingliz tilida: *“Like mother Said to me when I was little, “Love begets love.” (D. H. Lawrence, “Sons and Lovers”); “Celia drew a line across her own throat, to indicate, I guess, the death of love.” (Elizabeth Gilbert Eat, “Pray, Love”)*

2. **Muhabbatni inson kabi ko‘rinishga** va jismoniy nuqsonlarga ega bo‘lishi, masalan, ko‘r bo‘lishi mumkin: *“Well you know they say love is blind.” (Cecelia Ahern, “Love, Rosie”)*

*Muhabbatning ko‘zi ko‘r deydilar! Qismat degani shu: oldingdan oqadi – qadrlamaysan... Kaftingda turadi – ko‘rmaysan, o‘z qo‘ling bilan tashlab yuborasan... (O‘ktam Usmonov, “Girdob”)*

3. **Inson ongida muhabbat insondek his qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi mumkin.** Quyidagi misolda umidsizlikka tushgan sevgi tasvirlangan: *“Elinor’s compassion for him increased, as she had reason to suspect that the misery of disappointed love had already been known to him.” (Jane Austen, “Sense and Sensibility”)*

*Ikkala yosh ko‘ngil qorong‘i muhitning og‘ir kishanlariga bog‘langan holda noumid muhabbat bilan bir-birlarining hasratida entikar ekan... (Abdulhamid Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”)*

4. **Muhabbat insonga xos bo‘lgan harakatlarni,** xususan yig‘lash, uxlash va uyg‘onish kabi qobiliyatlar va harakat funksiyalarini namoyon etishi bilan ham ajralib turadi: *O‘girilib ketishga jur‘atim yetmadi. Sekin-asta ortimga tisarilib sizdan uzoqlashar ekanman, nigohingizda menga atalgan muhabbat yig‘layotganini ko‘rdim. Biroq ovutishga haqqim yo‘q. (Go‘zaloy Solih qizi, “Siz o‘shami”);*

*Shu jumladan muhabbat ham mangu. Faqat uning makoni – toza dil. U kirlangan qalblarga qiyo boqmaydi, nodonlar ko‘nglini tark etadi. ( Abdumutal Abdullayev, “Alushta ertagi”).*

Jangda raqiblar bir-birini jarohatlaganidek, sevgi ham yaralangan jonli mavjudot kabi tilda aks etganini ko‘rish mumkin: *“The deepest of his love belonged to his mother. When he felt he had hurt her, or wounded his love for her, he could not bear it.” (D. H. Lawrence, “Sons and Lovers”).* Quyidagi misolda esa muhabbat har narsa ustidan g‘alaba qozonishga qodir inson sifatida namoyon bo‘ladi: *“There was no remembrance of coldness or imagined wrong – pride did not even struggle to lift its head – love conquered everything.” (T. S. Arthur, “After the storm”)*

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).**

Ushbu tadqiqot, ingliz va o‘zbek tillarida "muhabbat" konseptining antropomorf metaforik modellarini tahlil qilish orqali ikki tilning madaniyatlarini va hissiyotlarini o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni ko‘rsatdi. Antropomorf metaforalar, muhabbat va uning turlicha ifodalarini tushunishga yordam beradi va tilning inson his-tuyg‘ularini qanday aks ettirishi haqidagi fikrlarni rivojlantirish imkonini beradi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Григорова Л.Э. Концепт Curiosity в английской языковой картине мира: дис. ... канд. филол. наук. – Иркутск: ИГЛУ, 2013.
2. Kovecses Z. Metaphor and emotion: language, culture, and body in human feeling / Z. Kovecses. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
3. Lakoff G. and Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: The University of Chicago Press, 1980.
4. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Системс, 2004.
5. Махмараймова Sh.T. Hozirgi o‘zbek tili. Leksikologiya. – Toshkent: “Firdavs-Shoh nashriyoti”, 2021.
6. Постовалова В.И. Картина мира в жизнедеятельности человека. Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира / отв. ред. Б. А. Серебренников. М.: Наука, 1988.

**ABU ISO TERMIZIY MA'NAVIY MEROSINING  
ISLOM ILM-FAN RIVOJIDAGI O'RNI****Temirov Ibrohimjon Qobiljonovich**

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**МЕСТО ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ АБУ ИСА  
ТЕРМИЗИ В РАЗВИТИИ ИСЛАМСКОЙ НАУКИ****Темиров Ибрагимджон Кабильжонович**независимый исследователь Бухарского государственного  
университета**THE PLACE OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF  
ABU ISA TERMIZI IN THE DEVELOPMENT OF  
ISLAMIC SCIENCE****Temirov Ibrahimjon Kabiljonovich**

independent researcher at Bukhara state university



Tel: +998973716091

E-mail:  
ibrohim9107@gmail.com

Orcid: 0009-0005-5265-8888

**Annotatsiya:** Maqolada Abu Iso Termiziy ilmiy-ma'naviy merosi, olimning ibratli hayot yo'li tarixiy-falsafiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, allomaning muhaddislik faoliyati, hadis ilmi rivojidagi o'rni borasida ilmiy tahlillar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Oltin asr, Imom Termiziy, Sunan, Sahih, hadis, tavorix, Ilal, al-Jome, al-Muxtasar, musnad, sulosiyyot, sihoh, Shamsiddin Zahabiy, Abu Said Usmon ibn Said Dorimiy, Said ibn Mansur Marvaziy.

**Аннотация:** В статье на основе историко-философских источников освещается научное и духовное наследие Абу Исы Термизи, образцовый жизненный путь учёного. Также представлены научные анализы деятельности мухаддиса учёного и его места в развитии науки хадисов.

**Ключевые слова:** Золотой век, Имам Тирмизи, Сунан, Сахих, хадис, таварих, Илал, аль-Джаме, аль-Мухтасар, Муснад, Суласият, Сихах, Шамсуддин Захаби, Абу Саид Усман ибн Саид Дорими, Саид ибн Мансур Марвази.

**Abstract:** The scientific and spiritual heritage of Abu Isa Termizi, the exemplary life path of the scientist is covered in the article based on historical and philosophical sources. Also, scientific analyzes are presented on the scholar's muhaddith activities and his place in the development of the science of hadith.

**Key words:** Golden age, Imam Tirmidhi, Sunan, Sahih, hadith, tawarikh, Ilal, al-Jame, al-Mukhtasar, musnad, sulasiyat, sihah, Shamsuddin Zahabi, Abu Saeed Uthman ibn Saeed Dorimi, Saeed ibn Mansur Marwazi.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Hijriy III asr umum islom ilmlari, xususan, nabaviy sunnati ilmlarining gullab-yashnagan davri hisoblanadi. Bu davrda ilm talabida safar qilish va hadis roviylarini o'rganish ilmi faollashib, hadislarni yozib borish yanada kengaydi. Ummat suyangan va islom manbalari deb e'tibor

berilgan "musnad", olti sahih kitoblar turkumiga kiruvchi "sihoh" va "sunan" asarlari yuzaga keldi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Bu asrda hadis ilmi, jarh va ta'dil (roviylarning ishonchli va ishonchsizligini o'rganuvchi ilm) asoschilari bo'lgan

Ahmad ibn Hanbal, Is'hoq ibn Rohavayh, Ali ibn Madaniy, Yahyo ibn Main, Muhammad ibn Muslim ibn Vora, Imom Dorimiy, Usmon ibn Said Dorimiy, Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Termiziy, Abu Zur'a, Abu Hotim Roziyon kabi ko'plab hadis hofizlari va daho allomalar yetishib chiqqan.

Shuningdek, allomalarning kitoblarida bid'atchi va havo'i nafs yo'lida o'zini olim hisoblaganlarning pardalarini yirtish, sirlarini ochish, odamlarni ulardan ogoh etish va ularning xatarini ummatga bayon qilish uchun raddiya yo'lini tutgan.

III-IX asr - hadis ilmining "oltin asri"ga aylandi. Hadislarning "musnad", "jome" va "sunan" shaklidagi katta hadis to'plamlari, o'zida ko'plab hadislarni jamlagan tarixiy-biografik uslubdagi, shuningdek, fiqhiy, aqidaviy hadislarni o'zida mujassam etgan alohida asarlar ham yaratila boshlandi. Hadis to'plamlarini tuzish bo'yicha yangi bir uslub - uch roviyli (sulosiyyot) hadislarni alohida to'plam qilishga asos solindi. Movarounnahrlik muhaddislardan Imom Buxoriy va Imom Termiziyar islom olamida e'tirof etilgan "olti sahih" hadis to'plamlari mualliflari bo'ldilar. Imom Dorimiyning "Sunan" asari o'zining qiymati jihatidan ulardan kam bo'lmagan. Ushbu asar II-VIII asrning ikkinchi yarmi - III-IX asrning boshlaridagi diniy-siyosiy muhit va huquqiy holatning talabi sifatida yuzaga keldi. U islom dunyosida turli firqalarning mafkuraviy kurashlari avj olishi natijasida tarqalgan soxta hadislardan sahihlarini ajratib berish maqsadida tuzildi. Hijriy uchinchi asrda quyidagi muhaddislar faoliyat ko'rsatdilar:

a) Musnad uslubida:

1. Said ibn Mansur Marvaziy (vaf. 842-y.).
2. Abu Bakr ibn Abdulloh ibn Abu Shayba (vaf. 850-y.).
3. Abu Bakr Ahmad ibn Amr Bazzor (vaf. 844 y.).
4. Abu Abdurahmon Baqiy ibn Maxlad Andalusiy (vaf. 889-y.).
5. Abu Said Usmon ibn Said Dorimiy (vaf. 893-y.).
6. Abu Muhammad Abd ibn Humayd ibn Nasr Keshshiy (vaf. 863-y.).
7. Abu Muhammad Horis ibn Muhammad ibn Abu Usoma Tamimiy (vaf. 895-y.).
8. Abu Abdulloh Ahmad ibn Hanbal Shayboniy (vaf. 855-y.).

b) Sahih uslubida:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (vaf. 870-y.).
  2. Muslim ibn Hajjoj Qushayriy (vaf. 875-y.).
- v) Sunan uslubida:
1. Abu Dovud Sulaymon ibn Ash'as Sijistoniy (vaf. 888-y.).
  2. Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy (vaf. 892-y.).
  3. Abu Abdurahmon Ahmad ibn Shu'ayb Nasoiy (vaf. 916-y.).
  4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Moja Qazviniy (vaf. 886y.).

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Mazkur to'plamlar orasida "Sahih" va "Sunan" kitoblari alohida ahamiyatga ega [2]. Imom Abu Iso Muhammad Termiziy islom olamida ma'lum va mashhur olim. U hadis ilmiga oid qimmatli asarlar bilan yurtimiz dovrug'ini dunyoga tarqalishiga salmoqli hissa qo'shgan. Olimning ilmiy merosi haqida olim-u ulamolarimiz ko'plab asarlar yaratgan. Imom Termiziyning boy va serqirra ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish barcha davrlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi [4]. Davlat rahbarining ushbu so'zlari ham hozirgi kunda yana ham izlanishga chorlaydi. "Tarixiy me'rosni asrab avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlarsh har birimizning sharaflari burchimizdir. Islom – haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi" [1].

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Ibn al-Asir "Jome' al usul" kitoblarida Imom Termiziyning to'liq ismini Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zohhak al-Bug'iy as-Sulamiy at-Termiziy deb keltiradi. "Abu Iso" degan kunyasi bilan mashhur bo'lgan. Termiziy deyilishining sababi Movarounnahrda ma'lum va mashhur shaharga nisbatan aytiladi. Bug'iy deyilishining sababi o'zi tug'ilgan Termiz qishloqlaridan biriga nisbatan aytiladi.

Tug'ilishi va vafoti: hijriy 209/824-yili tug'ilgan va 279/892-yilda dushanba kuni, Rajab oyining 13-kuni Termizda vafot etgan. Ba'zilar ismlaridan keyin "zarir" deb ham qo'shib qo'yadi.

Zarir degani ko‘zi ojiz degan ma‘noni anglatadi. Chunki umrlarining oxirida ko‘zlari ko‘rmay qolgan [3].

Ulamolarning maqtovlari: Imom Hokim: “Men Umar ibn Allakdan eshitdim. Imom Buxoriy vafot etdi. Endi Xurosonda ilmida, hifzda, taqvoda va zuhdda Abu Isoga o‘xshashi qolmadi, Juda ko‘p yig‘laganidan ko‘zlari ojiz bo‘lib qoldi”.

Samoniy: “Imom Termiziy hech qanday raqobatsiz zamonasining imomi edi, zehn o‘tkirlikida, yodlash qobiliyati kuchlilikida zarbul masal edi”, – deydi.

Imom Buxoriy ustoz bo‘lsalar ham u kishiga qarata: “Sen mendan foyda olganingdan ko‘ra men sendan ko‘proq foyda oldim”, – degan.

Abul Fido “al-Muxtasar” kitobida: “Imom, Hofiz, ko‘zi ojiz, hadis ilmida ergashilnadigan, mashhur hadis olimlaridan edi”, – deydi.

Abu Said Idrisiy r.a. aytadi: “Muhammad ibn Iso ibn Savra Termiziy, Hofiz, Zarir (ko‘zi ojiz) Hadis ilmida barcha iqtido qiladigan buyuk imomlardan biridir. U “Al jome”, “Tavorix” va “Ilal” kabi asarlar yozgan yetuk olim bo‘lib, uning hadis yod olishi el orasida zarbulmasal bo‘lgandir”.

Ibn Hibbon (vaf. 965 y.) aytadi: “U hadislarni to‘plab, asar yozib, ularni yod olib, muhokama qilgan kishilardandir”.

Abu Ya‘lo Xalil ibn Abdulloh Xaliliy Qazviniy r.a. (vaf. 1054 y.) bunday deydi: “Muhammad ibn Iso ibn Savra ishonchli roviy bo‘lib, u “as-Sunan” nomli hadis asarini yozgan va unda jarh va ta‘dil (hadis roviylarning adolatli va adolatsizligi)ni aytib o‘tgan. Imom Termiziy r.a.dan Marvlik Abu Mahbub va Ajlo kabi roviylar hadis rivoyat qilganlar. Imom Termiziy o‘zining omonatdor va yuksak bilim sohibi ekani bilan mashhur bo‘lgan”.

Isardiy aytadi: “Abu Iso yuksak axloqiy fazilatlar sohibi edi. Uning asari esa, besh ishonchli hadis to‘plamlaridan biri bo‘lib, olimlar, faqihlar, zabardast hadis hofizlaridan iborat munaqqidlar, fazilat sohiblari “Sunan”ni sahihlariga ittifoq qilganlar”.

Shamsiddin Zahabiy (1274 -1347) aytadi: “Imom Termiziy bu ish (hadis ilmi)ning imomlaridan bo‘lgan”. U yana shunday deydi: “Imom Termiziy hadis ilmida o‘z davrining

peşqadam olimlaridan edi. U “Al-Jome” asarining sohibi bo‘lib, buyuk hofiz, ishonchli roviylardandir”.

Olimning bu darajaga yetishishlariga III asr, hadis ilmi cho‘qqiga chiqqan asrda yashagani sabab bo‘lgan. Chunki bu asr sunnatni tadvin bo‘lishi bilan boshlandi. Hadis istilohlari belgilandi, sahih va boshqalarga ajratildi. Bunga dalil Imom Buxoriyning shayxi Aliy ibn Madiniyning qo‘lida hadislar sahih, hasan va zaifga bo‘linishi yaqqol ko‘ringan. Bu vaqtdan oldinroq esa istilohlar ommalashmagan edi. Chunki, u kishi eng ko‘p hadislariga sahih va hasan sifatlarini bergan olimdir [7].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Xulosa sifatida aytish mumkinki, Imom Termiziy ilmiy-ma‘naviy merosi, hadis ilmidagi xizmatlarini tarixiy-falsafiy manbalar asosida o‘rganish, allomaning ibratli hayot yo‘lini ushbu manbalar asosida tahlil qilish uning islom tamaddunidagi o‘rnini to‘g‘ri baholashga xizmat qiladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. D. Rahimjonov., D. Muratov. Hadisshunoslik (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TIU nashriyot – matbaa birlashmasi, 2013.
3. Habiburrohman al-Xoyrobodiy. Al-Miskush shaziy sharhu Jome’ at-Termiziy. – Devband: Maktabat al-Ashrafiyya, 2017.
4. Cho‘tmatov J. Imom Abu Iso Termiziy hayoti va ijodi sahifalari. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2019.
5. Mirzo Kenjabek. Buyuk Termiziylar. – Toshkent: Movarounnahr, 2017.
6. Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Sunan at-Termiziy. 6 juz. – Bayrut: Dor al-G‘arb al-islomiy, 2008.
7. Nuriddin Itr. Al-Imam Termiziy val muvozanatu bayna Jameihi va baynas sahihayn. – Qohira: Lajnat at-ta‘lif vat tarjima van nashr, 1970.

## SAMARQAND VILOYATI QARLUQ SHEVALARIDA KELISHIKLARNING QO‘LLANILISHI

**Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna**

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

## УПОТРЕБЛЕНИЕ СПРЯЖЕНИЙ В КАРЛУКСКИХ ДИАЛЕКТАХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

**Тиллабаева Зилола Рахматиллаевна**, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, Независимый научный сотрудник Узбекско-Финляндского педагогического института



e-mail:

tillabayeva87@bk.ru

[Orcid:0009-0005-1562-](https://orcid.org/0009-0005-1562-307X)

[307X](https://orcid.org/0009-0005-1562-307X)

## USE OF CONJUGATIONS IN KARLUK DIALECTS OF SAMARKAND REGION

**Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna,**

doctor of philosophy (PhD) in philological sciences, Independent researcher of the Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dastlab qarluqlar tili va lahjasining kelib chiqqanligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga to‘xtalib o‘tilgan. Samarqand viloyati qarluq shevalari va o‘zbek adabiy tilidagi kelishiklar, ularning almashinib qo‘llanilishi holatlari haqida fikrlar bildirilgan. Shevalarda qo‘llanadigan kelishik qo‘shimchalari va qadimiy yozma yodgorliklar tilida ularning uchrash shakllari to‘g‘risida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Samarqand viloyati qarluq shevalari, qadimiy yozma yodgorliklar, adabiy til, morfologik shakl, asos, kelishik qo‘shimchalari, fonetik hodisalar, so‘zlashuv nutqi.

**Аннотация:** В данной статье основное внимание уделяется информации о происхождении карлукского языка и диалекта. Были высказаны мнения о диалектах Карлукского района Самаркандской области и договорах в узбекском литературном языке, их взаимозаменяемости. Обсуждаются союзы, употребляемые в диалектах, и формы их встречи в языке древних письменных памятников.

**Ключевые слова:** карлукские говоры Самаркандской области, древние письменные памятники, литературный язык, морфологическая форма, основа, суффиксы спряжения, фонетические явления, наречие, разговорная речь.

**Abstract:** This article focuses on information about the origin of the karluk language and dialect. Opinions were expressed about the dialects of the karluk region of Samarkand region and the agreements in the Uzbek literary language, their interchangeability. Conjunctions used in dialects and their meeting forms in the language of ancient written monuments are discussed.

**Key words:** karluk dialects of the Samarkand region, ancient written monuments, literary language, morphological form, base, conjugation suffixes, adverb, phonetic phenomena, colloquial speech.

**Kirish.** Mustaqillikka erishgach, o‘zbek shevashunosligi doirasida o‘zbek shevalarining fonetik, leksik, grammatik, morfologik qurilishida ro‘y berayotgan jarayonlarni tadqiq etish sohasida katta ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, dialektlarga o‘zbek adabiy tilini boyituvchi manba sifatida yondashish, lahjalarning va adabiy tilning bog‘liqligini o‘rganish, shahar tipidagi shevalarni aniqlash, tadqiq etish metodlarini ishlab chiqish muhim o‘rin tutadi. Zero, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash” [1] kerakligini haqli ta’kidlab o‘tganlar. Zero, “til doimo o‘shida, rivojlanishda bo‘lgan dinamik hodisadir”[2:61-b]. Zotan shevalarga oid so‘z va qo‘shimchalarning leksik-semantik jihatlarini aniqlash, lug‘aviy birliklar tarkibida uchrovchi grammatik hodisalarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash soha rivojida katta ahamiyat kasb etadi.

O‘tmishda qarluqlar tili va o‘ziga xos lahjasining hududlarga tarqalish sabablarini olim Karim Shoniyozovning xuddi shu masalaga tegishli kitoblarida uchratishimiz mumkin: “Qarluq lahjasi tarixan qarluq urug‘larining rivojlanishi asosida shakllangan va ular qadimgi tuku (turk) qabila birlashmasiga mansub bo‘lib, uzoq o‘tmishda Oltoyning g‘arbiy tumanlarida yashaganlar. Turk xoqonligining tashkil topishi bilan (552-yilda) g‘arbiy Oltoydan chiqib, Irtish daryosi sohillarini, Jung‘oriyani, Mo‘g‘ul tog‘ining janubiy yon bag‘ridan to Ile daryosining shimoligacha bo‘lgan hududni egallaydilar. Qarluqlarning katta qismi VI asr o‘rtalarida Sharqiy Turkistonni, Farg‘onani, Toxaristonning ayrim hududlarini tasarrufiga kiritgan edilar. X asrda Yettisuvni ishg‘ol qilgan va katta hududda hukmronlik qilganlar. Shunday qilib, VIII-X asrlarda Ile daryosidan to Sirdaryogacha, hozirgi Chimkent shahridan to Sharqiy Turkistongacha bo‘lgan o‘lkada yashagan barcha turkiy qabilalar qarluqlar hukmronligi ostida bo‘lgan. Qarluqlarning tili shu o‘lkadagi barcha qabilalar uchun umumiy bo‘lgan. Yettisuv, Farg‘ona vodiysi, Sharqiy Turkistonning Torim daryosigacha bo‘lgan hududda qarluqlar bilan birga chigil, xalaj, yag‘mo qabilalari ham yashaganlar, uyg‘urlar ham qarluqlar tarkibida bo‘lgan” [3:481-490-b].

Qolaversa, Karim Shoniyozov aynan Samarqand viloyatida qarluqlarning o‘troqlashgani, qo‘shni hudud aholisi bilan chambarchas aloqalari haqida shunday fikrlarni keltirib o‘tadi: “Movarounnahrda qariyb 200 yil hukmronlik qilgan Qoraxoniylar (qarluq) davlati 1041-yilda ikkiga bo‘linadi. Natijada g‘arbiy qismining markazi Buxoro, keyinchalik Samarqand bo‘lgan” [4:237-b]. Shunday qilib, IX-X asrlarda Yettisuvda, Toshkent vohasida, Movarounnahrda turg‘un yashovchi turkiyzabon aholi, yarim ko‘chmanchi, yarim o‘troq qavmlar uchun qarluq tili umumiy bir til bo‘lib qolgan. Tilning bu o‘zgargan formasiga o‘tishda chigillarning ham roli katta bo‘lgan. Qarluq-chigil tili bu qabilalar bilan yonma-yon va aralash yashagan boshqa turkiy qabilalarning va turg‘un yashovchi turkiy aholining dialektlarini birlashtirishda asos bo‘lgan, albatta [4:269-b]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi oltita: bosh kelishik, qaratqich, tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari o‘zbek shevalarida ham mavjud, biroq qarluq va ayrim o‘g‘uz shevalarida qaratqich kelishigi bilan tushum kelishigi bir xil (-ni) ko‘rsatkichga ega bo‘lib, formal jihatdan farqlanmaydi. Shunga asoslanib, V.V.Reshetov 1951-yilda Toshkent, Farg‘ona tipidagi shevalarda yagona qaratqich-tushum kelishigi mavjud deb ko‘rsatgan edi [5:86-b].

**Asosiy qism.** O‘zbek adabiy tilidagi oltita kelishik aynan Samarqand viloyati qarluq shevalarida to‘rt xil holatda uchraydi. Tushum va qaratqich kelishigi -ni shaklida, jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklari -ga ko‘rinishida qo‘llanadi: *Mäktäbgä qälli. (Maktabda qoldi.) Ukäsini koylägini älli. (Ukasining ko‘ylagini oldi.)*

Kelishik qo‘shimchalari gapda ot va otlashgan so‘zlarni grammatik jihatdan shakllantirib, gapdagi vazifasini ifodalab, boshqa gap bo‘laklari bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Bu xususiyat ham adabiy tilga, ham shevalarga birday daxldor.

O‘zbek adabiy tilida oltita kelishik qo‘shimchasi beshta grammatik qo‘shimchalar bilan ifodalanadi. Xususan, Samarqand viloyatining Urgut, Kattaqo‘rg‘on, Oqdaryo, Tayloq kabi hududlari shevalarida jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklari qorishiq holatda uchrab, jo‘nalish-o‘rin-payt shaklida qo‘llanadi. Masalan, *bāzārgā sātādu, kočājā čiqāmān* kabi.



Kelishik qo‘shimchalarining mazkur lahjada almashinib qo‘llanishi holatlari Sh.Shoabdurahmonov tomonidan izohlangan: o‘rin-payt kelishigi o‘rnida Samarqand-Buxoro shevalarida jo‘nalish kelishigining qo‘llanishi uchraydi. Masalan, *Bü ādāmlār sāni āldinqā nimā qilādi?//ad. Bu odamlar sening oldingda nima qiladi? Män tojgā edim. //ad. Men to‘yda edim.*

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, jo‘nalish kelishigi asosan o‘rin-payt kelishigi o‘rnida qo‘llanadi. Ushbu kelishik qarluq lahjasida deyarli ishlatilmaydi: *jolgā čopān učrāgān, Sāmārqāndgā bārüvdik, Sāmārqāndgā jašājdi* [6:156-b].

Shuningdek, qaratqich kelishigi *-i* unlisi ko‘rinishida qisqarib kelishi mumkin: *Sizi xānāñiz. (Sizning xonangiz.)*

Jo‘nalish kelishigi *-ā, -jä* shaklida qisqarib kelishi mumkin: *Bāxčājā bā. (Bog‘chaga bor.) Sizä işim bā. (Sizga ishim bor.)*

Ushbu sheva turida *-dan* chiqish kelishigi assimilyatsiya hodisasiga uchrab, *-zān* shaklida ishlatilishi mumkin: *Āllizān ketāppan. (Oldingizdan ketyapman.)*

Qaratqich va tushum kelishigi shakllari bir xilda, ya‘ni *-nī, -dī, -tī, -lī* qo‘shimchalari bilan ifodalanadi: *ujnī tāmi, jigittī kordim, qizdī učrattīim, tālli šāxi* va hokazo.

Jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklari ham bir-biriga mutanosib tarzda bir xil ko‘rinishda *-gā, -jä, -kā, -qā, -ñā* shakllarida uchraydi: *fermāgā işläymān, bāyčājā qoydim, işkā borade, tāqqā ketāpti, tāmnā čiqāpti, qāqqā ketāpsān* tarzida.

Qaratqich va tushum kelishiklari ko‘pgina o‘zbek shevalarida bir xil ko‘rsatkichga ega bo‘lishiga qaramasdan, ularning har biri mustaqil kelishik sanaladi. Jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklari haqida ham xuddi shu fikrni takrorlash lozim. Mazkur kelishiklar qo‘llanilishi, vazifalari, ma‘no xususiyatlari kabilar bilan o‘zaro farqlanib turadi. Bu, ayniqsa, gap ichida yaqqol ko‘zga tashlanadi [6:148-b].

Shuningdek, qaratqich kelishigidan oldin kelayotgan so‘z tarkibida egalik qo‘shimchasi uchraydi. Tushum kelishigidagi so‘z o‘zidan keyingi fe‘l turkumiga mansub so‘zga ma‘no va grammatik jihatdan bog‘lanib kelganligi uchun ham bu ko‘rsatkichga ega emas.

Bosh kelishik qo‘shimchasiz holatda barcha shevalarda bir xil qo‘llanadi. Ushbu holat adabiy til va shevalarda uchraydi. Ayniqsa, bu kelishikdagi

so‘z ega, ot-kesim, izohlovchi-aniqlovchi kabi bosh va ikkinchi darajali gap bo‘laklari sifatida kelishi mumkin: *Sālimā siznikigā edi* (Kattaqo‘rg‘on). *Bugun juk kelādu* (Urgut).

Samarqand viloyati qarluq shevalarida qaratqich kelishigi *-ni, -di, -ti, -i* ko‘rinishlarda uchraydi: *Sāvetti vāqtijā dādām rājis bolgān* (Oqdaryo). *Māni gāpim bitta* (Kattaqo‘rg‘on).

Qaratqich kelishigi belgisiz holatda ham ishlatilishi mumkin: *qišlāq fermiri* (Kattaqo‘rg‘on). Demak, ot yoki otlashgan so‘zlarning qaratqich yo tushum kelishigi shaklida ekanligini qaralmishdagi egalik qo‘shimchasi va fe‘l orqali aniqlanadi. Biz tadqiq etayotgan hudud shevalarida tushum kelishigi *-ni* ko‘rinishida uchraydi. *Māllārni suyār, bālām* (Samarqand sh.). *Māržānāni dokāndā kordim* (Kattaqo‘rg‘on). Ba‘zi holatlarda mazkur kelishikning *-li, -ti* shakllari bilan ham ifodalanishi kuzatiladi: *Tāydi qār bāsīptu* (Urgut).

Samarqand viloyati qarluq shevalarida tushum kelishigining assimilyatsiya fonetik hodisasiga muvofiq *-zi, -mi, -li, -ši, -pi, -či* kabi ko‘rinishlari ham bor. Bu holatni ayniqsa Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on, Urgut, Tayloq, Oqdaryo tumanlaridagi qishloq aholisi nutqida kuzatish mumkin. Jumladan, *čāčči orib āl, bizzi hāvligā kelli, dilli xāfā qillu, šāmmi očir, čāppi jāq, pāssi tāzālā* kabi. *-in, -in* tushum kelishigi shakli tarixiy yozma yodgorliklar matnida ko‘p uchraydi. Shuningdek, O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida hozirgi *-ni, -nī* ko‘rsatkichlari ham to‘la ravishda qo‘llanilgan. Qolaversa, *-iy, -ig, -uy, -ug* kabi ko‘rinishlari ham mavjudligi yodgorliklar materiallarida uchrab turadi [6:149-b]. Bu holat qarluq shevalarining unsurlari ildizi qadimiy yozma yodgorliklarga borib taqalishidan dalolat beradi.

Samarqand viloyati qarluq shevalarida jo‘nalish kelishigi asosan *-gā* shaklida qo‘llanadi. Bu grammatik ko‘rinish ham unli, ham undosh tovush bilan tugagan so‘zlarga bir xil qo‘shilaveradi. *Lāš-lušlārini tepāgā čiqārdi* (Tayloq). *Mehmāngā bādduk* (Urgut). Chuqur til orqa tovushlari bo‘lmish q, g‘ tovushlariga qo‘shilganda *-qā* tarzda qo‘llaniladi: *bāqqā bādduk, tāqqa čixtik, qišlāqqā bādduk* (Urgut). Ba‘zi holatlarda so‘zlarning oxiri k, p, s, t, sh, h kabi jarangsiz tovush bilan tugagan so‘zlarga *-kā* tarzda qo‘shiladi: *iškā bārdim, qāpkā sāl, sutkā tāmiyzi qoštīm, tāskā xamir qil* kabi.

So‘z yuritilayotgan hudud shevalarida *-gā, -jä* qo‘shimchalari o‘rnida ham tushum kelishigi qo‘shimchasining qo‘llanilishi shevalarning o‘ziga

xosligi bilan belgilanadi. Masalan, *ortāyimni bārip ajtiņ, māni kutiņ, hāzir siz kirāsiz dedi* (Kattaqoʻrgʻon). Ushbu hududlarda, shuningdek, joʻnalish kelishigi belgisiz qoʻllanib kelishi ham mumkin: *Dādām sāhār mārđāndān bāzār kettilā. Ulār doxtir bārdilā* (Oqdaryo).

Samarqand viloyati qarluq shevalarida muloqot qiluvchi kishilar nutqida oʻrin-payt kelishigi *–dā, –tā* koʻrinishida qoʻllanadi. *–dā* shakli asosan jarangli va uli tovush bilan tugagan asoslarga qoʻshilib keladi: *Āylārdā korinmādi* (Kattaqoʻrgʻon). *Dālādā iślājdu* (Urgut).

Soʻzlarning oxiri jarangsiz undosh bilan tugallanganda *–tā* shaklidan foydalaniladi: *Tāškenttā iślājāpti* (Tayloq).

Tilshunos Nazar Rajabov oʻz kitobida qorluq-chigil-uygʻur guruhiga kiruvchi shevalardan Samarqand, Buxoro, Qarshi, Kattaqoʻrgʻon, Urgut, Shahrisabz kabilarda oʻrin-payt kelishigi bilan joʻnalish kelishigi koʻrsatkichlari bir-biridan kam farq qilishi va aralash holda qoʻllanishini alohida taʼkidlab oʻtadi [5:154-b]. Darhaqiqat, sheva vakillari bilan muloqot qilinganida bu ikkala kelishik shakllari deyarli *–gā* qoʻshimchasi bilan ifodalandi: *Oqišgā bolli. Bāxčāgā bārip kel* (Tayloq).

Shu oʻrinda mashhur rus olimi Y.D.Polivanovning Samarqand viloyati shevalariga bagʻishlangan ishlarida ham bu holatga alohida eʼtibor qaratilgan. Xususan, *bāčālā māktābgā oqijdi; kiši jānijā toppāncāsi bār* (Samarqand); *bizā qišlāqqā turāmiz* (Buxoro); *Sāmārqāndgā jāšājdi* (Qarshi) kabi.

Yuqorida keltirilgan misollardan anglashilib turibdiki, oʻrin-payt kelishigi shakli *–dā* vazifasda keluvchi *–gā* grammatik shakli oxiri unli va jarangli tovush bilan tugagan soʻzlarga, *–kā* variant esa jarangsiz undosh bilan tugagan soʻzlarga, *–qā* shakli chuqur til orqa undoshlaridan keyin qoʻshilib keladi: *Iškā bolli* (Samarqand). *Tāqqā bolāmān* (Tayloq). Ayrim holatlarda *–gā* qoʻshimchasi yumshoq talaffuz qilinib, *–jā* shaklida ham uchraydi. *Šejā bugunčā qāliņ* (Kattaqoʻrgʻon).

Shuni alohida taʼkidlab oʻtish lozimki, Oʻrxun-Enasoy yozma yodgorliklari tilida oʻrin-payt kelishigi qoʻshimchasi oʻrnida *–ā, –jā* shakllari qoʻllanadiki, bu qarluq lahjasiga mansub shevalarning uzoq tarixiy taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtganligidan dalolat beradi.

Demak, nodir yozma yodgorliklar, oʻzbek adabiy tili va Samarqand viloyati qarluq shevalari tahlilidan

shu maʼlum boʻlmoqdaki, oʻrin-payt kelishigi deyarli shakliy bir xillikka ega. Shuningdek, ushbu kelishik turli shakllarda ham namoyon boʻladi, ammo oʻzakka qoʻshilib kelishi oʻxshash. Ogʻzaki nutqda, shevalarda oʻrin-payt, joʻnalish kelishiklari belgisiz qoʻllanib, bosh kelishikka oʻxshab ketishi mumkin, lekin bunday vaziyatlarda ularni bosh kelishik sifatida qabul qilmasdan, mazkur kelishiklarning belgisiz shakli sifatida qarash lozim: *šāhār ketmāq, bāzār učrātēmāq* tarzida.

Samarqand viloyati qarluq shevalarida chiqish kelishigi qoʻshimchasi *–dān* shaklida ishlatiladi. Bu holat uning adabiy til bilan mushtaraklik hosil qilishidan dalolat beradi. *Beštā-beštādān žāylājāptu* (Tayloq) kabi.

Soʻzlarning jarangsiz tovush bilan tugagan negiziga *–tān* shakli qoʻshilib keladi: *U sirā gāptān qāmājdu. Tāštānam qātti-e q bu ādām* (Urgut).

**Xulosa.** Kuzatishlarimiz asnosida *–dān, –tān* qoʻshimchalaridan tashqari, assimilyatsiya hodisasi taʼsirida *–nāj, –nān, –lān, –dān, –tān* kabi koʻrsatkichlari ham uchraydi: *gullān jumšāq, nānnāj āziz bol, qānnān qorqāmān, Tāškānttān kelāpmān* (Samarqand) va hokazo. Oʻrxun-Enasoy yodgorliklarida, “Devonu lugʻotit turk” asarlarida chiqish kelishigi *–dān, –tān, –din, –tin* shakllari orqali ifodalanadi. Jumladan, *kāptān, ondān, oyuздān, tanišdin* (Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari), *mendin, kišidān, eštān, jāldān* (“Devonu lugʻotit turk”). Alisher Navoiy va oʻsha davrda ijod qilgan zamondoshlari asarlarida chiqish kelishigi *–din* koʻrsatkichi (*hajringdin, andin*) bilan ifodalangan. Mazkur kelishik shakli diaxron nuqtayi nazaridan boshqa kelishiklarga qaraganda biroz keyin shakllangan. Ungacha uning oʻrniga oʻrin-payt kelishigi shakli qoʻllangan. Qolaversa, qadimgi yozma yodgorliklarda ham ushbu kelishik juda kam uchraydi. Samarqand viloyati qarluq shevalarida ishlatiladigan chiqish kelishigi qoʻshimchasi oʻzbek adabiy tilidagi singari ish-harakatning bajarilish oʻrnini, paytini, sababini, obyektini ifodalab keladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan umumiy xulsa qiladigan boʻlsak, biz tadqiq qilayotgan hudud shevalarida kelishik qoʻshimchalarining miqdor jihatdan koʻpligi fonetik hodisalar bilan bogʻliq. Ammo oʻzbek adabiy tilida boʻlgani kabi kelishiklar soni oltita. Biroq, asosan, toʻrt xil shaklda almashinib qoʻllanadi. Buni yuqoridagi tahlillar asosida ham koʻrishimiz mumkin. Qolaversa, qadimiy asarlarda, Alisher Navoiy va oʻsha davrda ijod qilgan

zamondoshlari asarlari tilini tadqiq etganimizda ham aynan Samarqand viloyati qarluq shevalarining ayrim grammatik ko'rsatkichlari uchraydiki, bu hudud shevalarining qanchalik ko'hna sheva ekanligidan, uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligidan dalolat beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил, 28 декабрдаги “Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади” мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2018 йил, 29 декабрь.

2. Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси ва методлари. – Тошкент: Академнашр, 2010.– Б. 61.

3. Шониёзов К. Қарлуқлар ва уларнинг тили ҳақида айрим мулоҳазалар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари.–Тошкент: Фан .– Б.481–490.

4. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни.– Тошкент: Шарқ .–Б.237.

5. Шаабдурахманов Ш. Қарлуқское наречие узбекского языка. – Ташкент, 1983. –С.86.

6. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996 – Б.269.



## ХИВА ШАҲАР ДЕШОН ҚАЛЪА ХУДУДИДА ЕР ОСТИ СУВ ТИЗИМИ ҚУРИЛМАЛАРИГА ДОИР МУЛОҲАЗАЛАР

*Sadullaev Bakhram Pulatovich, Xorazm Maʼmun akademiasida  
ijtimoiy-gumanitar fanlar bʼilimi katta ilmiy  
xodimi, tarix fanlari bʼyicha falsafa doktori (PhD)*

## REFLECTIONS ON UNDERGROUND WATER SUPPLY STRUCTURES IN THE DISHAN-KALA AREA OF KHIVA

*Sadullaev Bakhram Pulatovich, Senior Researcher, Social and  
Humanitarian Department, Khorezm Mamun Academy, Doctor of  
Philosophy on Historical Sciences (PhD)*

## РАЗМЫШЛЕНИЕ О ПОДЗЕМНЫХ ВОДОПРОВОДНЫХ СООРУЖЕНИЯХ В РАЙОНЕ ДИШАН-КАЛЪА ГОРОДА ХИВЫ

*Sadullaev Bakhram Pulatovich, stariy nauchnyy sotrudnik  
sotsialno-gumanitarnogo otdela Xorezmskoy akademii  
Maʼmuna, doktor filosofii po istoricheskim naukam (PhD)*



[https://orcid.org/ 0000-  
0001-9053-3385](https://orcid.org/0000-0001-9053-3385)

e-mail:

[bakhram76@gmail.com](mailto:bakhram76@gmail.com)

**Аннотация:** Мазкур мақолада Дешон қалъа худудининг шарқий қисмида аниқланган ер ости сув тизимига доир археологик изланишлар натижалари келтирилган. Шунингдек, ер ости сув тизими қурилмаларининг тузилиши ва уларга ўхшаш Ўрта Осиё худудидида ўрганилган ер ости қурилмалари билан қиёсий таҳлил қилинган. Тадқиқотлар натижалари асосида Хива шаҳрининг XVIII-XIX асрлардаги инфраструктурасига тегишли ер ости сув тизими юзасидан фикр-мулоҳазалар билдирилган ва хулосалар қилинган.

**Калим сўзлар:** Хива, Дешон қалъа, ер ости сув тизими қурилмалари, Оллоқулихон, равоқсимон йўлак, Полвон ҳовуз, Ахсикент.

**Abstract:** This article presents the results of archaeological research of underground water supply structures discovered in the eastern part of the territory of Dishan-kala. The design of underground water supply structures and similar structures studied in Central Asia are analyzed. Based on the results of the study, opinions are expressed and conclusions are made regarding underground water supply structures associated with the infrastructure of the city of Khiva in the XVIIIth-XIXth centuries.

**Keywords:** Khiva, Dishan-kala, underground water supply structures, Allakulikhan, vaulted gallery, Palvan hauz, Akhsikent.

**Аннотация:** В данной статье представлены результаты археологических исследований подземных водопроводных сооружений, обнаруженной в восточной части территории Дишан-калы. Проанализировано конструкция подземных водопроводных сооружений и аналогичные постройки, изученных в Центральной Азии. По результатам исследования высказаны размышления и сделаны выводы относительно подземных водопроводных сооружений, связанной с инфраструктурой города Хивы в XVIII-XIX веках.

**Ключевые слова:** Хива, Дишан-кала, подземные водопроводные сооружения, Аллакулихан, сводчатая галерея, Палван хауз, Ахсикент.

**КИРИШ.** Бизга маълумки, Ўрта Осиё худудидаги қадимий шаҳарларда олиб борилган археологик тадқиқотларда шаҳарлар аҳолисини ичимлик суви билан таъминловчи ва оқава ёки ёмғир сувларининг ташқарига чиқиб кетишига алоқадор тизимларга доир кўплаб маълумотлар қўлга киритилган. Жумладан, Хоразм воҳасида Тупроққалъа [6,с.49-50,рис.22], Султон Увайс тоғидаги Говурқалъа [4,с.356-358,рис.5,2], Тўққалъа [2,с.33,рис.7], Элхарос [3,с.87-88,100-101, рис.18,29], Акчахонқалъа[7,с.41-62,рис.9-10] ёдгорликларининг антик давр қатламларида бундай тизимлар тадқиқ қилинган. Шунингдек, ер ости сув тизими Ахсикент шаҳрининг ўрта асрлар қатламларида ҳам ўрганилган [1,с.30,31,107,111,125,рис.59а,74]. Шаҳарларни барпо этишда жойнинг рельефи, маҳаллий иқлим шароитлари жиддий эътиборга олинган ва инфраструктура тизими ҳам шунга мос равишда шакллантирилган.


Ёдгорликларнинг аксариятида бундай тизимлар оқава сувлар, ёмғир сувларининг ташқарига чиқиб кетишини таъминлаган. Бироқ, қадимги даврларда шаҳар аҳолисини ичимлик суви билан таъминлаш ҳам ҳар бир шаҳар маъмуриятининг муҳим вазифаларидан бири бўлиб, шаҳарсозлик режалаштирилишида асосий ўринлардан бирини эгаллаган. Бу борада кудуқлар, шаҳарларни кесиб ўтган ариқлар қанчалик катта аҳамиятга эга бўлса, улар орасида аҳолини ичимлик суви билан таъминловчи ер ости сув тизими қурилмаларининг мавжудлиги алоҳида қизиқиш уйғотади. Бундай тизимларнинг мавжудлиги шаҳарларда санитария-гигиена қоидаларига қатъий риоя қилишга эътибор жуда кучли бўлганлигини кўрсатади. Ана шундай тизимлардан бири Хива шаҳрининг Дешон қалъа худудида археологик изланишлар давомида аниқланди ва мазкур тадқиқотнинг асосий объектига айланди.




**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ.** Ер ости сув тизимлари билан боғлиқ тадқиқотларни таҳлил қилишда Хоразм археология-этнография экспедицияси, Қорақалпоқ-Австралия ҳамкорлик экспедицияларининг изланишлари ҳамда Ахсикент ёдгорлигида олиб борилган Шулардан 3та объектда тадқиқотлар эски деҳқон бозори ўрнида аниқланган ер ости сув тизими

археологик қазималар натижаларига эътибор қаратилди. Жумладан, А.В.Гудкованинг Тўққалъа [2,с.33], М.А.Итинанинг Элхарос [3,с.87-88; 100-101,рис.18,29], Ю.А.Рапопорт, Е.Е.Неразик, С.А.Трудновскаяларнинг Тупроққалъа, Говурқалъа [4,с.356-358, рис.5,2;6,с.49-50,рис.22] ёдгорликларидаги, В.Ягодин, Ғ.Хожаниёзов, А.В.Г.Беттс ва А.Ж.Торениязовларнинг Оқчахонқалъадаги тадқиқотларида [7, с.48-60, рис.9-10] Хоразм воҳасида қадимги шаҳарларнинг ер ости сув тизими қурилмаларига доир маълумотлар ўз аксини топган бўлиб, уларнинг вужудга келиш тарихи, тузилиши, ясалиш услублари ва қўлланилган ашёлари ҳақида манбалар келтирилади. А.Анорбоевнинг “Ахсикент – қадимги Фарғонанинг пойтахти” монографиясида [1,с.30,31,107,111,125,рис.59а,74] келтирилган ноёб ер ости сув тизими қурилмаси Дешонқалъа худудидан аниқланган ер ости сув тизими қурилмасига айнан ўхшаш бўлиб, X – XII асрларда кенг фойдаланилган бундай тизимларнинг таҳлили ўрта асрларнинг сўнгги босқичларигача улардан шаҳарларни ободонлаштиришда анъанавий тарзда қўлланилиб келганлигини исботлайди.

**ТАДҚИКОТ МАТЕРИАЛИ.** Ҳозирги кунда мамлакатимизда туризмни ривожлантиришда қадимий шаҳарларимизга сайёҳларни жалб қилиш энг муҳим вазифалардан ҳисобланади. Айниқса, тарихий археологик ёдгорликлар қолдиқлари ва меъморий иншоотларнинг жозибadorлиги жиддий эътибор қаратилмоқда. 2019 йил туризм соҳасида қулай инфраструктурани яратиш жараёнида Хива шаҳрининг Дешонқалъа тарихий худудининг шарқий қисмида ободонлаштириш ва қурилиш-таъмирлаш ишлари амалга оширила бошланди. Мазкур ишлар олдида Хоразм Маъмун академияси олимлари Дешонқалъа худудининг Карвонсарой ва Саидниёз Шоликорбой мажмуаси яқинида археологик дала-кузатув ишларини олиб борди. Изланишлар давомида 6 та объектда шурф ва траншеялар амалга оширилди.

## Объект №1.



-  Ўртача зичликдаги жигар ранг тупроқ катлами
-  Пишган гиштар терими
-  Кул ранг лойка катлам

қурилмаларида олиб борилди (1-расм) [5,с.264-266].

### 1-расм. Эски бозор майдонида ер ости сув тизими аниқланган археологик кидирув объектларининг жойлашуви

1-объект карвонсаройдан 70 м шарқда жойлашган бўлиб, траншея шаклида (0,8x4 м) тадқиқ қилинди. Траншея қазилган жойда ер ости сув тизими қурилмалари қолдиқлари қайд этилди (Объект №1) (2-3 расмлар).

### 2-расм. 1-объектнинг тарҳи ва кесими

Шунингдек, ушбу траншеядан 16,5 м шимоли-шарқ томонда 3x2м ҳажмда шурф солиниб, ушбу ер ости сув тизими қурилмаларининг шимолга йўналтирилган қисми аниқланди (Объект №2) (4-5 расмлар).



1-объектдан 12 м жануби-ғарбда қазилган траншеядан (Объект №3, 0,8x6 м) (6-7 расмлар) ҳам ушбу тизимнинг жанубга йўналтирилганлигини тасдиқловчи маълумотлар қўлга киритилди.








### 3-расм. Ер ости сув тизими қирқимининг кўриниши (Объект №1)












Объект №3



-  пишган ғишт тўшамаси
-  тўқ жигарранг туپроқ катлами
-  қурилиш ашёлари чиқиндилари катлами
-  тўқ жигарранг каттик туپроқ катлами
-  кул ранг кўкимтир лойқа катлам

Объект №2



-  XX аср 2-ярми - XXI аср бошларига оид тўқ кул ранг тупр
-  Асфальт қопламаси
-  Шибаланган пишган ғиштлар аралашган каттик кул ранг
-  Ёғоч кўмир аралашмасидан иборат кул ранг кўкимтир ю
-  Кул ранг кизғиш туپроқли юмшоқ катлам
-  Тўқ кул ранг юмшоқ катлам
-  Пишган ғиштлар терими
-  Кул ранг лойқа катлам

0 20 60 см

4-расм. Ер ости сув тизимининг ён томондан қирқимда кўриниши. 2-объект

### 5-расм. Ер ости сув тизимининг ён томондан кўриниши (Объект №2)

Учала ҳолатда ҳам ер ости сув тизими қурилмаларининг устки қисми замонавий ер юзаси сатҳидан 1,3-1,5 м чуқурликда эканлиги аниқланди. 1-объектда юза қатламлар асфальт қопламаси ва мармар билан қопланган бетондан иборат. Ундан қуйи қатламда 0,7-0,8 м гача қалинликда XX асрнинг 2-ярми ва XXI аср бошларига оид қурилиш чиқиндилари аралашмасидан ташкил топган тўқ кулранг қатлам ётади. Бу қатлам остида ер ости сув тизими қурилмалари асосан пишган ғиштлардан равоқсимон (аркасимон) шаклда барпо этилган бўлиб шимол-шарқдан жануби-ғарб томон йўналтирилганлиги яққол сезилади. Пишган ғиштлар ҳажми 26x26x5 см, 27x27x5 см, 28x28x5 см ни ташкил этади. Ғиштлар 15 қатор қилиб терилган ва усти ҳам ғишт билан текис ёпилган. Баландлиги 95-100 см, эни пастки қисмида 40 см га яқин. Ички қисми қорамтир кул ранг лойқа билан тўлиб деярли сув ҳаракати учун тўсилиб қолган. Бу тизим қаердан бошланиб қаергача давом этганлигини аниқлаш кенг қамровли тадқиқотларни талаб этади [5, 266].

### 6-расм. 3-объектнинг тарҳи ва кесими

Дешон қалъа худудидан аниқланган ер ости сув тизимлари қурилмаларига ўхшаш иншоотлар Ахсикент ёдгорлигидаги тадқиқотларда аниқланган. Бундай қурилмалар Ахсикентнинг ғарбий қисмидаги биринчи шаҳристон (АХСИ-1А) худудидан 2 та жойдаги қазилмаларда (Қаз.№VIII ва Қаз.№XVIII) очиб ўрганилган. 8-қазилмада ер ости сув тизими иншооти арк томонга қараб шимол-жануб йўналишида қурилган. Иншоот равоқсимон йўлак шаклида 26-28x14-16x3-4 см ҳажмдаги пишган ғиштлардан барпо этилган. Унинг ичидан диаметри 26 см ли қувур ўтган (8-расм) [1, с. 107, рис. 59а]. 18-қазилмада ҳам ер ости сув тизими иншооти шимол-жануб йўналишида қурилган. Иншоот равоқсимон йўлак шаклида бўлиб, пишган ғиштларнинг ҳажми 26-29x14-16x3-4 см ни ташкил этади ва 8-қазилмадаги иншоот билан деярли бир хил. Унинг ичидан ўтган қувурларнинг диаметри 24-26 см [1, с. 125,

рис.59а]. Мазкур ер ости сув иншоотларидан X-XII асрлар давомида фойдаланилган бўлиб [1,с.

128,269], шаҳар аҳолисини ичимлик суви билан таъминлашга қаратилган.



шарқдан



ғарбдан

### 7-расм. 3-объектнинг кўриниши

Дешон қалъадаги бундай тизим қолдиқлари ҳақида аниқ маълумотлар йўқ. Бироқ маҳаллий аҳоли вакиллари Ичон қалъа ҳудудида оқава сувлар чиқиб кетадиган шундай тизимлар мавжуд бўлганлигини олиб борилган таъмирлаш жараёнларида кузатганликлари ҳақида маълумотлар берадилар. Оқава сув тизимлари асосан сопол қувурлар занжиридан иборат бўлган ва ер остига сингиб кетадиган махсус қурилма адан (ташнов)ларга йўналтирилган. Аммо, равоксимон шаклдаги мазкур қурилма сув-оқава тизимларидан фарқ қилиб, у асосан ер


ости йўли орқали шаҳардаги ҳовузларни сув билан таъминлашга қаратилган (9-расм).

Ана шундай ҳовузлардан бири “Паҳлавон” ёки “Полвон” ҳовуз номи билан юритилиб, аниқланган ер ости сув тизими қурилмаларидан шарқда жойлашган. Бу ҳовуз XX аср бошларида Х.Девонов томонидан олинган фотосурат ва 1922 йилда ишланган Нигматуллаев харитасини таҳлил қилиш асосида мазкур ҳудудда Раҳимқулихон мадрасасининг орқа томони, яъни шимолида ҳовуз мавжуд бўлганлиги кузатилади [8,207-208 бб; 5, с.266-267, рис.2].





8-расм. Ахсикент ёдгорлигидаги тадқиқотларда аниқланган ер ости сув иншооти қурилмаси




9-расм. Ер ости сув тизими билан боғланган Полвон ҳовуз

**ХУЛОСА.** Шундай қилиб, археологик кузатув ишлари натижасида олиб борилган тадқиқотларнинг дастлабки хулосасига кўра, тадқиқ қилинган объектлардан топишган сопол идишлари асосан XIX асга тааллуқли бўлиб, ер ости сув тизими қурилмаларидан ушбу даврда кенг фойдаланилганлигини кўрсатади. Ер ости сув тизими қурилмалари яхши сақланган ҳолатда бўлиб, Хоразмда хонлик даврида санитария-гигиена ва тозалик қоидаларига жиддий эътибор қаратилганлигидан далолат беради. Афтидан, ушбу чора-тадбирлар Муҳаммад Раҳимхон I ва Оллоқулихон даврида амалга оширилган Хива шаҳрини ободонлаштириш, эски биноларни таъмирлаш ва янги иншоотлар барпо этиш ишлари билан бевосита боғлиқ бўлса керак. Айниқса, Оллоқулихон томонидан 1831 йилда Ичонқалъадан шарқда эски кўл ҳудудининг туپроқ билан кўмдирилиши, 1841 йилда Хива шаҳристонининг Дешон қалъа деворлари билан ўраб олинishi ташқи шаҳарнинг инфраструктура тизимига жиддий ёндошилганлигини кўрсатади [8, 238-243, 257 бб].

Афтидан, бу ер ости сув тизими қурилмалари Дешон қалъа шимолидан оқиб ўтган Сирчали ариғидан бошланиб, Дешон қалъанинг шарқий худуди бўйлаб жанубга томон ҳаракатланган ва шаҳар жанубидаги коллектор тизимларига бориб туташган (10-расм). Бу ер ости тизими қурилмаси тадқиқ қилинган ушбу худудда турар жойлар барпо этилишидан олдин бунёд этилган ва устига тупроқ тортилиб кўмилган. Ушбу тизим орқали шаҳардаги катта ҳовузлар сув билан таъминланган ва вақти-вақти билан тозалаб турилган. Агар бундай тизим давлат сиёсати даражасида амалга оширилган бўлса, демак, бундай тизимлар Дешон қалъанинг бошқа худудларида ҳам бўлиши эҳтимолдан йироқ эмас.

1922 йилда Муҳаммад Карим Неъматулла ўғли (Маткарим наққош) томонидан чизилган



10-расм. Дешон қалъанинг шарқий қисмида ер ости сув тизимининг тахминий йўли

#### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Анарбаев А. Ахсикет – столица древней Ферганы. – Т.: “Tafakkur”, 2013. 535 с. - с. илл.
  2. Гудкова А.В. Ток-кала. – Т.: Фан, 1964. – 172 с. с илл.
  3. Древности Южного Хорезма // ТХАЭЭ, Т. XVI. (Отв.ред.: М.А.Итина). – М.: “Наука”, 1991. – 288с.
  4. Рапопорт Ю.А., Трудновская С.А. Городище Гяуркала. // ТХАЭЭ, Т. II. (Под. ред. С.П.Толстова и Т.А.Жданко). – М.: Изд-во АН СССР, 1958. – С. 347-366.
  5. Садуллаев Б.П., Салаев Э.А., Рахимов Ш.Б., Якубов А.Р. Археологическо-изыскательные работы в восточной части Дишан-калы. // Вестник Хорезмской академии Маъмуна. №9. – 2021. – С. 264-269.
  6. Топрак-кала. Дворец. // ТХАЭЭ, Т. XIV. (Отв.ред. Ю.А.Рапопорт, Е.Е.Неразик). – М.: Наука, 1984. – 303 с.
  7. Торениязов А.Ж. Кубуры городища Акшаханкала. // ВЕСТНИК МИЦАИ. Выпуск 28, 2018. С. 41-62.
- Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўхна қалъа. Тошкент, 2012. 347

Хива шаҳри харитасида ариқ ва ҳовузлар ҳам тасвирга туширилган бўлиб, фақат энг катталаридан ўнтаси кўрсатилган. Ҳозирги вақтда бу ҳовузларнинг 7 таси сақланиб қолган. Ҳовузнинг суви бузилиб қолмаслиги учун сув бир томондан кириб, иккинчи томондан чиқиб туриши учун ариқлар қазиб қўйилган [8,314-315 бб]. Лекин эски бозор майдонидаги қазилмалар бу ерда ер ости сув йўллари бўлиши эҳтимolini ҳам кўрсатади.

Демак, Дешон қалъа худудида ҳозирги кунда сақланиб қолган ҳовузларнинг сув таъминоти масаласини ҳам тадқиқ қилиш жуда муҳимдир. Чунки бу тадқиқотлар шаҳарда ер ости сув тизимларининг тармоқларини аниқлаш имкониятини беради. Бунда албатта ҳозирги замонавий технологик воситалардан, айниқса, георадар ускунасида кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Ер ости сув тизимлари қурилмасини консервация ва реконструкция қилиш аждодларимизнинг юксак маданият соҳиби бўлганликларини бутун дунёга кўрсатиш учун намуна бўлади. Албатта, бундай тизимлар аждодларимиз томонидан қадимги даврлардаёқ барпо этилиб, анъанавий тарзда кейинги тарихий даврларгача давом этиб келган. Одамлар ҳаракатланадиган йўлақлар остида қалин ойналар билан ёпилган ҳолатда очик осмон остида уларнинг кўргазма сифатида намоён қилиниши, албатта, хорижий сайёҳларда катта қизиқиш уйғотади.

## CHOG'ISHTIRILAYOTGAN TILLARDA GENDER MUNOSABATLARNI IFODA ETUVCHI MAQOLLARNING ASIMMETRIK VA SIMMETRIK XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Munojot Muxtorovna, O'zbekiston Respublikasi IIV  
Akademiyasi "O'zbek tili va xorijiy tillar" kafedrasida katta  
o'qituvchisi

## ASYMMETRICAL AND SYMMETRIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS EXPRESSING GENDER RELATIONS IN LANGUAGES OF DIFFERENT SYSTEMS

Abdullaeva Munojot Mukhtorovna, Senior teacher of the Academy  
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan  
department of "Uzbek language and foreign languages"

## АСИММЕТРИЧНЫЕ И СИММЕТРИЧНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОСЛОВИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ ГЕНДЕРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В ЯЗЫКАХ РАЗНЫХ СИСТЕМ

Абдуллаева Муножот Мухторовна, старший преподаватель  
кафедры "Узбекский язык и иностранные языки" Академии  
МВД Республики Узбекистан

**Annotatsiya:** maqolada ingliz, rus va o'zbek tillarida gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarning asimmetrik hamda simmetrik xususiyatlarini ochib berish orqali gender lakunarligi hodisasining maqol matnida gender juftliklari bo'lmagan, hamda maqolda genderni aniq ifoda etuvchi leksik birlik qatnashmagan nominatsiyalarning mavjudligi ularni gender lakunar birliklari sifatida tavsiflashga imkon berilish kabi xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** maqol, gender munosabatlar, asimmetriya, simmetriya, lakuna, gender juftlik, parallelizm, nomutanosiblik, tenglik.

**Abstract:** The article reveals features of the phenomenon of gender lacunarity, such as the presence of nominations in which there are no gender pairs in the proverbial text, and in the proverb the lexical unit, which clearly represents gender, does not participate, by revealing asymmetric and symmetrical features of Proverbs expressing gender relations in English, Russian and Uzbek languages.

**Key words:** proverb, gender relations, asymmetry, symmetry, lacuna, gender pair, parallelism, imbalance, equality

**Аннотация:** в данной статье путем выявления асимметричных и симметричных особенностей пословиц, выражающих гендерные отношения в английском, русском и узбекском языках, характеризуется феномен гендерной лакунарности наличием в тексте пословицы существительных без родовых пар, а также без лексического единица, четко выражающая род в пословице, что делает их гендерно-лакунарными единицами.

**Ключевые слова:** пословица, гендерные отношения, асимметрия, симметрия,



<https://orcid.org/0009-0007-7638-6906>

e-mail:  
[mundil1326@gmail.com](mailto:mundil1326@gmail.com)

**KIRISH.** Simmetriya-asimmetriya tamoyili tabiatni, shuningdek, vaqt, harakat, makon nazariyalarini o'rganishning asosiy universal prinsipidir. Ushbu tamoyilning tushunilishi ilmiy dunyoqarashning inqilobiy, fundamental kashfiyotlari va yutuqlaridan biri deb hisoblash uchun barcha asoslar mavjud. Simmetriya deganda obyektiv borliqda narsa va hodisalarning tartiblili, muntazamligi, bir xilligi kabi tushunchalar tushuniladi.

Simmetriya muntazamlilik, saqlanish, o'zgarmaslik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u barqarorlikning namoyon bo'lishi, muvozanat holatidir. Asimmetriya "tartibni, muntazamlilikni, ma'lum bir xilma-xillikni buzishni aks ettiradi. Asimmetriyada ko'p o'lchovli va turli xil bog'lanishlar bilan bog'liq bo'lgan muvozanat va barqarorlikning buzilishi namoyon bo'ladi".

Tilshunoslikda simmetriya va asimmetriya fenomenlariga tilshunos olimlarimiz tomonidan ta'rif va tavsiflar berib o'tilgan. Avvalo, simmetriya – bu geometriya, grafik dizayn, me'morchilik va san'at kabi fanlarga oid tushuncha hisoblanib, deyarli barcha fanlar doirasida ushbu terminning qo'llanilishini kuzatamiz.

Asimmetriyani tushunish simmetriyaga bog'liq. Simmetriyaning asosiy xususiyati – muvozanat hisoblanadi. Asimmetriya simmetriyaning barcha belgilarining obyektivoqligi bilan hosil bo'ladi. Asimmetriya simmetriyaga qarama-qarshi namoyon bo'ladi. Asimmetriya va simmetriya o'zaro bir butun obyektiv borliqning ikkita nuqtasi hisoblanib, doimo birlikda va bir-biriga qarama-qarshi namoyon bo'ladi. Yuqoridagi ta'riflarga suyanganda biz simmetriya va asimmetriya terminlarini til hodisalari uchun ham taalluqli deb ham ayta olamiz. Tilshunoslik uchun ham simmetriya va asimmetriya hodisalari taalluqlidir.

Simmetriya hodisasi nuqtayi nazaridan shuni ham anglash mumkinki, sathlararo til birliklari o'rtasida o'zaro bir-biriga mos va o'xshash, tartib va tenglikka ega bo'lgan xususiyatlar, tamoyillar, metodlar nazarda tutiladi. "Simmetriya" termini ostida muvozanatning borligi, bir-biriga mosligi va nomutanosibligini tilshunoslikning har bir sathida kuzatish mumkin. Til – so'z boyligi uchun xizmat qila oladigan birlik sifatida e'tiborga olinadi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Tilshunoslikda simmetriya va asimmetrik hodisalar ustida bir qancha olimlar izlanishlar olib borishgan va o'z fikr-mulohazalarini ilgari surishgan. Chunonchi, simmetriya, A.Kretovning fikriga ko'ra, til sistemasining muvozanat va muntazamliligini ifodalash uchun ishlatiladi. Til unsurlari o'rtasida simmetrik aloqalar, qoidalar va munosabatlar mavjud bo'lib, bu tilning tuzilishini va ishlashini tushunishga yordam beradi.

XX asr tilshunosligida fundamental yutuq, shak-shubhasiz, lingvistik asimmetriya g'oyasini birinchi marta tilshunoslikka taqdim etgan Ferdinand de Sossyurning goyasidir, keyin bu g'oya Sh.Balli, S.Karsevskiy, V.Gak, G.Avramov, A.Likov va boshqalar tomonidan mustahkamlandi. Til birliklarining asimmetriya mohiyatini tahlil qilgan va ko'rib chiqqanlar ham ular edi. G.Abramov simmetriya va asimmetriya kategoriyalarini tahlil qilib, asimmetriya tipologiyasini ishlab chiqdi. Keyinchalik V.Gak tadqiqotini davom ettirdi va simmetriyaning uchta turi mavjudligini taklif qildi va boshqa asimmetriya turlarini ko'rib chiqdi. U til tizimining asimmetriyasi ko'rinishini, tizim bo'g'inlari tengsizligining rivojlanishini, tizim bo'g'inlarining tengsizligini, yadro (markaz/yadro) va periferiyaning mavjudligini bir toifaga olib keladi.

Asimmetriya va simmetriya fenomenalari til sathlarining har biri uchun birdek taalluqli bo'lib, bu hodisalardan til birliklari doirasida bir qanchasini tarixiylik va zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblagan holda, turli tizimdagi tillarda gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarda bu hodisaning aks etishiga alohida e'tiborimizni qaratdik.

Gender asimmetriyasi erkak/ayol tamoyillarini og'zaki ifodalovchi gender birliklarining teng bo'lmagan vakili bo'lgan taqdirda tizimni tashkil etish darajasida gender tengsizligi mavjudligini ko'rsatadi.

Tizimning kichik guruhining har bir guruhida nominatsiyalarni tashkil etish ikkita aniq usuldan biri bilan amalga oshiriladi: gender juftligi yoki lakunar birlik. Gender juftligi erkak va ayol shaxslarning juftlashgan ismlarini o'z ichiga oladi, mos ravishda nominatsiyalarni tashkil etishning belgilangan turi gender simmetriyasining mavjudligini anglatadi.

Differensial belgisiga, gender juftligiga kiritilgan nominatsiyalar bir xil integral qiymatga ega ya'ni erkak / ayol ega.

Masalan, parent, родитель, ota-ona gender juftliklarida "ota-ona" integral qiymati bir xil, jins belgisi esa mos ravishda farqlanadi. Father, ota, отец – erkak; mother, мать, ona – ayol jinsiga mansub.

Gender juftliklar o'zlarining matn mujassamlanishini ikkita ko'rinishda ifoda etadi.

Gender juftlikning birinchi ko'rinishi aniq xususiyatga ega: juftlikning tarkibiy qismlari bir xil maqolda ifoda etiladi. Masalan:

Первую дочь бери – по **отцу**, по **матери**, а вторую – по сестре!

**Баба** пляшет, а **дед** плачет.

A good **wife** makes a good **husband**.

Like **father (mother)**, like **son (daughter)**.

Yomon farzand **ota-onani** yerga qaratay, yaxshi farzand **ota-onani** elga oralatay.

Yomon **erkak** to'y buzay, yomon **xotin** – uy.

Yuqorida keltirilgan maqollarda shuni ko'rish mumkinki, chog'ishtirilayotgan tillarda ifoda etilgan har bir maqolda gender komponentli maqollarning tarkibiy qismlari barchasida o'xshashdir, masalan rus tilida отец va мать, баба va дед, ingliz tilida esa wife - husband , mother – father, son - daughter bilan, o'zbek tilida esa ota – ona, erkak – xotin o'zaro simmetrik xoslikni ifoda etmoqda.

Gender komponentli maqollarning ikkinchi ko'rinishi yashirin xarakterga ega bo'lib, maqolning tarkibiy qismlari chog'ishtirilayotgan tillarda turli xil maqollar orqali ifoda etiladi. Shu bilan birga bunday ko'rinishda ifoda etilgan maqollar asimmetrik xususiyatga ham ega bo'ladi, ya'ni gender komponentlarida nomutanosibliklar seziladi, bu bilan maqollarda ota-ona, o'gil-qiz, aka-uka, opa-singil va shu kabi simmetrik tenglik kuzatilmaydi, balki ota-o'gil, ona-qiz kabi nomutanosiblik kuzatiladi. Bunday asimmetrik xususiyatlarni chog'ishtirilayotgan tillarda qiyoslash, yoki chog'ishtirish jarayonida aniqlash mumkin. Masalan,

Каков **батюшка**, таковы у него и **детки**;

Какова **мать**, таковы и **детки**;

Like **mother**, like **daughter**;

**Onasiga** qarab **qizini** ol.

Yuqoridagi misollarda maqollar matnlarida gender asimmetriyasining asosiy ko'rinishlaridan biri gender lakunarligidir. "Gender lakunarligi"

(lacuna/lacunarity) atamasi hozirda tilshunoslikda ham tillararo, ham til interferensiyasi lakunarligi nuqtayi nazaridan muayyan bir ta'rifga ega emas. Bu borada dunyo tilshunoslari turlicha qarashlarga ega. Jumladan, intralingvistik gender lakunarligi M.P.Alekseeva va E.G.Basalayevalarning "Gender komponentining semantizatsiyasida lakunarlik hodisasi" deb nomlangan ilmiy tadqiqot ishida gender lakunarlik maqolda faqat bitta a'zoning mavjudligi deb ta'riflanadi. Bu esa mualliflarning fikriga ko'ra, "jins bilan bog'liq lisoniy leksik lakunalar mavjudligi haqida fikr bildirish" imkonini beradi.

Qisqa qilib aytganda gender lakunarlik jins kategoriyasida juftlikni emas, balki toq'likni talab etadi.

Quyida ingliz, rus va o'zbek tillarida fikrimizga dalil bo'luvchi misollarni keltirib o'tamiz. Masalan:

The **wife** is the key of the house.

A good **woman** is worth (if she were sold) the fairest crown that's made of pure gold.

Хорошая **баба** – праздник, плохая – поминки.

Родился **сын**, как белый сыр.

Yomon **xotin** – dardsiz kasal.

Hunarli **yigit** – mevali daraxt.

Muayyan tilning o'ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa GMIEMlarni tahlili jarayonida intralingvistik nuqtayi nazaridan gender lakunarligi hodisasi kuzatiladi. Bunda maqollarning gender lakunarlik muayyan maqol strukturasi, unda qo'llanilgan gender komponentining belgilangan birliklarini bir-biriga o'zaro bog'lash usuli sifatida xizmat qiladi.

Maqollarda simmetrik va asimmetrik hodisasi nafaqat genderni anglatuvchi leksik birliklarning qo'llanilishida, balki maqol strukturasi ham yaqqol namoyon bo'ladi. Maqollarda simmetriya hodisasi: maqollarda grammatik va semantik tenglik va uyg'unlikni anglatadi. Simmetrik maqollar ko'pincha muvozanatli (balanced) yoki aks ettirilgan (mirrored) shaklida bo'lib, bu ularni yanada ritmik va eslab qolishni osonlashtirishi mumkin. Maqollarda simmetriyaga parallelizm, xiazm, antiteza, takror, antimetabola, o'xshatish kabi stilistik vositalar qo'llash orqali erishish mumkin. Masalan:

Man proposes, God disposes.  
A son is a son till he takes him a wife, a daughter is  
a daughter all of her life.  
Men are from Mars, women are from Venus.

**Like father, like son.**

Дочке – золото, брату – серебро.  
Муж без жены – что гусли без струн.  
Муж голова, жена душа.

**Мужчину украшает ум, женщину – красота.**

Bola – loy, ona – kulol.

Epli qizdan qolma,

Sepli qizni olma.

It – vafo, xotin – jafo.

Otasi tentakning birisi – tentak,

Onasi tentakning barisi – tentak.

Asimmetrik maqollar ifodasida mutanosiblik ko'zga tashlanmaydi yoki parallel tuzilishga ega bo'lmaydi. Ular taqqoslaganda nomutanosiblikni o'z ichiga olishi mumkin yoki ularning shaklida aniq struktura ko'zga tashlanmaydi. Asimmetrik maqollar ba'zan murakkabroq tuzilishga ega ekanliklari hamda o'ziga xosligi bilan ham simmetrik maqollardan farq qiladi. Masalan,

Behind every successful man is a strong woman.

When a fool goes to the bath, he forgets to wash his face.

A woman's work is never done.

Хитрую бабу и на лошади не объедешь.

Баба слезами беде помогает.

Для поговорки мужик в Москву пешый пошел.

Qizim uyda, qilig'i tuzda.

Tul xotinning boshida turna tezaklar.

Epli xotin uyni tutar orasta,

Epsizida uy to'rida latta-putta.

Simmetrik va asimmetrik maqollar muloqotda alohida maqsadlarga xizmat qiladi. Simmetrik maqollar ko'pincha aniqlik, ritm va muvozanatni ta'kidlab, ularni osongina esda qolarli qilsa, asimmetrik maqollar, ba'zan murakkabroq bo'lsa-da, kuchli tasvir va o'ziga xos urg'u yaratishi mumkin. Har ikki tur ham madaniyatlar va tillararo xalqona donolikni yanada boyitishda muhim rol o'ynaydi.

**XULOSA.** Gender komponentli maqollarning asimmetrik va simmetrik xususiyatlari, ularning tabiati, ular orqali voqealanuvchi makon, zamon, harakat kabi tushunchalarni o'zida mujassam etgan universal hodisadir. Simmetriya gender munosabatli maqollarni sintaktik qurilishida muntazamlilikni, gap qurilishini saqlab qoluvchi tamoyildir.

Gender lakunarlik esa, genderga oid aniq ma'lumotlarni olib tashlash maqollarni yanada universal va hamma uchun qo'llaniladigan qiladi, gender stereotiplari va tarafkashliklarni davom ettirishdan qochishga yordam beradi, gender tengligi va xilma-xillikka qaratilgan global tendensiya neytral yoki inklyuziv tildan foydalanishga yordam beradi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Baxtiyorova S. Simmetriya va asimmetriya terminlarining tilshunoslikdagi o'rni, ta'rifi, ahamiyati. *Международный научный журнал №5(100), часть 2. Научный импульс. Декабрь, 2022, -С 1463.*
2. Gak V. Interlanguage asymmetry and the prognostication of transformations in translation. In: Zlateva, Palma (ed.): *Translation as Social Action.* London: Routledge, 1993, p. 32-39.
3. Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek xalq maqollari.-Toshkent. SHARQ, 2005.-B 512.
4. William Carew Hazlitt. *English Proverbs and Proverbial Phrases.*- Reeves and Turner, 1907. – P 580.
5. Алексеева М.П, Басалаева Е.Г. Явление лакунарности в семантизации гендерного компонента. *Межвузовский сборник научных трудов.* – Новосибирск: изд-во НГПУ, 2009. – С. 173–179.
6. Вейль Г. Симметрия. Перевод с английского. Москва. Наука, 2007. С 192.
7. Даль.В. *Пословицы Русского народа.* - Москва: Художественная литература, 1989. – 433с.
8. Сонин А.С. *Постижение совершенства: симметрия, асимметрия, дисимметрия, антисимметрия.* М.: УРСС, 2014. Москва. – 208 с.

## ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В НАУЧНОМ ДИСКУРСЕ

Шералиева Ширин Абдисаломовна, Узбекский  
государственный университет мировых языков, доктор  
философии по филологическим наукам (PhD)

## ILMIY DISKURSDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIDAGI MUAMMOLAR

Sheraliyeva Shirin Abdisolomovna, O'zbekiston davlat jahon  
tillari universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## TRANSLATION PROBLEMS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN SCIENTIFIC DISCOURSE

Sheraliyeva Shirin Abdisolomovna, Uzbekistan State World  
Languages University, Doctor of Philosophy in Philological  
Sciences (PhD)



<https://orcid.org/0009-0009-1210-9189>

e-mail:  
[shirin.3009@mail.ru](mailto:shirin.3009@mail.ru)

**Аннотация:** Основная цель данного исследования заключается в выявлении и анализе специфических трудностей, возникающих при переводе фразеологических единиц в контексте научного общения. Задачи исследования включают теоретическое обоснование понятия фразеологической единицы и ее роли в научном дискурсе, выявление основных проблем, связанных с переводом таких единиц. На эту тему написано ряд научных работ. В качестве примера приведены взгляды разных ученых на эту концепцию.

**Ключевые слова:** словосочетание, фразеология, устойчивые сочетания, словосочетания, фразеологические единицы, перевод, научный текст, научный дискурс.

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad – ilmiy diskursda frazeologik birliklar tarjimasidagi muammolarni yoritishdan iborat. Ushbu mavzu bo'yicha bir qator ilmiy ishlar tadqiq qilindi. Mazkur masalaga turli olimlarning qarashlari misol tariqasida keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ibora, frazeologiya, turg'un birikmalar, so'z birikmalari, frazeologik birliklar, tarjima, ilmiy matn, ilmiy diskurs.

**Abstract:** The main goal of this research is to identify and analyze specific difficulties that arise when translating phraseological units in the context of scientific discourse. The objectives of the study include theoretical justification of the concept of a phraseological unit and its role in scientific discourse, identification of the main problems associated with the translation of such units. A number of scientific papers have been written on this topic. As an example, the views of various scientists on this concept are given.

**Key words:** phrase, phraseology, stable combinations, word combinations, phraseological units, translation, scientific text, scientific discourse.

**ВВЕДЕНИЕ.** В современном мире перевод является неотъемлемой частью международного общения и обмена информацией. Особенно важным является перевод фразеологических единиц в научном дискурсе, так как именно через

них передаются основные научные концепции, термины и понятия. Однако при переводе фразеологических единиц в научном дискурсе возникают определенные проблемы, связанные как с лингвистическими особенностями языка,

так и с культурными различиями, а также контекста. В данной работе мы рассмотрим некоторые проблемы, связанные с переводом фразеологических единиц в научном дискурсе.

Исследование имеет высокую актуальность в современном мире, где научная информация переводится на различные языки для распространения и обмена знаниями. Перевод фразеологических единиц в научном дискурсе представляет собой сложный и многогранный процесс, требующий глубокого понимания не только языков, но и специфики научных терминов и выражений. Изучение проблем перевода фразеологических единиц в научном дискурсе поможет улучшить качество переводов, обеспечивая точное и адекватное воспроизведение научной информации на различных языках. Однако существует ряд сложностей и нюансов, которые могут возникнуть при переводе научных выражений, таких как специфика терминологии, контекстуальные значения и культурные оттенки. Поэтому изучение этих проблем и разработка методов и стратегий для их решения имеют большое значение для совершенствования качества перевода научных текстов.

**АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ.** В настоящее время существует множество теоретических подходов и моделей оценки качества перевода, среди которых работы таких известных лингвистов, как К.Райс, К.Норд, Ю.Найда, Д.Хаус и др. Американский лингвист Найда ввел концепцию «динамической эквивалентности», подчеркнув реакцию получателя на текст перевода, в качестве основного критерия оценки качества перевода. По словам Ю.Найда, «перевод должен вызвать подобную реакцию на исходный текст, являясь полной заменой оригинала в коммуникативном аспекте» [6].

Субститутивно-трансформационная и коммуникативно-деятельностная парадигма, возникшая в 40-50-е гг. XX вв., первостепенное внимание уделяет структурно-языковым и системно-языковым основаниям перевода. Яркими представителями данного этапа были А.В.Федоров, Я.И.Рецкер, Дж.Ферс, М.А.К.Хэллiday, В.Г.Гак и др. Определенное расширение принципы данной парадигмы в последующем получают в трудах Ю.Найды,

В.Н.Комиссарова, А.Д.Швейцера, Л.Л.Нелюбина, О.Каде, Г.Егера, Л.К.Латышева и др.

**МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ.** Для достижения поставленной в данной исследовательской работе цели и выполнения поставленных задач, исходя из возможных проблем перевода фразеологических единиц в научном дискурсе в современной лингвистике, был применен многоплановый междисциплинарный подход к изучению и описанию данных единиц, а также использованы следующие лингвистические и междисциплинарные методы исследования: метод лингвистического описания (проблемы перевода фразеологических единиц в научном дискурсе в описании и анализе фразеологических единиц как объект перевода); метод оппозиций (перевод фразеологических единиц); семантический метод (при определении значения фразеологических единиц).

**РЕЗУЛЬТАТЫ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ.** Перевод фразеологических единиц представляет собой одну из наиболее сложных и интересных задач в области лингвистики и переводоведения. Фразеологизмы, как устойчивые выражения, обладающие специфическим значением, играют важную роль в любом языке, в том числе и в научном дискурсе. Научный текст требует не только точности и ясности, но и сохранения стилистических и культурных особенностей оригинала.

Определение научной фразеологии может быть дано как совокупность устойчивых выражений, используемых в научных текстах для передачи специфической информации и понятий, а также как система специализированных терминов и терминологии, применяемых в научных областях. Научная фразеология отличается от общей фразеологии тем, что она обычно содержит более сложные и специализированные выражения, которые требуют особого внимания при переводе [3].

При переводе фразеологических единиц возникают различные проблемы, связанные с их устойчивостью и контекстуальной зависимостью. Одной из основных трудностей является то, что многие фразеологизмы не имеют прямых эквивалентов в другом языке. Это может быть связано с различиями в культурных реалиях, историческом контексте или даже с особенностями мышления носителей разных языков.



Например, фразеологические единицы, связанные с природой, могут варьироваться в зависимости от географического положения и климатических условий, что делает их трудными для перевода. В научном дискурсе, где точность и ясность являются ключевыми аспектами, такие различия могут привести к недопониманию или искажению информации [2]. Как отмечают А.Г.Карипиди и О.Е.Павловская, “одной из основных проблем перевода научной фразеологии является сохранение точности и специфичности терминов и выражений, которые могут иметь узкую специализацию и не иметь прямого эквивалента в другом языке. В таких случаях переводчику необходимо проявить креативность и найти наиболее подходящий аналог или перифраз, который передаст смысл и контекст оригинала”[4]. По мнению М.Л.Ковшовой, “одной из важной проблемой перевода научной фразеологии является сохранение стилистической и грамматической целостности текста. В научных текстах часто встречаются сложные конструкции и специфические грамматические обороты, которые требуют особого внимания при переводе, чтобы сохранить структуру и логику высказывания”[5].

Кроме того, перевод научной фразеологии также требует знания и понимания специфики научной дисциплины, в которой используются те или иные термины и выражения. Переводчику необходимо быть хорошо осведомленным в данной области знаний, чтобы точно передать смысл и контекст научного текста[5].

С.И.Влахов, С.П.Флорин представляли перевод в качестве «языкового посредничества, при котором на другом языке формируется текст, подлежащий полноправной замене оригинала в качестве коммуникативно-тождественного последнему» [2; с.131].

Таким образом, перевод научной фразеологии представляет собой сложный и многогранный процесс, который требует от переводчика не только знания языка и грамматики, но и специализированных знаний в области науки и техники. Важно учитывать особенности научной фразеологии при переводе, чтобы добиться максимальной точности и адекватности передачи информации.

**ВЫВОДЫ.** Таким образом, перевод фразеологических единиц в научном дискурсе

представляет собой сложную задачу, требующую от переводчика не только языковой компетенции, но и глубокого понимания культурных и контекстуальных нюансов. В ходе исследования было установлено, что успешный перевод фразеологических единиц возможен только при условии комплексного подхода, включающего анализ, адаптацию и использование различных методов перевода. В конечном итоге, правильный перевод фразеологических единиц может значительно улучшить качество научного текста и обеспечить более точную передачу информации, что является ключевым аспектом научного общения.

### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Борисова, Л.И. Лексические особенности англо-русского научно-технического перевода [Текст] / Л.И.Борисова. – М.: НВИ-тезаурус, 2005. – 215 с.
2. Влахов, С.И. Непереводимое в переводе [Текст] / С. И. Влахов, С.П.Флорин. – М.: Р.Валент, 2009. – 360 с.
3. Ессина, И.Ю., Семенова, Э.В. Вариативность перевода фразеологизмов английской юридической терминологии вне контекста // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2018. – №. 7-1 (85). – С. 123-127.
4. Карипиди, А.Г., Павловская, О.Е. Проблемы перевода фразеологизмов с русского языка на английский, французский и немецкий // Преподаватель XXI век. – 2021. – №. 4-2. – С. 432-440.
5. Ковшова М.Л. «Семантика и прагматика фразеологизмов (лингвокультурологический аспект)». – 2009. Автореф. дис. ... д. филол. наук. – М, 2009. – 49 с.
6. Nida E. Towards a Science of Translating. – Leiden, 1964. – 331 p.
7. Курбанбаева, М. (2023). Влияние современного жаргонизма на изучение русского литературного языка иноязычной молодежью. *Tamaddun nuri jurnali*, 4(43), 52-55.
8. Курбанбаева, М. (2023). Пословицы и поговорки со схожим значением в русском и узбекском языках и общность народной мудрости. *Tamaddun nuri jurnali*, 4(43), 15-18.
9. Курбанбаева, М. (2024). Использование русских народных сказок в процессе изучения языка и формирования гуманизма у детей. *Tamaddun nuri jurnali*, 5(56), 520-522.

## УМАР ТЕРМИЗИЙ “ИХЛОС КИТОБИ”НИНГ ИСЛОМ ИЛМ-ФАН РИВОЖИДАГИ ЎРНИ

**Мухиддин Чориев**

Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази илмий  
ходими

## МЕСТО КНИГИ УМАРА ТЕРМИЗИ «ИХЛОС» В РАЗВИТИИ ИСЛАМСКОЙ НАУКИ

**Мухиддин Чориев**

научный сотрудник Международного исследовательского  
центра Имама Термизи

## THE PLACE OF UMAR TERMIZI'S BOOK "IKHLOS" IN THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC SCIENCE

**Muhiddin Choriev**

Researcher of Imam Termizi international scientific-research center



Тел: +998 91 136 34 99

e-mail:

[muxiddinchoriyev@mail.ru](mailto:muxiddinchoriyev@mail.ru)

Orcid: 0009-0007-8460-0407

**Аннотация:** Ушбу мақолада ислом илм-фан тарихида ўзига хос ўринга эга бўлган аллома, муфассир ва сўфий Умар Термизийнинг илмий-маънавий мероси борасида сўз юритилган. Шунингдек, олимнинг “Ихлос” китобининг ўзига хос хусусиятлари, бугунги кундаги аҳамияти таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** Ислом, Куръони карим, Умар Термизий, “Ихлос” китоби, сўфий, тафсир.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается научное и духовное наследие Умара Термизи, учёного, комментатора и суфия, занимающего особое место в истории исламской науки. Также анализируется характеристика книги учёного «Ихлос» и её значение сегодня.

**Ключевые слова:** Ислам, Священный Коран, Умар Термизи, книга «Ихлас», суфий, тафсир.

**Abstract.** This article examines the scientific and spiritual legacy of Umar Tirmizi, a scholar, commentator and sufi who occupies a special place in the history of Islamic science. It also analyzes the characteristics of the scholar's book “Ikhlas” and its significance today.

**Keywords:** Islam, Holy Quran, Umar Tirmizi, book “Ikhlas”, sufi, tafsir.

### КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Биз агар Умар Термизийнинг ҳаёти ва бой маънавий меросини ўрганадаган бўлсак, у киши сўфий ва воиз бўлганликлиги ойдинлашади. Умар Термизий яшаган ўрта асрларда Моварауннаҳрда тариқат анча ривожланган давр эди. Бу эса Умар Термизийнинг тариқат аҳлидан бўлишига сабаблардан бири эди. Умар Термизийнинг “Ихлос китоби”да келтирилган “Ихлос сифати ва мухлислар даражаси баёни” бобини таҳлил қилиб кўрадиган бўлсак, унда аллома “ихлос” ва “мухлис” тушунчаларини беш

қисмга бўлиб, жуда гўзал услубда ифодалаб беради.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METHODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

Умар Термизийнинг илмий-маънавий мероси борасида бугунги кунда ислом тарихига оид манбаларда жуда кам маълумотлар сақланиб қолган. Олимнинг “Тафсири суратул ихлос” асари бугунги кунда Миср араб Руспубликаси пойтахти – Қоҳира шаҳридаги “ал-Хидайвия” кутубхонасида 2/173, 17945 рақами остида сақланмоқда. Шунингдек, Умар Ризо

Каҳҳоланинг “Маъжам ал-мусанниф ал-кутуб ал-арабийя” номли китобида ҳам Умар Термизийнинг ҳаёти ва асарлари борасида маълумотлар келтириб ўтилган. [2]

Ушбу мақолани ёзишда илмий тадқиқотнинг ижтимоий-гуманитар фанлар соҳасида қўлланиладиган анализ, синтез, қиёслаш, герменевтик таҳлил каби метод ва усулларидан фойдаланилди.

### **МУҲОКАМА(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)**

Умар Термизий “Ихлос” китобида ихлоснинг баёни беш йўналишга бўлиб келтиришдан олдин шундай фикрни келтириб ўтади: “Мен сизга ихлоснинг беш важҳини оят ва ҳадислар асосида далиллар келтириб шарҳлайман. Маликут Таввоб бўлган Зотдан ёрдам сўраган ҳолатда аҳли сиддиқ ва аҳли савоб (ишончли аҳл ва тўғри аҳл)ларнинг ёзиб қолдирган манбалари асосида ихлосни баён қиламиз”.

Ихлос баёни келтирилган биринчи йўналишнинг маъно-мазмунни қуйидагича:

Биринчи йўналиш барча миллатлар орасидан бир миллатни ажратиб олишдир. Гуноҳларни бекитувчи Саттор бўлган Зот Оли Имрон сурасининг 95-оятда шундай деди: “Аллоҳ рост айтди Иброҳимнинг йўлдан тоймаган миллатига эргашиш. У мушриклардан бўлмаган эди” [1]. Ибн Аббос розияллоҳу анҳу айтадилар: “Динлар олти хил бўлиб, уларнинг бештаси ботилдир. Яҳудий, насроний, мажусий, собийлар (юлдузга сиғинувчи), васания (бутпарастлар) булар ботил динлар. Ҳақ дин эса ягона ислом динидир.

Аллоҳ таоло Оли имрон сурасининг 85-оятда шундай деди: “**Ким исломдан бошқа динни хоҳласа, бас, ундан бу ҳаргиз қабул қилинмас ва у охиратда зиён кўргувчилардан бўлур**” [1]. Баъзи уламолар айтади: “Аввалда одамлар барчаси битта ислом динида бўлишган, сўнг ихтилофлар сабаб бўлинишлар юзага келди. Бир қавм нурга ибодат қилди, бир қавм зулматга, бир қавм фаришталарга, бир қавм тошга ибодат қилди. Бир қавм Узайр алайҳиссаломни Аллоҳга шерик қилди, улар яҳудий деб ном олди. Яна бир қавм Исо алайҳиссаломни Аллоҳга шерик қилди, улар насоро деб ном олди. Сўнг бир қавм ягона Аллоҳга ҳеч нарсани ширк келтирмасдан, мухлис бўлиб ибодат қилди. Ихтилофларнинг боши “насл куни” Аллоҳ таолонинг: “**Мен сизларнинг**

**роббиларингиз эмасманми?**” [1] деган кундан бошланди. Насл кунида Аллоҳ таоло наслни йўқдан бор қилди, сўнг уни зулматга ташлади. Сўнг уларга ўз нуридан бир нур сочиб, учта неъматни ҳадя этди. Бу уч неъмат руҳнинг зехни, ақлнинг фаҳми, қалбнинг заковатидир.

Китобдаги ихлос баёнига бағишланган иккинчи йўналиш динни бидъат ва хурофотдан, турли фирқалардан кутқаришдир. Аллоҳ таоло Шуаро сурасинг 88-89-оятларида шундай дейди: “**У кунда на мол манфаат берар ва на болалар. Магар ким Аллоҳ хузурига тоза қалб ила келса, (манфаат топар)**”. [1]

Аллоҳ таоло аҳли бидъатни мусулмонлар жамоатидан, умматлар жамиятидан, дин соҳасидан чиқарди. Бунинг тасдиғи сифатида Аллоҳ таоло Анъом сураси 159-оятда шундай деди: “**Динларини тафриқа қилиб, ўзлари гуруҳбозлик қилганлар билан ҳеч бир алоқанг йўқ..**”! [1]

Ойша р.а. айтади: “Булар ҳақида Пайғамбар алайҳиссаломдан сўрадим. У киши айтдилар: “**Улар бидъат аҳли, улар мендан йироқ, мен улардан йироқман**”. Ва яна пайғамбар алайҳиссалом айтдилар: “**Яҳудийлар етмиш бир фирқага, насоролар етмиш икки фирқага ва менинг умматим эса етмиш уч фирқага бўлиниб, шулардан биттаси нажот топувчидир**”. Бошқа бир ривоятда эса: “**фақат саводул аъзам (катта жамоат) дан бошқаси дўзахда**”, – дедилар.

Ислом динига кўра, ихлос амални энг нозик иллатлардан сақлашдир. Бунга Қуръони каримнинг Каҳф сураси 110-оятда далил бўла олади: ..... “**Бас, ким Роббига рўбарў келишни умид қилса, яхши амал қилсин ва Робби ибодатига бирортани шерик қилмасин**” [1]. Китобнинг учинчи йўналишида Умар Термизий ушбу оятни шундай тафсир қилади: “Ким Роббисининг улуғ мақомидан кўрқса, ҳеч нарсани Аллоҳга ширк келтирмасдан, ихлос ила солиҳ амал қилсин. Бу борада Абу Хурайра розияллоҳу анҳудан ривоят қилинади: “**Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам айтдилар: “Риёкор қиёмат куни тўртта исм билан чақирилиб, “Эй фожир, эй хоин, эй кофир, эй золим сенинг амалларинг ботилдир, сен кимни шерик қилган бўлсанг, шундан ажрини сўра**”, – дейилади.

Ислом манбаларида бу борада шундай хикматлар келтирилади: “Кимнинг айби айтилганда жаҳли чиқса, у риёкордир, бир киши бировни танқид қилиш ўрнига мақтаса, у ҳам риёкордир. Бир киши одамлар ичида жуда ғайратли бўлиб, ўзи ёлғиз қолганда дангаса бўлса, у ҳам риёкордир”.

Асарнинг тўртинчи оятида келтирилган хикматлар ўзига хос аҳамиятга эга. Унинг маъно-мазмуни қуйидагича: Садақага буюрилмаган суҳбатларнинг кўпида яхшилик йўқ. Аллоҳ таоло учта ўриндан бошқасида банданинг банда учун сирли суҳбатидан қайтарган.

Нисо сурасининг 114 оятида Аллоҳ таоло шундай дейди: **“Уларнинг кўпгина махфий суҳбатларида яхшилик йўқ, магар ким садақага, яхшиликка ва одамлар орасида ислоҳга амр қилсагина, яхшилик бор”** [1]. Кимки жим сукут қилса, шу офатлардан саломат бўлиб, жуда катта фойдани қўлга киритади. Кимки, хоҳлаганини гапирса у гапдан тийилмабди ва кимки, иштаҳа қилган нарсасини еса таомни парҳез қилмабди.

Китобнинг бешинчи йўналиши эса Малик, Халлоқ бўлган Аллоҳнинг розилигини излаб, ахлоқларда холис бўлиш ҳақида. Латиф, Раззоқ бўлган Аллоҳ рост сўзлагувчи пайғамбар алай-ҳиссаломга марҳамат қилганидек: **“Ва албатта, сен улкан хулқдасан.”** (Қалам сураси 4-оят) [1].

Анас ибн Молик розияллоху анху айтади: Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васалламнинг қоматлари чиройли, юзлари гўзал, ҳидлари ширин, кафтлари мулойим еди, мен у кишининг ҳидларидан кўра бирор хушбўй нарса кўрмаганман. Ҳидлари мушқу анбардан кўра ширин, кафтлари эса ипакдан ҳам мулойим эди. Оиша розияллоху анху Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васаллам вафот қилганларида у кишига атаб марсия айтдилар: “Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васалламнинг қабрларини ҳидлаган кишига замоннинг барча ҳидларини ҳидламаслиги зарар қилмайди. Агар менинг бошимга тушган мусибат кунларга тушганда эди, албатта, кундуз кечага айланарди.” [3]

Амалнинг ихлоси учта нарсадир: Амалга мувофиқ бўлишни Аллоҳдан деб билиш, қиладиган амалидан Аллоҳнинг розилигини кўзлаш, ўлгандан кейин амалларнинг савобини умид қилиш. Инсон амалга мувофиқ бўлишни Аллоҳдан деб билгандан сўнг кибрдан узоқда

бўлади. Қиладиган амалидан Аллоҳнинг розилигини кўзласа, махлуқлардан бирортасини мақтамайди ва ёмонламайди. Ўлгандан кейин амалларининг савобини умид қилса бандалардан тамаъ қилишдан йироқда бўлади [4].

Ҳимматдаги ихлос эса Аллоҳга боғланиш йўлида ширкка боғланиб қолмаслик учун қалблардан алоқаларни узишдир. Тавҳиддаги ихлос эса холислик ила Аллоҳ таолони ёлғиз деб билиш ва даъволарни рад этиш. Бандалик эса Аллоҳнинг розилигига эргашишдир.

**ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Биз хулоса қилиб айтишимиз мумкинки, Умар Термизийнинг ушбу асаридаги “ихлос” ва “мухлис” тушунчалари ўзаро бир бирига узвий боғлиқ тушунчалар ҳисобланади. Ушбу асар орқали ислом динининг тамал тушунчаларидан ҳисобланган “ихлос” тушунчасининг асл мазмун-моҳияти тўғрисида батафсил маълумоларга эга бўламиз.

Ҳозирги кунимизда Умар Термизийнинг ушбу асари ёш авлодни маънавий камолотга етаклашда, диннинг асл моҳияти эзгулик ва бағрикенглик эканлигини тарғиб қилишда дастуруламал бўлиб хизмат қилади.

#### **АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Сано-стандарт, 2019.– Б. 624.
2. Умар Ризо Каҳҳола. Маъжам ал-мусанниф ал-кутуб ал-арабия. – Байрут. 1986.
3. Умар Термизий. Китаб ун-нийя. – Қоҳира: “Ал-Хидайвия” кутубхонаси. 2/173, 17945 рақамли қўлёзма.
4. Умар Термизий. Тафсири суратул ихлос. – Қоҳира: “Ал-Хидайвия” кутубхонаси. 2/173, 17945 рақамли қўлёзма.
5. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolar vatanparvarligi - fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishida muhim omil. *Tamaddun nuri jurnali*, 9(60), 23-25.
6. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolik jamiya-ti g'oyalarining milliy davlatchiligimizdagi o'rni. *Tamaddun nuri jurnali*, 7(58), 247.
7. Kurbanbayeva, M. (2023). Abu Rayhon Beruniy hayotiga doir ba'zi mulohazalar. *Tamaddun nuri jurnali*, 9(48), 64-66.

## ЎЗАРО ЁРДАМ АНЪАНАСИ ЧЕТ ЭЛ ОЛИМЛАРИ ТАДҚИҚОТЛАРИДА

**Хожаниязова Гулшана Муратбаевна**

*Нукус инновацион институти*

*«Тарих ҳәм жәмийетлик пәнлер» кафедрасы ассистент-  
оқытыўшы*

**Юлматов Ширмурод Ахмедович**

*Нукус инновацион институти*

*«Тарих ҳәм жәмийетлик пәнлер» кафедрасы ассистент-  
оқытыўшы*

## ТРАДИЦИЯ ВЗАИМОПОМОЩИ В ИССЛЕДОВАНИЯХ ИНОСТРАННЫХ УЧЕНЫХ

**Хожаниязова Гулшана Муратбаевна**

*Нукусский инновационный институт*

*Кафедры «Истории и социальных наук»*

**Юлматов Ширмурад Ахмедович**

*Нукусский инновационный институт*

*Кафедры «Истории и социальных наук»*

## TRADITION OF MUTUAL ASSISTANCE IN RESEARCH BY FOREIGN SCIENTISTS

**Khojaniyazova Gulshana Muratbaevna**

*Nukus innovation institute*

*Department of History and Social Sciences*

**Yulmatov Shirmurad Axmedovich**

*Nukus innovation institute*

*Department of History and Social Sciences*



[https:// orcid.org/0009-0006-  
0732-507X](https://orcid.org/0009-0006-0732-507X)

[gulshanx@internet.ru](mailto:gulshanx@internet.ru)



[sherkayulmatov90@gmail.com](mailto:sherkayulmatov90@gmail.com)

**Резюме:** Мақолада ўзаро ёрдам анъанасининг чет эл тадқиқотчилари нигоҳида тадқиқ этилиши таҳлил қилинган. Шу билан бирга қорақалпоқларнинг кундалик турмушида ўзаро ёрдам анъанаси ҳақида сўз юритилган.

**Калит сўзлар:** қорақалпоқлар, ўзаро ёрдам, көмек, тадқиқот, анъана, тўй, маросимлар.

**Резюме:** В статье анализируется исследование традиции взаимопомощи с точки зрения зарубежных исследователей. При этом упоминается традиция взаимопомощи в повседневной жизни каракалпаков.

**Ключевые слова:** каракалпаки, взаимопомощь, көмек, исследования, традиции, свадьба, ритуалы.

**Resume:** The article analyzes the study of the tradition of mutual assistance from the point of view of foreign researchers. At the same time, the tradition of mutual assistance in the daily life of the Karakalpaks is mentioned.

**Key words:** Karakalpaks, mutual assistance, ko'mek, research, traditions, wedding, rituals.

**КИРИШ.** Ўзаро ёрдам ижтимоий институти ижтимоий интеграцияни ва социал системанинг барқарорлигини таъминлайдиган фактор ҳисобланади. Ўзаро ёрдам буткил жамият ва

унинг индивидуал социал тизимларининг эволюцияси билан ўзгаради, аммо модернизация жараёнида йўқ бўлмади, балким унинг ташкиллаштирувчи формалари функцияларини

ўзгартириб, ҳар хил жамиятларга тан бўлган универсал социал интеграция институти бўлиб қолади [12; Б.3]. Демак, ўзаро ёрдам яки ёрдам беришнинг ижтимоий институти жамоат ишида меҳнат ва шахсий мулкни бўлиштиришнинг ҳосил бўлиши билан юзага келади. Ўзаро ёрдам институти ҳосил бўлаётган қўшни жамоатларда аҳамиятли ўринга эга [11; Б.222].

Демак биз, ўзаро ёрдам институтини ўрганар эканмиз, энг аввало ўзаро ёрдам ва социал институт тушунчаларига тўхталиб ўтишимиз мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

#### **АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД**

Кенг маънода ўзаро ёрдам – бу ҳар қандай ёрдам, тор иқтисодий маънода- бу оригинал меҳнат ва шахсий мулкнинг бўлиниши билан ибтидоий жамоатда пайдо бўлган зот алмашиш шакли [13].

Зот алмашиш ҳар қандай ўзаро таъсирнинг ўзига хос белгиси. Социал ўзаро таъсир – бу совға ва харажатларнинг мувозанатлилиқ усуллари билан белгиланадиган мукамал алмашиш тизими. Кенг маънода тушинилганида, ҳар қандай жамиятда зот алмашиш ҳар қандай даврда универсал тарзда бўлиши мумкин [14; Б.43].

Ўзаро ёрдам аънаси масаласи чет эл халқлари тадқиқотчилари томонидан ҳам қизиқиш билдирилиб, тадқиқот марказига айланган масалалардан бири ҳисобланади. Сабаби, ҳар бир халқ турмушида ўзаро ёрдам дастури сақланган бўлиб, ундан фойдаланиш ҳар халқда ҳар турли кўринишларда учрашади. Ўзаро ёрдам аънасининг иштирокчилари ёки турлари ҳам ҳар хил кўринишда бўлиши мумкин. Чет эл тадқиқотчиларидан А.Ю.Фодоря [10], Е.Н.Коломосова [8], А.Ж.Эльмурзаеваларнинг [14] тадқиқотларида ўзаро ёрдам масаласи ижтимоий институт сифатида тушинтирилади.

Тадқиқотчилардан Л.Л. Лихачева ўзаро ёрдам аънасида оила, қўшничилик ва дўстлик ёрдамидан фойдаланиш, Орқа Удмурт қишлоғида этник меъёрларни сақлаш, яхши қўшничилик ва оилавий муносабатларнинг мустаҳкамлиги ва бундай ишларнинг иқтисодий салоҳиятига тўхталган [4; Б.52-60].

О.В.Лылованинг тадқиқотларида ҳар бир оила ўзининг кундалик турмуш фаолиятида бандлик турлари ҳамда даромад асослари бўйича товар, тирикчилик ва аънавий хўжалик хусусиятларини бирлаштириб, ўз ихтиёридаги

мавжуд ресурслардан фойдаланади. Ресурсларнинг катта қисми текин моддий ёрдам, айирбошлаш турида келади бу эса жуда камбағаллашувдан қочиш имконини беради. Бундай ёрдамнинг сабаби, қишлоқ жамоати ҳар доим қариндошлик ва қўшничилик ўзаро ёрдам, дўстлик көмекнинг кенг тармоғи билан ажралиб туришини кўрсатади [5; Б.286-290].

Т.Л.Молотова тадқиқотларида қишлоқ жамоатининг маросимлик турмуши, маросимларни биргаликда адо этиши билан боғлиқ бўлган ўзаро ёрдам ва унинг иштирокчилари масаласини кўрсатиб беради [9; Б.69-73].

Кўрсатилган тадқиқотчилар ўзаро ёрдам аънасини тадқиқ қилишда халқлар турмушидаги ёрдамнинг ўрни, унинг хусусиятлари, шакллари сингари тадқиқотларни амалга ошириш билан бирга ўзаро ёрдам аънасини ижтимоий-иқтисодий жиҳатларини ўрганишга ҳаракат қилади.

Қўшничилик жамоатчилик муносабатлар масаласини М.М.Громыко [3; Б.6-38] томонидан олиб борилган тадқиқотларда ҳудудий қўшничилик масалалари кўрсатилган. Тадқиқотчи Кроу ва Сток тадқиқотларида ҳудудий қўшничилик муносабатларини қандай ташкиллаштириш керак ва уни ривожлантириш ёки унинг моҳиятига қаратилган тадқиқотлар жуда камлигини [16; Б.555] кўрсатади.

Шунинг билан қатор Марказий Осиёда маросимларни ўтказиш учун сарфланувчи харажатлар, совға алмашувлар, ёрдамнинг вақт ўтиб қайтарилиши сингари масалалари долзарб бўлиб, бир қатор тадқиқотчиларнинг тадқиқот объектига айланган. Тадқиқотчилардан С.Вернер [17; Б.125-134] тадқиқотларида тўй тадбирларидаги исрофгарчилик, совға алмашув ва ёрдамнинг вақт ўтиб қайтарилиши сингари жарёнлар таҳлил қилинган бўлса, С.Н.Абашин [1; Б.87-107] маросим тадбирлари учун харажатларнинг «рационал/иррационаллик» масаласини кўриб чиқади ва уларни ҳудуднинг маданий ва ижтимоий хусусиятлари контекстида таҳлил қилади.

Тадқиқотчи, Е.И.Ларина [6; Б.145-165] миллий ўзига хос оила, ҳудуд, жамоат сингари аънавий ижтимоий институтлар қандай шаклланиши ва бу институтлар ҳудуддаги

сиёсий жараёнлар ва миллий ўзига хосликка қандай таъсир этишини таҳлил қилади.

С.Барсукованинг [2; Б.46-58] тадқиқотларида келин ва куёв тарафларнинг тўй тадбирларини ўтказиш ва унинг маросимлик харажатлари, исрофгарчилик масалалари ўрганилиб таҳлил қилинган.

Шундай қилиб, чет эл тадқиқотчилари тарафидан олиб борилган бу тадқиқотлар бизга, қорақалпоқ этнографияси илмида ўзаро ёрдам ижтимоий институтини тадқиқ қилишда услубий асос вазифасини бажаради.

Демак, ўзаро ёрдам икки ёки ундан кўп инсонларнинг бир-бирига ёрдам бериши ҳисобланади. У ишончга асосланади. Инсонларнинг биргаликдаги ҳаракати, жуфт бўлиб яшаш, дўстлик муносабатлари, меҳмондўстлик, ижтимоий муносабатлар ва бошқа фоолият турларида кўринади. Ўзаро ёрдам дастури ҳар бир халқ турмушида бор бўлиб, ҳар хил номлар билан учрашади.

Қорақалпоқларда ўзаро ёрдам «көмек» деб номланиб, у қишлоқ хўжалик, қурилиш ишларида ва тўй-ҳашамлар сингари бошқада тадбирларда катта аҳамиятга эга. Қорақалпоқлар турмушидаги *көмек* масаласи Т.А.Жданко тадқиқотларида: «Кўпчилик деҳқонлар бойлар ва эшонларнинг қарамоғида ишлаган, аммо улар бир уруў (қавм) ҳисобланган ва бу иш ишлатиш уруўласлар орасидаги ўзаро ёрдам деб тушинилган. Одатда де Эдетте деҳқоннинг меҳнат ҳақиси уни уйлантириш орқали ҳисоблашилган, яъни унинг қалин моли тўлаб берилган» [7; Б.40] деб кўрсатиб, қорақалпоқлар турмушида *көмек* анъанасининг эски формасини кўрсатади.

## НАТИЖАЛАР

Қорақалпоқларда *көмек* анъанаси жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши шароитида ижтимоий институтга айланади. Бунда у, қўллаб-қувватлаш, ўз ўрнини сақлаб қолиш билан бирга омон қолиш механизми сифатида замонавий шароитларда ҳам шахс ва буткул жамият учун аҳамиятли ҳисобланади. Шу сабабли, ўзаро ёрдам яъни *көмек* институтини ўрганганимизда ижтимоий институт тушунчасининг маъносини кўрсатиб ўтиш, уни кенг тушинишга ёрдам беради.

Қорақалпоқларда *көмек* ижтимоий институти натижасида деҳқончилик соҳасида катта ер

майдонлари ўзлаштирилган, *көмекга* асосан ерни экиш даврида ва йиғим вақтларида мурожаат қилинган бўлиб, унда қариндошлар, қўшнилари ва қишлоқдошлар қатнашган. Улар далага тухум сепиш, чудигор, суғориш, ўток, йиғин-терим, ҳирмон ва бошқада ишларда ёрдам бериш учун қатнашган. Қишлоқ хўжалиги ишлари қаторида қурилиш ишларида ҳам *көмек* айтиб турор жойлар, биноларни барпо этган. Турор жойлар ва бошқада бинолар қурилишида *көмек* тўрт босқичда айтилган, бунда уйнинг асоси (фундаменти) учун *көмек*, девор учун *көмек*, томни ёпиш учун *көмек* ва уйни лой билан сувоқ қилиш (*сыбаў*) учун *көмек* айтилган.

Шунинг билан бирга қорақалпоқларда тўй ва бошқада тадбирларда (*жаноза, садақа, кичик қўламли меҳмондўстлик маросимлари*) катта қўламли қилиб ўтказилиши туфайли, қариндошлар, яқин дўстлар, қўшнилари орасида *көмек* айтиш дастурга айланган. Қорақалпоқларда тўй ва маросимларда *көмек* қуйидагича амалга оширилади: маросим олди, маросим давомида, маросимдан сўнгги ёрдамларнинг амалга оширилишини кузатишимизга бўлади:

- тўй ёки маросимни (*жаноза, садақа, кичик қўламли меҳмондўстлик маросимлари*) ўтказишни ташкиллаштиришда жисмоний меҳнат асосида ёрдам бериш;

- ташкиллаштирилган маросимнинг бажарилишида қариндошлар, яқин дўстлар томонидан натурал (*маросим берувчининг эҳтиёжига кўра зарурли нарсасини бериш*) кўринишида ёрдам бериш;

- ҳамма яқинлар қариндошлар, яқин дўстлар, қўшниларининг молиявий кўринишдаги ёрдам тури (*халқ орасида «список» ёки «дизимнен өтиў» деб аталади*)

- маънавий ва маърифий кўринишдаги ёрдамлар (*хурсандлигида қўллаб-қувватлаб маросимни биргаликда ўтказиш, жанозаларда, ёқимсиз мавридларида кўнгил билдириб маънавий далда бериш*) чунки далда бўлиш, қўллаб-қувватлаш ҳам инсон учун катта ёрдам ҳисобланади.

Көмек ижтимоий институтининг қатнашувчилари асосан қандош-қариндошлар, туғишганлар, яқин дўстлар, қўшнилари ҳисобланиб, ҳар қандай шароитда *көмек* айтиувчисининг эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда

ҳаракатланади. Бу ҳаракат бўлса, ўз навбатида, иқтисодий зарурликдан келиб чиқган ҳолда оилада, жамиятда аҳамиятли ўринга эга бўлишига, ўзаро ёрдам (*көмек*) дастури қорақалпоқларнинг ижтимоий-иқтисодий турмушида нормага айланишига олиб келди.

### **ХУЛОСА**

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ижтимоий турмушнинг ўзига хос хусусияти сифатида *көмек* ижтимоий институти ҳозирги кунда ҳам ўзининг иқтисодий аҳамиятига эга. Замонавий турмушда ҳам *көмек* ижтимоий институтининг ҳар хил формаларидан фойдаланиш даражаси яққол кўзга ташланади. Айниқса, халқни ижтимоий қўллаб-қувватлаш ёки хайр саҳоватлик, хотамтойлик ёрдам турлари кўплаб учрашади ва бу ёрдам турлари ривожланмоқда. Унинг асосида бўлса жамиятимизнинг кам таъминланган, ёрдамга муҳтож оилаларига *көмек* берилиб келинмоқда.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Абашин С. Н. Вопреки «здоровому смыслу»? (К вопросу о «рациональности/иррациональности» ритуальных расходов в Средней Азии) // Вестник Евразии. 1999. № 1–2 (6–7). С. 87–107.
2. Барсукова С.Ю. Ритуальная экономика, или сколько тратят свадьбу Средней Азии // Экономическая социология. 2022, 14 (3). –Б. 46–58.
3. Громько М.М. Место сельской (территориальной, соседской) общины в социальном механизме формирования хранения и изменения традиций// Советская этнография. – Москва, 1984. -№5. Б. 6–38.
4. Лихачева Л.Л. Бытование традиций взаимопомощи в современной североудмуртской деревне// Ежегодник финно-угорских исследований. 2014. –Б. 52–60.
5. Лылова О.В. Неформальная взаимопомощь в сельском сообществе // Аналогия социально-экономической мысли России: XIX–XX века. Москва; Берлин; Директмедиа Паблишинг, 2021. –Б. 286–290.
6. Ларина Е.И. Национальное самосознание и традиционные социальные институты в Центральной Азии // Вестник Московского университета. Серия 8. История. 2012, № 4. С. 66–90; Ларина Е.И. Ритуалы, достоинство и уважение в центральноазиатском обществе // Вестник Московского университета. Серия 8. История. 2022, № 2. –Б. 145–165.
7. Жданко Т.А. Быт каракалпакского колхозного аула (Опыт этнографического изучения колхоза им.Ахунбабаева Чимбайского района Каракалпакской АССР). Журнал «Советская этнология». 1949. №2. –Б. 40.
8. Коломосова Е.Н. Институт помощи в системе семейно-родственных отношений // автореф. дисс.соис.ученой степени канд. социолог. наук. Саранск, 2005.
9. Молотова Т.Л. Обычай взаимопомощи в традиционных женских домашних промыслах Марийцев // Ежегодник финно-угорских исследований. 2014. –Б. 69–73.
10. Фодоря А.Ю. Социальный институт взаимопомощи и его эволюция// авторефы. дисс.соис.ученой степени канд. социолог. наук. М.2004. –Б.3
11. Фодоря А.Ю. Социальный институт взаимопомощи и его эволюция в процессе модернизации и модельных этносов. Монография. М.: ГОУВПО «МГУС», 2005. –Б. 222.
12. Фодоря А.Ю. Социальный институт взаимопомощи и его эволюция // автореф. дисс.соис.ученой степени канд. социолог. наук. М.: 2004
13. Фирсов М.В. Краткий историко-понятийный словарь социальной работы// Фирсов М.В. История социальной работы в России: учеб. пособие для вузов. М.: Гуманитар. издат. центр «ВЛАДОС». МГСУ, 2001.
14. Эльмурзаева А.Дж. Обычай взаимопомощи в хозяйственной деятельности народов Дагистана. XIX начало XX века //автореф. дисс.соис.ученой степени канд. историч. наук. Махачкала, 2009.
15. Knox J. The concept of exchange in sociological theory, 1884 and 1961// Social Forces. 1963.V.41.
16. Stokoe EH, Wallwork J. Space invaders: The moral-spatial order in Neighbour dispute. 2003. P.554
17. Werner Cynthia. Consuming modernity, imagining tradition: Globalization, nationalism and wedding feasts in post – colonial Kazakhstan // Anthropology of East Europe Review/ Vol.18, №2 Autumn 2000, –Б. 125–134.



Qabul qilindi: 16.09.2024

Chop etildi: 30.10.2024

UDK: 94 (575.171):28-9

## XORAZMNING ISLOM DAVRI TARIXIGA OID MANBALAR TAVSIFI

Xasanov Mardon Maqsudovich, Urganch davlat universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

## DESCRIPTION OF SOURCES ON THE HISTORY OF THE ISLAMIC PERIOD OF KHORAZM

Khasanov Mardon Maksudovich, independent researcher of  
Urganch State University

## ОПИСАНИЕ ИСТОЧНИКОВ ПО ИСТОРИИ ИСЛАМСКОГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМА

Хасанов Мардон Максудович, независимый научный  
исследователь Ургенчского государственного университета

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada Xorazmning ilk islom davri (VIII-XII asrlar) tarixiga oid manbalarning tavsifi keltiriladi. Xorazm, o'zining boy madaniyati va ilmiy merosi bilan tanilgan, ko'plab olimlar va tarixchilar tomonidan o'rganilgan. Maqolada, Ibn Xordadbex, al-Beruniy, Mahmud ibn Abbos Xorazmiy kabi mashhur olimlarning asarlari orqali Xorazmning tarixiy ahamiyati va geografik o'rni yoritiladi. Shuningdek, Xorazmda ta'lim va ilm-fan rivojlanishi, shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma'lumotlar beriladi. Ushbu tadqiqot Xorazmning islom davridagi roli va uning madaniy merosini yanada chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Xorazm, Xorazm tarixi, arab fathi, Xorazmda islom, manba, ilm, madrasa, Xorazmiy.

**Abstract:** This scientific article describes the sources related to the history of Khorezm during the Islamic period. Khorezm, known for its rich cultural and scientific heritage, has been studied by many scholars and historians. The article analyzes the works of notable figures such as Ibn Khordadbeh, Al-Biruni, and Mahmud ibn Abbos al-Khorezmi, highlighting the historical significance and geographical position of Khorezm. Additionally, it provides information on the development of education and science in Khorezm, as well as the social and economic life of its cities. This research aims to contribute to a deeper understanding of Khorezm's role during the Islamic period and its cultural legacy.

**Keywords:** Khorezm, history of Khorezm, Arab conquest, Islam in Khorezm, source, science, madrasah, Khwarezmi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются источники, касающиеся истории Хорезма в эпоху раннего ислама (VIII-XII вв). Хорезм, известный своим богатым культурным и научным наследием, был объектом изучения многих ученых и историков. В статье анализируются работы таких известных личностей, как Ибн Хордадбех, аль-Бируни и Махмуд ибн Аббас Хорезми, которые освещают историческое значение и географическое положение Хорезма. Также предоставляется информация о развитии образования и науки в Хорезме, а также о социальной и экономической жизни городов. Это исследование поможет глубже понять роль Хорезма в эпоху Ислама и его культурное наследие.

**Ключевые слова:** Хорезм, история Хорезма, арабское завоевание, ислам в Хорезме, источник, наука, медресе, Хорезми.



<https://orcid.org/0000-0002-2309-5247>

e-mail: :  
[khmardoniy@gmail.com](mailto:khmardoniy@gmail.com)

**KIRISH.** O‘rta Osiyoda arab fathiga qadar yozma manbalar saqlanib qolmaganligini Qutayba ibn Muslimning Eron, Xuroson, So‘g‘d va Xorazmdagi kohinlar hamda ularning kitoblarini yo‘q qilganligini sabab qilib ko‘rsatishgan. Al-Beruniyning “Osor ul boqiya” asariga tayangan V.Bartold shu haqida yozib o‘tadi[1:45]. Ammo islomning dastlabki davrlarida yozilgan manbalar bu haqda aniq bir ma‘lumot bermasligi o‘z-o‘zidan uning ehtimoldan uzoqligini ko‘rsatadi. Forsda manbalar mavjud bo‘lishiga qaramay, O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘ida bunday asarlar uchramaydi va xalq og‘zaki ijodida islomdan oldingi davr xususida ma‘lumotlar uchrashi mumkin.

**METODLAR.** Xorazmning islom davri tarixiga oid manbalar tavsifi mavzusida ilmiy maqola yozishda umumfan va torfanli tadqiqot metodlaridan (muammoli xronologik, tarixiy-qiyyosiy, tarixiy-bayon va h.k.) foydalanildi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Xorazmda VIII-XII asrlarda islom dini va madaniyati tarixi mavzusi bo‘yicha eng muhim manba Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir at-Tobariyning (vaf.923y.) dunyo tarixi uslubida yozgan “Payg‘ambarlar va podshohlar tarixi” asaridir[2]. Xorazmning fath qilinishi va bu yerdagi keyingi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar to‘g‘risida Tobariy keltirgan ma‘lumotlarning katta qismi bizgacha yetib kelmagan al-Madoiniy (vaf. 848/49 y.) asarlaridan olingan. Madoiniy–Tobariy xabarlarining katta ahamiyati shundaki, aynan ularda biz xorazmiy-arab munosabatlari haqida yilnoma tartibida berilgan ma‘lumotlarni topamiz.

Yozma manbalar orasida xorazmliklarning arablarga qarshi kurashlarini Tobariychalik yoritgan asar yo‘q. “Tarixi Tobariy” asarining yana bir muhim jihati shundaki, u faqat fath janglarini ta‘riflash bilan cheklanmaydi. Asarda arab fathlari davrida Xorazmdagi hayotning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tomonlari, shuningdek tarixiy-geografik sharoitni xarakterlovchi qimmatli ma‘lumotlar ham berilgan. Asarda 915-yilgacha bo‘lgan voqealar xronologik tartibga solingan.

Musulmon fathlari bo‘yicha keyingi juda qimmatli manba Abul Abbas Ahmad ibn Yahyo al-Balozuriyning (vaf. 892/3) “Futuh al-buldon” (“Mamlakatlarning fath etilishi”) asaridir[3]. Balozuriyning asosiy manbalaridan biri yuqorida nomi tilga olingan al-Madoiniy hisoblanadi. Garchi

Balozuriy ancha qisqa xabarlar bilan cheklanib, gohida hatto 728-yildagi arablarga qarshi qo‘zg‘olonni tilga olmasa-da, lekin uning ma‘lumotlari Tobariyning xabarlarini to‘ldirib, unga qo‘shimcha bo‘lib keladi. “Futuh al-buldon” asarining eng qiymatli tomoni shundaki, muallif har bir xabarga tanqidiy yondashib, biron mamlakat yoki shahar qilich yoki sulh yo‘li bilan fath qilinganigacha yozadiki, shuning uchun ham u ishonchli va mo‘tabar manba hisoblanadi. Bizgacha yetib kelgan asar matni 90 bobdan iborat bo‘lib, u 622-yildan 869-yilgacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Xorazm tarixi bo‘yicha ba‘zi ma‘lumotlarni arab tarixchisi va geografi Abul Abbas Ahmad ibn Is‘hoq al-Yaqubiy (vaf. 897) ham o‘zining “Kitob al-buldon” (“Mamlakatlar kitobi”) asarida sanab o‘tadi[4]. O‘lka tarixiga oid ma‘lumotlarning juda kamligiga qaramasdan, al-Yaqubiyning bu asarida biz boshqa zamondosh mualliflarning kitoblarida uchramaydigan alohida tafsilotlarni topamiz. Ayniqsa, xalifalik poytaxti Bag‘dodda istiqomat qilgan xorazmliklar haqidagi xabar biz uchun alohida e‘tiborlidir[4:27].

Xorazmning tarixiy-geografik holati, ijtimoiy munosabatlar va madaniy hayoti masalalari bo‘yicha muhim ma‘lumotlarni al-Istaxriy, Ibn Havqal, Ibn Xordadbex, al-Muqaddasiy va Yoqut asarlaridan topish mumkin.

Istaxriyning 930-933-yillarda yozilgan “Kitob masalik va-l-mamalik” (“Mamlakatlar va yo‘llar kitobi”) asari asosida unga qo‘shimchalar kiritib Ibn Havqal 951-yildan so‘ng o‘zining “Kitob al-masalik va-l-mamalik” (“Mamlakatlar va yo‘llar kitobi”) asarini yozadi.

Istaxriy va Ibn Havqal boshida tog‘lar, soylar va iqlimlarning ta‘rifini berib, keyin suv chiqarish ishlari, dehqonchilik, bog‘dorchilik, tabiiy qazilmalar, savdo-sotiq buyumlari, karvonsaroilar, rustoqlar, shaharlar haqida, shuningdek aholi xarakterining ba‘zi jihatlari, xususan, mehmondo‘stligi, jasur va botirligi haqida ahamiyatli ma‘lumotlarni yozganlar. Qayd etish kerakki, ayrim hollarda Istaxriyga qaraganda Ibn Havqalning ta‘rifi birmuncha batafsil va izchilroq [5:11].

Xorazm haqida xuddi shunday, ammo Istaxriy va Ibn Havqalga qaraganda bir qadar qisqacha ma‘lumotlarni al-Muqaddasiy (vaf.1000)

o'zining 985-yilda yozgan "Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim" asarida beradi[6]. Asarning qiymatli tomoni Muqaddasiy (Maqdisiy) unda xorazmiylardagi ilm-fanga bo'lgan muhabbatni yuksak baholab, Xuroson shaharlarida ta'lim oladigan xorazmlik yoshlarning juda ko'pligidan xabar berishidir.

Xorazm iqlimi haqidagi ayrim geografik ma'lumotlar Ibn Xordadbexning (vaf.912) 846/7 yilda yozgan va 885/6 yilda qayta ishlagan "Kitab al-masalik va-l-mamalik" ("Mamlakatlar va yo'llar kitobi") asarida uchraydi[7]. Muallif alohida joylar orasidagi masofalarni ko'rsatib, ularga olib boradigan yo'llarni qisqacha tavsiflaydi. Xorazmning geografik holatini ta'riflay turib, Ibn Xordadbex IX asrda Xorazm va Kurdarning birgalikda xalifalik xazinasiga yuborib turgan yillik xiroji (489 000 xorazmiy dirhami) to'g'risida ham ma'lumot bergan.

Xorazmning qadimgi tarixiga bag'ishlab mahalliy tarixchi Mahmud ibn Muhammad ibn Abbos ibn Arslon al-Xorazmiy (vaf. 1173) "Xorazm tarixi" asarini yozgan bo'lib, imom Subukiya ko'ra, u sakkizta katta jilddan iborat bo'lgan [8]. Hadis, tarix, tasavvuf va shofe'iy mazhabi fiqh olimi bo'lmish Ibn Abbos Xorazmiy Nizomiya madrasasida ham dars bergan. Diniy va falsafiy ta'limot haqidagi mashhur kitob muallifi, faylasuf ash-Shahristoniy haqidagi qiziqarli hikoyani Yoqut aynan tarixchi Mahmud Xorazmiydan olganligi bayon qilingan.

Abu Mansur as-Saolibiy (vaf.1038) mashhur arab adiblaridan biri sifatida 200 ga yaqin asar yozgan va uning hayoti hamda faoliyati Movarounnahr va Xorazm tarixi bilan aloqadordir. As-Saolibiy Somoniylar hukmronligi davrida, ya'ni 992-993-yili Buxoroda bo'lib, bu yerdagi bir qator ijod ahli bilan o'zaro suhbat va munozaralarda ishtirok etgandan so'ng Xorazm diyoriga keladi va o'sha vaqtdagi hukmdor Ma'mun ibn Ma'mun (1009-1017) saroyida bir muncha vaqt bo'lgan, Xorazmshoh bilan o'zaro hamsuhbat bo'lgan. As-Saolibiy Ma'mun ibn Ma'mun haqida asarlar yozganligi ham ta'kidlanadi[9:118].

Abu Mansur as-Saolibiy xorazmlik mashhur adib va shoir Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy (vaf. 993) haqida ma'lumot berib o'tadi [10:101]. Aslida Abu Bakr Muhammad al-Xorazmiy as-Saolibiyning ustози bo'lgani va uning o'z ustozidan Nishopurda saboq olganligi manbalarda

qayd etilgan. Saolibiy Beruniyga zamondosh xorazmlik adib va shoiridan Damashq ajoyibotlarini eshitganligini so'zlab beradi[9:119]. Uning "Yatimat at-dahr" asari o'zbek tilida ham nashrdan chiqqan[11].

Astronom va matematik Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (vaf. 1048) tomonidan yozilgan ko'plab tarixiy asarlar qatori "Xorazm tarixi" kitobi ham sanab o'tilgan. Ammo bu tarixiy asar bizga qadar yetib kelmagan. Bayhaqiy G'aznaviylar hukmdori sulton Mahmudning mamlakatni istilo qilish voqeasini aynan shu asarga tayanib yozgan[1:66]. Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya" asaridagi qimmatli dalillar ichida Xorazmga oidlarini ham ko'plab uchratamiz[12].

Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniyning (vaf.1166) "Kitob al-ansob" asarida geografik ma'lumotlar qatori islom dini rivojiga hissa qo'shgan o'sha davrning taniqli shayxlari va ularning biografiyasi haqida dalillar ham o'rin olgan bo'lib, unda xorazmlik olimlarga ham katta o'rin ajratilgan[13:87-94]. Asli marvlik hisoblangan as-Sam'oniy 1155-1156-yillarda Movarounnahr va Xorazmda bo'lgan.

Fors adabiyotining ilk tazkirasi bo'lgan "Lubob ul-albob" muallifi Muhammad Avfiy ham (vaf.1232) bir muddat Gurganjda yashab, shaharda Majiddin Bag'dodiyning xizmatida bo'lib, bir qancha olimlar bilan tanishadi. Avfiy shaharda bo'lgan vaqtda (1203y.) Gurganj davlatning boshkenti bo'lib, o'zining eng porloq davrini yashayotgan edi. Shaharda ilm odamlarining ko'pligini ko'rgan Avfiy, "Bu shaharda ilm ahli ko'k yuzidagi yulduzlar kabi ko'p", deya hayratga tushadi[14: 249].

Xorazm tarixiga nisbatan katta qiziqish uyg'otadigan, o'rta asr manbalari orasida o'xshashi bo'lmagan asar musulmon mamlakatlaridagi qariyb barcha shaharlar va joylar to'g'risida ma'lumotlar yig'gan va taqdim qilgan olim, yozuvchi, filolog, sayyoh, tarixchi va geograf Shihobiddin Abu Abdulloh Yoqut al-Hamaviyga (vaf. 1229) tegishli bo'lib, bular "Mu'jam al-buldon" (arab jo'g'rofik bilimlarini umumlashtirgan asar bo'lib, 16 000 maqoladan tarkib topgan) hamda "Irshad al-arib ila ma'rifat al-adib" (biografik-ensiklopedik asarda VII-XIII asrlarda 1100 arab adibi va olimlari haqida ma'lumot yozib qoldirgan) asarlaridir[14]. Muallif aynan Xorazm yerlariga sayohat qilgan vaqtida

mo'g'ullarning yaqinlashib kelayotganligini bilib, bu hududdan chiqib ketgan.

Xorazmning ilmiy-madaniy hayoti to'g'risida muhim ma'lumotlar arab tarixchilari Ibn al-Asirning (vaf.1233) "Al-komil fi-t-tarix" va Ibn al-Kasirning (vaf. 1373) "Al-bidoya va-n-nihoya" asarlarida ham uchraydi. Bu manbalardagi Xorazm fathi bo'yicha deyarli barcha ma'lumotlar "Tarixi Tobariy"dan olingan bo'lsa-da, lekin mintaqaning XI-XII asrlardagi tarixi haqidagi ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Xorazmshoh ma'muniylar nomi bilan bog'liq madrasa bunyod etilishi birinchi marta Ibn Kasir tomonidan eslab o'tilgan bo'lib, bu madrasa X asrning oxiri yoki XI asrning boshida qurilgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, xorazmshoh sulton Alouddin Takesh davrida Xorazmda shofe'iylar va hanafiylar uchun madrasalar qurilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarning ahamiyati kattadir [15:22].

Shihobiddin Muhammad ibn Ahmad an-Nasaviy (vaf.1231-yildan so'ng) o'zining "Siyrat as-sultan Jaloladdin Mangburni" asarida mamlakatning siyosiy tarixini bayon qilish bilan birgalikda ilmiy hayotiga ham to'xtalib o'tadi. Xususan, u katta faqih Shihobiddin Xivaqiyning beshta madrasada dars bergani hamda shofe'iylarga madrasa va juda katta kutubxona ochib berganini qayd qiladi [16:71-72].

Abu Nasr Muhammad ibn Abduljabbor al-Utbiyning (vaf.XI asr boshi) arab tilida yozilgan "Tarix al-Yaminiy" asarida ma'muniylar sulolasi davriga oid davlatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy tarixi bo'yicha ma'lumotlar berilgan. "Tarix al-Yaminiy"da Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga ham oid muhim ma'lumotlar keladi. Unga ko'ra, xorazmlik olim tavsiyasi bilan Qoraxoniylar va Ma'muniylar o'rtasida do'stona aloqalar o'rnatilgan [14:235].

"Tarixi Mas'udiy" asari muallifi Abul Fadl Muhammad ibn al-Husayn al-Bayhaqiy (vaf.1077) G'aznaviylar davlatida kotib vazifasida ishlagan tarixchi olim va davlat arbobi bo'lib, uning 30 jildik "Tarixi Mahmud" asarining faqat sulton Mas'ud hukmronligi (1030-41) davriga oid qismigina saqlanib qolgan va u "Tarixi Mas'udiy" yoki "Tarixi Bayhaqiy" nomi bilan ham mashhurdir. Asarda ma'muniylar va oltuntoshlar sulolalari davrida Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan tashqari ilmiy-madaniy hayotga oid ma'lumotlarning ham aks etishi uning qiymatini yanada oshiradi. Xususan, muallif olimlarning davlatning ichki va tashqi

siyosatida tutgan mavqeyini xorazmshoh Abul Abbos Ma'munga yetti yil xizmat qilgan, kerak vaqti eng yaqin maslahatchi va eng ishonchli elchi vazifalarini bajargan Abu Rayhon Beruniy timsolida tasvirlab bergan. Bayhaqiy al-Beruniy tilidan quyidagi so'zlarni yozadi: "Bir kuni Xorazmshoh ot minib uyim yoniga kelib, meni chaqirishlarini buyurdi. Uning oldiga kech chiqdim. U otini uyim eshigigacha haydab keldi. U otdan tushmoqchi edi, men tushmasin deya, unga ta'zim qildim. U aytdi: "Ilm eng sharafli hukmronlikdir. Uning yoniga barcha kelur, lek u kelmas" [17:16].

Imom Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad az-Zahabiy (vaf.1348) "Siyaru a'lamin nubalo" ("Mashhur daholar siyrati") asarida ko'plab xorazmlik hadis roviylari, muhaddislar va faqihlar haqida, shuningdek imom Buxoriyning xorazmlik do'stlari haqida ham ajib ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Shuningdek, ilmiy maqomga ega xorazmshohlarni ham, ayniqsa sulton Takeshni go'zal ta'riflar ila e'tirof etgan [18].

Mashhur ispaniyalik sayyoh Abu Hamid al-G'arnotiy (vaf.1170) boshqa mamlakatlar qatori Xorazmga ham kelgan va bu yerda ko'plab olimlarni uchratgan. Shulardan biri hanafiy olimlaridan al-Muvaffaq Ahmad ibn Muhammad al-Makkiy al-Xorazmiydir (v.1172). Andalusiyalik sayyoh Alouddin Otsiz davridagi Xorazmni shunday ta'riflaydi: "Xorazmliklar – chinakam olimlar, shoir va oliyjanob kishilardir" [19: 46].

**XULOSA.** Boshqa o'rta asr tarixchi va geograflariga kelsak, ular yuqorida eslab o'tilgan mualliflarning ma'lumotlarini u yoki bu darajada takrorlay turib, ularni juda oz tafsilotlar bilan to'ldirishadi, xolos.

Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasida saqlanadigan 4830 raqamli qo'lyozmaning 108b-varag'ida shu qo'lyozmadagi geometriyaga oid bir asarni Muhammad ibn Berqoq ibn Jubon (Cho'pon) otli kishi Bag'doddagi Nizomiya madrasasida hijriy 727-yilda (milodiy 1327) o'qib tadqiq qilgani va bu risoladan foydalangani to'g'risida qayd mavjud. E'tiborli jihati shundaki, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qalamiga mansub o'nga yaqin asar ham mazkur qo'lyozmadan o'rin olgan. Demak, o'rta asrlarda sharqdagi madrasalarning mudarrislari-yu talabalari Xorazmiyning asarlarini o'qishgan va ulardan o'z ilmiy izlanishlarida foydalanishgan. Birinchi Uyg'onish davridagi turkistonlik mutafakkirlarning asarlari madrasada o'qitilmagan,

degan fikr asossiz ekanligi bu ma'lumot orqali anglashiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. М., 1963.
2. The history of al-Tabari (Ta'rikh al-rusul wa'l-muluk). New York, 1994.
3. Ал-Балозурий, Абул Аббос Ахмад ибн Яхё. Футух ал-булдон (Хуросоннинг забт этилиши). Тошкент, 2017.
4. Ал-Яъкуби. Книга стран (Китаб ал-булдан). Пер., комментарии и указатели Л.А. Семеновой. М., 2011.
5. Джалилов А. Согд накануне арабского нашествия и борьба согдийцев против арабских завоевателей в первой половине VIII в. Сталинабад, 1961.
6. Muqaddasiy. Ahsan at-taqosim fi ma'rifatil aqolim (arab tilida). Qohira, 1991.
7. Ибн Хордадбех. Книга путей и стран. Баку, 1986.
8. Мирзаев Б. Хоразмнинг биз билмаган мухаддис ва тарихчиси. // URL: <https://www.bukhari.uz/?p=19550>
9. Сулаймонова Х. Абу Мансур ас-Саолибий тазкираларида Абу Бакр ал-Хоразмий ҳақидаги маълумотлар // Мерос, №1/2019.
10. Саолибий, Абу Мансур. Китоб ал-латоиф ва ал-маориф (Ажойиб маълумотлар ҳақида китоб). Тошкент, 1987.
11. Саолибий, Абу Мансур. Ятимат ад-дахр фи маҳосин ал-аср. Т., 1976.
12. Беруний, Абу Райҳон. Қадимги халклардан қолган ёдгорликлар (Осор ал-боқия). Тошкент, 2020.
13. Самъоний, Абдулқарим. Насабнома. Тошкент, 2017.
14. Orazsahedov A. Tarihte Gürgeç şehri. Doktora tezi. Konya, 2018.
15. Dursun G. Harizmşahlar devleti'nde ilmi hayat. Doktora tezi. Istanbul, 2015.
16. Насавий, Шихобиддин Муҳаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. Камол Матёқубов таржимаси. Тошкент, 2006.
17. Байҳақий, Абул Фазл Муҳаммад ибн Хусайн. Тарихи Байҳақий. Т., 2020.
18. Заҳабий, Шамсиддин Муҳаммад ибн Ахмад. Машхур даҳолар сийрати. Т., 2017.
19. Путешествие Абу Хамида ал-Гарнати в Восточную Европу и Центральную Европу (1131-1153 гг.). М., 1971.



## “TO‘NYUQUQ” BITIKTOSHIDA SIYOSIY YETAKCHI NUTQINING IFODA XUSUSIYATLARI

Elbek O‘rol o‘g‘li Ro‘ziyev, Termiz davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida stajyor-tadqiqotchisi

## CHARACTERISTICS OF EXPRESSION OF THE POLITICAL LEADER’S SPEECH IN

### “TONYUKUK”

Ruziyev Elbek Ural ugli, Termez state university Trainee-researcher of the Department of Uzbek Linguistics

## ОСОБЕННОСТИ ВЫРАЖЕНИЯ РЕЧИ ПОЛИТИЧЕСКОГО ЛИДЕРА В НАДПИСИ

### “ТОНЬЮКУК”

Рузиев Элбек Урал оглы, Термезский государственный университет, стажёр-исследователь кафедры узбекского языкознания

**Annotatsiya:** Maqolada qadimgi Turk xoqonligi sarkardasi To‘nyuquq tomonidan yozib qoldirilgan “To‘nyuquq” bitiktoshi va undagi siyosiy yetakchi nutqiga xos birliklar lingvistik jihatdan tahlilga tortilgan. Qadimda qo‘shin boshliqlari harbiy yurishlarni tashkil etgan hamda boshqargan. Shuningdek, ular qo‘shinni olg‘a undash, jangda g‘olib bo‘lishga chorlovchi siyosiy yetakchi vazifasini ham bajarganlar. Maqolada “To‘nyuquq” bitiktoshida mavjud siyosiy nutq elementlarining semantik ma‘nosi, ifoda xususiyatlariga e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** turkiy bitiklar, siyosiy yetakchi nutqi, To‘nyuquq, turk xoqonligi.

**Abstract:** In the article, the “Tunyuquq” epitaph written by the commander of the ancient Turkic Khaganate Tonyuquq and the units specific to the speech of the political leader in it are analyzed linguistically. In ancient times, army chiefs organized and led military campaigns. They also performed the role of political leaders urging the army forward and winning the battle. The article focuses on the semantic meaning and features of expression of elements of political speech in the “Tunyuquq” epitaph.

**Key words:** Turkish inscriptions, speech of a political leader, Tonyukuk.

**Аннотация:** В статье лингвистически анализируются эпитафия “Тонюкук”, написанная полководцем древнетюркского каганата Тонюкуком, и единицы, характерные для речи политического лидера в ней. В древние времена военачальники организовывали и возглавляли военные кампании. Они также выполняли роль политических лидеров, подгоняющих армию вперед и побеждающих в битве. В статье основное внимание уделяется смысловому значению и особенностям выражения элементов политической речи в эпитафии “Тонюкук”.

**Ключевые слова:** турецкие писания, речь политического лидера, Тонюкук, Турецкое ханство.



<https://orcid.org/0009-0008-0410-7020>  
e-mail:  
elbek\_ruziyev@mail.ru

**KIRISH.** Ma'lumki notiqlik alohida san'at sifatida Qadimgi Yunoniston va Rimda taraqqiy etgan hamda rivojlangan. Notiqlik tarixi o'zining ko'p yillik tarixiy taraqqiyot davrida bir qancha tarmoq yo'nalishlariga bo'linganligini kuzatishimiz mumkin. Mavjud adabiyotlarda xususan, S.Inomxo'jayev "Notiqlik san'ati asoslari", A.Aripovning "Notiqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari" nomli tadqiqotlarida ijtimoiy-siyosiy notiqlik, akademik notiqlik, sud notiqligi, ijtimoiy maishiy notiqlik, badiiy notiqlik, diniy notiqlik kabi turlari keltirib o'tilgan [1,2;-B.6,7]. Bu turkumlarga mansub ijtimoiy-siyosiy notiqlikning muhim ko'rinishi siyosiy nutq hisoblanadi. Siyosiy nutq tushunchasiga turkolog olim Q.Sodiqov quyidagicha ta'rif beradi: "Siyosiy nutq – majlis, qurultoy va kengashlarda so'zlanadigan nutq bo'lib, bunda rahbar xodim muayyan davrga xos dolzarb siyosiy masalani yoritib beradi"[3;-B.524]. Shu jihatdan, o'zbek tili tarixining qadimiy ildizlari hisoblangan manbalar "Bilga xoqon", "Kultegin", "To'nyuquq" bitiktoshlarida ham siyosiy nutqning elementlarini uchramiz. Quyida aynan "To'nyuquq" bitiktoshidagi siyosiy yetakchi nutqining xususiyatlariga e'tibor qaratilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Jahon turkologlari tomonidan bitiktoshlar ularning matnii va adabiy-estetik jihatlari atroflicha tahlilga tortilgan. Ali Akar, E.Aydin, Q.Sodiqov, N.Rahmonov va boshqa olimlarning asarlarida "To'nyuquq" bitiktoshi haqida to'xtalib, ma'lumotlar berib o'tilgan. Maqolada ushbu asarlardagi matnlarga berilgan izohlardan foydalanilgan. Shuningdek, maqolani yozishda ilmiy bilishning tavsifiy, qiyosiy-chog'ishtirma metodlaridan foydalanilgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** "Bilge Tonukuk ben özüm tawgaç eline kılntım türk bodun tawgaça körür erti – (Men) bilga To'nyuquqman. O'zim Tabg'ach elida voyaga yetdim. (O'sha kezlar) turk xalqi Tabg'achga qaram edi"<sup>1</sup>.

To'nyuquq bitigining dastlabki qatorlarini tashkil etuvchi bu jumlagra grammatik-semantik nuqtayi nazardan baho berib, ayni paytda talqin qilsak, To'nyuquq o'zining tug'ilishi haqida

gapirganda, tug'ilish haqiqiy hayot, mavjudlik va dunyoga kelish ramzi bo'lganligini ifoda etadi. To'nyuquq o'z bitigida vaqt tushunchasini sir sifatida qoldirishni ma'qul ko'rgan. Vaqt tushunchasini Kul Tegin va Bilga xoqon bitiklarida yaqqol anglash mumkin bo'lsa-da, To'nyuquq bitiklarida anglash mushkul bo'ladi. Shu sababdan ham yodgorlikning yozilish sanasini olimlar har xil baholaydilar[4]. Yozuvning dastlabki ikki satrida ko'rib turganimizdek, To'nyuquq o'zining tug'ilgan yili qaysi yillarga to'g'ri kelganini aniq ko'rsatish o'rniga, tarixiy bilimlardan foydalanib, o'sha davrda o'quvchini taxmin qilishga majbur qilmoqchi bo'lgan. Tonyuquq jumlada o'zi haqida gapirar ekan, o'z ismi oldida "dono" degan unvonni qo'llashi, o'zini hamma narsani biluvchi, hamma narsada hukmronlik qila oladigan shaxs sifatida ko'radi. Erhan Aydin ta'kidlaganidek: "Aytish kerakki, To'nyuquqning o'zini ifodalash uchun ishlatadigan hikmatli so'zni tanlashida alohida sabab bor. U qo'llayotgan "bo'yla", "bag'a", "tarkan" so'zlari harbiy unvonlar bo'lib, bilimdon, donishmand degan ma'noda uning harbiy unvonlari bilan bir qatorda "donishmand" unvoni ham atayin va qat'iyat bilan qo'llanishini aytishimiz kerak. Ya'ni, bir necha harbiy unvonga ega bo'lgan To'nyuquqning maqsadi "dono" degan unvonni qo'llash orqali nafaqat harbiy, balki davlat boshqaruvi va boshqaruv nuqtayi nazaridan ham o'zining aqlli shaxs ekanligini bildirishni maqsad qilgan bo'lishi kerak [5;-B.71].

"Käçä kältimiz, kälmişi alp tädi, tuymadi, täñri Umay İduq yär sub basa bärti ärinç, näkä täzär-biz. Öküş täyin näkä qorqur-biz az tayin nä basänalim, täglim, tädim. Tägdimiz, yayidimiz".

Bitiktoshdagi ushbu parchada ham "urush", "yov", "hujum" kabi so'zlar yetakchi nutqining ommaga yetib borishini ta'minlovchi vosita vazifasini bajarmoqda. "Yovni ko'p deya nega qo'rqamiz, qani boraylik, hujum qilaylik" kabi jumlar jangchi yo'l boshchining tantanavor chaqirig'i sifatida yangraydi. Bitiktoshdagi Tonyuquqning birin-ketin ma'no jihatdan qamrab oluvchi jumalarni qo'llamoqchi bo'lishining asosiy sababi ham o'quvchiga, qolaversa, askarlariga ta'sir o'tkazish. Negaki, siyosiy nutqning muhim

<sup>1</sup> Yorliqlar matnining bugungi kundagi tarjimasini berishda M.Is'hoqov, Q.Sodiqov, Q.Omonovlarning "Mangu bitiklar" kitobidan amaliy foydalanildi.

xususiyatlaridan biri ham ta'sir o'tkazishdir. Bitiktoshning yuqori qismlaridagi kabi To'nyuquq bu satrlarda ham urushga ketishdan oldin askarlariga qilgan nutqida dushmanlarning ko'pligi urush natijasiga ta'sir qilmasligini ta'kidlaydi. Shu o'rinda, To'nyuquq tashqi tomondan ulug'vor sanaluvchi narsalarning ham asl ichki jihatlarini ko'rish kerakligiga ishontira oladigan yo'l boshchi bo'lganini ushbu satrlardan yana bir bor anglaymiz.

To'nyuquq bergan tafsilotlarga qaraganda dushman askari uning askaridan ikki baravar ko'p bo'lgan, ammo uning askarlarga qarata aytgan murojaati urushda uning g'alabasini ta'minlab bergan. Urushda To'nyuquq kerakli nutqni ayta olgan. Askarlar kam sonli bo'lsa-da qat'iyat bilan kurash olib borgan. To'nyuquq e'tiqodni mahkam ushlagan yetakchi sifatida ham gavdalanadi. Xalq, el-yurt ahvolidan doimo xavotirda bo'ladi. O'quvchi uning nutqlarini yanada yaxshiroq anglashi uchun uning nutqi o'tgan zamon birinchi shaxs shaklida ifoda etiladi. Uning "Ol sabin asidip, tun yama udusiqim kalmaz arti, kuntuz yama olursiqim kalmaz arti", - deb yozilgan nutqida ham el-yurtga qayg'urish hissini kuzatishimiz mumkin.

Eltarish xoqonning Tabg'achga o'n yetti bor hujumi yoki Qitanga yetti, O'g'uzga besh bor jang qilib g'olib bo'lganida ham To'nyuquq sarkarda sifatida o'zini namoyon etganligini quyidagi misollarda ham anglashimiz mumkin: "Alpin uchun Tabg'achqa yati yigirmi sunusdi, Qitanqa yati sunusdi, Oguzqa bas sunusdi; kunduz olurmati, qizil qanim tukati, qara tarim yugurti". Uning ushbu so'zlari ham Vatanparvarlik bilan aytilgan yetakchi nutqining ko'rinishidir: Bu turk bodunqa yaraqliq yagig kalturmadim, togunlug atig yugurtmadim. Turk xalqiga yaroqli yovni keltirmadim, yalovli otini yugirtirmadim. Bundan ham anglashimiz mumkinki, To'nyuquq xoqon bilan yonma-yon yurgan, yurtni mustahkamlagan yetakchidir.

**XULOSA.** Umuman, turkiy siyosiy nutq tarixini o'rganishda To'nyuquq bitiktoshi ham o'ziga xos tarzdagi muhim manba vazifasini bajaradi. Turkolog olim Q.Sodiqovning ta'biri bilan aytganda, "To'nyuquq xoqon emas, qolaversa, uning bitigi yorliq yo yurt egasining bitigi ham emas.

Lekin, ta'kidlash kerak, bitig To'nyuquqning kim o'tgani, xalq erki yo'lida xoqonlar bilan yelkama-yelka turib kurashgan milliy qahramonning ulug' xizmatlarini xoqonlik oldida, kelajak avlodga yana bir bor ta'kidlab qo'yish uchun yozilgan bayonotidir"[3;-B.417]. Lekin, ana shu xususiyatlari bilan u rasmiy tus oladi hamda uni ham siyosiy nutq matnlariga kiritishimiz mumkin. Zero, ulug' Turk xoqonligida xoqon bilan yonma-yon davlatni tuzgan, hududlarni kengaytirgan yetakchi nutqidan biz o'sha davrga xos bo'lgan nafaqat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, balki, yetakchining undovchi, jangchilar ruhiyatini ko'taruvchi nutqiy salohiyatga ega lider bo'lganligini ham anglaymiz. Albatta, mazkur maqolada ushbu manbadagi siyosiy yetakchi nutqining xususiyatlarini to'la darajada ko'rsatib berolmadik. Lekin, yuqoridagi misollar ham To'nyuquqning haqiqiy yetakchilik qobiliyatini ochib beradi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Inomxo'jayev S. Notqlik san'ati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi; 1982.
2. Aripova A.H. Notqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari. Fil. fan.. nomz. diss. – T. 2002.
3. Sodiqov Q. Eski o'zbek yozma adabiy tili. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
4. Osman Fikri Sertkaya. Gokturk Tarihinin Meseleleri. –Anqara: 1995.
5. Aydın E. Turklerin Bilge Atasi Tonyukuk. İstanbul: Kronik Yayınları. 2019.
6. M.Is'hoqov, Q.Sodiqov, Q.Omonov. Mangu bitiklar. –Toshkent: 2009.
7. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolik jamiyati g'oyalarining milliy davlatchiligimizdagi o'rni. Tamaddun nuri jurnali, 7(58), 247-250.
8. Kurbanbayeva, M. (2024). O'zbek xalq og'zaki ijodiyotida adolatli jamiyat to'g'risidagi ilk tasavvurlar ifodasi. Tamaddun nuri jurnali, 8(59), 78-81.
9. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolar vatanparvarligi – fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishida muhim omil. Tamaddun nuri jurnali, 9 (60), 23-25.



**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF  
O‘QITUVCHILARINI INTERDISSIPLINAR  
YONDASHUV BILAN TAYYORLASH**

**(o‘qish savodxonligi va tabiiy fanlar talqinida)**

**Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna, Urganch davlat universiteti  
tayanch doktoranti**



<https://orcid.org/0009-0000-3144-4585>

e-mail:

[guzaljumaniyazova@gmail.com](mailto:guzaljumaniyazova@gmail.com)

**PREPARING FUTURE PRIMARY TEACHERS  
WITH AN INTERDISCIPLINARY APPROACH  
(in the interpretation of reading literacy and natural  
sciences)**

**Jumaniyazova Gozal Baxorovna, Urganch State University a  
doctoral student**

**ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ  
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ**

**МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО ПОДХОДА  
(в интерпретации грамотности чтения и  
естественных наук)**

**Джуманиязова Гузал Бахоровна, докторант Ургенчского  
государственного университета**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini interdissiplinar yondashuv asosida tayyorlash jarayoni o‘rganiladi. Xususan, o‘qish savodxonligi va tabiiy fanlarni birlashtirgan holda o‘quvchilarni ta‘limga jalb etishning metodikasi va pedagogik mexanizmlari tahlil qilinadi. Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning ta‘lim jarayonidagi pedagogik mahoratini takomillashtirish, fanlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘quv faoliyatiga tatbiq etishning nazariy va amaliy ishlari ko‘rsatib berildi. Integrativ yondashuv orqali talabalarning fikrlash texnikasini va amaliy bilimlarini tajribalar asosida egallashi samarali tarzda rivojlantirishi aks etgan. Maqolada ushbu yondashuv orqali o‘quvchilarning ko‘p qirrali fikrlashi va amaliy bilimlarni egallashi samarali tarzda shakllantirilishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** interdissiplinar yondashuv, Everest metodi, o‘qish savodxonligi, tabiiy fanlar, pedagogik metodika, fanlararo integratsiya, boshlang‘ich ta‘lim.

**Abstract:** This article examines the process of training future primary school teachers based on an interdisciplinary approach. In particular, the methodology and pedagogical mechanisms of involving students in education by combining reading literacy and

natural sciences are analyzed. During the article, the theoretical and practical aspects of the development of pedagogical skills of future teachers, the implementation of interdisciplinarity in the educational process will be covered. Through this approach, students' multifaceted thinking and acquisition of practical knowledge can be effectively formed.

**Key words:** interdisciplinary approach, Everest method, reading literacy, natural sciences, pedagogical methodology, interdisciplinary integration, primary education.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается процесс подготовки будущих учителей начальных классов на основе междисциплинарного подхода. В частности, анализируются методология и педагогические механизмы вовлечения учащихся в образование путем совмещения читательской грамотности и естествознания. В ходе статьи будут освещены теоретические и практические аспекты развития педагогического мастерства будущих учителей, реализации междисциплинарности в образовательном процессе. Благодаря такому подходу можно эффективно формировать многогранное мышление учащихся и приобретение практических знаний.

**Ключевые слова:** междисциплинарный подход, метод Эвереста, читательская грамотность, естественные науки, педагогическая методология, междисциплинарная интеграция, начальное образование.

**KIRISH.** XXI asr ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri o'quvchilarda ko'nikma va bilimlarni kompleks ravishda shakllantirishdir. Shuning uchun zamonaviy ta'limda fanlararo integratsiyani ta'minlash muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. Interdissiplinar ta'lim bu turli fanlarni yagona darslar tizimiga birlashtirgan holda o'qitishni anglatadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda chuqurroq, mantiqiy va kengroq fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi, muammolarni turli burchaklardan tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Xalqaro tajribada ko'plab mamlakatlar ta'limda interdissiplinar yondashuvni joriy qilish orqali muvaffaqiyatga erishgan. AQSH va Kanada ta'lim tizimlarida STEM (Science, Technology, Engineering, Math) dasturlari doirasida matematika, tabiiy fanlar, muhandislik va texnologiyani yagona o'quv jarayoniga integratsiyalash ommalashgan [1;75-b]. Bu esa o'quvchilarning kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalar va texnikaviy bilimlarni birlashtirish imkoniyatlarini oshiradi. Finlandiya ta'lim tizimida esa ko'p yillar davomida fanlararo yondashuv keng qo'llanilib, barcha fanlarni birlashtirgan holda turli muammolarni yechish jarayonida amaliy bilimlar beriladi. Mamlakatda turli mavzular, masalan, iqlim o'zgarishi yoki texnologiyalarni rivojlantirish, bir necha fanlar orqali o'rgatiladi, bu esa bolalarda fanga bo'lgan qiziqishni oshiradi va bilimlarning real hayotga tatbiqini ko'rsatadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda interdissiplinar ta'limga katta e'tibor qaratilmoqda. 2020-yilda O'zbekistonda "STEAM ta'limi"

loyihasi doirasida tabiiy fanlar va texnologiyalarni birlashtirgan darslar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish milliy dasturi orqali mamlakat maktablarida fanlarni integratsiyalash orqali bilim olish tizimini modernizatsiyalash jarayonlari boshlangan. Prezident maktablari va yangi tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida matematika, fizika va texnologiyalar fanlarini o'zaro bog'liq holda o'qitish tajribalari joriy etilmoqda.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI.** Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdagi o'rnini tahlil qilish uchun quyida bir nechta muhim adabiyotlar tahlil qilindi va muhim tavsiyalar keltirildi:

Fogarty o'quv dasturlarini qanday qilib integratsiyalash mumkinligi, fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirishning usullari va bu jarayonda o'qituvchilarning roli haqida [2;14-b]; Bybeening asarida esa STEAM ta'limi (Science, Technology, Engineering, Art, Math) haqida keng ma'lumot beradi. STEAM yondashuvi orqali tabiiy fanlar va texnologiyani birlashtirib, amaliy ko'nikmalarni o'quvchilarga yetkazishning usullarini [2;33-b]; Beane fanlararo integratsiya orqali demokratiyaga asoslangan ta'lim modelini rivojlantirishni, o'quv dasturlarini qanday qilib integratsiyalash orqali o'quvchilarni hayotiy muammolarni yechishga tayyorlashni [3;71-b]; Parij va Stahl boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda pedagoglarning o'rnini, amaliy mashg'ulotlar, matnlar ustida ishlash metodikalarini [4;5-b]; Olim va

metodist Harlen esa tabiiy fanlarni o'quvchilarga qanday qilib sodda va qiziqarli tarzda yetkazish, laboratoriya mashg'ulotlarini qanchalik samarali tashkil etishni [5;21-b]. Meier, D.R., & Wood, L. "The Young Child's Memory for Words: Developing First and Second Language and Literacy" nomli kitobda bolalarning til o'rganish qobiliyatlari va o'qish savodxonligini rivojlantirish [6;46-b.] metodlari o'rganiladi.

Tadqiqotchi T.Ziyodova ona tili darslarida o'quvchilarning matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishi, N.Bekniyazova boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida matn yaratishga o'rgatish metodikasi, Sh.Sariyev boshlang'ich sinflar o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirishdagi metodik muammolarni tadqiq qilganlar.

Natijada keyingi yillarda boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi darslarining yuqori samaradorlikka erishish bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Xususan, H.Bakiyeva, Sh.Sariyev, G.Mamatova, Sh.Boltayeva, L.Muminova kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish jarayonlarini shakllantirish, badiiy matn ustida ishlash, xalqaro baholash dasturlariga mos holda topshiriqlar tizimini takomillashtirish, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish muammosi tadqiq etildi [7; 29-b].

#### **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Ushbu ilmiy maqolada mavzuga oid "Everest" nomli mualliflik metodidan foydalanildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Yangi avlod darsliklarini yaratishda aynan shu jihatlarga diqqat qaratish, pedagogik sohada tahlil olayotgan talabalarni kelgusi ta'lim faoliyatida o'quvchilarini xalqaro PIRLS yoki TIMSS dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlashga, eng muhimi, hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Asar matni ustida ishlash emotsional jarayon bo'lib, adabiy ta'lim mazmuni kengayib, murakkablashib borgan sari o'zlashtirishga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyati kuchaytirilishi lozim. Chunki o'quvchilarni asar matni ustida ishlashga qiziqтира olish o'quv fani mazmuni, o'qilayotgan badiiy asarni tushunish, anglash va idrok etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat [8; 68-b].

Tabiiy ilmiy savodxonlik – inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili sanaladi. Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlar bilan bog'liq muammolarni mustaqil hal qila olishi tushiniladi. Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlikka ega bo'lgan shaxs fan va texnologiyalarga bog'liq muammolarni bir qator ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi [9;44-b].

O'qish savodxonligi va tabiiy fanlar talqinida interdissiplinar yondashuv asosida 4-sinf darslikdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bo'lgan oliy ta'lim bitiruvchi talabalariga "Everest" metodi haqida ma'lumot, tavsiya va ko'rsatmalar berildi. Ikkala fan uyg'unligi asosida javoblari alifbo tartibida boshlanadigan savollar ishlab chiqildi.

4-sinf "O'qish savodxonligi va tabiiy fan" darsligi [10] materiallari asosida tuzildi.

#### **Mavzu: Jonivorlarning hayotdagi o'zaro aloqasi**

- 1.Asal yig'uvchi hasharot nomi? (Asalari)
- 2.To'da bo'lib yashovchi yovvoyi hayvon nomini ayting? (Bo'ri)
- 3.Gulzor shahrining mittilaridan birining ismi? (Dovdirvoy)
- 4.Suti hamda go'shtini iste'mol qilamiz, bu qaysi uy hayvoni?( Echki)
- 5.Ketma-ket kelgani sababli hayvonlar, jonivorlar hayotiga ta'sir etuvchi tabiat hodisasi? (Fasllar)
- 6.Arilar asalni qayerdan oladi? (Gullardan)
- 7.Daraxtlar shoxiga va butalarga yirik yopiq uya soladi, mayda kemiruvchilar va hasharotlar bilan oziqlanadi? (Hakka)
- 8.Vafodor tushunchasi bu hayonga nisbatan ko'p ishlatiladigan uy hayvoni? (It)
- 9.Marvarid hikoyasida marvaridni kim topdi? (Josh)
- 10.Ikki dona atirgul yaproqchasi vazniga teng hasharot? (Kapalak)
- 11.Uzun oyoqli qushlar turkumining bir oilasi, 17 turni birlashtirgan 11 urug'i bor bu qaysi qush? (Laylak)
- 12.10 yildan 50 yilgacha yashovchi yovvoyi hayvon bu qaysi hayvon? (Maymun)
- 13.Ulkan suv hayvonlari akula, kit, timsoh va boshqalarning umumiy nomi? (Nahang)
- 14.Kemiruvchilar turkumiga mansub sut emizuvchilar oilasining bir turi? (Olmaxon)

15. Radioni kim ixtiro qilgan? (Popov)
16. O'zbekistonda 15 turi uchraydi, 224 turi mavjud qushlar oilasiga mansub, bu qaysi jonzot? (Qizilishton)
17. Manzarali, dorivor va ziravor ekin, bu qaysi o'simlik? (Rayhon)
18. Gavdasining uzunligi 12 smgacha, dumi deyarli gavdasining uzunligiga teng, bu qaysi jonivor? (Sichqon)
19. Tovuqsimonlarning yirik va chiroyli, jozibador vakillaridan biri? (Tovus)
20. Boyo'g'lilar turkumiga mansub yirtqich tun qushi? (Ukki)
21. Inson uchun eng xavfli lava, issiq gaz, suv bug'lari va jins bo'laklarini chiqarib turadigan geologik tuzilma? (Vulqon)
22. Eng katta 5ta doston? (Xamsa)
23. Nusratjon qaysi tanlov haqida eshitib qoldi? ("Yosh hunarmand")
24. Hayvonlar to'g'risidagi fan? (Zoologiya)
25. Yog'och qayerdan olinadi? (O'rmon)
26. Parhez go'shti uchun deyarli barcha mamlakatlarda boqiladi? (G'oz)
27. "Qaynar xumcha"dagi taom. (Shavla)
28. Urug'larni olib yuradi va shu bilan o'simliklarning tarqalishiga yordam beradi. Bu qaysi hasharot? (Chumoli)
29. "n" va "g" qaysi harfni hosil qiladi? (Ng)

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Ta'limda interdissiplinar yondashuv hozirgi zamon pedagogikasining muhim talabi bo'lib, u o'quvchilarga bilimlarni integratsiyalash orqali ko'p qirrali fikrlash va murakkab muammolarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, fanlararo integratsiyalashgan ta'lim modelini joriy etish o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradi, ularning ilmiy qiziqishlarini oshiradi va mavzularni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. O'zbekiston ta'lim tizimida interdissiplinar yondashuvning amaliyoti hali boshlang'ich bosqichda bo'lsa-da, mamlakat maktablarida STEM ta'limi va boshqa loyihalar orqali tabiiy fanlar va texnologiyalarni integratsiyalash bo'yicha dasturlar joriy etilishi

ko'zda tutilgan. Bu o'z navbatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda interdissiplinar yondashuvning samarali metodikalarini rivojlantirish zarurligini taqozo etadi. Maqolada keltirilgan tadqiqot va adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, o'qish savodxonligi va tabiiy fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish o'quv jarayonini yanada boyitadi va o'quvchilarning bilimlarni hayotda qo'llashga tayyorligini oshiradi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarni fanlararo yondashuv asosida tayyorlash zamonaviy ta'limni rivojlantirishda muhim qadam bo'lib qoladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Разработка подбор и использование раздаточного материала на уроках литературного чтения в начальной школе, 75-ст.
2. Fogarty, R. The Mindful School: How to Integrate the Curricula. 1991, 14-p.
2. Bybee, R. W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. 2013, 33-p.
3. Beane, J.A. Curriculum Integration: Designing the Core of Democratic Education. 1997, 71-p.
4. Paris, S. G., & Stahl, S. A. Children's Reading Comprehension and Assessment. 2005, 5-p.
5. Harlen, W. Teaching Science in Primary Schools. 2015, 21-p.
6. Meier, D. R., & Wood, L. The Young Child's Memory for Words: Developing First and Second Language and Literacy. 2004, 46-p.
7. Ziyodova T.U. O'quvchilarda mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. nomz. ...diss. avtoref., Toshkent, 2011, 29 bet.
8. Turumbetova A. //Ilm sarchashmalari. Ilmiy-nazariy, metodik jurnal. 8-son (avgust 2024) 68-b.
9. Toshibekov M. Boshlang'ich sinflarda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi (tabiiy fanlar misolida) PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya Namangan 2022, 44-b.
10. <https://t.me/tortinchisinf>



## CHAQIMCHILIKNING TALABALAR RUHIY- MA'NAViy TARBIYASIGA TA'SIRI

Sabirova Charosxon Atamamatovna, Urganch innovatsion universiteti “Pedagogika va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent

Ismoilova Shahzoda Nurali qizi, Urganch innovatsion universiteti “Pedagogika va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi, UrDU mustaqil tadqiqotchisi

## THE INFLUENCE OF CHARACTERISTICS ON THE SPIRITUAL EDUCATION OF STUDENTS

Sabirova Charoskhan Atamamatovna, Head of the Department of “Pedagogy and Primary Education Methodology” of Urganch Innovative University, (PhD), associate professor

Ismailova Shahzoda Nurali qizi, teacher of the “Pedagogy and Methodology of Primary Education” department of Urganch Innovative University, independent researcher of UrDU

## ВЛИЯНИЕ ХАРАКТЕРИСТИК НА ДУХОВНОЕ ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ

Сабирова Шаросхон Атаматовна, заведующая кафедрой “Педагогика и методика начального образования” Ургенчского инновационного университета (PhD), доцент  
Исмаилова Шахзода Нурали кызы, преподаватель кафедры “Педагогика и методика начального образования” Ургенчского инновационного университета, независимый исследователь УрГУ

**Annotatsiya:** Mazkur maqola O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlar diniy boshqarmasining muftiysi, islom ulamolari, millatlararo ittifoqining a‘zosi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Ruhiiy tarbiya” asaridagi chaqimchilikning sabablari, chaqimchilikning zararlari va uni davolash haqidagi g‘oyalari va sharq mutafakkirlarining ma‘naviy-ruhiy tarbiyada insoniy xislatlarning o‘rni va ahamiyati haqidagi fikrlari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, tarbiya, ma‘naviyat, jamiyat, istiqbol, ezgulik, yaxshilik, muallim, axloq, sabr-qanoat, hadis, chaqimchilik, zaiflik.

**Аннотация:** В данной статье речь идет о причинах проказы, вреде проказы и ее лечении, а также идеях восточных мыслителей в труде “Духовное воспитание” шейха Мухаммада Садики Мухаммада Юсуфа, муфтия Исламского религиозного управления Средней Азии и Казахстана, член Межнационального Союза, изучены мнения о роли и значении человеческих качеств в духовном воспитании.



<https://orcid.org/0009-0007-0193-7603>

e-mail:

[charos\\_pedagog@mail.ru](mailto:charos_pedagog@mail.ru)



<https://orcid.org/0009-0001-8993-6766>

e-mail:

[shahzodaismoilova96@gmail.com](mailto:shahzodaismoilova96@gmail.com)

**Ключевые слова:** образование, обучение, духовность, общество, перспектива, добродетель, учитель, мораль, терпение, довольство, хадис, скептицизм, слабость.

**Annotation:** This article is about the causes of leprosy, the harms of leprosy and its treatment, and the ideas of Eastern thinkers in the work “Spiritual Education” by Shaykh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf, Mufti of the Islamic Religious Department of Central Asia and Kazakhstan, a member of the Inter-National Union - opinions about the role and importance of human qualities in spiritual education were studied.

**Key words:** education, training, spirituality, society, perspective, virtue, goodness, teacher, morals, patience, contentment, hadith, skepticism, weakness.

**KIRISH.** Bolalarga ta’lim-tarbiya berish, ularda zarur hayotiy ko’nikmalarni shakllantirish, ijtimoiy odob o’rgatish mas’uliyati muqaddas Vatanimizning suyanchi — ustoz-muallimlarimizni hammadan ko’p tashvishga solishi tabiiy. Fidoiy pedagoglarimizning farzandlar kamoli, yurt istiqboli uchun jon kuydirib zahmat chekayotgani, yoshlarimiz toleyini baland, jamiyatimizni bundanda yuksak mavqelarda ko’rish ishtiyoqi har qancha tahsinga loyiq. Islom dini kishilarni yaxshilikka chorlash bilan birga barcha yomonliklardan, jumladan til ofatlaridan himoya qilish choralarini ham ko’radi. Til ofatlari juda ko’p, shulardan: befoyda so’zlarni gapirish, botil, gunoh ishlarni so’zlash, fahsh, so’kish, odob-axloqqa zid, chaqimchilik va shunga o’xshash so’zlarni aytish, o’zgalarni mazaxlash va ustidan kulish, sirni oshkor qilish, yolg’on so’zlash, g’iybat va boshqalar. Xullas, ro’yxatni davom ettirish mumkin. Bularning hammasi qoralangan va qaytarilgan amallardir. Chunki bu so’zlarning zamirida yomonlik va malomat bor. Ana shunday til ofatlaridan biri bu **chaqimchilikdir**. Ulamolar chaqimchilik to’g’risida: “Odamlar orasini buzish uchun ularning so’zlarini bir-birlariga yetkazish”, deb ta’rif berganlar. Chaqimchilikning shar’an harom qilingan gunohi kabira ekanligiga barcha musulmon ulamolari ittifoq etishgan. Chaqimchilikning harom ekanligiga Qur’oni Karim, hadisi sharifda va ulamolarning ittifoq etgan hukmlarida kelgan dalillar asos bo’ladi.

“Chaqimchilikka bois bo’lgan sababga nazar solsin va o’sha sabab yo’q qilish payidan bo’lsin. Dardning davosi uni keltirib chiqargan sababni yo’q qilish ila bo’ladi. Chaqimchi bilan qanday muomulada bo’linadi?

Bu haqda imom Zahabiy aytadi: “Kimga chaqimchilik yetib kelsa va unga: “Sen haqingda Falonchi unday dedi, bunday dedi” deyilsa, quyidagi olti tavsiyani amalga oshirsin:

1. Chaqimchiga ishonmasin. Chunki u chaqimchiligi sababli fosiq bo’ldi. Shariatda fosiqning gapi rad qiliadi.

2. Uni bu ishdan qaytarsin. Unga nasihat qilsin va kamchiligini qoralasin.

3. Chaqimchilik qilinayotgan odam haqida yomon gumonga bormasin.

4. Chaqimchilik uni qarshi taraf ziddiga josuslik qilishga olib bormasin.

5. Chaqimchining gapini boshqalarga aytib, o’zi chaqimchilik qilib yurmasin.

**Chaqimchilik qilishning sabablari:**

1. Gapi naql qilinayotgan shaxsga yomonlik yetkazish niyati;

2. Gap aytilayotgan odamga yaxshi ko’rnish;

3. O’zni o’zi xursand qilish va boshqalar.

**Chaqimchilikning zararlari:**

1. Chaqimchilik do’zaxga olib boruvchi yo’ldir;

2. Chaqimchilik ulfatlar orasida adovat olovini yoqadi;

3. Chaqimchilik ozor, zarar, alam, xusumat va nafratdir;

4. Chaqimchilikning oxiri voydir;

5. Chaqimchilik yaxshiliklarni ketkazadi;

6. Chaqimchilik pastkashlik, qo’rqoqlik, zaiflik, makr, yaltoqlik va munofiqlikdir”.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Xulq-odob haqidagi hadislarda eng ezgu insoniy xislatlar ulug’lanib, gunoh sifatidagi illatlar qoralanadi. Hadislarda insoniy xislatlardan ezgulik, iffat, sabr-qanoat, shukronalik kabi axloqiy xislatlar ulug’lansa, isrofgarchilik, ta’magirlik, ochko’zlik, nafs-u havoga, shahvoniy hissiyotlarga berilish, baxillik, johillik kabi illatlar, yomon xatti-harakatlar “gunoh” sifatida qoralansa, inson farovonligi, jamiyat ravnaqi uchun qilinadigan yaxshi ezgu xatti-harakatlar, faoliyat “savob” tarzida olqishlanadi. Farobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq-odobda ham qay darajada pok bo’lishi kerakligini “Falsafani o’rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to’g’risida”gi risolasida shunday

ta'riflaydi: "Falsafani o'rganishdan avval o'zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi noto'g'ri tuyg'ularga emas, balki kamolotga bo'lgan hirs-havas qolsin. Jaloliddin Rumiy ham "Ma'naviy masnaviy" sida inson xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlar borasida o'z qarashlarini bildiradi. U adovat, badjahllik, hasadgo'ylik, aybjo'ylik, g'araz, qahr-g'azabni qattiq qoralaydi va insonning eng qabih illatlari sifatida tavsiflaydi. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida insoniy fazilatlar va ezguliklarni madh etib, targ'ib-u tashviq etish bilan cheklanmay, ayni zamonda odamlardagi yomon, xunuk, insoniylikka xilof xislatlarni, insonlar uchun, jamiyat uchun zararli, sharaflil inson sha'niga yarashisiz xulq-atvor va sifatlarni tanqid qiladi.

O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlar diniy boshqarmasining muftiysi, islom ulamolari, millatlararo ittifoqining a'zosi Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf bola tarbiyasida chaqimchilik qilishning sabablari, chaqimchilikning zararlari haqidagi "Ruhiiy tarbiya" asarida quyidagi fikrlarini bildirib o'tgan.

Avvalo chaqimchilik qiladigan chaqimchiligi tufayli Alloh taoloning g'azabiga duchor bo'lishini bilib qo'yishi kerak. Shuningdek, uning savoblari chaqimchilik qilingan odamga olib berilishini, agar savobi bo'lmasa, narigi odamning gunohlari unga olib berilishini ham bilib qo'ysin. Chaqimchilik payti bo'lib qolsa, o'zining ayblarini o'ylasin va ularni tuzatishga urinsin. Agar o'zini ayblardan xoli deb bilsa shukr qilish ila mashg'ul bo'lsin. O'zini o'zi eng yomon ayblardan biri – chaqimchilik ila bulg'amasin. O'zining ayblari bo'la turib, boshqalarni ayblashdan uyalsin. O'zi haqida birovning chaqimchilik qilishini istamaganidek, o'zi ham o'zgarlar haqida chaqimchilik qilishni istamasin.

**MUHOKAMA.** O'tmishda ajdodlarimiz insoniyatning psixologik qonuniyatlarini muayyan ilmiy yo'nalish sifatida o'rganmagan bo'lsalar-da, biroq allomalarning asarlari, qo'lyozmalarida mazkur holatlarning yoritilishi, tahlili kuzatiladi. Biz Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlar psixik hayotini o'rganishga bo'lgan intilishi kishilar hayotining har xil tarixiy bosqichlarida ularning qanday nazariy va amaliy bilim bilan taqozo qilganligini, ba'zi qonuniyatlar qanday kashf etilganligini bilib olamiz. Ta'kidlash lozimki, allomalarning shaxs ma'naviy-ruhiy kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgi

kungacha o'z o'rni va ahamiyatiga egadir. Jumladan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning pedagogik-psixologik qarashlari bugungi kunda fan taraqqiyotining metodologik asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

**NATIJA LAR.** Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Yaxshi xulqqa intilgan, namunaga taqlid qilgan o'quvchi eng avvalo o'z imkoniyatlarini tushuna boradi, jamoadagi o'rnini to'g'ri belgilaydi. Inson ongli va tabiatning eng oliy mavjudoti bo'lgani uchun ham namunadan o'rnak oladi. Inson qalbidagi yomon illatlar do'stlar orasini buzadi, dushmanlar orasidagi adovatni yana ham kuchaytiradi. Jamiyatni parokanda qiladi. Aslida chaqimchilik tuhmat yo bo'hton emas, balki haqiqat bo'lishi mumkin. Ammo u odamlar o'rtasidagi munosabatlarni buzishi, jamiyatda fasod yoyilishiga sabab bo'lgani uchun ham qat'iy harom qilingan va og'ir gunohlar qatoriga kiritilgan. Shuning uchun mo'min banda doimo qalbini gina-kuduratlardan pok va salomat saqlashi lozimdir. Zero, qalb salomatligi – mo'min kishining eng asosiy sifatlaridan biri. Sog'lom qalb egasi amali ko'p bo'lmasa ham, ko'p yaxshiliklarga erishadi.

**XULOSA.** Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, allomalariimiz asarlarida ham, dinimizda ham yolg'onchilik, yomonlik, raqobatlashish, g'animlik, ichiqoralik, qo'pollik, o'g'rilik, tuhmatchilik, ikkiyuzlamachilik, o'ziga bino qo'yish, xushomadgo'ylik, chaqimchilik illat sifatida qoralangan. Dinimizda chamqimchilikka o'xshash yomon illatlar haqida Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Ruhiiy tarbiya" asarida ham qimmatli fikrlar keltirilgan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Ruhiiy tarbiya. 1-juz Poklanish. Sharq nashriyoti. Toshkent, 2023 y.
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Sharq nashriyoti. Toshkent, 2012.
3. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy Ma'naviy. Tarjima sharhi bilan. Tarjimon Asqar Mahkam. Toshkent: Sharq nashriyoti, 1999-yil.
4. <https://vaqf.uz/uz/lists/view/>.
5. <https://uz.delachieve.com/>.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING AFZALLIKLARI

*Ukibaeva Sanimxan Toymagambetovna  
Toshkent gumanitar fanlar universiteti  
"Amaliy va gumanitar fanlar" kafedrası  
assistent o'qituvchisi*

## ПРЕИМУЩЕСТВА ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ XXI ВЕКА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Укибаева Санимхан Тоймагамбетовна.  
Ташкентский гуманитарный университет  
Кафедра «Прикладные и гуманитарные науки»  
преподаватель ассистент*

## ADVANTAGES OF FORMING 21ST CENTURY SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS

*Ukibaeva Sanimkhan Toymagambetovna  
Tashkent University of Humanities  
"Applied and humanitarian sciences" department  
Assistant teacher*



[sanimxonukibayeva@gmail.com](mailto:sanimxonukibayeva@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0005-4146-8325>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish usullari, 4k modeli asosida yangi avlod darsliklarining kirib kelishi, Yangi avlod darsliklarida mashqlarning berilishi, tuzilishi va mohiyati, boshlang'ich ta'lim darsliklaridagi innovatsiyalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** 4k modeli, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, muloqot, jamoaviy ishlash, XXI asr ko'nikmalari, yangi avlod darsliklari, pedagogika, salohiyat, bilim, tajriba, metod.

**Аннотация:** В данной статье освещены методы формирования навыков XXI века у учащихся начальных классов, внедрение учебников нового поколения на основе модели 4к, положение, структура и характер упражнений в учебниках «Нового поколения», новации в учебниках начального образования.

**Ключевые слова:** 4к модель, критическое мышление, творческий подход, коммуникация, работа в команде, навыки 21 века, учебники нового поколения, педагогика, потенциал, знания, опыт, метод.

**Abstract:** In this article, the methods of formation of 21st century skills of primary school students, introduction of new generation textbooks based on the 4k model, provision, structure and nature of exercises in New Generation textbooks, innovations in primary education textbooks are highlighted.

**Key words:** 4k model, critical thinking, creative approach, communication, teamwork, 21st century skills, new generation textbooks, pedagogy, potential, knowledge, experience, method.

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Boshlang'ich ta'lim har bir kasb va sohaning poydevoridir. Yangi O'zbekistonning ilm-fan, tadbirkorlik, ishlab chiqarish, robototexnika, sun'iy intellect va boshqa turli jabhalarini rivojlantirish har

bir fuqaro oldidagi burchi hisoblanadi. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har kuni bir yangilik yuzaga chiqmoqda. Rivojlanish va yuksalish ta'lim sohasida ham amalga oshirilmogda. Bunday davr pedagoglardan zamon bilan hamnafas



ish olib borishni, yangiliklardan doimiy xabardor bo'lib turishni talab qiladi. Hozirgi amalda foydalanayotgan darsliklarimiz ham 4K tamoyili asosida yaratilgan. Bu tamoyil XXI asr ko'nikmalarini o'quvchilarning ong va hayotida shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilar quruq matn va she'rlarni yodlash emas, balki, matn she'rlarga doir topshiriq bajarishga va hayotiy ko'nikmalar orttirishga undaydi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS)**

Pedagoglar, ayniqsa, ta'limda poydevor vazifasini bajaruvchi boshlang'ich sinf o'qituvchilari yangidan-yangi g'oyalarni ishlab chiqib, o'z darslariga tatbiq qilib, o'quvchilar bilan birgalikda faol ish olib borsagina yaxshi natijalarga erishishi mumkin.

XXI asr ko'nikmalari, jumladan:

-o'rganish ko'nikmalari;

-hayotiy ko'nikmalar;

-ilmiy-savodxonlik ko'nikmalari.

O'rganish ko'nikmalarida 4k modeli, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, muloqot va jamoa bo'lib ishlashni o'rganish va o'zlashtirish kerak.

**Tanqidiy fikrlash** - o'quvchilar mavzudagi ma'lumotni analiz va sintez qilishi, uning ishonchligini baholashi va asosli xulosalar chiqara bilish ko'nikmasi hisoblanadi.

**Kreativlik**- o'quvchilarning noodatiy loyihalar yaratishi, noodatiy fikrlashi, yangi g'oyalar va yondashuvlardan foydalanishi, o'quvchilarda paydo bo'lib qolgan qolip va cheklovlardan chiqqan holda aniq va natijali fikrlash ko'nikmasi.

**Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish** - o'z fikrini aniq ifodalash va boshqalar bilan samarali munosabatda bo'lish. Boshqalar oldida o'z fikrlari va go'yalarini yetkaza olish ko'nikmasi hisoblanadi.

**Jamoa bo'lib ishlash**- o'quvchilarning kichik va katta guruhlarda ishlash ko'nikmasi hisoblanib, hamkorlik qilish va vazifalarni taqsimlash qobiliyatidir. O'quvchilar boshqalar bilan muloqot va hamkorlik qilgan vaqtda erkin va mustaqil fikrlashi, boshqalar fikrlarini ham tinglay olish ko'nikmasini shakllantiradi.

Hayotiy ko'nikmalarda kirishuvchanlik va moslashuvchanlik ko'nikmasida insonning o'z harakatlari va qadamlarini yangi vaziyatga ko'ra o'zgartirishi va notanish vaziyatlarda samarali

tarzda, odob-axloq va qadriyatlarga amal qilgan holda qobiliyatini namoyon etishi. Liderlik va mas'uliyat ko'nikmasida jamoani boshqarish qobiliyati, bolaga qat'iyatlilik va mas'uliyat, o'ziga ishonch kabi asosiy shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga qanday yordam berishni va ta'lim olishdagi imkoniyatlarini oshirish. Tashabbuskorlik va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasida ishni mustaqil ravishda boshlash qobiliyati, o'z-o'zini rag'batlantirish va tashabbus ko'rsatishda halollik bilan ishlash qobiliyati. Samaradorlik va javobgarlik ko'nikmasida ma'lum vaqt oralig'ida har qanday vazifani samarali bajarish, har qanday topshiriq uchun mas'uliyatlilikni his qilish tushunilishi. Ijtimoiy va madaniyatlararo o'zaro ta'sir ko'nikmasida o'quvchilar turli xil ijtimoiy va madaniy muhitlarda fikrlarini bayon qila olish, hamkorlikda har turli jabhalarda o'z sohasiga mos muloqot qurish va kelishish, samarali ishlash qobiliyatlarini shakllantirish kerak.

Zamonaviy ta'lim va zamonaviy maktab o'quvchilariga kompleks vazifalarni bajarish, bilimiga tayangan holda fikr-mulohazalarini shakllantirib, qaror qabul qilish; Mantiq, mushohada va egallagan bilimlarini tahlil qilish; Ijodkorlik, hamkorlik, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini shakllantirishi lozim. Shu bilan birga, o'zining, atrofda gilarining his-tuyg'ularini aniq baholashi, diqqatini boshqara olishi, moslashuv va kirishuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bo'lishi kerak. Bu qator vazifalarni hal qilish uchun ta'lim jarayonida "4K" modelini qo'llanib dars o'tishi kerak.

#### **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)**

Yangi darsliklarda berilgan mashqlar avvalgi darsliklardan farq qiladi. Yangi avlod darsliklarida berilgan mashqlarning o'tkazish shakllari guruh tarzida jamoada muloqot madaniyatining shakllanishiga, fanga bo'lgan qiziqishlarining ortishiga, diqqatini jamlashga, ularda hozirjavoblik, chaqqonlik, o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantiradi. Yakka tartibda dars davomida o'quvchilarga berilayotgan manbalarni mustaqil o'zlashtirishlari, ularning yashirin qobiliyatlarining yuzaga chiqishi, dunyoqarashining kengayishi bilan ahamiyatlidir. Darslarda foydalaniladigan mashqlarga qo'yiladigan talablar:

-Darslarda foydalanadigan metodlar mavzuga doir bo'lishi;

-Aniq maqsad qo'yilishi, qiziqarli bo'lishini ta'minlash;

-Shartlarni o'quvchilarga juda qiziqarli va aniq yetkazib berish;

-O'quvchilarning metod shartlarini bajarish jarayonini kuzatish;

-Natijalarni mohirona baholash va samarali yakunlash:

### **MUHOQAMA(OBSUJDENIYE/ ISCUSSION)**

Maktab faoliyati va avvalgi darsliklardagi nazariy bilimlar takrorlanadigan, oddiy o'qitish usullardan foydalanadigan, natijada hech qanday yuqori natijalar bo'lmasligi tabiiy hol edi. Natijada o'qituvchilar yillar davomida foydalanib o'tgan ayrim darsliklarga yoki o'qitish usullariga juda o'rganib qolishgan. Shuning uchun yangi darsliklarimiz ba'zi o'qituvchilar uchun shaxsiy-hissiy an'alaridan voz kechishga olib keldi. Boshlang'ich ta'limda amaldagi darsliklarning hammasida o'qituvchi metodlardan va interfaol usullardan foydalanib dars o'tishi kerak. O'qituvchi mashqlar va metodlardan foydalanish uchun yuqoridagi talablarga javob berishi kerak. Sababi, mashq va metod mavzuga doir bo'lmasa o'quvchilarning o'rganish, hayotiy va ilmiy-savodxonlik ko'nikmalari shakllanmay qoladi. Yangi darslikda keltirilgan ma'lumotlar, hajmi katta bo'lmasa ham topshiriqlar sonining ko'pligi, har xilligi, takrorlamasligi, mashq va masalalarning eski darsliklarga qaraganda yuqori saviyali bilimlarni, ongli fikr va tafakkurni talab etadi. Yangi darslikdagi topshiriqlar ijodiy va mantiqiy fikrlamas ko'p vaqt talab qiladi. Mavzu yuzasidan qo'shimcha hayotiy yondosh mavzularning berilganligi, vazifaning yechimi aniq va shaffoflikni talab etishi kabi ko'plab yangicha talablarni targ'ib etuvchi omillar ham e'tirozlarga sabab bo'lmoqda.

O'qituvchining pedagogik mahorati va ilmiy salohiyati yuqori bo'lsa har bir fan va mavzuga mos metod tanlanadi. Bunday to'g'ri tanlov albatta samarali natija beradi.

### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda boshlang'ich sinflarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish uchun 4K modeli asosida ish olib

borish eng zamonaviy yondashuvdir. XXI asrning 4 K modeli bugungi kunda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan eng muhim bo'lgan ko'nikmalardan hisoblanadi. Bu ko'nikmalar o'quvchilarning muammolarni hal etish, birgalikda jamoa bo'lib ishlash va yechim topish imkonini beradi. Chunki bu o'quvchilarning atrof-muhitda bo'layotgan jarayonlarga ongli munosabatda bo'lishiga, ijodkorligi va mantiqiy fikrlashi kengayishiga, har qanday holatga real yondashib, to'g'ri xulosalay olishiga, qolaversa jamoaviy muhitga tez ko'nika olishiga yordam beradi.

Zerokim, ana shu o'sib kelayotgan jazzi farzandlarimiz O'zbekiston kelajagidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr "O'zbekiston 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli farmoni.

2.Madayev, O., Sobirov, A., Xolmanova, Z., Toshmirzayeva, S., Ziyodullayeva, G., & Shamsiyeva, M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi.

3.Muslimov N.A, Usmonboyeva M.H. Pedagogik kompetentlik va kreativlik. –Toshkent, 2015-yil.

4.Xolmanova, Z., & Shamsiyeva, M. Bolada bilingvizmni shakllantirishda ona tilining ahamiyati. O'zbekiston, 6

5.Artiqboyeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika o'qituvchilarining kasbiy-metodik ko'nikmalarini takomillashtirish: ped.f.n. diss. –T.: 2004. -163 b.

6.M.A. Urinboyeva, N.Sh. Djumanova, G.X. Karimova, Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlarini integratsiyalash davr talabi. Ilmiy maqola, Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya konferensiyasi.

7.Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005.

8. Muslimov N.A. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok.diss. –T.:2007, -315 b.

**AMUDARYO O'NG SOHILI HUDUDIDA NEOLIT  
DAVRI MANZILGOHLARI TARIXI XUSUSIDA****Salayev Umrbek, UrDU tadqiqotchisi****ON THE HISTORY OF NEOLITHIC PERIOD  
RESIDENCES ON THE AMUDARYA RIGHT  
COAST AREA****Salayev Umrbek, researcher of UrDU****К ИСТОРИИ РЕЗИДЕНЦИЙ ПЕРИОДА  
НЕОЛИТА НА ПРАВОБЕРЕЖЬЕ АМУДАРЬИ****Салаев Умрбек, научный исследователь УрГУ**<https://orcid.org/0009-0000-0665-0619>e-mail:  
[umrebksalayev2023@gmail.com](mailto:umrebksalayev2023@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Amudaryo o'ng sohil hududining geografik sharoiti, aholining joylashishi, hududiy chegaralari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A., Yagodin V.N., Jabbarov I., Abramovich A.Ya., Vakturskaya N.N., Vinogradov A.V., Tolstov S.P., Xorazm, Oqchadaryo, Jonbos-4, Qavat, Bayram-Qozig'on, Ma'mur, Qo'rg'oshin, Kamisti, Baraktam-10.

**Аннотация:** В статье анализированы границы территории, расселения населения, географические условия на правобережья Амударьи.

**Ключевые слова:** Баратов П., Маматкулов М., Рафиков А., Ягодин В.Н., Жаббаров И., Абрамович А.Я., Вактурская Н.Н., Виноградов А.В., Толстов С.П., Хорезм, Акчадарья, Жанбас-4, Кават, Байрам-Казиган, Маъмур, Кургашин, Камысти, Барактам-10.

**Abstract:** The article analyzes the boundaries of the territory, population distribution, and geographical conditions on the right bank of the Amu Darya.

**Key words:** Baratov P., Mamatkulov M., Rafikov A., Yagodin V.N., Zhabbarov I., Abramovich A.Ya., Vakturskaya N.N., Vinogradov A.V., Tolstov S.P., Khorezm, Akchadarye, Zhanbas-4, Kavat, Bairam-Kazigan, Mamur, Kurgashin, Kamysti, Baraktam-10.

**KIRISH.** Yer geologiyasi taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan O'zbekiston hududining geografik holatining o'ziga xos hususiyatlarini Xorazm vohasi yorqin namoyon qilganligi fizik-geografik xaritada o'z aksini topgan. O'zbekiston tabiiy-geografik hududlarda qadimdan aholining joylashish obyekti bo'lib, tabiiy-iqtisodiy resurslardan tabiat buhronlari, injiqliklariga ko'nikib, tarixiy davr, uning turli bosqichlarida umrguzaronlik qilib, xo'jalikning barcha sohalarini rivojlantirib, murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tganligi arxeologik yodgorliklarda o'z ma'nosini topgan. Mana shu murakkab tarixiy yo'l natijalarini

Qizilqum va Qoraqum oralig'ida hajmi kichik orolda ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan turarjoylarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda olingan ashyolar isbotlaydi.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.** Xorazm vohasining odamzot tomonidan o'zlashtirilishi qo'shni hududlarga qaraganda ancha kech boshlangan bo'lsa ham, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik sohalarini rivojlantirish, shaharsozlik madaniyati, ilk davlatchilik poydevorini yaratish, uni mustahkamlash barobarida hayotiy tajribasining ahamiyati beqiyos. Geografik adabiyotlarda qayd

qilingan ma'lumotlarga ko'ra, bundan 25-10 million yillar Qizilqum Orol dengizi janubiy oralg'i hamda Zaungezi-Qoraqum-Ustyurt hududi janubiy hududi tekislik bo'lgan [Баратов П., Маматқулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси.- Тошкент, "Ўқитувчи", 2002. Б.283]. Vatan tarixini ilmiy asosda o'rganish zamon ruhidan kelib chiqib, hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biri.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Xorazm vohasi O'zbekistonning har bir tabiiy-iqtisodiy hududlari, o'lkasi kabi tarixining tarkibiy qismi hisoblanadiki, mazkur hudud yozma manbalarda turli nomlarda qayd qilinmasin, aholi o'zaro hurmat, bag'rikenglik bilan, zardushtiylilik o'g'itlariga amal qilib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Xalqimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish, turli tadqiqotlar olib borish hamda jahon miqyosida targ'ib qilish katta ahamiyatga ega", deb qayd qilishi tadqiqotchilar zimmasiga ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy xazinani chuqur o'rganishni, arxeologik tadqiqotlarni olib borish, olingan yangi ashyolar asosida vatanimiz tarixini yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitishga imkon yaratadi. Xorazm vohasi O'zbekiston hududi shimoli-g'arbiy hududida joylashgan, uning gidrologik xususiyati Amudaryo faoliyati bilan bog'liq. Mil.avv. 8-7 ming yilliklarda Amudaryo shimoliy tomon yo'nalishida Qizilqumni ikki qismga, ya'ni o'ng sohil, so'l sohili hududlariga bo'lingan [Ягодин В.Н., Низовья Амударьи в эпоху распада первобытно-общинного строя и возникновения первичных государственных образований.-Ташкент.

"Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" 2013.-С.17-21]. Shu sabab, Amudaryo faoliyati tarixiga bir qadar e'tibor berish zarurati mavjud. Amudaryo mustaqil Tojikiston davlati geografik manzarasini aks ettirgan Pomir tog'idan oqib tushgan irmoqlari (Voxandaryo, Pomirdaryo, Vartang) kabi daryolardan iborat bo'lib, Panj nomi bilan atalgan. Amudaryo uzunligi 2336 km. Daryo Qoraqumda 1036 km masofada sahro sharoitidan ustunlik qilib, Xorazm tekisligiga shiddat bilan kirib kelgan.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** O'rta Osiyo yirik Amudaryo har yili 200 million tonna (1,2 kub km loyqa olib keltirgan) [Жаббаров И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани. -Тошкент, Ўзбекистон, 2012-Б. 32]. Shu jihatdan olganda

Amudaryo ming-minglab yillar mobaynida suv tarkibidagi loyqa qatlamlarning yotqizilishi natijasida Qizilqum va Qoraqum oralg'idagi tekisliklar sernam va serunum bo'lib, odamzot moddiy va ma'naviy rivojlantirishiga imkon bergan.

Amudaryo o'ng sohili hududida Xorazm ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan arxeologik dala amaliyoti davrida ro'yxatga olingan arxeologik yodgorliklar zich joylashganligi bilan so'l sohili hududidan farqlanishi holatini kuzatish mumkin. XX asr 30-yillar o'rtalaridan o'ng sohil hududida joylashgan arxeologik yodgorliklarda olib borilgan qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar mil.avv. IV-III ming yilliklarga oid bo'lgan. Masalan, A.V.Vinogradov tadqiqotlarida qayd qilinishicha, XX asr 30-yili oxirida Xorazm hududida dala amaliyoti davrida ilk bor neolit davriga oid Jonbos-4 manzilgohi uy-xonalaridan olingan moddiy ashyolar shu atamada adabiyotlar nashrlarida qayd qilingan. Tarixiy ma'lumotlarni nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyo hududida neolit davri yodgorliklari materiallari bilan nazariy-qiyosiy tahlil qilish tadqiqotchilar uchun ochqich-kalit vazifasini bajargan. A.V.Vinogradovning ilk monografiyasida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarning nazariy-qiyosiy tahlili asosida Amu-Sho'raxon va Orol dengizi oralg'ida neolit davri geografik holatining gidrologik xususiyatlari, aholining joylashishi, etnik jarayonlar hududiy chegaralarini yoritish maqola mazmunini tashkil qiladi. Amudaryo faoliyati natijasida ikki qismga – o'ng va so'l hududlarga bo'lingan. Amudaryo suv sathi ko'tarilishi munosabati bilan o'ng sohil hududida Oqchadaryo irmog'i sharqiy tomon 25 km uzunlikda yo'nalishi jarayonida Qizilqum balandligi to'siq bo'lganligi munosabati bilan nishoblashgan shimoliy tomon yo'nalib, Amudaryo va Qizilqum oralg'ini uchburchak shaklga ajratib, mavjud bo'lgan botiqqa suvini olib borgan. Mazkur geografik kenglikni Sulton Uvays tog'i Sharqiy tomoni 25 km cho'zilgani natijasida janubiy va shimoliy Oqchadaryo havzasi hosil bo'lgan. A.V.Vinogradov qayd qilishicha, Janubiy havza kengligi 70 km, Oqchadaryo yo'liga esa 70 km, Shimoliy Oqchadaryo havzasi – 120 km. Janubdan Shimoliy havza uzunligi 270-280 km, kengligi janubda 90 km, shimolda 110-120 km [Виноградов А.В., Неолитические памятники Хорезма. -М.:Наука, 1968. Вып. XIII – С.9]. Janubiy va Shimoliy Oqchadaryo havzasi geografik muhiti, ekologiyasi,

aholining joylashishi, etnik jarayonlari, tabiiy resurslardan foydalanishda farqlanish holatlari kuzatiladi. Janubiy Oqchadaryo havzasida odamzotning ilk madaniy izlarini namoyon qilgan manzilgohlar ilk bor arxeologik jihatdan o'rganilgan, uning natijalari ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan. 1939, 1940-1945-yillarda

A.YA.Abramovich, N.N.Vakturskaya Jonbosqal'a yodgorligidan 1,5 km janubi-g'arbida Jonbos-4 manzilgohi kashf qilingan, qisman qazishma ishlari olib borilib neolit davri urug' jamoalarining moddiy va ma'naviy madaniyati tarixini yoritadigan ashyolar olinngan [Толстов, С.П. Хорезмская археологическая экспедиция 1940 г //КСИИМК-М.:Наука, 1946. Вып. XII-С.90-91. Ўша муаллиф. Новые материалы по истории культуры древнего Хорезма (Предварительные итоги работ Хорезмской экспедиции Института истории материальной культуры АН СССР 1940 г.)//ВДИ-М.:Наука, 1946 № 1. –С.61-65].

Mazkur yillarda Jonbos-4 manzilgohi ovchilar-termachilari tevarak-atroflarini o'zlashtirishi munosabati bilan Jonbos 11,12,14,18 manzilgohlarida qazishma ishlari olib borilishi natijalari qayd qilingan [Жанубий худуди неолит даври ёдгорликлари-хавза ички ёдгорликлари: Виноградов А.В. Кўр.асар.-с.12].

1954-1956-yillarda Oqchadaryo havzasida keng qamrovli arxeologik qidiruv ishlari natijasida janubiy Oqchadaryo hududida Ko'kcha, Qo'rg'oshin, Kuniyak-Qazg'on, Jingeldi, Kaundi, Kuniyak-1,3,4, shimoliy Oqchadaryo havzasida esa Baraktam-10, Kamisti va Uch-tagan yodgorliklarida tekshirish ishlari olib borilgan. A.V.Vinogradov janubiy va shimoliy Oqchadaryo hududida neolit davri yodgorliklari joylashishi, hududiy chegaralari va urug' jamoalarining olib borgan etnik munosabatlarini quyidagicha rayonlashtirgan:

1. Jonbos manzilgohlari guruhi: Jonbos-4,5,11,12,14,18.
2. Qavat manzilgohlari guruhi: Qavat-5,7.
3. Bayram-kazgan manzilgohlari guruhi: Bayram-Kazgan-1,4,6.
4. Ma'mur manzilgohlari guruhi: Ma'mur 1,2,3, 3 a, 3 b, 4, Kuniyak-1,3 Jingeldi -6.
5. Shimoliy havzasi neolit davri manzilgohlari.
  1. Qo'rg'oshinqal'a manzilgohlari guruhi: Qo'rg'oshin G.D.
  2. Tajiqazg'on manzilgohlari guruhi: Tadjiqazg'on-2,3, 6, 6 a,8, 10, 13, 14.

3. Kamisti, Baldjan, Bay-Chuvak Jumir-bulak, Baraktam [Виноградов А.В. Кўр.асар.-С.25-126].

Tadqiqotchi Jonbos-4 manzilgohi ovchilar-termachilari tomonidan o'zlashtirilishi natijalarini quyidagi xronologik davrlarga ajratgan.

1. Ikk manzilgohlar - mil.avv.IV ming yillik ikkinchi yarmi.
2. O'rta manzilgohlar - III ming yillik birinchi yarmi o'rtalari.
3. So'nggi neolit davri manzilgohlari.

III ming yillik ikkinchi yarmi - II ming yillik choragida [Виноградов А.В. Кўр.асар.-С. 152].

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Shu tariqa, yuqorida qayd qilingan ma'lumotlar quyidagi yakuniy xulosaga kelish imkonini yaratadi.

- Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi aholi turar joylarida, xususan Jonbos – 4 yodgorligidan olingan. Ashyolar neolit davrida jamiyat ichra kechgan jarayonlarni yorqin izohlaydi.

- Janbos-4 manzilgohi ovchilar-termachilari Amudaryo havzasidan unumli foydalanib, ko'nikkan hududida aholi soni oshgani sabab, qo'shni hududlarni o'zlashtirib, kasb-korchilik olib borganlar, bu jarayon ibtidoiy tarixiy davrda davom etgan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Баратов П., Маматкулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. -Тошкент, Ўқитувчи, 2002. Б. 283.
2. Ягодин В.Н. Низовья Амударьи в эпоху распада первобытно-общинного строя и возникновения первичных государственных образований.-Ташкент. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2013.-С.17-21.
3. Жаббаров И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани. -Тошкент, Ўзбекистон, 2012.
4. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма. -М.:Наука, 1968. Вып. XIII – С.9.
5. Толстов С.П. Хорезмская археологическая экспедиция 1940 г. //КСИИМК-М.: Наука, 1946. Вып. XII-С.90-91. Ўша муаллиф. Новые материалы по истории культуры древнего Хорезма (Предварительные итоги работ Хорезмской экспедиции Института истории материальной культуры АН СССР 1940 г.)//ВДИ-М.: Наука, 1946 № 1. –С.61-65.
6. Жанубий худудий неолит даври ёдгорликлари – хавза ички ёдгорликлари: Виноградов А.В. Кўр.асар.-с.12.
7. Виноградов А.В. Кўр.асар.-С.25-126.

## LINGUOCULTURAL CLASSIFICATION OF PROVERBS EXPRESSING GENDER RELATIONS

Abdullaeva Munojot Mukhtorovna, Senior teacher of the Uzbekistan state world languages university faculty of “English philology”

## GENDER MUNOSABATLARNI IFODA ETUVCHI MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TASNIFI

Abdullayeva Munojot Muxtorovna, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Ingliz filologiyasi” fakulteti katta o‘qituvchisi

## ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ПОСЛОВИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ ГЕНДЕРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ

Абдуллаева Муножот Мухторовна, старший преподаватель факультета английской филологии государственного университета мировых языков республики Узбекистан

<https://orcid.org/0009-0007-7638-6906>

e-mail:

[mundil1326@gmail.com](mailto:mundil1326@gmail.com)

**Annotation:** This article examines the comparative analysis of proverbs reflecting gender relations within English, Russian, and Uzbek cultures. Utilizing extensive statistical analyses, the study draws on a significant number of proverbs of three cultures. The findings reveal notable similarities despite the linguistic and cultural differences among these societies. In Russian and Uzbek proverbs, themes of family values and kinship prominently emerge, while English proverbs tend to celebrate and honor women and wives. Furthermore, the analysis indicates that all proverbs derive from the historical culture of their respective. Overall, the study underscores the importance of proverbs as cultural artifacts that reflect and contribute to the understanding of gender relations across different societies.

**Key words:** proverbs, relation, culture, society, linguacultural, mentality, national character, kinship, man and woman, differences, distinct features.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz, rus va o‘zbek madaniyatlaridagi gender munosabatlarini ifoda etuvchi maqollarning qiyosiy tahlili ko‘rib chiqiladi. Keng qamrovli statistik tahlillardan foydalangan holda, tadqiqot uchta madaniyatning ko‘plab maqollari orqali ushbu madaniyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Tadqiqodlar ushbu jamiyatlar o‘rtasidagi til va madaniy farqlarga qaramay, sezilarli o‘xshashliklarni ochib beradi. Rus va o‘zbek maqollarida oilaviy qadriyatlar va qarindoshlik mavzulari ko‘zga tashlansa, ingliz maqollarida ayollarni ulug‘lashga moyillik seziladi. Bundan tashqari, tahlil shuni ko‘rsatadiki, barcha maqollar o‘zlarining tarixiy madaniyatidan kelib chiqqan. Umuman olganda, tadqiqot turli jamiyatlarda gender munosabatlarni ifoda etuvchi va ularning mazmunini tushunishga hissa qo‘shadigan madaniy artefaktlar sifatida maqollarning muhimligini ta’kidlaydi.

**Kalit so‘zlar:** maqol, munosabat, madaniyat, jamiyat, til madaniyati, mentalitet, milliy xarakter, mehr-oqibat, erkak va ayol, farqlar, o‘ziga xos xususiyatlar.

**Аннотация:** В данной статье представлен сравнительный анализ пословиц, выражающих гендерные отношения в английской, русской и узбекской культурах. Используя обширный статистический анализ, исследование раскрывает уникальные характеристики этих культур через множество пословиц трех языков. Исследования показывают значительное сходство между этими обществами, несмотря на языковые и культурные различия. Русские и узбекские пословицы подчеркивают семейные ценности и темы родства, тогда как английские пословицы склонны прославлять женщин и жен. Более того, анализ показывает, что все пословицы берут свое начало из своей исторической культуры. В целом в исследовании подчеркивается значение пословиц как культурных артефактов, выражающих гендерные отношения в разных обществах и способствующих пониманию их содержания.

**Ключевые слова:** пословицы, отношение, культура, общество, лингвокультурология, менталитет, национальный характер, родство, мужчина и женщина, различия, отличительные черты.

**INTRODUCTION.** When studying proverbs from a comparative and associative perspective, it is appropriate to pay special attention to their linguacultural characteristics. This approach aims to reveal the similarities and differences in proverbs from the languages being studied, as well as to uncover the unique culture and mentality of the people who speak these languages.

In analyzing the linguacultural aspects of English, Russian, and Uzbek proverbs, it is particularly important to depict the interconnection between language and culture, examine the similarities and distinct features of proverbs in these languages, and take a deeper approach to issues such as the expression of mentality and national character.

Language is the most important factor in expressing the culture, values, and beliefs of any nation, as well as the unique characteristics of a specific people. Linguist Nida emphasizes that when studying the language of a people, it is essential to also study their culture. He points out that language and culture develop in interrelated systems. He explains this by stating: “Cultural factors are so closely linked to language that they reflect themselves morphologically and structurally in its forms”. The famous American linguist Sapir also highlights that the vocabulary of a language arises from humanity’s physical and social atmosphere. Based on this theory, we can present language as a part of culture.

V. Telia, as a linguist and folklorist, particularly emphasizes the role of paremiology in the connection between language and culture. According to him, since language expresses an entire culture, the field of paremiology can undoubtedly reflect the culture of the people who speak the language in a broad and deep manner. This situation

can be substantiated by the intertwined field of language and culture, namely sociolinguistics.

**MATERIALS AND METHODS.** Many scholars, such as Henle P. (1958), Sapir E. (1993), Moran P.R. (2001), and Kramsh C. (1993), have addressed issues related to the connection between culture and language in their scientific works. Focusing on the linguacultural aspects of proverbs, Nida considers it a natural phenomenon that studying proverbs involves directly examining the language and the culture of the people. The lexemes present in a language stem from the lifestyle of that people—that is, they originate from the people’s language—and this is directly reflected in proverbs, which express the culture of the people.

Thus, in the life of any people, the lexemes that are active in daily use create their unique forms in the language and inevitably participate in proverbs, showcasing the national mentality of the people.

Linguocultural analysis, classifications of proverbs in three languages were established.

**DISCUSSION.** Unlike other cultures, “pubs” or “taverns” in English culture, hold a special place. This is because English pubs serve as the most important establishments where locals gather to communicate, relax, or enjoy delicious food. Pubs are not just places to drink; they are centers for social life and cultural exchange. They also serve as informal meeting places where individuals from various social strata come together to exchange knowledge, stories, and experiences.

During our research, we witnessed the significant role of proverbs expressing gender relations related to beverages such as wine, liquor, and beer that are associated with pubs in English culture. For example,

The pub is the poor man's university

In the pub, everyone's a friend.

A man can't be poor if he has enough to buy a pint at the local.

Historically, obtaining an education at universities was often impossible for ordinary people due to financial constraints, lack of opportunities, or other barriers. However, pubs served as social centers where individuals from diverse backgrounds could come together to converse and exchange ideas. This setting can be seen as a space for social interaction that, much like a university environment, can broaden one's worldview and knowledge.

In the pub, everyone's a friend.

A man can't be poor if he has enough to buy a pint at the local.

Among English proverbs, there are numerous proverbs that express gender relations in the context of drinking and socializing.

[Old wine and an old friend are good provisions.](#)

Some good things I don not love; a good long mile, good small beer and a good old woman.

The proverb emphasizes that neither a significant distance nor a small amount of beer ensures that an older woman is considered "favorite", suggesting that preferences can vary widely among different people, and what is viewed positively by some may not be appreciated or valued by others; in this case, beer is used as an example.

Historically, marriage has been viewed in England as a vital institution forming the foundation of family and societal structure. In the Middle Ages and beyond, marriages often reinforced alliances and ensured the continuity of lineage.

English marriages are accompanied by various cultural traditions, including the roles of the bride and groom's witnesses, the exchange of wedding rings, the bride's special attire, and the tossing of the bouquet. Each of these traditions has deep historical roots and continues to be practiced today. The significance and role of marriage are reflected in English proverbs. Below, we present some analyses of proverbs related to marriage and family life.

Saint Salomon the wise, a good wife is a good prize.

In an English family, a good woman and wife often embodies several key roles that contribute to the harmony and success of the household. She

provides emotional and practical support to her spouse, assists in decision-making, and occupies a crucial place as a partner who helps foster strong cooperation within the family.

A virtuous wife is a crown to her husband

Behind every great man is a great woman.

In Russian culture, collectivism is particularly evident in the way people spend time together, relax, and share toasts during celebrations. For example, Russian holidays such as New Year, Christmas, Easter, Victory Day, and Maslenitsa are typically celebrated extravagantly in large groups with songs, dances, and games.

Бамам и в августе праздник.

Не только гостей у праздника, что Фома с женой.

Нет такого зелья, как жена (баба) с похмелья.

In Russian culture, the position and role of men in society have been shaped by centuries of history, traditions, and customs influenced by various factors, ranging from religious beliefs to social and economic conditions. Throughout different historical periods and depending on social status, men have performed various functions.

Historically, one of the main roles of a man in Russian culture has been the defense of family and homeland, and he has traditionally been seen as the primary provider and breadwinner of the family. Men have engaged in activities such as agriculture, craftsmanship, hunting, or trade.

За мужниной спиной как за каменной стеной.

Мужик в семье, что матица в избе.

Мужику в августе три заботы: и косить, и пахать, и сеять.

In a traditional Russian family, the father is often regarded as the primary breadwinner. The labor and efforts of the father provide food for the family members and sustain the household. It is commonly said that while God provides sustenance, it is the father who brings it to the family.

Хлеб — дар божий, отец, кормилец.

Мужику в августе три заботы: и косить, и пахать, и сеять.

In Russian culture, great importance is placed on kinship and family closeness, viewing the family as the primary source for supporting, nurturing, and passing on cultural values.



В семье – любовь да совет, так и нужды нет.

Любовь братская – союз христианский.

У кого есть дед, у того и обед.

In Uzbek culture, national customs, traditions, holidays, and national concepts hold great significance. They are an integral part of the life and daily activities of the Uzbek people. We observe this particularly in the people's enthusiasm for celebrations, their joy in sharing and disseminating cultural heritage over the years, and in organized ceremonies for mourning and support. This is evident in all our rituals and customs, ranging from childbirth to mourning ceremonies, as well as in values related to community and neighborly relationships.

Additionally, there are specific lexemes unique to the Uzbek people that are characteristic of Uzbek and Turkic nations. Such traditions and lexemes are also reflected in Uzbek proverbs.

Egachili qizga to'y qayda,

Echkili qo'yga suv qayda.

Pulingdan bir puling qolsa, palov ye,

Kuningdan bir kuning qolsa, xotin ol. [137,

b.400]

To'rt xotin bir bo'lsa,

Kasbi – o'lan aytish.

### Indicators of Proverbs Expressing Gender Relations in English, Russian, and Uzbek Cultures

In Uzbek culture, men often play a leadership role. At the same time, Uzbek men perform multiple functions in society. On one hand, they are viewed as the primary decision-makers in the family, neighborhood, and community, serving as protectors of the family. On the other hand, they also take on the responsibility of safeguarding their families from various threats and ensuring their safety.

Er yigit o'zi uchun tug'ilar,

Eli uchun o'lar.

Uyni uy qilgan erning topishi-yu

Xotinning ko'rsa ishi.

The mentality of the Uzbek people is unique, placing great importance on family and neighborly relationships. These relationships are primarily based on mutual respect, support, and helping one another.

Ota-ona – davlating,

Farzandlaring – savlating.

Egachi-singil inoqligi – oilaning quvnoqligi.

Bir qizga yetti qo'shni – ota-ona.

Yaxshi qo'shni – ota-ona,

Yomon qo'shni – boshga balo.

**RESULTS.** The following table presents a comparative analysis of proverbs expressing gender relations that reflect the linguaculture of the English, Russian, and Uzbek cultures.

Proverbs Reflecting Gender Relations Most Commonly Found in English Culture			
	Total number of proverbs	1313	100%
1	PRGR representing specific areas of English culture	50	3.8%
2	Gender related proverbs expressing the sanctity of marriage	40	3.4 %
3	PRGR that praise a good wife	55	4.2%
Proverbs Reflecting Gender Relations Most Commonly Found in Russian Culture			
	Total number of proverbs	2156	100%

1	PRGR representing collectivism, pastime in Russian culture	156	8%
2	Gender-related proverbs expressing the value of a man	400	18%
3	Gender-related proverbs expressing kinship	476	22%
<b>Proverbs Reflecting Gender Relations Most Commonly Found in Uzbek Culture</b>			
	Total number of proverbs	857	100%
1	PRGR representing national images and concepts in Uzbek culture	20	2.3%
2	Gender-related proverbs indicating that the head of the Uzbek family is a man	75	8.8%
3	PRGR representing family values and neighborliness	147	17%

The English statistical analysis encompassed over 15,000 proverbs selected from the collection “English Proverbs and Proverbial Phrases” (2018), with 1,313 proverbs expressing gender relations analyzed. In Russian, the analysis drew from over 30,000 proverbs collected by V. Dal in “Пословицы русского народа” (1989), of which 2,156 proverbs reflecting gender relations were examined. The Uzbek statistical analysis included 857 proverbs expressing gender relations from a collection of nearly 13,000 proverbs gathered by T. Mirzaev and others in 2005.

**CONCLUSION.** To summarize, the above statistical analyses show that despite the differences in language and culture among these peoples, there are many unique similarities. For example, in Russian and Uzbek proverbs reflecting gender relations, a significant number describe family values and kinship relations, while proverbs honoring women and wives are more frequently observed in English proverbs. Additionally, regardless of the language, all proverbs originate from the historical culture of that people and consist of zoo-paremiology, or proverbs involving animals.

We have seen how the virtues and characteristics of humans are expressed through zoomorphisms. This plays a special role in enhancing the impact of proverbs and enriching literature.

#### **REFERENCES:**

1. CLARKE, BEN. “‘The Poor Man’s Club’: The Middle Classes, the Public House, and the Idea of Community in the Nineteen-Thirties.” *Mosaic: An Interdisciplinary Critical Journal*, vol. 45, no. 2, 2012, pp. 39–54.
2. Mirzayev T. va boshqalar. O‘zbek xalq maqollari.-Toshkent. «SHARQ»,2005.-B 512
3. Moran, P. R. (2001). *Teaching culture: Perspectives in practice*. Massachusetts: Heinle & Heinle; Kramsch, C. J. (1993). *Context and culture in language teaching*. Oxford: Oxford University Press;
4. Nida, E. (1954). *Customs and Cultures: Anthropology for Christian Mission*, Harper and Row: New York.

5. Paul Henle. Language, thought and culture. Ann Arbor, Mich: University of Michigan Press, 1958 vi, 273 p;
6. Teliya V, Bragina N, Oparina E, Sandomirskaya I. Phraseology as a language of culture: its role in the representation of a collective mentality in Cowie (ed.) 1998.-55 p.
7. [William Carew Hazlitt](#). English Proverbs and Proverbial Phrases.- Reeves and Turner, 1907. – P 580.
8. Даль.В. Пословицы Русского народа - Москва: «Художественная литература», 1989. – 433с.
9. Сэпир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – 303 с.
10. Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М., 1996. – 174 с.
11. <http://www.jstor.org/stable/44030680>. Accessed 30 May 2024.
12. <http://www.proverbialwisdom.com/pub-sayings>
13. <http://www.britishsayings.com/pub-proverbs>.
14. Курбанбаева, М. (2024). Использование русских народных сказок в процессе изучения языка и формирования гуманизма у детей. Tamaddun nuri jurnali, 5(56), 520-522.
15. Курбанбаева, М. (2023). Влияние современного жаргонизма на изучение русского литературного языка иноязычной молодежью. Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 52-55.
16. Курбанбаева, М. (2023). Пословицы и поговорки со схожим значением в русском и узбекском языках и общность народной мудрости. Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 15-18.



## MILLIY SPORT TURLARINING SHAKLLANISHINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

Shokirova Maxbubaxon, Xalqaro tibbiyot universiteti dotsenti,  
(PhD)

## ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, РЕПРЕЗЕНТИРУЮЩИЕ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ВИДОВ СПОРТА

Шокирова Махбубахон, доцент Международного  
медицинского университета, (PhD)

## LEXICAL UNITS REPRESENTING MANIFESTATIONS OF NATIONAL SPORTS

Shokirova Mahbubahon, Associate Professor of the  
International Medical University, (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq milliy o'yinlarini milliy sport turlari shaklida ifodalovchi leksik birliklar semantik jihatdan tahlil qilingan hamda nomlanish motiviga ko'ra ularning turlari va o'ziga xosligi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy sport turlari, xalq o'yinlari, harakat, holat, metafora, antroponimlar, toponimlar.

**Abstract:** In this article, the lexical units representing the National People's Games in the form of national sports are analyzed from the semantic point of view, and their types and uniqueness are studied according to the motive of naming.

**Key words:** national sports, people's houses, movement, condition, metaphor, anthroponyms, toponyms.

**Аннотация:** В данной статье с семантической точки зрения анализируются лексические единицы, репрезентирующие национальные народные игры в форме национальных видов спорта, а также изучаются их виды и своеобразие по мотиву номинации.

**Ключевые слова:** национальные виды спорта, народные игры, движение, ситуация, метафоры, антропонимы, топонимы.

**KIRISH.** Xalq milliy o'yinlari o'tkazilish davriga qarab, doimiy va fasliy o'yinlarga bo'lingan: Masalan, bahorda daraxtlar uyg'onib, tollar kurtak chiqarganda – "tol bargak", dala gullari ochilganda –

"gul o'yini", pishiqchilik paytida danak, yong'oq o'yinlari, arg'imchoq uchishlar sevib o'ynalgan. Kech kuz, qishda yog'ingarchilik boshlanib, yer yumshaganda qoziq, oshiq, tosh o'yinlar odat tusiga



<https://orcid.org/0009-0007-9562-0569>

e-mail:

[shokirovamakhbubakhon@gmail.com](mailto:shokirovamakhbubakhon@gmail.com)

kirgan. Qor yoqqanda “qorxat”, “qorbo‘ron”, yomg‘ir yoqqanda “yomg‘ir yog‘aloq”, kuchli shamol esganda “bo‘ron-bo‘ron”, sovuq o‘z kuchini ko‘rsatganda barcha sandal atrofida yig‘ilib, “topishmoq top”, “tez aytish”, “kim aytdi” kabilar o‘ynalgan. Kech kuzdan to bahorgacha “uloq-ko‘pkari” musobaqalari o‘tkazilgan. Xalq o‘yinlarining bir guruhi ommalashtirilib Xalq milliy o‘yinlari respublika musobaqalari (1991— 1996) va “Alpomish” o‘yinlar festivali (1998) o‘tkazilgan. Kurash, ot poygasi, ko‘pkari (uloq), “Bo‘ron”, arqon tortishish, bilak kuchini sinash, “Mindi”, qirq tosh (qizlar o‘yini) va boshqa harakatli o‘yinlar mazkur musobaqa va festivallar dasturlariga kiritilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** E.Jabborov o‘zbek xalq o‘yinlarini nomlanish motiviga ko‘ra quyidagi turlarga ajratadi:

1. O‘yinda qo‘llanadigan vositalar asosida.
2. O‘xshashlik asosida.
3. Antroponimlar asosida.
4. Toponimlar asosida.
5. Kishilarning kasb-kori va mashg‘ulotiga nisbat berib.
6. Tovush yoki narsa-hodisaga taqlid asosida.
7. O‘yinchilarning jinsi yoki yoshiga nisbat berish orqali.
8. O‘yin predmetlari yoki harakat-holatning miqdoriga ko‘ra.
9. Turli marosim, urf-odat va udumlar asosida.
10. Hayvon va parrandalarning turli xatti-harakatiga taqlid asosida.
11. Ertak qahramonlariga nisbat berish asosida.
12. Inson a‘zolarining harakati asosida.
13. O‘yinda bajariladigan harakat yoki holat asosida.
14. O‘yinda belgilangan marra asosida.
15. O‘yin-qo‘shiqlarning ritmi asosida.
16. Biror predmetning alohida ajralib turgan belgisi asosida [5].

E‘tibor qaratadigan bo‘lsak, nomlanish asosi bo‘lgan o‘xshatishlar, antroponimlar, toponimlar, jins bildiruvchi so‘zlar, marosim va urf-odatlar, presedent nomlar (bu o‘rinda ertak qahramonlari) kabilar o‘zbek xalqining fikrlash tarzi va tafakkur darajasini bildirib turadi. Ular bir tomondan lingvokulturologiya sohasining ham o‘rganish obyektlaridan hisoblanadi. S.Yo‘ldoshev o‘z tadqiqotida “Xola-xola”, “Mehmon-mehmon”, “Rang top”, “Lappak”, “To‘p tosh”, “Topishmoq”, “Mo‘ng‘uz”, “Oq terakmi – ko‘k terak”, “Botir

bola”, “Dasta”, “Yashirin – topaloq”, “Topil-topil”, “Kurash”, “Otib qochar” singari qator xalq o‘yinlarini keltirib o‘tadi[6]. “Xola-xola” o‘yini asosan qiz bolalarning o‘yini hisoblanib, o‘zbek xalqining maishiy hayotiga taqlid asosiga qurilgan. O‘yin nomi takroriy so‘z ko‘rinishdaligi ishtirokchilarning teng mavqega ega ekanligi, o‘zaro “bordi-keldi”ga egaligini bildiradi.

**MUHOKAMA.** Metafora – bir predmetning nomini boshqa predmetga biror tomondan o‘xshashligini e‘tiborga olib ko‘chirish usuli bo‘lib, xalq o‘yinlari nominatsiyasida metafora va o‘xshatishga asoslab nomlash keng kuzatiladi: “Qubba”, “O‘rda”, “Qushimboshi”, “Qirratosh”, “Xurjun-xurjun”, “Yulduz”, “Moykulcha”, “Xola-xola”, “Askar-askar” kabi o‘yinlar nomlarida o‘yin jarayonida ishtirokchilarning metafora asosida biror narsani ikkinchi narsaga o‘xshatishi kuzatiladi[3]. Masalan, “Qushimboshi” o‘yinida o‘rtaga dov qo‘yilib, dovning atrofida ma‘lum kenglikdagi doira chiziladi. O‘rtada turgan bola dovni oldirmasligi, shu bilan birga, dovni olmoqchi bo‘lganlarga hamla qilishi kerak bo‘ladi. Mazkur holat sport o‘yinlaridagi “Qarshi hujum” taktikasini eslatadi, ya‘ni himoyani esdan chiqarmasdan, hujumga o‘tishga, hujum vaqtida ham himoyani esdan chiqarmaslik qobiliyatini rivojlantiradi. Markazdagi ishtirokchining o‘z joyini tark etishi mumkinmasligi, shu bilan birga qisqa hujum uyushtirishi harbiy sohada qo‘shinboshining umumiy harakatlarini eslatadi. Shu nuqtayi nazardan aytishimiz mumkinki, “Qushimboshi” aslida “Qo‘shinboshi” nomining noto‘liq assimilyatsiyasi natijasida shu ko‘rinishga kelgan. Bu o‘yin nomi to‘liq metaforaga asoslangan. O‘yin tarzi esa jang maydonining kichraytirilgan modelini ifodalaydi.

Ma‘lumki, o‘zbek xalqida mehmonni hurmat qilish eng ko‘zga ko‘ringan xususiyatlardan hisoblanadi. Mehmonsevarlik bilan bog‘liq maqollar o‘zbek xalqi tilida keng qo‘llanadi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “Uma kelsa, qut kelar” maqoli mehmon – baraka mifologemasi asosiga qurilgan bo‘lsa, “Ko‘k ko‘rdi – keragu yazdi” (Uzoqdan qorani ko‘rdi-da, mehmon ekan shekilli deb chodirini yig‘ishtirdi) maqolida mehmonni yomon ko‘radigan odamlar juda qattiq qoralangan. Islomiy manbalarda esa mehmonsevarlik Ibrohim alayhissalomning Tangri suygan fazilatlaridan ekanligi ko‘rsatiladi. Shuni

hisobga olsak, “har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning siymosi ko‘rinadi”[3].

O‘zbek odatlariga ko‘ra, mehmondorchilik uchun minnatdorchilik tarzida mezbon taraf mehmonga taklif qilinadi. Yevropa madaniyatining markazlaridan bo‘lmish Angliyada mehmondorchilik uchun minnatdorchilik bildirib xat yozish urf bo‘lgan. Shuningdek, uni ifodalash uchun maxsus iboralar ham vujudga kelgan. Amerikaliklarda ham o‘zgacha, ularda har bir ish qat’iy reja bilan amalga oshiriladi va hatto ularda mehmondorchilik ham oldindan belgilab olinadi[5]. “Xola-xola” o‘yinida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan mehmonnavozlik tartib-qoidalari obrazi gavdalanadi. Shu jihatdan xalq o‘yinlari nomlari lingvokulturologik jihatdan tadqiq etilishi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

**NATIJALAR.** Antroponimlar asosida yuzaga kelgan xalq o‘yinlari nomlari: Naimbo‘g‘irsoq, Fotima, Sofiyaso‘ppon, Ergash, Tursun, Ulug‘, Og‘aloq, Qurvonjon, Mirzavoy kabi o‘yin nomlarining yuzaga kelishi o‘ziga xos xususiyatga ega. Biror kishining salbiy xatti-harakati, laqabi, hayoti bilan bog‘liq biror voqea bolalar o‘yini nomi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan[5]. Bunday motivlanish, birinchidan, nominatorning shaxsiy qarashlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, o‘zbek xalqiga xos hazilkashlik, laqab qo‘yish kabi xususiyatlarning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin. Xalq o‘yinlari nomlarida toponimlarning kuzatilishi, avvalo, mazkur o‘yinning keng miqyosda tarqalganligi, ikkinchidan, tarixan uzoq davrlarga borib taqalishini, uchinchidan, umumiy nomdan farqli belgisini ifodalash ehtiyoji bilan bog‘liq. Masalan, kurash sport turi toponimik xarakteriga ko‘ra bir necha bor pog‘onali turlarga ajratiladi. Kurash tasviri tushirilgan yodgorliklar Misr ehromlari, Mesopotamiya bo‘rtma suratlarini, Afina relyef rasmlari, hind qo‘lyozmalarida uchraydi [8]. Shundan kelib chiqib, kurashning shu toponimlar bilan bog‘liq nomlarini sanash mumkin. Rasmiy olimpiya o‘yinlarida yunon-rum kurashi, Osiyo o‘yinlarida o‘zbek kurashi kabi nomlar uchrashi etnonimlar, shu tarzda toponimlar bilan uzviy bog‘liq. O‘zbek kurashi ham turli hududlarda tarqalishi, usullari farqiga ko‘ra “buxorocha kurash”, “farg‘onacha kurash” nomlari kuzatiladi. “Farg‘onacha kurash” “belbog‘li kurash” deb ham nomlanadi, sababi unda faqat belbog‘ni ushlabgina

yoqitishga ruxsat beriladi. Masalan, hozirgi kunga kelib Qarachay, Qalmaq, Tatariston, Boshqirdiston, Kamchatka yarim oroli, Afg‘oniston, Janubiy Quriya, Xitoy, Yaponiya davlatlarida ham farg‘onacha milliy kurashga o‘xshash **belbog‘li kurash** musobaqalari o‘tkazilib turibdi. Buxorocha va farg‘onacha kurash turlarining farqi borasida “Alpomish” dostonida ham ayrim nuqtalar kuzatiladi. Alpomish va Ko‘kaldosh Barchinning to‘rtinchi shartida o‘zaro kurash tushadilar:

Turpoqlar changiydi, to‘zang bo‘ladi,

Ikkovi kep belma-bel bo‘p oladi.

Belma-bel olishsa ayrit bo‘ladi,

Zo‘r deganing ma‘lum bo‘lib qoladi [7].

Parchada aytilganidek, belma-bel (belbog‘li) olishish zo‘rlarning olishuvi bo‘lib, katta kuch talab qilgan. Dostonda bu kurash uzoq davom etadi. Shunda Barchinoy Hakimbekning oriyatini qo‘zg‘ash uchun quyidagi so‘zlarni aytadi:

Ochilar bahorda bog‘larning guli,

Gulni ko‘rsa mast bo‘p sayrar bulbuli.

Nar-moda bo‘libsiz biy bobom uli,

Yiqolmasang, bizga bering navbatdi.

Juda keldi Barchin yoring g‘ayrati,

**Ushlagandan ko‘kka otmay ne bo‘pti?**

Demak, Barchin Hakimbekka zo‘rlarga qarshi kurashda ikkinchi usulni eslatmoqda. Bu usul kam quvvat sarflab, raqibning kuchini o‘ziga qarshi ishlatish bo‘lib, buxorocha kurashni eslatadi. Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” romanida vohada kurash turi quyidagicha tasvirlanadi:

“Bu safar Ermat enkayib-enkayib keldi.

Shukurning qo‘ltiqlari ostidan kirib ko‘tarmoqchi bo‘ldi. Shukur Ermatning boshini ko‘kragi ostiga qisdi. Qo‘llarini qo‘ltig‘idan o‘tkazib ushladi. Yotibotarga oldi: o‘zi birdan orqaga yotib qolib, Ermatni ustidan oshirib otmog‘chi bo‘ldi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, sportga oid leksemalarning aksar qismi o‘zlashma hisoblanadi. Bu holat mazkur leksemalarni turli tillar bilan qiyoslash orqali o‘rganish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Sport jismoniy madaniyat hisoblanib, sportga oid leksemalarda millat madaniyati, mentaliteti, voqelikka munosabati yaqqol aks etadi. Shu tufayli ham ularni lingvokulturologik jihatdan o‘rganish yaxshi samara beradi. Milliy sport turlari, xalq o‘yinlari nafaqat sportda, balki tilshunoslikda ham o‘ziga xos semalari bilan ahamiyatlidir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev A. Jismoniy tarbiya vositalari. – Farg‘ona: 1999. – 38 b.
2. Azizov N. Belbog‘li Turkiston kurashi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1998. – 104 b.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b.
4. Ibn Sino. Tib qonunlari. 3 jildli. 1-jild. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994. – 300 b.
5. Jabborov E. O‘zbek xalq o‘yinlari leksikasi (Janubiy O‘zbekiston materiallari asosida) : Filol. fan. nomz... diss. avtoreferati. – Toshkent: 1998. – 24 b.
6. Yo‘ldoshev S.V. Farg‘ona vodiysi aholisining xalq o‘yinlari: Tarix fanl. ... fals.dokt.diss.avtoref. – Toshkent, 2019. – 54 b.
7. Абдиев М. Аффикальный способ образования названий лис в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 19 с.
8. Матвеев Л.П. Основы спортивной тренировки. – Москва: ФиС, 1977. – 284 с.



## MAQOLLAR TADQIQINING LINGVOKOGNITIV ASPEKTI

Jo'raxolova Bahora Qurbonboyevna, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

## THE LINGUOCOGNITIVE ASPECTS OF PROVERB RESEARCH

Juraholova Bahora Kurbanbayevna, researcher at the Uzbek state university of world languages

## АСПЕКТЫ ЛИНГВОКОГНИТИВНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ПОСЛОВИЦ

Джухраолова Бахора Курбанбаевна, соискатель Узбекского государственного университета мировых языков

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maqollarni tadqiq qilishning lingvokognitiv aspektlari o'rganiladi. Kognitiv metafora nazariyasi asosida, kundalik tilimiz metaforik tuzilishga ega. Metafora kundalik tilimizning mustahkam va ajralmas qismidir. Uning eng muhim funksiyasi – abstrakt tasavvurlarni konkret tajribalar yordamida ochib berish. Kognitiv metafora nazariyasi uchun shunday metaforalar qiziqarli bo'ladiki, ular metaforik konseptga mos keladi va shu orqali ularning sistemaliligi ko'rinadi.

**Kalit so'zlar:** kognitiv metafora, konseptual metafora, metaforik tushunchalar, kontrastiv tahlil.

**Abstract:** This article examines the linguocognitive aspects of proverb research. Based on the theory of cognitive metaphor, everyday language possesses a metaphorical structure. Metaphor is a solid and integral part of our everyday language. Its main function is to reveal abstract representations through concrete experiences. For cognitive metaphor theory, metaphors that correspond to metaphorical concepts are of interest, thereby demonstrating their systematicity.

**Key words:** cognitive metaphor, conceptual metaphor, metaphorical concepts, contrastive analysis.

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются лингвокогнитивные аспекты исследования пословиц. На основе теории когнитивной метафоры повседневный язык обладает метафорической структурой. Метафора является прочной и неотъемлемой частью нашего повседневного языка. Ее главная функция заключается в том, чтобы раскрывать абстрактные представления с помощью конкретного опыта. Для теории когнитивной метафоры интерес представляют такие метафоры, которые соответствуют метафорическим концепциям, тем самым демонстрируя их системность.

**Ключевые слова:** когнитивная метафора, концептуальная метафора, метафорические понятия, контрастный анализ.



<https://orcid.org/0009-0009-7023-7904>

e-mail:  
[bahora\\_88@mail.ru](mailto:bahora_88@mail.ru)



**KIRISH.** Kognitiv metafora nazariyasi asosida, kundalik tilimiz metaforik tuzilishga ega. Metafora kundalik tilimizning mustahkam va ajralmas qismidir. Uning eng muhim funksiyasi – abstrakt tasavvurlarni konkret tajribalar yordamida ochib berish. Kognitiv metafora nazariyasi uchun shunday metaforalar qiziqarli bo‘ladiki, ular metaforik konseptga mos keladi va shu orqali ularning sistemaliligi ko‘rinadi. Bunday konseptual metaforalar, masalan, **MUNOZARA - URUSH, SEVGI - SAYOHAT, VAQT - PUL**<sup>1</sup>. Ularning namoyon bo‘lishi turli til darajalarida amalga oshadi: bir so‘zli metaforalardan to frazeologizmlar, shu jumladan, kollokatsiyalar, idiomalar va maqollar<sup>2</sup>. **VAQT - PUL** metaforik konsepti, masalan, nemis, o‘zbek, ingliz, yapon, xitoy kabi bir-biriga qarindosh bo‘lmagan bir qator tillarda ham uchraydi<sup>3</sup>. Quyidagi misollarni ko‘ring:

1. Vor Wut kochen / g‘azabdan qaynab ketmoq.
2. Vor Wut platzen / g‘azabdan portlamoq.
3. An die Decke gehen / g‘azabdan portlamoq.

Bu nazariya, ayniqsa, to‘liq idiomatik so‘z birikmalari motivatsiyasiz deb hisoblanadigan an’anaviy qarashlarga zid keladi. Psixolingvistik tajribalar ham tasviriy tasavvurlar, metaforik modellarning mavjudligini va ko‘plab hollarda kompozitsionallikning idiomalar uchun ham amal qilishini tasdiqlaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Maqollar keng ma’noda frazeologiyaga kiritilishi mumkin. Maqollarni frazeologiyadan chiqarib tashlash uchun qo‘llaniladigan mezonlar albatta chegaralovchi sifatida qaralmasligi kerak. Frazeologizm-maqol qarama-qarshiligi nomlash va taklif qilish o‘rtasida nisbiylashtirilishi mumkin, chunki maqollar ham havola funksiyasiga ega: ular bir vaziyatga murojaat

qiladi. Ular tipik vaziyatlar uchun belgilar va modellar hisoblanadi. Maqollar o‘zlarining mini-takst sifatidagi xususiyati tufayli bir vaqtning o‘zida leksik birliklar sifatida hisoblanmasligi ham shubha ostida<sup>4</sup>. Lüger maqollarni vaziyatga bog‘lanmagan, tasdiqlanmaydigan, tasviriy gap qiymatiga ega frazeologizmlar sifatida ta’riflaydi. Men keyinchalik ushbu maqol ta’rifiga qo‘shilaman.

Kognitiv metafora nazariyasi dastlab asosan an’anaviy idiomalar va frazeologiya sohasidagi iboralarni o‘rganish uchun foydalanilgan. Biroq, maqollarni ham ushbu yondashuv vositalari bilan tahlil qilish mumkin. Ilmiy adabiyotlarda Lakoff va Turner hamda Raymond Gibbsning tadqiqotlari dolzarblik kasb etadi<sup>5</sup>. Maqollar kundalik tajribalarni aks ettiradi, bu esa ularni konseptual metafora nazariyasi uchun, ya’ni tajriba sohaslarining proyeksiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ajoyib tadqiqot obyektlariga aylantiradi. Ikkinchidan, maqollar motivatsiyalangan, bu esa ularning tasviriylikni tan olishga yordam beradi va kognitiv metafora modellari maqollarda qo‘llanilishini oshiradi. Raymond Gibbs, Lise Strom va Michael Spivey-Knowlton maqollarning figurativ ma’nosini bilish konvensional tasvirlar va konseptual metaforalar orqali motivatsiyalanganligini qo‘llab-quvvatlaydilar va buni ishonchli empirik ma’lumotlar bilan tasdiqlaydilar<sup>6</sup>. Lakoff va Turner “Buyuk zanjir metaforasi”ni taqdim etadilar, uning nazariyasi to‘rtta tarkibiy qism bilan belgilanadi: **narsalarning sodda nazariyasi, mavjudotlarning katta zanjiri, umumiydan maxsus metafora va miqdor maksimasi**<sup>7</sup>. Ushbu nazariya aynan metaforik maqollarning ma’nosini talqin qilish uchun mos bo‘lishi mumkin, Lakoff va Turner bir nechta maqollar misolida buni isbotlaydilar<sup>8</sup>. Biroq,

<sup>1</sup> Lakoff G, Johnson M. *Leben in Metaphern. Konstruktion und Gebrauch von Sprachbildern.* -H.: 1980.-S. 16.

<sup>2</sup> Ewald P. *Zum Wesen des Metaphorischen und seiner Ausprägung in unterschiedlichen sprachlichen Einheiten.* In: Pohl, Inge Hrsg. 1999 -L.:1999. -S. 26.

<sup>3</sup> Kövecses Z. *The “Container” Metaphor of Anger in English, Chinese, Japanese and Hungarian.* In: Radman, Zdravko ed. *From a Metaphorical Point of View. A Multidisciplinary Approach to the Cognitive Content of Metaphor.* --B. 1995. -117–145. p.

<sup>4</sup> Lüger H. *Satzwertige Phraseologismen. Eine pragmalinguistische Untersuchung.* -W.: 1999. -S.131.

<sup>5</sup> Lakoff G, Turner M. *More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor.* – Ch.: 1989. P-230. 20-p.

<sup>6</sup> Gibbs R, Strom Lise, Spivey-Knowlton M. *Conceptual Metaphors in Mental Imagery for Proverbs.* In: *Journal of Mental Imagery* 21. 1997. 83–110p.

<sup>7</sup> Lakoff G, Turner M. *More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor.* - Chicago.:1989. P-230. 18-p.

Lakoff G, Turner M. *More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor.* – Ch.:1989. P-230. 25-p.

ushbu nazariyaning maqollarda qanday amalga oshirilishini aniqlash kerak.

Lewandowska va Antos maqollarni kognitivistik asosda o'rganishga urinishlarida, Lakoff va Johnsonning<sup>9</sup> metafora nazariyasiga asoslanib, maqolning "ma'no yadro" sini "maqol konsepti" deb atashni maqsad qilganlar<sup>10</sup>. Metafora konseptlaridan farqli o'laroq, elementar tasvirlarga asoslangan, maqol konseptlari "murakkab tasvirlar" sifatida qaralishi mumkin. Ushbu "konseptlar" ning murakkabligi, konseptual metaforalarda ko'rsatiladigan konseptlar o'rtasidagi sistematikani namoyish qilishni qiyinlashtiradi. Mavjud maqol konsepti sinonim maqollarni bir qismga joylashtirish imkonini beradi, "Lübeck/Rom bir kunda qurilmagan" va "Yaxshi ish vaqt talab qiladi" maqollarini "Murakkab harakatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uzoq vaqt talab qiladi (chunki bu harakatlar muvaffaqiyatli bo'lishi kerak)" maqol konsepti bilan bog'lash orqali ko'rsatadi<sup>11</sup>.

**NATIJALAR.** Asosiy konseptual metafora "UMUMIY – MAXSUS" (GENERELL IST SPEZIELL) bo'lib, bu maqollar uchun xosdir<sup>12</sup>. Psixolingvistik tadqiqotlar, maqolni tushunish abstrakt emas, balki konkret va maxsus metaforalar yordamida amalga oshirilishini tasdiqlaydi. Bu jarayonda odamlar mental tasvirlar va konseptual o'tkazmalarni (mapping) ong ostida qo'llaydilar, garchi maqolni tushunishda metaforik bilim har doim avtomatik ravishda chaqirilmasligi mumkin<sup>13</sup>. "UMUMIY – MAXSUS" dan tashqari, "ODAMLAR – BEHISOB OBYEKTAR" <sup>14</sup> konseptual metaforasi ko'plab tillarda keng

tarqalgan tipik metaforadir. Ushbu metafora – aslida personifikatsiya – masalan, maqolda mavjud. Ammo maqollarda ham personifikatsiya mavjud.

1. Neue Besen kehren gut. / Hamma narsaning yangisi yaxshi.
2. Der Apfel fällt nicht weit vom Stamm. / Olmaning tagiga olma tushadi.
3. Stille Wasser sind tief. / Tinch suvlar chuqur bo'ladi.

"VAQT – PUL" degan so'zning o'zi konseptual metafora bo'lib, u ko'plab boshqa birliklar orqali amalga oshiriladi, masalan, vaqtni behuda sarflash, vaqtni tejash, sarmoya kiritish. Biz vaqtni xuddi Lakoff/Jonson kabi behuda sarflash, oqilona yoki yomon sarmoya qilish, tejash yoki isrof qilish kabi tushunamiz va boshdan kechiramiz deb yozgan<sup>15</sup>. So'z va sintagmatik darajadagi ko'plab lingvistik metaforalardan tashqari, bizning tafakkurimizni metaforik tarzda tuzadigan ko'plab konseptual metaforalar uchun ko'plab maqollar mavjud. Buni boshqalar qatori Baldauf ham tasdiqlaydi, u konseptual metaforalarning lingvistik amalga oshirilishini tasvirlashda maqollarga ko'plab misollar keltiradi:<sup>16</sup>

**1. Was ich nicht weiß, macht mich nicht heiß - Bilmaganim meni qizitmaydi<sup>17</sup>.**

Emotionalität ist Wärme – Emotionallik issikqlikdir.

**1. Geteilter Schmerz ist halber Schmerz – Bo'lishgan og'riq yarim og'riq<sup>18</sup>.**

Negative Erfahrungen sind schmerzhaft – Salbiy tajribalar og'riqlidir.

**2. Kommt Zeit, kommt Rat – Vaqti kelganda, maslahat keladi<sup>19</sup>.**

<sup>9</sup> Lakoff G, Johnson M. Leben in Metaphern. Konstruktion und Gebrauch von Sprachbildern. -H., 1998. -S-260. 16 S.

<sup>10</sup> Lewandowska A, Gerd A. Sprichwörter, metaphorische Konzepte und Alltagsrhetorik. Versuch einer kognitivistischen Begründung der Sprichwortforschung. In: Proverbium 18; 2001. -S- 167–183.

<sup>11</sup> Lewandowska A, Gerd A. Sprichwörter, metaphorische Konzepte und Alltagsrhetorik. Versuch einer kognitivistischen Begründung der Sprichwortforschung. In: Proverbium 18; 2001. -S- 178.

<sup>12</sup> Lakoff G, Turner M. More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. – Ch.: 1989. P-230. 166-p.

<sup>13</sup> Gibbs R, Beitel W. (1995): What Proverb Understanding Reveals About How People Think. In: Psychological Bulletin 118; -S- 169. 133–154. -p

<sup>14</sup> Lakoff G, Turner M. More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. -Ch.: 1989. 166 – p.

<sup>15</sup> Lakoff G, Johnson M. Leben in Metaphern. Konstruktion und Gebrauch von Sprachbildern.-H.: 1998. 16 p.

<sup>16</sup> Baldauf Ch. Metapher und Kognition. Grundlagen einer neuen Theorie der Alltagsmetapher. Sprache in der Gesellschaft 24. -F.: 1997. -S- 105.

<sup>17</sup> Baldauf Ch. Metapher und Kognition. Grundlagen einer neuen Theorie der Alltagsmetapher. Sprache in der Gesellschaft 24. -F.: 1997. -S- 105.

<sup>18</sup> Baldauf Ch. Metapher und Kognition. Grundlagen einer neuen Theorie der Alltagsmetapher. Sprache in der Gesellschaft 24. -F.: 1997. -S- 117.

<sup>19</sup> Baldauf Ch. Metapher und Kognition. Grundlagen einer neuen Theorie der Alltagsmetapher. Sprache in der Gesellschaft 24. -F.: 1997. -S- 148.

Zukünftige ereignisse bewegen sich auf uns zu – Kelajakdagi voqealar bizga yaqinlashmoqda.

**3. Wo ein Wille ist, da ist auch ein Weg – Istak bo'lsa, yo'l ham topiladi<sup>20</sup>.**

Vorgehensweisen sind wege - Yondashuvlar yo'llardir.

**4. Nachts sind alle Katzen grau – Tunda barcha mushuklar kulrang<sup>21</sup>.**

Negativ ist dunkel – Salbiylik qorong'ulikda.

**5. Hochmut kommt vor dem Fall – Kibr qulashdan oldin keladi<sup>22</sup>.**

Gut ist hoch, negativ ist unten – Yaxshi yuqorida, salbiy pastda.

Ko'pchilik mavjud lug'atlarda metaforik tushunchalarning tuzilishini kuzatib bo'lmaydi. Baldauf ifodasiga ko'ra, Lakoff va Johnson "sevgi" tushunchasining "yo'l" yoki "sayohat" aspektiga lug'at maqolalarida ishora qilishdan qo'rqmaydilar (Sevgi — yo'l; Sevgi — sayohat)<sup>23</sup>. Bunda leksikografik kodlashtirish amalga oshmasa-da, onomasiologik lug'atlarda ma'no jihatdan o'xshash iboralar va maqollarni, ya'ni bir xil maqsad sohasiga tegishli frazeologizmlarni topish mumkin. Masalan, qo'rquv idiomalar, g'azab idiomalar va hokazo. Bunday lug'atlarda maqollarni faqat tafovutli topish mumkin. Shemann sinonim lug'atida nemis iboralarining 142 ta maqoli, Verle/Eggers lug'atida esa 190 ta maqol mavjud, lekin ular turli xil so'z maydonlariga tarqalgan<sup>24</sup>. Bir xil so'z maydonida ko'pincha bir nechta maqol uchramaydi. Ba'zan bir maqol bir necha so'z maydonlariga, tushunchalarga birlashtiriladi. Masalan, Hugo Wehrle va Hans Eggers „Ko'zdan ko'ngilga“ maqolida besh tushuncha – o'zgaruvchanlik, yo'qlik, ko'rinmaslik, e'tiborsizlik

<sup>20</sup> Baldauf Ch. Metapher und Kognition. Grundlagen einer neuen Theorie der Alltagsmetapher. Sprache in der Gesellschaft 24. -F.:1997. -S- 149.

<sup>21</sup> Baldauf Ch. Metapher und Kognition. Grundlagen einer neuen Theorie der Alltagsmetapher. Sprache in der Gesellschaft 24. -F.:1997. -S- 160.

<sup>22</sup> Baldauf Ch. Metapher und Kognition. Grundlagen einer neuen Theorie der Alltagsmetapher. Sprache in der Gesellschaft 24. -F.:1997. -S- 128.

<sup>23</sup> Baldauf Ch. Metapher und Kognition. Grundlagen einer neuen Theorie der Alltagsmetapher. Sprache in der Gesellschaft 24. -F.:1997. -S- 251.

<sup>24</sup> Kispál T. Sprichwörter im onomasiologischen Wörterbuch. In: Rapp, 20. Reinhard hrsg. Sprachwissenschaft auf dem Weg in das dritte Jahrtausend. Akten des 34. Linguistischen Kolloquiums in Gernersheim Linguistik International 8. Bd. 2. – F.: 2002. S- 589–597. .

va esdan chiqarish kabi tushunchalari keltirilgan<sup>25</sup>. Bu yerda Liebertga ham ishora qilish kerak, u nemis kundalik tilining metafora sohalarning leksik ma'lumotlar bazasini yaratish loyihasini tasvirlagan holda, kognitiv leksikografiyaning istiqbollarini ko'rsatadi<sup>26</sup>.

**MUHOKAMA.** Ko'pchilik mavjud lug'atlarda metaforik tushunchalarning tuzilishini kuzatib bo'lmaydi. Umumlashtirilgan ma'nosi bir xil bo'lishiga qaramay, turli maqollarga turli xil konseptual metaforalar asos bo'lishi mumkin, bu onomasiologik usul, hatto u ko'pincha kognitiv metafora nazariyasining oldingi bosqichi deb hisoblanishiga qaramay, boshqacha va ancha kam ishlab chiqilgan yondashuv ekanligini ko'rsatadi. Ba'zi maqollarda **tezkorlik** muvaffaqiyatga olib kelishi yoki foydali ekanligini ifodalaydi. Ba'zan bir maqol bir necha so'z maydonlariga yoki tushunchalarga birlashtiriladi. Masalan, Hugo Wehrle va Hans Eggers<sup>27</sup> nemis tili lug'atida "Ko'zdan, ko'ngilga" maqoli "**o'zgaruvchanlik**", "**yo'qlik**", "**ko'rinmaslik**", "**e'tiborsizlik**" va "**esdan chiqarish**" kabi maqolning ma'nosiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan bir qator tushunchalarga birlashtiriladi. Wolf-Andreas Liebert kognitiv leksikografiyaning istiqbollarini tasvirlaydi va nemis kundalik tilining metaforik sohalarning leksik ma'lumotlar bazasini yaratish loyihasini taqdim etadi<sup>28</sup>. Hans Shemann<sup>29</sup> sinonimlar lug'atida "**vaqt**" so'z maydonida sekin va ehtiyotkor e'tibor muvaffaqiyatga olib kelishini ifodalovchi bir nechta maqollar mavjud.

1. Wer rastet, der rostet - Kim dam olsa, u zanglaydi.

<sup>25</sup> Wehrle H, Eggers H. Deutscher Wortschatz. Ein Wegweiser zum treffenden Ausdruck. – St.: 1993. S-95.

<sup>26</sup> Liebert W. Metaphernbereiche der deutschen Alltagssprache. Kognitive Linguistik und die Perspektiven einer Kognitiven Lexikographie. Europäische Hochschulschriften . -F.: 1992. S- 135.

<sup>27</sup> Wehrle H, Eggers H. Deutscher Wortschatz. Ein Wegweiser zum treffenden Ausdruck. – St.: 1993. S-95.

<sup>28</sup> Liebert W. Metaphernbereiche der deutschen Alltagssprache. Kognitive Linguistik und die Perspektiven einer Kognitiven Lexikographie. Europäische Hochschulschriften . -F.: 1992. S- 135.

<sup>29</sup> Schemann H. Synonymwörterbuch der deutschen Redensarten. ; Unter Mitarb. von Renate Birkenhauer. – St.:1989. S-128. 428-s.

2. Wer zuerst kommt, mahlt zuerst - Kim birinchi kelsa, birinchi ovqat yeydi.
3. Morgenstunde hat Gold im Munde - Erta tongda oltin bor.

Bunday kodifikatsiyalar lugʻatlarda maqollarning qoʻllanilishini (masalan, bir vaziyat uchun mos maqolni tanlash) alifbo tartibida joylashishidan koʻra ancha koʻproq ragʻbatlantirishi mumkin. Maqollar semantikasini lugʻatda tizimli ravishda taqdim etish uchun esa, kognitiv-leksikografik tartibda maqollarni joylashtirish, masalan, frazeologizmlar uchun kognitiv lingvistika doirasida taqdimot formati sifatida xizmat qiluvchi tezaurus shaklida yanada yaxshi hissa qoʻshishi mumkin. Zybatov klaster shakllantirish usulini idiomalar bilan bir qatorda “maqollar, umumiy joylar [...] qanotli soʻzlar” kabi paremiyalar uchun ham qoʻllash mumkinligini koʻrsatadi<sup>30</sup>.

Metaforik bilan fikrlash umumiy ahamiyatga ega boʻladi. Koʻplab tillarda va madaniyatlarda kundalik tajribalar oʻxshash maqollar bilan ifodalanadi, ular ham oʻxshash konseptual metaforalarga asoslanadi. Bu UMUMIY - MAXSUS, ODAMLAR - JONSIZ BUYUMLAR yoki QISM - BUTUN OʻRNIDAgI metonimiyadagi asosiy metaforalar kabi emas, balki VAQT - PUL yoki TUSHUNISH - KOʻRISH<sup>31</sup> kabi metaforalarda ham oʻrinlidir. Litva maqollar korpusida maqollar kontekstidagi sharh va izohlarni oʻrganish orqali Grigas bir qator xalqaro maqollarning geterosituativligiga misollar keltiradi, lekin u bunda maqollarning barqaror maʼnosini, turli maqol shakllari uchun doimiy maʼnoni ham maqollar uchun muhim xususiyat sifatida alohida taʼkidlaydi<sup>32</sup>. U bunda - 1970-1980-yillardagi maqollar tadqiqotining natijasi sifatida maqollarning koʻp maʼnoliligini takrorlash orqali maqollar maʼnosining barqarorligini yana oldinga suradi.

**XULOSA.** Boshqa frazeologizmlardan (kollokatsiyalar, idiomalardan) farqli oʻlaroq, maqollarda ularning kontekstda turli vaziyatlarda

qoʻllanilishi (geterotsituativligi) alohida taʼkidlanishi kerak, bu esa ularning konseptual tuzilishlarini tahlil qilishda hisobga olinishi lozim. Bir necha marta takrorlab isbot qilinganidek, bir necha til va madaniyatlarda bir xil konseptual metaforalar oʻxshash metaforik soʻzlar, soʻz birikmalari va maqollar orqali ifodalanadi. Kelajakdagi tadqiqotlar endi bu tadqiqot natijalarini til va madaniyatga xos farqlarni kognitiv metafora nazariyasi doirasida maqollarda taqdim etish bilan maqbul ravishda toʻldirishi mumkin, bu yerda Lakoffning maqollarni tushunishda ham taxmin qilingan zarur dunyo bilimi (ICM) kabi masalalar ham taʼkidlanishi lozim<sup>33</sup>. Maqollar boʻyicha tadqiqotlar, shuningdek, maqollar boshqa til metaforalardan farqli ravishda metaforik modelda boshqacharoq xatti-harakatlar qilishini isbotlashi mumkin.

#### ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Baldauf Ch. Metapher und Kognition. Grundlagen einer neuen Theorie der Alltagsmetapher. Sprache in der Gesellschaft 24. - F.:1997. -S- 105.
2. Ewald P. Zum Wesen des Metaphorischen und seiner Ausprägung in unterschiedlichen sprachlichen Einheiten. In: Pohl, Inge Hrsg. 1999 - L.:1999. -S. 26.
3. GibbsR, Strom Lise, Spivey-KnowltonM. Conceptual Metaphors in Mental Imagery for Proverbs. Journal of Mental Imagery 21. 1997. 83–110p.
4. Grigas K. Some Semantic Enigmas of Proverbs. Proverbium. 2002. P- 19. 398.
5. Kövecses Z. The “Container” Metaphor of Anger in English, Chinese, Japanese and Hungarian. Metaphorical Point of View. A Multidisciplinary Approach to the Cognitive Content of Metaphor. -- B. 1995. -117–145. p.
6. Kispál T. Sprichwörter im onomasiologischen Wörterbuch. Sprachwissenschaft auf dem Weg in das dritte

<sup>30</sup> Zybatow L. Idiome und Parömien aus kognitivlinguistischer und translationslinguistischer Sicht am Beispiel des Russischen und Ukrainischen. In: Spillmann, H.O. Warnke, I. (Hg.): Internationale Tendenzen der Syntaktik, Semantik und Pragmatik. Akten des 32. Linguistischen Kolloquiums, Kassel 1997. Linguistik International; Bd. 1. -F.: 1999. S- 579-588. 2000 S.

<sup>31</sup> Lakoff G, TurnerM. More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. – Ch.:1989. P-230. 166-p.

<sup>32</sup> Grigas K. Some Semantic Enigmas of Proverbs. In: Proverbium. 2002. P- 19. 398 p.

<sup>33</sup> Lakoff, G. Women, Fire and Dangerous Things. What Categories Reveal about the Mind. - Ch.:1987. -P-167.

- Jahrtausend. Akten des 34. Linguistischen Kolloquiums in Gernersheim Linguistik International 8. Bd. 2. – F.: 2002. S- 589–597.
7. Lakoff G, Johnson M. Leben in Metaphern. Konstruktion und Gebrauch von Sprachbildern. -H.: 1980.-S. 16 .
8. LewandowskaA, Gerd A. Sprichwörter, metaphorische Konzepte und Alltagsrhetorik. Proverbium 18; 2001. -S- 167–183.
9. Liebert W. Metaphernbereiche der deutschen Alltagssprache. Kognitive Linguistik und die Perspektiven einer Kognitiven Lexikographie. Europäische Hochschulschriften . -F.: 1992. S- 135.
10. Lüger H.Satzwertige Phraseologismen. Eine pragmalinguistische Untersuchung. -W.: 1999. - S.131.
11. Schemann H. Synonymwörterbuch der deutschen Redensarten. ; Unter Mitarb. von Renate Birkenhauer. – St.:1989. S-128. 428-s.
12. Wehrle H, Eggers H. Deutscher Wortschatz. Ein Wegweiser zum treffenden Ausdruck. – St.: 1993. S-95.
13. Zybatow L. Idiome und Parömien aus kognitivlinguistischer und translationslinguistischer Sicht am Beispiel des Russischen und Ukrainischen. Kassel 1997. Linguistik International; Bd. 1. -F.: 1999. S- 579-588. 2000 S.
14. Курбанбаева, М. (2024). Использование русских народных сказок в процессе изучения языка и формирования гуманизма у детей. Tamaddun nuri jurnali, 5(56), 520-522.
15. Курбанбаева, М. (2023). Влияние современного жаргонизма на изучение русского литературного языка иноязычной молодежью. Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 52-55.
16. Курбанбаева, М. (2023). Пословицы и поговорки со схожим значением в русском и узбекском языках и общность народной мудрости. Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 15-18.



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV NUTQNI MEDIATEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI

Bekberganova Nazokat Oybek qizi, Urganch innovatsion universiteti “Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

## THE CURRENT STATE OF THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE SPEECH IN PRIMARY CLASS STUDENTS THROUGH MEDIA TECHNOLOGIES

Bekberganova Nazokat Oybek qizi, Teacher of the “Pedagogy and Primary Education Methodology” department of the Urganch Innovation University

## СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ПОМОЩЬЮ МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ

Бекберганова Назоката Ойбек кызы, преподаватель кафедры «Педагогика и методика начального образования» Ургенчского инновационного университета



<https://orcid.org/0009-0006-7450-2603>

e-mail:  
[bekberganovanazokat8@gmail.com](mailto:bekberganovanazokat8@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning hozirgi holati tahlil qilinadi. Maqolada XXI asrda mediatexnologiyalarning bolalar nutqini shakllantirishga ta’siri, imkoniyatlari va muammolari ko‘rib chiqiladi. Bunda o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan turli xil o‘yinli dasturlar, video va audio materiallar, onlayn muloqot platformalari, ijodiy ishlar uchun mo‘ljallangan dasturlar va ta’limiy o‘yinlarni misol qilib keltiradi. Shu bilan birga, maqolada mediatexnologiyalarni samarali va xavfsiz qo‘llash uchun o‘qituvchilarning muhim roli va ularning malakasini oshirish zarurligi borasida so‘z yuritiladi. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ nutqni rivojlantirishda mediatexnologiyalardan foydalanishning muhimligi, shuningdek, bu boradagi muammolarni hal etishga bo‘lgan ehtiyoj ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** kommunikativ nutq, mediatexnologiyalar, nutq rivojlanishi, o‘yinli dasturlar, video va audio materiallar, ta’limiy o‘yinlar, texnologiyalarni oqilona qo‘llash, muloqot, innovatsiyalar, integratsiya.

**Abstract:** This article analyzes the current state of the development of communicative speech in elementary school students by means of media technologies. The article examines the impact, opportunities and problems of media technologies on the formation of children's speech in the 21st century. Examples include various game programs, video and audio materials, online communication platforms, creative programs and educational games used in the educational process. At the same time, the article talks about the important role of teachers and the need to improve their skills for the effective and safe use of media

technologies. The article emphasizes the importance of using media technologies in the development of communicative speech in elementary school students, as well as the need to solve problems in this regard.

**Key words:** communicative speech, media technologies, speech development, game programs, video and audio materials, educational games, rational use of technologies, communication, innovation, integration.

**Аннотация:** В данной статье анализируется современное состояние развития коммуникативной речи учащихся младших классов средствами медиатехнологий. В статье рассматривается влияние, возможности и проблемы медиатехнологий на формирование речи детей в XXI веке. Примерами могут служить различные игровые программы, видео- и аудиоматериалы, платформы онлайн-коммуникации, творческие программы и обучающие игры, используемые в образовательном процессе. При этом в статье говорится о важной роли преподавателей и необходимости повышения их квалификации для эффективного и безопасного использования медиатехнологий. В статье подчеркивается важность использования медиатехнологий в развитии коммуникативной речи учащихся младших классов, а также необходимость решения проблем в этом направлении.

**Ключевые слова:** коммуникативная речь, медиатехнологии, развитие речи, игровые программы, видео- и аудиоматериалы, развивающие игры, рациональное использование технологий, коммуникация, инновации, интеграция.

**KIRISH.** Bugungi kunda ta'lim sohasidagi yangiliklar va o'zgarishlar, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ nutqini rivojlantirishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Maktabda nutqni rivojlantirish faqat til o'rgatish emas, balki o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, muloqot qilish, o'z fikrini aniq ifodalash va boshqalar bilan samarali o'zaro aloqada bo'lish qobiliyatlarini ham o'stirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda mediatexnologiyalar, ya'ni axborot texnologiyalari va multimedia vositalarining rolini inkor etib bo'lmaydi. O'quvchilarning nutqiy mahoratini oshirishda raqamli texnologiyalar, interaktiv dasturlar, video darsliklar va onlayn platformalar kabi vositalar samarali yordamchi bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar orqali rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangan. Ushbu maqolada, shu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar va mavjud muammolarni tahlil qilish hamda mediatexnologiyalar yordamida nutqni rivojlantirishning ahamiyati haqida so'z yuritimiz.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ nutqini rivojlantirishda mediatexnologiyalar vositasidan foydalanish sohasida olib borilgan tadqiqotlar ko'plab nazariy va amaliy yondashuvlarni taqdim etadi. O'quvchilarda nutqiy faoliyatni rivojlantirishga doir ishlar, ayniqsa raqamli texnologiyalar va multimedia vositalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi, ko'plab ilmiy tadqiqotlarda muhokama qilinmoqda. Masalan,

S.I.Pospelov (2020) o'zining tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilarining til rivojlanishini tezlashtirishda interaktiv texnologiyalarning samaradorligini ko'rsatadi. Uning fikricha, multimedia vositalari va internet manbalarining ta'lim jarayoniga qo'shilishi o'quvchilarda faollikni oshiradi, bu esa o'z navbatida ularning kommunikativ nutqini takomillashtirishga yordam beradi. Interaktiv ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga o'z fikrini aniq va tushunarli ifodalashni o'rgatadi, shuningdek, o'zaro muloqotda bo'lish va guruhli ishlarda muvaffaqiyat qozonishda yordam beradi. L.G.Ivanova (2021) o'quvchilarning til va nutqiy faoliyatini rivojlantirishda audiovizual materiallar, video darsliklar va multimedia vositalarining o'rni haqida gapiradi. Uning ta'kidlashicha, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan interaktiv dasturlar va o'quv materiallari, ayniqsa, o'quvchilarning o'zaro fikr almashish jarayonini yengillashtiradi va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilarning audio-vizual materiallarga bo'lgan qiziqishi ularni o'z nutqlarini yaxshilashga undaydi, bu esa o'z navbatida nutqning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. N.V.Karpova (2022) o'zining tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar yordamida boshlang'ich ta'limda kommunikativ nutqni rivojlantirishning metodik yondashuvlarini taqdim etadi. U o'quvchilarning til o'rganish jarayonida axborot texnologiyalarining qulayliklaridan foydalanish, masalan, o'quv video-oyunlar va virtual kommunikatsiya muhitlari orqali muloqot qilishni ko'rib chiqadi. Karpova raqamli platformalar

o'quvchilarga yangi til va nutqiy qoidalarni mustahkamlashda, shuningdek, ijodiy nutq va o'z fikrini ifodalashda yordam berishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, mediatexnologiyalarning nutqni rivojlantirishdagi samaradorligi o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga, motivatsiyasiga va o'quv muhitining yuksak sifatiga bog'liq. Ba'zi tadqiqotchilar, masalan, M.G.Shishkina (2023), raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini qo'llashda ehtiyotkorlikni ta'kidlaydi, chunki noto'g'ri foydalanish o'quvchilarning diqqatini chalg'itishi va muloqotning sifatini pasaytirishi mumkin. Biroq, to'g'ri yondashuv bilan bu vositalar o'quvchilarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mediatexnologiyalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ nutqini rivojlantirish sohasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bularning barchasi raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning muhimligini va ularning nutqni rivojlantirishdagi rolini ta'kidlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud metodik yondashuvlar va amaliy tajribalar bu yo'nalishda ilg'or natijalarga erishish uchun hali ko'p ishlar qilish zarurligini ko'rsatadi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ nutqini mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning bugungi kundagi holatini tahlil qilish va baholash uchun quyidagi tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – mediatexnologiyalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ nutqini rivojlantirishning samaradorligini aniqlash va bu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni o'rganishdir. Tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

1. Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotning dastlabki bosqichida mavjud ilmiy adabiyotlar va pedagogik tadqiqotlar tahlil qilindi. Bu jarayonda boshlang'ich ta'limda kommunikativ nutqni rivojlantirish va mediatexnologiyalarni qo'llash bo'yicha mavjud nazariy yondashuvlar va metodikalar o'rganildi.

O'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda interaktiv ta'lim texnologiyalarining o'rnini, audiovizual materiallar, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali nutqni rivojlantirishning samaradorligi haqida ilmiy fikrlarni birlashtirishga

imkon berdi. Tadqiqotda L.G.Ivanova (2021), N.V.Karpova (2022), S.I.Pospelov (2020) va boshqa olimlarning ishlaridan foydalanildi.

2. Eksperimental metod. Tadqiqotning eksperimental qismi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkazildi. Eksperimentda ikki guruh ishtirok etdi:

**Tajriba guruhi.** Bu guruhda o'quvchilarga mediatexnologiyalar yordamida nutqiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus interaktiv darslar va audiovizual materiallar taqdim etildi. Ular o'qish, yozish, eshitish va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan turli multimedia vositalaridan foydalandi.

**Nazorat guruhi:** Bu guruhda o'quvchilarga an'anaviy metodikalar asosida ta'lim berildi, ya'ni o'qish, yozish va nutqni rivojlantirishda faqat klassik darsliklar va o'quv qo'llanmalaridan foydalanildi.

Eksperiment davomida o'quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirish darajasi, nutqning aniq va tushunarli ifodalanishi, so'zlashuvdagi faollik va o'zaro muloqotda ishtirok etish qobiliyati o'rganildi. O'quvchilar o'rtasidagi nutqiy farq va ulardagi rivojlanish jarayoni eksperimentning asosiy ko'rsatkichlari bo'ldi.

3. So'rovnomalar va intervyu. Tadqiqot davomida o'qituvchilar va o'quvchilarning fikrlarini aniqlash uchun so'rovnomalar va intervyular o'tkazildi. So'rovnomalar yordamida o'quvchilarning mediatexnologiyalarga bo'lgan munosabati, o'quv jarayoniga texnologiyalarni qo'llashda qiyinchiliklar va ular tomonidan o'z nutqlarini rivojlantirishda bu vositalardan qanday foydalanishi borasida ma'lumotlar to'plandi. O'qituvchilar bilan o'tkazilgan intervyu esa texnologiyalarni qo'llash jarayonidagi amaliy tajribalar, pedagogik muammolar va mediatexnologiyalarni samarali integratsiya qilish borasidagi yondashuvlar haqida ma'lumot berdi.

4. Statistik tahlil. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish uchun statistika metodlaridan foydalangan holda o'quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirishda erishilgan o'zgarishlar o'lchandi. O'quvchilarning boshlang'ich darajadagi va eksperiment davomida erishgan nutqiy natijalari o'zaro solishtirildi. Eksperimentdan oldin va keyin o'quvchilarning kommunikativ faolligini o'lchash uchun testlar va nutqiy vazifalar yordamida natijalar yig'ildi va tahlil qilindi.



5. Sifatli tahlil. Eksperiment yakunida o'quvchilarning nutqiy ifodalari, muloqotdagi faolligini va o'zaro muhokama qilish ko'nikmalarini sifatli tahlil qilish usuli qo'llanildi. Bu tahlil o'quvchilarning nutqida kuzatilgan o'zgarishlar, yangi nutqiy qobiliyatlar va o'z fikrlarini aniq ifodalashdagi o'zgarishlarni baholashga yordam berdi.

6. Monitoring va baholash. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini kuzatish va baholash uchun monitoring tizimi ishlatildi. Bu tizim o'quvchilarning kommunikativ faolligini, nutqning aniq ifodalash darajasini va o'quvchilarning interaktiv faoliyatini baholashga imkon berdi. Tadqiqot metodologiyasi, ya'ni adabiyotlar tahlili, eksperimental metod, so'rovnomalar va intervyular, statistik va sifatli tahlil usullarining integratsiyasi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ nutqini mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish jarayonining kompleks tahlilini amalga oshirishga imkon berdi. Ushbu metodologiya, o'quvchilarning nutqiy rivojlanishidagi o'zgarishlarni aniqlash va mediatexnologiyalarning ta'limdagi samaradorligini o'rganish uchun keng imkoniyat yaratdi.

#### **TAHLILLAR VA NATIJALAR.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ nutqini mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish sohasida olib borilgan tadqiqotlar va amaliyotlar, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va multimedia vositalarining samaradorligini ko'rsatmoqda. Ushbu tahlil, turli pedagogik tadqiqotlarning natijalarini jamlab, mediatexnologiyalar yordamida kommunikativ nutqni rivojlantirishning afzalliklari, cheklovlari va amaliy muammolarini yoritishga qaratilgan.

1. **Mediatexnologiyalarning afzalliklari.** Tahlil qilingan materiallar asosida, mediatexnologiyalar, xususan interaktiv ta'lim platformalari, video darsliklar, mobil ilovalar va o'quv dasturlarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ nutqini rivojlantirishdagi roli juda katta. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

Motivatsiyaning oshishi: Interaktiv va audiovizual materiallar o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qiziqishini oshiradi. O'quvchilar uchun o'yinlar, videolar, animatsiyalar va multimediali darsliklar orqali o'rganish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo'ladi. Bu ularning nutqiy faoliyatini

rag'batlantiradi va muloqotda faol ishtirok etishga undaydi.

Tushunish va ifodalash qobiliyatining oshishi: O'quvchilarga video darsliklar va interaktiv materiallar orqali o'z nutqlarini to'g'ri va aniq ifodalashni o'rgatish mumkin. Mediatexnologiyalar ularning so'zlashish va eshitish ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantiradi. Misol uchun, audiovizual materiallar yordamida o'quvchilar nafaqat nutqni eshitib, balki ko'rib o'rganishadi, bu esa yodda saqlash va ifodalash jarayonini osonlashtiradi.

Yangi kommunikativ strategiyalar: Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar guruhli ishlar va onlayn muloqotlarda o'zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ularga yangi muloqot strategiyalarini o'rganishga, boshqalar bilan samarali aloqada bo'lishga va o'z fikrlarini erkin ifodalashga yordam beradi.

#### **2. Mediatexnologiyalarning cheklovlari.**

Biroq, mediatexnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishda ba'zi cheklovlar va muammolar ham mavjud. O'quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirishda raqamli vositalar samarasini ta'minlash uchun quyidagi cheklovlarni inobatga olish zarur:

Texnologik resurslarning yetarli emasligi: Ba'zi maktablarda texnologik infratuzilma va resurslar yetarli emas. Interaktiv darsliklar, kompyuterlar yoki internetga ulanish imkoniyati cheklangan bo'lsa, mediatexnologiyalardan samarali foydalanish qiyinlashadi.

O'qituvchilarning malakasi: Mediatexnologiyalarni samarali qo'llash uchun o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni yaxshi bilishi va pedagogik metodikalarini ushbu vositalarga moslashtira olishlari zarur. Aks holda, texnologiyalar o'quvchilar uchun samarali bo'lmasligi mumkin.

Diqqatni chalg'itish muammosi: Yosh o'quvchilar uchun raqamli vositalar ba'zan o'quv faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin. O'quvchilarni konsentratsiya qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi va ular o'quv jarayonidan ko'proq o'yin yoki boshqa onlayn faoliyatlarga e'tibor qaratishlari mumkin.

**TAVSIYALAR.** Tahlilga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ nutqini mediatexnologiyalar orqali rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishildi: Mediatexnologiyalar o'quvchilarning o'z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalashini osonlashtiradi. O'quvchilar multimedia

vositlari yordamida o'z fikrlarini ochiq va ishonchli tarzda bildiradilar. Bu jarayonda o'quvchilarning nutqiy ifodalari aniq, mantiqiy va boy bo'lib boradi. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarga ijodiy fikrlash imkonini beradi. Videolar, slaydlar va animatsiyalar orqali o'quvchilar nutqni nafaqat ma'lum bir mavzuda, balki ijodiy, ya'ni usullar bilan ifodalashga o'rganadilar. O'qituvchilarni mediatexnologiyalarni pedagogik jarayonda samarali qo'llash uchun malaka oshirish kurslari bilan ta'minlash muhimdir. Bu o'qituvchilarga texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'shishda samarali yondashuvlarni yaratishga yordam beradi. O'quvchilarning texnologiyalardan foydalanish jarayonida diqqatini chalg'itmaslik uchun maxsus metodikalar ishlab chiqilishi zarur. Ularning raqamli vositalarga moslashishi va o'quv jarayonida faollik ko'rsatishi uchun turli faoliyatlarni ishlab chiqish lozim.

**XULOSALAR.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ nutqini mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish, ta'lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishda katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu yo'nalishdagi samarali natijalarga erishish uchun texnologik infratuzilma, o'qituvchilar malakasi va diqqatni

jamlash kabi muammolarni hal qilish zarur. Mediatexnologiyalarni o'quv jarayoniga samarali integratsiya qilish orqali o'quvchilarning kommunikativ mahoratini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. D.Djalilova. Kommunikativ nutqni rivojlantirishning amaliy asoslari. - Akademik research in educational sciences.2021-yil, 84-91-betlar.
2. K.Nazarova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalashning mavjud holati tahlili. - Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023-yil, 242-245-betlar.
3. Z.Xushbaqova. Boshlang'ich sinflarda nutqiy savodxonlikni rivojlantirish. // Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada takomillashtirishning muhim omili jurnali, - 645-650-betlar.
4. N.Adizova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati. // Scientific progress, 1010-1016-betlar. 2021-yil.

## O‘ZBEKISTON SSRDA XALQ SUDLARI TOMONIDAN MEHNAT RESURSLARINING QATAG‘ON QILINISHI


**Komolov Dilshod Pulatovich**, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası, tarix fanlari doktori (DSc), professor

## РЕПРЕССИИ ТРУДОВЫХ РЕСУРСОВ НАРОДНЫМИ СУДАМИ В УЗБЕКСКОЙ ССР

**Комолов Дилшод Пулатович**, Университет экономики и педагогики Кафедра истории и социальных наук, доктор исторических наук, профессор

## REPRESSION OF LABOR RESOURCES BY THE PEOPLE'S COURTS IN THE UZBEK SSR

**Komolov Dilshod Pulatovich**, University of Economics and Pedagogy Department of History and Social Sciences, Doctor of History (DSc), Professor



E-mail:  
[dilshod.komolov.79@bk.ru](mailto:dilshod.komolov.79@bk.ru)

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida korxonalar va muassasalarning militarlashuvi, fuqarolarning erkin kasb tanlash va mehnat qilishdan iborat konstitutsion huquqining cheklanishi, aholining shafqatsiz ekspluatatsiya qilinishi hamda mustabid sovet rejimi tomonidan o‘n minglab mahbuslardan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanish jarayoni O‘zbekiston SSR misolida ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** xalq sudyasi, tergov, qamoq, axloq tuzatish ishlari, jarima, ish haftasi, mehnat intizomi.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье в годы Второй мировой войны милитаризация предприятий и учреждений, ограничение конституционного права граждан на свободный выбор профессии и труда, жестокая эксплуатация населения, использование десятков тысяч заключенных в качестве бесплатная рабочая сила авторитарного советского режима раскрывается на примере Узбекской ССР.

**Ключевые слова:** народный судья, следствие, тюрьма, исправительные работы, штраф, рабочая неделя, трудовая дисциплина.

**ANNOTATION:** In this article, during the Second World War, the militarization of enterprises and institutions, the restriction of the constitutional right of citizens to free choice of profession and labor, the brutal exploitation of the population, the use of tens of thousands of prisoners as free labor of the authoritarian Soviet regime are revealed using the example of the Uzbek SSR.

**Key words:** people's judge, investigation, prison, correctional labor, fine, work week, labor discipline.

**KIRISH.** Fashistlar Germaniyasi Polshaga hujum qilganidan so‘ng SSSR hukumati mudofaa sanoatini mustahkamlash, yangi korxonalar qurish, chet eldan yangi dastgohlar va qurollarni sotib olish masalalariga katta e‘tibor bera boshladi. Yangi korxonalar qurish katta miqdordagi ishchi kuchini talab etar edi. Masalaning yechimi sifatida sovet davlati o‘z xalqini shafqatsiz ekspluatatsiya qilishga va ko‘p millionli mahbuslardan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanishga qaror qildi. Buni huquqiy

jihatdan asoslash uchun 1940-yil 26-iyunda SSSR Oliy Soveti Prezidiumi “Sakkiz soatlik ish kuni, yetti kunlik ish haftasiga o‘tilishi munosabati bilan ishchi-xodimlarning korxonalar va muassasalardan o‘zboshimchalik bilan ketishini ta‘qiqlash to‘g‘risida”gi farmonni qabul qildi [1, C.141-142]. Farmonga binoan davlat, kooperativ, jamoat korxonalari va muassasalarida ish haftasi olti kundan yetti kunga o‘tkazildi. Ishchi va xizmatchilarning korxonalar va muassasalardan o‘zboshimchalik bilan ketishi,

shuningdek, bir korxonadan boshqasiga o'tishi ta'qiqlandi. Faqat bunga istisno tariqasida ayrim holatlarda korxonalar va muassasa rahbarining bir tomonlama roziligi bilan ruxsat berilar edi.

Farmonga ko'ra korxonalar yoki muassasalardan o'zboshimchalik bilan ketgan ishchi va xizmatchilar sudga berilib, xalq sudining hukmi bilan 2 oydan 4 oygacha qamoq jazosiga hukm etilishi belgilab qo'yildi. Uzrli sabablarsiz ishga kelmagan yoki 20 daqiqadan ko'p ishga kechikib kelganlarni oylik ish haqidan 25% gacha chegirib qolingan holda, 6 oygacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi ko'rsatib o'tilgan edi.

Bunday turdagi ishlarni xalq sudlari 5 kundan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqishlari va hukm darhol ijro etilishi lozim edi. Yuqoridagi farmon 1940-yil 27-iyunda kuchga kirdi. Shunday qilib, SSSR hududida kuchaytirilgan, favqulodda mehnat tartiblari o'rnatildi, ishchi va xizmatchilar korxonalariga birlashtirib qo'yildi. Ishlab chiqarish stavkalari oshirildi, narxlar pasaytirildi va minimal ish kunining bajarilmasligi jinoiy javobgarlikka sabab bo'lar edi. Amaldagi protsessual qonunchilikka asosan har qanday jinoiy ish yuzasidan dastlabki tergov o'tkazilishi va ayblov xulosasi sudga taqdim etilishi lozim edi. Farmonda esa ushbu rasmiy jarayonlarning barchasi sudga ko'rib chiqilishi bilan birga besh kun ichida tugallanishi ko'rsatib o'tilgan edi. Qatag'on qilish tartiblarini yanada soddalashtirish maqsadida SSSR Oliy sudi Plenumi qarori bilan xalq sudlarida bunday turdagi huquqbuzarliklarni ko'rish tartibi yengillashtirib borildi. Masalan, 1940-yil 15-iyulda bo'lib o'tgan SSSR Oliy sudining Plenumi quyi sudlarga mehnat intizomi buzilishi bilan bog'liq jinoyat ishlarni sudya ayblov uchun materiallar yetarli deb hisoblasa dastlabki tergovsiz ko'rish mumkinligi haqida ko'rsatma berdi [2,C.131-133]. Sudyalarning shubhali holatlarda, ishni tergovga qaytarishi mumkin edi, ammo ularning aksariyati bu huquq rasmiyatchilikdan boshqa narsa emasligini yaxshi bilishar edi. Partiya va hukumatning ko'rsatmalariga muvofiq "mehnat intizomini buzuvchilar" niqobi ostida, ishchi va xizmatchilarning dam olish huquqini inkor etgan holda ularga qarshi ommaviy qatag'onlar boshlab yuborildi.

1940-yil 23-iyuldagi SSSR Oliy sudining navbatdagi Plenumida ishga kechikish bilan bog'liq mehnat intizomi takroran buzilgan taqdirda, axloq tuzatish ishlari jazosi qamoq jazosi bilan almashtirilishi haqida ko'rsatma berildi. Buning

oqibatida mehnat intizomini buzuvchilarga nisbatan qo'llanadigan jazo choralari yanada og'irlashtirildi.

1940-yil 10-avgustda qatag'on operativligini ta'minlash uchun sudga amalga oshiriladigan yana bir protsessual jarayondan voz kechildi. Ya'ni, ushbu sanada SSSR Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan qabul qilingan farmonda quyidagicha bayon etilgan edi: "Belgilab qo'yilsinki, korxonalar va muassasalardan ruxsatsiz va o'zboshimchalik bilan chiqib ketgan shaxslarning jinoiy ishlari xalq sudyalari tomonidan xalq maslahatchilari ishtirokisiz yakka tartibda ko'rib chiqilsin" [1,C.231]. Vaholanki, 1936-yilda qabul qilingan SSSR konstitutsiyasi va 1937-yilda qabul qilingan O'zSSR konstitutsiyasining 102-moddasiga muvofiq barcha sudlarda ish kollegial tarzda amalga oshirilishi, sud tizimining barcha bo'g'inida sudya xalq maslahatchilari ishtirokida ish yuritishi belgilab qo'yilgan edi [3,C.18].

Yuqorida qabul qilingan qarorlar ketma-ketligiga e'tibor qaratisa sudyalarning qatag'on qilish uchun barcha dastaklarga ega bo'lgani ayon bo'ladi. Bunday turdagi ishlarni sudya dastlabki tergovsiz, xalq maslahatchilari ishtirokisiz ko'rib chiqishga vakolatli edi. Eng achinarlisi, sudya tomonidan qabul qilingan hukm darhol, bir kundan kechiktirmasdan ijro etilgan. Sudlanuvchi hukm yuzasidan apellyatsiya va kassatsiya shikoyati bera olmagan.

SSSRda 1940-yil 15-sentyabrgacha bo'lgan muddatda 1940-yil 26-iyundagi farmonda ko'rsatilgan holatlar bo'yicha 1 082 216 kishiga nisbatan jinoiy ish ochilib, sudga taqdim etilgan. Ulardan, 906 824 kishi sudlangan, shu jumladan 755 440 kishi ishga kechikib kelgani uchun, 131718 kishi ruxsatsiz ishdan ketganligi uchun, 2949 kishi aybdorlarni yashirganligi uchun jazolangan.

O'zbekiston SSRda ham ishchi-xizmatchilarni mehnat intizomini buzganlikda ayblab yoppasiga jazolash kampaniyasi boshlab yuborildi. 1940-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra, O'zbekistondagi xalq sudlariga mehnat intizomi buzilishi bilan bog'liq 13877 ta ish kelib tushgan. Ulardan 10738 tasi esa sud tartibida ko'rib chiqilgan[4]. Viloyatlar kesimida mahkumlar soni quyidagicha edi: Toshkent viloyatida 4786 kishi, Farg'onada 2353, Buxoroda 1215, Samarqandda 1391, Xorazmda 467 hamda Qoraqalpog'iston ASSRda 526 kishi hukm etilgan.

Mahkumlarning 9509 nafari ishga kechikib kelgani uchun, 1225 nafari esa ruxsatsiz ish joyidan ketgani uchun jazolangan. Mahkumlarning 4462

nafariga (46%) 3 oygacha, 5035 nafariga(53,9%) 3 oydan 6 oygacha axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan edi. Ruxsatsiz ish joyidan ketganlarning 303 nafariga 2 oy, 922 nafariga 2 oydan 4 oygacha qamoq jazosi tayinlangan edi[7].

SSSR Adliya xalq komissarligi va Oliy sudi tomonidan ittifoqdosh respublikalardan 1940-yil 26-iyundagi Farmon ijrosi yuzasidan hisobotlar muntazam ravishda eshitib borilgan. Markazdagi ma'murlar tomonidan aybdorlarga og'ir jazo chorasini qo'llash kerakligi haqida ko'rsatmalar berilgan. Ushbu talablar bajarilishini nazorat qilish uchun xalq sudlari faoliyati taftish qilib borilgan. Mahkumlarga nisbatan yengil jazo tayin etgan yoki ishga ob'ektiv baho berib aybsizlarni oqlagan xalq sudyalariga nisbatan ta'sir choralari kuchaytirilgan. Masalan, Uchqo'rg'onda xalq sudyasi Toshmatov 3 nafar sudlanuvchini oqlagani, O'rta Chirchiq tumanidagi xalq sudyasi Isoqulov MTSda ishlayotgan 4 nafar traktor haydovchilarini oqlagani uchun javobgarlikka tortiladi[8].

1940-yil sentyabr oyida o'z xizmat vazifasiga "sovuqqonlik" bilan qaragani uchun O'zbekiston SSRda 17 nafar xalq sudyasi mahalliy kengashlar tomonidan lavozimidan chaqirib olinib, ulardan 10 nafari jinoiy javobgarlikka tortiladi. Shuningdek, yana bir qator xalq sudyalariga nisbatan ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi. Respublikada farmon talablarini buzganligi uchun turli darajada jazolangan sudyalar soni 58 nafar edi [9]. Bu haqda arxiv manbalarida shunday ma'lumot uchraydi: "bu kabi holatlar sudyalar o'rtasida siyosiy hushyorlik va intizomni yaxshilashga imkon berdi".

1941-yil 1-yanvar holatiga ko'ra SSSR da ishchi va xizmatchilardan 2 476 241 nafari mehnat intizomini buzganlikda ayblanib, ishi sudga oshirilgan. Ulardan 1 955 790 kishi javobgarlikka tortilgan edi.

Nafaqat Ikkinchi jahon urushi davrida, balki urushdan keyingi yillarda ham yuqoridagi farmon amalda bo'ldi. 1956-yil Stalin vafot etganidan uch yil o'tib KPSS Markaziy qo'mitasi syezdida kompartiyaning birinchi kotibi Nikita Xrushchov Stalin shaxsiga sig'inishning ayanchli va qabih oqibatlari haqida ma'ruza qilib, repressiyalar to'xtatilishi va qatag'on qilinganlar oqlanishi haqida so'z yuritdi. Natijada, 1940-yil 26-iyundagi Farmon ham bekor qilindi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu farmon mavjud bo'lgan davrda 18 millionga

yaqin sovet fuqarolari sudlandi va turli darajada javobgarlikka tortildi.

Xulosa qilib aytganda, SSSR da hukm surgan totalitar tuzum tomonidan Konstitusiyaga zid ravishda bir qator qonunosti hujjatlari qabul qilinib, fuqarolarning erkin kasb tanlash, mehnat qilish va dam olish huquqlari cheklab qo'yildi. Bunday tartibga bo'ysunmagan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortildi va millionlab mahbuslar xizmatidan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanildi. Qatag'on operativligini ta'minlash uchun sudlar tomonidan amalga oshiriladigan proressual jarayonlar ham "soddalashib", jazolar repressivlashib bordi. Nafaqat ishchi-xizmatchilar, hatto sud jarayoniga obyektiv baho bergan sudyalar ham qatag'on qurboniga aylandi. Faqat Stalinning vafotidan keyin, uning davrida qabul qilingan ayrim qonunlar bekor qilindi, aybsiz jazolangan fuqarolarni reabilitasiya qilish jarayonlari boshlandi.

#### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Сборник законов СССР и указов Президиума Верховного совета СССР. 1938-1944 г.г. - М.: Ведомости Верховного совета СССР, 1945. - 362 с.
- 2.Сборник постановлений Пленума и определений коллегий Верховного Суда Союза ССР, 1940 год / Под ред.: Голяков И.Т. - М.: Юрид. изд-во НКЮ СССР, 1941. - 352 с.
- 3.Конституция (Основной закон) УзССР. – Ташкент.: Партиздат КП (б) Уз, 1938. – 23 с.
- 4.О'zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro'yxat, 1247-yig'ma jild, 8-varaq.
5. О'zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro'yxat, 1247-yig'ma jild, 9-varaq
- 6.О'zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro'yxat, 1247-yig'ma jild, 9-varaq
- 7.О'zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro'yxat, 1247-yig'ma jild, 10-varaq.
- 8.О'zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro'yxat,1247-yig'ma jild, 10-varaq.
9. О'zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro'yxat,1247-yig'ma jild, 30-varaq.
- 10.О'zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro'yxat, 1247-yig'ma jild, 11-varaq.
- 11.О'zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro'yxat,1247-yig'ma jild, 12-varaq.
- 12.О'zbekiston Milliy Arxivi R-904-fond, 9-ro'yxat, 1247-yig'ma jild, 12-varaq.

Qabul qilindi: 30.09.2024

Chop etildi: 30.10.2024

UDK: 32.321

## TEMURIYLAR DAVRI MUTAFAKKIRLARI KONSEPSIYALARIDA “FUQAROLIK JAMIYATI” TUSHUNCHASI

Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna, UrDU o‘qituvchisi,  
QMU “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”  
kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

## THE CONCEPT OF “CIVIL SOCIETY” IN THE CONCEPTS OF THINKERS OF THE TEMURIAN PERIOD

Kurbanbaeva Munavvara Kozibaevna, teacher of UrSU,  
independent researcher of the department “National idea,  
foundations of spirituality and legal education” of QSU

## ПОНЯТИЕ “ГРАЖДАНСКОЕ ОБЩЕСТВО” В КОНЦЕПЦИЯХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ПЕРИОДА ТЕМУРИДОВ

Курбанбаева Мунаввара Козибаевна, преподаватель УрГУ,  
независимый научный исследователь кафедры  
“Национальная идея, основы духовности и правового  
воспитания” КГУ

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Temuriylar davri mutafakkirlari va davlat arboblarning davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyatiga oid siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy qarashlari, ushbu qarashlarning amaliyotga nechog‘lik tatbiq etilgani masalasi tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** temuriylar davri, “Temur tuzuklari”, davlat boshqaruvi, adolat, tenglik, farovonlik, markazlashgan davlat, vatan manfaati.

**Abstract:** This article analyzes the political, social and spiritual-educational views of the thinkers and statesmen of the Temuri period on state administration and civil society, and how well these views are applied in practice.

**Key words:** Temur era, "Temur's traps", state administration, justice, equality, prosperity, centralized state, national interest.

**Аннотация:** В данной статье анализируются политические, социальные и духовно-просветительские взгляды мыслителей и государственных деятелей периода Темури на государственное управление и гражданское общество, а также то, насколько хорошо эти взгляды применяются на практике.

**Ключевые слова:** эпоха Темуридов, «Темур тузуклари», государственное управление, правосудие, равенство, процветание, централизованное государство, национальный интерес.

**KIRISH.** Mamlakatimiz hududlariga, qadim davrlardanoq, hozirgi zamon tili bilan aytganda “fuqarolik jamiyati” tushunchasi yot emas. Bu tushuncha qadimiy asarlarda aynan shunday atalmagan bo‘lsa-da, davlat boshqaruvi, siyosiy tizim, ijtimoiy qatlamlarning o‘zaro munosabatlariga

oid qarashlar hozirgi zamon mezonlariga ko‘ra “fuqarolik jamiyati” tushunchasiga to‘la mos keladi. Fuqarolik jamiyati konsepsiyasining ilk kurtaklarini “Avesto”da ko‘rishimiz mumkin. Xalqimiz dahosi bilan yaratilgan ushbu kitobda fuqarolik jamiyati belgilari, unsurlari va tamoyillariga oid qator tezislar



<https://orcid.org/0009-0002-6202-2064>

e-mail:  
tamaddunnuri1@gmail.com

o‘z aksini topgan. Bu ta’limot shu jihati bilan dunyo olimlarining diqqatini o‘ziga tortgan. “Avesto” xalq boshqaruviga oid bo‘lgan unsurlardan biri bo‘lgan xalq vakillaridan iborat kengash – “oqsoqollar kengashi” haqida gap boradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Yurtimiz tarixining yorqin sahifasini tashkil etuvchi temuriylar davridagi davlat boshqaruvi tamoyillari va ma’naviy, siyosiy g‘oyalariga nazar tashlasak, fuqarolik jamiyati prinsiplariga xos qarashlarni ko‘rishimiz mumkin. Ushbu qarashlar, ayniqsa, Amir Temurning “Temur tuzuklari”da yorqin aks etgan. Unda siyosat, siyosiy tizim va siyosiy boshqaruvga doir qarashlar yanada rivojlantirilgan. “Tuzuklar”ni davlat boshqaruvida adolat prinsiplariga amal qilishning dasturi, desak ham bo‘ladi. U siyosiy munosabatlar va me‘yorlar, siyosiy institutlarni o‘zaro muvofiqlashtirish masalalari haqidagi qoidalar majmuasidir.

**MUHOKAMA.** Amir Temur davlat boshqaruvida jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini hisobga olinishi qay darajada muhim ekanligini “Tuzuklar”da qayd etadi. Unda davlat siyosatini amalga oshirishda qanchalik keng jamiyat vakillari bilan kengashib, ular fikr-mulohazalari asosida ish olib borilsa, davlat shu darajada qudratli bo‘lishi ta’kidlangan. Amir Temur “Tuzuklar”da jamiyatni 12 ta toifaga bo‘lib, ularning har birini ijtimoiy va siyosiy nuqtayi nazardan boshqaruvdagi va jamiyatdagi o‘rni, ishtiroki, salohiyati va ahamiyatini ochib bergan:

1) sayyidlar, ulamo va shayxlar; 2) bilimdon kishilar; 3) duogo‘y taqvodorlar; 4) amirlar, sarhanglar, sipohsolorlar; 5) sipoh bilan raiyat; 6) dono va ishonchli kishilar; 7) vazirlar, sarkotib va devon bitikchilari; 8) hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar; 9) muhaddislar (hadis olimlari va roviylar); 10) so‘fiylar va oriflar; 11) hunar va san‘at ahli; 12) sayyoh va tijorat ahllari. Ko‘rib turganimizdek, Amir Temur jamiyatdagi bironta ijtimoiy qatlamni nazardan qochirmagan.

U siyosiy hokimiyatda faol pozitsiya egalari bo‘lgan vazirlar, amirlar va noiblarga alohida diqqat qaratadi. Hukmdor bu kabi mas’uliyatli va muhim davlat mansablariga shaxsiy simpatiyasi, qon-qarindoshligiga qarab yoki shaxsiy manfaatlar yuzasidan odamlarni tayinlash to‘g‘risida gapirmaydi, balki bu masalaga davlat va jamiyat manfaatlarini nuqtayi nazaridan yondashadi: bu kabi mansablarga adolatparvar, yuksak insoniy axloqli,

yurtga sadoqatli, tashabbuskor va qat’iyatli insonlarni tanlash lozimligini ta’kidlaydi. Amir Temur vazirlar kamida to‘rt fazilatga ega bo‘lishini shart qilib qo‘yadi:

1) asllik – toza naslga mansublik va ulug‘vorlik;

2) aqlu farosatga ega ekanligi;

3) sipoh bilan raiyat ahvolidan doimo boxabar bo‘lib turishi va ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsata olishi, ular bilan insoniy muomalada bo‘lish qobiliyatiga ega ekanligi;

4) davlat ishida sabru bardoshli bo‘lishi, o‘z mulozimlariga muloyimlik bilan munosabatda bo‘lishi[1].

Amir Temur qudratli davlat qurish, millat buyukligini va xalqining farovon hayotini ta’minlash maqsadida uni birlashtirish uchun o‘zi adolatli jamiyat prinsiplariga amal qilgan, ularni hayotga tatbiq etgan. Xususan, “Temur tuzuklari”da u shunday deydi:

-saltanatim ishlarini murosayu madora, muruvvat va sabr-toqat bilan yurgizdim. Ko‘p narsani bilib tursam ham o‘zimni bilmaslikka oldim. Do‘stu dushman bilan murosayu madora qildim;

-davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To‘ra va tuzukka tayanib, saltanatda o‘z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat har biri o‘z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo‘lib, undan ortig‘iga da’vogarlik qila olmadi;

-adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko‘nglidan joy oldim. ...Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin ularni shariatga muvofiq odamlar o‘rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o‘rniga boshqasiga jabr-zulm o‘tkazmadim. Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko‘tarib, ishimga ko‘p ziyon yetkazganlarni ham iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o‘chirdim. Martabalarini oshirdim.

-raiya ahvolidan ogoh bo‘ldim, ulug‘larini og‘a qatorida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rdim. Har yerning tabiati, har el va shaharning rasmu odatlari, mizojidan voqif bo‘lib turdim. ...Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo‘lib turdim. Har

bir mamlakatning ahvolini, sipohu raiyat kayfiyatini, turish-turmushlarini, qilish-qilmishlarini, bular o'rtalaridagi aloqalarni yozib, menga bildirib turishi uchun diyonatli, to'g'ri qalamli kishilardan voqeanavislar (axbornavis-xabarchilar) belgiladim;

-yana tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar dinu oyin (qoida) asosida qurilmas ekan, to'ratuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xsharkim, uni ko'rgan har kimsa nazarini olib qochadi"[2].

Yuqoridagi so'zlarda siyosiy boshqaruv, siyosiy tizim, davlatchilikning asosiy tamoyillari aks etgan. Yana bir eng ahamiyatli tomoni shundaki, Amir Temur o'zining nazariy bilimlari, g'oyalarini amalda qo'llab, qudratli, markazlashgan davlat barpo etdi va bu davrda uning saltanati har tomonlama taraqqiy etib, gullab-yashnadi.

**NATIJALAR.** Temuriylar boshqaruvi davrida Amir Temur g'oyalari davlat arboblari va mutafakkirlar tomonidan yanada rivojlantirilib, takomillashtirib borildi. Jumladan, temuriylar davrining yirik klassik namoyandalardan, o'zbek tili va adabiyotining asoschisi, davlat arbobi Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki yirik nazariyotchi va amaliyotchi siyosatshunos sifatida davlatchiligimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan, davlat siyosatining adolatli asoslari va ma'naviy mezonlarini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan mutafakkir allomadir. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida hukmdorning vazifasi haqida to'xtalar ekan, uning davlatni adolatli, qonun asosida boshqarishi, har bir tabaqaning obro'-e'tibori, qadr-qimmatini munosib baholashi, ulardan birining ikkinchisi ustidan hukmronlik qilishiga yo'l qo'ymasligi lozimligini uqtiradi va buning qanday amalga oshirilishini ham ko'rsatib beradi. Alisher Navoiy do'sti Husayn Boyqaroning vaziri bo'lib yuritgan faoliyati davomida, Boyqaroni adolatli shoh darajasiga ko'tarish, mamlakatda adolat va haqiqatni qaror toptirish, el-ulusni g'amxo'rlik va karam bilan boshqarish uchun ko'p harakat qildi. Lekin buning amalda chorasini topa olmagach, o'z asarlarida adolatli shoh va adolatli jamiyat haqidagi qarashlarini bayon etib, o'zbek xalqining ma'naviy xazinasini durdona asarlari bilan boyitdi. Mazkur asarlarda davlat boshqaruviga oid bebaho g'oyalarini bayon etdi.

Shuningdek, o'zbek millatining yana bir zabardast vakili Mirzo Bobur ham mislsiz qiyinchiliklarni yengib, boburiylar imperiyasiga asos soldi va o'z saltanatini adolat bilan boshqarishga imkon qadar harakat qildi. Albatta, o'sha davr taqozosi bilan, adolatli boshqaruv qudratli harbiy tizim vositasida ushlab turildi. Lekin Boburshoh, shohning asosiy vazifasi mamlakat hududida osoyishtalik o'rnatish, tarqoq o'lkalarni birlashtirib markazlashgan yagona davlat barpo etish, uni adolat bilan boshqarish, aholining farovonligini ta'minlash, uning madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirish va jamiyat taraqqiyotini ko'zlab ish olib borish deb bildi va shu tamoyillarga ko'ra mamlakatni idora qildi. O'g'li Humoyunga yozgan maktubida o'g'li timsolida avlodlariga ham hamisha adolat bilan ish yuritish, ra'iyatning tinchlik-osoyishtaligini ta'minlash, jamiyat baxt-saodatini ko'zlab siyosat yuritishni uqtirdi. Haqiqatan ham, uning avlodlari bo'lmish boburiylar asrlar davomida o'z saltanatini, xususan Hindistonni adolat bilan boshqarib, o'z qo'l ostidagi o'lkalarning taraqqiyotiga xizmat qildilar.

Temuriylar davri allomalari Husayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniylar ham davlat boshqaruvi va uning siyosati bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-axloqiy masalalar xususida qimmatli fikrlarni bildirgan allomalardir. Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy" asari mashhur bo'lib, unda "Tarbiya va jazo haqida qonunlarning bo'lmaganligi davlat faoliyatining buzilishiga olib keladi"[3], deydi. Jaloliddin Davoniy o'zining "Axloqi Jaloliy" asarida "Qonunsiz jamiyatda tartib o'rnatib bo'lmaydi"[4], deb hisoblaydi.

**XULOSA.** Xulosa o'rnida aytish mumkinki, temuriylar davri mutafakkirlari davlat boshqaruvida adolat hukm surishi, jamiyatda ilm, ma'rifat, tenglik, farovonlik qaror topishini istaganlar va fuqarolik jamiyati g'oyalarini ilgari surganlar. Bu g'oyalar Amir Temur, Ulug'bek, Mirzo Bobur kabi hukmdorlarning boshqaruvi davrida qisman amalga oshgan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. <https://temurtuzuklari.uz/>. Temur tuzuklari.
2. <https://temurtuzuklari.uz/>. Temur tuzuklari.
3. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. - Dushanbe. Adib nashriyoti, 1991.
4. Jaloliddin Davoniy. Axloqi Jaloliy. O'zRFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi.



## VAGİF BAYATLI ODER'İN ŞİİRİNİN TEMEL DÜŞÜNSEL - SANATSAL ÖZELLİKLERİNDEN BİRİ OLARAK PARADOKSLAR

*Abbasova Gülnare Xaliq qızı, Azərbaycan Diller Üniversitesi  
Doktora öğrencisi, Bakı, Azərbaycan*

## PARADOKSLAR VOQİF BAYATLI ODER SHE'RIYATINING ASOSİY INTELLEKTUAL-BADİİY XUSUSİYATLARIDAN BİRİ SIFATIDA

*Abbasova Gulnare Xaliq qizi, Ozarbayjon tillar universiteti  
doktoranti, Boku, Ozarbayjon*

## THE BASIC INTELLECTUAL OF VAGİF BAYATLI ODER'S POETRY PARADOXES AS ONE OF HIS ARTISTIC CHARACTERISTICS

*Abbasova Gulnare Xaliq qizi, PhD student of Azerbaijan  
University of Languages, Baku, Azerbaijan*

## ОСНОВНЫЕ ИДЕИ ПОЭЗИИ ВАГИФА БАЯТЛЫ ОДЕРА-ПАРАДОКСЫ КАК ОДНА ИЗ ЕГО ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ

*Аббасова Гульнара Халик кызы, докторантка  
Азербайджанского университета языков, Баку, Азербайджан*

**Özet:** “Vağıf Bayatlı Oder'in şiirinin temel düşünsel-sanatsal özelliklerinden biri olarak paradokslar” makalesi geleneksel olarak iki bölüme ayrılabilir: konuya teorik bir giriş olan birinci bölümde, genel olarak paradoks kavramı, kökeni ve neliği, tarihsel gelişimi, ana özellikleri, türleri ve diğer konular tartışılır. İkinci bölümde B. Oder'in şiirindeki paradoksların edebî-sanatsal ve sosyo-politik kaynakları, ana türleri ve sözdizimsel türleri açıklanmıştır. Yazar, araştırma konusunu dünya ve ulusal bilimsel-felsefi, edebî-sanatsal düşünce arka planına karşı irdeler, zaman ve yaşamla bağlantısını gösterir, genel anlamda şairin eserindeki paradoksları arayışta bilişsel bir stratejik yöntem olarak değerlendirir.

**Anahtar kelimeler:** paradoks, çelişki, gök, dünya, aşk, antitez, absürt, saçmalık, basmakalıp, muhalif, ikircikli.

**Annotatsiya:** «Paradokslar Voqif Bayatli Oder she'riyatining asosiy intellektual-badiiy xususiyatlaridan biri sifatida» maqolasini an'anaviy ravishda ikki qismga bo'lish mumkin: mavzuga nazariy kirish bo'lgan birinchi qismda, umuman olganda, paradoks tushunchasi; uning kelib chiqishi va nimadan iboratligi, tarixiy rivojlanishi, asosiy belgilari, turlari va boshqa masalalar muhokama qilinadi. Ikkinchi bobda B. Oder she'riyatidagi paradokslarning adabiy-badiiy va ijtimoiy-siyosiy manbalari, asosiy janrlari va sintaktik turlari tushuntiriladi. Muallif tadqiqot predmetini jahon va milliy ilmiy-falsafiy, adabiy-badiiy tafakkur fonida ko'rib chiqadi, uning zamon va hayot bilan bog'liqligini ko'rsatadi, umuman olganda, shoir ijodida paradokslarni izlashda kognitiv strategik usul sifatida baho beradi.

**Kalit so'zlar:** paradoks, ziddiyat, osmon, yer, sevgi, antiteza, absurd, safsata, klishe, qarama-qarshilik, ikki tomonlama.



<https://orcid.org/0009-0008-5868-3728>

e-mail: glnar.ava@bk.ru

**Abstract:** The article «Paradoxes as one of the main idea-artistic features of Vagif Bayatli Oder's poetry» can be conventionally divided into two parts: in the first part, which is a theoretical introduction to the topic, the concept of paradox in general, its origin and essence, historical development, main features, types and other issues are discussed. In the second part, the literary-artistic and socio-political sources, main types, and syntactic types of paradox in the poetry of V.B.Oder are clarified. The author examines the main subject of research against the background of world and national scientific-philosophical, literary-artistic thought, shows its connection with time and life, generally speaking, evaluates the paradoxes in the poet's work as a cognitive strategic method in the search for truth.

**Key words:** paradox, contradiction, sky, earth, love, antithesis, absurd, nonsense, stereotype, dissident, ambivalent.

**Аннотация:** Статью «Парадоксы как одна из основных интеллектуально-художественных особенностей поэзии Вагифа Баятлы Одера» традиционно можно разделить на две части: в первой части, представляющей собой теоретическое введение в предмет, понятие парадокса в целом, обсуждаются его происхождение и его историческое развитие, его основные особенности, виды и другие вопросы. Во второй главе раскрываются литературно-художественные и общественно-политические источники, основные жанры и синтаксические типы парадоксов в поэзии Б.Одера. Автор рассматривает предмет исследования на фоне мировой и отечественной научно-философской, литературно-художественной мысли, показывает его связь со временем и жизнью и в целом оценивает его как познавательный стратегический метод поиска парадоксов в творчестве поэта.

**Ключевые слова:** парадокс, противоречие, небо, земля, любовь, антитеза, абсурд, бессмыслица, клише, оппозиционность, амбивалентность.

**GİRİŞ.** Vagif Bayatlı Oder'in şiirindeki karşıtlar konusunu incelemek, bu kavrama genel bir bilgi girişi ile başlamayı gerektirir. «Paradoks», «beklenmedik», «garip», «aksine», yani mantık dışı, çoğunluğun kabul ettiği, «sağduyu» ile uyuşmayan eski bir Yunanca kelimedir[Nəzərova, 2014:7].

İlk bakışta çelişkili bir ikilik, müphemlik içeren paradokslar, gerçeğin dışsal değil, ilk bakışta görünmez veya olağandışı olan iç katmanda olduğunu vurgular. Örneğin, R. Tagore'a ait şu paradoksa dikkat edelim: «Adamlar zalimdir ama insanlar hayırseverdir.» Ya da modern Azerbaycan şiirinin kurucusu R. Raza'ya ait şu paradoks: «Sorunlarımı kime anlatayım, dünya insanlarla dolu.»

Paradokstan çıkan nihai sonuç şudur ki gerçek, çelişkilerden kaçınmak değil, onları eşit kutuplar olarak ortak bir paydaya getirmektir. Deleuze'ün dediği gibi, «...paradoksun özü, aynı anda iki fikri ifade etmesidir»[Делез,1995: 3].

Edebiyat eleştirmenleri ve dilbilimciler arasında paradokslara ilgi artıyor. «Bilim adamlarının dikkati, paradoksun doğasına, ulusal edebiyattaki geleneklerine, çeşitli edebi eğilimlere ve belirli yazarların yapıtlarındaki işlevsel özelliklere odaklanmıştır»[Шмид, 2001: 9-16 ].

Bazen paradoks antitez, saçmalıkla karıştırılıyor. Ancak antitez önceden bilinen, paradoks ise, beklenmedik bir karşılaşmadır.

Paradoksta, iki karşıt taraf eşit üyeler olarak yan yana dururken, saçmalıkta iki karşıt taraftan biri diğerini «duymaz». Saçmalık, sıradan mantık tarafından da kabul edilmeyen saçma düşüncelerdir. Dolayısıyla, bu kavramların her birinin bilişsel bir stratejik işlevi var ve çelişkileri çözme sürecinin farklı aşamalarıdır.Felsefi anlamda, paradoks terimi ilk olarak Aristoteles tarafından «Топиклер» adlı eserinde önerilmiş, semantik dairesi sofistlerin pratiğinde konuşma figürüne kadar daraltılarak atf edilmiş, bu daralma Rönesans ve Yeni Çağ'da devam etmiştir. Ancak son yüz yılda, sözkonusu kavram Aristotelesçi manasına geridönüştür. Antik retorik teorisyenleri paradoksu bir konuşma figürü olarak tanımladıysa, 20. yüzyılın eleştirmenleri ona bir bilgi yöntemi olarak daha fazla önem veriyorlar[Paradox, 2000: 183].

**ANA BÖLÜM.** Bir paradoksun üç temel yönü vardır; paradoksta iki karşıt birbirini diyalektik olarak etkiler; gerçek, paradoksun görünen çelişkisinin arkasında gizlidir, yani paradoks, doğrunun ve yanlışın tersine çevrilmesinin neden olduğu zihinsel bir zorluktur; Paradokstaki çelişkiler her zaman beklenmedik bir etkiye sahiptir ve klişelere karşı çıkarlar. Araştırmacılar paradoksları farklı türlere ayırır: felsefi, tarihi, karakteristik ve ironik[Яшина, 2007: 182]. Her fikir-sanat olgusu kendisinden önceki gelenekler üzerinde gelişim sağlarken, aynı zamanda sanatçının içinde yaşadığı somut tarihsel zamanın

getirdiği deęişimlerle de ilişkilidir. V.B.Oder'in çalışmasındaki paradokslar iki kaynağa dayanmaktadır: edebi ve tarihsel. Edebi etki açısından en önemli kaynak, milli şiirimiz üzerinde önemli etkileri olan ortaçağ divan şiirinin dehası Fuzuli'nin yapıtlarıdır. Altmışlı yıllarda Fuzuli'ye dönüşün yeni bir aşaması başladı ve bu, milli kimliğe dönüşün ayrılmaz bir parçası olarak ortaya çıktı.

V.B.Oder'in yapıtlarındaki paradoksların tarihsel temeli, onun 70'lerde şiire geldiği paradoksal öze dayanmaktadır. Bu yıllarda bir yandan «cennetsel refah» içinde yaşayan Sovyet halkı hakkında R. Barth'ın deyişimiyle bir «mit» oluşturulurken, diğer yandan insanlar en yaygın günlük sorunlarını çözmek için saatlerce mağazaların önünde kuyruklarda bekliyordu. Stalin'in ölümünden sonra yeni bir ivme kazanan ve ifadesini A.Soljenitsin, B.Pasternak, V.Vısotsky ve diğerlerinin eserlerinde bulan muhalif edebiyat, bu paradoksal tarihsel sürecin atmosferinde doğdu. Doğal olarak, muhalif ruha dayanan edebiyatın oluşturulma süreci, tek bir sistem içinde yaşayan SSCB'nin tüm halkları için geçerli idi. Azerbaycan edebiyatında B.Vahabzade'nin «Gülüstan» ve özellikle «Lenin'le Sohbet Şiirleri», İ.Muğanna'nın «Yanan Yürek», S.Ahmedli'nin «Dünyanın ölçümü», Anar'ın «İyi Hükümdarın Öyküsü», V.Samadoğlu ve R.Rövşen'nin şiirleri bunun açık bir örneğidir. V.B.Oder'in çalışmalarına aynı tarihsel bağlamda yaklaşılmalıdır. Onun şiirindeki paradokslar tarihinin temelinde, Sovyet ideolojisinin sahte özü ile hayatın gerçeği arasındaki çelişki yatmaktadır.

Şairin çalışmasındaki paradokslar daha felsefi bir yapıya sahiptir. Bu paradoksların temelinde şairin kozmik-metafizik bir yelpazeye sahip geniş ölçekli düşüncesi yatmaktadır. Örneğin, bizim milli manzum görüşümüze göre yeryüzü, genellikle ya gökten daha aşağı seviyede kabul görmüş, tüm kötülüklerin adresi olarak algılanmış ya da «bilinmeyen, yabancı, üvey gökler»e tercih edilerek bir mekan olarak add edilmiştir. Birinci tavır klasik divan şairlerinde, ikincisi ise Sovyet şairlerinde esastır. 14. yüzyılın ünlü şairi İmadeddin Nesimi, «Dünya duracak yer değil ey can, sefer eyle, Aldanma anın aline, andan hezer eyle» beyti birinci tavrın ifadesidir[Nesimi, 2018: 233]. Sadece Azerbaycan Sovyet şiirinin değil, genel olarak SSCB halklarının şiirinin de sancaktarı olan S.Vurgu'nun dizeleri, «Yerlere bakıyorum, bahçalı, bağlı // Göklere bakıyorum, kapısı kapalı» ikinci tavrın somut bir sanatsal ifadesiydi. V.B.Oder,

yeryüzünü gökyüzüne düşman bir alan olarak değil, onun ayrılmaz bir parçası olarak algılar ve yeryüzü ile gökyüzü arasındaki paradoksal asırlık çatışmayı ortadan kaldırarak sorunu bir anda «çözer»: «Boş gözüken bu yer, aslında, boş değil, gündüz görülemeyen yıldızlarla dolu gökyüzü gibidir... Yer gökyüzünde küçük bir nokta yok, Gökyüzünün küçük bir noktasıdır»[Odər, 2008: 3].

V.B.Oder'in şiirindeki tüm paradoksal «keşifler» onun kozmik-metafizik bakış açısından gelir. Şair, ya göklerin kapısının kapandığını bildiren Sovyet şiir kalıplarına, ya da ortaçağ divan şiirinin özelliği olan dünyayı terk etme tavrına, kısacası tek kutuplu tavır ve bu tavidan doğan kalıp yargılarına karşı çıkar. Onun bakış açısından, geleneksel «yukarı» ve «aşağı» kavramları, gök ve yer arasındaki karşıtlık önemini kayb etmektedir: ...her an herkesin ayağını öpme yüceliğine in...Vatan toprağı tek[Odər, 2008: 6].

*Şair, yer ve gök, insan ve uzay ve Tanrı'nın birliği fikrini bazen tezahür şeklinde, açıkça, nesir diliyle beyan eder: Senin tüm felaketlerin, gökyüzünün bir parçası gökyüzünün kendisiymiş gibi bilmemeğinden kaynaklanıyor*[Odər, 2008: 6].

V.B.Oder'in paradoksalcılığının en önemli özelliği, klasik divan şiirine ve Sovyet edebiyatına karşı çıkmasıdır. Bunun temel tarihi ve kültürel nedeni, yirminci yüzyılın sonunda çokasırlı edebi ve sanatsal düşüncenin sona ermekte ve bir aşamadan diğerine geçiş gerçekleşmekteydi. V.B.Oder'in poetiği, 60'ların Azerbaycan şiirinin yenilik kanadının temsilcileri Vagif Samadoğlu ve Ramiz Rövşan ile birlikte, yaklaşık bin yıllık bir aşamadan diğerine geçiş için bir iç hazırlık dönemi idi. Şairin «bin yıl» ya da «milyon yıl» tabirini zaman göstergesi olarak sık sık kullanması tesadüf değildir:

*Bin yıllık derbeder acıdan, yadigar kederinden de geçsen, hiç bir zaman pes etme, düşünme ki sen bir hiçsin*[Odər, 2008: 7].

Şairin sanat düşüncesinin evrenindeki «bin yıl» veya «milyon yıl» ifadesi, hem geçmiş, hem bugünü hem de geleceği işaret eden «ebedi şimdi»nin, tek bir zamanın, daha doğrusu zamansızlığın bir göstergesidir. Dolayısıyla zamanların «iç içe geçmesi», şairin şiirinde dilbilgisel zaman kavramına karşılık gelmeyen paradoksal zamanın kaynaklarından biridir:

*Bin yılda, milyon yılda geçdi seni göreceğimden*[Odər, 2008: 292].

Yahut, Bin yıl sonra bu dünyadan hatırımda, Hala sadece neşe dolu aşkım kalmıştır[Odər, 2008: 77].Dilbilgisel zamanın mantığına yaklaştığımızda birinci ve ikinci örnekte olay, hem geçmişte, hem de gelecekte gerçekleşir (geçdi seni göreceğimden; hatırlıyorum - bin yıl sonra). Şiirsel mantıkla yaklaşıldığında, bu iki zamanı birleştiren paradoksal «şimdi» zamandır.Onun şiirinin tüm olağandışı özelliği bu paradoksal zaman-mekan koşullarından kaynaklanmaktadır. Şairin «keşfettiği» bu paradoksal zaman ve yeri adlandırmak için bazen «orada» işaret zamirini kullanması tesadüf değildir. Şairin şiirsel sunumunda, «orada» yaşam ve ölüm, «iyi ve kötünün yüzü» vardır (F.Nietzsche.) Aşk, evrenselbaşkalaşımın gerçekleştiği, her şeyin paradoksal olarak bir şey haline geldiği «orada» varoluşun tek biçimidir. Aşk, çelişkileri çözenin bir yöntemi, paradokslardan kurtulmanın bir yoludur:

*Nefes alarak oraya giremezsin,  
Çünkü nefes nefse aşkı çeker,  
Çekdikçe aşkın gücünü alır,  
Nefes alarak oraya giremezsin.  
Orada yaşamıyorlar, orada ölmüyorlar,  
Orada gece, gündüz sadece aşkı  
yaşıyorlar*[Odər, 2008: 42].

Bazı şiirlerde şairi aşkın bu «isimsiz» buluşma yerine getiren zamanın ve mekanın izleri vardır. Örneğin, aşıkların katıldığı «aşk partisi», «herkese göz kırpan piç yıldızlar» ve «aşktan deliye dönen ay»ın kozmik-astronomik bir karaktere sahip olduğu, bir adı olduğu aşağıdaki pasajdan görülebilir - gökyüzü, yani söze ve ifadeye gelir:

*Sonra oturub gökyüzünde  
Bir yıldız dalı altında  
Diz dize, göz göze onlarla şarap içtim, hem sonsuz ayrılık,  
hem sonsuz buluşma tadıyordu şarap... herkes herkese gülümsüyordu,  
sevgiyle göz kırpan piç yıldızlara, aşktan deliren aya aynı zamanda kimse kimseyi aldatmak istemiyordu ama herkes sevmek, sevmek ve aldatılmak istiyordu*[Odər, 2008: 46].

Aşağıdaki pasajda, ilahi aşk anının «tarihsel» kaynağını buluyoruz. Bu, 16. yüzyılın dahi Azerbaycanlı şairi Muhammed Fuzuli'nin Türk gazellerinin divanına giriş yaptığı aşkla ilgili ünlü gazeldir:

Vadiyi-vahdetde hakikatta makamı-aşktır,

Kim muşahhas olmaz ol vadide sultandan geda[Füzuli, 2004: 8].

Arapça, Farsça ve Türkçe olmak üzere üç dilde yazan ve yaratan Fuzuli'nin, sadece Azerbaycan ve Türk halklarının değil, Yakın ve Orta Doğu'nun tüm Müslüman milletlerinin rönesans edebiyatının eseri olduğu düşünüldüğünde, ardından V.B.Oderi'nin aşağıdaki dizelerinin edebi-tarihsel kaynağı, Orta Doğu halklarının rönesans şiirine sahip olduğu sonucuna varılabilir:

Ve orada her şey çok garipti,deniz yer gibiydi, gökyüzü deniz gibiydi, herkes hem padişah hem köleydi,hem hanımefendi, hem de hizmetçi.

İlk örnek uzayda kozmolojik ayak izlerine, ikincisi ise zaman içinde sosyolojik ayak izlerine sahiptir. Ancak bu izler tamamen ortadan kalktıktan sonra paradoksalılık da ortadan kalkar ve böylece paradoksalılık, şairin sanatsal düşüncesinde zaman-mekân düzleminden “sonsuzluğa” uzanan köprüyü yansıtır. Nasıl ki iki yakada birer köprü varsa, paradoksal düşünce de hem herkesin bildiği hem de yalnızca şaire açık bir dünyaya işaret eder.

Ancak şaire göre «gök» ve «yer» meselesi de psikolojiktir. Psikolojik katman, kozmik-coğrafi ve metafizik katmanlar arasında bir aracı, bir köprüdür. Klasik tasavvuf-Hurifi edebiyatında bu birbirine bağlı katmanlara «kainat`ı-kübra» (büyük dünya, makrokozmos) ve «kainat`ı-suğra» (küçük dünya, mikrokozmos) adı verilir. Şair psikolojik katmanı «ruh» terimiyle işaretler:

*Allahım yine titiriyorum,  
o gökyüzü ruhumu yeniden aşkla dolduruyor.  
Tanrım, görüyorum gökyüzünü,  
O hem ruhumda, hem dağın tepesinde*[Odər, 2008: 47].

V.B.Oder'in paradoksal dünyasının kahramanı, yeryüzü ile gökyüzü arasında çarmlıha gerilmiş bir adamdır. Şairin en çok yöneldiği imgelerden birinin bireysel benliğin uyarladığı sevgi ve merhamet sembolü Hz. İsa olması tesadüf değildir. Şaire göre en acımasız insanda bile kutsal bir şey vardır. «İki yüzlü» insanın bir tarafı iyiyse, diğer tarafı kötü ve bir tarafı en zalim canı ise, diğer tarafı masum bir çocuktur:

*bu dünyadaki her katilde,  
bir cümleyi telaffuz eden bir yargıç, yöneten bir kral var,  
ama aynı zamanda bu dünyadan küsmüş bir çocuk var*[Odər, 2008: 49].

Paradoksal çelişkiler, şairin şiirlerinde çok çeşitli şekillerde ortaya çıkar:

Doğru-yanlış çatışması:

*en büyük yalan, en büyük gerçektir*

*en büyük gerçeğin en büyük yalan olduğu gibi*

[Odər, 2008: 294].

**Akıl-delilik karşıtlığı:**

*Tamamen zeki bir insan var mı?! Herkes biraz deli, akıl denen şey, yani aşka karşısevgiden yoksunun nefretidir.*

*En zeki insanlar bile,*

*Allah aşkına, akıllı değil, biraz zeki gibiler*[Odər, 2008: 71].

Aydınlık ve karanlık arasındaki kontrast:

*Ruhum ruhlarla dolu,*

*Işıktan gözüküyor canım, bak, bak hangisi parlak?! Kâfan ne kadar karışık? belki tamam benim karanlık belki de her şey ışıktı?*[Odər, 2008: 85].

**Varlık-yokluk karşıtlığı:** *Tanrım, ne kadar iyi, ne kadar iyi, Ben hem insanım hem de ruhum. Hem varım hem yokum*[Odər, 2008: 85].

Hayvan-insan karşılaşması:  
*Atlar! Atlar! Kardeşler!*

*Ben sizden öğrendim insanlığı*[Odər, 2008: 99].

*Aşk-nefret karşıtlığı: kimse duymaz halini, herkese boynuzunu gösterir, ve herkesi sever* [Odər, 2008: 115].

V.B.Oder'in şiirlerindeki bazı paradokslar toplumsal ve siyasal olaylarla ve belirli kişilerle ilgilidir. Örneğin Hocalı'da Ermeni vandallarının yaptığı soykırım hakkında şair şöyle yazar: «Hocalı'nın kurtuluşunu asla bir zafer olarak görmeyeceğim.»

Zalimlerin hakimiyeti altında yok olan bir sanatçının akıbetini anlatan ve «Cavid'in son monologu» olarak adlandırılan şiir, hem sanatçının ölümsüzlüğü fikrini doğrulayan hem de bu fikri ironikleştiren paradoksal bir sonla biter. Şiirin başlığı Stalin'in baskısına atıfta bulunur ve finaldeki retorik soru Amir Teymur'a yöneltilir. Bu hem ironik hem de tarihsel bir paradokstur :

*Zavallı beşer ölümden de mutluluk umuyor,*  
*İnsan en yükseğe,*

*Darağacından sarkarken yükselir, değil mi Emir Timur?!*[Odər, 2008: 259].

Şairin eserlerinde bazen ironik bir paradox, kendini ironi şeklinde de ortaya çıkarır:

*Her gece bir çocuk üşür,yumruğu ve diziyile kapımı çalıyor, benim de zamanım geliyor, çocuk çal kapıyı, arkamdan açılacak kapı*[Odər, 2008: 289].

**SONUÇ.** V.B.Oder'in şiirlerindeki paradokslar daha çok cümle-kıta ve cümle-tümce yapısındadır. Kitaplarından birinin başlığında («En Komik Ölü») bir oksimoron olmasına rağmen, oksimoronlar, yani iki zıt kelimenin birleşiminden oluşan paradokslar, V.B.Oder'in şiiri için o kadar tipik değildir. Şairin eserinde çoğu zaman tüm şiirsel metnin paradokslar üzerine inşa edildiğine dair örnekler buluruz. Burada paradox, metni bir bütün olarak düzenlemenin bir yolu olarak ortaya çıkıyor:

*Bu dünyada sır arama, bu dünyada sır yokmuş.*

*Kalacak yer arama, ölecek yer de yokmuş.*

*Aşk için deli yok,*

*Sallanmak için bir teli yok,*

*Yürümek için ileri yok,*

*Dönmek için geri yokmuş.*

*Oder böyle bir derde dönmüş,*

*Dert de yok, derdi dönmüş.*

*Tanrının burada olduğunu gördüm,*

*Dönmüş yüzü berisi yokmuş.*

Çağımızın önde gelen şairlerinden biri olan V.B.Oder'in yaratıcılığı, edebi ve sanatsal köklerimizimize dönüş isteğimizin, dünyaya açılma iddiamızın ve fırsatımızın şiirsel bir ifadesidir. Öte yandan, edebi bir kategori olarak paradokslara ilgi artıyor. Bu, içinde yaşadığımız postmodern zamanların paradoksal doğasından kaynaklanmaktadır. Paradokslar bizi tüm klişelerden kurtarmaya ve birçok gezegensel çelişkiye yeni bakış açısıyla bakmaya davet ediyor.

#### **KAYNAKLAR:**

1. Füzuli qəzəllərinin şərhı. 2004. Dörd cildə. Birinci cild. Bakı, Adiloğlu nəşriyyatı, İmaməddin Nəsimi. 2018. İraq divanı. Bakı, CBS-PP, Nəzərova A., 2014. Fəlsəfə terminlərinin izahlı lüğəti. Bakı, Elm və təhsil yay., Odər, Vaqif Bayatlı. 2008. Yurpumu bir eşq ilə.Bakı, ÇİNAR-ÇAP.

2. Paradox. Chris Beldrik. 2000. The concise Oxford Dictionary of Literary terms.N.Y.: Oxford University press.,Show B. 1958. The man of Destiny. Selected Works. Moscow, Делез Ж. 1995. Логика смысла. М., Шмид В.2001. Заметки о парадоксе. Петербургский сборник.Вып.3. Парадоксы русской литературы. Под ред. В.Марковича, В.Шмида. СПб.: ИНАПРЕСС, Яшина Е.А.2007.Типология парадоксов в художественном тексте. Знание. Понимание. Умение. №4.

## SHOIR SHE'RIYATIDA FOLKLOR AN'ANALARI

Ergashova Sadoqat

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

## FOLKLORE TRADITIONS IN THE POET'S POETRY

Ergashova Sadoqat

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, 3rd year basic doctoral student

## ФОЛЬКЛОРНЫЕ ТРАДИЦИИ В ПОЭЗИИ ПОЭТА

Эргашова Садокат

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, базовый докторант 3 ступени

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada iste'dodli shoir Eshqobil Shukur ijodida qo'llangan folklorizmlar badiiyati hamda ularning turlari haqida so'z boradi. Maqola mavzusi ilmiy-nazariy fikrlar bilan asoslangan holda misollar vositasida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** folklor an'analari, ijodkor mahorati, folklorizmlar, obraz, milliy qadriyatlar.

**Abstract:** This article discusses the art of folklorisms used in the work of the talented poet Eshqobil Shukur and their types. The topic of the article is explained using examples, based on scientific and theoretical ideas.

**Key words:** folklore traditions, creative skill, folklorisms, image, national values.

**Аннотация.** В данной статье рассказывается об искусстве фольклоризма и его видах, используемых в творчестве талантливого поэта Эшкабиля Шукура. Тема статьи поясняется с помощью примеров, основанных на научных и теоретических представлениях.

**Ключевые слова:** фольклорные традиции, творческие способности, фольклоризмы, образ, национальные ценности.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlar va xalq an'alarining tiklanishi, folklor asarlari-ga ilmiy qiziqishning ortishi tufayli adabiyot-shunosligimizda folklor ta'siri bo'lgan asarlarga xos xususiyatlarni tekshirishga intilish kuchaydi.

XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizmlardan badiiy matnni qurishda, uning ritmini shakllantirishda, g'oyaviyligini oshirishda, xalqchilligi va ta'sirchanligini kuchaytirishda eng muhim vosita sifatida keng foydalanganligi ko'zga yorqin tashlanib turadi.<sup>1</sup> Davr she'riyatida folklor va yozma adabiyot munosabatlari kengayib, folklorizmning ko'lamini va ko'rinishlari boshqa

davrlardagidan ko'ra boyroq tus olgan. Aniqrog'i, shu davr o'zbek she'riyatining badiiy-tadrijiy takomilida xalq og'zaki ijodi alohida ahamiyat kasb etib, uning folklordan o'ziga xos ijodiy foydalanish mezonlari shakllangan. Bu mezonlar necha asrlar davomida badiiy an'anaga aylanib ulgurgan folklor va yozma adabiyotning o'zaro ijodiy aloqalariga xos estetik qonuniyatlarga ba'zan hamohang kelishi, ba'zan esa yangi, ayni damda betakrorligi bilan e'tiborni tortadi.

Avvalo, "folklor an'analari" deganda, odatda, xalq og'zaki ijodiga xos ifoda uslubi, badiiy shakllar va tasvir vositalari, epik motiv va obrazlar,



Email:

[sadoqat.ergashova@mail.ru](mailto:sadoqat.ergashova@mail.ru)

ru

Tel: 99891982-313-31

[https://orcid.org/0009-](https://orcid.org/0009-0003-4600-2984)

0003-4600-2984

<sup>1</sup> Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шеърлятида фольклоризмлар. Автореферат. Т., 2008.

marosim hamda urf odatlarga xos tushuncha va qarashlarning faqat folklor asarlarida saqlanib qolishi, ularni poetik ifodalashning davom ettirilishi anglashilinishini unutmashimiz kerak. Folklor ta'sirida yozma adabiyot namunasiga folklor an'anasiga xos hodisalarning badiiy mahorat bilan singdirilishidan, qayta talqin etilishidan esa **folklorizmlar** yuzaga keladi. Folklorizmning bu tarzda qo'llanishi esa uning yozma adabiyot hosilasi ekanligini bildiradi. Shuning uchun u yozma badiiy ijodning tarkibiy qismi hisoblanadi. Negaki, folklorizmda folklor materiali yozma adabiyot qonuniyatlariga muvofiq individual ijodkorning badiiy mahorati, hissiy kechinmalari, qarashlari hisobiga yanada boyitiladi. Eng muhimi, uning ko'magida realistik ifoda bilan romantik talqin o'zaro birlashib ketadi. Bu esa, xususan, she'riyatda o'ziga xos joziba hosil qiladi. "Xalq ijodiyoti san'atkorlarga ilhom, kuch-quvvat va mahorat bag'ishlaydi. Xalq ijodidan bahramand bo'lmagan birorta buyuk san'atkorni tasavvur etib bo'lmaydi. So'z san'atkorlarining folklor asarlaridan ijodiy foydalanishi yozma adabiyotning taraqqiyosiga, shu bilan birga, xalq asarlarining saqlanib qolishi va yangicha umr ko'rishiga xizmat qiladi"<sup>2</sup>.

Adabiyotshunoslikdan ma'lumki, yozma adabiyotga maqol, matal, iboralarning ko'chirilishi - **oddiy folklorizmlar** hisoblanadi. Oddiy folklorizmlar she'riyat poetikasida asosiy o'rin egallaydi. Oddiy folklorizmlarni shartli ravishda ikki turga ajratish o'rinlidir. "Ya'ni xalq maqol va matal, obrazli xalqona badiiy ifodalar (idioma va boshqalar)ning aynan o'zidek ishlatilishi asl oddiy folklorizmlar bo'lsa, ularning ijodkor tomonidan qaytadan o'zgartirishlarga uchrab, yangilanishi - qayta ishlangan oddiy folklorizmlarni tashkil etadi"<sup>3</sup>. Iste'dodli shoir Eshqobil Shukur ijodida oddiy folklorizmning har ikki turi faol uchraydi. Masalan, "Ruhning parvozi" she'rida "oy borib, omon qayt" frazeologik birligi "Qarining o'limi haqidagi xabardan so'ng" she'ridagi qariya tilidan aytilgan "imonini bersin" o'rta yosh inson tilidan aytilgan "yoshin yashab, oshin oshadi" birikmalari, "Ot aylanib..." misralari bilan boshlanuvchi she'rida

"*Ot aylanib qozig'ini topganda*" maqolining aynan qo'llanilishi, "Orol" she'ridagi sabr-toqati tugadi ma'nosini bildiruvchi "*ko'kayi kesildi*" va "Norboy aka marsiyasi"dagi eng yaxshi narsalarni tanlab kiygan, tanlab olgan ma'nosida xalq orasida mashhur bo'lgan "*sarinjini saylamoq*" frazalari **asl oddiy folklorizmlarning** betakror namunasi sifatida shoirning folklorizmlarni qo'llash mahoratini ko'rsatgan.

Eshqobil Shukur ijodida **qayta ishlangan oddiy folklorizmlar** ham salmoqli o'rin egallagan bo'lib, shoir she'rlarining g'oyaviy jihatini va badiiyatini, poetik maqsadini ochib berish uchun qo'llangan. Jumladan, xalqimizda "Tushingni suvga ayt" degan naql bor. Eshqobil Shukur bu naqlni "Ko'nglimni..."<sup>4</sup> misrasi bilan boshlanuvchi she'rida "Tushimni suvga aytdim" shaklida qo'llaydi:

...*Tushimni suvga aytdim.*

*Suvlar yondi-ya lov-lov.*

*Cho'g' tergalil tilimga*

*Qishlar qo'ndiya birrov...*

O'z o'rnini bilish ma'nosida qo'llanadigan "haddini bilmoq" iborasi ham shakli o'zgarishga uchragan holda "Xudbinlik"<sup>5</sup> she'rida 2-shaxsga qaratilgan buyruq shaklida "*haddingni bil*" tarzida ishlatilgan:

...*Deysiz: "Haddingni bil, har so'z xavflidir", - Faqat shu sizdagi bor bunyodkorlik...*

Shoirning yana bir "Bedil"<sup>6</sup> she'rida "oyog'i yerdan uzilgan" iborasi "*oyog'im yerdan uzilgan*" shakliga o'zgartirilgan bo'lib, qayta ishlangan oddiy folklorizmning na'munasidir:

*Ko'p bo'ldi oyog'im yerdan uzilgan...*

*Bir quloq yuqori yuraman sizdan*

*Qushday yalangoyoq, oy kabi yayov...*

Ko'rinadiki, ta'nalardan charchagan lirik qahramon ruhiyati kinoyaviy tarzda ochib berilgan.

Turmush tarzimizda "**Yaxshilik qil suvga sol, baliq bilur. Baliq bilmasa Xoliq bilur**" maqoliga ko'p bora duch kelganmiz. Eshqobil Shukurning "Abduxoliqning jaydari falsafiasi"<sup>7</sup> she'rida ushbu maqol qayta ishlangan ko'rinishda qo'llangan:

*Bilsa baliq, deding, bilmasa, xoliq,*

*Har kasga dil berding, ey Abduxoliq.*

<sup>2</sup> Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. - Б. 6.

<sup>3</sup> Мамаясупова С. Шукор Холмирзаев hikoyalarida folklorizmning o'rnini. Avtoreferat. Jizzax, 2024. 15-bet.

<sup>4</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 9.

<sup>5</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 25.

<sup>6</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 212.

<sup>7</sup> Эшқобил Шукур. Яшил кушлар. –Т., Ёзувчи, 1995. –Б. 295.

*Himmatini ko'rib, tentak dedilar,  
Mehringdan suv ichib, kaltak urdilar.*

She'rdan anglashiladiki, shoir yuqoridagi maqoldan ifodalangan holda barchadan yordamini ayamaydigan lirik qahramon *Abduxoliqning* ruhiyati va xarakterini ochib bergan.

Folklorizmlarning biz yuqorida ko'rib o'tgan oddiy turi bilan bir qatorda murakkab turi ham mavjud bo'lib, B.Sarimsoqov uni tabiati va vazifasiga qarab: a) analitik folklorizm; b) sintezlashgan folklorizm; v) stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar tarzida uch guruhga bo'ladi<sup>8</sup>.

Sintezlashgan folklorizmدا xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan ma'lum bir syujet ijodkor asariga singdirib yuboriladi. Sintez so'zining qo'shiluv, birikuv ma'nolarini bildirishi ham buning isbotidir. Masalan, shoirning "Go'ro'g'li"<sup>9</sup> she'rida "Go'ro'g'li" dostoni syujeti voqeligi ya'ni Go'ro'g'lining qabrda tug'ilishi tasviri orqali shoirlarga bo'lgan qarash ochib berilgan. "Qiz qo'shig'i"<sup>10</sup> she'rida esa xalqimizning sevimli "Yoriltosh" ertagiga ishora qililib, yoriltoshning qizning fig'onidan yorilish syujeti she'rga ko'chirilgan: *Yoriltoshlar yorildi,*

*Yorilmading sen.*

*Burum sochlar sorildi,*

*Burilmading sen...*

L.Sharipova stilizatsion folklorizmlar folklor janrlari (doston, ertak, afsona, rivoyat, qo'shiq, yig'i, yo'qlov, alla kabilar)ning asosiy motivlari va badiiy shaklini ifoda uslubini hamda ularga aloqador yuksak g'oyaviy motivlarni, an'anaviy epik obrazlarni, ko'tarinki ritmni ijodiy o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi, deya ta'kidlaydi va stilizatsion folklorizmlarni shu asosda to'rt turga bo'ladi: 1. Janr stilizatsiyasi. 2. Motiv stilizatsiyasi. 3. Obraz stilizatsiyasi. 4. Ritm stilizatsiyasi<sup>11</sup>.

Stilizatsiyaviy folklorizmlarda ayni takror emas, balki xalqona uslub, xalqona pafos ustuvorlik qiladi. Bu kabi usulda yaratilgan asarlar xalqona shaklni yodga solishi bilan xarakterlanadi. Stilizatsion folklorizmlar ijodkor mahoratini, uning xalq ijodi bilimdoni ekanligini belgilovchi muhim

vosita desak yanglishmagan bo'lamiz. Ijodkor xalq og'zaki ijodiga mansub janr, motiv, ohang yoki obrazni o'z usulida, yangicha ko'rinishda qayta yaratarkan u nafaqat yozma adabiyot rivojiga balki, og'zaki adabiyot umrboqiyiligiga ham o'z hissasini qo'shgan hisoblanadi.

Folklor janrlarini o'zlashtirib, ularni yozma adabiyotga olib kirish **janr stilizatsiyasi** hisoblanadi. Yozma adabiyotimizda dastlab doston, maqol, topishmoq, yo'qlov, yig'i, keyinchalik yor-yor, alla kabi folklor janrlari stilizatsiya qilingan. XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida, xususan, Eshqobil Shukur ijodida ham ana shu an'ananing davomini ko'ramiz. Shoirning "Mengim momoning yo'qlovi"<sup>12</sup> nomli she'rida motam marosimiga aloqador yig'i va yo'qlov xarakteri namoyon bo'ladi. Surgunga ketgan yaqinlari izidan Sibirga borgan momo o'sha yurtlarda joni-omonatini topshirayotib, o'z-o'ziga yo'qlov aytadi. Voqelik sitilizatsiyasi yuzaga kelgan.

**Xulosa.** Umuman olganda, Eshqobil Shukur folklorizmning turli shakllaridan unumli foydalangan holda o'z she'rlarining ta'sir doirasini, teran mazmun, samimiylik, jozibadorlik, poetik ohangini oshirgan. Shu bilan birga xalq urf-odatlarini, unutilayotgan an'analarni ham yozma adabiyotga mohirlik bilan ko'chiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шеърлятида фольклоризмлар. Автореферат. Т., 2008.
2. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типология-сига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. -1980. -№4.
3. Собиров О. Фольклор аъаналар ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. -1968. -№6.
4. Норматов У. Насримиз аъаналари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1968.
5. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.
6. Mamayusupova S. Shukur Xolmirzayev hikoyalari folklorizmning o'rni. Avtoreferat. Jizzax, 2024.
7. Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002.

<sup>8</sup> Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – 4-сон. – Б. 42-44

<sup>9</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 114.

<sup>10</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 73.

<sup>11</sup> Шарипова Л.Ф. XX асрнинг 70–80-йиллари ўзбек шеърлятида фольклоризмлар: Филол. фанлари номз. дисс. – Тошкент, 2008. – Б.88.

<sup>12</sup> Эшқобил Шукур. Яшил кушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. –Б. 37.